TAHOE

Avtomobildan foydalanish qo'llanmasi

FAQAT TAVSIYA ETILGAN NOETILLANGAN YONILG'INI MUQARRAR QO'LLANG!

Ushbu avtomobilning dvigateli avtomobil ishlanmalari sohasidagi so'ngi yutuqlar bilan muvofiqlikda loyihalashtirilgan va qurilgan.

Bu atrof-muhitni muhofaza qilishning tejamkor, texnik takomillashtirilgan va muvofiq modelidir.

Dvigatelni tegishli tarzda ishlashi uchun faqat noetillangan yuqori sifatli yonilg'ini qo'llash zarur.

“Avtomobilni haydash va boshqarish - Yonilg'i” bo'liminining 8-65-betlarini ko'ring. Yonilg'ining boshqa turlarini qo'llanilishi avtomobilning ekspluatatsion xarakteristikalarini yomonlashishiga olib kelishi va kafolatni bekor qilinish sababi bo'lib qolishi mumkin!

Ushbu qo'llanmada zikr etiluvchi nomlanishlar, logotiplar, firma belgilari, shiorlar, avtomobil modellarining nomlanishlari va avtomobil kuzovida joylashtiriluvchi naqshlar, jumladan GM nomlanishi, GM logotipi, CHEVROLET nomlanishi, CHEVROLET Truck, TAHOE va Z71 firma belgilari General Motors LLC kompaniyasi, uning sho'ba korxonalari, filiallari yoki litsenziarlarining ro'yxatdan o'tkazilgan savdo belgilari va (yoki) ular xizmat ko'rsatishi belgilari hisoblanadi.

Ushbu qo'llanmada ta'riflanuvchi ba'zi funksiyalar opsiyalar hisoblanadi va ular xaridor tomonidan buyurtma qilinmaganligi, alohida modifikatsiyalar yoki mintaqalar uchun ko'zda tutilmaganligi munosabati bilan, yoki qo'llanmani nashr qilishga topshirilganidan keyin avtomobilning konstruksiyasiga, uning standart yoki opsional asbob-uskunalariga o'zgartirishlar kiritilishi munosabati bilan mavjud bo'lmasligi mumkin.

Agar avtomobil Duramax dvigateli bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu dvigatel haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Duramax dizel dvigateli bo'yicha ilovada ko'ring.

Sizning avtomobilingizni jamlanmasi va u yoki bu funksiyalarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlarni uni xarid qilishda rasmiylashtirilgan hujjatlarda topish mumkin. Mazkur qo'llanmani undan zarurat tug'ilganda foydalanish imkoniga ega bo'lish uchun avtomobilning salonida saqlang.

Chevrolet avtomobilini xarid qilganingiz uchun Sizdan minnatdormiz.

MUNDARIJA

1. Kalitlar, eshiklar va oynalar 1-1
2. O'rindiqlar va himoya tizimlari 2-1
3. Buyumlarni saqlash uchun joylar 3-1
4. Boshqaruv asbob-uskunalari va organlari 4-1
5. Yoritish tizimi 5-1
6. Axborot-ko'ngilochar tizim 6-1
7. Iqlim-nazoratni boshqarish organlari 7-1
8. Avtomobilni haydash va boshqarish 8-1
9. Avtomobilni parvarishlash 9-1
10. Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish 10-1
11. Texnik ma'lumotlar 11-1
12. Mijoz haqida ma'lumot 12-1

Mazkur Qo'llanmadan qanday foydalaniladi

- **Mazkur qo'llanmada ushbu modelning barcha opsiyalari va asbob-uskunalari ta'riflangan. Turli mintaqalar uchun modifikatsiyalar va tayyorlanishlarning farqlanishi, hamda qo'shimcha asbob-uskunalar va aksessuarlar mavjud bo'lmasligi yoki mavjudligi sababli menyuning alohida elementlari va funksiyalarining tavsifi sizning avtomobilingizga nisbatan qo'llanilmasligi mumkin.**
- **Qo'llanmaning birinchi sahifasidagi va har bir bo'limlarning boshlanishidagi mundarijalar sizga qo'llanma qanday tuzilganligini tushunishga yordam berishi mumkin.**
- **Avtomobilning axborot tizimi displeylaridagi ma'lumotlar sizning ona tilingizda aks ettirilmasligi mumkin.**

Xavf-xatar, ogohlantirish va diqqat

Avtomobilning yopishtirma yorliqlarida va mazkur qo'llanmada mavjud bo'lgan ogohlantirishli xabarlar, xavf-xatarlarni va ushbu xavf-xatarlardan saqlanish yoki ularni susaytirish uchun nima qilish kerakligini tavsiflaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ushbu belgilanish oqibati avtomobil shikastlanishi bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning yuqori darajali holatlarini yuzaga kelishi ehtimoliga ko'rsatadi.

⚠ *XAVF-XATAR!*

Ushbu belgilanish, agar oqibati og'ir jarohat yetkazish yoki o'lim bo'lib qolishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning yuqori darajali holatlarini yuzaga kelish ehtimoli bor bo'lsa, qo'llaniladi. Ushbu ma'lumotni e'tiborga olmaslik hayot uchun tahdidning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Ushbu belgilanish oqibati og'ir mayiblik bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning yuqori darajali holatlarini yuzaga kelishi ehtimoliga ko'rsatadi. Ushbu ma'lumotni e'tiborga olmaslik jiddiy jarohatlar olishga olib kelishi mumkin.

Diagonal bo'ylab ustidan chizilgan aylana ko'rinishidagi belgi xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishga chaqirish hisoblanadi va quyidagilarni anglatadi:
"Hech qanday holatda...", "Taqiqlanadi" yoki ".... uchun yo'l qo'yilmaydi".

Shartli belgilar

Avtomobilning ba'zi komponentlari va ularda o'rnatilgan jadvalchalar matnli xabarlar o'rniga shartli belgilarga ega bo'ladi. Quyida keltirilgan belgilar ta'sir tamoyilini tavsiflovchi yoki muayyan komponentlarga, tizimlarga/boshqaruv organlariga, xabarlarga, uskunalarga yoki indikatorlarga taalluqli bo'lgan matnli ma'lumotlarni to'ldiradi.

: ushbu belgi avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq ma'lumotlar yoki yo'l-yo'riqlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

: ushbu belgi avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha Qo'llanmada saqlanuvchi muvofiq ma'lumotlar yoki yo'l-yo'riqlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

: ushbu belgi boshqa sahifada saqlanuvchi ancha batafsil ma'lumotlar bilan tanishib chiqish zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

Avtomobilda qo'llaniluvchi shartli belgilar

Quyida avtomobilda qo'llaniluvchi shartli belgilar tasviri va ularning ma'nosi keltiriladi. Avtomobilning tizimlari haqida ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun mazkur Qo'llanmaning muvofiq bo'limlarini ko'ring.

: Havoni sovitish tizimi
: Havoni sovitish tizimidagi sovitish agenti
: Xavfsizlik yostig`i tizimining ogohlantiruvchi chirog`i
: Aksilblokirovka tizimi (ABS)
: Tormoz tizimidagi ogohlantiruvchi chiroq
: Ishlatilgan qismlarni tegishlicha utilizatsiyalash
: Yuqori bosimli suv oqimi ta`siriga tushirmang.
: Dvigatelni sovitish suyuqligining harorati
: Ochiq olovdan foydalanmang!
: Yong'inga xavfli
: Ehtimoliy ro'paradan to'qnashuvning
: Saqlagichlar bloki qopqog`i qulfining joylashuvi
: Saqlagichlar
: ISOFIX/LATCH Bolalar o'rindiqlarini mahkamlash tizimi
: Saqlagichlar bloki qopqoqlarini mahkam yoping.
: Lane Change Alert (saflanish chog`ida ko'maklashish yordam tizimi)
: Egallab turgan polosadan bexosdan chiqish to'g`risida ogohlantirish tizimi
: Egallab turgan polosadan chiqish to'g`risida ogohlantirish tizimi
: Nosozlikning nazorat lampasi («Dvigatelni tekshiring» nazorat lampasi)
: Motor yog`ining bosimi
: Parkovka chog`ida yordam tizimi
: Oldinda piyoda borligini aniqlovchi indikator
: Quvvat ta'minoti
: Ort tarafda ko'ndalang yo'nalishda harakatlanayotgan ob`ektlar to'g`risida ogohlantirish tizimi
: Vakolatlangan texnikaviy mutaxassis
: Dvigatelni masofadan ishga tushirish
: «Kamarni bog'lang» ogohlantiruvchi chirog`i
: Ko'rinmaydigan zonalarni nazorat qilish tizimi
: Dvigatelni avtomatik to'xtatish / avtomatik ishga tushirish tizimi
: Shinalardagi havo bosimining monitori
: Aksilcharx tizimi/StabiliTrak tizimi/ kurs barqarorligini saqlash tizimi (ESC)
: Yuqori bosim
: Oldinda avtomobil borligini aniqlovchi indikator

Yoqilg`i

Avtomobilni oktan soni kamida 95 dan kam bo'lmagan yuqori sifatli etillanmangan benzin bilan to'ldiring. Avtomobil shikastlanishini yoki yoqilg`ining ortiqcha sarfini oldini olish uchun oktan soni quyida ko'rsatilgandan past bo'lgan benzindan foydalanmang. «Yoqilg'i» 8-65 bo'limiga qarang.

1 KALITLAR, ESHIKLAR VA OYNALAR

- KALITLAR VA QULFLAR 1-2
- ESHIKLAR 1-13
- AVTOMOBILNI HIMOYALASH 1-22
- TASHQI TOSHOYNALAR 1-24
- ICHKI TOSHOYNALAR 1-26
- OYNALAR 1-27
- TOM 1-29

KALITLAR VA QULFLAR

Kalitlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobilga bolalar joylashtirilgan bo'lsa, uning salonida radiobrelokni qoldirib ketmang. Bu bolalarni o'zini qanday bo'lsa, boshqa odamlarni ham xuddi shunday jarohatlashi yoki o'limga olib kelishi mumkin. Bola elektr oyna ko'targichni, boshqaruvni boshqa organlarini yoki hatto avtomobilni o'zini harakatga keltirib yuborishi mumkin.
Masofadan boshqarish tizimi radiobrelogi avtomobil saloniga joylashtirilganida, oyna ko'targichlarga quvvat uzatib turiladi, bu esa ko'tarilayotgan oyna bilan bolalarning yoki atrofdagilarning oyoq-qo'llarini qisilib qolishiga olib kelishi mumkin. Bolalarni avtomobil salonida radiobrelok bilan birgalikda qarovsiz qoldirib ketmang.

Radiobrelokka o'rnatilgan mexanik kalit haydovchining eshigini va qo'lqop qutisini ochadi.
Mexanik kalitni chiqarib olish uchun, brelokning pastki qismida yon tomondagi tugmaga bosing va kalitni tashqariga sug'urib oling. Ushbu tugmani bosmasdan, mexanik kalitni hech qachon sug'urib olmang.
Mexanik kalit shtrix-kodli yorliqqa ega bo'lishi mumkin, u bo'yicha diler yoki malakali chilangar yangi kalitni tayyorlab berishi mumkin. Yorliqni avtomobildan tashqarida xavfsiz joyda saqlang. Agar kalit almashtirilishi yoki qo'shimcha kalit talab etilib qolsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Agar kalit yomon buralishni boshlagan bo'lsa, kalit tilida metallning zarralari yo'qligini ko'ring. Uni cho'tka yoki o'tkir buyum yordamida muntazam tozalab turing.
Agar avtomobil o'rindiqlarni holatini sozlamalarni saqlash funksiyali o'rindiqlar bilan jihozlangan bo'lsa, 1 va 2 xotira uyachalarining tugmalari ostida saqlangan sozlamalar muvofiq tarzda 1 va 2 radiobreloklarga bog'lanadi. O'rindiqlar holatini eslab qolish ⇨ 2-5ni ko'ring.

Masofadan boshqarish qurilmasi

Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish radiobrelogini biron bir o'zgartirishlarga yoki takomillashtirishlarga uchratmang. Takomillashtirilgan asbob-uskunalarni qo'llash taqiqlanadi.
Radiobrelokni ta'sir oralig'i kamayishida:

- Masofani tekshiring. Ehtimol, radiobrelok avtomobildan juda uzoqda joylashgandir.
- Avtomobil joylashishini tekshiring. Boshqa avtomobillar yoki obyektlar signalni bloklashi mumkin.
- Radiobrelokni batareykasini tekshiring. "Batareykalarni almashtirish" paragrafini quyida ushbu bo'limda ko'ring.
- Agar radiobrelok baribir noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, o'z dileringizga yoki shahodatlangan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimining ishlashi

Kalitsiz kirish tizimi, agar radiobrelok 1 m (3 fut) uzoqlikda joylashgan bo'lsa, avtomobil eshiklarni qulfdan yechishga imkon beradi.

Quyida "Eshiklarni qulflarini masofadan boshqarish tizimi ishlashi" paragrafini ko'ring.

Radiobrelok avtomobildan 60 m (197 fut) uzoqlikda faoliyat yuritadi.

Radiobrelokning ishiga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimi (kalitsiz kirish) ⇨ 1-2 bo'limni ko'ring.

: Barcha eshiklarni qulflarini bloklab qo'yish uchun bosing.

Agar bu funksiya yoqilgan bo'lsa, burilish ko'rsatkichlari qulflash bajarilganligini tasdiqlab, ikkinchi marta bosishda bir marta miltillaydi. Agar ushbu funksiya yoqilgan bo'lsa, klakson uch sekund chegarasida takroran bosishda gudok uzatadi. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

ni bosishda olib qochishga qarshi tizim faollashadi. Avtomobil signalizatsiyasi ⇨ 1-22 bo'limni ko'ring.

Agar avtomobil jamlanmasi bilan orqani ko'rish tashqi toshoynalarni avtomatik taxlash ko'zda tutilgan bo'lsa, tugmani bosishda va uni ushlab turishda toshoynalar bir sekund davomida taxlanadi (agar muvofiq opsiya sozlamalarga kiritilgan bo'lsa). Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang

: Faqat haydovchining eshigini ochish uchun bir marta bosing. Agar uch sekund davomida tugma yani bir marta bosilsa, qolgan barcha eshiklarning ochilishi sodir bo'ladi. Bunda, ichki yoritish yoqilishi mumkin, u 20 sekund davomida yoki o't oldirish yoqilgunga qadar yonib turadi.

Agar bu opsiya yoqilgan bo'lsa, burilish ko'rsatkichlari ochish bajarilganligini tasdiqlab, ikki marta miltillaydi. Agar bu opsiya yoqilgan bo'lsa, tashqi yoritish uskunalari yoqilishi mumkin.Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Radiobrelokning tugmasiga bir marta bosishda olib qochishga qarshi tizim faolsizlantiriladi. Avtomobil signalizatsiyasi ⇨ 1-22 bo'limni ko'ring.

Agar avtomobil jamlanmasi bilan orqani ko'rish tashqi toshoynalarni avtomatik taxlash ko'zda tutilgan bo'lsa, tugmani bosishda va uni ushlab turishda toshoynalar bir sekund davomida taxlanadi (agar muvofiq opsiya sozlamalarga kiritilgan bo'lsa).

Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang

Agar oynalarni masofadan boshqarish yoqilgan bo'lsa, toki oynalar to'liq ochilmagunicha, ni bosing va ushlab turing. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

: Yuk bo'linmasini eshiklarini ochish yoki yopish uchun ikki marta bosing.

Orqa ko'tarma eshik harakatlanishini to'xtatish uchun bir marta bosing.

: Yuk bo'linmasini eshigini oynasini ochish uchun ikki marta bosing.

: Avtomobilning joylashish joyini aniqlash uchun bosing va ushlab turing.

Bunda uch marta burilish signallari miltillaydi, va uch marta ovozli signal uzatiladi. Trevoga signalini yoqish uchun uch sekunddan ortiq vaqtga tugmani bosing va ushlab turing.

Bunda, burilish ko'rsatkichlari miltillaydi va 30 sekund davomiylikda qaytariluvchi ovozli signal uzatiladi. Kalit yoqilgan holatga o'tkazilishida yoki tugmaga takroran bosilishida, trevoga signali o'chiriladi. Trevoga signalini o'chirish uchun o't oldirishni o'chirish zarur bo'ladi.

: Avtomobilni masofadan ishga tushirish uchun avtomobilni tashqarisida joylashgan holda radiobrelokda ni ikki marta bosing.

Agar avtomobil ichkarisida radiobrelok joylashgan bo'lsa, uni ishga tushirish imkoniyati bo'lmaydi. Avtomobilni masofadan ishga tushirish ⇨ 1-10 bo'limni ko'ring.

Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimining ishlashi

Kalitsiz kirish tizimi radiobrelokni cho'ntakdan, kartmondan, portfeldan va hokazolardan chiqarmasdan salon eshiklarini va yuk bo'linmasining eshigini qulflanish va qulfdan yechilishi imkonini beradi. Radiobrelok yuk bo'linmasi yoki salonning ochiluvchi eshigidan 1 m (3 fut) radiusda joylashgan bo'lishi kerak.

Agar avtomobil shunday tizim bilan jihozlangan bo'lsa, u holda eshiklarning tashqi tutqichlarida maxsus tugmalar mavjud.

Kalitsiz kirish tizimi haydovchi eshigidagi qulfdan yechish/qulflash tugmasiga birinchi bosishda barcha eshiklarni qulfdan yechish uchun shunday tarzda dasturlash mumkin.

Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Agar avtomobil o'rindiqlarni holatini sozlamalarni saqlash funksiyali o'rindiqlar bilan jihozlangan bo'lsa, 1 va 2 xotira uyachalarining tugmalari ostida saqlangan sozlamalar muvofiq tarzda 1 va 2 radiobreloklarga bog'lanadi. O'rindiqlar holatini eslab qolish ⇨ 2-5ni ko'ring.

Haydovchi eshiklarini kalitsiz qulfdan yechish/qulflash

Eshiklar qulflangan va masofadan boshqarish radiobrelogi haydovchi eshigining tutqichidan 1 metrgacha (3 futgacha) masofada joylashgan vaqtda, ushbu eshik tutqichdagi qulflash/qulfdan yechish tugmasini bosish bilan qulfdan yechiladi.Agar qulfdan yechish/qulflash tugmasini kechiktirmasdan kamida besh sekunddan keyin bosilsa, salonning barcha eshiklari va yuk bo'linmasining eshigi qulfdan yechiladi.



Haydovchi tomon ko'rsatilgan, yo'lovchi tomoni - xuddi shunday

Qulflash/qulfdan yechish tugmasiga bosish barcha eshiklarning qulflanishiga olib keladi, agar quyidagi hech bo'lmaganda bir shart bajarilgan bo'lsa:

- Qulflash/qulfdan yechish tugmasiga birinchi bosishdan keyin besh sekunddan ortiq vaqt o'tgan.
- Barcha eshiklarni qulfdan yechish uchun qulflash/qulfdan yechish tugmasiga ikki marta bosish amalga oshirilgan.
- Avtomobilning eshiklaridan biron biri ochilgan, endi esa barcha eshiklar yopilgan.

Yo'lovchilarning eshiklarini kalitsiz qulfdan yechish/qulflash

Eshiklar qulflangan va radiobrelok yo'lovchi eshigini tutqichidan 1 metr (3 fut)gacha uzoqlikda joylashganida, ushbu eshikdagi tutqichda qulflash/qulfdan yechish tugmasiga bosishda barcha eshiklar ochiladi. Qulflash/qulfdan yechish tugmasiga bosish barcha eshiklarni qulflanishiga olib keladi, agar quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda biri bajarilgan bo'lsa:

- Qulflash/qulfdan yechish tugmasi yordamida barcha eshiklarini qulfdan yechilishi bajarilgan.
- Avtomobilning eshiklarini biron biri ochilgan, endi esa barcha eshiklar yopilgan.

Kalitsiz yon tomon va orqa ko'tarma eshikning qulflarini blokdan chiqarish imkoniyatini yoqish va o'chirish

Agar avtomobil kalitsiz yon tomon eshiklarini va orqa ko'tarma eshikning qulflarini blokdan chiqarish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu funksiyani shaxsiy istak bo'yicha o'chirish yoki yoqish mumkin.

Kalitsiz qulflarni blokdan chiqarish funksiyasini o'chirish:

O't oldirishni o'chiring, masofadan O't oldirishni o'chiring, masofadan boshqarish radiobrelogida va tugmasini bir vaqtda bosing va ularni taxminan uch sekund ushlab turing. Burilish ko'rsatkichlari kirish taqiqlanganligiga ko'rsatib, uchta qisqa signallarni uzatadi. Yon tomon eshiklarining yoki orqa ko'tarma eshikning qulflarini blokdan chiqarish uchun istalgan eshikning tashqi tutqichini qo'llashda burilish ko'rsatkichlari kirish taqiqlanganligiga ko'rsatib, to'rtta qisqa signallar uzatadi. Agar ushbu funksiya o'chirilgan bo'lsa, o't oldirishni yoqishdan avval, signalizatsiyani qo'riqlashdan yeching.

Kalitsiz qulflarni blokdan chiqarish funksiyasini yoqish:

O't oldirishni o'chiring, masofadan boshqarish radiobrelogida va tugmalariga bir vaqtda bosing va ularni taxminan uch sekund davomida ushlab turing.

Burilish ko'rsatkichlari kirish ruxsat etilganligiga ko'rsatib, ikki qisqa signalni uzatadi. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Passiv qulflash

Kalitsiz kirish funksiyasi barcha eshiklarni yopishdan keyin, agar bunda o't oldirish o'chirilgan va kamida bitta brelok avtomobil salonidan olib qo'yilgan yoki salonda bironta ham radiobrelok qolmagan holatda, bir necha sekund o'tib avtomobilni avtomatik qulflaydi.

Agar begona elektron qurilmalar radiobrelokni signaliga xalallarni yuzaga chiqarayotgan bo'lsa, avtomobil salonda joylashgan radiobrelokni aniqlamasligi mumkin.
Ushbu holatda, agar passiv qulfdan yechish yoqilgan bo'lsa, radiobrelok salonga joylashtirilgan vaqtda eshiklar qulflanib qolishi mumkin. Masofadan boshqarish radiobrelogini avtomobil salonida qarovsiz qoldirmang.
Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.
Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Qulflarni passiv bloklash funksiyasini vaqtinchalik o'chirilishi

Qulflarni passiv bloklash funksiyasini vaqtinchalik o'chirish uchun, eshik ochiqligida eshikda o'chirgichlar blokida klavishasini bosish zarur, uni kamida to'rt sekund davomida yoki toki zummerning uch martalik signali chalinmagunicha ushlab turish kerak.
Qulflarni passiv bloklash funksiyasi eshik qoplamasining panelida eshikda o'chirgichlar blokida klavisha bosilmagunicha yoki toki o't oldirish yoqilmagunicha o'chirilgan holatda qoladi.

Avtomobil salonida unutib qoldirilgan radiobrelok haqida ogohlantirish

O'chirilgan avtomobilning salonida unutib qoldirilgan radiobrelok haqida uch martalik ovozli signal xabardor qiladi, u barcha eshiklar yopilishida uzatiladi. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.
Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

"Masofadan boshqarish brelogi avtomobildan olib qo'yilgan" ogohlantirishi

Agar avtomobil ishga tushirilgan va avtomobil eshigi ochilgan bo'lsa, barcha eshiklar esa yopilayotgan bo'lsa, tizim salonda radiobrelokni izlashini avtomatik bajaradi. Agar radiobrelok aniqlanmagan bo'lsa, haydovchining axborot markazining displeyida MASOFADAN BOSHQARISH KALITI ANIQLANMADI xabari paydo bo'ladi va klaksonning uch karralik signali jaranglaydi. Avtomobilni har ishga tushirishda bunday ogohlantirish faqat bir marta uzatiladi. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.
Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Orqa ko'tarma eshikni masofadan ochish

Barcha eshiklar qulfdan yechilgan yoki radiobrelok 1 m (3 fut) radiusda joylashgan vaqtda yuk bo'linmasining eshigini ochish uchun, yuk bo'linmasining eshigini tutqichini pastki tomonidan panelga bosing.
Yuk bo'linmasining eshigini oynasini masofadan ochish Barcha eshiklar qulfdan yechilishida yoki radiobrelok 1 m (3 fut) radiusda joylashgan vaqtda, yuk bo'linmasi eshigini oynasini tashqi tugmasiga bosing.
Orqa ko'tarma eshik ⇨1-13 bo'limni ko'ring.

Kalit yordamida kirish

Radiobrelogdagi batareykaning quvvatsizlanishi holatida avtomobilga kirish haqida ma'lumotlarni Eshiklarning qulflari ⇨ 1-10 bo'limda ko'ring.

Masofadan boshqarish radiobrelogini dasturlash

Avtomobil bilan faqat uning uchun maxsus dasturlangan radiobreloklar ishlaydi. Radiobrelok yo'qotilishi yoki o'g'irlanishi holatida siz o'z dileringizda boshqa radiobrelokni xarid qilishingiz va uni dasturlatishingiz mumkin. Radiobrelok tizimga

yozilganidan keyin, barcha qolgan breloklarni ham qayta dasturlatish zarur bo'ladi. Yangi radiobrelokni dasturlatishdan keyin barcha yo'qotilgan yoki o'g'irlangan radiobreloklar ishlashdan to'xtaydi. Har bir avtomobilda sakkiztagacha radiobreloklarni o'rnatish mumkin.Radiobreloklarni dasturlash uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Radiobrelokdagi batareyka quvvatsizlanganida avtomobilni ishga tushirish

E'tibor bering, xavfsizlikni oshirish maqsadlarida masofadan boshqarish radiobrelogi harakat datchigi bilan jihozlangan.

Avtomobilni ishga tushirishda, agar radiobrelokdan uzoq vaqt foydalanilmagan bo'lsa, haydovchining axborot markazida KEY IN SLEEP MODE, MOVE KEY, THEN START (KALIT UYQU REJIMIDA, KALITNI O'ZGARTIRING VA ISHGA TUSHIRISHNI TAKRORLANG) xabari paydo bo'lishi mumkin.

Radiobrelokni ozgina siljiting va ishga tushirish urinishini takrorlang.

Agar radiobrelok batareykasi quvvatsizlangan yoki radiosignal uchun xalallar mavjud bo'lsa, avtomobilni ishga tushirishda haydovchining axborot markazida NO KEY FOUND, REPLACE BATTERY IN KEY (KALIT TOPILMADI, KALITNI BATAREYKASINI ALMASHTIRING) yoki NO REMOTE KEY WAS DETECTED PLACE KEY IN KEY POCKET THEN START YOUR VEHICLE (MASOFADAN BOSHQARISH RADIOBRELOGI ANIQLANMADI, RADIOBRELOKNI BO'LMAGA SOLING VA AVTOMOBILNI ISHGA TUSHIRING) xabarlari paydo bo'lishi mumkin.

Dvigatelni ishga tushirish uchun:



Ajratilmaydigan o'rindiq bilan

Ajratilmaydigan o'rindiqsiz

1.Radiobrelokni unga mo'ljallangan cho'ntakka solib qo'ying.

2. UO'Q pishangisini P (to'xtab turish) yoki N (neytral uzatma) holatga o'tkzib, tormoz tepkisini bosing va ENGINE START/STOP (DVIGATEL STOP-STARTI)ni bosing. Masofadan boshqarish radiobrelogini batareykasini iloji boricha tezroq almashtiring.

Batareyani almashtirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bolalarga radiobrelok bilan ishlashga ruxsat bermang. Radiobrelok kichkina oziqlantirish elementini saqlaydi, u nafas olish yo'llariga tushib qolishi mumkin. Yutib yuborish ichki a'zolarning kuyishini chaqirishi, u jiddiy jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Oziqlantirish elementini yutib yuborish holatida tibbiy yordam uchun zudlik bilan murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Jarohat olishdan saqlanish maqsadida, agar radiobrelok yuqori harorat ta'sirlariga uchratilgan bo'lsa, uning metall yuzalariga teginmang. Ushbu yuzalar 59 °C (138 °F)dan yuqori haroratlarda issiq bo'lib tuyulishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Batareykani almashtirishda radiobrelokni elektron sxemasiga teginmang. Sizning tanangizdan statik quvvat radiobrelokni shikastlashi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Oziqlantirishni almashtiriluvchi elementlari albatta tegishli turga ega bo'lishi kerak.
Tegishli turga ega bo'lmagan oziqlantirishni almashtiriluvchi elementlari oziqlantirish elementining portlashini potensial xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Ishlatilgan oziqlantirish elementlarini yo'riqnomalar va mahalliy qonunchilikka muvofiq utilizatsiya qiling. Ishlatilgan oziqlantirish elementlarini yoqish, ezish yoki bo'laklashga urinish, hamda oziqlantirish elementlarini havoning juda past bosimlari yoki yuqori harorat bilan tashqi sharoitlarning ta'siriga uchratish taqiqlanadi.

⚠ *DIQQAT!*

Masofadan boshqarish qurilmasi noto'g'ri yig'ilgan bo'lsa, uning ichiga namlik kirishi va tizimga zarar etkazishi mumkin, natijada masofadan boshqarish qurilmasining xususiyatlari buzilishi va/yoki nosozligiga olib kelishi mumkin. Shikastlanishning oldini olish, Masofadan boshqarish qurilmasining korpusi har ochilganda to'g'ri germetiklikni ta'minlash uchun, Masofadan boshqarish qurilmasini yig'ish bo'yicha mazkur qo'llanmadagi keltirilgan ko'rsatmalariga qat'iy ravishda rioya qiling

Agar haydovchining axborot markazida MASOFAVIY KALITNING BATAREYKASINI ALMASHTIRING xabari aks ettirilayotgan bo'lsa, radiobrelokdagi batareykani almashtiring.
Batareykani almashtirish uchun:

1. Radiobrelokning yon tomonidagi tugmaga bosib, mexanik kalitni sug'urib oling.
Ushbu tugmaga bosmasdan, mexanik kalitni hech qachon sug'urib olmang.



2. Mexanik kalitni sug'urib olib, ingichka yassi buyumni radiobrelokning o'rtasiga joylashtiring va orqa qopqoqni ajratib oling va yeching.



3. Yassi instrument bilan batareykani ilib oling.
4. Batareykani chiqarib oling. Metall buyumdan foydalanmang.
5.Yangi batareykani orqa qopqoqga musbat qutbni qaratib o'rnating. Almashtirish uchun CR2450 batareyasini youi unga o'xshashini qo'llang.
6. Qoplamani batareya bo'linmasining perimetri bo'ylab bo'shliqqa joylang.
7. Masofadan radio boshqarish qurilmaning batareya bo'limi qopqog'ini bosish tugmasi bilan joyga o'rnating.
8. Mexanik kalitni joyiga o'rnating.

Avtomobilni masofadan ishga tushirish

Agar avtomobil masofadan ishga tushirish funksiyasiga ega bo'lsa, iqlim-nazorat tizimi atrof-muhitning haroratini hisobga olgan holda dvigatelni masofadan ishga tushirilishida yoqiladi.
Bunda, shuningdek, orqa oyna va o'rindiqning isitgichlari yoqilishi mumkin. agar ushbu funksiyalar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa. Isitiluvchi oldingi o'rindiqlar ⇨ 2-8. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang

Ba'zi mintaqalarda dvigatelni masofadan ishga tushirish qurilmalarining qo'llanilishi qonun bilan chegaralangan bo'lishi mumkin.
Avtomobilni masofadan ishga tushirish bo'yicha mahalliy qoidalarning talablarini tekshiring.
Dvigatelni masofadan ishga tushirishdan, agar yonilg'i kam bo'lsa, foydalanmang. Avtomobilda yonilg'i tugab qolishi mumkin. Avtomobilni masofadan ishga tushirish imkonsiz bo'ladi, agar:
- Masofadan boshqarish radiobrelogi avtomobil salonida joylashgan.
- Kapot yopilmagan.
- Chiqindi gazlarni pasaytirish tizimida nosozlik mavjud va nosozlik indikatori yonib tursa.
- Avariya yorug'lik signalizatsiyasi yoqilgan.
- Dvigatel ishlashini 30 minutdagi limiti sarflab
- Avtomobilda uzatmalar qutisini P (To'xtab turish) rejimi yoqilmagan.
- Avtomobil dvigateli yoqilmagan.

Masofadan ishga tushirilgan dvigatel quyidagi holatlarda o'chadi:
- Sovituvchi suyuqlikning ruxsat etilgan haroratini oshirib yuborishda.
- Moyning bosimi pastligida.

Ishlab turgan dvigatelda radiobrelok signalining ta'sir msofasi qisqarishi mumkin.

Radiobrelokning ishiga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin.Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimi (kalitsiz kirish) ⇨ 1-2. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.
Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Dvigatelni masofadan ishga tushirish

1. Radiobrelokda (x2) ni ikki marta bosing. Burilish ko'rsatkichlari miltillaydi. Burilish ko'rsatkichlarining miltillashi masofadan ishga tushirish so'rovi qabul qilinganligini tasdiqlaydi. Masofadan ishga tushirish rejimida to'xtab turish chiroqlari dvigatelning ishlab turish vaqtida butun vaqt davomida yonib turadi.
2. Agar siz masofadan ishga tushirish rejimini oldinroq to'xtatmasangiz yoki avtomobilni yoqmasangiz, dvigatel 15 minut o'tib yoki 30 minutda ishlash vaqtini umumiy limitini sarflab bo'lganingizdan keyin o'chadi.
3. Harakatlanishni boshlash uchun, tormoz tepkisiga bosing va o't oldirishni yoqing.

Dvigatel ishlashini umumiy vaqti

Masofadan ishga tushirish rejimini dvigatel ishlashini umumiy vaqtiga 30 minutga limit ishlatilguniga qadar qo'llash mumkin. 15 minutdan ikki masofadan ishga tushirish yoki jami 30 minut davomiylikda bir nechta ancha qisqa masofadan ishga tushirishdan keyin avtomobilni ishga tushirish va so'ngra masofadan ishga tushirishni qayta qo'llash mumkin bo'lishi uchun o'chirish zarur bo'ladi.

Dvigatelni masofadan ishga tushirish tartib-tamoyilini to'xtatish
Dvigatelni masofadan ishga tushirish tartib-tamoyilini to'xtatish uchun, quyidagi harakatlardan biron birini bajaring:
- Toki to'xtab turish chiroqlari o'chmagunicha, (x2) tugmasini bosmang va ushlab turmang.
- Avariya yorug'lik signalizatsiyasini yoqing
- O't oldirishni yoqing yoki o'chiring.

Eshiklarning qulflari

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yopilmagan eshiklar xavf solishi mumkin.
- Yo'lovchilar, ayniqsa bolalar, eshikni oson ochishlari va yurib ketayotganda avtomobildan tushib ketishlari mumkin. Eshiklarni yurib ketayotgan paytda qulfdan yechish va ochish mumkin. Agar eshik bloklangan bo'lsa, u holda avariya vaqtida avtomobildan uchib chiqib ketish imkoni ortadi. Shunday qilib, yo'lovchilar xavfsizlik kamarlari bilan tegishli tarzda taqib qo'yilgan, eshiklar esa avtomobil harakatlanishi vaqtida doimo bloklangan bo'lishi kerak.
- Eshiklari bloklanmagan avtomobilga o'tirgan bolalar uning ichidan chiqolmasliklari holati ro'y berishi mumkin. Bola ortiqcha qizib ketishi mumkin, bu issiqlik urishidan surunkali asoratli shikastlanishlarni yoki hattoki o'limni chaqirishi mumkin. Avtomobildan chiqqanda har doim uni qulflab qo'ying.
- Begonalar siz tezlikni pasaytirganingizda yoki to'xtagan vaqtingizda qulflanmagan eshiklar orqali ichkariga oson kirishlari mumkin. Eshiklarni bloklash buni oldini olishga yordam berishi mumkin.

Eshiklarni avtomobil tashqarisidan qulflash va qulfdan yechish:
- Radiobrelokda yoki ni bosing. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨1-3 bo'limini ko'ring.
- Haydovchi eshigidagi qulfni mexanik kalit bilan qulflang.

Eshiklarni avtomobil ichkarisidan qulflash va qulfdan yechish:
- Eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida yoki ni bosing.
- Agar eshikning ichki tutqichi tortilsa, eshik ochiladi. Agar tutqichdan yana bir marta tortilsa, eshikning lo'kidoni ochiladi.

Kalitsiz kirish



Masofadan boshqarish radiobrelogi salonning yoki yuk bo'linmasining qulfdan yechiluvchi yoki qulflanuvchi eshigidan 1 m (3 fut)dan ortiq bo'lmagan masofada joylashgan bo'lishi kerak.
Eshikni ochish uchun eshik tutqichini tugmasiga bosing. Qulflarni masofadan boshqarish tizimi ishlashi ⇨ 1-3 bo'limning "Eshiklarning qulflarini masofadan boshqarish tizimi ishlashi" paragrafini ko'ring.

Qulf silindrining erkin aylanishi

Agar qulfga mos kelmaydigan kalit tiqilsa yoki mos keluvchi kalit to'liq tiqilmagan bo'lsa, silindr qulfga hech qanday ta'sirni ko'rsatmasdan erkin aylanadi. Bu qulfni ruxsat etilmagan ochishdan himoyalashga imkon beradi. Qulf qayta ishlashni boshlashi uchun, kalitning tig'ini tiralgunicha o'rnatib, mos keluvchi kalit yordamida silindirni vertikal holatga burang.
Kalitni chiqarib oling va uni qayta tiqing. Agar bu qulfning ishlash layoqatligini tiklashda yordam bermagan bo'lsa, kalitni yarim aylanishga buring va yuqorida tavsiflangan harakatlarni takrorlang.

Eshiklarni qulflarini elektr bloklash

Masofadan boshqarish radiobrelogida yoki ga bosing. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishlashi ⇨ 1-3 bo'limni ko'ring.

:Eshiklarni qulflash uchun bosing. Qulflashda klavishaga joylashtirilgan indikator yonadi.
:Eshiklarni ochish uchun bosing.

Olib qochishga qarshi tizim holati indikatori



Haydovchi eshigini panelining tepa yuzasidagi chiroqli indikator avtomobilning olib qochishga qarshi tizimini holatini ko'rsatadi.

Ushbu indikator o't oldirish yoqiqligida yonmaydi, eshiklarni qulflashda qisqa muddatli yoqilish bundan mustasno.

Doimo yonib turibdi: Eshiklar yopilgan, olib qochishga qarshi tizim yoqilgan.

Tez-tez miltillash: Eshiklar ochiq, olib qochishga qarshi tizim yoqilgan.

Sekin miltillash: Olib qochishga qarshi tizim yoqilgan, AKB tejamkorligini rejimi.

Yonmaydi: Olib qochishga qarshi tizim o'chirilgan.

Eshiklarni kechikish bilan bloklash

Ushbu funksiya barcha eshiklarni yopishdan keyin besh sekundgacha vaqtga bloklashni kechiktirish uchun xizmat qiladi.

Ochiq eshikda eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida ga bosishda uch marta zummerning signali uzatiladi, u bloklashni kechiktirish funksiyasi faollashtirilganligiga ko'rsatadi.

Eshiklar barcha eshiklar yopilishidan keyin besh sekund o'tib avtomatik bloklanadi. Agar ushbu vaqt davomida eshiklardan biron biri ochilsa, beshsekundli taymer barcha eshiklar yopilishidan keyin noldan ishga tushiriladi.

Kechiktirishsiz eshiklarni qulflash uchun, eshikdagi o'chirgichlar blokida ni yoki radiobrelokda ni yana bir marta bosing.

Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Power Door Locks" ("Eshiklar qulflarining elektr qulflanishi")ni tanlang

Avtomatik qulflash

Barcha eshiklar yopilgan, o't oldirish yoqilgan va UO'Q pishangisi P (to'xtab turish) holatdan chiqarilgan vaqtda, eshiklar avtomatik qulflanadi. Agar eshiklardan biron biri qulfdan yechilsa, so'ngra esa uni ochilsa va yopilsa, eshiklarning qulflari tormoz tepkisidan oyoq olinganida yoki avtomobil harakatlanish tezligi 13 km/soat (8 mil/soat)dan oshirilganida, avtomatik qulflanadi.

Eshiklarni blokdan chiqarish uchun:

- Eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida ni bosing.
- UO'Qni "P" (to'xtab turish) holatiga o'tkazing.

Eshiklarning avtomatik qulflanishini o'chirish imkoni yo'q. Eshiklarning avtomatik qulfdan yechilishini dasturlash mumkin. Ushbu funksiyani sozlashning erishimli variantlarini ko'zdan kechirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimning bosh sahifasida "Sozlamalar" belgisiga bosing. Displeyga erishimli variantlar ro'yxatini chiqarish uchun "Avtomobil"ni tanlang va "Elektr yuritmali eshiklarning qulflari"ni tanlang.

Bloklanganlikni himoyalash

Agar haydovchining eshigi ochiqligida va avtomobilning o't oldirilishi yoqiqligida yoki ACC/ACCESSORY holatga joylashtirilgan vaqtda qulflash buyrug'i uzatilsa, barcha eshiklar qulflanadi, so'ngra esa haydovchining eshigi qulfdan yechiladi.

Agar avtomobil o'chirilgan va bunda eshiklardan biron biri ochiq bo'lganida qulflashga buyruq kelib tushsa, barcha eshiklarni yopishdan keyin salonda radiobrelokni izlash avtomatik bajariladi. Agar radiobrelok aniqlangan va salondagi

radiobreloklarning soni kamaymagan bo'lsa, u holda haydovchining eshigi qulfdan yechiladi va klaksonning uchtalik signali jaranglaydi.
Buni eshiklarni elektr bloklash o'chirgichida ga bosish va uni ushlab turish bilan qo'lda bekor qilish mumkin.

Bolalar xavfsizligi uchun qulflar

Saqlagich qulflar avtomobilda joylashgan yo'lovchilar tomonidan orqa eshiklarni ochishga to'sqinlik qiladi.



Saqlagich qulfi orqa eshiklarning ichki hoshiyasida joylashgan.
Saqlagich qulfning qo'llanilish tartibi:
1. Pishangchani pastga bloklash holatiga o'tkazing.
2. Eshikni yoping.
3. Xuddi shu harakatlarni boshqa orqa eshik bilan ham amalga oshiring.
Himoyalash blokirovkasi yoqilganida orqa eshikni ochish uchun:
1. Eshikni qulfdan yechish o'chirgichiga bosish yoki radiobrelok yordamida eshikni ichkaridan tutqich bilan ochish mumkin.
2. Eshikni tashqaridan oching.
Saqlagich qulf harakatga keltirilganida, orqa eshikni na kattalar, na katta yoshdagi bolalar ichkaridan ochish imkoniga ega bo'lmaydi. Eshikni ichkaridan ochish uchun, saqlagich qulfni blokdan chiqarish zarur.
Saqlagich qulfni blokdan chiqarish tartibi:
1. Eshikni blokdan chiqaring va uni tashqaridan oching.
2. Pishangchani blokdan chiqarish holatiga tepaga o'tkazing. Xuddi shularni boshqa eshik bilan amalga oshiring.

ESHIKLAR

Orqa ko'tarma eshik

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar harakatlanish vaqtida yuk bo'linmasining eshigini yoki yukxona qopqog'ini ochiq holda qoldirilsa, hamda kuzov va yukxona qopqog'i yoki yuk bo'linmasining orqa eshigi orasidan zichlagichlar orqali o'tuvchi buyumlarni tashishda, chiqindi gazlar avtomobil saloniga kirib qolishi mumkin. Ishlangan gazlar hidga ega bo'lmagan, ko'rinmaydigan is gazini (CO) saqlaydi. Gaz xushni yo'qotish yoki o'limni chaqirishi mumkin.
Zarurat tug'ilganida yuk bo'linmasining orqa eshigi yoki yukxona qopqog'i ochiq holatda safar qilishda:
- Barcha oynalarni yoping.
- Uskunalar paneli ustidagi yoki ostidagi havo tirqishlarini to'liq ochib qo'ying.
- Iqlim-nazorat tizimida tashqi havoning kirib kelishini eng yuqori darajasini va ventilatorning maksimal tezligini o'rnating. Ko'rsatkichda "Iqlim-nazorat tizimlari"ni ko'ring.
- Agar avtomobil elektr yuritmali orqa ko'tarma eshik bilan jihozlangan bo'lsa, eshikning elektr yuritmasini o'chirib qo'ying.

Chiqindi gazlar ⇨ 8-22ni ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*
Ochishda oynaning va yukxonaning oynasining shikastlanishidan saqlanish uchun tepadan va orqadan ochish uchun to'siqlar mavjud emasligiga ishonch hosil qiling.

Elektr yuritmasiz orqa ko'tarma eshik

Yuk bo'linmasini eshigini ochish uchun, eshikni elektr qulflash o'chirgichida tugmaga bosing yoki barcha eshiklarni qulfdan yechish uchun radiobrelokda tugmasiga ikki marta bosing. Orqa ko'tarma eshik tutqichining orqa tomonidagi sensor panel (1)ga bosing va eshikni ko'taring.

Yuk bo'linmasi eshigining oynasini ochish uchun, raqam belgisi ustidagi tugmani yoki ikki marta tez radiobrelokdagi Sni bosing.

Yuk bo'linmasini eshigini ochayotgan vaqtingizda yuk bo'linmasining eshigi oynasini ochiq holda qoldirmang.

Agar ochish buyrug'i uzatilishida orqa oyna tozalagich ishlayotgan bo'lsa, yuk bo'linmasi eshigining oynasi kechikish bilan ochiladi.

Orqa ko'tarma eshikni tushirish yoki yopish uchun, eshikning ichki tomonidagi tutqichni pastga torting. Orqa ko'tarma eshikni yopayotganda sensor paneliga bosmang. Aks holda orqa ko'tarma eshik qulflanmagan bo'lib qoladi.

Agar radiobrelok qulfning sensor panelidan 1 m (3 fut)dan ortiq bo'lmagan masofada joylashgan bo'lsa, yuk bo'linmasining eshigini hatto u qulflanmagan bo'lsa ham, ochish mumkin. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishlashi ⇨ 1-3 bo'limni ko'ring.

Orqa ko'tarma eshik elektr qulf bilan jihozlangan. Akkumulator uzilishida yoki past kuchlanishda orqa ko'tarma eshik ochilmaydi. Orqa ko'tarma eshikning ishlashi akkumulatorni quvvatlash/ulashdan keyin tiklanadi.

Elektr yuritmali orqa ko'tarma eshikning ishlashi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Elektr yuritmali yopilayotgan orqa ko'tarma eshik traektoriyasiga tushib qolishda jarohat olish mumkin. Eshikni ochish va yopishda hech kim uning yo'lida turmaganligiga ishonch hosil qiling.

⚠ *DIQQAT!*
Ochiq va mahkamlanmagan orqa ko'tarma eshik bilan harakatlanish eshikning elektr yuritmasini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar avtomobil elektr yuritmali tomning shaffof lyuki bilan jihozlangan bo'lsa, u holda lyukni boshqarish o'zgartirgichi tepa konsolga joylashtirilgan. Avtomobil P (to'xtab turish) rejimida bo'lishi kerak.
Ochishning vuyidagi rejimlari mavjud:
MAX : Maksimal balandlikka ochiladi.
3/4 : 3/4dan to'liq ochishgacha chegarada sozlash mumkin bo'lgan eng past balandlikka ochiladi. Orqa ko'tarma eshik ochilishida avtomobil ustidagi to'sqinliklarga, masalan, garaj eshigiga yoki tomga o'rnatilgan yukga urilmasligi uchun ushbu sozlamani qo'llang. Eshikni to'liq qo'lda ochish mumkin.
O'CHIRILGAN: Faqat qo'lda ochiladi. Orqa ko'tarma eshikni elektr yuritma yordamida ochish yoki yopish uchun, elektr yuritma rejimini o'zgartirgichini MAX yoki 3/4 holatga o'rnating.

- radiobrelokda ga qisqa ikki marta bosing; orqa ko'tarma eshik harakatga tushadi.
- Tepa konsolda ni bosing. Haydovchining eshigi qulfdan yechilgan yoki, ammo olib qochishga qarshi tizimni faollashtirmasdan qulflangan bo'lishi kerak.
- Barcha eshiklarning qulflarini qulfdan yeching va orqa ko'tarma eshikning tutqichini pastki tomonidagi bosiluvchan panelga bosing. Agar radiobrelok qulfning sensor panelidan 1 m (3 fut)dan ortiq bo'lmagan uzoqlikda joylashgan bo'lsa, qulflangan avtomobilning eshigini ochish mumkin.



- Yopish uchun lo'kidon yaqinidagi orqa ko'tarma eshikni pastki hoshiyasida ni bosing.

Orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasini ishlashini to'xtatish uchun, ko'tarma eshikdagi istalgan klavishani bosing, sensor paneliga tegining yoki masofadan boshqarish radiobrelogida tugmani bosing. Ko'tarma eshikdagi klavishalardan istalginini bosishda yoki masofadan boshqarish radiobrelogidagi tugmani ikki martalik bosishda elektr yuritma teskari tartibda ishlashni boshlaydi. Sensor paneliga qayta teginish faqat ochishga elektr yuritmani qayta yoqadi.

⚠ *DIQQAT!*
Avtomatik harakatlanish vaqtida qo'lda orqa ko'tarma eshikni ochishga yoki yopishga urinish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomatik ochilish yoki yopilish sikli yakunlangunicha kutib turing.

Agar yuk bo'linmasining kichik balandlikda to'xtatilsa, u qo'shimcha ochilishi mumkin.
Orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasi juda past haroratda yoki qisqa vaqt davomida yoqilish/o'chirilishning bir nechta sikllaridan keyin vaqtinchalik o'chishi mumkin. Ushbu holatlarda uni qo'lda ochish mumkin. Yuk bo'linmasi eshigi o'zgartirgichida OFF (O'CHIRILGAN) tanlang. Agar uzatmalarni o'zgartirish pishangisi orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasini ishlashi vaqtida P (To'xtab turish) holatidan chiqarilayotgan bo'lsa, eshikning harakatlanishi yakunlangunicha davom etadi. Agar orqa ko'tarma eshik harakatlanishni yakunlagunicha gaz tepkisiga bosilsa, orqa ko'tarma eshik to'xtashi yoki teskari tomonga harakat qilishni boshlashi mumkin.

Harakatni boshlashdan avval, haydovchining axborot markazidagi (DIC) xabarlar mavjudligini tekshiring va orqa ko'tarma eshik yopiqligiga, uning qulfi esa bloklanganligiga ishonch hosil qiling.

Orqa ko'tarma eshikning tushib ketishini aniqlash

Agar orqa ko'tarma eshik elektr yuritma yordamida ochilishidan keyin avtomatik yopilayotgan bo'lsa, bu tizim orqa ko'tarma eshikning ortiqcha og'irligiga yoki gaz prujinasining nosozligiga ta'sir o'tkazayotganligiga ko'rsatadi. Eshikdan ortiqcha yukni olib tashlang. Orqa ko'tarma eshiknining tushib ketishini aniqlash funksiyasining ishlab ketishi takrorlanuvchi ovozli signal bilan kuzatiladi. Agar elektr yuritmali orqa ko'tarma eshik ochilishdan keyin avtomatik yopilayotgan bo'lsa, elektr yuritmadan foydalanmang va ta'mirlash uchun dilerlik markaziga murojaat qiling.

Elektr yuritmali orqa ko'tarma eshikning harakatlanishiga qo'lda aralashish yoki uning elektr yuritma bilan ichishdan keyin qo'lda juda tez yopishda gaz prujinasining nosozligini eslatuvchi belgilarga olib kelishi mumkin. Bunda, shuningdek, orqa ko'tarma eshikning tushib ketishini aniqlash funksiyasi ishlashi mumkin.

Orqa ko'tarma eshikni qo'lda yopishdan avval, elektr yuritmada harakat siklini to'liq yakunlanishiga imkon bering va bir necha sekund kutib turing.

To'siqlarni aniqlash funksiyasi

Agar elektr yuritma yordamida ochishda yoki yopishda orqa ko'tarma eshik to'siqlar bilan uchrashsa, u avtomatik harakatlanish yo'nalishini almashtiradi va to'siqdan katta bo'lmagan masofaga suriladi. To'siqni olib tashlab, elektr yuritmali orqa ko'tarma eshikdan qayta foydalanish mumkin. Agar eshik bir sikl davomida bir nechta to'siqlarga uchrayotgan bo'lsa, u holda elektr yuritma o'chadi. To'siqlar olib tashlangandan so'ng orqa ko'tarma eshikni qo'lda yoping. Bu elektr yuritmani me'yorda faoliyat yuritishini tiklashga imkon beradi.

Agar orqa ko'tarma eshikni yopish vaqtida avtomobil qulflangan va orqa ko'tarma eshik harakatlanish jarayonida uning to'liq yopilishiga xalal beruvchi to'siq bilan uchrashadigan bo'lsa, orqa ko'tarma eshik yopilmaganini xabar qiluvchi klaksonning signali uzatiladi.

3/4 rejimni sozlash

Orqa ko'tarma eshik ochiluvchi holatgacha holatni o'zgartirish uchun:

1. MAKS yoki 3/4 rejimni tanlang va elektr yuritma yordamida orqa ko'tarma eshikni oching.
2. Orqa ko'tarma eshikning istalgan tugmasiga bosib, orqa ko'tarma eshikni talab etilayotgan balandlikda to'xtating. Agar zarur bo'lsa, eshikning holatini qo'lda sozlang.
3. Yuk bo'linmasining eshigini tashqi hoshiyasidagi lo'kidon bilan yaqin joylashgan dastaning, toki burilish ko'rsatkichlari miltillashni boshlamagunicha va ovozli signal uzatilmagunicha, pastki tomonidagi ni bosing va ushlab turing. Bu sozlama saqlanganligini anglatadi.

Orqa ko'tarma eshikning ochilish balandligini pastki dasturlanuvchi chegaradan pastroqqa o'rnatish mumkin emas. Agar burilish signallari miltillamayotgan va ovozli signal yo'q bo'lsa, bu balandlik sozlamasi juda pastga o'rnatilganligini anglatishi mumkin.

Qo'l rejimida boshqarish

Orqa ko'tarma eshikni qo'lda boshqarish uchun, O'CHIRILGANNI tanlang.

Ushbu bo'limning boshlanishidagi "Elektr yuritmasiz orqa ko'tarma eshik" bandini ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*
Orqa ko'tarma eshikni kuch bilan yoki juda katta tezlik bilan siljitishga urinish avtomobil shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Orqa ko'tarma eshikni sekin va siltanishlarsiz asta-sekin ochish zarur. Tizim elektr yuritmaning komponentlarini himoyalash uchun eshikni qo'lda yopish tezligini cheklaydi.

Oyoq siltanishi bilan boshqarish

Agar avtomobil qo'llar yordamisiz ochiladigan yuk bo'linmasi eshigi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda eshikni yo'lga logotip proeksiya qilinuvchi joyda orqa bamper ostida oyoq harakati bilan boshqarish mumkin. Qo'llar yordamisiz ochish ishlashi uchun, radiobrelok orqa bamperdan 1 m (3 fut) radiusda joylashgan bo'lishi kerak.

Suv tomchilari ko'tarma eshikni ochish yuritmasini ishlab ketishiga olib ketishi mumkin. Avtomobilni yuvish vaqtiga yoki orqa bamper yonida biron bir ishlarni bajarishda radio-brelokni amal qilish zonasining tashqarisiga olib qo'yish yoki yuk bo'linmasini eshigi tasodifan ochilishidan saqlanish uchun, uning elektr yuritmasini o'chirib qo'yish kerak.

Ko'tarma eshikni ochish yoki yopish vaqtida oyoqni siltash bilan boshqarish ishlamaydi. Ochilayotgan yoki yopilayotgan ko'tarma eshikni to'xtatish uchun, unda joylashgan o'chirgichlarning klavishalaridan birini qo'llang.

Oyoq silkitilishi boshqaruvini sozlash mumkin. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang

Quyidagi rejimlardan birini tanlang:

Elektr yuritma yoqilgan, ochishga va yopishga ishlamoqda: Oyoqning siltanishni orqa ko'tarma eshikni ochish uchun qanday bo'lsa, uni yopish uchun ham xuddi shunday qo'llash mumkin.

Elektr yuritma yoqilgan, faqat ochishga ishlaydi: Oyoqning siltanishini faqat ko'tarma eshikni ochish uchun qo'llash mumkin.

O'chirilgan: Elektr yuritma o'chirilgan.





Eshikni ochish uchun, oyoqni orqa bamperning o'rtasidan oldinga yuriting va oyoqni qaytarib oling.

- Oyoqni bir tomondan boshqa tomonga silkitish kerak emas.
- Oyoqlarni bamper ostidan olishni unutmang, chunki aks holda elektr yuritma faollashtirilmaydi.
- Ko'tarma eshik harakatlanishni yakunlamagunicha, unga teginish yaramaydi.
- Ushbu funksiya ba'zi sharoitlarda vaqtinchalik o'chirilgan bo'lishi mumkin. Agar orqa ko'tarma eshik oyoq siltanishiga ta'sir ko'rsatmayotgan bo'lsa, orqa ko'tarma eshikni boshqa usulda oching yoki yoping, yoki dvigatelni ishga tushiring. Funksiya takroran ishga tushiriladi.

Agar oyoq siltanishi eshikni yopish uchun qo'llanilayotgan bo'lsa, elektr yuritma katta bo'lmagan kechikish bilan yoqiladi. Qisqa vaqtga orqa chiroqlar yoqiladi va ovozli signal uzatiladi. Ko'tarma eshik harakatlanishni boshlashidan avval chetroqqa o'tib turing.

Logotip proeksiyasi

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, orqa bamperdan taxminan 2 metr (6 fut) radiusda radiobrelokning paydo bo'lishida orqa bamperning oldida yerda logotip proeksiyasi paydo bo'ladi. Yorqin tashqi yoritishda logotip yomon aniqlanishi mumkin.



- 1 m (3 fut) — oyoqlarni silkitishni aniqlash zonasi
- 2 m (6 fut) — logotipni proeksiyasi uchun radiobrelokni aniqlash zonasi

Logotip proeksiyasi orqa bamper ostida oyoqni o'tkazish kerak bo'lgan joyni ko'rsatadi. Logotip proeksiyasi xuddi shu masofadan boshqarish radiobrelogi qo'llanilishida qayta paydo bo'lmaydi, toki radiobrelok 20 sekund yoki undan ortiq vaqtga tizimning amal qilish zonasidan yo'qolib qolmagunicha.

Agar xuddi shu radiobrelok qayta amal qilish zonasida (taxminan 2 m/6 fut) paydo bo'lib qolsa yoki oyoq bilan yana bir harakat amalga oshirilsa, proeksiyani o'chirishni kechiktirishning minutli taymeri bekor qilinadi.

Logotip quyidagi sharoitlarda proeksiya qilinmaydi:

- Akkumulator batareyasining past quvvati.
- Uzatmalar qutisining selektori P (to'xtab turish) holatiga joylashmagan.
- Oyoq harakati bilan orqa ko'tarma eshikni boshqarish shaxsiy sozlamalarda o'chirilgan. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang
- Orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasi o'chirilgan.
- Avtomobil 72 soatdan ortiq vaqtga to'xtab turgan, va ushbu butun vaqt davomida masofadan boshqarish radiobrelogi va kalitsiz kirish tizimi qo'llanilmagan. Qo'l yordamisiz orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasini boshqarilishini qayta yoqish uchun, radiobrelokda istalgan tugmaga bosing va avtomobilning istalgan eshigini qayta yoping.

Proeksiya qilinuvchi logotip bitta radiobrelok mavjudligida ishlamaydi, agar radiobrelok:

- Bir necha minut orqa ko'tarma eshikdan 5 m (15 fut)dan ortiq bo'lmagan uzoqlikda qolgan.
- Salonda qoldirilgan, bunda avtomobilning barcha eshiklari yopilgan.
- 10 minut davomida besh marta orqa ko'tarma eshikka yaqinlashgan.

Obyektivni tozalash



Obyektivni tozalash uchun paxta tamponidan foydalaning.

Oyoqni silkitish bilan boshqarish funksiyasining erishimligi va logotip proeksiya qilinishi

Harakatlar	Oyoq siltanishi bilan boshqarish	Logotip proeksiyasi
Logotip proeksiya qilinishi uchun aniqlanish zonasida paydo bo'lmoqda	Ishlamoqda	Bir minut proeksiya qilinadi
Radiobrelok kamida 10 minut davomida logotipni proeksiya qilish uchun radiobrelokni aniqlash zonasiga joylashgan	Ishlamoqda	Toki radiobrelokda biron bir tugma bosilmagunicha yoki biron bir yon tomon eshik ochilmagunicha va yopilmagunicha o'chiq turadi
Radiobrelok logotipni proeksiya qilish uchun aniqlanish zonasiga kirib qolmoqda va uni 10 minut davomida besh yoki undan ortiq marta tark etmoqda	Ishlamoqda	Bir soatga yoki toki radiobrelokda biron bir tugma bosilmagunicha yoki biron bir eshik ochilmagunicha va yopilmagunicha o'chiq turadi
Avtomobil 72 soatdan ortiq vaqt to'xtab turishga joylashtirilgan holatda turgan	Ishlamoqda	Toki radiobrelokda biron bir tugma bosilmagunicha yoki biron bir yon tomon eshik ochilmagunicha va yopilmagunicha o'chiq turadi
Avtomobilning akkumulator batareyasi quvvatsizlangan	Ishlamayapti	O'chirilgan
Uzatmalar qutisining selektori P (to'xtab turish) holatiga o'rnatilmagan	Ishlamayapti	O'chirilgan
Orqa ko'tarma eshikning elektr yuritmasi o'chirilgan	Ishlamayapti	O'chirilgan
Oyoqni silkitish bilan boshqarish shaxsiy sozlamalarda o'chirilgan	Ishlamayapti	O'chirilgan

Elektr yuritmali suriluvchan zinapoya

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
O'tirishda va tushishda jarohatlardan va moddiy shikastlanishlardan saqlanish maqsadida elektr yuritmali zinapoyalar to'liq surilib chiqarilganligini tekshiring. Zinapoya harakatlanayotgan vaqtda unga bosmang. Surib chiqarilgan elektr yuritmali zinapoya va avtomobil orasiga qo'llarni va tananing boshqa qismlarini tiqmang.

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalar eshik ochilganida surib chiqariladi va eshikni yopishdan keyin uch sekund o'tib avtomatik olib qo'yiladi.

Elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalar, agar avtomobil harakatlanishni boshlayotgan bo'lsa, darhol olib qo'yiladi.

Avtomobilni domkrat bilan ko'tarishdan yoki avtomobil ostiga biron bir narsani qo'yishdan avval, elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalarni o'chirib qo'ying. Kuchli muz bilan qoplanish elektr yuritmali zinapoyaning surib chiqarilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Avtomobildan chiqib ketishdan avval, zinapoyaning holatini tekshiring. Bunday holatda, elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalarni o'chiring, muzni olib tashlang, elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalarni yoqing va ular ishlayotganligiga ishonch hosil qiling.

Elektr yuritmali suriluvchan zinapoyalar harakatlanishida ularga qo'llarni yaqinlashtirmang va uning yonida bolalarning, hayvonlarning, begona buyumlarning va kiyimlarning bo'lishiga yo'l qo'ymang. Agar zinapoya ochilishda yoki yopilishda to'siqlarga duch kelayotgan bo'lsa, u harakatlanish yo'nalishini teskari yo'nalishga almashtiradi. To'siqni olib tashlang va so'ngra zinapoya harakatlanishni to'liq siklini amalga oshirishi uchun muvofiq tomondagi eshikni oching va yoping. Agar to'siq olib tashlanmasa, zinapoya harakatlanish vaqtida surib chiqarilgan holatda qoladi.

To'siq aniqlangandan keyin zinapoyalar toki yangi harakat so'ralmagunga qadar oldingi holatda qoladi.

Agar yangi harakat to'siqni bartaraf qilmasdan so'raladigan bo'lsa, zinapoyalar to'siqqa teginadi, so'ngra esa oldingi holatga qaytadi.

Avtomatik surilib chiqarish vaqtida ogohlantirish haydovchining axborot markazida, faqat, agar harakatlanuvchi zinapoyalar to'siqqa uchrayotgan vaqtda aks ettiriladi.

Surilib chiqqan zinapoyalar yengil qimirlashi mumkin. Bu me'yordagi holat.

Yoqish/o'chirish

Ma'lumot va ko'ngilochar tizimining displeyida mavjud bo'lgan sozlamalarni ko'rib chiqish uchun, "Parametrlar"> "Avtomobil"> "Masofadan qulflash/ochish/ishga tushirish" ni bosing

Tozalash

Elektr yuritmali surilib chiqariluvchi zinapoyalarni tozalash uchun surib chiqarilishi yoki surib kirgizib qo'yilishi mumkin.

Erishimli parametrlarni ko'rish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimning ekranida Settings (Parametrlar) > Vehicle (Avtomobil) > Assist Steps (Surilib chiqariluvchi zinapoyalar)ni bosing.

AVTOMOBILNI HIMOYALASH

Avtomobil olib qochishga qarshi funksiyalar bilan jihozlangan, biroq ular har doim ham olib qochishni oldini ololmaydi.

Avtomobil signalizatsiyasi



Haydovchi eshigidagi oyna bilan yonma-yon joylashgan indikator tizimning holatini ko'rsatadi: Eshiklarning qulflarini elektr bloklash ⇨ 1-11 bo'limni ko'ring.

Signalizatsiyani yoqish

1. Avtomobilni o'chiring.
2. Avtomobil qulflarini quyidagi uchta usullardan biri bilan bloklang:
   - Radiobrelokni qo'llang.
   - Kalitsiz kirish tizimi yordamida.
   - Eshik ochiqligida eshikning ichki tomonida ni bosing.
3. 30 sekund o'tgandan keyin olib qochishga qarshi tizimni faollashtiring, va indikator asta miltillashni boshlaydi. Masofadan boshqarish radiobrelogida tugmasini takroran bosishda signalizatsiya 30-sekundli kechikishsiz asta-sekin yoqiladi.

Agar eshiklar mexanik kalit yordamida qulflansa, signalizatsiya yoqilmaydi.

Agar haydovchining eshigi masofadan boshqarish radiobrelogi yordamida oldindan blokdan chiqarishsiz ochilayotgan bo'lsa, ovozli signal jaranglaydi va chiroqlar oldindan signalizatsiya sifatida miltillashni boshlaydi. Agar avtomobil ishga tushirilmasa yoki eshik oldindan signalizatsiyaning 10 sekund davomida masofadan boshqarish brelogida ni bosish bilan ochilmasa, olib qochishga qarshi signalizatsiya yoqiladi. Signalizatsiya, shuningdek, tizimni oldindan o'chirmasdan yo'lovchining eshigi, orqa ko'tarma eshik yoki kapot ochilish holatida faollashtirilgan bo'ladi. Signalizatsiyani faollashtirish holatida 30 sekund davomida burilish ko'rsatkichlari miltillab turadi va ovozli signal uzatiladi. Bundan so'ng, agar quyidagi shtatdan tashqari holat sodir bo'lgan holatda, qo'riqlashga signalizatsiya tizimining takroran o'rnatilishi sodir bo'ladi.

Signalizatsiyani o'chirish

Signalizatsiyani qo'riqlashdan olish yoki signal ishlab ketishida uni o'chirish uchun. quyidagi harakatlardan birini bajaring:

- Radiobrelokda ni bosing.
- Kalitsiz kirish tizimi yordamida qulflarni blokdan chiqaring.
- Dvigatelni ishga tushiring.

Signalizatsiyaning tasodifan ishlab ketishidan saqlanish uchun:

- Faqat avtomobildan chiqish yakunlangandan keyingina uni qulflang.
- Eshikni har doim radiobrelok bilan oching yoki kalitsiz kirish tizimini qo'llang.
- Haydovchini eshigini mexanik kalit bilan qulfdan yechish tizimni qo'riqlashdan olmaydi va signalizatsiyani o'chirmaydi.

Ichkariga kirish urinishini qanday aniqlanadi

Agar radiobrelokda ni bosishda uch karralik ovozli signal jaranglayotgan bo'lsa, demak, avtomobil signalizatsiyada turgan paytda uning ichkarisiga kirish urinishi amalga oshirilgan bo'ladi.

Signalizatsiya ishlab ketishida haydovchining axborot markazi displeyiga xabarnoma chiqariladi.

Rul ustunining qulfi

Rul ustunining qulfi (muvofiq jamlanmada) olib qochishdan himoyalash qurilmasi hisoblanadi. Bu vosita avtomobilni o'chirishda va haydovchining eshigini kelajakda ochishda, yoki haydovchining eshigini ochishda va avtomobilning keyingi o'chirilishida rul ustunini bloklaydi.

Rul ustuni avtomobil yoqilishida blokdan chiqariladi.

Haydovchining axborot markaziga (DIC) quyidagi xabarlardan biri chiqarilgan bo'lishi mumkin:

- Rul ustunining qulfiga xizmat ko'rsatish zarurati haqidagi xabar rul ustunining qulfi ishida muammo aniqlanganligiga. va avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish kerakligiga ko'rsatadi.
- Rul ustunining bloklanishi haqidagi xabar dvigatel ishlayotganligiga, ammo rul ustuni avvalgidek bloklanganligiga ko'rsatadi. Rul ustuni masofadan ishga tushirish vaqtida bloklangan bo'lishi mumkin, ammo tormoz tepkisi bosilishidan va dvigatelni ishga tushirishdan keyin rul ustuni blokdan chiqarilgan bo'lishi kerak. Masofadan ishga tushirish vaqtida xabarlar chiqarilmaydi.
- Rul chambaragini burish va dvigatelni qayta ishga tushirish zarurati haqidagi xabar rul ustunining qulf mexanizmi tqilib qolganligiga, qulf qurilmasi rul ustunini blokdan chiqarish imkoniga emasligiga va dvigatel ishga tushirilmayotganligiga ko'rsatadi. Ushbu holatda, rul ustunining qulfini bo'shatish uchun rul chambaragini bir tomondan boshqa tomonga darhol burang. Agar natijada rul ustunini blokdan chiqarish imkoni bo'lmagan bo'lsa, tizimni qayta yuklash uchun avtomobilni o'chiring va haydovchi eshigini oching. So'ngra avtomobilni yoqing va taxminan 15 sekund davomida rul chambaragini bir tomonga boshqa tomonga burilishini darhol boshlang. Ba'zi holatlarda, rul ustunini bo'shatish uchun ahamiyatli kuch talab etilishi mumkin.

Rul ustunini tiqilib qolishidan saqlanish maqsadida, avtomobilni o'chirishdan avval, oldingi g'ildiraklarni to'g'ri chiziqli harakatlanish holatiga o'rnating.

Immobilayzer ishlashi

Ushbu avtomobil passiv olib qochishga qarshi tizim bilan jihozlangan.

Ushbu tizimni qo'lda signalizatsiyaga qo'yish yoki signalizatsiyadan olish kerak emas.

Immobilayzer dvigatel o'chirilganida avtomatik yoqiladi.

Olib qochishga qarshi tizim, agar avtomobilning salonida amal qiluvchi radiobrelok joylashgan bo'lsa, o't oldirishni yoqishda yoki kalitni "Yordamchi asbob-uskunalar" holatiga o'tkazishda qo'riqlashdan yechiladi.

Olib qochishga qarshi tizimini yoqish yoki uni o'chirish bilan muammolar mavjudligida uskunalar majmuasida olib qochishga qarshi tizimning nosozlik signalizatori yonadi.

Olib qochishga qarshi tizimni immobilayzerning boshqaruv blokida bir yoki bir nechta radiobreloklar dasturlashtirilgan. Dvigatelni faqat sizning avtomobilingizda o'rnatilgan olib qochishga qarshi tizim bilan ishlash uchun dasturlangan radiobrelok yordamida ishga tushirish mumkin. Radio-brelok shikastlanishi holatida avtomobil ishga tushirilmasligi mumkin.

Avtomobilni ishga tushirishda qisqa vaqtga olib qochishga qarshi tizim indikatori yoqilishi mumkin.

Agar dvigatel ishga tushirilmayotgan bo'lsa, lampochka esa yonishda davom etayotgan bo'lsa, tizimda nosozliklar mavjuddir.

O't oldirishni o'chiring va qayta urinib ko'ring.

Agar o't oldirish rejimlari o'zgarmayotgan (ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALARNI OZIQLANTIRISH REJIMI), ON (YOQILGAN), OFF (O'CHIRILGAN)) va radiobrelok shikastlanish alomatlariga ega bo'lmayotgan bo'lsa, boshqa radiobrelokni qo'llashga urinib ko'ring.
Shuningdek, radiobrelokni zaxira joylashish joyiga solib qo'yish mumkin. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-4 bo'limini ko'ring.
Agar o't oldirish rejimi ikkinchi radiobrelok paydo bo'lishida ham yoki radiobrelokni zaxira joylashish joyiga joylashtirilishida ham o'zgarmayotgan bo'lsa, sizning avtomobilingiz ta'mirlashni talab qiladi. Agar o't oldirish rejimlari o'zgarayotgan bo'lsa, u holda, balki, birinchi radiobrelok nosoz. O'z dileringizga murojaat qiling.
Avtomobilning olib qochishga qarshi tizimi bilan ishlash uchun yangi yoki zaxira radiobreloklarni dasturlash mumkin. Jami sakkiztagacha radiobreloklarni dasturlash mumkin. Qo'shimcha radiobreloklarni dasturlash uchun, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Avtomobilda radiobrelokni yoki olib qochishga qarshi tizimni o'chiruvchi yoki faolsizlantiruvchi qurilmani qoldirmang.

TASHQI TOSHOYNALAR

Panorama toshoynalar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ob'ektlar, masalan, boshqa avtomobillar, panorama toshoynalarida ular haqiqatda mavjud bo'lganiga qaraganda uzoqroq ko'rinishga ega bo'ladi.
O'ng tomonga keskin harakatlanish chizig'ini o'zgartirishda o'ng tomonda ketayotgan avtomobilni urib yuborish mumkin. Harakatlanish chizig'ini o'zgartirishdan oldin salondagi orqani ko'rish toshoynalariga yoki yelkadan oshirib qarang.

Yo'lovchi tomonidagi toshoyna qabariq shaklga ega. Panorama toshoynasining yuzasi haydovchiga uning o'rindig'idan yaxshiroq ko'rish maydonini ta'minlash uchun bo'rtiq qilingan.

Elektr yuritmali toshoynalar



Toshoynalarning holatini sozlash uchun:
1. Haydovchi yoki yo'lovchining tomonidagi yon tomon toshoynalarini tanlash uchun ▭ yoki ▭ tugmani bosing. Bunda muvofiq indikator yonadi.
2. Toshoynani tepaga, pastga, o'ngga yoki chapga siljitish uchun boshqaruv pultidagi muvofiq tugmani bosing.
3. Orqani ko'rish tashqi toshoynasini avtomobilning yon tomoni va orqadagi fazo ko'rinib turishi uchun shunday tarzda sozlang.
4. Toshoynani tanlashni bekor qilish uchun ▭ yoki ▭ ni bosing. Muvofiq indikator o'chadi.

Burilishni ko'rsatish indikatori

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, toshoynalarda burilish ko'rsatkichlari o'rnatilgan bo'lishi mumkin, ular burilish tomonidan yoki harakatlanish chizig'ini almashtirishda miltillaydi.

Chiqishni yoritilishi

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, toshoynaning pastki tomonida joylashgan chiqishni yoritilishi haydovchi va yo'lovchining eshiklari oldidagi sohani yoritadi. Avtomobilga o'tirishda yorug'likning yoqilishi ⇨ 5-7 bandni va Chiqishda yoritilganlik ⇨ 5-7 bandni ko'ring.

Toshoynalar holatini eslab qolish

Avtomobil holatni eslab qolish funksiyali toshoynalar bilan jihozlanishi mumkin. O'rindiqlar holatini eslab qolish ⇨ 2-5 bo'limni ko'ring.

Harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LCA)

Avtomobil LCA tizim (Harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimini (LCA) ⇨ 8-61ni ko'ring) bilan jihozlanishi mumkin.

Taxlanuvchi toshoynalar

Qo'lda taxlash

Avtomatik yuvish joyiga haydab kirishda, orqani ko'rish toshoynalarini shikastlamaslik uchun, ularni taxlang. Toshoynani taxlash uchun, uni avtomobil bortiga torting.

Toshoynani dastlabki holatga qaytarish uchun, uni torting.

Elektr yuritma yordamida taxlash



Elektr yuritmali toshoynalarni sozlash,agar ko'zda tutilgan bo'lsa:

1. Toshoynalarni ichkariga taxlash uchun ni bosing.
2. Toshoynalarni ishchi holatga qaytarish uchun ni yana bir marta bosing.

Orqani ko'rish tashqi toshoynalari avtomobil tezligi 20 km/soat (12 mil/soat)dan yuqori bo'lib qolganida avtomatik yoyilishi mumkin, ammo ularni toshoynalarni boshqarish o'zgartirgichi bilan qayta taxlab qo'yish mumkin. Agar avtomobil tezligi 40 km/soat (25 mil/soat) dan yuqori bo'lsa, toshoynalar avtomatik yoyilishi mumkin, va ularni bundan keyin toshoynalarni boshqarish o'zgartirgichi bilan taxlash imkoni bo'lmaydi.

Toshoynalarni taxlash elektr yuritmasini bekor qilish.

Toshoynalarni taxlash elektr yuritmasini bekor qilinishi quyidagi holatlarda zarur:

- Toshoynalarni taxlashda to'satdan to'siqqa uchratilgan.
- Toshoynalar to'satdan taxlangan/yoyilgan.
- Yoyilgan toshoynalar ushbu holatda qolmayapti.
- Harakatlanishning me'yordagi tezligida toshoynalar titrashi mumkin.

Toshoynalarni me'yordagi holatga qaytarish uchun, toshoynalarni boshqarish organlari yordamida toshoynalarni bir marta taxlang va yoying. Toshoynalarning elektr yuritmasini bekor qilinishini bajarishda shovqin eshitilishi mumkin. Bu toshoynalarni qo'lda taxlashdan keyin me'yordagi tovush.

Toshoynalarni masofadan taxlash

Agar elektr yuritmali taxlanuvchi toshoynalar toshoynalarni boshqarish o'zgartirgichi bilan taxlangan bo'lsa, ularni radiobrelok yordamida yoyish mumkin bo'lmaydi. Agar elektr yuritmali taxlanuvchi toshoynalar toshoynalarni boshqarish o'zgartirgichi bilan taxlanmagan va avtomobil P (to'xtab turish) rejimida bo'lmagan bo'lsa, toshoynalar quyidagi tarzda avtomatik taxlanishi/yoyilishi mumkin:

1.Radiobrelokda tugmaga bosish bilan eshiklarni qulflashda toshoynalar taxlanadi.
Radiobrelokda tugmaga bosish bilan eshiklarni qulfdan yechishda toshoynalar yoyiladi.
Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨1-3 bo'limni ko'ring.
2.Eshik tutqichidagi tugmaga bosish bilan eshiklarni qulflashda toshoynalar taxlanadi. Eshikning tutqichidagi tugmaga bosish bilan eshiklarni qulfdan yechishda toshoynalar yoyiladi. "Haydovchi eshigini kalitsiz qulfdan yechish/qulflash"ni Qulflarni masofadan boshqarish tizimi ishi ⇨ 1-3da ko'ring.
3. Agar passiv qulflash yoqilgan va eshiklar ushbu funksiya orqali qulfdan yechilayotgan bo'lsa, toshoynalar taxlanadi. "Passiv qulflash"ni Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishlashi ⇨ 1-3 bo'limni ko'ring.

Isitgichli toshoynalari

Agar avtomobil toshoynalar isitgichi bilan jihozlangan bo'lsa:
REAR : Toshoynalarning istilishini yoqish uchun bosing.
"Orqa toshoyna isitgichi" bandini Iqlim-nazoratning avtomatik ikki zonali tizimi ⇨ 7-2da ko'ring.
Past harorat sharoitlarida radiobrelok yordamida avtomobilni masofadan ishga tushirishda avtomatik orqa deraza va toshoynalarning isitilishi yoqiladi (muvofiq to'plamda).

Avtomatik fotoxrom toshoyna

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, haydovchi tomonidagi orqani ko'rish tashqi toshoynasi orqsada fara chirog'i paydo bo'lishida avtomatik qorong'ulashtiriladi. Ushbu funksiya dvigatelni ishga tushirishda avtomatik yoqiladi.

Orqaga yurish bilan harakatlanishda toshoynalarning egilganligi

Agar avtomobil orqaga yurish bilan harakatlanishda egilish funksiyali toshoynalar va holatni eslab qolish funksiyali o'rindiqlar bilan jihozlangan bo'lsa, u holda orqa yurish bilan harakatlanishda yo'lovchi va/yoki haydovchi tomonidagi toshoyna oldindan o'rnatilgan holatga egiladi. Bu pararllel to'xtab turishga joylashishda bordyurni ko'rish maydonida ushlab turishga imkon beradi.
Toshoyna(lar) quyidagi holatlarda egilgan holatdan o'zining me'yordagi holatga tiklash mumkin:

- Avtomobil UO'Q "R" (orqaga yurish) holatdan chiqarilmoqda yoki taxminan 30 sekund davomida ushbu holatda qolmoqda.
- Avtomobil o'chirilgan.
- Avtomobil o'rnatilgan tezlikdan oshirib orqaga yurish bilan harakatlanmoqda.

Ma'lumot va ko'ngilochar tizimining displeyida mavjud bo'lgan sozlamalarni ko'rib chiqish uchun, Settings (Sozlamalar)> Vehicle (Avtomobil)> "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni bosing

ICHKI TOSHOYNALAR

Orqani ko'rishning ichki toshoynasi

Toshoynaning holatini avtomobil ortidagi fazoni yaxshi ko'rish uchun shunday sozlang.
Tozalovchi vositalarni bevosita toshoynaga purkamang. Suvda namlantirilgan yumshoq sochiqni qo'llang.

Orqani ko'rish mexanik toshoyna

Agar orqani ko'rish toshoynasi rejimlarni qo'lda o'zgartirishga ega bo'lsa, kunduzgi vaqtda qo'llash uchun o'zgartirgichni oldinga yoki orqada harakatlanayotgan transportning yorug'ligi bilan ko'zlarning qamashishidan saqlanish uchun sutkaning qorong'u vaqtida qo'llash uchun orqaga siljiting.

Orqani ko'rish toshoynalarida shu'lalarni avtomatik singdirish rejimi

Avtomatik qorong'ulashtirish funksiyasi (muvofiq jamlanmada) orqada harakatlanib kelayotgan transport vositalarini faralari yorug'ligi bilan haydovchining ko'zlarini qamashtirishdan saqlanishga imkon beradi. Toshoynalarni avtomatik qorong'ulashtirish funksiyasi dvigatel ishga tushirilishida avtomatik yoqiladi.

OYNALAR

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bolalarni, layoqatsiz katta odamlarni yoki uy hayvonlarini yolg'iz o'zlarini mashinada, ayniqsa iliq yoki issiq ob-havoda yopilgan oynalarda, qoldirish taqiqlanadi. Ular haddan tashqari qizib ketishni his qilishlari mumkin, u issiq urushidan majruhlikni, hattoki o'limni olib kelishi mumkin.

Avtomobilning aerodinamik xususiyatlari yonilg'ini tejash maqsadlarida loyihalashtiriladi. Orqa derazaning oynasi tushirilganida, oldingi derazalar esa yopilgan vaqtda, bu titrovchi tovushni chaqirishi mumkin. Tovushni o'chirish uchun, old oynani yoki shift lyukini oching.

Elektr oyna ko'targichlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Oyna bilan qisib qo'yish bolalarga jiddiy jarohat yetkazish yoki hatto o'lim bilan tahdid soladi.
Radiobrelokni bolalar bilan birga avtomobilda qoldirmang. Orqa o'rindiqda bolalarni tashishda oyna ko'targichlarni qo'llash imkonini bloklash uchun, oynalarni bloklash klavishasini bosing. Kalitlar ⇨ 1-2 bo'limni ko'ring.



Elektr oyna ko'targichlar o't oldirish yoqiqligida, yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimida, hamda qo'shimcha asbob-uskunalarning oziqlanishini o'chirilishini kechiktirish rejimida ishlaydi.

Zaxira oziqlantirish moduli ⇨ 8-20 bo'limni ko'ring.
Oynani ochish uchun oyna ko'targichni boshqarish klavishasini bosing, yoki oynani yopish uchun, uni chetidan torting. Oynalarni juda tez-tez ko'tarish va tushirishda oyna ko'targichning elektr oziqlanishi bir qancha vaqtga o'chadi.

Oynalarni bloklash

Ushbu funksiya orqa eshiklardagi oyna ko'targichlarni o'chirgichlarini klavishalarini bloklashga imkon beradi.



Taxlanuvchi toshoynalar bilan



Taxlanuvchi toshoynalarsiz

- Orqa oynalarning blokirovkasini harakatga keltirish uchun, ni bosing. Bloklashda indikator yoqiladi.
- Oynalarni blokdan chiqarish uchun, yana bir marta bosing.

Deraza oynalarni yarim avtomatik ko'tarish va tushirish

Eshiklarning barcha oynalarini o'zgartirgich klavishasini doimo bosilgan holatda ushlab turmasdan ochish mumkin. Bir teginishda derazani to'liq ochish uchun, o'chirgich klavishasini tiralguncha bosing va darhol qo'yib yuboring. Bir teginishda derazani to'liq yopish uchun (agar ushbu funksiya jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa), o'chirgich klavishasini tiralgunicha torting va darhol qo'yib yuboring.
O'chirgich klavishasiga qisqa muddatli bosish yoki uni xuddi o'sha yo'nalishda tortish oyna ko'targichning ishlashini to'xtatadi.

Qisib qolishdan himoyalash

Agar derazani yarim avtomatik yopilishi vaqtida oyna to'siqqa uchrasa, u pastga tushishni boshlaydi.
Bunday holat ayozda yoki muz qoplashida sodir bo'lishi mumkin. To'siqlarni bartaraf qilishdan keyin oyna odatdagidek ishlashni boshlaydi.

Siqib qolishdan himoyalash funksiyasini o'chirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar qisib qolishdan himoyalash funksiyasi o'chirilgan bo'lsa, oyna to'siq bilan uchrashganda avtomatik pastga tushmaydi. Bunda, siz yoki boshqa odamlar jarohat olishi, oyna esa shikastlanishi mumkin. Qisib qolishdan himoyalash funksiyasini o'chirishdan avval, oynaning harakatlanish traektoriyasida na odamlar, na boshqa to'siqlar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Agar ishlab turgan dvigatelda qisib qolishdan himoyalash ishlaganligi sababli oyna to'liq yopilmayotgan bo'lsa, oyna ko'targichning o'zgartirgichi klavishasini tortish va uni ushlab turish kerak.

Elektr oyna ko'targichlarni dasturlash

Klemmani olib tashlash yoki akkumulator batareyasining quvvatsizlanishidan keyin elektr oyna ko'targichlarni qayta dasturlashtirish talab etilishi mumkin. Agar oyna ko'targich yarim avtomat rejimda ishlamayotgan bo'lsa, barcha eshiklarning oyna ko'targichlarini dasturlash talab etiladi:
1. Barcha eshiklarni yoping.
2. O't oldirishni yoki yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimini yoqing.
3 . Oyna ko'targichini dasturlash zarur bo'lgan eshikning oynasini qisman yoping. So'ngra oynani yoping va oyna to'liq ko'tarilganidan keyin o'chirgich klavishasini yana biroz vaqt tortib turing.
4. Oynani oching va oyna to'liq pastga tushganidan keyin o'chirgich klavishasini yana biroz vaqt bosib turing.

Oynalarni masofadan boshqarish

Agar ushbu funksiya mavjud bo'lsa, u avtomobil oynalarni masofadan ochish imkonini beradi. Agar avtomobilning yakka tartibdagi sozlamalarida muvofiq sozlama tanlangan bo'lsa, masofadan boshqarish radiobrelogida ga bosing va uni ushlab turing.

Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing.

Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Remote Lock, Unlock, Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish, ishga tushirish")ni tanlang

Quyoshdan himoyalovchi soyabonlar



Quyoshnng to'g'ri yorug'ligi tushishidan ko'zlarni himoyalash uchun soyabonni tushiring. Quyoshdan himoyalovchi soyabonni yon oynaga burish uchun, yoki, agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, sterjen bo'ylab surish uchun, uni markaziy sharnir mahkamalagichdan bo'shating.

TOM

Tomning ventilyatsiya lyuki

Muvofiq to'plamda tomdagi shaffof lyukni boshqarish, faqat, agar o't oldirish, yoki qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimi, yoki qo'shimcha asbob-uskunalarning oziqlanishini o'chirilishini kechiktirish rejimi (RAP) yoqilgan bo'lsa, imkoni bor. O't oldirish qulfida kalitning holati ⇨ 8-16 bandini va Zaxira quvvatlash moduli ⇨ 8-20 bandni ko'ring.

Garchi shaffof lyuk har doim ekspress-rejimda ishlayotgan bo'lsada, uning harakatlanishini o'zgartirgichga takroran bosish bilan to'xtatish mumkin.

Elektr nosozlik mavjudligida lyukni ochish yoki yopish imkoni yo'q.



1. Harakatlanish o'zgartirgichi
2.Quyoshdan himoyalash pardachasining elektr yuritmasi o'zgartirgichi
3. Egilganlik o'zgartirgichi

Shaffof lyukni boshqarish:

- To'liq ochilgan holatga ochish uchun SLIDE (1)ni bosing va qo'yib yuboring. Avtomobil tomining lyuki aerodinamik shovqinni kamaytirish uchun ochilishni oraliq holatiga ega bo'lishi mumkin. Yarim avtomatik ochishda lyuk taxminan yo'lni yarmida to'xtaydi. Uni to'liq ochish uchun, SLIDE (1) klavishasini yana bir marta bosing va qo'yib yuboring.
- Ekspress-yopish uchun SLIDE (1)ni suring va qo'yib yuboring.
- Lyuk kerakli holatda bo'lib qolishda SLIDE (1)ni yana bir marta bosing yoki uni suring.

Quyoshdan himoyalash pardachasini boshqarish:

- Tez ochish uchun (2) tugmani bosing va qo'yib yuboring.
- Ekspress-yopish uchun (2)ni suring va qo'yib yuboring.
- Kerakli holatda to'xtatish uchun (2)ni yana bir marta bosing yoki uni suring.

Shamollatish rejimini boshqarish:

- Shamollatish holatiga shaffof lyukni tez ochish uchun, TILT (3) tugmasini bosing va uni qo'yib yuboring.
- Lyukni shamollatish holatidan yopish uchun TILT (3)ni torting va qo'yib yuboring.

Avtomat orqaga yurish tizimi

Shift lyuki va quyoshdan himoyalash pardacha, agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, avtomat orqaga yurish tizimi bilan jihozlangan, u faqat shift lyuki va quyoshdan himoyalash pardachasi yarim avtomatik rejimda ishlayotganda faoldir.

Agar yarim avtomat rejimda yopilish uchun to'siqlar paydo bo'lgan bo'lsa, orqaga yurish tizimi to'siqni aniqlayotganida, shift lyukining yoki quyoshdan himoyalash pardachasining harakatlanishini to'xtatadi va ularni ozgina ochadi.

Agar bu sodir bo'layotgan bo'lsa, to'siqni olib tashlashga urinib ko'ring va so'ngra ekspress-yopish uchun o'zgartirgichni torting va qo'yib yuboring. Agar harakatlanish yo'nalishi o'zgartirish bir necha marta sodir bo'layotgan bo'lsa, haydovchining axborot markazida OPEN THEN CLOSE SUNROOF (SHAFFOF LYUKNI OCHING VA YOPING) xabari paydo bo'ladi va ekspress-yopish o'chiriladi.

Ekspress-yopish o'chiqligida, shaffof lyukni boshqarish uchun o'zgartirgichni bosish va uni ushlab turish zarur.



Tom lyukining zichlagichida va yo'naltirgichlarida chang va loy to'planib qolishi mumkin.

Bu tom lyukidan foydalanilayotganida nosozlik, hamda shovqinning hosil bo'lish sababi bo'lib qolishi mumkin. Shuningdek, suvni olib tashlash tizimini tiqilib qolishi ehtimoli bor. Vaqti-vaqti bilan lyukni ochib turing va barcha begona buyumlarni va yumshoq loyni olib tashlang.

Lyuk zichlagichini va tomning zichlanish zonasini yumshoq sovunli eritmada namlantirilgan toza matoda artib oling.

Lyuk moylamasini olib tashlamang.

2 O'RINDIQLAR VA HIMOYA TIZIMLARI

- BOSH TAGLIKLARI 2-2
- OLDINGI O'RINDIQLAR 2-4
- ORQA O'RINDIQLAR 2-10
- XAVFSIZLIK KAMARLARI 2-19
- SHISHIRILUVCHI XAVFSIZLIK YOSTIQLAR TIZIMI 2-26
- BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI 2-37

BOSH TAGLIKLARI

Avtomobilning oldingi o'rindiqlari sozlanuvchi, suyanchiq bilan birlashtirilmagan bosh tagliklariga ega.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Agar bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki noto'g'ri sozlangan bo'lsa, to'qnashuv vaqtida bo'yin va umurtqaning jarohat olishni yuqori xavfi mavjuddir. Agar barcha bosh tagliklari o'rnatilmagan yoki sozlanmagan bo'lsa, avtomobilni boshqarish taqiqlanadi.
> Agar avtomobilning orqa o'rindiqlari taxlanuvchi bosh tagliklari bilan jihozlangan bo'lsa, yo'lovchilar o'rindiqlarni egallaganda har safar ularni tiralgunicha ko'tarishni unutmang.

Bosh tagligini uning tepa qismi yo'lovchi boshining tepa qismi bilan bir xil balandlikda bo'ladigan qilib sozlang. Bosh tagligining xuddi shunday holatida to'qnashuv paytida bo'yinning jarohat olishi xavfi pasayadi.

Oldingi o'rindiqlar

Avtomobilning oldingi o'rindiqlari sozlanuvchi, suyanchiq bilan birlashtirilmagan bosh tagliklariga ega.



Bosh tagliklarini balandligini sozlash mumkin. Bosh tagligini ko'tarish yoki tushirish uchun, bosh tagligi biqinida joylashgan tugmani bosing, bosh tagligini tepaga tortish yoki uni pastga tushiring, so'ngra esa tugmani qo'yib yuboring. Tugma qo'yib yuborilganidan keyin, bosh tagligiga bosing va u joyida qayd etilganligiga ishonch hosil qilish uchun uni tepaga torting.
Oldingi yon tomon o'rindiqlarning bosh tagliklari yechilmaydi.

Orqa o'rindiqlar

Ikkinchi qator o'rindiqlari

Avtomobilning ikkinchi qator yon tomon o'rindiqlari bosh tagliklari bilan jihozlangan, ularni sozlash mumkin.
Ikkinchi qator yon tomon o'rindiqlarning bosh tagliklari yechilmaydi.
Ikkinchi qator o'rindiqlarning bosh tagliklari taxlanuvchi ko'rinishida bajarilgan.
Ikkinchi qator o'rindiqlarning suyanchiqlarini pastga taxlashda bosh tagliklari suyanchiqni pastga tushirilishiga xalal bermaslik uchun avtomatik pasayadi.
Ikkinchi qator yon tomon o'rindiqlarning bosh tagliklarini, agar orqa o'rindiqlar bo'sh bo'lsa, ko'rish maydonini yaxshilash uchun oldinga taxlash mumkin.

Bosh tagligini taxlash uchun, bosh tagligining yon tomonidagi tugmani bosing.



Bosh tagligi oldinga avtomatik taxlanadi.
Agar o'rindiqda yo'lovchi o'tirgan yoki bolalarni tutib turuvchi qurilmasi o'rnatilgan bo'lsa, bosh tagligini muqarrar ishchi holatga keltiring. Bosh tagligiga tepaga va orqaga qayd etilgunicha bosing. Bosh tagligi qayd etilganligiga ishonch hosil qilish uchun uni tebrantirib ko'rishga urinib ko'ring.

Uchinchi qator o'rindiqlari

Avtomobilning uchinchi qator yon tomon o'rindiqlari bosh tagliklari bilan jihozlangan, ularni tepaga-pastga sozlash mumkin.
Uchinchi qator yon tomon o'rindiqlarning bosh tagliklari yechilmaydi.
Uchinchi qator yon tomon o'rindiqlarning bosh tagliklari taxlanuvchan ishlangan.
Uchinchi qator o'rindiqlarning suyanchiqlarini pastga taxlashda bosh tagliklari suyanchiqni pastga tushirilishiga xalal bermaslik uchun avtomatik pasayadi.
Bosh tagliklarini, agar orqa o'rindiq bo'sh bo'lsa, ko'rish maydonini yaxshilash uchun oldinga taxlash mumkin.



Bosh tagligini taxlash uchun, bosh tagligining yon tomonidagi tugmani bosing.



OLDINGI O'RINDIQLAR

Bosh tagligi oldinga avtomatik taxlanadi.
Agar o'rindiqda yo'lovchi o'tirgan yoki bolalarni tutib turuvchi qurilmasi o'rnatilgan bo'lsa, bosh tagligini muqarrar ishchi holatga keltiring. Bosh tagligiga tepaga va orqaga qayd etilgunicha bosing. Bosh tagligi qayd etilganligiga ishonch hosil qilish uchun uni tebrantirib ko'rishga urinib ko'ring.

O'rindiqlarni sozlashning elektr yuritmasi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Harakatlanish vaqtida haydovchi o'rindig'ini sozlashga urinish avtomobil boshqaruvi yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Haydovchi o'rindig'ini faqat harakatlanmayotgan avtomobilda sozlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Elektr yuritmali o'rindiqlar o't oldirish o'chirilgan vaqtda ishlaydi. Bolalar elektr yuritmali o'rindiqni harakatga keltirishi va jarohat olishi mumkin. Avtomobilda bolalarni qarovsiz hech qachon qoldirmang.

O'rindiqni sozlash uchun:
- Sozlash tutqichini oldinga yoki orqaga siljitib, o'rindiqni oldinga yoki orqaga suring.
- O'rindiq yostig'ining oldingi qismini ko'tarish yoki tushirish uchun (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa), sozlash tutqichining oldingi qismini tepaga yoki pastga suring.
- O'rindiqni ko'tarish yoki tushirish uchun, boshqarish dastasini orqa qismini ko'taring yoki tushiring.

O'rindiq suyanchig'ini qiyaligi



O'rindiq suyanchig'ini orqaga tashlash uchun:
- Suyanchiqni orqaga tashlash uchun, boshqarish dastasining tepa qismini orqaga engashtiring.

• Suyanchiqni vertikal holatga qaytarish uchun, boshqarish dastasini tepa qismini oldinga engashtiring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Safar qilish vaqtida qiyalangan holat xavfli bo'lishi mumkin. Ushbu holatda, hatto, xavfsizlik kamarlari ham zaruriy himoyani ta'minlab berishi mumkin emas. Kamarning yelka shohi tanani tutib turmaydi. Buning o'rniga u Sizning oldingizda joylashgan bo'ladi. To'qnashuv holatida uning ustiga yiqilib tushish va bo'yin jarohatini yoki boshqa shikastlanishlarni olish mumkin.
Xavfsizlik kamarining bel qismi tepaga ko'tarilib ketishi va qorinni siqib qo'yishi mumkin. Barcha yuklama tos suyagiga emas, balki ushbu sohaga to'g'ri keladi. Bu ichki a'zolarning jiddiy shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
Xavfsizlik maqsadida harakatlanish vaqtida o'rindiq suyanchig'i vertikal holatga o'rnatilgan bo'lishi kerak. So'ngra o'rindiq suyanchig'iga qulay tiralish va tegishli tarzda xavfsizlik kamarini taqib olish kerak.

Avtomobilning harakatlanishi vaqtida suyanchiqni engashtirish mumkin emas.

Bel tayanchini sozlash



• Bel tayanchini oshirish yoki kamaytirish uchun, muvofiq tarzda oldingi yoki orqa tutqichni bosing va ushlab turing.
• Bel tayanchini ko'tarish yoki tushirish uchun, o'zgartirgichning (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) klavishasini tepa yoki pastki hoshiyasiga bosing va uni ushlab turing.

O'rindiqlar holatini eslab qolish.



Qisqacha ma'lumot

Ba'zi jamlanmalarda avtomobil o'rindiqlar sozlamasi xotirasi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, u har bir haydovchi ostiga o'rindiqning turlicha holatlarini va tushirish uchun bitta umumiy holatni saqlashga imkon beradi.

"O'rindiq holati sozlamalarini saqlash" bandini ushbu bo'limda quyida ko'ring. Saqlangan holatlarni barcha haydovchilar uchun qo'lda chaqirish mumkin.
"O'rindiqlarni holati sozlamalarini qo'lda tiklash" bandini ushbu bo'limda quyida ko'ring. 1 va 2 radiobreloklarga ega bo'lgan haydovchilar ham ularni avtomatik chaqirishlari mumkin.
“O'tirishda o'rindiqlar holatini sozlamalarini avtomatik qo'llash" yoki "Chiqishda o'rindiq holatlarini sozlamalarini avtomatik qo'llash"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring. Sozlamalarni avtomatik qo'llash funksiyasidan foydalanish uchun, "O'tirishda o'rindiq holatini sozlash" va (yoki) "Tushishda o'rindiq holatini sozlash" bandlarini faollashtiring.
"Yakka tartibdagi sozlamalar" kichik bo'limning "Sozlamalarni avtomatik qo'llash" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
Elektr yuritmaning ishlashini sozlamalarni qo'llash jarayonida har qanday paytda to'xtatish mumkin.
"O'rindiq sozlamalarini qo'llanilishini to'xtatish" bandini ushbu bo'limda quyida ko'ring.

Haydovchi raqamini identifikatsiyasi

Avtomobil haydovchini masofadan boshqarish radiobrelogining raqami bo'yicha taniydi (1-8). Joriy paytda qo'llaniluvchi radiobrelok raqami haydovchining axborot markazi displeyida "x haydovchining o'rindig'i holatlari sozlamalari qo'llanilgan bo'ladi" xabarida ko'rsatiladi.
Ushbu xabar qo'llaniluvchi radiobrelokning almashtirilishidan keyin birinchi bir necha marta o't oldirish yoqilishida aks ettiriladi. O'rindiq sozlamalarini avtomatik qo'llash funksiyasi to'g'ri ishlashi uchun, salomlashish xabaridagi raqamga muvofiq 1 yoki 2 klavisha yordamida sozlamalarni saqlash zarur. Tizim masofadan boshqarish radiobrelogini to'g'ri aniqlashi mumkin bo'lishi uchun, avtomobil saloniga faqat bitta radiobrelokni olish tavsiya etiladi. Agar salomlashish xabari aks ettirilmasa, quyidagi harakatlarni bajaring:
1. Avtomobildan barcha masofadan boshqarish radiobreloklarini olib qo'ying.
2. Avtomobilni boshqa radiobrelog bilan ishga tushiring. Haydovchining axborot markazida ushbu masofadan boshqarish radiobrelogini qo'llayotgan xuddi o'sha haydovchining raqami bilan salomlashish xabari paydo bo'lishi kerak. Avtomobilni o'chiring va boshqa radiobrelokni avtomobildan olib qo'ying.
3 . Avtomobilni dastlabki radiobrelok bilan ishga tushiring. Haydovchining axborot markazida dastlabki radiobrelokdan foydalanayotgan o'sha haydovchining raqami bilan salomlashish xabari paydo bo'lishi kerak.

O'rindiq holati sozlamalarini saqlash

Xotirada holatlarni saqlashdan avval ushbu yo'riqnomalarni to'liq hajmda o'qib chiqing.
1 yoki 2 klavisha uchun o'rindiqning joriy holatini saqlash uchun:
1. O't oldirishni yoki yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimini yoqing. Haydovchining axborot markazida joriy radiobrelokdan foydalanayotgan haydovchining raqami bilan salomlashish xabari paydo bo'lishi kerak. Ushbu bo'limda oldinroq "Haydovchi raqamini identifikatsiyasi"ni ko'ring.
2. Xotirada barcha erishimli sozlamalarni haydash uchun kerakli holatga o'rnating.
3. SET (O'rnatish) tugmasini bosing va qo'yib yuboring;
ovozli signal uzatiladi.
4. Siz SET klavishasini qo'yib yuborganingizdan keyin darhol, 1 yoki 2 klavishani, toki ikkita tasdiqlovchi ovozli signalni eshitmaguningizcha, bosing va ushlab turing (xabarda qaysi raqam ko'rsatilganligiga bog'liq holda).
Agar SET klavishasini qo'yib yuborish va 1 yoki 2 klavishasini bosish orasidagi pauza juda ham katta bo'lsa, sozlamalar saqlanmaydi va zummerning tasdiqlovchi signallari uzatilmaydi.
3- va 4-bandlarda tavsiflangan harakatlarni takrorlang.

5. 1-4-bandlarda tavsiflangan harakatlarni xotiraning boshqa klavishasini (1 yoki 2) qo'llab, boshqa masofadan boshqarish radiobrelogi (1 yoki 2) uchun takrorlang.
Agar siz yagona haydovchi hisoblansangiz, sozlamalarni ikkala klavishalar (1 va 2) uchun saqlash tavsiya etiladi.
O'rindiq holatini sozlamalarini xotiradan qo'lda chaqirishda yoki chiqishda o'rindiqning holatini sozlamalarini avtomatik qo'llashda qo'llanuvchi klavisha yordamida chiqish uchun holatni barcha haydovchilar uchun umumiyni saqlash uchun, klavishani qo'llab, 1-4-bandlarda tavsiyalangan harakatlarni bajaring.

O'rindiq holatini sozlamalarini xotiradan qo'lda chaqirish

1, 2 yoki klavishalarni bosing va toki o'rindiq ushbu klavisha uchun avval saqlangan holatga o'rnatilmagunicha uni ushlab turing.
1, 2 yoki klavishalar yordamida o'rindiq holati sozlamalarini xotiradan qo'lda chaqirish faqat P (to'xtab turish) rejimini yoqishda yoki o'chirishda bajarilgan bo'lishi mumkin.

"Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash" bo'limida Sozlamalarni avtomatik chaqirish funksiyasini yoqish

- O't oldirishni yoqishda 1 yoki 2 klavisha uchun saqlangan holatga o'rindiqni o'rnatish funksiyasini faollashtirish uchun, "Sozlamalar", so'ngra "Avtomobil", keyin "O'rindiq holati", so'ngra "O'tirishda o'rindiq holati sozlamalarini qo'llash" bo'limlariga o'ting va "Yoqish" yoki "O'chirish"ni tanlang. "O'tirishda o'rindiq holati sozlamalarini avtomatik qo'llash"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.
- O't oldirish yoqilishida va haydovchining eshigi ochilishida (yoki haydovchining eshigi ochiqligida) tushirish uchun klavishasi uchun saqlangan holatda o'rindiqni o'rnatish funksiyasini faollashtirish uchun, "Sozlamalar", so'ngra "Avtomobil", keyin "O'rindiq holati", so'ngra "O'tirishda o'rindiq holati sozlamalarini qo'llash" bo'limlariga o'ting va "Yoqish" yoki "O'chirish"ni tanlang. "Chiqishda o'rindiq holatlarini sozlamalarini avtomatik qo'llash"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.

O'tirishda o'rindiqlar holatini sozlamalarini avtomatik qo'llash

1 yoki 2 klavisha uchun saqlangan o'tirishda o'rindiq holatini sozlamalari 1 yoki 2 qo'llaniluvchi masofadan boshqarish radiobrelogiga bog'liq holda avtomatik qo'llaniladi, agar:

- O't oldirish yoqilgan.
- 1 yoki 2 klavisha uchun avval o'rindiq holatini sozlamalari saqlangan. "O'rindiq holati sozlamalarini saqlash" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
- O'tirishda o'rindiq sozlamalarini avtomatik qo'llash funksiyasi yoqilgan. "Yakka tartibdagi sozlamalar" kichik bo'limining "Sozlamalarni avtomatik qo'llash" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
- Avtomobilda uzatmalar qutisini P (To'xtab turish) rejimi yoqilmagan.

Agar selektor dastagi o'rindiq saqlangan holatga turishga ulgurguniga qadar P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarilsa, elektr yuritmani ishi to'xtamaydi. Agar o'rindiq avval saqlangan holatga avtomatik o'rnatilmayotgan bo'lsa, sozlamalarni avtomatik qo'llash funksiya yoqilganligiga ishonch hosil qiling. "Yakka tartibdagi sozlamalar" kichik bo'limning "Sozlamalarni avtomatik qo'llash" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Agar o'rindiqlar saqlangan holatdan boshqa holatga o'rnatilayotgan bo'lsa, ehtimol, radiobrelok (1 yoki 2) raqami sozlamalar saqlangan klavisha raqamiga muvofiq kelmaydi. Boshqa radiobrelokdan foydalanib ko'rishga yoki holat sozlamalarini boshqa klavisha (1 yoki 2) ostida saqlashga urinib ko'ring.
"O'rindiq holatini sozlamalarini saqlash" bo'limini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring. O'tirishda o'rindiq holatini sozlamalarini avtomatik qo'llash faqat 1 yoki 2 masofadan boshqarish radiobreloklari uchun erishimli. 3 - 8 radiobreloklar uchun o'tirishda o'rindiqlar holatini sozlamalarini avtomatik qo'llanilishi erishimli bo'lmaydi.

Chiqishda o'rindiqlar holatini sozlamalarini avtomatik qo'llanilishi

Elektr yuritma klavisha uchun saqlangan chiqish uchun holatga o'rnatadi, qachonki:
- Haydovchi o't oldirishni o'chiradi va bundan keyin darhol eshikni ochadi (yoki eshik ochilib bo'lgan).
- klavishasi uchun avval o'rindiq holatlarini sozlamasi saqlangan. "O'rindiq holati sozlamalarini saqlash"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
- Chiqishda o'rindiq sozlamalarini avtomatik qo'llash funksiyasi yoqilgan. "Yakka tartibdagi sozlamalar" kichik bo'limning "Sozlamalarni avtomatik qo'llash" bandini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
- Avtomobilda uzatmalar qutisini P (To'xtab turish) rejimi yoqilmagan.

Agar selektor pishangisini o'rindiq chiqish uchun saqlangan holatga turishga ulgurgunicha P (to'xtab turish) holatidan chiqarilsa, elektr yuritmaning ishi to'xtamaydi.
Chiqishda o'rindiq holati sozlamalari biron bir muayyan radiobrelogga bog'lanmaydi.
klavisha uchun saqlangan o'rindiq holati sozlamalari barcha radiobreloklar bilan ishlatiladi.

O'rindiq sozlamalarini qo'llanilishi to'xtatilishi
- Sozlamalarni qo'lda yoki avtomatik qo'llash vaqtida:
  O'rindiq holatini sozlashning istalgan klavishasini bosing.
  SET klavishasini bosing
- Sozlamalarni qo'lda qo'llash vaqtida: Xotira klavishasi 1, 2 yoki ni qo'yib yuboring
- O'tirishda sozlamalarning avtomatik qo'llanilishi vaqtida:
  O't oldirishni o'chiring
  1, 2 yoki xotira klavishasini bosing
- Chiqishda sozlamalarning avtomatik qo'llanilishi vaqtida:
  1, 2 yoki xotira klavishasini bosing

To'siqlar

Agar xotirada saqlangan sozlamalarni chaqirishda o'rindiq harakatlanishiga biron narsa xalal bersa, elektr yuritma ishi to'xtatilgan bo'lishi mumkin. To'siqlarni olib tashlang va funksiya chaqirilishini takrorlang. Agar sozlamalarni xotiradan chaqirish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling.

Isitiluvchi oldingi o'rindiqlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

O'rindiqlarni isitish, agar terining haroratlar o'zgarishini yoki og'riqni his qilish qobiliyati susaygan bo'lsa, kuyishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin. Kuyishlar xavfini pasaytirish uchun isitish funksiyasidan, ayniqsa uzoq vaqt davomida, o'ta ehtiyotkorlik bilan foydalaning. O'rindiqni ko'rpa, yostiqlar, g'iloflar va hokazolar kabi issiqlik izolyatsiyasi buyumlari bilan yopib qo'ymang. Bu o'rindiq isitgichini haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi mumkin. O'rindiq isitgichining haddan tashqari qizib ketishi kuyishlar yoki o'rindiq shikastlanishi oqibati bo'lib qolishi mumkin.



KTugmalar (muvofiq jamlanmada) markaziy ustunda iqlim-nazorat tizimi sozlagichlari bilan yonma-yon joylashtirilgan. O'rindiqlar isitilishi faqat dvigatel yoqilganida ishlaydi.

Haydovchi yoki yo'lovchining o'rindig'i suyanchig'ini isitilishini yoqish uchun, yoki ni bosing. Haydovchi yoki yo'lovchining o'rindig'i suyanchig'ini va yostig'ini isitilishini yoqish uchun, yoki ni bosing.

Agar bu funksiya o'chirilgan bo'lsa, tugmalardagi o'rindiqlarni isitilish belgisi oq rangda bo'ladi.

O'rindiq isitilishi yoqilgan vaqtda, belgi qizil rangga o'zgaradi.

Tugmani bir marta bosishda maksimal rejim tanlangan bo'ladi. Har bir keyingi bosish bilan sozlama funksiya o'chirilishigacha pastroqqa almashadi. Tugmalar yonidagi indikatorlar isitilish jadalligiga ko'rsatadi: maksimal jadallikda uchta indikatorlar, minimal jadallikda - bitta indikator yonib turadi. Agar o'rindiqlar isitilish jadalligi maksimumga o'rnatilgan bo'lsa, u holda taxminan 30 minut o'tib u avtomatik pasaytirilishi mumkin.

Yo'lovchi o'rindig'ini isitish uchun ko'proq vaqt talab etilishi mumkin.

Avtoisitiluvchi o'rindiq

Dvigatel ishga tushirilgan vaqtda, ushbu funksiya avtomobil salonidagi haroratga bog'liq holda o'rindiqlar isitilishini avtomatik yoqadi.

O'rindiqlarni isitilishini faol darajasi (kuchli, o'rtacha, kichik yoki isitilishsiz) markaziy pultda joylashgan qo'lda isitish tugmalari bilan ko'rsatiladi. Markaziy pultda qo'lda isitish tugmalari bilan o'rindiqlarning avtoisitilishi o'chadi. Agar yo'lovchi o'rindig'i band bo'lmasa, uning avtoisitilishi yoqilmaydi.

O'rindivlarni avtoisitish funksiyasini ishga tushirilgan dvigatelda doimiy ishlashga dasturlash mumkin.

O'rindiqlarni avtomatik isitishni yoqish yoki o'chirish uchun, Settings (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > Climate and Air Quality (Iqlim nazorati va havo sifati) > Auto Heated Seats (O'rindiqlarni avtomatik isitish) > ON (YOQISH) yoki OFF (O'CHIRISH) ni tanlang.

Masofadan ishga tushirishda o'rindiq isitilishi

Sovuq ob-havoda masofadan ishga tushirishda isitilishli o'rindiqlar, agar ular o'rnatilgan bo'lsa, avtomatik yoqilishi mumkin. Agar avtomobilning o'rindiqlar isitilishini avtomatik yoqish funksiyasi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) o'chirilmagan bo'lsa, o'rindiqlar isitilishi o't oldirish yoqilishida o'chib qolishi mumkin. Agar zarurat tug'ilsa, dvigatelni ishga tushirishdan keyin o'rindiqlar isitilishini yoqish uchun, o'rindiqlar isitilishi tugmasini bosing. Dvigatelni masofadan ishga tushirishda isitish indikatori yonmasligi mumkin.

Bo'sh o'rindiqning isitilishi pasaytirilgan bo'lishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi.

Masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarni isitish rejimini avtomobilning yakka tartibdagi sozlamalari menyusida sozlash mumkin.

Avtomobilni masofadan ishga tushirish ⇨ 1-9 bo'limni ko'ring.

Dvigatelni masofadan yoqish paytida o'rindiqlarni isitishni yoqish yoki o'chirish uchun, Settings - (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > "Remote Lock, Unlock and Start" ("Masofadan qulflash, qulfni ochish va ishga tushirish") Remote Start Auto Heat Seats (Dvigatelni masofadan yoqish paytida o'rindiqlar isitilishini avtomatik yoqish). > ON (YOQISH) yoki OFF (O'CHIRISH) ni tanlang.

ORQA O'RINDIQLAR

Orqa o'rindiq signalizatori

Agar bunday signalizator avtomobil jamlanmasiga kirsa, displeyda ma'lum shartlarda REAR SEAT REMINDER LOOK IN REAR SEAT (Orqa o'rindiq signalizatori, orqa o'rindiqni tekshiring) xabari paydo bo'ladi, u orqa o'rindiqda buyum yoki yo'lovchi joylashgan bo'lishi mumkinligini eslatib turadi.

Avtomobildan chiqishda orqa o'rindiqni tekshiring.

Dvigatel ishlab turgan vaqtda, yoki dvigatelni ishga tushirishgacha 10 minut oldin, agar o'rindiqlarning ikkinchi qatori eshigi ochilgan bo'lsa, bu funksiya faollashtiriladi. Dvigatel o'chirilgan vaqtda, ogohlantirish uzatiladi.

Bunday ogohlantirish orqa o'rindiqda obyektning mavjudligiga bevosita ko'rsatmaydi, muayyan sharoitlarda esa orqa o'rindiqda obyektning joylashish ehtimoliga ko'rsatib, faqat orqa eshik ochilayotganini yoki yopilayotganini qayd qiladi.

Dvigatelni har ishga tushirilishida yoki to'xtatilishida funksiya faqat bir marta faollashtiriladi va o'rindiqlarni ikkinchi qatori eshiklarini ochilishi yoki yopilishi bilan qayta ishga tushiriladi. Ogohlantirish hatto orqa o'rindiq bo'sh bo'lganida, masalan, agar bola avtomobilga orqa eshik orqali kirib borganida va dvigatel ishlashni davom ettirayotgan xuddi o'sha vaqtda avtomobilni tark etayotganida ham uzatilishi mumkin.

Funksiyani yoqish yoki o'chirish mumkin. Settings -(Sozlamalar)> Vehicle (Avtomobil)> Rear Seat Reminder (orqa o'rindiq signalizatsiya qurilmasi)> ON (YOQISH) yoki OFF (O'CHIRISH) ni tanlang.

Ikkinchi qator o'rindiqlari

Orqa o'rindiqlarni sozlash



O'rindiq holatini sozlash uchun:

1. Ikkinchi qator o'rindiqlari oldi va uning osti polidan, hamda poldagi o'rindiqlarning yo'naltirgichlaridan buyumlarni olib qo'ying.
2. O'rindiq yostig'i ostidagi pishangini ko'taring va o'rindiqni oldinga yoki orqaga suring.

O'rindiq suyanchig'ini qiyaligi

O'rindiq suyanchig'ini orqaga tashlash uchun:



1. Suyanchiqni tashqi hoshiyasidagi pishangini ko'taring.
2. O'rindiq suyanchig'ini kerakli holatga o'rnating va suyanchiqni mahkamlash uchun pishangni qo'yib yuboring.
3. Suyanchiq mahkamlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.

O'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga qaytarish:

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bloklanmagan suyanchiq to'qnashuv yoki keskin to'xtashda oldinga surilib ketishi mumkin, bu ushbu joyda o'tirgan odamga jarohatlar keltirishi mumkin. Suyanchiqni itarib va uni tortib, uning mahkamlanganligini har doim tekshirish kerak.

1. O'rindiq suyanchig'iga bir vaqtda bosib, pishangni chetki tepa holatga ko'taring, va suyanchiq vertikal holatga qaytadi. Agar suyanchiqqa bosmasdan pishang ko'tarilsa, o'rindiq taxlangan holatga keladi.
2. Suyanchiq mahkamlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.

O'rindiqlarning uchinchi qatoriga kirish

O'rindiqlarni qo'lda taxlash va orqaga tashlash

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning harakatlanishi vaqtida ikkinchi qator o'rindig'ini orqaga tashlab qo'yilgan holatda qoldirmang. Orqaga tashlab qo'yilgan o'rindiq qayd etilmagan. Avtomobil harakatlanishi vaqtida u harakatga kelishi mumkin. Keskin to'xtashda yoki avariyada avtomobildagi odamlar jarohat olishlari mumkin. Harakatni boshlashdan avval,

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

o'rindiqni ishchi holatga albatta qaytaring. O'rindiq qayd etilishini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga siljitib ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Taqilgan xavfsizlik kamarlari bilan orqa o'rindiqni taxlab, siz o'rindiqni yoki kamarlarni shikastlashingiz mumkin. Orqa o'rindiqni taxlashdan avval xavfsizlik kamarlarini yechib qo'yish va ularni odatiy taxlangan holatga qaytarish zarur.

Yuk uchun qo'shimcha joyni bo'shatish uchun ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash yoki uchinchi qator o'rindiqlariga qulay o'tishni ochish uchun ularni taxlash va ag'darib qo'yish mumkin.

O'rindiqlarni taxlash va orqaga tashlash

O'rindiqni taxlash va ag'darib qo'yish uchun:
1. O'rindiq ostida, uning oldida va uning ustida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.



2. Suyanchiqni bo'shatish uchun, suyanchiqning tashqi biqin tomonidagi pishangini ko'taring.

Suyanchiq yassi yuk polini hosil qilib, oldinga taxlanadi.
Agar suyanchiq taxlanmayotgan bo'lsa, oldingi o'rindiqni oldinga surishga va/yoki oldingi o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga o'rnatishga urinib ko'ring.

3. O'rindiqning orqa qismini poldan ko'tarish uchun, pishangini qayta ko'taring. O'rindiq oldinga ag'dariladi.

Uchinchi qatordan o'rindiqni taxlash va orqaga tashlash

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ikkinchi qator o'rindiqlari taxlangan yoki taxlangan va orqaga tashlab qo'yilgan holatida o'rindiqlarning uchinchi qatorida yo'lovchilarni tashish keskin to'xtashda yoki avariyada jarohatlarga olib kelishi mumkin. O'rindiqni albatta ishchi holatga qaytaring. O'rindiq qayd etilishini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga siljitib ko'ring.

Uchinchi qator o'rindiqlarida joylashgan vaqtda o'rindiqni taxlash va orqaga tashlash uchun:
1. O'rindiq ostida, uning oldida va uning ustida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.



2. Suyanchiqni bo'shatish uchun, ikkinchi qator o'rindig'ining pastidagi orqadagi kamardan torting. Suyanchiq oldinga taxlanadi.

3. O'rindiqni orqa qismini poldan ko'tarish uchun, kamardan qayta torting. O'rindiq oldinga ag'dariladi.

O'rindiqlarni avtomatik taxlash va orqaga tashlash

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning harakatlanishi vaqtida ikkinchi qator o'rindig'ini orqaga tashlab qo'yilgan holatda qoldirmang. Orqaga tashlab qo'yilgan o'rindiq qayd etilmagan. Avtomobil harakatlanishi vaqtida u harakatga kelishi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

mumkin.Keskin to'xtashda yoki avariyada avtomobildagi odamlar jarohat olishlari mumkin. Harakatlanishni boshlashdan avval, o'rindiqni albatta ishchi holatga qaytaring.
O'rindiq qayd etilishini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga siljitib ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yo'lovchi joylashgan o'rindiqni avtomatik taxlanishi va orqaga tashlanishi yo'lovchiga jarohat yetkazilishiga olib kelishi mumkin. O'rindiqni avtomatik bo'shatish tugmasini bosishdan avval, o'rindiqda hech kim joylashmaganligiga ishonch hosil qiling.

⚠ *DIQQAT!*

Taqilgan xavfsizlik kamarlari bilan orqa o'rindiqni taxlab, siz o'rindiqni yoki kamarlarni shikastlashingiz mumkin. Orqa o'rindiqni taxlashdan avval xavfsizlik kamarlarini yechib qo'yish va ularni odatiy taxlangan holatga qaytarish zarur.

Ushbu funksiya ishlashi uchun, avtomobil P (to'xtab turish) rejimiga joylashtirilgan bo'lishi kerak.

O'rindiqlarni taxlash va orqaga tashlash

O'rindiqni taxlash va ag'darib qo'yish uchun:
1. O'rindiq ostida, uning oldida va uning ustida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Haydovchi tomonidagi orqa panelidagi o'zgartirgich

2.Orqa eshiklar ortidagi o'rindiqni avtomatik bo'shatish o'zgartirgichiga bosing. Suyanchiq avtomatik oldinga taxlanadi.
3. O'rindiqning orqa qismini poldan ko'tarish uchun, qayta ushbu tugmaga bosing. O'rinidiq oldinga ag'dariladi.

Yuk bo'linmasi tomonidan ikkinchi qator o'rindiqni taxlash va orqaga tashlash

Ushbu funksiya ishlashi uchun, avtomobil P (to'xtab turish) rejimiga joylashtirilgan bo'lishi kerak.



1. Elektr dvigatelli ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichi
2. Elektr dvigatelli uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichlari Yuk bo'linmasida joylashgan holda o'rindiqni taxlash va orqaga tashlash uchun:
1. O'rindiq ostida, uning oldida va uning ustida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.
2. Ikkinchi qator o'rindig'i suyanchig'ini taxlash uchun, yuk bo'linmasining yon tomon panelida o'zgartirgich (1)ga bosing.

Chap tomondagi o'zgartirgich chap suyanchiqni, o'ng tomondagi o'zgartirgich o'ng suyanchiqni taxlaydi.
3. O'rindiqning orqa qismini poldan ko'tarish uchun, qayta ushbu tugmaga bosing.
O'rindiq oldinga ag'dariladi. Yuk bo'linmasidan uchinchi qator o'rindiqlarining suyanchiqlarini taxlash uchun o'zgartirgichlar (2) Uchinchi qator o'rindiqlari ⇨ 2-3ni ko'ring.

O'rindiqni ishchi holatga qaytarish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bloklanmagan suyanchiq to'qnashuv yoki keskin to'xtashda oldinga surilib ketishi mumkin, bu ushbu joyda o'tirgan odamga jarohatlar keltirishi mumkin. Suyanchiqni itarib va uni tortib, uning mahkamlanganligini har doim tekshirish kerak.

Orqaga tashlangan holatdan ishchi holatga o'rindiqni qaytarish uchun:
1. O'rindiq polga qayd etilishi uchun, uni pastga torting. Toki o'rindiq polga qayd etilmagunicha, suyanchiqni ko'tarish imkoni yo'q.
2. O'rindiq suyanchig'ini ko'taring va orqaga yo'nalish bo'yicha unga bosing. Suyanchiq qaydlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.
3. 60/40 nisbatdan bo'lingan o'rindiq uchun markaziy joydagi xavfsizlik kamari ikki o'rindiq orasida tiqilib qolmaganligi va buralib qolmaganligi ustidan kuzatib boring.

Isitiladigan orqa o'rindiqlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

O'rindiqlarni isitish, agar terining haroratlar o'zgarishini yoki og'riqni his qilish qobiliyati susaygan bo'lsa, kuyishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin. Ogohlantirishlarni Isitiluvchi oldingi o'rindiqlar ⇨ 2-8 bo'limda ko'ring.



Tugmalar markaziy konsolda orqada joylashgan (muvofiq jamlanmada). Chap yoki o'ng yon tomon o'rindiqlarini yostiqlarini isitilishini yoqish uchun
ni yoki o't oldirish yoqiqligida ni bosing. Shuningdek, ushbu funksiya yoqilgan vaqtda, orqa iqlim-nazorat displeyida muvofiq indikator paydo bo'ladi.
Tugmani bir marta bosishda maksimal rejim tanlangan bo'ladi. Har bir keyingi bosish bilan sozlama funksiya o'chirilishigacha pastroqqa almashadi. Tugmalar yonidagi indikatorlar isitilish jadalligiga ko'rsatadi: maksimal jadallikda uchta indikatorlar, minimal jadallikda - bitta indikator yonib turadi.
Agar o'rindiq isitilishi 30 minut davomida maksimal darajada qolayotgan bo'lsa, u avtomatik pasaytirilgan bo'lishi mumkin.

Masofadan ishga tushirishda o'rindiqlarning isitilishi

Dvishgatelni masofadan ishga tushirishda o'rindiqlar isitilishi (muvofiq to'plamda) tashqi havoning past haroratlarida avtomatik yoqiladi. Bunda, o'rindiqlarni isitish indikatorlari yoritilishi mumkin. O'rindiqlarning isitilishi dvigatel ishga tushirilishida bekor qilinishi mumkin. Avtomobilni ishga tushirgandan so'ng o'rindiqlarni isitish funksiyasini qo'lda tanlash uchun ushbu funksiya tugmalaridan foydalaning.
Bo'sh o'rindiqning isitilishi kamaytirilishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi. Dvigatelni masofadan ishga tushirishida o'rindiqlar isitilishini yoqish yoki o'chirish uchun, Settings (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > Remote Lock, Unlock, and Start (Masofadan qulflash, qulfdan yechish va ishga tushirish) > Remote Start Auto Heat Seats (Dvigatelni

masofadan ishga tushirishda o'rindiqlar isitilishini avtomatik yoqish) > ON (YOQISH) yoki OFF (O'CHIRISH)ni tanlang. Avtomobilni masofadan ishga tushirish ⇨ 1-9ga qarang.

Uchinchi qator o'rindiqlari

⚠ *DIQQAT!*
Taqilgan xavfsizlik kamarlari bilan orqa o'rindiqni taxlab, siz o'rindiqni yoki kamarlarni shikastlashingiz mumkin. Orqa o'rindiqni taxlashdan avval xavfsizlik kamarlarini yechib qo'yish va ularni odatiy taxlangan holatga qaytarish zarur.

O'rindiqlarni uchinchi qatori o'rindiqlarini suyanchiqlarini yuk uchun maydonni kattalashtirish uchun taxlash mumkin.

1.Uchinchi qator o'rindiqlarini boshqaruv organlariga yetib borish uchun, yuk bo'linmasini eshigini oching.

2. O'rindiq ostida, uning oldida va uning ustida hech narsa yo'qligiga ishonch hosil qiling.

3. Agar ikkinchi qator o'rindig'i chetki orqa holatga surib qo'yilgan bo'lsa, uchinchi qator o'rindiqlarini to'liq yoyish mumkin bo'lishi uchun, uni oldinga suring.



4. Mini-to'qaning tirqishiga kalitni o'rnatib, orqa o'rindiq xavfsizlik kamarining mini-to'qasini bo'shating, va kamarning shiftga tortilishiga imkon bering.



5. Mini-to'qani shiftdagi saqlash uchun bo'lmachaga olib qo'ying.



6. Xavfsizlik kamarini maxsus ushlagichga mahkamlang.

Zarurat tug'ilganida o'rindiq suyanchig'ini ikkinchi qismini taxlash uchun xuddi shu harakatlarni takrorlang.

Elektr yuritmali o'rindiq suyanchig'ini taxlash (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)

Ushbu funksiya ishlashi uchun, avtomobil P (to'xtab turish) rejimiga joylashtirilgan bo'lishi kerak.



1. Elektr dvigatelli ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichi
2. Elektr dvigatelli uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichlari
1. Uchinchi qator o'rindig'i suyanchig'ini taxlash uchun, yuk bo'linmasini yon tomon panelida o'zgartirgichni (2) bosing va ushlab turing.
Chap tomondagi o'zgartirgich chap suyanchiqni, o'ng tomondagi o'zgartirgich o'ng suyanchiqni taxlaydi.
2. Zarurat bo'lganida xuddi shu harakatlarni ikkinchi o'rindiqning suyanchig'i uchun takrorlang. O'zgartirgichlar (1) yuk bo'linmasidan ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash yoki taxlash va orqaga tashlashga imkon beradi. Ikkinchi qator o'rindiqlari ⇨ 2-10ni ko'ring.

Uchinchi qator o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga qaytarish



1.Elektr dvigatelli ikkinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichi
2. Elektr dvigatelli uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash va orqaga tashlash o'zgartirgichlari Uchinchi qator o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga qaytarish uchun:



1. Xavfsizlik kamari ushlagichda mahkamlanganligini kuzating.
2. O'rindiqlarni boshqarish organlariga yetib borish uchun, yuk bo'linmasini eshigini oching.
3. Uchinchi qator o'rindig'i suyanchig'ini ko'tarish uchun, yuk bo'linmasini yon tomon panelida o'zgartirgichni (2) bosing va ushlab turing.
Chap tomondagi o'zgartirgich chap suyanchiqni, o'ng tomondagi o'zgartirgich o'ng suyanchiqni ko'taradi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Noto'g'ri joylashgan, yomon ulangan yoki buralib qolgan xavfsizlik kamari avariya vaqtida zaruriy himoya darajasini ta'minlamaydi. Xavfsizlik kamarini noto'g'ri qo'llayotgan odam og'ir jarohatlar olishi mumkin. Orqa o'rindiq suyanchig'ini dastlabki holatga o'rnatib, albatta xavfsizlik kamarlari to'g'ri joylashganligiga, ishonchli ulanganligini va buralib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

4. Markaziy o'rindiq kamarining tilini mini-to'qaga o'rnating. Kamarning buralib qolishiga yo'l qo'ymang.
5. Tilchaning ishonchli qayd etilishini tekshirib. xavfsizlik kamarini torting.
6. Zarurat bo'lganida xuddi shu harakatlarni ikkinchi o'rindiqning suyanchig'i uchun takrorlang.

O'rindiq suyanchig'ini qo'lda taxlash (agar ko'zda tutilgan bo'lsa)



1. Suyanchiqni bo'shatish uchun, pishangidan torting.
2. Suyanchiqni taxlash uchun, uni oldinga bosing.
3. Zarurat tug'ilganida ikkinchi o'rindiq suyanchig'ini taxlash uchun ushbu harakatlarni takrorlang.

Uchinchi qator o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga qaytarish



1.Xavfsizlik kamari ushlagichda mahkamlanganligini kuzating.
2.Avtomobilning orqa tomonidagi uchinchi qator o'rindig'i suyanchig'idagi kamardan o'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga ko'taring yoki o'rindiq suyanchig'ini ko'taring va uni avtomobil ichkarisidagi joyga o'rnating.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bloklanmagan suyanchiq to'qnashuv yoki keskin to'xtashda oldinga surilib ketishi mumkin, bu ushbu joyda o'tirgan odamga jarohatlar keltirishi mumkin. Suyanchiqni itarib va uni tortib, uning mahkamlanganligini har doim tekshirish kerak.

3. Suyanchiq mahkamlanganligini tekshirish uchun, uni oldinga-orqaga surib ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Noto'g'ri joylashgan, yomon ulangan yoki buralib qolgan xavfsizlik kamari avariya vaqtida zaruriy himoya darajasini ta'minlamaydi. Xavfsizlik kamarini noto'g'ri qo'llayotgan odam og'ir jarohatlar olishi mumkin. Orqa o'rindiq suyanchig'ini dastlabki holatga o'rnatib, xavfsizlik kamarlari to'g'ri joylashtirilganligiga, ishonchli ulanganligiga va buralib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

4. Markaziy o'rindiq kamarining tilini mini-to'qaga o'rnating. Kamarning buralib qolishiga yo'l qo'ymang.
5. Tilchaning ishonchli qayd etilishini tekshirib. xavfsizlik kamarini torting.

Shift konsolli uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash

Shift konsolli o'rindiqni taxlash uchun, agar ko'zda tutilgan bo'lsa:
Ushbu funksiya ishlashi uchun, avtomobil P (to'xtab turish) rejimiga joylashtirilgan bo'lishi kerak.
1. Uchinchi qator o'rindig'i suyanchig'ini taxlash uchun, o'zgartirgichni bosing va ushlab turing.
Chap tomondagi o'zgartirgich chap suyanchiqni, o'ng tomondagi o'zgartirgich o'ng suyanchiqni taxlaydi.
2. Zarurat bo'lganida xuddi shu harakatlarni ikkinchi o'rindiqning suyanchig'i uchun takrorlang.
3. Agar uchinchi qator o'rindiqlari ishchi holatga keltirilmagan bo'lsa, o'zgartirgichda qizil lampochka yorishib turadi (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa).

Yuk bo'linmasida, shuningdek, uchinchi qator o'rindiqlarining suyanchiqlarini taxlash uchun o'zgartirgich bor. O'rindiqlar ⇨ 2-3ni ko'ring.

XAVFSIZLIK KAMARLARI

Ushbu bo'limda siz xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalanish va nimalarni qilish lozim emasligini bilib olasiz.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik kamarini tegishli tarzda qo'llash imkoniyati bo'lmagan joyda odamlarni tashishga yo'l qo'yilmaydi. Agar siz yoki sizning yo'lovchingiz/yo'lovchilaringiz xavfsizlik kamarlaridan foydalanmayotgan bo'lsa, u holda avariya vaqtida siz yoki ular xavfsizlik kamarlaridan foydalanilganga qaraganda ko'proq ancha og'ir jarohatlar olishlari mumkin.
Avtomobil ichkarisida biron narsaga urilib yoki uning ichidan otib yuborilib, jiddiy jarohatlar olish yoki hatto halok bo'lish ham mumkin. Bundan tashqari, kamar bilan taqib qo'yilmagan odam salondagi boshqa odamlarni ham jarohatlashi mumkin.
Avtomobilning yuk bo'linmasi ichida yoki tashqarisida safar qilish haddan tashqari xavflidir. Avariya vaqtida yuk bo'linmasida bo'lgan yo'lovchilar og'ir yoki hatto o'lim bilan barobar jarohatlarni olishlarining ehtimoli juda ham katta. Yo'lovchilarga o'rindiqlar va xavfsizlik kamarlari bilan jihozlanmagan avtomobilning biron bir zonasida safar qilishga ruxsat bermang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Barcha holatlarda xavfsizlik kamarlarni taqib olish va yo'lovchi/yo'lovchilar ham tegishli ravishda kamarlarni taqib olganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Avtomobilda xavfsizlik kamarlari haqida eslatib turuvchi lampalar mavjud. Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari➪4-21ni ko'ring.

Xavfsizlik kamarlari qanday ishlaydi



Avtomobilda safar qilishda avtomobil qanday tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, Siz ham xuddi shu tezlikda harakatlanasiz.
Agar avtomobil to'satdan to'xtayotgan bo'lsa, odam harakatlanishda, toki uni biron bir to'siq to'xtatib qolmagunicha, davom etadi.
Bu old oyna, uskunalar paneli yoki xavfsizlik kamari bo'lishi mumkin!
Agar siz xavfsizlik kamari bilan taqib qo'yilgan bo'lsangiz, u holda sizning harakatingiz avtomobilning sekinlashishi bilan birgalikda sekinlashadi. Ushbu holatda to'xtash vaqti ortadi, chunki u katta masofada sodir bo'ladi. va agar siz to'g'ri taqib qo'yilgan bo'lsangiz, u holda xavfsizlik kamarlaridan yetkaziluvchi kuchlar sizning tanangizni eng mustahmkam suyaklariga uzatiladi. Aynan shuning uchun xavfsizlik kamarlari shunchalik samaralidir.

Xavfsizlik kamarlarigi taalluqli savollar va javoblar

Q: Agar odam xavfsizlik kamarlaridan foydalanayotgan bo'lsa, u avariya vaqtida mashinada bloklanib qolishi mumkinmi?
A: Bo'lishi mumkin, u xavfsizlik kamaridan foydalanayotganligiga yoki foydalanmayotganligiga bog'liq bo'lmagan holda.
Biroq, agar odam xavfsizlik kamarlaridan foydalanayotgan bo'lsa, to'qnashuvda u hushini yo'qotib qo'ymasligi va kamarni yechib yuborish va avtomobildan chiqib olish imkoniyati ancha kattadir.
Q: Agar avtomobil xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan bo'lsa, kamarlardan foydalanishning nima keragi bor?
A: Xavfsizlik yostiqlari faqat qo'shimcha xavfsizlik tizimi hisoblanadi.

Ular kamarlarni almashtirmaydi - balki xavfsizlik kamarlari bilan birgalikda harakat qiladi. Yostiqlar mavjudmi yoki mavjud emasmi, haydovchi va barcha yo'lovchilar o'zlariga maksimal himoyani ta'minlash uchun xavfsizlik kamarlari bilan taqilgan bo'lishlari kerak.
Bundan tashqari, deyarli barcha mamlakatlarda qonun xavfsizlik kamarlarining qo'llanilishini talab qiladi.

Xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalaniladi

Avtomobilda barcha joylashganlarni xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu qoidalarga rioya qiling.
Sizga xavfsizlik kamarlari va bolalar, jumladan kichkina bolalar va go'daklar haqida yana ba'zi narsalarni bilib olishingiz kerak bo'ladi. Agar avtomobilda bola ketayotgan bo'lsa, Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-37 yoki Kichkina bolalar va go'daklar ⇨ 2-38 bo'limni ko'ring.
Quyidagi qoidalarga qo'shimcha sifatida bolalar uchun amal qiluvchi qoidalarni o'rganib chiqing va ularga rioya qiling.
Avtomobilda joylashganlarning barchasi uchun kamarlar bilan taqilganlik juda ham muhimdir. Statistika xavfsizlik kamarlaridan foydalanmayotganlar ko'pincha to'qnashuvda jarohatlarni olishini ko'rsatmoqda.
Xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanish uchun muayyan qoidalarga rioya qilish kerak.



- To'g'ri o'tirib olish va albatta oyoqlarni polga oldinga qo'yish kerak (agar buning ilojisi bo'lsa).
- Bel kamari yon boshga yengil teginib, beldan pastki sohaga zich teginib turishi kerak. To'qnashuvda yuklama tos sohasi suyaklariga to'g'ri keladi, va odam kamar ostiga sirpanib ketish ehtimoli kichikdir. Agar kamar teparoqqa siljib ketgan bo'lsa, u holda yuklama qoringa to'g'ri keladi. Bu jiddiy va hatto halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin.
- Yelka kamari yelka va ko'krak orqali o'tishi kerak. Tananing ushbu a'zolari kamar taranglashishi kuchini boshqa a'zolarga qaraganda yaxshiroq chidab beradi. To'satdan to'xtashda yoki to'qnashuvda yelka kamari bloklanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik kamari to'g'ri taqilmasa, jiddiy jarohatlar olish va hatto halok bo'lish mumkin.





Bel yoki yelka xavfsizlik kamarining buralib qolishiga yoki bo'shashib ketishiga hech qanday holatda yo'l qo'ymang.





Yelka xavfsizlik kamari ikki qo'l ostidan yoki orqadan o'tishiga hech qanday holatda yo'l qo'ymang.



Taqib olish uchun to'g'ri to'qa/qulfdan albatta foydalaning.



Bel yoki yelka xavfsizlik kamari tirsaklagich ustidan o'tishini hech qanday holatda yo'l qo'ymang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik kamarini o'rindiqning plastmassa qoplamasi ostiga, masalan, orqa o'rindiqning suyanchig'ini taxlash pishangisi atrofidagi qoplama ostiga yoki xavfsizlik yostig'ining yon tomon yostig'i qoplamasi ostiga joylashtirilsa, kamar qisilib qolishi mumkin.
To'qnashuv paytida qisilib qolgan kamar yetarlicha himoyani ta'minlash imkoniga ega bo'lmaydi. Xavfsizlik kamarlarini plastmassa qoplamalari ostidan o'tkazish taqiqlanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik kamari sizning orqangizda, oyoqlaringiz ostida joylashgan yoki bo'yningiz atrofiga o'ralib qolgan bo'lsa, siz jiddiy jarohatlanishingiz yoki hatto halok bo'lishingiz mumkin. Inersion g'altak kamarni oson tortib kiritishga imkon beradi, biroq uni bloklanishida kamarni bo'shatish imkoni bo'lmaydi. Butun uzunlikka inersion g'altakdan xavfsizlik kamarini yelka shohini tortib chiqarishda g'altakning to'sqichli mexanizmi ishlaydi. Agar kamar qo'yib yuborilsa va unga erkin tortib kiritilishi imkoni berilsa, g'altak blokdan chiqariladi, biroq kamarning sizni atrofingizda o'ralashib

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

qolishi buni qilish imkonini bermaydi. Agar xavfsizlik kamari taranglashgan va g'altakni blokdan chiqarish imkoni bo'lmasa, kamarni qirqib yuborish talab etiladi.

Bel-yelka xavfsizlik kamari

Avtomobildagi barcha o'rinlar bel-yelka xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan. Yechiluvchan xavfsizlik kamari yechilgan orqa o'tirish joyidan foydalanib, Uchinchi qator o'rindiqlari ⇨ 2-3 bo'limni ko'ring, unda to'qaga xavfsizlik kamarini ulash bo'yicha yo'l-yo'riqlar tavsiflangan.

Quyida bel-yelka xavfsizlik kamarlarini to'g'ri qo'llash bo'yicha yo'l-yo'riqlar keltirilgan.

1. Vertikal holatni egallash uchun o'rindiqni (agar u sozlanuvchan bo'lsa) shunday sozlang. Tartib-tamoyil tavsifi: Ko'rsatkichda "O'rindiqlar" bo'limini ko'ring.



2. Lo'kidon tilchasini torting va kamarni o'zingizga torting. Kamarning buralib qolishiga yo'l qo'ymang.

Agar bel-yelka kamari keskin tortilsa, u bloklanib qolishi mumkin. Bunday holatda kamarni blokdan chiqarish uchun, uni ozgina qo'yib yuborish zarur. So'ngra kamarni asta-sekin torting.

Agar yo'lovchi o'rindig'i kamarining yelka qismi doimo tortib chiqarilsa, bolalarni tutib turuvchi qurilmaning blokirovkasi faollashtiriladi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish mumkin bo'lgan joylar ⇨ 2-40ni ko'ring.

Ushbu holatda kamarni joyiga qaytarish va tartib-tamoyilni eng boshidan takrorlash zarur. Agar inersion g'altak hatto kamarni tortib kiritilishini qaytarishdan keyin ham bloklangan holda qolayotgan bo'lsa, g'altak qulfini blokdan chiqarish uchun o'rindiqni orqaga suring yoki uning suyanchig'ini engashtiring.

Oldingi yon tomon o'rindig'iga bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilishi yo'lovchilar mavjudligini aniqlash tizimi ishiga ta'sir qilishi mumkin.

Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limini ko'ring.



3. Tilcha chertki bilan qayd etilishi uchun uni qulfga kiriting.

Lo'kidon tilchasining mahkamlanishini tekshirish uchun uni torting.

Zarurat tug'ilganida kamarni tezlikda yechib yuborish mumkin bo'lishi uchun to'qada kamarni bo'shatish tugmasini toping.

4. Yelka kamarining mos keluvchi balandligini tanlang (agar sozlash mexanizmi mavjud

bo'lsa). Qo'llash bo'yicha yo'l-yo'riq va xavfsizlikka taalluqli muhim ma'lumotlar, ushbu bo'limda "Yelka kamarining balandligini sozlagichi" paragrafida keltirilgan.



5. Kamarning bel qismi yopishib turishi uchun, kamarning yelka qismini tortish kerak.



Kamarni yechib olish uchun, qulfdagi tugmani bosish kerak. Kamar taxlangan holatga qaytishi kerak.

Xavfsizlik kamarini taxlayotganda, hech qanday holatda shoshilmang. Agar xavfsizlik kamarlarining har qanday qismi taxlangan holatga juda tez qaytayotgan bo'lsa, ushbu holatda taranglashtirgich tishlanib qolishi, kamar esa - tiqilib qolishi mumkin. Agar bu holat sodir bo'lgan bo'lsa, kamarni qat'iy to'g'ri yo'nalishda kuch bilan torting va taranglashtirgichni blokdan chiqarish uchun, uni shu ondayoq qo'yib yuboring. Agar tishlanib qolgan taranglashtirgichdan kamarni chiqarib olish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, sizga xizmat ko'rsatuvchi avtosalonga murojaat qiling.

Eshikni yopishdan avval, kamar eshik o'rnida osilib qolmaganligiga ishonch hosil qilish zarur. Agar uni eshik bilan qattiq qisib qo'yilsa, eshikni ham, xavfsizlik kamarini ham shikastlash mumkin.

Yelka kamarini balandligini sozlagichi

Haydovchining va oldingi yo'lovchining xavfsizlik kamarini mahkamlanishini tepa nuqtasi holati balandlik bo'yicha sozlanadi.

Kamarning yelka qismi doimo yelkada joylashishi uchun balandlikni shunday sozlash kerak. Kamar bo'yin yonida bo'lishi kerak, ammo uning ustida emas. Xavfsizlik kamarining yelka shohini noto'g'ri tanlangan balandligi avariya holatida uning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Xavfsizlik kamarlardan qanday qanday to'g'ri foydalanish kerak ⇨ 2-37ni ko'ring.

Kamarning tepa mahkamlanishini zaruriy holatga siljitish uchun, blokdan chiqarish klavishasiga bosing.
Sozlagich kerakli holatga o'tkazilganidan so'ng, uning joyida mahkamlanishini tekshirish uchun, katta kuch ishlatmasdan, uning ustidan pastga bosing.

Xavfsizlik kamarlarining oldindan taranglashtirgichlari

Haydovchining va oldingi yo'lovchining xavfsizlik kamarlari oldindan taranglashtirish qurilmalari bilan jihozlangan.
Oldindan taranglashtirgichlar yashirib qo'yilganiga qaramasdan, ular xavfsizlik kamarlarining bog'lamasini qismi hisoblanadi. Ular xavfsizlik kamarlarini faollashtirish uchun sharoitlar mavjud bo'lganida oldindan to'qnashuv yoki oldindan to'qnashuvga yaqin o'rtacha yoki katta kuchning boshlang'ich bosqichi davomida xavfsizlik kamarlarini taranglashtiradi. Xavfsizlik kamarlari taranglashtirgichlari, shuningdek, yon tomondan zarba yoki avtomobilning ag'darilib ketishidagi holatda kamarlarni taranglashtirishga ham yordam beradi.
Taranglashtirgichlar bir martalik mexanizmlar hisoblanadi.Agar avariya oqibatida taranglashtirgichlar harakatga keltirilgan bo'lsa, ularni, ehtimol, xavfsizlik kamarlari tizimining boshqa komponentlarini almashtirish kerak bo'ladi. Avariyadan keyin xavfsizlik kamarlari tizimi komponentlarini almashtirish ⇨ 2-25ni ko'ring.

Avtomobildan chiqayotganda yoki unga o'tirayotganda, hamda salonda bo'lish vaqtida chetki o'rindiqlarning xavfsizlik kamarlariga o'tirmang.
Xavfsizlik kamariga o'tirib, uning tasmasini va furniturasini shikastlash mumkin.

Homiladorlik vaqtida xavfsizlik kamarining qo'llanilishi

Xavfsizlik kamarlari hamma uchun, jumladan homilador ayollar uchun ham mo'ljallangan.
Avtomobilda harakatlanib ketayotganlarning barchasi kabi, agar ular xavfsizlik kamarlaridan foydalanmasa, jiddiy jarohatlar olishlari mumkin.



Homilador ayol ham bel-yelka xavfsizlik kamaridan foydalanishi kerak, bunda kamarning bel qismi qorindan iloji boricha pastroqda joylashishi kerak.

Bolani himoyalashning eng yaxshi usuli - bu onaning xavfsizligini ta'minlashdir. Agar xavfsizlik kamari to'g'ri qo'llanilayotgan bo'lsa, homila, ehtimol, avtomobilning to'qnashuvida jarohatlanmaydi. Boshqalar uchun qanday bo'lsa, homilador ayollar uchun ham xavfsizlik kamarlarining samaradorligi ularning to'g'ri qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi.

Xavfsizlik tizimini tekshirish

Xavfsizlik kamarlari haqida eslatuvchi indikatorning, barcha to'qalarning, lo'kidonlarning tilchalarini, kamarlarning g'altaklarining, balandlik bo'yicha yelka tasmalarining sozlash mexanizmlarining (agar mavjud bo'lsa) va kamarlarning mahkamlanishlarini soz holatini vaqti-vaqti bilan tekshirib turing. Kamarlarni bo'shashgan yoki shikastlangan qismlar va detallar predmetiga ko'rikdan o'tkazing, ular xavfsizlik kamarlari tizimining ish qobiliyatini buzishi mumkin. Ta'mirlash masalalari bilan dilerga murojaat qilish kerak. Yirtilgan, yedirilgan yoki buralib qolgan xavfsizlik kamarlari avariya paytida samarali bo'lmasligi mumkin. Yirtilgan yoki yedirilgan xavfsizlik kamarlari zarba kuchi ostida uzilib ketishi mumkin. Yirtilgan yoki osilib qolgan kamarlarni zudlik bilan almashtiring. Agar kamar buralib qolgan bo'lsa, uni kamar tasmasida lo'kidon tilchasini teskari yo'nalishda burash bilan yoyish mumkin. Agar buralib qolgan kamarni to'g'irlash imkoni bo'lmasa, dilerga yordamga murojaat qiling.

Xavfsizlik kamari haqida eslatuvchi chiroqli indikator sozligiga ishonch hosil qiling. Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari ⇨ 4-21ni ko'ring.
Xavfsizlik kamarlarini toza va quruq holatda saqlang. Xavfsizlik kamarlarini parvarishlash ⇨ 2-25ni ko'ring.

Xavfsizlik kamalarini parvarishlash

Kamarlarini toza va quruq holatda saqlang.
Xavfsizlik kamarlaridan foydalanish va ularni parvarishlash qoidalariga rioya qiling.
Kamarlarning mexanizmlari quruq holatda qolishi kerak. Ularda chiqindilar va chang yig'ilib qolishini kuzatib boring. Zarurat tug'ilganida qulflarning va kamarlarni o'zlarini yuzalarini sovunli eritma bilan artib olish mumkin. Qulflarning mexanizmlariga iflosliklar va chang tushib qolmasligini kuzatib boring. Agar qulf iflosliklar yoki chang bilan to'lib qolgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling. Tizimning me'yorda ishlashini ta'minlash uchun ba'zi ehtiyot qismlarni almashtirish talab etilishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik kamarlarini oqartirish yoki bo'yash taqiqlanadi. Bu ularning mustahkamligini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. To'qnashuv paytida ular yetarlicha himoyani ta'minlamasligi mumkin. Kamarlarni tozalash uchun faqat iliq suvdagi kuchsiz sovun eritmasini qo'llashga ruxsat etiladi. Kamarga mustaqil qurish imkonini bering.

Avariyadan keyin xavfsizlik kamarlari tizimi komponentlarini almashtirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning to'qnashuvida xavfsizlik kamarlari tizimi shikastlangan bo'lishi mumkin. Shikastlangan xavfsizlik kamarlari shikastlangan tizimidan foydalanuvchi odam, avariya paytida og'ir va hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni olishi mumkin, chunki u tegishli himoyani ta'minlashga qodir bo'lmaydi. To'qnashuvdan keyin xavfsizlik kamarlari tizimini to'g'ri faoliyat yuritishini kafolatlash uchun, ularni kechiktirmasdan tekshirish va zarurat tug'ilganida komponentlarini almashtirish zarurdir.

Ahamiyatsiz hodisalardan keyin kamarlarni almashtirish talab etilmasligi mumkin. Biroq, avariya paytida jalb qilingan xavfsizlik kamarlari bo'g'imlari bo'shashtirilgan yoki shikastlangan bo'lishi mumkin. Xavfsizlik kamarlari bo'g'imlarini ko'rigini o'tkazish va zarurat tug'ilsa komponentlarni almashtirish uchun dilerga murojaat qilish kerak. Komponentlarni ta'mirlash va almashtirish, hattoki, agar xavfsizlik kamarlari tizimi avariya paytida qo'llanmagan bo'lsa ham, talab etilishi mumkin.
Avariyadan keyin va xavfsizlik yostiqlarini tayyorligi indikatori avtomobilni ishga tushirishdan keyin yoki uning harakatlanishi vaqtida yonib turishda davom etsa, xavfsizlik kamarlarini oldindan taranglashtirgichlarini tekshirish zarur. Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorligi ⇨ 4-23ni ko'ring.

SHISHIRILUVCHI XAVFSIZLIK YOSTIQLAR TIZIMI

Avtomobilda quyidagi xavfsizlik yostiqlari mavjuddir:
- Haydovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i
- Haydovchi va oldingi yon tomon yo'lovchi uchun oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i
- Haydovchi o'rindig'idagi yon tomon xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchi o'rindig'idagi yon tomon xavfsizlik yostig'i
- Haydovchi va haydovchi orqasidagi ikkinchi va uchinchi qator yo'lovchilari uchun tomning bo'ylama burisidagi xavfsizlik yostig'i
- Oldingi yo'lovchi va haydovchi orqasidagi ikkinchi va uchinchi qator yo'lovchilari uchun tomning bo'ylama brusidagi xavfsizlik yostig'i

Avtomobilda barcha xavfsizlik yostiqlarida qoplamada yoki yoyish uchun tirqish yaqinida mahkamlangan yopishtirma yorliqda AIRBAG (xavfsizlik yostig'i) yozuvi mavjuddir.
Oldingi xavfsizlik yostiqlari rul chambaragida (haydovchi uchun) va uskunalar panelida (yo'lovchi tomonida) AIRBAG yozuvlari bilan belgilangan.
Oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i haydovchi o'rindig'i suyanchig'ining ichki tomonida AIRBAG so'zi bilan belgilangan.

Yon tomon xavfsizlik yostiqlari o'rindiq suyanchig'ining yon tomonida yoki eshikka yaqin joylashgan o'rindiq yostig'ida "AIRBAG" yozuvlari bilan belgilangan.
Tomning bo'ylama brusidagi xavfsizlik yostiqlari shiftdagi yoki qoplamadagi AIRBAG yozuvlari bilan belgilangan.
Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlari tomonidan ta'minlanuvchi himoyaga qo'shimcha hisoblanadi. Zamonaviy xavfsizlik yostiqlarini konstruksiyasi yoyilishda jarohat keltirish xavfini pasaytiradi, shunga qaramasdan, barcha yostiqlar samarali himoyani ta'minlash uchun juda tez shishirilishi kerak.
Xavfsizlik yostiqlari haqidagi eng muhim ma'lumotlar:

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Xavfsizlik kamari bilan tang'ib qo'yilmagan odam to'qnashuv vaqtida, hattoki agar avtomobil xavfsizlik yostiqlariga ega bo'lsada, og'ir yoki hatto halokatli jarohatlarni olishi mumkin.
> Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlarini o'rnini bosmaydi, balki ular bilan birgalikda ta'sir o'tkazadi. Xavfsizlik yostiqlari har qanday to'qnashuvlarda ishlash uchun mo'ljallanmagan. Ba'zi avariya holatlarida himoyani faqat xavfsizlik kamarlari ta'minlaydi.Xavfsizlik yostig'i qachon shishiriladi? ⇨ 2-29ni ko'ring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Xavfsizlik kamarlari avtomobil ichidagi buyumlarga urilib ketish yoki avariyada uning ichidan otib yuborilish xavfini pasaytiradi. Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlariga "tutib qolishning qo'shimcha tizimi" hisoblanadi.
> Avtomobilda o'tirganlarning barchasi, muvofiq joy xavfsizlik yostig'i bilan jihozanganligidan yoki jihozlanmaganligidan qat'iy nazar xavfsizlik kamarlari bilan ishonchli taqib qo'yilgan bo'lishi kerak.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Xavfsizlik yostiqlari bir zumda va katta kuch bilan shishirilishi sababli, xavfsizlik yostig'i yaqinida joylashgan odam jiddiy va hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni olishi mumkin. Zaruratsiz xavfsizlik yostiqlariga yaqin o'tirish (o'rindiq chetida yoki oldinga engashib o'tirish) lozim bo'lmaydi. Xavfsizlik kamarlari to'qnashuv paytida odamni o'tirgan o'rnida tutib qolishga yordam beradi. Har doim xavfsizlik kamarlaridan, hattoki agar avtomobilda xavfsizlik yostiqlari mavjud bo'lsa ham, foydalanish zarur. Haydovchi, bu uning avtomobilni boshqarish qobiliyatini yomonlashtirmayotganligi shartida, iloji boricha uzoqroq o'tirishi kerak. Oldingi yo'lovchilar uchun xavfsizlik kamarlari va xavfsizlik yostiqlari, siz o'rindiq suyanchig'iga zich tiralgan va ikkala oyoqlar bilan polga

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

tiralib turib, to'g'ri o'tirganingizda ancha samarali harakat qiladi.
Oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan avtomobillarda yo'lovchilarga oldingi markaziy tirsaklagichga yoki konsolga tiralish va ularning ustiga yotish tavsiya etilmaydi.
Agar o'rindiqda yoki tomning bo'ylama brusida yon tomon xavfsizlik yostig'i mavjud bo'lsa, yon tomonga engashish yoki eshikka yoki eshik oynasiga yonboshlash mumkin emas.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik yostig'i ustida yoki unga juda yaqin joylashgan bolalar, u ishlashida og'ir yoki hattoki o'limga teng jarohatlar olishlari mumkin. Avtomobildagi bolalar har doim to'g'ri taqilgan bo'lishi kerak.
Batafsil ma'lumotlarni Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-37 yoki Kichik bolalar va go'daklar⇨ 2-38 bo'limlarida ko'ring.

Uskunalar qalqonchasida muvofiq belgi bilan xavfsizlik yostiqlarining tayyorgarlik indikatori mavjud.
Tizim xavfsizlik yostiqlari tizimidagi elektronikaning faoliyat yuritishini tekshiradi. Agar nosozlik mavjud bo'lsa, indikator yonadi. Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarini tayyorligi signal lampasi ⇨ 4-23ni ko'ring.

Xavfsizlik yostiqlari qaerga joylashtirilgan?

Haydovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i rul chambaragining markaziy qismida joylashgan.

Yo'lovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'i yo'lovchi tomonidagi uskunalar panelida joylashgan.

Oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i haydovchi o'rindig'ini suyanchig'ining ichki tomonida joylashgan.

Haydovchi tomon ko'rsatilgan, yo'lovchi tomon - o'xshash

O'rindiqlarga o'rnatilgan haydovchi va oldingi yo'lovchining yon tomon xavfsizlik yostiqlari eshik tomonida o'rindiqning suyanchiqlarida joylashgan.

Haydovchi tomon ko'rsatilgan, yo'lovchi tomon - o'xshash

Haydovchining, oldingi yon tomon yo'lovchilarning va o'rindiqlarning ikkinchi va uchinchi qatorlaridagi yon tomonlaridagi xavfsizlik pardachalari yon tomon oynalari ustida, tomning bo'ylama bruslarida joylashgan.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar odam va xavfsizlik yostig'i orasida biron bir buyum joylashgan bo'lsa, yostiq tegishli tarzda yoyilmasligi yoki og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni chaqirib, ushbu buyum bilan odamni urib yuborishi mumkin. Hech narsa xavfsizlik yostig'ining yoyilishiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Odam va xavfsizlik yostig'i orasiga biron bir buyumlarni joylashtirish mumkin emas; rul chambaragining stupitsasida va boshqa xavfsizlik yostiqlarining qoplamasiga yoki ularning yaqinida biron bir narsalarni qotirish mumkin emas.

O'rindiqlar yoki konsol uchun aksessuarlarni qo'llamang, ular yoyilayotgan yon tomon xavfsizlik yostig'i yoki oldingi markaziy xavfsizlik yostig'ining yo'lini to'sib qo'yishi mumkin. Agar tomning bo'ylama brusida xavfsizlik yostig'i mavjud bo'lsa, oyna yoki eshik tirqishi orqali arqonni tortib o'tkazib, avtomobil tomiga biron bir buyumni mahkamlash mumkin emas. Shunday tarzda ushbu xavfsizlik yostiqlarini yoyilishini bloklash mumkin.

Xavfsizlik yostig'i qachon ishiriladi?

Ushbu avtomobil xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan. Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlar tizimi ⇨ 2-26ni ko'ring. Xavfsizlik yostiqlari, agar zarba kuchi xavfsizlik yostiqlarining muvofiq tizimi uchun ishlash chegarasidan oshib ketganida, shishiriladi.Ishlash chegarasi yordamida jiddiy to'qnashuvlar aniqlanadi, ularda haydovchini va yo'lovchini tutib qolish uchun xavfsizlik yostiqlarining ishtiroki talab etiladi. Avtomobil to'qnashuvning elektron datchiklari bilan jihozlangan, ular zarba kuchini aniqlaydi.Ishlash chegarasi avtomobil konstruksiyasiga bog'liq holda o'zgaradi.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari o'rtacha yoki katta kuchdagi oldindan to'qnashuvga yaqin yoki oldindan to'qnashuvda yoyiladi, u haydovchini va oldingi yo'lovchini boshiga va ko'krak qafasiga zarba ta'sirini yumshatadi. Oldingi xavfsizlik yostiqlarining ishlashi nafaqat avtomobilning tezligiga bog'liqdir. Xavfsizlik yostig'i yoyilishi yoki yoyilmasligi, bu ko'proq to'qnashuv ob'ekti, to'qnashuv yo'nalishi va tormozlanish tezligi bilan aniqlanadi. Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil to'qnashuv ob'ekti bilan to'g'ri yoki burchak ostida urilishiga, to'qnashuv obyekti mahkamlangan yoki harakatlanayotganligiga, u qattiq yoki deformatsiyalanuvchi, u tor yoki kengligiga bog'liq holda turlicha to'qnashuv tezligida ishlab ketishi mumkin.

Oldingi xavfsizlik yostiqlari avtomobil ag'darilishida, orqadan urilishda va ko'pchilik yon tomondan to'qnashuvlarda ishlamaydi.

Bundan tashqari, avtomobillar takomillashtirilgan oldingi xavfsizlik yostiqlari bilan jamlanadi. Takomillashtirilgan oldingi xavfsizlik yostiqlari zarba og'irligiga bog'liq holda tutib turish kuchini tartiblashtiradi.

Oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i, agar mavjud bo'lsa, zarba joyiga bog'liq holda avtomobilning istalgan tomonidan o'rtacha va katta kuch bilan yon tomon zarbalarida ishlaydi. Bundan tashqari, oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i datchiklar tizimi avtomobilni biqinga ag'darilish ehtimolini aniqlagan vaqtda ishlaydi. Oldingi markaziy xavfsizlik yostiqlari frontal va deyarli frontal to'qnashuvda, hamda orqadan zarba keltirilishida ishlash uchun mo'ljallanmagan. O'rindiqlarga o'rnatilgan yon tomondan zarbalardan himoyalash uchun xavfsizlik yostiqlari zarba joyiga bog'liq holda o'rtacha va kuchli yon tomon to'qnashuvlarida ishlashi kerak.

O'rindiqlarga o'rnatilgan yon tomon xavfsizlik yostiqlari avtomobil ag'darilishida va orqadan zarba keltirilishida ishlashga mo'ljallanmagan. Haydovchi tomonida o'rindiqdagi yon tomon xavfsizlik yostig'i frontal va deyarli frontal to'qnashuvlarda ishlash uchun mo'ljallangan. Yo'lovchi tomonida o'rindiqdagi yon tomon xavfsizlik yostig'i o'rtacha va katta kuchdagi frontal to'qnashuvlarda va deyarli frontal to'qnashuvlarda ishlash uchun mo'ljallangan. Yon tomondan zarbada muvofiq tomondan o'rindiqdagi yon tomon xavfsizlik yostig'i yoyiladi.

Eshik tirqishlari ustida joylashgan xavfsizlik yostiqlari zarba joyiga bog'liq holda o'rtacha va kuchli yon tomondan to'qnashuvlarda ishlaydi.

Tomning bo'ylama brusidagi xavfsizlik yostiqlari, shuningdek, avtomobil ag'darilishida va kuchli oldindan to'qnashuvda ishlashi kerak. Tomning bo'ylama brusidagi xavfsizlik yostiqlari orqadan zarba keltirilishida ishlamasligi kerak.

Tomning bo'ylama brusidagi ikkala xavfsizlik yostiqlari, agar datchiklar tizimi avtomobilning ag'darilishini tahlil qilsa, istalgan tomondan yon tomondan zarbada, yoki kuchli oldindan to'qnashuvda shishiriladi.

Aniq to'qnashuvda avtomobilning ehtimolli shikastlanishi va ta'mirlash narxidan oddiygina kelib chiqqan holda ushbu xavfsizlik yostig'i ishlashi kerakligi imkoni mavjud emas.

Xavfsizlik yostiqlarini ishirish mexanizmi qanday?

To'qnashuv holatida datchiklar tizimi elektr signal yuboradi, u rezervuardan gazni chiqarib yuborish mexanizmini harakatga keltiradi. Gaz, rezervuardan chiqib, xavfsizlik yostig'ini to'ldiradi, buning natijasida yostiq qopqoqni itarib yuboradi va yoyiladi. Shishirish mexanizmi, yostiq va mahkamlagichlar xavfsizlik yostiqlari modulining qismlari hisoblanadi. Xavfsizlik yostiqlarining holati - Xavfsizlik yostiqlari qaerga joylashtirilgan? ⇨ 2-27ni ko'ring.

Xavfsizlik yostig'i odamni qay tarzda tutib turadi?

O'rtacha yoki katta kuchdagi oldindan to'qnashuvga yaqin yoki oldindan to'qnashuvda hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam ham rul chambaragiga yoki uskunalar paneliga urilishi mumkin. Kuchli yoki o'rtacha yon tomondan to'qnashuvda hattoki xavfsizlik kamarini taqib olgan odam ham avtomobil ichidagi komponentlarga urilishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik kamarlari tomonidan ta'minlanuvchi himoyaga, zarba kuchini odam tanasi bo'ylab ancha tekis taqsimlab, qo'shimcha bo'ladi.

Avtomobil ag'darilishida ishga tushiriluvchi tomning bo'ylama brusidagi xavfsizlik yostiqlari haydovchini va birinchi, ikkinchi va uchinchi qatorlardagi yon tomon yo'lovchilarini boshini va ko'kragini himoyalaydi.

Ag'darilishda ishga tushiriluvchi tomning bo'ylama brusidagi yostiqlar avtomobildan odamning to'liq yoki qisman otib yuborilishini oldini olishga yordam beradi, garchi hech qanday tizim bunday xavfni to'liq istisno qilishi mumkin emas.

Biroq, xavfsizlik yostiqlari, agar to'qnashuvda odam yostiqqa yo'nalish bo'yicha harakatlanmayotgan bo'lsa, uni himoyalash imkoniga ega bo'lmaydi. Xavfsizlik yostig'i qachon shishiriladi? ⇨ 2-29ni ko'ring.

Xavfsizlik yostiqlari xavfsizlik atigi kamarlariga qo'shimcha hisoblanadi.

Xavfsizlik kamarlari ishlagandan keyin nima sodir bo'ladi?

Ishlagandan keyin oldingi va yon tomon yostiqlari juda tez havoni chiqarib yuboradi - shunchalik tezki, ularning to'ldirilishini hattoki sezmay qolish ham mumkin. Oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i va tomning bruslariga joylashtirilgan xavfsizlik pardachalari ishlagandan keyin yana qandaydir vaqt qisman shishirilgan holatda qoladi.

Xavfsizlik yostig'i modulining ba'zi komponentlari bir necha minut davomida issiq holda qolishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlarining joylashishi Xavfsizlik yostiqlari qaerda joylashgan ⇨ 2-27 bo'limida tavsiflangan.

Odamga teginib turgan xavfsizlik yostiqning qismlari iliq bo'lishi, ammo juda ham issiq bo'lmasligi mumkin. Xavfsizlik yostig'ini havosini chiqarishda tirqishlardan tutun va chang chiqishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i old oyna orqali haydovchining ko'rish maydonini yopmaydi, boshqarish qobiliyatini cheklamaydi va avtomobilni tark etishga xalal bermaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik yostig'ini shishirishda havoda chang paydo bo'lishi mumkin.

Chang astmadan yoki nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklaridan a'ziyat chekayotgan odamlar uchun xavflidir. Shuning uchun, avtomobilni hamma tark etishi kerak, buni xavfsiz qilishning imkoni paydo bo'lishi bilanoq. Agar xavfsizlik yostig'i yoyilganidan keyin avtomobildan chiqish imkoni yo'q bo'lsa, nafas olish yo'llari kasalligi bilan a'ziyat chekuvchi odamga oynani ochib, havo kiritilishini ta'minlash kerak. Agar xavfsizlik yostig'ini yoyilishi natijasida nafas olish bilan muammolar yuzaga kelgan bo'lsa, tibbiy yordam uchun murojaat qilish zarur bo'ladi.

Avtomobilda xavfsizlik yostiqlari yoyilishidan keyin barcha eshiklarni avtomatik blokdan chiqaruvchi, yonilg'i uzatilishini to'suvchi, ichki yoritishni va avariya signalizatsiyasini yoquvchi funksiya ko'zda tutilgan. Ushbu funksiya, agar zarba kuchi ma'lum chegara qiymatdan oshib ketsa, xavfsizlik yostiqlarini yoymasdan ham ishlashi mumkin. O't oldirishni o'chirishdan keyin, so'ngra esa takroran yoqilishida yonilg'i tizimi me'yordagi ishlash rejimiga qaytadi; siz muvofiq boshqaruv organlari bilan eshiklarni qulflashingiz, salondagi lampalarni o'chirishingiz va avariya miltillovchi signallarni o'chirishingiz mumkin.

Agar avariya oqibatida ushbu tizimlardan biron biri shikastlangan bo'lsa, ular xatolik bilan ishlashi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik yostiqlari ishlashga jalb qilingan kuchli to'qnashuv natijasida avtomobilning muhim tizimlari, masalan, yonilg'i tizimi, tormoz tizimi, boshqaruv tizimi va hokazolar shikastlangan bo'lishi mumkin.

Hattoki agar avtomobil nisbatan jiddiy hodisadan keyin harakatlanishi mumkin bo'lib ko'rinsada, mavjud bo'lgan shikastlanishlar avtomobilni xavfsiz boshqarilishini qiyinlashtirishi mumkin.

Avariyadan keyin dvigatelni o'ta ehtiyotkorlik bilan ishga tushirish zarur.

Xavfsizlik yostig'ini harakatga keltirishga qodir bo'lgan yetarlicha kuchli to'qnashuv holatida, old oyna avtomobil deformatsiyasi sababli ko'pincha maydalanib ketadi. Yo'lovchi tomonida oldingi xavfsizlik yostig'ini ishlashida, shuningdek, old oyna sindirilishi mumkin.

- Xavfsizlik yostiqlari faqat bir marta yoyilishga qodir.Xavfsizlik yostig'i harakatga keltirilganidan keyin, tizimning ba'zi komponentlarini almashtirish talab etiladi. Agar yangi komponentlar o'rnatilmagan bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari tizimi keyingi gal himoyani ta'minlay olmaydi. Yangi tizim o'z ichiga xavfsizlik yostiqlari modullarini, va, ehtimol, ba'zi boshqa detallarni ham kiritishi kerak.Boshqa qismlarni almashtirish zarurati haqidagi ma'lumot avtomobilga xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan.
- Avtomobilda to'qnashuv diagnostikasi va aniqlanishi moduli mavjud, u muvofiq ma'lumotlarni qayd qiladi. Avtomobil ma'lumotlarini yozish va maxfiylik ⇨ 12-2 Hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatchilari ⇨ 12-3ni ko'ring.
- Xavfsizlik yostiqlari tizimiga xizmat ko'rsatilishiga faqat malakali mexaniklarga ruxsat etiladi. Noto'g'ri xizmat ko'rsatilganida xavfsizlik yostiqlari tizimi faoliyatini buzilish ehtimoli bor. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish kerak.

Yo'lovchini aniqlash tizimi

Oldingi yo'lovchining o'rindig'i yo'lovchi joylashganligini aniqlash tizimi bilan jihozlangan. O't oldirish yoqilishida tepa konsolda yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori aks ettiriladi.

Tizimni tekshirish vaqtida yoqish va o'chirish belgilari aks ettiriladi. Tizimni tekshirish yakunlangandan keyin faqat yoqish yoki o'chirish indikatori yoqilgan holda qoladi. Yo'lovchining xavfsizlik yostig'ining holati indikatori ⇨4-23ni ko'ring.

Ba'zi holatlarda yo'lovchini joylashganligini aniqlash tizimi oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yishi mumkin.

Yo'lovchi mavjudligini aniqlash tizimi boshqa xavfsizlik yostiqlariga ta'sir ko'rsatmaydi.

Yo'lovchi mavjudligini aniqlash tizimi oldingi yon tomon yo'lovchining o'rindig'ida va xavfsizlik kamarida o'rnatilgan datchiklardan signallarni qabul qiladi. Datchiklar to'g'ri o'tirgan yo'lovchini aniqlash va yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'i ishlashi kerakligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Statistikaga ko'ra, bolalar, agar orqa o'rindiqda o'rnatilgan ularning vazni va bo'yiga muvofiq keluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilmaga tegishli tarzda mahkamlangan bo'lsa, ular yuqori xavfsizlik darajasida bo'ladi.

12 yoshdan kichik bolalar iloji boricha orqa o'rindiqqa taqib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Orqaga qaratilgan bolalar o'rindig'ini oldingi yo'lovchining o'rindig'iga o'rnatish mumkin emas. Yuzi bilan orqaga o'tirgan bola xavfsizlik yostig'i ishlashi holatida katta xavfga uchratiladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'i yoyilishida orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmada o'tirgan bola og'ir va hattoki o'lim bilan teng jarohatlar olishi mumkin. Orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmaning orqa qismi xavfsizlik yostig'iga juda ham yaqin joylashgan. Agar oldingi yo'lovchining o'rindig'i uskunalar paneliga juda yaqin qilib surilgan bo'lsa, oldingi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'ining ishlashida oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmada o'tirgan bola og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni olishi mumkin.

Hattoki, agar yo'lovchining mavjudligini aniqlash tizimi yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'ygan bo'lsa, buzilishlarning ehtimolini istisno qilish mumkin emas. Istisno holatlarda yostiq ishlashini, hattoki, agar u o'chirib qo'yilgan bo'lsa ham, hech kim kafolat berolmaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi o'rindiqqa yuztuban o'rnatish, hattoki agar xavfsizlik yostig'i o'chirib qo'yilgan bo'lsa ham, taqiqlanadi. Oldingi yon tomon yo'lovchining o'rindig'iga bolalarni tutib turuvchi qurilmani harakatlanish bo'yicha yuztuban o'rnatishda o'rindiqni eng chetki holatga siljitish zarur. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa baribir o'rnatish tavsiya etiladi.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa o'rnatishning imkoni bo'lmasa, bolani tashish uchun boshqa transport vositasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Agar avtomobilda orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish mumkin bo'lgan orqa o'rindiq yo'q bo'lsa, u holda bunday bolalarni tutib turuvchi qurilmani avtomobilga, hattoki xavfsizlik yostig'i o'chirib qo'yilgan bo'lsa ham, o'rnatish mumkin emas.

Yo'lovchining mavjudligini aniqlash tizimi quyidagi holatlarda oldingi yon tomon yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yadi:

- Oldingi yon tomon yo'lovchining o'rindig'i band bo'lmasa.

- Tizim bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilganiligini va unga bola joylashtirilganligini aniqlaydi.
- Oldingi yon tomon yo'lovchi vaqtinchalik o'z o'rnidan turgan.

Agar oldingi yon tomon yo'lovchisining frontal va tizza shishiriluvchi xavfsizlik yostig'i yo'lovchi mavjudligini aniqlash tizimi tomonidan o'chirib qo'yilgan bo'lsa, to'qnashuv holatida xavfsizlik yostig'i ishlamasligini eslatuvchi o'chirish indikatori yonadi. Yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori ⇨4-23ni ko'ring.

Yo'lovchining mavjudligini aniqlash tizimi oldingi yon tomon yo'lovchi o'rindig'ida katta odam to'g'ri holatda o'tirganini aniqlashi bilanoq oldingi yon tomon yo'lovchining frontal yostig'ini yoqadi.

Agar shishiriluvchi xavfsizlik yostig'i yo'lovchining mavjudligini aniqlash tizimi tomonidan yoqilgan bo'lsa, to'qnashuv holatda xavfsizlik yostig'i ishlashi haqida eslatuvchi yoqilish indikatori yonadi.

Ba'zi holatlarda, o'rindiqqa, jumladan bolalarni tutib turuvchi qurilmaga bolalarning, va shu o'rindiqqa bo'yi baland bo'lmagan katta odamning joylashtirilishida, yo'lovchini aniqlash tizimi o'tirgan shaxsning holatiga va tana tuzilishiga bog'liq holda oldingi xavfsizlik yostig'ini xato o'chirib qo'yishi mumkin. Hech qaysi toifadagi bolalarni tutib turuvchi qurilmalari mos kelmaydigan o'smirlar, ushbu o'rin xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan yoki jihozlanmaganligiga bog'liq bo'lmagan holda, xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Agar xavfsizlik yostig'i tayyorligi indikatori yonayotgan va faol holda qolayotgan bo'lsa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimida nosozliklar bo'lishi mumkinligini anglatadi. O'zingizni va boshqalarni xavfga uchratmaslik uchun, zudlik bilan texnik xizmatga murojaat qilish kerak bo'ladi. Shuningdek xavfsizlikka taalluqli qo'shimcha ma'lumotlarni, Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorlik signal lampasi ⇨4-23ni ko'ring.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilmadan foydalanishda yoqilgan xavfsizlik yostig'i indikatori yonib turgan bo'lsa

Yo'lovchining mavjudligini aniqlash tizimi, agar o'rindiqda bolalarni tutib turuvchi qurilmada go'dak joylashgan bo'lsa, oldingi yon tomon yo'lovchining frontal va tizza xavfsizlik yostig'ini o'chirishi kerak. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilgan bo'lsa, va xavfsizlik yostig'ining faol holati indikatori yonib turgan bo'lsa:

1. Avtomobilni o'chiring.
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani avtomobildan olib qo'ying.
3. O'rindiqdan barcha qo'shimcha buyumlarni (ko'rpa, yostiq, g'ilof, isitgich, uqalagich va shunga o'xshashlarni) olib qo'ying.
4. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qilgan holda qayta o'rnating, shuningdek, Bolalar o'rindig'ini o'rnatish (Xavfsizlik kamari bo'lgan orqa o'rindiq) ⇨ 2-49 yoki Bolalar o'rindig'ini o'rnatish (xavfsizlik kamari bo'lgan oldingi yo'lovchi o'rindig'i) ⇨ 2-50ni ko'ring.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishda kamarning yelka shohini torting va xavfsizlik kamari taranglashtirgichining inersion g'altagi bloklanganligiga ishonch hosil qiling, hattoki agar bolalarni tutib turuvchi qurilma xavfsizlik kamarini bloklash bilan jihozlangan bo'lsa ham. Inersion g'altakning to'sqichi ishlaganidan keyin kamarni bo'shashtirish emas, balki uni taranglashtirish mumkin.

5.Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilgandan va avtomobilni ishga tushirishdan keyin indikator yonib turgan bo'lsa, avtomobilni qayta o'chirish kerak. So'ngra suyanchiqni ozgina egiltiring va suyanchiq bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rindiq yostig'iga bosmasligi uchun o'rindiq yostig'ini sozlang (agar uning holati sozlanadigan bo'lsa). Shuningdek, bolalarni tutib turuvchi qurilma bosh tagligi ostida qisilib qolgan holatda bo'lib qolmaganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Agar bu sodir bo'lgan bo'lsa, bosh tagligini holatini sozlash kerak bo'ladi. Bosh tagliklari ⇨ 2-2ni ko'ring.
6. Dvigatelni qayta ishga tushiring.
Bolalarni tutib turuvchi qurilmadagi bolaning gavda tuzilishiga bog'liq holda frontal xavfsizlik yostig'i ba'zida yo'lovchini aniqlash tizimi tomonidan xato o'chirilishi mumkin.
Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni orqa o'rindiqqa o'rnatish baribir tavsiya etiladi. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa o'rnatish imkoni bo'lmasa, bolani tashish uchun boshqa transport vositasidan foydalanish tavsiya etiladi.
Oldingi o'rindiqqa yuz bilan orqaga qilib o'tirish bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani, hattoki agar yoqilgan yostiqning indikatori yonmayotgan bo'lsa ham, o'rnatish taqiqlanadi.

Agar xavfsizlik yostig'ini o'chirilgan holati OFF indikatori, o'rindiqda katta odamning bo'y-bastiga ega bo'lgan yo'lovchi o'tirganida, yonib turgan bo'lsa

Oldingi o'rindiqda katta odamning bo'y-bastiga ega bo'lgan odam o'tirganida, xavfsizlik yostig'ini o'chirish indikatori odam o'z joyida noto'g'ri o'tirishi sababi bo'yicha yonib turishi mumkin. Tizim oldingi yon tomon o'rinda yo'lovchining joylashganini to'g'ri aniqlashi mumkin va frontal xavfsizlik yostig'ini yoqishi uchun quyidagi harakatlarni bajaring:
1. Avtomobilni o'chiring.
2. O'rindiqdan barcha qo'shimcha buyumlarni (ko'rpalar, yostiqlar, g'iloflar, isitgichlar, uqalagichlar va shunga o'xshashlarni) olib qo'ying.
3.O'rindiq suyanchig'ini vertikal holatga keltiring.
4.Yo'lovchidan o'rindiqda tekislanishini, oyoqlarni qulay holatga cho'zib, yostiqning markaziga o'tirishini so'rang.
5.Dvigatelni qayta yoqing va indikator yorishganidan keyin yo'lovchidan ikki-uch minut davomida o'rindiqda qolishini so'rang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar oldingi yon tomon yo'lovchining xavfsizlik yostig'i katta odamning bo'y-bastiga ega bo'lgan yo'lovchi uchun o'chirilgan bo'lsa, to'qnashuv holatida xavfsizlik yostig'i ishlamaydi va ushbu yo'lovchini himoyalash imkoniga ega bo'lmaydi, bu jiddiy jarohatlar olish yoki o'lim oqibatining yuqori xavfiga olib kelishi mumkin. Katta odamning bo'y-bastiga ega bo'lgan yo'lovchi, agar yo'lovchining xavfsizlik yostig'ini o'chirish indikatori yonib turgan bo'lsa, oldingi yon tomon yo'lovchining o'rindig'ini egallash lozim bo'lmaydi.

Tizim faoliyat yuritishiga ta'sir etuvchi boshqa omillar

Xavfsizlik kamarlari manevrlarni va tormozlanishni bajarish vaqtida talab etiluvchi holatda yo'lovchini ushlab qolishga yordam beradi, va buning sharofati bilan yo'lovchini aniqlash tizimi xavfsizlik yostig'ini o'chirmaydi. Vajnuyu dopolnitelnuyu Bolalarni tutib turuvchi

qurilmani to'g'ri qo'llash haqidagi muhim qo'shimcha ma'lumotlarni Ko'rsatkichda "Xavfsizlik kamarlari" va "Bolalarni tutib turuvchi qurilmalar" bo'limlarida ko'ring. Qo'shimcha buyumlar (ko'rpa, yostiq, g'ilof, isitgich, uqalagich va shunga o'xshashlar) yo'lovchini aniqlash tizimi ishiga ta'sir etishi mumkin. G'iloflarni va boshqa aksessuarlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, GM tomonidan ma'qullanganlar bundan mustasno.

Tizim faoliyat yuritishiga o'zgarishlarning ta'siri haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilda qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatilishi ⇨ 2-35 bo'limda ko'ring.

Yoqilgan xavfsizlik yostig'i indikatori, agar bo'sh o'rindiqda portfel, sumka, oziq-ovqatlar solingan paket, noutbuk yoki boshqa elektron qurilma joylashgan bo'lsa, yonib turishi mumkin. Agar bu maqsadga muvofiq bo'lmasa, o'rindiqdan buyumni olib qo'yish kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yo'lovchi o'rindig'ida va ushbu o'rindiqning yostig'i va suyanchig'i orasida joylashgan buyumlar, shuningdek, yo'lovchini aniqlash tizimining faoliyat yuritishini buzishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga xizmat ko'rsatish

Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobillar uchun alohida xizmat ko'rsatish talab etiladi. Avtomobilning turli qismlarida xavfsizlik yostiqlari tizimining komponentlari o'rnatilgan. Xavfsizlik yostiqlari tizimiga xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlarni dilerdan olish yoki muvofiq qo'llanmaga murojaat qilib olish mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil o't oldirilishi o'chirilgandan va akkumulator uzilgandan keyin xavfsizlik yostiqlari 10 sekund davomida noto'g'ri harakatlarda yana ishlab ketishi mumkin. Xavfsizlik yostig'i yaqiniga joylashgan odam jarohatlar olishi mumkin. Sariq ulagichlar bilan tartib-tamoyillardan saqlanish kerak. Ular katta ehtimollik bilan xavfsizlik yostiqlari tizimiga taalluqli bo'lishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazayotgan odam malakaning kerakli darajasiga ega bo'lishi va tavsiya etilgan tartib-tamoyillarga rioya qilishi kerak.

Xavfsizlik kamarlari bilan jihozlangan avtomobilda qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatish

Avtomobil ramasi, bamperlari, old qismi yoki yon tomon panellarining konstruksiyasiga o'zgartirishlar kirituvchi, uning balandligini o'zgartiruvchi qo'shimcha asbob-uskunalarning o'rnatilishi, shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi ishlashini buzishi mumkin.

Xavfsizlik yostiqlari tizimi harakat qilishiga, shuningdek, quyidagi istalgan komponentlarga o'zgartirishlar kiritilishi, jumladan noto'g'ri ta'mirlash va almashtirish ta'sir etishi mumkin:

- Xavfsizlik yostiqlar tizimi, jumladan xavfsizlik yostiqlari modullari, oldindan va yon tomondan zarba datchiklari, qaydlash va diagnostika modullari, xavfsizlik yostiqlari simlari, oldingi markaziy konsol.
- Oldingi o'rindiqlar, jumladan hoshiyalar, choklar yoki ilgak-zanjirsimon yopqich
- Xavfsizlik kamarlari
- Rul chambaragi, uskunalar paneli, shift konsoli, shift pardozi yoki bo'linmalarning naqshdor pardozi
- Eshiklarning ichki zichlanishlari, jumladan karnaylar

O'z dileringizda va xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanmada siz avtomobilda xavfsizlik yostiqlari modullari va datchiklarining, qayd qilish va diagnostika va xavfsizlik yostiqlarini

simlarini modulini, hamda ularni almashtirishning tegishli tartibini topasiz.
Bundan tashqari, avtomobil yon tomon oldingi yo'lovchini aniqlash tizimi bilan jihozlangan. u o'rindiqqa o'rnatilgan datchiklarning signallarini qo'llaydi. Yo'lovchini aniqlash tizimining faoliyat yuritishi o'rindiqning asl pardozini qoplama, qoplash materiali yoki boshqa ishlab chiqaruvchining pardozi; yoki GM qoplamasi yoki pardozi, avtomobillarning boshqa modellari uchun mo'ljallangan qoplash materiallari yoki pardoz bilan almashtirishda buzilishi mumkin.
Har qanday aksessuarlar, masalan, qo'shimcha o'rindiq isitgichi, qulaylikni oshiruvchi to'shama yoki o'rindiq qoplamasi ustiga yoki ostiga o'rnatiluvchi boshqa qurilma, yo'lovchini aniqlash tizimining faoliyat yuritishiga ta'sir qilishi mumkin. Bu yo'lovchi tomonidagi xavfsizlik yostiqlarining to'g'ri yoyilishini va/yoki yo'lovchini aniqlash tizimi tomonidan xavfsizlik yostiqlarini o'chirio' funksiyasini buzishi mumkin. Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limini ko'ring.
Tomning ko'ndalang brusidagi xavfsizlik yostiqlari haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Boshqa o'lchamdagi shinalar va g'ildirak disklari ⇨ 9-46 bo'limida ko'ring.

Agar avtomobilni cheklangan jismoniy qobiliyatlarga ega bo'lgan foydalanuvchi uchun moslashtirish maqsadida yoki boshqa biron bir boshqa sabablar bo'yicha takomillashtirish zarur bo'lsa, ushbu o'zgartirishlar xavfsizlik yostiqlari tizimi ishini buzmasligiga nisbatan o'z dileringiz bilan maslahatlashing.

Xavfsizlik yostiqlari tizimini tekshirish
Xavfsizlik yostiqlari tizimi rejadagi texnik xizmat ko'rsatish yoki almashtirishni talab etmaydi. Xavfsizlik yostig'ining tayyorlik indikatori ishlayotganligiga ishonch hosil qiling. Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorligi ⇨ 4-23ni ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Agar xavfsizlik yostig'i tizimi buzilgan, shikastlangan yoki ochilgan bo'lsa, yostiq noto'g'ri ishlashi mumkin. Xavfsizlik yostig'i qoplamasini ochish yoki buzish mumkin emas.
Agar xavfsizlik yostig'ining qopqoqlari ochilgan yoki buzilgan bo'lsa, uni yoki xavfsizlik yostig'ining butun modulini almashtirish zarur. Xavfsizlik yostiqlarining joylashishi Xavfsizlik yostiqlari qaerga joylashtirilgan? ⇨ 2-27 bo'limida tavsiflangan Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish kerak.

To'qnashuvdan keyin xavfsizlik kamarlari tizimi komponentlarini almashtirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil to'qnashuvida xavfsizlik yostig'i tizimlari shikastlangan bo'lishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlarining shikastlangan tizimi avariya holatida tegishli himoyani ta'minlay olmaydi, buning oqibatida ular og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlar bo'lib qolishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari tizimini to'g'ri faoliyat yuritishini kafolatlash uchun, to'qnashuvdan keyin uni texnik xizmat xodimlari tekshirishi va zarurat tug'ilganida shikastlangan komponentlarni almashtirishlari kerak.

Xavfsizlik yostig'i harakatga keltirilganidan keyin uning komponentlarini almashtirish talab etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qilish kerak.
Agar xavfsizlik yostig'i tayyorligi indikatori o'chmayotgan yoki harakatlanish vaqtida yonayotgan bo'lsa, xavfsizlik yostiqlari tizimi tegishli tarzda faoliyat yuritmasligi mumkin. Texnik xizmatga kechiktirmasdan murojaat qilish kerak. Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorlik signal lampasi ⇨ 4-23ni ko'ring.

BOLALAR UCHUN XAVFSIZLIK TIZIMLARI

Katta yoshdagi bolalar



Maxsus balandlovchi o'rindiqlarda o'tirmaydigan katta yoshdagi bolalar avtomobilning xavfsizlik kamarlaridan foydalanishlari kerak.

«Xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalanish kerak ⇨ 2-20" ga qarang.

Qo'shimcha yostiqni ishlab chiqaruvchisidan qo'llanmada bolaning vazni va bo'yi bo'yicha cheklovlar ko'rsatilgan. Bolaga bel va yelka xavfsizlik kamari bilan qo'shimcha yostiqdan foydalanish zarurligini quyidagi sinov yordamida aniqlash mumkin:

- O'rindiq suyanchig'iga orqa bilan suyanib, o'tirish kerak. Tizzalar aynan o'rindiqni chetida bukilmoqdami? Agar ha bo'lsa, davom ettirilsin. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiq qo'llash zarur.
- Bel-yelka xavfsizlik kamarini taqib oling. Yelka kamari yelka ustiga joylashmoqdami? Agar ha bo'lsa, davom ettirish. Agar bola ushbu tekshiruvdan o'tmagan bo'lsa, balandlovchi bolalar o'rindig'idan foydalanish zarur.
- Bel kamari yonboshlarga sal teginib turib, beldan pastki sohaga zich yopishib turibdimi? Agar ha bo'lsa, davom ettirish. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiqni qo'llash zarur.
- Xavfsizlik kamarining to'g'ri holati butun sayohat davomida saqlanib qolinishi mumkinmi? Agar ha bo'lsa, davom ettirish. Agar yo'q bo'lsa, qo'shimcha yostiqni qo'llash zarur.

Q: Xavfsizlik kamarlaridan qanday to'g'ri foydalaniladi?

A: Katta yoshdagi bolalar bel-yelka kamaridan foydalanishlari kerak, bunda yelka kamari gavdaning harakatlanishini qo'shimcha cheklashi kerak. Yelka kamari yuz yoki bo'yin darajasida o'tmasligi kerak. Bel kamari yonboshga ozgina tegib turgan holda beldan pastki sohaga zich yopishib turishi kerak. To'qnashuv paytida yuklama tos suyaklariga to'g'ri keladi.

Kamar hech qachon qorinda joylashmasligi kerak, chunki to'qnashuvda bu o'zi bilan og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni olib kelishi mumkin.

Statistikaga ko'ra, bolalar, agar ular orqa o'rindiqda tutib turuvchi qurilma bilan tegishli tarzda taqib qo'yilgan bo'lsa, katta xavfsizlik ostida bo'ladi.

Kamarlar bilan taqib qo'yilmagan bolalar avariya vaqtida avtomobildan otib yuborilishi yoki boshqa odamlarga urilib ketishi mumkin. Katta yoshdagi bolalar xavfsizlik kamarlaridan to'g'ri foydalanishlari kerak.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Bitta kamar bilan bir nechta bolalarni taqib qo'yishga ruxsat berilmaydi. Ushbu holatda kamar to'qnashuvda yuzaga keluvchi kuchlarni to'g'ri taqsimlashga qodir bo'lmaydi. YTH holatida ular bir-birlari bilan to'qnashib ketishlari va jiddiy jarohatlar olishlari mumkin. Har bir xavfsizlik kamari bilan faqat bitta odam foydalanishi mumkin.



⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik kamarini yelka shohini bolaning qo'llari ostidan yoki orqasidan o'tkazib, u bilan bolalarni taqib qo'yish taqiqlanadi. Bola, agar u bel-yelka xavfsizlik kamari bilan tegishli tarzda taqib qo'yilmagan bo'lsa, jiddiy jarohatlar olishi mumkin. Avariya holatida yelka kamari bolaning joydan joyga ko'chishini cheklay olmaydi. Bolaning juda uzoqqa oldinga harakatlanishi bolaning boshi yoki bo'yni tomonidan jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Bola, shuningdek bel kamari ostiga sirpanib ketishi mumkin. Ushbu holatda yuklama qoringa to'g'ri keladi, bu jiddiy va hatto halokatli jarohatlarga olib kelishi mumkin. Yelka kamari yelka va ko'krak orqali o'tishi kerak.

Kichik bolalar va go'daklar

Avtomobilga joylashtirilganlarning barchasi himoyalangan bo'lishi kerak! Bu kichik bolalarga va go'daklarga ham taalluqlidir. Xavfsizlik tizimidan barcha, yoshiga, bo'yiga va safar uzoqligiga bog'liq bo'lmagan holda foydalanishi kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik kamari bolalarning orqasida, oyoqlari ostida joylashgan yoki bo'yni atrofiga o'ralib qolgan bo'lsa, ular jiddiy jarohatlanishi yoki hatto halok bo'lishi ham mumkin. Inersion g'altak kamarni oson tortib kiritishga imkon beradi, biroq uni bloklanishida kamarni bo'shatish imkoni bo'lmaydi. Butun uzunlikka inersion g'altakdan xavfsizlik kamarini yelka shohini tortib chiqarishda g'altakning to'sqichli mexanizmi ishlaydi. Agar kamar qo'yib yuborilsa va unga erkin tortib kiritilishi imkoni berilsa, g'altak blokdan chiqariladi, biroq kamarning bolaning atrofiga o'ralashib qolishida buni qilishning imkoni bo'lmaydi. Bolalarni avtomobilda qarovsiz qoldirish va ularga xavfsizlik kamarlari bilan o'ynashlari yoki ularni noto'g'ri taqilishi taqiqlanadi.

Avtomobilda kichik bolalar va go'daklar tashilayotganida har doim maxsus bolalar o'rindiqlari qo'llanilishi kerak. Avtomobilning na xavfsizlik yostiqlari tizimi, na uning xavfsizlik kamarlari kichik bolalar va go'daklar uchun mo'ljallanmagan.

Tegishli tarzda taqib qo'yilmagan bolalar avariya vaqtida avtomobil ichidan otib yuborilishi yoki boshqa odamlarga urilib ketishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilda harakatlanayotganda kichik bolani yoki go'dakni qo'llarda ko'tarib turish mumkin emas. To'qnashuv paytida katta kuchlar yuzaga keladi va bolani tutib qolish imkoni bo'lmaydi. Masalan, agar to'qnashuv 40 km/soat (25 mil/soat) tezlikda sodir bo'layotgan bo'lsa, 5,5 kg (12 funt) vaznga ega bo'lgan bola yo'lovchining qo'llariga 110 kg (240 funt) og'irlik bilan bosadi. Bola uning yoshiga muvofiq keluvchi tutib turuvchi qurilmaga mahkamlab qo'yilgan bo'lishi kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik yostig'i ustida yoki unga juda yaqin joylashgan bolalar uning ishlab ketishida og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlarni olishlari mumkin. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani oldingi yo'lovchi o'rindig'iga yuztuban orqaga o'rnatish taqiqlanadi. Orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa mahkamlash kerak. Oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani, shuningdek, orqa o'rindiqqa o'rnatish tavsiya etiladi. Oldingi yo'lovchi o'rindig'iga harakatlanish yo'nalishi bo'yicha bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishda o'rindiqni eng chetki holatga orqaga surib qo'yish zarur.

Agar ikkinchi qator markaziy o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilgan bo'lsa, oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan aloqani minimallashtirish uchun, iloji boricha ikkinchi qator o'rindig'ini eng chetki orqa holatga joylashtiring.

Bolalar xavfsizligi tizimlari bolalarni avtomobilda o'tirgan yoki boshqa holatda tutib turuvchi qurilmalardan tashkil topgan. Ba'zida ularni bolalar o'rinliqlari yoki avtomobil o'rindiqlari deb nomlanadi.

Bolalarni xavfsizlik tizimlari uchta asosiy turlarga bo'linadi:

- Harakatlanish yurishi bo'yicha o'rnatilgan bolalar avtomobil o'rindiqlari
- Harakatlanishga qarshi o'rnatilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar
- Qo'shimcha yostiqlari va standart xavfsizlik kamarlari bo'lgan o'rindiqlar

Bolalarni tutib turuvchi qurilma muayyan bolaning bo'yicha, vazni va yoshiga nisbatan, hamda u jihozlanuvchi avtomobil bilan mos keluvchanlik bo'yicha tanlanadi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarning barcha turdagi ko'pchilik modellari mavjud. Bolalarni tutib turuvchi qurilmagi xarid qilayotganda, u avtomobilda qo'llash uchun mo'ljallanganligiga ishonch hosil qilish zarur.
Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga yo'riqnomada unga mo'ljallangan bolaning vazni va bo'yi ko'rsatiladi. Bundan tashqari, alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar uchun tutib turuvchi qurilmalarning ko'pgina turlari mavjuddir.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avariyada bo'yin yoki boshning jarohat olish ehtimolini pasaytirish uchun, kichik yoshdagi va emizikli bolalarni orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmaga, toki bola ikki yoshga yoki uning bo'yi va vazni ushbu qurilma uchun chegaraviy kattaliklardan oshmagunicha, o'tirg'iziladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Kichik bolaning tos suyaklari hali kichkina, va shuning uchun shtatdagi xavfsizlik kamari tos suyaklarida zaruriy yetarlicha past holatni qabul qilishi mumkin emas. Buning o'rniga kamar bolaning qorniga to'shaladi. To'qnashuvda kamar tananing suyaklar bilan himoyalanmagan qismiga kuchni taqsimlaydi, bu jiddiy va hatto halokatli

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

jarohatlarga olib kelishi mumkin. Jarohatlanish xavfini pasaytirish uchun, bola uchun har doim mos keladigan bolalar o'rindig'i qo'llanilishi kerak.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish mumkin bo'lgan joylar



Harakatlanishga qarshi o'rnatiluvchi avtokajava

Orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma bolani oldinga qarab siljib ketishidan tutib turadi, u uning orqasi uchun tayanchni ta'minlab beradi.

Kamarlar yordamida bolaning o'rindiqdagi holati, jumladan, avariya paytida, saqlab qolinadi.

Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma

Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilma kamarlar yordamida bolaning oldinga siljib ketishidan tutib qoladi.



Yostiq (buster)

Qo'shimcha yostiqlari va standart xavfsizlik kamarlari bo'lgan o'rindiqlar harakatlanish yo'nalishi bo'yicha o'rnatiluvchi bolalarni tutib turuvchi qurilmadan o'sib ketgan bolalar uchun mo'ljallangan.

Qo'shimcha o'rindiqlar bolaga avtomobilning standart xavfsizlik kamarlarini, toki ular shunday xavfsizlik kamarlaridan qo'shimcha yostiqlarsiz foydalanish uchun shunchalik o'sib ketmagunlaricha, moslashtirishga imkon beradi. Xavfsizlik kamarlarini moslashtirilganligini tekshirish haqida ma'lumotlarni Katta yoshdagi bolalar ⇨ 2-37 bo'limida ko'ring.

Avtomobilga qo'shimcha bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Agar bolalar o'rindig'i avtomobilda yomon mahkamlangan bo'lsa, bola og'ir yoki hattoki halokatli jarohatlar olishi mumkin. Ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga va ushbu qo'llanmada keltirilgan yo'riqnomalarga rioya qilgan holda xavfsizlik kamari yordamida bolalarni tutib turuvchi qurilmasini tegishli tarzda mahkamlash zarur.

Jarohat olish xavfini pasaytirish uchun, avtomobilda bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmalar bel xavfsizlik kamari yoki uchta nuqtali xavfsizlik kamarining bel shohi bilan o'rindiqlarga mahkamlanishi kerak. Agar bolalar o'rindig'i avtomobilda yomon mahkamlangan bo'lsa, avariya paytida bola jarohatlar olishi mumkin.

Avtomobilga bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatib, yo'riqnoma bilan tekshirib aniqlab oling. Buning uchun quyidagilarni tekshiring:

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmadagi yo'riqnomali yopishtirma yorliqlari
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga yo'riqnoma
3. Avtomobil ekspluatatsiyasi bo'yicha mazkur qo'llanma.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga nisbatan yo'riqnomalar juda ham muhimdir, shuning uchun agar ular yo'qotilgan bo'lsa, ularning nusxasini ishlab chiqaruvchidan olish zarur.

Mahkamlanmagan bolalarni tutib turuvchi qurilma to'qnashuvda yoki to'satdan to'xtashda siljib ketishi mumkinligini va avtomobilda o'tirgan odamlarni urib yuborishi mumkinligini yodda tutish kerak. Bolalarni tutib turuvchi qurilma avtomobilda, hattoki unda bola yo'q bo'lsa ham, tegishli tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.

Bolaning bolalarni tutib turuvchi qurilmada mahkamlanishi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Bolalar o'rindig'ida yomon mahkamlangan bola to'qnashuv vaqtida jiddiy yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlar olishi mumkin. Bolalar o'rindig'iga ilova qilinuvchi yo'riqnomalarga rioya qilgan holda bolani tegishli tarzda mahkamlash zarur.

Bolalar o'rindig'ini qaerda o'rnatish mumkin

Statistikaga ko'ra, bolalar va go'daklar, agar ular orqa o'rindiqqa o'rnatilgan muvofiq bolalarni tutib turuvchi qurilmada tegishli tarzda taqib qo'yilgan bo'lsa, katta xavfsizlikda bo'ladi.

12 yoshdan kichik bolalar iloji boricha orqa o'rindiqqa taqib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Avtomobil oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan, u haydovchi o'rindig'ining ichki tomonida joylashgan. Hattoki oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i mavjudligida o'rindiqlarning ikkinchi qatorining istalgan joyiga bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilish imkoniyati bor.

⚠ *XAVF-XATAR!*

Bolaning OG'IR JAROHAT olishi yoki uning O'LIMI sababli uning oldida XAVFSIZLIK YOSTIG'INING FAOLLASHTIRILISHIDA o'rindiqda bolalarni tutib turuvchi qurilmasini qo'llash QAT'IYAN TAQIQLANADI!

⚠ *XAVF-XATAR!*

Oldingi yo'lovchining o'rindig'ida bolalarni tutib turuvchi qurilmasi qo'llanilishida oldingi yo'lovchi o'rindig'i uchun shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi o'chirib qo'yilgan bo'lishi kerak; agar bu amalga oshirilmasa, u holda ishlab ketishda shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari bola uchun o'lim bilan teng xavfni yuzaga keltiradi.

Agar oldingi yo'lovchining o'rindig'ida orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma qo'llanilganida, bu, ayniqsa, adolatli bo'ladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Oldingi xavfsizlik yostig'i yoyilishida orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmaga joylashgan bola og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlar olishi mumkin. Orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmaning orqa qismi xavfsizlik yostig'iga juda yaqin joylashgan. Agar oldingi yo'lovchining o'rindig'i uskunalar paneliga juda yaqin surilgan bo'lsa, oldingi xavfsizlik yostig'ining yoyilishida oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmada bo'lgan bola og'ir yoki hattoki o'lim bilan teng jarohatlar olishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Hattoki agar oldingi xavfsizlik yostig'i yo'lovchini aniqlash tizimi tomonidan o'chirilsa ham, tizim ishlamay qolishi mumkinligini kafolatlash mumkin emas - alohida sharoitlar mavjudligida xavfsizlik yostig'i o'chirilgan holatda bo'la turib baribir yoyilishi mumkin. Orqaga qaratilgan bolalar o'rindig'ini faqat orqa o'rindiqqa, hattoki agar xavfsizlik yostig'i o'chirilgan bo'lsa ham, o'rnatish kerak. Agar oldingi yo'lovchining o'rindig'iga oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilayotgan bo'lsa, o'rindiq to'liq orqaga surilgan bo'lishi kerak.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa baribir o'rnatish tavsiya etiladi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limini ko'ring.

Agar ikkinchi qator markaziy o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilgan bo'lsa, oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan aloqani minimallashtirish uchun, iloji boricha ikkinchi qator o'rindig'ini eng chetki orqa holatga joylashtiring.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa xavfsizlik kamarlari yordamida mahkamlashdan avval, u ushbu avtomobil bilan mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini o'rganib chiqish zarur. Qo'shimcha yostiqlar va bolalar o'rindiqlari turlicha o'lchamlarga ega, va ulardan ba'zilari boshqalarga qaraganda muayyan holatlar uchun mos keladi. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilmani ishonchli mahkamlash imkoni bo'lmasa, uni orqa o'rindiqqa o'rnatish taqiqlanadi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning joylashish joyi va o'lchamlariga bog'liq holda, uning yonida joylashgan xavfsizlik kamarlari yoki ISOFIX mahkamlagichlari boshqa yo'lovchilar yoki bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun erishimli bo'lmasligi mumkin. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma kirish yo'lini to'sib qo'yayotgan yoki xavfsizlik kamarining to'g'ri joylashishiga xalal berayotgan bo'lsa, qo'shni o'tirish joylarini qo'llash mumkin emas.

Bolalarni tutib turuvchi qurilma oldidagi o'rindiqning holatini shunday sozlash zarurki, bolalarni tutib turuvchi qurilmani ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomasiga muvofiq uni to'g'ri mahkamlash imkonini ta'minlashi kerak.

Ikkinchi qator sozlanuvchi o'rindiqqa bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishda ushbu o'rindiqni oldinga yoki orqaga shunday surish zarurki, bunda bolalarni tutib turuvchi qurilmaga qo'llanma bilan muvofiqlikda uning to'g'ri egilishi ta'minlanishi kerak. Agar o'rindiq suyanchig'i nishablik bo'yicha sozlanishi mumkin bo'lsa, bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishdan avval uni vertikal holatga keltirish zarur bo'ladi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishda ishlab chiqaruvchining yo'riqnomalarini muqarrar bajaring va qurilmani ishonchli qayd qiling.

Mahkamlanmagan bolalarni tutib turuvchi qurilma to'qnashuvda yoki to'satdan to'xtashda siljib ketishi mumkinligini va avtomobilda o'tirgan odamlarni urib yuborishi mumkinligini yodda tutish kerak. Bolalarni tutib turuvchi qurilma avtomobilda, hattoki unda bola yo'q bo'lsa ham, tegishli tarzda mahkamlangan bo'lishi kerak.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish imkoniyati

Quyida keltirilgan jadvalda bel-yelka kamari bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmaning mahkamlanishini erishimli variantlari taqdim etilgan.

O'tirish joyi									
O'rindiq holati raqami	1	2	3	4	5 **Faqat ajralmagan o'rindiq**	6	7	8	9
Shtatdagi kamar universal mahkamlagich bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishga yo'l qo'yiladigan o'tirish joylari (Ha/Yo'q)	Erishimli emas	Erishimli emas	X	Ha	Yo'q	Ha	Ha	Yo'q	Ha
I-Size mahkamlagichi bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishga yo'l qo'yiladigan o'tirish joylari (Ha/Yo'q)	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas	Ha	Ha	Ha	Erishimli emasно	Erishimli emas	Erishimli emas
Harakatlanish yo'nalishiga perpendikulyar bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilishi yo'l qo'yiladigan o'tirish joylari (L1/L2)	Erishimli emasно	Erishimli emas	Erishimli emas	X	X	X	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas

Harakatlanish yo'nalishiga qarshi yuz bilan qaratib o'tirish uchun maksimal o'lcham (ISO R1/R2X/ R2/R3)	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas	R3	R3	R3	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas
Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz bilan qaratib o'tirish uchun maksimal o'lcham (F2X/F2/F3)	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas	F3	F3	F3	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas
Busterni mahkamlash uchun maksimal o'lcham (B2/B3)	Erishimli emas	Erishimli emas	Erishimli emas	B3	B3	B3	B3	X	B3
Ta'rif va izohlar									
Erishimli emas: ushbu modelda ushbu joyga ISOFIX mahkamlagichli bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish ko'zda tutilmagan.									
X - ushbu vazn toifasi uchun bolalarni tutib turuvchi qurilmani qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.									

O'rindiq raqami	Avtomobildagi holati
1	Oldinda chapda
2	Oldingi o'rta o'rindiq
3	Oldinda o'ngda
4	Ikkinchi qator o'rta o'rindiq
5	Ikkinchi qator o'rta o'rindiq
6	Ikkinchi qator o'ng o'rindiq
7	Uchinchi qator chap o'rindiq
8	Uchinchi qator o'rta o'rindiq
9	Uchinchi qator o'ng o'rindiq

O'lcham sinfi va ISOFIX tutib turuvchi qurilmaning turi
ISO/F3: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz bilan o'tirishli kichik bola uchun to'liq balandlikni tutib turuvchi tizim
ISO/F2: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz bilan o'tirishli kichik bola uchun pastlatilgan balandlikning tutib turuvchi tizimi
ISO/F2: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha yuz bilan o'tirishli kichik bola uchun pastlatilgan balandlikning tutib turuvchi tizimi
ISO/R3: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha orqa bilan o'tirishli kichik bola uchun to'liq o'lchamli tutib turuvchi tizim
ISO/R2: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha orqa bilan o'tirishli kichik bola uchun o'lchami kichiklashtirilgan tutib turuvchi tizim
ISO/R2X: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha orqa bilan o'tirishli kichik bola uchun kichraytirilgan o'lchamli tutib turuvchi tizim
ISO/R1: Harakatlanish yo'nalishi bo'yicha orqa bilan o'tirishli go'dak uchun tutib turuvchi tizim
ISO/L1: chapga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma (tashiluvchi belanchak).
ISO/L2: o'nga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma (tashiluvchi belanchak).
B2: kichraytirilgan kenglikdagi yostiq-buster (440 mm)
B3: standart kenglikdagi yostiq-buster (520 mm)

ISOFIX mahkamlash tizimi bo'lgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar

Ikkinchi qator - kapitan o'rindig'i



Ikkinchi qator - divan 60/40

ISOFIX ankerlari suyanchiq va o'rindiq yostig'ining ulanishi yonida joylashgan va belgi bilan belgilangan.
ISOFIX ankerlari ISOFIX bolalarni tutib turuvchi tizimlarni mahkamlash uchun mo'ljallangan.
Avtomobilga bog'liq holda ISOFIX muayyan bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni o'rnatish joylari "ISOFIX mahkamlanish tizimli bolalar o'rindiqlarini o'rnatish imkoniyati" jadvalida keltirilgan. Bolalar o'rindig'ini qaerda o'rnatish mumkin ⇨ 2-42ni ko'ring.

ISOFIX ankerlari bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmaning mahkamlanishi

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani uni o'rnatish rejalashtirilayotgan o'rindiqqa joylashtiring.
2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga yo'riqnomalar bilan muvofiqlikda ISOFIX mahkamlagichlarini ISOFIX ankerlariga mahkamlang.
3. Bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rindiqqa ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.
4. ISOFIX tizimi ankerlaridan tashqari bolalarni tutib turuvchi qurilma uchun yoki tepa kamarni (Top-Tether) yoki qo'shimcha pastki tayanchni qo'llash zarur.

Avtomobilda Top-Tether mahkamlagichlari



Ikkinchi qator - kapitan o'rindig'i



Ikkinchi qator - divan 60/40

Ikkinchi qator o'rindiqlaridagi Top-Tether mahkamlagichlari yon tomon o'rindiqlarini suyanchiqlari orqasida va markaziy o'rindiqdagi o'rindiq yostig'ining orqasida joylashgan. Top-Tether mahkamlagichlari har doim orqa o'rindiqlar bilan birlashtirilgan va belgi bilan belgilanadi.

Uchinchi qator o'rindiqlarida bolalarni tutib turuvchi qurilmalar uchun ISOFIX mahkamlagichlari yo'q.

Avtomobilning Top-Tether mahkamlagichlari faqat bolalarni tutib turuvchi qurilmalarni mahkamlash uchun mo'ljallangan.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani Top-Tether ankeriga mahkamlash tartibi:

1. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma ishlab chiqaruvchisi Top-Tether mahkamlagichini qo'llashni tavsiya etayotgan bo'lsa, uni tepa ankerga mahkamlang, agar u mavjud bo'lsa, va tortib qotiring. Bolalarni tutib turuvchi qurilma ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalarini inobatga olgan holda quyidagi harakatlarni bajaring:

1.1. Top Tether ankerini toping.

1.2. Bolalar o'rindig'i ishlab chiqaruvchisi yo'riqnomalariga va quyidagi yo'l-yo'riqlarga binoan Top-Tether kamarini cho'zib o'tkazing, mahkamlang va qotiring:



• Agar o'rindiqda bosh tagligi bo'lmasa va bir qatlamli kamar qo'llanilayotgan bo'lsa, kamarni o'rindiq suyanchig'i orqali olib o'ting.



• Agar o'rindiqda bosh tagligi bo'lmasa va ikki qatlamli kama qo'llanilayotgan bo'lsa, kamarni o'rindiq suyanchig'i orqali olib o'ting.



• Agar o'rindiq qayd etilgan bosh tagligi bilan jihozlangan va bir qatlamli bog'lanuvchi kamar qo'llanilayotgan bo'lsa, kamarni bosh tagligidan ichki tomonidan o'tkazing.



• Agar o'rindiq qayd qilingan bosh tagligi bilan jihozlangan va ikki qatlamli bog'lanuvchi kamar qo'llanilayotgan bo'lsa, kamarni bosh tagligidan ikki tomonidan o'tkazing.
Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma markaziy o'rindiq yoniga o'rnatilayotgan bo'lsa, Top-Tether tepa kamari markaziy o'rindiqning xavfsizlik kamari taranglashtirgich/yelka xavfsizlik kamarining faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmayotganligini tekshiring. Aks holda bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish uchun boshqa mos keladigan joyni toping.

2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmaning Top-Tether mahkamlagichining ilgagi to'liq yopilganligiga va Top-Tether ankeriga mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling.

Bolalar o'rindig'ini o'rnatish (Xavfsizlik kamarli orqa o'rindiq)

Avtomobil oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan jihozlangan, u haydovchi o'rindig'ining ichki tomonida joylashgan. Hattoki oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i mavjudligida o'rindiqlarning ikkinchi qatorining istalgan joyiga bolalarni tutib turuvchi qurilma o'rnatilish imkoniyati bor. Ikkinchi qator markaziy o'rindig'iga bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatishda, oldingi markaziy xavfsizlik yostig'i bilan aloqani minimallashtirish uchun, ikkinchi qator o'rindig'ini iloji boricha orqaga uzoqroqqa suring.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani orqa o'rindiqqa xavfsizlik kamarlari yordamida mahkamlashdan avval, u ushbu avtomobil bilan mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasini o'rganib chiqish zarur.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma ISOFIX mahkamlagichlar tizimiga ega bo'lsa, joylashtirish va ISOFIX yordamida mahkamlash usullari bo'yicha ko'rsatmalarni ISOFIX mahkamlagichlar tizimiga ega bo'lgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar ⇨ 2-47 bo'limni ko'ring.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma avtomobilning xavfsizlik kamarini qo'llash va Top Tether langar kamari bilan mahkamlanayotgan bo'lsa, Top Tether qaydlagichlarining joylashish joylarini tavsifini ISOFIX mahkamlash tizimli bolalarni tutib turuvchi qurilmalar ⇨ 2-47 bo'limini ko'ring.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani Top Tether ankerini qo'llamasdan, agar uning majburiy qo'llanilishi mahalliy yoki milliy qoidalar bilan, yoki bolalarni tutib turuvchi qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalari bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, o'rnatish taqiqlanadi.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma yoki avtomobilning o'tirish joyi ISOFIX tizimi bilan jihozlanmagan bo'lsa, bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun standart xavfsizlik kamarini qo'llash kerak bo'ladi.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmaga ilova qilinuvchi yo'riqnomalarga rioya qilish zarur.

Agar orqa o'rindiqda bittadan ko'p bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish talab etilayotgan bo'lsa, Bolalar o'rindig'ini qaerda o'rnatish mumkin ⇨2-42ni ko'ring.

1. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rindiqqa qo'ying.
2. Lo'kidonning tilchasidan ushlab, xavfsizlik kamarining bel va yelka qismini bolalarni tutib turuvchi qurilma orqali yoki uning atrofidan o'tkazing.

Mahkamlanish usuli bolalarni tutib turuvchi qurilmaning yo'riqnomalarida ta'riflangan.



3. Tilcha chertki bilan qayd etilishi uchun uni qulfga kiriting.
Xavfsizlik kamarini bo'shatish tugmasini zarurat bo'lganida xavfsizlik kamarini tez yechib olish mumkin bo'lishi uchun bolalarni tutib turuvchi qurilmadan yaqinida to'qada joylashtiring.
Blokdan chiqarish tugmasiga kirish yo'li bolalarni tutib turuvchi qurilma bilan to'sib qo'yilishi kerak emas. Bolalarni tutib turuvchi qurilma tugmaga bosmasligi kerak.
4.Bolalarni tutib turuvchi qurilma bo'yicha qo'llanmadagi yo'l-yo'riqlarga binoan avtomobilning standart xavfsizlik kamari bilan bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlang va qayd etib qo'ying.



5. Inersion g'altak bloklanganligiga ishonch hosil qilish uchun kamarni tortib chiqarishga urinib ko'ring. Agar kamar tortib chiqarilayotgan bo'lsa, 4- va 5-kichik bandlarda tavsiflangan harakatlarni takrorlang.
6. Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma Top Tether mahkamlagichiga ega bo'lsa, uning qo'llanilishi bo'yicha qurilma ishlab chiqaruvchisining ko'rsatmalarini ko'ring.
ISOFIX mahkamlash tizimi bo'lgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar ⇨ 2-47 bo'limini ko'ring.
7. Bolani bolalarni tutib turuvchi qurilmaga joylashtirishdan avval, u ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish zarur. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani turli yo'nalishlarga itarib va tortib, uning mahkamlanganligini tekshiring.
Bolalarni tutib turuvchi qurilmani yechib olish uchun, xavfsizlik kamarini yechib yuborish va uni taxlangan holatga qaytarish talab etiladi. Top Tether mahkamlagichini, agar u ankerga mahkamlangan bo'lsa, uni uzib qo'ying.

Bolalar o'rindig'ini o'rnatish (Xavfsizlik kamariga ega bo'lgan oldingi yo'lovchi o'rindig'i)

Avtomobilda xavfsizlik yostiqlari mavjuddir. Orqa o'rindiq - oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatish uchun eng xavfsiz joy. Bolalar o'rindig'ini qaerda o'rnatish mumkin ⇨ 2-42ni ko'ring.

Bundan tashqari, avtomobil yo'lovchini mavjudligini aniqlash tizimi bilan jihozlangan, u muayyan sharoitlarda oldingi yon tomon o'rindiqda yo'lovchining frontal xavfsizlik yostig'ini o'chiradi. Qo'shimcha, jumladan xavfsizlikka taalluqli ma'lumotlarni, Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨2-31 va Yo'lovchining xavfsizlik yostig'ini holati indikatori ⇨ 4-23ni ko'ring.

⚠ *XAVF-XATAR!*

Bolaning OG'IR JAROHAT olishi yoki uning O'LIMI sababli uning oldida XAVFSIZLIK YOSTIG'INING FAOLLASHTIRILISHIDA o'rindiqda bolalarni tutib turuvchi qurilmasini qo'llash QAT'IYAN TAQIQLANADI!

⚠ *XAVF-XATAR!*

Oldingi yo'lovchining o'rindig'ida bolalarni tutib turuvchi qurilmasi qo'llanilishida oldingi yo'lovchi o'rindig'i uchun shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi o'chirib qo'yilgan bo'lishi kerak; agar bu amalga oshirilmasa, u holda ishlab ketishda shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari bola uchun o'lim bilan teng xavfni yuzaga keltiradi. Ayniqsa bu adolatli bo'ladi,

⚠ *XAVF-XATAR!*

agar oldingi yo'lovchi o'rindig'ida orqaga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilma qo'llanilayotgan bo'lsa.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma tepaga mahkamlash kamari bilan jihozlangan bo'lsa, ISOFIX mahkamlash tizimiga ega bo'lgan bolalarni tutib turuvchi qurilmalar ⇨ 2-47ni toping, kronshteynga uni ilib qo'yish kerak.

Bolalarni tutib turuvchi qurilmani Top Tether ankerini qo'llamasdan, agar uning majburiy qo'llanilishi mahalliy yoki milliy qoidalar bilan, yoki bolalarni tutib turuvchi qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalari bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, o'rnatish taqiqlanadi.

Agar bolalarni tutib turuvchi qurilmani mahkamlash uchun uch nuqtali xavfsizlik kamari qo'llanilayotgan bo'lsa, tutib turuvchi qurilma ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga amal qiling va quyidagi tavsiyalarga rioya qiling:

1. Mahkamlashdan avval oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani qanchalik imkoniyatga ega bo'lgan holda orqaga siljitish zarur. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani ishonchli mahkamlash uchun, zarurat tug'ilganida o'rindiqni ko'taring yoki suyanchiqni to'g'ri qilib o'rnating.

Blokdan chiqarish tugmasiga kirish yo'li bolalarni tutib turuvchi qurilma bilan to'sib qo'yilishi kerak emas. Bolalarni tutib turuvchi qurilma tugmaga bosmasligi kerak.

Agar tashqi frontal xavfsizlik yostig'i yo'lovchi mavjudligini aniqlash tizimi tomonidan o'chirib qo'yilgan bo'lsa, o't oldirish yoqilishida yo'lovchining xavfsizlik yostig'i o'chirilganligi indikatori yonishi va yonishda davom etishi kerak. Yo'lovchining xavfsizlik yostig'ining holati indikatori ⇨ 4-23 ni ko'ring.

2. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rindiqqa qo'ying.

3. Lo'kidonning tilchasidan ushlab, xavfsizlik kamarining bel va yelka qismini bolalarni tutib turuvchi qurilma orqali yoki uning atrofidan o'tkazing.

Xavfsizlik kamari iloji boricha tekisroq solingan va bolalar o'rindig'i tutqichiga plastmassa qoplamasining elementlariga ilinib qolmagan bo'lishi kerak.

Mahkamlanish usuli bolalarni tutib turuvchi qurilmaning yo'riqnomalarida ta'riflangan.



Zarurat tug'ilganida kamarning uzunligini sozlash uchun qulfni yon tomonga egiltiring.

4. Tilcha chertki bilan qayd etilishi uchun uni qulfga kiriting.
Xavfsizlik kamarini bo'shatish tugmasini zarurat bo'lganida xavfsizlik kamarini tez yechib olish mumkin bo'lishi uchun bolalarni tutib turuvchi qurilmadan yaqinida to'qada joylashtiring.

5. To'sqich mexanizm ishlaguniga qadar inersion g'altakdan xavfsizlik kamarining yelka shohini to'liq sug'urib oling. Inersion g'altakning to'sqichi ishlaganidan keyin kamarni bo'shashtirish emas, balki uni taranglashtirish mumkin.



6. Bolalarni tutib turuvchi qurilmni pastga bosib, kamarni taranglashtiring. Kamarning bel qismini tortib qotirish uchun, uning yelka qismini torting, va yelka kamarining osilib qolgan qismiga qayta taranglashtirishga kirishiga imkon bering.
Bosma tugmasi va bolalar ushlab turish moslamasi o'rtasida, barmoq kengligichalik bo'shliq bo'lishi kerak. Bosma tugmachasi va bolalar ushlab turish moslamasi orasidagi bo'shliqning yo'qligida, o'rindiqni oldinga joylashtiring va yuqorida ko'rsatilgan o'rnatish bo'yicha amallarni takrorlang. Aks holda, bolalar ushlab turish moslamasini orqa o'rindiqqa mahkamlang.

Oldinga qaratilgan bolalarni tutib turuvchi qurilmani o'rnatayotganda, uning pastiga bosish va kamarni taranglashtirish uchun tizzadan foydalanish mumkin. Inersion g'altak bloklanganligiga ishonch hosil qilish uchun kamarni tortib chiqarishga urinib ko'ring. Agar kamar tortib chiqarilayotgan bo'lsa, 5- va 6-kichik bandlarda tavsiflangan harakatlarni takrorlang.
7. Bolani bolalarni tutib turuvchi qurilmaga joylashtirishdan avval, u ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qilish zarur. Bolalarni tutib turuvchi qurilmani, turli yo'nalishlarga itarib va tortib, uning mahkamlanganligini tekshiring.
Agar xavfsizlik yostig'i o'chirilgan bo'lsa, yo'lovchi uchun joyda xavfsizlik yostig'ining maqomining muvofiq indikatori yonadi va dvigatel ishga tushirilganidan keyin o'chadi.
Agar bolalarni tutib turuvchi quirlma o'rnatilgandan keyin xavfsizlik yostig'ini faol holati indikatori yonishda davom etayotgan bo'lsa, qo'shimcha ma'lumotlarniYo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limida "Agar bolalarni tutib turuvchi qurilma qo'llanilishida yoqilgan xavfsizlik yostig'i indikatori yonib turgan bo'lsa"ni ko'ring.
Bolalarni tutib turuvchi qurilmani yechib olish uchun, xavfsizlik kamarini yechib yuborish va uni taxlangan holatga qaytarish talab etiladi.

3 BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN JOYLAR

- BUYUM QUTILARI 3-2
- BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR 3-5
- TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA 3-5

BUYUM QUTILARI

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Buyum bo'linmalarida og'ir yoki o'tkir buyumlarni saqlamang. Avariya vaqtida buyum bo'linmasini qopqog'i ochilib ketishi, eslatib o'tilgan buyumlar esa - yo'lovchilarga jarohatlar yetkazishi mumkin.

Uskunalar panelidagi quti



Uskunalar panelida mayda buyumlarni saqlash uchun bo'linma ko'zda tutilgan. Uni ochish uchun, tugmaga bosing va qayd qilingunga qadar qopqoqni suring.
Yopish uchun, tugmaga bosing va ushlab turing. Eshikcha avtomatik yopiladi.

Qo'lqop qutisi

Qopqoqni ochish uchun, buyum bo'linmasini tutqichini tepaga torting. Qo'lqop qutisini kalit yordamida qulflash yoki qulfdan yechish mumkin.

Stakan tutqichlar
Bo'linmaydigan o'rindiq uchun stakandonlar



Stakandonlar tirsaklagich tushirilishida ochiladigan markaziy konsolda saqlash uchun bo'linmani old qismida joylashgan. Markaziy konsoldagi buyum quti ⇨ 3-3ni ko'ring.

Yakka o'rindiqlar uchun stakandonlar



Stakandonlar markaziy konsolda saqlash uchun bo'linma oldida va uning orqasida joylashgan.

Orqa stakandonlar



Ikkinchi qator bo'linmaydigan o'rindiqda stakandonlar tirsaklagichda joylashgan. Stakandonlardan foydalanish uchun tirsaklagichni orqaga tashlang.

Yukxonada buyumlarni saqlash uchun bo'linma



Orqa yuk bo'linmasining polida ham saqlash uchun joy mavjud. Unga kirish uchun tutqichni ko'taring.

Markaziy konsoldagi buyum qutisi



Bo'linmaydigan o'rindiq

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, stakandonlar bilan saqlash uchun bo'linmaga kirishni ochish uchun oldingi markaziy tirsaklagichni pastga tushiring.
Ochish uchun, tugmani bosing va ko'taring. Ichkarisida yechiladigan organayzer bo'lishi mumkin.



Yakka o'rindiq

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, ochish uchun lo'kidonga bosing va ko'taring. Jamlanmaga bog'liq holda ichkarisida saqlash uchun yechiladigan taglik, yordamchi domkrat yoki USB port(lari) joylashgan bo'lishi mumkin.

Konsoldagi buyum qutisi



Agar avtomobilda oldingi markaziy konsolda saqlash uchun bo'linma ko'zda tutilgan bo'lsa, u radiobrelok ichida joylashgan mexanik kalit bilan ochiladi. Kalitlar ⇨ 1-2ni ko'ring.
Ochish uchun, lo'kidonga bosing va ko'taring.

BUYUMLARNI SAQLASH UCHUN QO'SHIMCHA IMKONIYATLAR

Yukni mahkamlanishi



Orqa yuk bo'linmasida yukni mahkamlash uchun ikki tortgich mavjuddir. Ularni avtomobilda yuklarning joydan joyga ko'chishini oldini olish uchun yukni bog'lash uchun qo'llash mumkin.

Yuk to'r-cho'ntak

Avtomobil yuk to'ri bilan butlangan bo'lishi mumkin, u avtomobilning orqa qismiga mahkamlanadi. Uni katta bo'lmagan yuklarni saqlash uchun mahkamlagichlarga mahkamlang.
Ushbu to'rni og'ir yuklarni saqlash uchun qo'llamang.

Favqulodda to'xtash belgisi

Favqulodda to'xtash belgisi avtomobilning orqa qismida saqlanadi.

TOMDA O'RNATILGAN YUKXONA

Avtomobil yukxonani o'rnatish uchun tomda reylinglar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. Yukni faqat o'rnatilgan ko'ndalang to'sinni reylinglariga yoki yukni tashish uchun mo'ljallangan boshqa konstruksiyalarga joylashtirish zarur. Bunday aksessuarlarni o'z dileringizdan xarid qilishingiz mumkin.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Safar qilishni boshlashdan avval, tomda yukning ishonchli mahkamlanishini tekshirish, uning og'irligi ko'ndalang to'sinlarga bir tekis taqsimlanganligiga, yukning o'zi esa chiroqlarni yoki oynalarni to'sib qo'ymayotganligiga ishonch hosil qilish zarur. Xuddi shunday tekshiruvni, shuningdek, vaqti-vaqti bilan yo'lda o'tkazish kerak. Yukni bevosita avtomobilning tomiga joylashtirish yoki u orqadan yoki yon tomonlardan qisman osilib turgan shunday tarzda o'rnatish taqiqlanadi. Yukni faqat reylinglarga o'rnatilgan ko'ndalang to'sinlarga yoki yuklarni tashish uchun mo'ljallangan boshqa konstruksiyalarga joylashtirish zarur. Ushbu talabni buzish odamlarning jarohatlanishi yoki ularning o'limi, avtomobilning yoki boshqa mol-mulkning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin.

Uzoq masofalarga, notekis yo'llarda yoki yuqori tezlikda safar qilishda vaqti-vaqti bilan to'xtang va yukning ishonchli mahkamlanishini tekshiring.

Tashiluvchi yukning og'irligini cheklovlari

Yukni avtomobil tomida tashish uchun maksimal ruxsat etilgan og'irlikni oshirib yubormang. Ushbu og'irlikka, shuningdek, ko'ndalang to'sinlarni reylinglariga o'rnatiluvchi va boshqa aksessuarlarni, masalan, velosipedlar ushlagichlari yoki yuk bokslarning og'irligi ham kiradi. Tomga o'rnatiluvchi yukxonada tashish mumkin bo'lgan yukning maksimal og'irligi 100 kg (220 funt) yoki , agar yukxonaning ko'ndalang to'sinlariga yoki yuklarni tashish uchun tomga o'rnatiluvchi boshqa asbob-uskunaga yo'riqnomalarda boshqa og'irlik ko'rsatilgan bo'lsa, undan kamrog'ini tashkil qiladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tomda o'rnatilgan yukxonaga yukxonaning ruxsat etilgan yuk ko'taraolishligidan yuqori og'irlikdagi yuklarni joylashtirish taqiqlanadi. Tom yukxonasida yuklarni tashishda, avtomobilning og'irlik markazi tepaga o'tadi. Juda og'ir yukni joylashtirish, tomda yukni tashishda yuqori tezlikda harakatlanish, joydan keskin qo'zg'alish, tormozlanish yoki manevr qilish boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

Avtomobilni to'liq og'irligini hisoblashda tomda tashiluvchi yukning og'irligini ham inobatga olish zarur. Avtomobilni yuklashda uning maksimal yuk ko'taraolishligini oshirmang. Bunda, avtomobil tomida tashiluvchi yukning og'irligini , salondagi odamlarni og'irligini va yuk bo'linmasidagi yukning og'irligini inobatga olish kerak. Avtomobilning yuk ko'taraolishligi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12ni ko'ring.

Orqa oyna ustida markaziy tepa stop-signal joylashgan. Avtomobil tomiga joylashtirilgan yuk markaziy tepa stop-signalni to'sib qo'ymasligini kuzating.

4 BOSHQARUV ASBOB-USKUNALARI VA ORGANLARI

- BOSHQARUV ORGANLARI 4-2
- SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV USKUNALARI VA INDIKATORLAR 4-11
- AXBOROT DISPLEYLARI 4-35
- AVTOMOBILNING AXBOROT XABARLARI 4-40
- MASOFADAN BOSHQARISH UNIVERSAL PULTI 4-41
- IZOH 4-44

BOSHQARUV ORGANLARI

Rul chambaragini holatini sozlash

Engashtirish va surib chiqish elektr yuritmali rul chambaragi

Agar sozlash imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, rul chambaragini sozlash uchun:
1. Rul chambaragini muvofiq tarzda tepaga yoki pastga engashtirish uchun, sozlagich pishangchasiga tepaga yoki pastga bosing.
2. Rul chambaragini o'zingizga yoki o'zingizdan surish uchun, sozlagich pishangchasini orqaga yoki oldinga o'tkazing.
Harakatlanish vaqtida rul chambaragini sozlamang.

Isitiluvchi rul chambaragi

: Rul chambaragi isitilishini yoqish yoki o'chirish uchun bosing, agar u bor bo'lsa. Tugma yonidagi indikator isitish yoqiqligida yorishib turadi.
Rul chambaragini isitilishini boshlash uchun taxminan uch minut talab etiladi.

Avtomatik isitiluvchi rul chambaragi

Agar avtomobil masofadan ishga tushirish funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa, rul chambaragini isitilishi tashqarida past haroratda masofadan ishga tushirish bilan bir vaqtda o'rindiqlar isitilishi bilan birgalikda yoqilishi mumkin. Masofadan ishga tushirishda rul chambaragini isitilishi indikatori yoqilishi mumkin.
Agar avtomobil o'rindiqlarni avtomatik isitilishi funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda rul chambaragining istilishi o'rindiqlarni avtomatik isitilishi faollashtirilishida yoqiladi. Rul chambaragini isitilishi indikatori isitish holatini aks ettiradi.
Isitiluvchi oldingi o'rindiqlar ⇨ 2-8.

Ovozli signal

Ovozli signalni uzatish uchun, rul chamabaragida ga bosing.

Old oyna oynatozalagichi/yuvgichi



O't oldirishni yoki yordamchi asbob-uskunalarni quvvatlash rejimini yoqing va oyna tozalagichlarning ishlashini zaruriy tezligini tanlash uchun oyna tozalagichlarni boshqarish pishangini siljiting.

1X : Oynani, cho'tkaning bir yurishida tozalash uchun, g'ildirakni pastga aylantiring. Oyna tozalagichning bir nechta harakatlanishi uchun pishangni pastki holatda tutib turing.

OFF (O'CHIRILGAN) : Tozalagichlarni o'chirish uchun.

AUTO Agar avtomobil Rainsense tizimining yomg'ir datchigi bilan jihozlangan bo'lsa, ushbu sozlamani oyna tozalagichlarning uzluksiz ishlashini faollashtirish uchun qo'llang, agar Rainsense funksiyasi o'chirilgan bo'lsa, yoki yomg'ir datchigi bo'yicha oyna tozalagichlarni ishlashini faollashtirish uchun, agar Rainsense funksiyasi yoqilgan bo'lsa.

Oyna tozalagichlarning uzluksiz ishlashini faollashtirish uchun oyna tozalagichlarni boshqarish pishangisini AUTO holatiga o'rnating, so'ngra oyna tozalagichlarning ishlash chastotasini oshirish yoki kamaytirish uchun pishangdagi halqani tepaga yoki pastga burang. Rainsense tizimining ishlash tavsifini quyida "Rainsense tizimining yomg'ir datchigi" bo'limida ko'ring.

LO (PAST) : Oyna tozalagichlarning harakatini past chastotasi.

HI (YUQORI) : Oyna tozalagichlarning harakatini yuqori chastotasi.

Oyna tozalagichlarni yoqishdan avval, cho'tkalarni va old oynani qordan va muzliklardan tozalang. Agar cho'tkalar old oynaga muzlab yopishib qolgan bo'lsa, ularni ehtiyotkorlik bilan bo'shating yoki isitib oling. Shikastlangan cho'tkalar almashtirilishi kerak. Oyna tozalagichning cho'tkalarini almashtirish
⇨ 9-20ni ko'ring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Ayozli ob-havoda old oyna isitilgunicha yuvgichni qo'llamang. Aks holda yuvgich suyuqligi old oynada muz qatlamini hosil qilishi va ko'rish maydonini buzishi mumkin.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Harakatlanishni boshlashdan avval kapot qopqog'ini. old oynani, yuvgichlarning jiklerlarini, avtomobil qopqog'ini va uning orqa qismini, jumladan faralarni, chiroqlarni va oynalarni, qordan va muzdan tozalab oling. Qor va muz qatlami sababli ko'rish maydonining chegaralanishi avariya sababi bo'lib qolishi mumkin.

Oyna tozalagichlarni bloklash

Rainsense funksiyasi o'chirilgan holatda, oynatozalagichlar LO, HI, yoki AUTO rejimiga o'rnatilganda o't oldirish o'chirilsa, oynatozalagichlar darhol harakatdan to'xtaydi. Agar so'ngra, haydovchining eshigi ochilgunicha yoki 10 minutdan kechiktirmasdan, old oyna tozalagichlari pishangisini OFF holatga o'tkazilsin, tozalagichning cho'tkalari qayta harakatlanishga keladi va old oynaning pastki chetiga o'tadi.

Agar oyna tozalagichlarning ishlashi old oyna yuvgichi yoki Rainsense tizimi yomg'ir datchigi tomonidan faollashtirilgan bo'lsa, u holda ular harakatlanishni davom ettiradi va old oynaning pastki chetiga erishib, to'xtaydi.

Rainsense tizimining yomg'ir datchigi

Agar avtomobil Rainsense tizimining yomg'ir datchigi bilan jihozlangan va ushbu funksiya yoqilgan bo'lsa, old oynaning markaziy tepa qismida joylashgan datchik old oyna yuzasidagi suvning miqdorini aniqlaydi va sezuvchanlikning joriy sozlanishiga muvofiq oyna tozalagichlarning ishlash chastotasini sozlaydi.

Tizimning maqbul ishlashini ta'minlash uchun, old oynaning ushbu qismining tozaligi ustidan kuzatib boring.



AUTO (AVTO): Oyna tozalagichlarni boshqarish pishangisini AUTO holatga o'tkazing. Datchikning sezuvchanlik darajasini o'zgartirish uchun oyna tozalagichlarni boshqarish pishangisidagi halqani burang.

- Namlikka sezuvchanlikni oshirish uchun chiziqni tepaga burang.
- Namlikka sezuvchanlikni pasaytirish uchun chiziqni pastga burang.
- Rainsense funksiyasini o'chirish uchun old oyna tozalagichlarining pishangisini AUTO holatidan chiqaring.

Rainsense tizimining yomg'ir ko'rsatkichini, “Rain Sense Wipers” menyusida yoqish yoki o'chirish mumkin (yomg'ir ko'rsatkich signali bo'yicha oynatozalagichlarning ishlashi) u quyidagicha ochiladi: Settings (Sozlamalar)> Vehicle (Avtomobil)> "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik") > Rain Sense Wipers.

Yig'mada oyna tozalagichi pishangisini himoyalash

Avtomatik yuvish joyiga haydab kirishda, oyna tozalagichlarni boshqarish pishangisini OFF holatga o'tkazing.

Ushbu holatda yomg'ir datchigi signali bo'yicha oyna tozalagichlarning avtomatik yoqilishi ishlamaydi.

Agar Rainsense tizimi mavjudligida neytral uzatma (N) yoqilgan va avtomobil tezligi juda past bo'lsa, tozalagichlar old oynaning eng pastida avtomatik to'xtaydi.

Tozalagichlar neytral uzatma boshqaga almashtirilgan yoki avtomobilning tezligi oshirilgan vaqtda qayta me'yorda ishlashni boshlaydi.

Old oyna yuvgichi

↑ : Burilish ko'rsatkichlarini o'zgartirish pishangisini tepasida old oyna yuvgichi tasvirli belgi bilan klavisha bor, unga bosish bilan yuvgich suyuqligi uzatiladi va oyna tozalagichlar yoqiladi. Oyna tozalagichlar toki haydovchi klavishani qo'yib yubormagunicha yoki yuvishning chegara vaqti o'tib borishi bilan ishlaydi. Klavisha qo'yib yuborilganidan keyin, old oyna tozalagichlari yana bir nechta ishlash sikllarini bajarishi mumkin, ularning soni old oyna yuvgichining yoqilish davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Old oyna yuvgichi suyuqligi bachogini to'ldirish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-15da ko'ring.

Orqa oyna tozalagichi/yuvgichi



Orqa oyna tozalagichining rejimlarini o'zgartirgichi burilish ko'rsatkichlarini o'zgartirish pishangisiga o'rnatilgan.
Orqa oyna tozalagichini yoqish uchun, o'zgartirgichni muvofiq holatga o'rnating.
OFF (O'CHIRILGAN) : Oyna tozalagich o'chadi.
INT : Orqa oyna tozalagichi yoqilishlar orqasida ma'lum tutilish bilan vaqti-vaqti bilan yoqiladi.
ON (YOQILGAN): Oyna tozalagich yoqiladi.
REAR (ORQADA) : Pishangi uchida ushbu tugmaga bosish bilan orqa oynaga yuvgichning suyuqligi uzatiladi. Tozalagichlar orqa oynani tozalaydi va to'xtaydi yoki avval o'rnatilgan chastota bilan ishlashni davom ettiradi. Yuvgichni bir nechta siklga yoqish uchun, ushbu tugmani bosing va ushlab turing.
Orqa ko'tarma eshikning yoki orqa ko'tarma oynaning to'liq yoki qisman ochilishida orqa oyna tozalagichi/yuvgichi ishlamaydi. Agar orqa ko'tarma eshik yoki orqa ko'tarma oyna orqa oyna tozalagichi ishlashi vaqtida ochiladigan bo'lsa, tozalagich dastlabki holatga qaytadi va to'xtaydi.

Orqa oyna tozalagich pishangisini himoyalash

Avtomatik yuvish joyiga haydab kirayotganda, orqa oyna tozalagichi rejimlar o'zgartirgichini tozalagich o'chirilishi uchun OFF holatga o'tkazing. Ba'zi avtomobillarda, agar neytral uzatma (N) yoqilgan va avtomobil tezligi juda kichik bo'lsa, orqa oyna tozalagichi orqa spoyler ostida avtomatik to'xtaydi.
Tozalagichlar neytral uzatma boshqaga almashtirilgan yoki avtomobilning tezligi oshirilgan vaqtda qayta me'yorda ishlashni boshlaydi.

Orqa uzatmada tozalagichlarning ishlashi

Agar orqani tozalagichni boshqarish o'chirilgan bo'lsa, agar orqa uzatma yoqilgan bo'lsa (pishang R holatda), u uzluksiz avtomatik ishlaydi, old oyna tozalagichi esa past yoki yuqori tezlikda ishlaydi. Agar orqa tozalagichni boshqarish o'chirilgan, uzatmalarni o'zgartirish pishangisi R (orqa uzatma) holatda, old oyna tozalagichi esa intervallar bilan ishlayotgan bo'lsa, u holda orqa oyna tozalagichi intervallar bilan avtomatik ishlaydi.
Ushbu xususiyatni yoqish va o'chirish mumkin. “Reverse Gear Wipes” menyusiga qarang (orqa uzatishda tozalagichlarning ishlashi) u quyidagicha ochiladi: Settings (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik") > Reverse Gear Wipes Old oyna yuvuvchi suyuqlik bachogi old oynani va orqa oynani yuvish uchun qo'llaniladi. Agar yuvgichlardan biron biri ishlamayotgan bo'lsa, bachokdagi suyuqlik sathini tekshiring. Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-15da ko'ring.

Kompas

Avtomobil kompasli displey bilan (haydovchining axborot markazida DIC) jihozlangan bo'lishi mumkin. Kompas harakatlanish yo'nalishi haqidagi ma'lumotlarni va global pozitsionirlash tizimi (GPS) antennasi orqali, dinamik stabillashtirish tizimidan (ESC) va tezlik datchiklaridan boshqa ma'lumotlarni qabul qiladi.
Kompas tizimi unga GPS yo'ldoshidan navbatdagi signal talab etilguniga qadar kilometrlarning ma'lum sonini yoki burilish graduslarini kuzatib borish uchun shunday tarzda tuzilgan. Agar kompas displeyida "CAL" belgisi paydo bo'layotgan bo'lsa, avtomobil darhol GPS signalini qabul qilishi mumkin bo'ladigan ochiq zonaga olib o'ting.
Kompas tizimi GPS signali tiklanganini va yo'nalishni qayta o'rnatilganligini avtomatik aniqlaydi.

Soat

Vaqt va sanani o'rnatish axborot-ko'ngilochar tizimda amalga oshiriladi. "Sana va vaqt" bandini "Sozlamalar (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-32 yoki Sozlamalar (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-34" bo'limida ko'ring.

Shtepsel ulagichlar

Yordamchi shtepsel ulagichlarni elektr asbob-uskunalarni, masalan, mobil telefonni yoki MP3-pleerni ulash uchun qo'llash mumkin.

Iqlim-nazorat tizimi ostida yordamchi asbob-uskunalar uchun 12 voltga ulagich, markaziy konsol ortida esa - 220/230 voltga o'zgaruvchan tok ulagichi joylashtirilgan.

Doimiy tok 12 voltga ulagich

⚠ *DIQQAT!*

12 volt ulagichga har qanday begona metall buyumlarni, masalan, USB kabellarining shtepsel raz'yomlarini, elektron qurilmalarni, kalitlarni yoki tangalarni o'rnatish taqiqlanadi. Ular haddan tashqari qizib ketishi, erishi yoki uchqunlanishi mumkin, bu ulagichning o'zini shikastlanishini qanday bo'lsa, buyumning o'zini ham shunday shikastlanish oqibatiga olib keladi.

Ulagichga faqat 12 volt mos keluvchi elektr qurilmalarni ulang.

⚠ *DIQQAT!*

Agar o'chirilgan avtomobilda uzoq vaqt davomida elektr asbob-uskunalarni yoqilgan holatda qoldirilsa, bu akkumulator batareyasining to'liq quvvatsizlanishiga olib keladi.

Har doim qo'llanilmayotgan elektr asbob-uskunalarni ulagichdan uzib qo'ying va 15 amperdan ortiq nominal iste'mol qilinuvchi tokli asbob-uskunalarni ulamang.

Qo'shimcha elektr asbob-uskunalarning alohida sanchqilari ulagichlar bilan mos kelmasligi yoki avtomobilning elektr tizimini va adapter saqlagichlarini ortiqcha yuklanishiga olib kelishi mumkin. Agar siz ushbu muammoga duch kelgan bo'lsangiz, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Elektr asbob-uskunalarni qo'shishda asbob-uskunalarga ilova qilinuvchi o'rnatish bo'yicha muvofiq yo'riqnomani albatta bajaring.

⚠ *DIQQAT!*

Shtepsel ulagichga mahkamlangan og'ir asbob-uskunalar shikastlanishlarga olib kelishi mumkin, unga avtomobil kafolati amal qilmaydi. Shtepsel ulagichlar faqat mobil qurilmalarning qurilmalarini kuchli simlari kabi yordamchi uskunalarning sanchqilarini ulash uchun mo'ljallangan.

220/230 V o'zgaruvchan tok kuchlanishdagi oziqlanish ulagichi

220/230 voltga ulagich markaziy konsolning orqasiga joylashtirilgan.



220 voltga rozetka o't oldirish bilan birga yoqiladi. Tok 220 voltga rozetkaga, qachonki unga u yoki boshqa elektr qurilma ulangan bo'lsa, uzatiladi. Tugmaga joylashtirilgan yashil nurli indikator 220 volt ulagich yoqilganligiga ko'rsatadi. Tok ulagichga, u yoqilgan, unga esa u yoki bu elektr uskuna ulangan vaqtda 220 volt uzatiladi. Ulagich 400 vattdan yuqori bo'lmagan quvvatga ega elektr asbob-uskunalar bilan mos keladi. Umumiy quvvati 400 vattdan yuqori bo'lgan qurilmalarning ulanmasligi ustida kuzatib borish lozim bo'ladi. Ulagichga joylashtirilgan indikator tizim yoqiqligida va uzilishlarsiz ishlayotganda yorishib turadi. Rozetka o't oldirish o'chirilganida, yoki, agar vilka rozetkaga yomon o'rnatilgan holatda quvvatsizlanadi. Dvigatel ishga tushirilish vaqtida ulagich ishlamaydi. USB interfeysli ma'lumotlarni oqimli uzatish qurilmalarani oziqlanishni uzatuvchi USB portlarining istalganiga ulash tavsiya etiladi.

USB-port ⇨ 6-11ni ko'ring.Agar harakatlanib ketayotganda uzluksiz oziqlanish kerak bo'lsa, avtostopni o'chiring.

Dvigatelni avtomatikto'xtatish/ishga tushirish ⇨ 8-19ni ko'ring.Agar 400 vattdan yuqori quvvatni iste'mol qiluvchi elektr uskuna ulangan bo'lsa, yoki tizim ishlashida uzilishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, himoyalash zanjiri ulagichni ta'minlaydi, indikator esa miltillab turadi. Qopqog'i yo'qotilgan yoki shikastlangan ulagichlardan foydalanmang.

Ulagich quyidagi asbob-uskunalarni ulash uchun mo'ljallanmagan, u uning ishlashida quyidagi buzilishlarga olib kelishi mumkin:

- Kompressor sovutgichlar va elektr intsrumentlar kabi yuqori boshlang'ich yuklamali elektr uskunalar
- Turg'un kuchlanish zarur bo'lgan, masalan, elektr isitishli va mikroprotsessor bazasidagi boshqaruvli, hamda sensor boshqaruvli lampali ko'rpalar kabi boshqa elektr uskunalar
- Tibbiyot asbob-uskunalari

Simsiz quvvatlash

Simsiz quvvatlash qurilmasi, agar u jamlanma tarkibiga kirsa, iqlim-nazorat tizimi ostidagi bo'lmachada jihozlanadi.

Tizim 145 kGs chastotada ishlaydi va Qi standarti bo'yicha bitta smartfonni quvvatlanishini ta'minlashi mumkin. Quvvatlash toki smartfonning modeliga bog'liq holda 3 A (15 Vt quvvat)gacha tashkil etishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Simsiz quvvatlash implantatsiya qilingan kardiostimulyatorlarning va boshqa tibbiyot qurilmalarining ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Agar sizda implantatsiya qilingan qurilmalar bor bo'lsa, simsiz quvvatlash qurilmasini qo'llashdan avval, shifokor bilan maslahatlashish kerak bo'ladi.

O't oldirish yoqilgan, yordamchi asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimiga yoki qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlanishini o'chirilishini kechiktirilishi rejimiga joylashtirilgan bo'lishi kerak. Simsiz quvvatlash indikatori, agar Bluetooth bo'yicha ulangan telefonning qo'llanilishi bilan qo'ng'iroqni amalga oshirish vaqtida yoki telefon displeyining axborot-ko'ngilochar tizimning displeyiga proeksiyalanishi vaqtida (Apple CarPlay/Android Auto) qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlanishini o'chirilishini kechiktirilishi rejimi yoqilgan bo'lsa, ishlamasligi mumkin. Zaxira quvvatlash moduli ⇨ 8-20ni ko'ring.

Quvvatlash qurilmasining ishchi harorati -40 °C (-40 °F)dan +85 °C (+185 °F)gacha diapazonda, telefonning ishchi harorati esa – 0 °C (+32 °F)dan +35 °C (+95 °F)gacha diapazonda bo'ladi. Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida, agar quvvatlash qurilmasining yoki smartfonning harorati ishchi diapazondan tashqarisida joylashgan bo'lsa, quvvatlash to'xtatilgani haqida xabar chiqarilgan bo'lishi mumkin. Harorat me'yordagi darajaga yetishi bilan quvvatlash yangilanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Simsiz quvvatlash uchun bo'lmachaga mos keluvchi smartfonni joylashtirishdan avval, undan barcha begona buyumlarni olib tashlang. Smartfon va quvvatlash qurilmasining maydonchasi orasida mavjud bo'lib qolgan buyumlar, masalan, tangalar, kalitlar, uzuklar, to'g'nog'ichlar yoki kartalar, kuchli qizib ketishi mumkin. Agar tizim smartfon yoki quvvatlash qurilmasi orasida begona buyumlarni biron bir sabab bo'yicha aniqlamagan bo'lsa, kuyib qolmaslik uchun buyum sovishini kuting, va uni quvvatlash maydonchasidan olib qo'ying.



Mos keluvchi smartfonni quvvatlash uchun:

1. Smartfon simsiz quvvatlashni qo'llab turishiga ishonch hosil qiling.
2. Quvvatlash uchun maydonchadan barcha begona buyumlarni olib tashlang. Agar maydonchada biron bir begona buyumlar mavjud bo'lsa, quvvatlash bajarilmaydi.
3. Smartfonni ekranni yuqoriga qaratib quvvatlash maydonchasiga joylashtiring.

Quvvatlashni maksimal tezligini ta'minlash uchun, smartfonni maydonchaga markaz bo'yicha joylashtirish va uning ostida begona buyumlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilish zarur. Qalin g'ilof quvvatlanish tezligini pasaytirishi yoki uni imkonsiz qilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish lozim bo'ladi.

4. Axborot-ko'ngilochar tizim displeyi yaqinida telefon belgisi yonida ϟ yashil indikator paydo bo'ladi. Bu tizim smartfonni aniqlaganiga ko'rsatadi.

5. Agar siz smartfonni quvvatlash maydonchasiga joylashtirganingizdan keyin ϟ indikatori yonmasa yoki sariq rangda yonsa, smartfonni quvvatlash maydonchasidan olib qo'ying va unda begona buyumlar yo'qligiga ishonch hosil qiling. Smartfonni 180 ° ga buring va uni quvvatlash uchun maydonchaga qayta joylashtirishdan avval bir necha sekund kuting.

6. Agar siz smartfonni quvvatlash maydonchasiga joylashtirganingizdan keyin ϟ indikatori qizil rangda yonsa, bu quvvatlash qurilmasining va (yoki) smartfonning haddan tashqari qizib ketganligiga ko'rsatadi. Smartfonni quvvatlash maydonchasidan yechib oling va tizim sovishiga imkon berish uchun uning ustida bo'lgan har qanday begona buyumlarni olib tashlang.

Smartfon quvvatlanish vaqtida qizishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi. Havoning yuqori haroratlarida quvvatlash tezligi pasayishi mumkin.

Agar avtomobil smatrfon displeyining axborot-ko'ngilochar tizim displeyiga simsiz proeksiyalanish funksiyasi bilan jihozlangan bo'lsa, simsiz quvvatlash vaqtida smartfon haddan tashqari qizib ketishi mumkin. Batareyani himoyalash uchun, smartfon ishlashi sekinlashishi, quvvatlash to'xtatilishi yoki smartfon o'chib qolishi mumkin. Haddan tashqari qizib ketishni oldini olish uchun telefonni g'ilofdan chiqarib olish zarur. Toki telefon simsiz quvvatlash avtomatik davom etishi mumkin bo'lgan xuddi o'sha haroratgacha sovigunicha, ϟ indikator miltillab turishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi. Holatlar telefon modeliga bog'liq bo'ladi.

Dasturiy ta'minot haqidagi ma'lumotlar

LG Electronics, Inc. ("LGE") kompaniyasining simsiz quvvatlashning ba'zi modullarida quyida sanab o'tilgan ochiq dastlabki kod bilan dasturiy ta'minot qo'llaniladi. Ushbu dasturiy ta'minotning ishlatilish shartlari muvofiq litsenzion kelishuvlarda tavsiflangan (ushbu xabarnomadan keyin keltiriladi).

Ochiq dastlabki kodli dasturiy ta'minotni ishlatish haqida ma'lumot

Ushbu mahsulotning dastlabki dasturiy kodini olish uchun, https://opensource.lge.com saytiga o'ting. Koddan tashqari, litsenziya shartlarini, kafolatdan voz kechish va mualliflik huquqlari haqida ma'lumotlarni ham yuklab olish mumkin. LG Electronics, shuningdek, dastlabki kodni CDda ham taqdim etishi mumkin. Tashuvchi, yetkazib berish va tayyogarlik narxini to'lash talab etiladi. So'rovlarni ga yuborilsin. Taklif xarid sanasidan 3 yil davomida amal qiladi.

Freescale-WCT kutubxonasi

Copyright (c) 2012-2014 Freescale Semiconductor, Inc. Barcha huquqlar himoyalangan.

O'zgartirish yoki o'zgartirishsiz dastlabki yoki ikkilamchi kodni tarqatishga quyidagi shartlarga rioya etishda ruxsat etiladi:

1. Dastlabki kodni tarqatishda mualliflik huquqlari to'g'risidagi yuqorida ko'rsatilgan xabarnomani, qo'llash shartlarini mazkur ro'yxatini va mas'uliyatdan quyidagi rad etishni saqlash zarur.

2. Hujjatlarda va (yoki) DT bilan birgalikda tarqatiluvchi boshqa materiallarda ikkilamchi kodda dasturiy ta'minotning tarqatilishida, yuqorida ko'rsatilgan xabarnomani, qo'llash shartlarini mazkur ro'yxatini va mas'uliyatdan quyidagi rad etishni saqlash zarur.

3.Mualliflik huquqi egasi va uning hammualliflarining ismlarini oldindan yozma ruxsatsiz ushbu dasturiy ta'minotni qo'llash bilan yaratilgan mahsulotlarni oldinga surish yoki reklama qilish uchun qo'llanilishi mumkin emas.
HUQUQIY EGALAR VA ULARNING HAMMUALLIFLARI MAZKUR DASTURIY TA'MINOTNI "BORICHA" TAQDIM ETADI VA MAZKUR BILAN HAR QANDAY YAQQOL AKS ETTIRILGAN YOKI TAXMIN QILINAYOTGAN KAFOLATLARNI, JUMLADAN TAXMIN ETILAYOTGAN KAFOLAT VA TIJORAT YAROQLILIGI VA MUAYYAN MAQSADLAR UCHUN YAROQLILIKDAN VOZ KECHADI. HECH QANDAY HOLATLARDA HUQUQIY EGALAR VA ULARNING HAMMUALLIFLARI BIRON BIR BEVOSITA, BILVOSITA, QASDDAN BO'LMAGAN, ALOHIDA, KO'RSATISH TARTIBIDA TAQDIM ETILUVCHI YOKI BIRGALIKDA KELUVCHI, MAZKUR DASTURIY TA'MINOTNI QO'LLASH NATIJASIDA BIRON BIR TARZDA KELTIRILGAN HARAJATLAR (JUMLADAN, TOVARNI YOKI O'RINDOSH XIZMATLARNI XARID QILISHGA HARAJATLAR, QO'LLASH IMKONIYATINING YO'QOTILISHI, MA'LUMOTLARNING YO'QOTILISHI, QO'LDAN CHIQARILGAN FOYDA YOKI FAOLIYATNING TO'XTATILISHI MUNOSABATI BILAN) (HATTOKI AGAR FOYDALANUVCHI BUNDAY HARAJATLAR EHTIMOLI HAQIDA OGOHLANTIRILGANLIGIGA QARAMASDAN), ULARNI YETKAZILISHINI USULLARIGA VA MAS'ULIYAT UCHUN (KONTRAKT, DELIKTLI HUQUQ YOKI OB'EKTIV MAS'ULIYAT DOIRASIDA, JUMLADAN EHTIYOTSIZLIK VA BOSHQALAR OQIBATIDA) ASOSLARGA BOG'LIQ BO'LMAGAN HOLDA MAS'ULIYATNI O'Z ZIMMALARIGA OLISHLARI MUMKIN.

Chektirgich

Chektirgich, agar u jamlanmaga kirsa, oldingi konsolning bo'lmachasida yoki iqlim-nazorat tizimini boshqarish pulti ostida joylashtirilgan.
Chektirgichni qo'llash uchun uni bosing va qo'yib yuboring. Muayyan haroratga yetishda chektirgich avtomatik chertki bilan dastlabki holatga qaytadi.

⚠ *DIQQAT!*

Qizdirish vaqtida chektirgich ichida ushlab turilishi issiq isitish elementidan chertib bo'shatilishini imkonsiz qiladi. Haddan tashqari qizib ketish holatida chektirgichning yoki qizdiruvchi elementning shikastlanishi yoki saqlagichning ishdan chiqish ehtimoli bor. Chektirgichni qizdirish vaqtida majburan bosilgan holda ushlab turmang.

Kuldonlar

Agar avtomobil kuldon bilan jihozlangan bo'lsa, u markaziy konsoldagi stakandonli bo'lmachada joylashgan.

⚠ *DIQQAT!*

Kuldonda qog'oz, sigaret qoldiqlari yoki boshqa yonuvchan materiallar, o'chirilmagan sigaret va boshqa chekish aralashmalarning mavjudligi holatida ularning alangalanish va avtomobilning shikastlanish ehtimoli bor. Hech qachon kuldonlarda alangalanuvchi buyumlarni qoldirmang.

Kuldonni yechib olish uchun, uni stakandonli bo'lmadan surib chiqaring. U qayd etilganligiga ishonch hosil qilish uchun, uni pastga bosing.

SIGNALIZATORLAR, O'LCHOV USKUNALARI VA INDIKATORLAR

Signalizatorlar va o'lchov uskunalari qimmatbaho ta'mirlash yoki almashtirishga olib kelish uchun nosozliklar yetarlicha jiddiy bo'lib qolgunga qadar ularga ko'rsatishi mumkin. Signalizatorlarga va o'lchov uskunalariga e'tiborli munosabat ehtimolli zararlarni oldini olishi mumkin. Ba'zi signalizatorlar ular ish qobiliyati indikatsiyasi sifatida dvigatelni ishga tushirishda qisqa vaqtga yorishadi. Signalizatorlarning biri yoqilganida va harakatlanish vaqtida o'chmayotgan holda, yoki o'lchov uskunalaridan biri ehtimolli nosozlikka ko'rsatayotgan bo'lsa, keyingi harakatlarni tushuntirishlariga ega bo'lgan bo'limlarni tekshirib ko'ring.

Ta'mirlashni kechiktirish qimmatli va hattoki xavfli bo'lib qolishi mumkin.

Uskunalar majmuasi (Bazaviy jamlanma)



1. Taxometr ⇨ 4-17
2. Motor moyi bosimining manometri ⇨ 4-19
3. Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorat indikatori ⇨4-19
4. Yonilg'i sathi ko'rsatkichi ⇨ 4-18
5. Voltmetr ⇨ 4-20
6. Spidometr ⇨4-17
7. Haydlovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35

Uskunalar qalqonchasi displeyi menyusi
Uskunalar qalqonchasi markazi bo'yicha interfaol displey joylashgan.



◁ va ▷ tugmalar bilan displey tepasida belgilangan uskunalar qalqonchasining ilovalarini almashtirish mumkin. Faol ilova yoritib turish bilan ajratiladi.
G'ildirakcha bilan ilovada erishimli parametrlar ro'yxatini aylantirish mumkin.
U yoki bu bandni tanlash uchun, g'ildirakchaga bosing.
Alohida ilovalar ba'zi modifikatsiyalarda erishimli bo'lmasligi mumkin. Alohida ilovalar, toki transport vositasi o'chirilgan (OFF) yoki yordamchi asbob-uskunalarni (ACCESSORY) elektr oziqlantirish rejimida joylashgan vaqtda, cheklovlar bilan vaqtinchalik ishlashi mumkin
- Bosh ilova
- Axborot ilovasi Bu yerda haydovchining axborot markazining (DIC) tanlangan darchalarini ko'zdan kechirish mumkin. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi(DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.
- Audiotizim
- Navigatsiya
- Telefon
- Parametrlar

Bosh ilova
Bu yerda aks ettiriluvchi ma'lumotlarni parametrlar menyusida o'zgartirish mumkin.
Spidometr : Avtomobilning harakatlanish tezligini kilometrlarda (km/soat) yoki mil soatlarda aks ettiradi.
Tezlik cheklovi belgisi : Ushbu darchada yo'l belgilari bilan o'rnatilgan tezlik cheklovlari haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi, ular haqidagi ma'lumotlar navigatsiyaning bort tizimining ma'lumotlar bazasida saqlanadi (barcha jamlanmalarda erishimli emas).
Vaqt : Joriy vaqtni aks ettiriladi.
Yonilg'i zaxirasi : Keyingi yonilg'i to'ldirishgacha safar qilishning taxminiy zaxirasi aks ettiriladi. Mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan taxminiy masofani oxirgi davrdagi yonilg'ini o'rtacha sarfi va yonilg'i bakida qolgan yonilg'i hajmi bo'yicha hisoblanadi. Bakda mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan masofani bekor qilish imkoniyati yo'q.

Audiotizim
"Audiotizim" ilovasi parametrlari bo'yicha navigatsiya, musiqiy yozuvlarning ro'yxatini ko'rish, tanlangan yozuvlarni tanlash yokiovoz manbaini o'zgartirish uchun g'ildirakchadan foydalaning. Bosh sahifada ularradiostansiyani o'zgartirish yokikeyingi yoki oldingiyozuvga o'tishga imkon beradi.

Telefon
Agar mazkur paytda siz telefon orqali suhbatlashmayotgan bo'lsangiz, "Telefon" ilovasida chaqiruvlar jurnalini, abonentlarning ro'yxatini, tanlanganlarning zaruriy bandini ko'rish yoki tanlangan telefonni almashtirish mumkin. Suhbatlashish vaqtida telefon mikrofonini o'chirib qo'yish va chaqiruvni telefonga o'tkazish mumkin.

Parametrlar
"Parametrlar" menyusida pozitsiyalarni aylantirish uchun g'ildirakchadan foydalaning.
O'lchov birliklari: O'lchov birliklarini tanlash menyusiga kirish uchun, displeyda "O'lchov birliklari" aks etib turganida, g'ildirakchaga bosing. Amerika yoki metrik birliklar tizimini, kerakli variant ajratib ko'rsatilgan vaqtda, g'ildirakchaga bosish bilan tanlash mumkin.

Tanlangan band yonida tanlov belgisi aks ettirib turiladi.

Axborot darchalarining parametrlari: Kerakli darchani ochish va axborot ilovasining darchasida chiqarish uchun pozitsiyalarni tanlash uchun, displeyda "Axborot darchalarining parametrlari" aks ettirib turilgan vaqtda, g'ildirakchaga bosing. Tanlangan band yonida tanlov belgisi aks etib turiladi.

Bosh ilova: Aks ettiriluvchi elementni tanlash uchun, g'ildirakchaga bosing. Ba'zi elementlar ba'zi modifikatsiyalarda erishimli bo'lmasligi mumkin. Spidometr, tezlikni cheklash belgisi, soat, yonilg'i zaxirasi va tashqaridagi havo harorati.

Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish: Haydovchi oshirishni istamagan tezlikni o'rnatishga imkon beradi. Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish uzatib turiladigan tezlikni o'rnatish uchun, Speed Warning (Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish) bandi aks ettirib turilgan vaqtda, g'ildirakchaga bosing. Tezlikni bosh darchada g'ildirakchani bosish, so'ngra esa aylantirish bilan uni kerakli qiymatgacha sozlash, bundan so'ng tanlovni g'ildirakchaga bosish bilan ham o'rnatish mumkin.

Agar tezlik chegarasi o'rnatilgan bo'lsa, ushbu funksiyani, ushbu darchani displeyga chiqarib, g'ildirakchaga bosish bilan o'chirish mumkin. Agar tezlikning o'rnatilgan qiymati oshirib yuborilayotgan bo'lsa, displeyda sizib chiquvchi ogohlantirish paydo bo'ladi va tovushli signal uzatiladi.

DT to'g'risida ma'lumot: Ochiq dastlabki kodli dasturiy ta'minot haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqarish uchun, Software Information (DT haqida ma'lumot) menyusi ajratib ko'rsatilgan vaqtda g'ildirakchaga bosing.

Uskunalar majmuasi (Kengaytirilgan jamlanma)



Displeyning klassik konfiguratsiyasi, qolgan variantlar shunga o'xshash

1.. Spidometr ⇨ 4-17
2. Haydlovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35
3. Taxometr ⇨4-17
4. Motor moyi bosimining manometri ⇨ 4-19
5. Voltmetr ⇨ 4-20 Transmission moyning harorat ko'rsatkichi (faqat kengaytirilgan jamlanma uchun) ⇨ 4-20
6. Yonilg'i sathi ko'rsatkichi ⇨ 4-18
7. Sovituvchi suyuqlikning harorat indikatori ⇨ 4-19

O'zgartiriluvchi konfiguratsiyaning uskunalar qalqonchasi

Uskunalar qalqonchasining tuzilishini o'zgartirish mumkin. Displeyning to'rtta konfiguratsiyalaridan istalganini tanlash mumkin: Classic (klassik), Progressive (progressiv), Digital (raqamli) yoki Clean (toza). Bundan tashqari, klassik, progressiv va raqamli konfiguratsiyani bir, ikki yoki to'rtta uskunalar bilan tuzilmalashtirish mumkin. "Parametrlar" bo'limining "Pastki uskunalar" paragrafini ko'ring. Toza konfiguratsiyada faqat yonilg'i sathi ko'rsatkichi taqdim etilgan. Displey sohalari bo'yicha va uning turlicha taqdim etilishlari bo'yicha navigatsiyasi uchun rul ustuniga joylashtirilgan boshqaruv pultidan foydalaning. "Parametrlar" bo'limining "Displeyni tuzilmalashtirish" paragrafini ko'ring.

- Klassik konfiguratsiyada displeyning chap va o'ng hoshiyalarida yiriklashtirilgan spidometr va taxometr taqdim etilgan. Spidometr va taxometr ichida ma'lumotlarni chiqarish uchun sohalar ko'zda tutilgan.Displey o'rtasida haydovchining axborot markazi (DIC) sohasi joylashgan.
- Progressiv konfiguratsiyada displeyning chap va o'ng hoshiyalarida kichraytirilgan spidometr va taxometr taqdim etilgan. Spidometr va taxometr ichida ma'lumotlarni chiqarish uchun sohalar ko'zda tutilgan. Displey o'rtasida haydovchining axborot markazining (DIC) yiriklashtirilgan sohasi joylashgan.

- Raqamli konfiguratsiyada displeyning chap va o'ng hoshiyalarida ma'lumotlarni chiqarish sohalari joylashgan. Displey o'rtasida haydovchining axborot markazining (DIC) yiriklashtirilgan sohasi joylashgan.
- Soddalashtirilgan, toza konfiguratsiyada displey o'rtasida raqamli spidometr joylashgan. Haydovchining axborot markazi (DIC) sohasi displeyning o'ng hoshiyasida joylashgan.

Uskunalar qalqonchasi displeyi menyusi

Uskunalar qalqonchasida displey ma'lumotlarni interfaol chiqarish sohasi bor, uning joylashishi displeyning tuzilmalashtirilishiga bog'liq.



Displey menyusining turli elementlari bo'ylab o'tish uchun rul chambaragini o'ng shohidagi klavishalar blokidan foydalaning. Uskunalar qalqonchasidagi ilovalarga kirish uchun ◁ yoki ▷ ni bosing. Erishimli ilovalar ro'yxatini aylantirish uchun g'ildirakchadan foydalaning. U yoki bu bandni tanlash uchun, g'ildirakchaga bosing.

Alohida ilovalar yoki funksiyalar ba'zi avtomobillarda erishimli emas.

- Axborot ilovasi Bu yerda haydovchining axborot markazining (DIC) tanlangan darchalarini ko'zdan kechirish mumkin. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.
- Audiotizim
- Telefon
- Parametrlar

Chap/o'ng tomondagi ma'lumotlar

Bu yerda aks ettiriluvchi ma'lumotlarni parametrlar menyusida o'zgartirish mumkin. Quyida "Parametrlar" bo'limini ko'ring.

Kompas: Agar jamlanmada bor bo'lsa, transport vositasining harakatlanish yo'nalishiga ko'rsatadi. Ushbu ma'lumot dastlabki bo'yicha chap tomonda chiqariladi.

Vaqt va tashqaridagi harorat: Joriy vaqtni va tashqaridagi havo haroratini aks ettiradi.

Shinalardagi bosim: Ushbu darchada barcha to'rtala g'ildiraklardagi taxminiy havo bosimini aks ettiradi. Shinalardagi bosim displeyda yo kilopaskallarda (kPa), yoki kv. dyuymga funtlarda (psi) taqdim etiladi. Agar biron bir g'ildirakning shinasidagi bosim ruxsat etilgandan pastroq bo'lsa, u sariq rangda aks ettirib turiladi.

O'rtacha yoqilg'i sarflanishi: 100 kilometr uchun litrda taxminiy o'rtacha yoqilg'i sarfini ko'rsatadi (l/100 km), litr uchun kilometrda (km/l) yoki gallon uchun milyada (milya/gallon). Ushbu ko'rsatkich, so'ngi yangilash paytidan keyingi ma'lumotlar asosida hisoblanadi. ("Yoqilg'i tejash" bo'limiga qarang). Taxminiy ko'rsatkich, ayni paytdagi o'rtacha yoqilg'i sarfini ko'rsatadi va yo'l shartlarining o'zgarishi bilan, u o'zgaradi

UO'Q moyining harorati: Selsiy (°C) shkalasi yoki Farengeyt (°F) shkalasi bo'yicha graduslarda avtomatik uzatmalar qutisi uchun suyuqlikning haroratini ko'rsatadi.
Yurish rejimi: Faol yurish rejimi, yurish balandligi va tarqatish qutisining holati aks ettiriladi. Ushbu ma'lumot faqat o'ng tomonda chiqariladi, bunda u dastlabki bo'yicha aks ettiriladi.
Ma'lumotlar yo'q: Ma'lumotlarni chiqarish sohalari to'ldirilmaydi.

Audiotizim

Musiqiy yozuvlar bo'yicha navigatsiya, tanlanganlarni tanlash, ovoz manbaini almashtirish. Radiostansiyalarni o'zgartirish yoki keyingi yoki oldingi yozuvga o'tish uchun g'ildirakchani qo'llang.

Telefon

Agar ushbu paytda siz telefon bo'yicha so'zlashmayotgan bo'lsangiz, u holda qo'ng'iroqlar jurnalini yoki kontaktlar ro'yxatini ko'rish mumkin. Telefon orqali so'zlashayotgan vaqtda uning mikrofonini o'chirish yoki so'zlashuvni go'shakka o'tkazish mumkin.

Parametrlar

"Parametrlar" menyusida pozitsiyalarni aylantirish uchun g'ildirakchadan foydalaning.
Displeyning tuzilmalashtirilishi: Displeyning klassik (Classic), progressiv (Progressive), raqamli (Digital) yoki toza (Clean) tuzilmalashtirilishini kerakli variant ajratib ko'rsatilganda g'ildirakchaga bosish bilan tanlash mumkin.
Layout (tuzilmalashtirish) menyusini yopish uchun, ◁ ni bosing.
Chap/o'ng tomondagi ma'lumotlar: displeyning u yoki boshqa sohasida aks ettiriluvchi ma'lumotlarni tanlash uchun g'ildirakchaga bosing.
"Chap/o'ng tomondagi ma'lumotlar" paragrafini ushbu bo'imda ko'ring.
Pastki uskunalar: To'rtta uskunalar majmuasidan birini kerakli variant tanlanganda g'ildirakchaga bosish bilan tanlash mumkin. Tanlangan konfiguratsiya displey pastida aks ettiriladi.
Aks ettiriluvchi ko'rsatkichlarni maksimal to'plami: yonilg'i sathi, sovituvchi suyuqlikning harorati, motor moyining bosimi, akkumulator batareyasining kuchlanishi. Shataklash/transportda tashish rejimida (Tow/Haul) akkumulator batareyasining kuchlanishi o'rniga UO'Q moyi harorati ko'rsatkichi chiqariladi. Aks ettiriluvchi ko'rsatkichlarning o'rtacha to'plami: yonilg'i sathi va sovituvchi suyuqlik harorati. Aks ettiriluvchi ko'rsatkichlarning minimal to'plami yonilg'i sathi bilan cheklanadi.
Axborot darchalarining parametrlari: Axborot ilovasida aks ettiriluvchi pozitsiyalarni tanlash uchun g'ildirakchaga bosing. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.
Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish: Haydovchi oshirishni istamagan tezlikni o'rnatishga imkon beradi. Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish uzatib turiladigan tezlikni o'rnatish uchun, Speed Warning (Tezlik oshirilishi haqida ogohlantirish) bandi aks ettirib turilgan vaqtda, g'ildirakchaga bosing. G'ildirakcha yordamida qiymatlarni sozlang va tezlikni o'rnatish uchun g'ildirakchaga bosing.
Agar tezlik chegarasi o'rnatilgan bo'lsa, ushbu funksiyani, ushbu darchani displeyga chiqarib, g'ildirakchaga bosish bilan o'chirish mumkin. Agar tezlikning o'rnatilgan qiymati oshirib yuborilayotgan bo'lsa, displeyda sizib chiquvchi ogohlantirish paydo bo'ladi va tovushli signal uzatiladi.

Tezlikni cheklash belgisi: Ushbu darchada yo'l belgilari haqida ma'lumotlar chiqariladi, u navigatsiyani bort tizimining ma'lumotlar bazasida saqlanadi, agar u mavjud bo'lsa.

Proeksiya displeyi (HUD): Ushbu funksiya (muvofiq jamlanmada) HUD aks ettirilish burchagini sozlashga, hamda tezlikni cheklash yo'l belgilarini aks ettirilishini o'zgartirish yoki o'chirish imkonini beradi.

Proeksiya displeyini burilishi: Sozlash rejimiga kirish uchun, Adjust Rotation (Burilish burchagini sozlash) opsiyasi ajratib ko'rsatilganida, g'ildirakchaga bosing. HUD aks ettirilish burchagini sozlash uchun, g'ildirakchani aylantiring. Sozlamalarni tasdiqlash va saqlash uchun g'ildirakchaga bosing. Ushbu funksiya faqat P (To'xtab turish) rejimida erishimlidir.

Tezlikni cheklash belgichasi: Speed Limit Style (tezlikni cheklash belgichasi) bandi ajratib ko'rsatilgan vaqtda, displeyda tezlikni cheklash belgichalarini belgilanishi o'zgartirish yoki o'chirish uchun g'ildirakchaga bosing.

DT haqida ma'lumotlar: Ochiq kodli DT haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Dastlabki bo'yicha sozlamalarni tiklash Haydovchi dastlabki bo'yicha o'rnatilgan sozlamalarni tiklashi mumkin.

Spidometr

Avtomobil tezligi soatiga kilometrda (km/soat) yoki soatiga milda (mil/soat) aks ettiriladi.

Odometr

Odometrda avtomobilning to'liq safar qilishi kilometrda va milda aks ettiriladi.

Joriy yo'l bosish hisoblagichi

Joriy yo'l bosish hisoblagichi hisoblagich ko'rsatkichlarini oxirgi bekor qilish paytidan avtomobil tomonidan bosib o'tilgan masofa ko'rsatiladi.

Joriy yo'l bosish hisoblagichini ko'rsatkichlarini ko'rish va bekor qilish haydovchining axborot markazi displeyi yordamida amalga oshiriladi. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.

Taxometr

Taxometrda dvigatelning bir minutda aylanishlar soni (ayl/min) aks ettiriladi.

Agar avtomobil dvigatelni avtomatik to'xtatish va ishga tushirish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, o't oldirish yoqiqligida taxometr halqasida tizim holati aks ettiriladi. Strelka AUTO STOP (dvigatel avtomatik to'xtatilgan)ga ko'rsatayotgan vaqtda, dvigatel o'chirilgan bo'ladi, biroq barcha qolgan tizimlar ishlashda davom etadi, avtomobil harakatlanishni davom ettirishga tayyor.

Dvigatel istalgan paytda ishga tushirilishi mumkin. Strelka OFF (o'chirilgan)ga ko'rsatayotganda dvigatel to'liq o'chirilgan bo'ladi.

Agar dvigatel ishlayotgan bo'lsa, taxometr strelkasi bir minutda tirsakli val aylanishlarini soni (ay/min) ko'rsatiladi. Auto Stop (Avtomatik to'xtatish) rejimida taxometrning ko'rsatkichlari dvigatelni to'xtatish yoki qayta ishga tushirishda bir necha yuz aylanishlar chegarasida o'zgarishi mumkin.

Yonilg'i sathi ko'rsatkichi



Bazaviy jamlanma



Kengaytirilgan jamlanma

O't oldirish yoqilgan vaqtda, yonilg'i sathi ko'rsatkichi bakda yonilg'ining taxminiy qoldig'ini ko'rsatadi. Yonilg'i sathi darajasi ko'rsatkichi bilan yonma-yon joylashgan strelka yonilg'i bakining lyuchogi avtomobilning qaysi tarafida joylashganligiga ko'rsatadi.

Indikator bak deyarli bo'shligini ko'rsatayotganda, yonilg'i zaxirasi indikatori yonadi. U bakda hali ozgina yonilg'i qolganligini bildiradi, biroq avtomobilni yaqin vaqtda yonilg'i bilan to'ldirish kerak.

Yonilg'i sathi ko'rsatkichining xususiyatlari:

- Yonilg'ining haqiqiy sathi ko'rsatkichning ko'rsatmalaridan ozgina ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin. Misol uchun, ko'rsatkich bak yarmigacha to'ldirilganligini ko'rsatishi mumkin. shu vaqtning o'zida, vaholanki, unda yarmidan ozgina ko'proq yoki ozgina kamroq yonilg'i bo'lishi mumkin.
- Ko'rsatkich strelkasi burilishni o'tishda, tezlashishda va tormozlanishda ozgina siljiydi.
- Ko'rsatkichning strelkasini stabillashtirish uchun o't oldirish yoqilganidan keyin bir necha minut talab etiladi. O't oldirish o'chirilishidan keyin strelka bo'sh yonilg'i bakiga ko'rsatadi.

Bularning barchasi me'yoriy holat hisoblanadi, sanab o'tilgan xususiyatlardan birontasi ham yonilg'i sathi ko'rsatkichining nosozligiga ko'rsatmaydi.

Yonilg'i zaxirasi

Yonilg'ining hisoblangan zaxirasi kengaytirilgan jamlanmada uskunalar qalqonchasining pastida o'rtasida aks ettiriladi.

Yonilg'i zaxirasi avtomobil qo'shimcha yonilg'i to'ldirishgacha o'tishi mumkin bo'lgan taxminiy masofani kabi aks ettiradi. Mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan taxminiy masofani oxirgi davrdagi yonilg'ini o'rtacha sarfi va yonilg'i bakida qolgan yonilg'i hajmi bo'yicha hisoblanadi.

Yonilg'ining hisoblangan zaxirasi pastligida LOW belgilanishi yorishadi, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida esa muvofiq xabarnoma paydo bo'lishi mumkin.

Motor moyi bosimining manometri



Bazaviy jamlanma



Kengaytirilgan jamlanma

Dvigatel ishlayotgan vaqtda motor moyi manometri motor moyining bosimini kPa (kilopaskallar)da yoki kv.dyuymga funtlarda ko'rsatadi.

Moy bosimi uning qayishqoqligiga, dvigatel aylanishlariga, sovituvchi suyuqlikning haroratiga va tashqaridagi havo haroratiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Ba'zi modellarda moy nasosi zarurat bo'yicha moylash tizimida bosimni sozlaydi. Bosim dvigatel aylanishlari yoki yuklamaga bog'liq holda tez o'zgarishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi. Agar moy bosimi signalizatori yoki haydovchining axborot markazi displeyidagi xabar moy bosimi me'yordagi ishchi diapazondan tashqarisida joylashganligiga ko'rsatayotgan bo'lsa, iloji boricha tezroq moyni tekshirish zarur.

Motor moyi ⇨ 9-5ni ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Motor moyiga yomon xizmat ko'rsatilishi avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Motor moyining bosimi past bo'lgan avtomobil ekspluatatsiyasi, shuningdek, dvigatelning buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu bilan bog'liq ta'mirlash ishlari kafolatli holat deb hisoblanmaydi. Moy sathini iloji boricha tez-tez tekshiring. Zarurat tug'ilganida moydan qo'shimcha quying, biroq, agar moy yetarlicha, bosim esa avvalgidek past bo'lsa, TXKSga murojaat qilish kerak. Motor moyini almashtirishda har doim o'rnatilgan davriylikka rioya qilish zarur.

Kengaytirilgan to'plam

Bu erda, to'rtta pastki moslamalarning ko'rsatkichlari aks ettirilishi sozlanganligi ko'rsatilgan. Moslamalarning konfiguratsiyasini o'zgartirish tartibini, moslamalarning Kombinatsiyasi (Kengaytirilgan to'plam) ⇨ 4-14 yoki moslamalarning Kombinatsiyasi (Asosiy to'plam) ⇨ 4-11 qismining "Parametrlar" bandiga qarang

Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorati indikatori

Bazaviy jamlanma



Kengaytirilgan jamlanma

Ushbu datchik avtomobil dvigatelining sovituvchi suyuqligini haroratini o'lchaydi.

Odatiy ekspluatatsiya sharoitlarida harakatlanishda qizil sohaga strelkaning siljib o'tishi dvigatelning qizib ketganligiga ko'rsatadi. Yo'l chetiga o'ting, avtomobilni to'xtating va iloji boricha tezroq dvigatelni o'chiring.

Transmission moyning harorat ko'rsatkichi (Faqat kengaytirilgan jamlanmada)



Ushbu ko'rsatkichlar, avtomobil shataklash/transportda tashish (Tow/Haul) yurish rejimida bo'lganida, va qalqoncha to'rtta pastki uskunalarni aks ettirishga sozlangan bo'lsa, chiqariladi. UO'Q moyi haroratining ko'rsatkichlarini, shuningdek, axborot sohasining chap yoki o'ng tomonlarida chiqarilishini sozlash mumkin. Uskunalar konfiguratsiyasini o'zgartirish tartibini "Parametrlar" paragrafida Uskunalar majmuasi (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-14 yoki Uskunalar majmuasi (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-11 bo'limlarida ko'ring.

Bu yerda UO'Q moyining harorat ko'rsatkichlari chiqariladi.Agar ko'rsatkich strelkasi shkalaning qizil bo'linmasiga joylashgan bo'lsa va (yoki) haydovchining axborot markazining (DIC) ekranida ogohlantirish yorishib turgan bo'lsa, to'xtash va nosozlik sababini aniqlashtirish zarur bo'ladi. Ehtimolli sabablardan biri bo'lib uzatmalar qutisida moyning past sathi hisoblanadi.

⚠ *DIQQAT!*
Transmission suyuqlik haddan tashqari qizib ketishida avtomobilda harakatlanishga yo'l qo'yilmaydi, aks holda uzatmalar qutisining shikastlanish ehtimoli bor. Bu kafolat bilan qoplanmaydigan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

Voltmetr



Bazaviy jamlanma



Kengaytirilgan jamlanma

O't oldirish yoqilgan vaqtda, ushbu ko'rsatkichda AKB kuchlanishi aks ettiriladi. Agar avtomobil holati me'yordagi ishchi rejimining chegarasidan tashqariga chiqayotgan bo'lsa, quvvatlash tizimi indikatori yonadi. Ko'rsatkichning qiymatlari katta qiymatdan kichikka qarab yoki kichik qiymatdan

kattaga qarab o'zgarishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi. Bu me'yordagi holat, chunki quvvatlash tizimi dvigatelni bo'sh yurishida to'liq quvvatni berishga qodir emas. Quvvatlash tizimi lampasi ⇨ 4-24ni ko'ring. Bundan tashqari, voltmetr yonilg'ini tejash rejimida pastlatilgan ko'rsatkichlarni berishi mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi.
Ko'rsatkichlar, agar avtomobilda bir vaqtda ko'pgina qo'shimcha elektr asbob-uskunalar qo'llanilganida, dvigatel esa uzoq vaqt davomida bo'sh yurishda ishlayotganida, shuningdek, me'yordagi ishchi rejimning tashqarisiga chiqib ketishi mumkin. Bu me'yordagi holat, chunki quvvatlash tizimi dvigatelni bo'sh yurishida to'liq quvvatni berishga qodir emas.
Dvigatelning aylanishlarini oshirishda muammo g'oyib bo'lishi kerak, chunki dvigatelning katta aylanishlarida quvvatlash tizimi maksimal quvvatni rivojlantirishi mumkin.
Me'yordagi ishchi rejim chegaralaridan tashqaridagi ko'rsatkichlarda avtomobilning harakatlanishi faqat qisqa vaqtda imkonlidir.
Harakatlanishni davom ettirish zarurati tug'ilganida yordamchi asbob-uskunalarni, masalan, avtomagnitolani yoki konditsionerni, to'liq o'chiring.

Agar ko'rsatkichlar me'yordagi rejimning chegaralaridan chiqib ketayotgan bo'lsa, bu elektr asbob-uskunalar tizimida nosozlik mavjudligini anglatishi mumkin. Iloji boricha tezroq texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish kerak.

Kengaytirilgan to'plam

Bu erda, to'rtta pastki moslamalarning ko'rsatkichlari aks ettirilishi sozlanganligi ko'rsatilgan. Avtomobil tortish xolatida bo'lsa, ushbu moslamada, UO'Q haroratining ko'rsatkichlari aks etadi. Moslamalarning konfiguratsiyasini o'zgartirish tartibini, moslamalarning Kombinatsiyasi (Kengaytirilgan to'plam) ⇨ 4-14 yoki moslamalarning Kombinatsiyasi (Asosiy to'plam) ⇨ 4-11 qismining "Parametrlar" bandiga qarang

Taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatorlari

Haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori

Uskunalar qalqonchasida haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori joylashgan.

O't oldirish yoqilishida ushbu datchik miltillashni boshlaydi va xavfsizlik kamarini taqib olish zarurligi haqida haydovchiga eslatib, zummerning ogohlantiruvchi signali jaranglaydi.
Ushbu lampa toki kamar taqilmagunicha yorishib turadi. Ushbu sikl, agar haydovchi xavfsizlik kamarini taqmagan holda qolganida yoki uni avtomobil harakatlanishi vaqtida yechib yuborsa, bir necha marta takrorlanishi mumkin.
Agar haydovchining xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa, indikator yonmaydi va ovozli signal uzatilmaydi.

Oldingi yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori

Yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori yonida oldingi yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori joylashgan bo'lishi mumkin. Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limini ko'ring.

O't oldirish yoqilishida ushbu datchik miltillashni boshlaydi va xavfsizlik kamarini taqib olish zarurligi haqida yo'lovchiga eslatib, zummerning ogohlantiruvchi signali jaranglaydi.
Ushbu lampa toki kamar taqilmagunicha yorishib turadi. Ushbu sikl, agar oldingi yo'lovchi xavfsizlik kamarini taqmagan holda qolganida yoki uni avtomobil harakatlanishi vaqtida yechib yuborsa, bir necha marta takrorlanadi.
Agar oldingi yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilgan bo'lsa, indikator yonmaydi va ovozli signal uzatilmaydi. Agar o'rindiqqa biron bir buyum, masalan, portfel, ayollar yoki xo'jalik sumkasi, noutbuk yoki biron bir boshqa elektron qurilma joylashtirilgan bo'lsa, old yo'lovchining xavfsizlik kamari taqilmaganligi indikatori yonishi va zummerning ogohlantiruvchi signali jaranglashi mumkin. Signalizatorni va (yoki) tovushli signalni o'chirish uchun o'rindiqdan buyumni olish yoki kamarni taqib qo'yish zarur bo'ladi.

Ikkinchi va uchinchi qator yo'lovchilar o'rindiqlarining taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatori

Avtomobil ikkinchi va uchinchi qator yo'lovchilar o'rindiqlarining taqilmagan xavfsizlik kamarlari indikatori bilan jihozlanishi mumkin.

Bazaviy to'plamda uskunalar majmuasi

O't oldirish yoqilishida ushbu indikatorlar orqa yo'lovchilar xavfsizlik kamarlarini taqib olishi zarurati haqida eslatib, doimiy chiroq bilan yonib turadi. Avtomobil harakatni boshlaganidan keyin, agar orqa yo'lovchilarning xavfsizlik kamarlari taqilmagan yoki yechiladigan bo'lsa, muvofiq indikatorlar doimo yonib turishi yoki miltillab turishda davom etishi mumkin, bunda shu bilan birga zummerning signali jaranglaydi. Qorong'ulashtirilgan yoki yashil indikator xavfsizlik kamari taqilganligiga ko'rsatadi.
Agar barcha orqa yo'lovchilarning xavfsizlik kamarlari taqilgan bo'lsa, indikatorlar yonmaydi va tovushli signal uzatilmaydi.

Kengaytirilgan to'plamda uskunalar majmuasi

O't oldirish yoqilishida ushbu indikatorlar, orqadagi yo'lovchilarga xavfsizlik kamarini taqib olish zarurati haqida eslatib, uzluksiz yonib turadi. Avtomobilning harakatni boshlaganidan keyin, agar orqa yo'lovchilarning xavfsizlik kamarlari taqilmagan holda qolayotgan yoki yechib yuborilayotgan bo'lsa, muvofiq indikatorlar doimiy yonib turishda davom etishi yoki miltillashi mumkin, bunda, shuningdek, zummer signali jaranglab turadi. X belgisi bilan taqilmagan xavfsizlik kamari belgilanadi. Taqilgan xavfsizlik kamari zog'cha bilan belgilanadi.
Agar orqadagi barcha xavfsizlik kamarlari taqilgan bo'lsa, nurli indikatorlar yoqilmaydi, tovushli signallar esa uzatilmaydi.
Oldinda taqilmagan xavfsizlik kamarlarining nurli indikatorlari haqidagi ma'lumotlarni yuqoridagi "Haydovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori" va "Oldingi yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori" paragraflarida ko'ring.
Agar orqa o'rindiqda biron bir buyum, masalan, portfel, ayollar yoki xo'jalik sumkasi, noutbuk yoki biron bir boshqa elektron qurilma joylashtirilgan bo'lsa, orqa yo'lovchining taqilmagan xavfsizlik kamari indikatori yonishi va zummer signal jaranglashi mumkin. Signalizatorni va (yoki) tovushli signalni o'chirish uchun o'rindiqdan buyumni olish yoki kamarni taqib qo'yish zarur bo'ladi.

Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarini tayyorligi signal lampasi

Ushbu indikator shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimini boshqarish zanjirining elektr nosozligi mavjudligiga ko'rsatadi. U uskunalar majmuasida joylashgan. O'z-o'zini tekshirish davomida xavfsizlik yostiqlari va yo'lovchi mavjudligi datchiklari, kamarlarning taranglashtirgichlari, xavfsizlik yostiqlari modullari, simlarning bovliqlari va xavfsizlik yostiqlarini boshqarish bloklari tekshiriladi.

Xavfsizlik yostiqlari tizimi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi ⇨ 2-26 bo'limida ko'ring.

Xavfsizlik yostig'ining tayyorligi lampasi dvigatel ishga tushirilishida bir necha sekundga yorishadi. Agar bundan so'ng lampa doimo yonib turishni boshlamasa, darhol nosozlikni bartaraf qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik yostiqlari tayyorligi lampasi dvigatel ishga tushirilganidan keyin yonib turishda davom etsa yoki harakatlanish vaqtida yorishsa, bu xavfsizlik yostig'i tizimini noto'g'ri ishlashini anglatishi mumkin. Xavfsizlik yostiqlari to'qnashuv vaqtida ishlamasligi yoki to'qnashuvsiz ishlab ketishi mumkin.

Jarohatlar olishdan saqlanish maqsadida darhol avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish uchun murojaat qiling.

Xavfsizlik yostiqlari tizimining nosozligi yuzaga kelish holatida, shuningdek, haydovchining axborot markazi displeyida xabar paydo bo'lishi mumkin.

Yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori

Avtomobil yo'lovchi mavjudligini aniqlash tizimi bilan jihozlangan. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhim ma'lumotlarni Yo'lovchini aniqlash tizimi ⇨ 2-31 bo'limida ko'ring.

Tepadagi konsolda yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori joylashtirilgan.

Tizimni tekshirish davomida avtomobilni ishga tushirishda yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatori yoqilgan va o'chirilgan yostiqning belgisini bir necha sekund almashlab yoqadi.

So'ngra, yana bir necha sekund, holat indikatori yoqilgan yoki o'chirilgan xavfsizlik yostig'ini belgisini yoqadi, u oldingi yo'lovchi joyidagi oldingi xavfsizlik yostig'i holati haqida xabar beradi.

Agar ON (yoqilgan) indikatori yonib turgan bo'lsa, oldingi yo'lovchining tashqi frontal xavfsizlik yostig'i avariya vaqtida ishlashi kerak.

Agar yo'lovchining xavfsizlik yostig'i holati indikatorida o'chirilgan yostiqning belgisi yonib turgan bo'lsa, bu yo'lovchini aniqlash tizimi oldingi yo'lovchining tashqi frontal xavfsizlik yostig'ini o'chirib qo'yganligini anglatadi.

Agar bir necha sekund o'tib ikkala holat indikatorlari yorishib tursa yoki o'chsa, xavfsizlik yostig'i tayyorligi indikatori yorishib turgan

bo'lsa, bu indikatorlarning yoki yo'lovchilarni aniqlash tizimining nosozligini anglatishi mumkin. Darhol texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar xavfsizlik yostiqlari tayyorligi lampasi yonayotgan va o'chmayotgan bo'lsa, bu xavfsizlik yostiqlari tizimida nosozlik mavjudligini anglatadi. Jarohatlar olishdan saqlanish maqsadida darhol avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish uchun murojaat qiling. Shuningdek xavfsizlikka taalluqli qo'shimcha ma'lumotlarni,
Shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining tayyorlik signal lampasi ⇨4-23ni ko'ring.

Quvvatlash tizimi lampasi



Quvvatlash tizimi lampasi o't oldirish yoqilishida va ishlamayotgan dvigatelda, lampaning ish layoqatligini ko'rsatuvchi tekshirish sifatida qisqa vaqtga yonadi. U dvigatel ishga tushirilishida o'chishi kerak.

Agar lampa yonishda davom etsa yoki harakatlanish vaqtida yonayotgan bo'lsa, bu elektr quvvatlash tizimida nosozlik mavjudligini anglatishi mumkin. Uni dilerda tekshiring. Yonib turgan lampada haydash akkumulatorning quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu indikatorning doimiy yonib turishi yoki miltillashi haydovchining axborot markazi displeyida xabarning paydo bo'lishi bilan kuzatib boriladi.
Agar yonib turgan lampada katta bo'lmagan masofani bosib o'tish kerak bo'lsa, auditizim va konditsioner kabi barcha yordamchi uskunalarni albatta o'chirib qo'ying. To'xtash uchun xavfsiz joyni toping.

Nosozlik signalizatori ("Check Engine" (dvigatelni tekshiring) nazorat lampasi)

Ushbu signalizator chiqindi gazlarni neytrallashtirish tizimi bort diagnostikasining qismi hisoblanadi. Agar u ishlab turgan dvigatelda yonib turgan bo'lsa, bu nosozlik mavjudligiga va ta'mirlash zaruratiga ko'rsatadi. O't oldirish kaliti Service Mode (servis rejimi) holatiga o'rnatilgan bo'lsa, signalizator yonishi kerak. Shunday tarzda uning lampasining sozligi tekshiriladi. O't oldirish qulfida kalitning holati ⇨ 8-16 bandini ko'ring.



Tizim ko'pincha biron bir tashqi alomatlar paydo bo'lgunga qadar nosozlikning yuzaga kelishi haqida ogohalntiradi. Signalizator yoqilishi ustidan kuzatib boring va jiddiy buzilishlardan saqlanish uchun servis markaziga o'z vaqtida murojaat qiling.

⚠ *DIQQAT!*

Agar yonib turgan signalizator bilan avtomobilning ekspluatatsiya qilinishi davom ettirilsa, chiqindi gazlarni neytrallashtirish tizimi o'z vazifalari bilan samarali uddasidan chiqolmasligi, yonilg'ining sarflanishini ortishi, hamda yurish dinamikasi va ravonligi yomonlashishi mumkin. Bu avtomobil kafolati ta'sir qilmaydigan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Signalizator dvigatel, uzatmalar qutisi, kiritish va chiqarish tizimi, yonilg'i tizimi tuzilishi konstruksiyasiga o'zgartirishlar kiritilishi, hamda tavsiya etilmagan turo'lchamdagi shinalarni qo'llash sababli yonishi mumkin. Bu avtomobil kafolati ta'sir qilmaydigan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin. Bu, shuningdek, davlat texnik ko'rikdan/chiqindi gazlarning toksikligini tekshirishdan o'tilishini qiyinlashtirishi mumkin. Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari ⇨ 9-2ni ko'ring.

Agar signalizator miltillab tursa: Nosozlik aniqlangan, u chiqindi gazlarni neytrallashtirish tizimining ishdan chiqishiga va ularda zararli moddalarning miqdorini oshishiga olib kelishi mumkin. Diagnostika va xizmat ko'rsatishni o'tkazish talab etilishi mumkin.

Shikastlanishlar xavfini pasaytirish uchun, tezlikni pasaytiring va keskin tezlanishlardan va tepaliklarga harakatlanishdan saqlanishga urining. Agar avtomobil tirkamani shataklayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyat paydo bo'lganida uni yukdan bo'shating.

Agar signalizator miltillashda davom etsa, avariya holatini yuzaga keltirmasdan to'xtash mumkin bo'lgan joyni toping.

O't oldirishni o'chiring va dvigatelni qayta ishga tushirishdan avval kamida 10 sekund kuting. Agar signalizator avvalgidek miltillab turgan bo'lsa, yuqorida keltirilgan tavsiyalarga rioya qilish va iloji boricha tezroq avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Agar signalizator doimo yonib turgan bo'lsa: Nosozlik aniqlangan. Diagnostika va xizmat ko'rsatish o'tkazilishi talab etilishi mumkin.

Quyidagi tekshirishlarni bajaring:

- Agar avtomobil qopqoqsiz yonilg'i quyish bo'yinchasi uchun o'tkazgichdan foydalanib voronka orqali yonilg'i bilan to'ldirilgan bo'lsa, o'tkazgich uzib qo'yilishi uchun kuzating. "Kanistradan yonilg'i bilan to'ldirish"ni Bakga yonilg'ini quyish ⇨ 8-68 bo'limida ko'ring. Diagnostika tizimi o'tkazgich uzilmagan va yonilg'i atmosferaga paralanishi mumkin deb aniqlashi mumkin. O'tkazgich yechilgandan so'ng bir nechta safar qilishdan keyin lampa o'chishi kerak.
- Yonilg'ining past sifati dvigatel ishlashida buzilishlarga va avtomobil dinamikasining yomonlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Dvigatel qizdirilganidan keyin ushbu nosozlik alomatlari g'oyib bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda boshqa markadagi yonilg'iga o'tish zarur. Signalizator o'chishidan avval, bakdagi yonilg'ini kamida bir marta yaxshi sifatdagi yonilg'iga to'liq almashtirish talab etiladi. Yonilg'ini tavsiya etilgan turlari ⇨ 8-65ni ko'ring.

Agar signalizator yonishda davom etayotgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling.

Chiqindi gazlarning toksikligini nazorat dasturi va texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazish dasturi

Texnik ko'rik o'tkazilishida diagnostik kolodka qo'llanilishi mumkin, unga toksiklikni nazorat qilish uchun apparatura ulanadi.



Ma'mulotlarni uzatish kanalining ulagichi rul chambarigadn chap tomonda uskunalar paneli ostida joylashgan. Texnik ko'rik vaqtida toksiklikni nazorat qilish uchun yoki avtomobilga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallanmagan asbob-uskunalarning ushbu kolodkaga ulanishi avtomobilning iishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Qo'shimcha elektr asbob-uskunalar ⇨ 8-89ni ko'ring. Yordam uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Avtomobil ko'rikdan o'tolmasligi mumkin, agar:
- Ishlayotgan dvigatelda signalizator doimo yonib turibdi.
- Signalizator o't oldirish kaliti Service Mode (servis rejimi) holatga o'tkazilishida yonmaydi.
- Chiqindi gazlarning toksiklik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy tizimlar to'liq diagnostikadan o'tkazilmagan. Ushbu holatda avtomobil ko'rikdan o'tishga tayyor bo'lmaydi. Uni ko'rikka tayyorlash uchun, undan bir necha kun davomida oddiy rejimda ekspluatatsiya qilish talab etilishi mumkin. Bunday holat, masalan, agar 12-voltli AKB yaqinda almashtirilgan yoki to'liq quvvatsizlashganda, hamda agar avtomobilga yaqin kunlarda xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, yuzaga kelishi mumkin.

Agar avtomobil texnik ko'rikdan o'tishga tayyor bo'lmasa yoki undan o'tish imkoniga ega bo'lmasa, o'z dilernigizga murojaat qiling.

Tormoz tizimining nazorat lampasi

Ushbu indikator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonishi kerak. Agar indikator yonmayotgan bo'lsa, tizimning ehtimolli nosozligi haqidagi ogohlantirishni o'z vaqtida olish uchun, uni ta'mirlash kerak.

Agar o't oldirish yoqilishida signalizator yonayotgan va o'chmayotgan bo'lsa, bu ishchi tormoz tizimida nosozlik mavjudligi haqida dalolat beradi. Kechiktirmasdan tormoz tizimini ko'rikdan o'tkazish uchun murojaat qiling.

Agar signalizator harakatlanish vaqtida yonayotgan bo'lsa, yo'l chetiga haydab o'tish va ravon to'xtash zarur bo'ladi.

Tormoz tizimi elektr kuchaytirgich bilan jihozlangan. Agar tormoz tizimining avariya holati signalizatori yonib turgan bo'lsa, avtomobilning harakatlanish tezligi majburiy tarzda cheklangan bo'lishi mumkin. Tormoz tepkisiga yoki uning yurishiga kuchni oshirish mumkin. Tormoz yo'li ortishi mumkin. Agar signalizator haligacha yonib turgan bo'lsa, avtomobilni texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga olib boring. Avtomobilni shatakka olish ⇨ 9-71ni ko'ring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Tormoz tizimi, agar tormoz tizimi signalizatori yonib turgan bo'lsa, noto'g'ri ishlashi mumkin. Tormoz tizimining yonib turgan signalizatori bilan avtomobilni haydash avariyaga olib kelishi mumkin. Agar signalizator hattoki yo'ldan tashqariga chiqishda va ehtiyotkorona to'xtashdan keyin yonib turgan bo'lsa, avtomobilni texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun olib borish zarur bo'ladi.

Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi signalizatori

To'xtab turish tormozi tortib qo'yilgan vaqtda ushbu indikator yonadi. Agar lampa to'xtab turish tormozi o'chirilgandan keyin miltillashda davom etayotgan bo'lsa, yoki avtomobilning harakatlanishi vaqtida, bu elektr mexanik to'xtab turish tormozi nosozligi haqida dalolat beradi. Bunda, haydovchining axborot markazi displeyida, shuningdek, xabar chiqarilishi mumkin.

Agar signalizator yonmayotgan yoki miltillashda davom etayotgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling.

Elektr yuritmali xizmat to'xtab turish tormozi indikatori

Ushbu indikator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonishi mumkin. Agar indikator yonmayotgan bo'lsa, tizimning ehtimolli nosozligi haqida ogohlantirishni o'z vaqtida olish uchun. uni ta'mirlash zarur.
Agar ushbu lampa harakatlanish vaqtida yonishda davom etsa yoki yonayotgan bo'lsa, bu elektr mexanik to'xtab turish tormozining nosozligi haqida dalolat beradi. Iloji boricha tezroq texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. To'xtab turish tormozidan tashqari, elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'llovchi boshqa xavfsizlik funksiyalari ishini yomonlashtirishi mumkin. Bunda haydovchining axborot markazi displeyida xabar chiqariladi. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi ⇨ 8-31ni ko'ring.

Antibloklash tormoz tizimi (ABS) signalizatori

Ushbu signalizator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonishi kerak. Agar signalizator yonmayotgan bo'lsa, u nosozliklar haqida signallarni uzatishga tayyor bo'lishi uchun, uni ta'mirlang.
Agar ABS nosozlik signalizatori harakatlanish vaqtida o'chmayotgan yoki qayta yonayotgan bo'lsa, avtomobil xizmat ko'rsatishga muhtoj bo'ladi. Doimo yonib turgan signalizatorda, shuningdek, tovushli signal uzatilishi mumkin.
Agar faqat ABS nosozlik indikatori yonib turgan bo'lsa, avtomobil oddiy tormoz tizimi bilan jihozlangan, bunda ABS faoliyat yuritadi.
Agar ABS nosozlik indikatori ham, Tormoz tizimi nosozligi signalizatori ham yonib turgan bo'lsa, ABS tizimi ishlayotgani yo'q, bunda ishchi tormoz tizimining nosozligi mavjud. Xizmat ko'rsatishni o'tkazish uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Tormoz tizimining nazorat lampasi ⇨ 4-26ni ko'ring.

To'liq yuritmaning nurli indikatori

Avtomatik rejim ko'rsatilgan, boshqa rejimlar shunga o'xshash

Agar to'rtta g'ildirakka yuritmaning nurli indikatori jamlanmada bor bo'lsa, u holda u avtomobilning faol rejimini anglatadi. Rejimlarning belgilanishi: 2WD, 4↑, AUTO; 4↓ va N.
Rejimlarni o'zgartirish vaqtida indikator miltillab turadi. O'zgartirish yakunlanishi bo'yicha indikator ravon yorishib turadi.
Indikator rangining sariq rangga almashtirilishi to'rtta g'ildirakda yuritmaning nosozligiga ko'rsatishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. To'liq yuritma ⇨ 8-27ni ko'ring.

Nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikatori

Agar nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikatori jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, tizim ishlashga tayyor bo'lgan vaqtda uning indikatori doimo yonib turadi. Agar signalizator miltillayotgan bo'lsa, tizim faol.
Nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikatori (HDC) ⇨ 8-36ni ko'ring.

Yo'l belgilanishlariga nisbatan avtomobil holati nazorati tizimining (LKA) nurli indikatori

Muvofiq to'plamda faol qo'shimcha rul boshqaruvi bilan egallab turgan yo'nalishdan chiqish haqida ogohlantirish indikatori (LKA) har xil ranglarga ega bo'lishi mumkin:
- Yonayotgani yo'q: LKA tizimi o'chirilgan.
- Oq: Avtomobil ishga tushirilishida yonadi. Doimiy oq rang LKA tizimi ishlashga tayyor emasligini ko'rsatadi.
- Yashil. LKA tizimi yoqilgan va ishlashga tayyor bo'lgan vaqtda yonadi. LKA , agar avtomobil aniqlangan bo'lish chizig'iga yaqinlashsa, rul chambaragini oxista buradi.
- Sariq: LKA tizimi faol bo'lganda yonadi. Indikator bo'lish chizig'ini bexosdan bosib o'tilishiga ko'rsatib, harakatlanish chizig'i chegarasidan chiqish haqida ogohlantirish (LDW) sifatida sariq rangda miltillashni boshlaydi. Agar tizim rulni qasddan boshqarilayotganini (quvib o'tish yoki harakatlanish chizig'ini almashtirish uchun) aniqlasa, harakatlanish chizig'i chegarasidan chiqib ketish haqida ogohlantirish (LDW) aks ettirilmasligi mumkin.

Tizim, agar avtomobil surilib ketayotgan xuddi o'sha yo'nalishda burilish ko'rsatkichlari yoqilgan bo'lsa, yoki agar tizim tezlashishni, tormozlanishni yoki faol manevrlashni aniqlasa, qo'shimcha rul boshqaruvini amalga oshirmaydi yoki chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirmaydi.
Yo'l chiziqlariga nisbatan avtomobilni holatini nazorat qilish tizimi (LKA) ⇨ 8-63ni ko'ring.

Avtomatik favqulodda tormozlanishni o'chirish indikatori (AEB)

Ushbu indikator avtomatik favqulodda tormozlanish yoki piyoda oldida tormozlanish tizimi o'chirilgan yoki nosoz bo'lgan vaqtda yoritiladi.
Aynan shu ko'rsatkich, AEB yoki FPB tizimining nosozligi yoki ob-havo sharoitlari tufayli ishlamay qolishi va shuningdek, oldi oynaning ifloslanishi haqida signal beradi.
Avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB) ⇨ 8-57ni ko'ring.
Piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) ⇨ 8-58ni ko'ring.

Oldinda ketayotgan avtomobil haqida signalizator

Agar avtomobil ushbu tizim bilan jihozlangan bo'lsa, uning indikatori oldinda boshqa transport vositasini aniqlashda yashil rangda yonadi va xavf-xatar yaqinlashishi holatida rangini o'zgartiradi.
Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-55ni ko'ring.

Oldinda ketayotgan yo'lovchi haqidagi signalizator

Agar avtomobil ushbu tizim bilan jihozlangan bo'lsa, yo'nalish bo'yicha piyodaning aniqlanishida sariq signalizator yonadi.
Piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) ⇨ 8-58ni ko'ring.

Tortish kuchi nazorati tizimi signalizatori

Ushbu indikator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonadi. Agar u yonmayotgan bo'lsa, avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun dilerga yetkazing.
Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u holda signalizator o'chadi.
Tortish kuchini nazorat tizimini o'chirish indikatori tizim o'chiqligi holatida yonadi. Agar StabiliTrak tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) o'chirilgan bo'lsa, tortish kuchini nazorat tizimi (TCS), shuningdek, o'chirilgan bo'ladi. Tortish kuchini nazorat tizimi va dinamik stabillashtirish tizimini o'chirish va yoqish haqida batafsil
“Tortish kuchini nazorat tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34" bo'limda ko'ring.
Agar tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) o'chirilgan bo'lsa, g'ildiraklarning shataklanishi faqat u transmissiyaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatdagina cheklanadi.Haydashning muvofiq stilini tanlash zarur.

O'chirilgan StabiliTrak tizimi indikatori

Ushbu indikator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonadi. Agar ushbu lampa yonmayotgan bo'lsa, avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun o'z dileringizga yetkazing. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, u holda signalizator o'chadi.
Ushbu indikator StabiliTrak tizimi/elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC)ni o'chirishda yonadi. Agar StabiliTrak tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) o'chirilgan bo'lsa, tortish kuchini nazorat tizimi (TCS), shuningdek, o'chiriladi.
Dinamik stabillashtirish tizimini o'chirilishi va yoqilishi haqida batafsil "Tortish kuchini nazorat tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi" ⇨ 8-34" bo'limda ko'ring.

Agar elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) va tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) o'chirilgan bo'lsa, ular avtomobil boshqaruviga aralashmaydi. Haydashning muvofiq stilini tanlash zarur bo'ladi.

Tortish kuchi nazorati tizimi/elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi signalizatori

Ushbu indikator o't oldirish yoqilishida qisqa vaqtga yonadi.
Agar ushbu lampa yonmayotgan bo'lsa, avtomobilni texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yetkazing. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, signalizator o'chadi.
Agar indikator miltillamasdan, balki doimo yonib turgan bo'lsa, bu tortish kuchini nazorat tizimi (TCS) va, ehtimol, StabiliTrak tizimi/elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) to'laqonli ishlamayotganligiga va haydovchiga avtomobilni boshqarishda yordam bermayotganligiga ko'rsatadi.
Haydashning muvofiq stilini tanlash zarur. Agar ushbu holat saqlanib qolayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyat paydo bo'lganida texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida xabar aks ettirilishi mumkin.
Indikatorning miltillab turishi tortish kuchini nazorat tizimining (TCS) va (yoki) StabiliTrak tizimi/elektron dinamik stabillashtirish tizimining (ESC) faol aralashuviga ko'rsatadi.
"Tortish kuchini nazorat tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring.
Bundan tashqari indikator ABS tizimi ishlashi vaqtida miltillab turishi mumkin.
Antibloklovchi tormoz tizimi (ABS) ⇨ 8-31ni ko'ring.

Tirkamani stabillashtirish funksiyasi indikatori (kengaytirilgan jamlanmada uskunalar qalqonchasi)

Ushbu indikator, tirkamani stabillashtirish funksiyasi amalga kiritilgan vaqtda, miltillab turadi. Tirkamani tebrantirishdan himoyalash tizimi (TSC) ⇨ 8-86ni ko'ring.

Elektron dinamik barqarorlashtirish tizimini o'chirish signalizatori (ESC)

Ushbu indikator indikatorning ishga tayyorligini ko'rsatish uchun avtomobil yoqilishida qisqa vaqtga yonadi. Agar signalizator yonmayotgan bo'lsa, uni tizimning ehtimolli nosozligi haqida ogohlantirishni o'z vaqtida olish uchun ta'mirlash kerak.
Ushbu indikator StabiliTrak tizimi/elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi (ESC) o'chirilishida yonadi. Agar StabiliTrak tizimi/elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi (ESC) o'chirilgan bo'lsa, tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) ham o'chadi. Dinamik barqarorlashtirish tizimi o'chirilganligi va yoqilganligi haqida batafsil "Tortish kuchini nazorat qilish tizimi/Elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi ⇨ 8-34" bo'limda qarang.
Agar dinamik barqarorlashtirish tizimi (ESC) va tortish kuchini nazorat qilish tizimi (TCS) o'chirilgan bo'lsa, ular avtomobilni boshqaruviga aralashmaydi. Haydashning muvofiq stilini tanlash zarur bo'ladi.

Dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorati signalizatori

Ushbu signalizatorning lampasi avtomobil ishga tushirilishida qisqa muddatga yonadi.
Agar u yonmayotgan bo'lsa, avtomobilga xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun uni dilerga yetkazing. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, signalizator o'chadi.

⚠ *DIQQAT!*
Dvigatelning sovituvchi suyuqligi harorati signalizatori avtomobilning haddan tashqari qizib ketganligiga ko'rsatadi. Signalizator yoqiqligida avtomobilni boshqarishni davom ettirish dvigatelning shikastlanishiga olib kelishi mumkin, u avtomobilga kafolat bilan qoplanmaydi. Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi ⇨ 9-13ni ko'ring.

Dvigatelni sovituvchi suyuqligi harorati signalizatori dvigatel haddan tashqari qizib ketishida yonadi.
Agar bu sodir bo'layotgan bo'lsa, darhol avtomobilni to'xtating va dvigatelni o'chiring.Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi ⇨ 9-13ni ko'ring.

Harakatlanish rejimlari indikatori

Ushbu indikator odatiy yurish rejimi (Normal) tanlanganda yoqiladi.

Ushbu indikator Sport (Sport) rejimi tanlanishida yonadi.

Ushbu indikator qor qoplagan rejim (Snow) tanlanishida yoqiladi.

Ushbu indikator yo'lsizlikda yurish rejimi (Terrain) tanlanishida yoqiladi.

Ushbu indikator yo'lsizlikda yurish rejimi (Off-Road) tanlanishida yoqiladi.

Ushbu indikator shataklash-transportda tashish yurish rejimi (Tow/Haul) tanlanishida yoqiladi.

To'rt nuqtali pnevmatik osma indikatori

Ushbu indikator pnevmatik osmani maksimal yo'l oralig'iga ko'tarilishida yoqiladi.

Ushbu indikator pnevmatik osmani yuqori yo'l oralig'iga ko'tarilishida yoqiladi. Yorug'li ko'rsatkichning harakati, dasturlashtirilgan avtomobil balandligi sozlamalari soniga bog'liq.

Ushbu indikator o'tirishni va chiqishni yengillashtirish uchun pnevmatik osma pastga tushgan vaqtda yoqiladi. Yorug'li ko'rsatkichning harakati, dasturlashtirilgan avtomobil balandligi sozlamalari soniga bog'liq.

Ushbu ko'rsatkich, avtomobilning yurish paytida balandligi oshganda yonadi.

Ushbu ko'rsatkich, avtomobilning yurish paytida balandligi tushganda yonadi.

Ushbu ko'rsatkich, pnevmatik ko'targichni xizmat ko'rsatish yoki tekislash xolatiga o'tkazishda yonadi.
To'rt nuqtali pnevmatik osmaga ⇨ 8-41 qarang.

Shinalardagi bosim signalizatori

Shinalarda havo bosimini nazorat qilish tizimi (TPMS) bilan jihozlangan avtomobillarda, ushbu indikator dvigatelni ishga tushirishda qisqa vaqtga yonadi. U shinalardagi bosim va TPMS haqida ma'lumotni taqdim etadi.

Agar signalizator doimo yonib turgan bo'lsa

Bu bir yoki bir nechta shinalarda bosim me'yordan juda pastligini anglatadi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida, shuningdek, shinalardagi bosim haqidagi xabar paydo bo'lishi mumkin. Iloji boricha tezroq to'xtang va shinada va yuklama haqidagi ma'lumotli yorliqda ko'rsatilgan qiymatgacha shinalardagi bosimni yetkazing. Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-37ni ko'ring.

Agar signalizator avval miltillab turgan, keyin esa doimo yonib turgan bo'lsa

Agar signalizator taxminan bir minut miltillayotgan, keyin esa doimo yonib turgan bo'lsa, ehtimol, TPMSda muammo yuzaga kelgan.
Agar uni bartaraf qilish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, signalizator o't oldirishning har bir siklida yoqiladi. Shinalarda havo bosimini nazorat tizimining faoliyat yubiritishi ⇨ 9-40ni ko'ring.

Motor moyi bosimi signalizatori

⚠ *DIQQAT!*

Motor moyining past bosimda avtomobilning harakatlanishi, dvigatelga zarar etkazishi mumkin, shu bilan birga, ta'mirlash, avtomobilning kafolati bilan qoplanmaydi.
Agar harakat paytida motor moyining bosim ko'rsatkichi yonayotgan bo'lsa:
1. Xavfsiz joyda to'xtang va dvigatelni o'chiring.
2. Moy darajasini tekshiring. Motor moyi ⇨ 9-5 ni qarang.
3. Agar moy darajasi m'eyor ish darajasidan past bo'lsa, moy quying.
4. Dvigatelni qaytadan ishga tushiring. Agar motor moyining bosim ko'rsatkichi 10 soniyadan ortiq yonishda davom etsa, avtomobilni o'chiring. Dvigatelni qaytadan ishga tushirmang. Xizmat ko'rsatish uchun, texnik xizmat ko'rsatish stantsiyasiga murojaat qiling.

Ushbu indikator dvigatel ishga tushirilganida qisqa vaqtga yonadi. Agar u yonmayotgan bo'lsa, u holda avtomobilni xizmat ko'rsatish o'tkazilishi uchun dilerga yetkazing.

Agar signalizator yonayotgan va yonishda davom etayotgan bo'lsa, bu moy tegishli tarzda dvigatel orqali oqib o'tmayotganligini anglatadi. Avtomobilda yetarlicha miqdorda moy bo'lmasligi va tizimda boshqa muammolar mavjud bo'lishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

Yonilg'ini past sathi signalizatori

Yonilg'ining past sathi indikatori yonilg'i sathini ko'rsatkichi bilan yonma-yon joylashgan.
U o't oldirish yoqilganida qisqa vaqtga yonadi va so'ngra o'chadi.
Shunday tarzda uning sozligi tekshiriladi. Displey sohasidagi ushbu indikator konfiguratsiyasi o'zgartiriluvchi uskunalar qalqonchasiga ega bo'lgan avtomobillarda o't oldirish yoqilishida yonmasligi mumkin.
U, shuningdek, yonilg'i sathi ko'rsatkichi bo'sh bakga yaqinlashayotgan vaqtda yonadi. Yonilg'i bilan to'ldirishdan keyin signalizator o'chadi. Agar o'chmagan bo'lsa, u holda texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish zarur.
Agar haydovchining axborot markazida HEAVY FUEL USE (YONILG'INI JADAL QO'LLASH) xabari aks ettirilayotgan bo'lsa, birinchi imkoniyat tug'ilganida yonilg'ini to'ldirib oling.

Qo'riqlash signalizatsiyasi indikatori

Olib qochishga qarshi signalizatsiyaning nazorat lampasi dvigatel ishga tushirilishida qisqa vaqtga yonadi. Agar tizim me'yorda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, signalizator o'chadi.
Agar signalizator yonishda davom etsa va dvigatel ishga tushirilmayotgan bo'lsa, u holda olib qochishdan himoyalash tizimi nosoz bo'lishi mumkin.
Immobilayzer ishlashi ⇨ 1-23ni ko'ring.

Uzoqni yoritish chirog'ini yoqilganligi signalizatori

Ushbu signalizator uzoqni yoritish faralari yoqilishida yonadi.
Yaqin/uzoq chiroqlarni o'zgartirgichi ⇨ 5-3ni ko'ring.

IntelliBeam tizimi indikatori

Agar avtomobil IntelliBeam bosh chiroqlar tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, uning yoqilishida ushbu indikator yonadi. Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari ⇨ 5-2ni ko'ring.

Orqa tumanga qarshi chiroqlar signalizatori

Indikator orqa tumanga qarshi chiroqlar yoqiqligida yonadi.
Tumanga qarshi faralar o'chirilishida signalizator o'chadi.Orqa tumanga qarshi chiroqlar ⇨ 5-6ni ko'ring.

Yoritish uskunalari yoqiqligi haqida eslatma

Ushbu indikator tashqi yoritish uskunalari yoqiqligida yonadi, faqat kunduzgi yurish chiroqlari qo'llanilgan vaqtda qo'llash holatlari bundan mustasno Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari ⇨ 5-2ni ko'ring.

Kruiz-nazorat signalizatori

Kruiz-nazorat bilan jihozlangan avtomobillarda kuriz-nazorat sozlangan va ishlashga tayyor bo'lganida oq rangda yonadi, va kruiz-nazorat sozlangan va faol bo'lganida yashil rangda yonadi. Signalizator kruiz-nazorat tizimi o'chirilishida o'chadi. Kruiz- nazorat ⇨8-44ni ko'ring.

"Eshik yopilmagan" signalizatori

Ushbu signalizator eshik ochilgan yoki zich qilib yopilmagan vaqtda yonadi. Barcha eshiklar yaxshilab yopilganligini harakatni boshlagunga qadar tekshiring.

AXBOROT DISPLEYLARI

Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma)

Haydovchining axborot markazi xabarlari axborot ilovasida uskunalar qalqonchasining markazida joylashgan displeyda aks ettiriladi. Uskunalar majmuasi (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-14 yoki Uskunalar majmuasi (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-11ni ko'ring. Ushbu displeyda avtomobilning turli xil tizimlarini holatlari aks ettiriladi.



◁ yoki ▷: Uskunalar qalqonchasining displeyining chap interfaol sohasidan o'ng sohaga yoki aksincha kirish uchun bosing. U yoki bu bandni tanlash uchun, g'ildirakchaga bosing.

△ yoki ▽ : Ro'yxatni tepaga yoki pastga aylantirish uchun g'ildirakchadan foydalaning. Menyuni ochish yoki menyuning pozitsiyasini tanlash uchun g'ildirakchani bosing. Ba'zi darchalarda klavishani ushlab turilishi parametr qiymatini bekor qilishga imkon beradi.

Axborot darchalarining parametrlari

Haydovchining axborot markazi disleyida alohida axborot darchasini aks ettirilishini "Parametrlar" menyusida yoqish mumkin.

1. "Parametrlar" ilovasining bandlari ro'yxati bo'yicha o'tish uchun ◁ va ▷ tugmalarini qo'llang.
2. △ va ▽ tugmalar bilan kerakli axborot darchasini tanlab, g'ildirakchaga bosing.
3 . Erishimli axborot darchalari ro'yxatini aylantirish uchun △ va ▽ tugmalarini qo'llang.
4. Ajratilgan bandni tanlash yoki tanlovni bekor qilish uchun, g'ildirakchaga bosing. Axborot darchalarini, shuningdek, DICdagi Info Page Options (Axborot darchalarining parametrlari) darchasida yoqish yoki o'chirish mumkin.

Axborot darchalari

Quyida axborot darchalarining to'liq ro'yxati keltiriladi, ular haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida aks ettirilishi mumkin. Ulardan ba'zilari avtomobillarning alohida modifikatsiyalarida erishimli bo'lmasligi mumkin. Ba'zi sahifalar dastlabki bo'yicha aks ettirilmasligi mumkin, biroq siz ularni "Sozlamalar" bo'limida yoqishingiz mumkin. "Axborot darchalarining parametrlari" paragrafini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Tezlik: Avtomobilning harakatlanish tezligi bir soatda kilometrlarda (km/soat) yoki bir soatda milda (mil/soat) aks ettiriladi.Ushbu darchada , shuningdek, bosib o'tilgan masofa hisoblagichi ko'rsatkichlari aks ettiriladi.

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, g'ildirakchaga bosish bilan menyu ochiladi, unda tezlikni cheklash belgilarini ko'rinishini tanlash mumkin.

Displeydagi tezlikni cheklash belgilari, agar navigatsiya tizimi kartasining eskirgan versiyasi o'rnatilgan bo'lsa, haqiqiy cheklovlardan farq qilishi mumkin.

1 va 2 bosib o'tilgan masofa hisoblagichlari, yonilg'ining o'rtacha sarfi: Joriy bosib o'tilgan masofa hisoblagichini ko'rsatkichlarini oxirgi bekor qilish paytidan bosib o'tilgan masofa kilometrlarda (km) yoki milda (mil) aks ettirilida.

Yonilg'ini o'rtacha sarfining taxminiy ko'rsatkichi bir litrga kilometrlarda (km/l) chiqariladi. Ushbu ko'rsatkich oxirgi bekor qilish paytidan boshlangan ma'lumotlarga asosan hisoblanadi. Taxminiy ko'rsatkich qat'iy hozirgi paytga yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi, yo'l sharoitlari o'zgartirilishi bilan u o'zgaradi.

Joriy bosib o'tilgan yo'l va yonilg'ini o'rtacha sarfi hisoblagichining ko'rsatishlarini bekor qilish uchun, ular aks ettirib turilgan vaqtda g'ildirakchani bosing va ushlab turing.

Yonilg'i zaxirasi: Ushbu darchada keyingi yonilg'i to'ldirishgacha safar qilishning taxminiy zaxirasi aks ettiriladi. Yonilg'isining past sathida displeyda «LOW» (past) yozuvi aks ettiriladi. Mavjud bo'lgan yonilg'ida safar qilish mumkin bo'lgan taxminiy masofani oxirgi davrdagi yonilg'ini o'rtacha sarfi va yonilg'i bakida qolgan yonilg'i hajmi bo'yicha hisoblanadi.

Taymer : Taymerni ishga tushirish uchun, displey faol bo'lgan vaqtda g'ildirakchani bosing.

Displey taymerning oxirgi bekor qilinishi paytidan o'tgan vaqtni ko'rsatadi. Taymerni to'xtatish uchun, displey faol va taymer ishlab turgan vaqtda, g'ildirakchani qisqa vaqtga bosing. Taymerni bekor qilish uchun, displey faol bo'lib turgan vaqtda, g'ildirakchani bosing.

Moy resursi: Moy resursi qoldiqlarining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari chiqariladi. Agarda displeyda OIL LIFE 99% xabari aks ettirilayotgan bo'lsa, motor moyinining resursi99%ni tashkil etayotganini anglatadi.

Moyning xizmat muddati oxiriga yetayotgan vaqtda, displeyda "Change Engine Oil Soon" ("Yaqinda motor moyini almashtirish talab etiladi") xabari paydo bo'ladi. Iloji boricha tezroq moyni almashtirish kerak. Motor moyi ⇨ 9-5ni ko'ring. Motor moyini xizmat muddatini monitoring tizimidan tashqari, xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha ishlarni o'tkazish tavsiya etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨10-3ni ko'ring.

Moyni har almashtirishdan keyin displeydagi qiymatni bekor qilinishini bajarish zarurdir. Bekor qilish avtomatik tarzda amalga oshmaydi. Moy haqiqatda almashtirilgan paytdan tashqari vaqtda displeyda moy resursi qiymatini bekor qilib yuborilmasligi ustidan kuzatib boring. Ma'lumotlarni aniq tiklanishi moyning keyingi almashtirilguniga qadar imkonsiz bo'ladi. Bekor qilish tartibini Dvigatelni nazorat qilish tizimi Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-7bo'limda ko'ring.

Shinalardagi bosim: Ushbu darchada barcha to'rtala g'ildiraklardagi taxminiy havo bosimini aks ettiradi. Shinalarda havo bosimi displeyda kilopaskallarda (kPa) yoki kvadrat dyuymga funtlarda (funt/kv.dyuym) aks ettiriladi. Agar biron bir g'ildirakning shinasidagi bosim ruxsat etilgandan pastroq bo'lsa, u sariq rangda aks ettirib turiladi. Shinalarda havo bosimi nazorati ⇨ 9-39 tizimi va Shinalarda havo bosimini nazorati tizimining faoliyat yuritishi ⇨ 9-40 ni ko'ring.

Havo filtri resursi: Dvigatelning havo filtrining qoldiq xizmat muddati va tizim holatining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari aks ettiriladi. Agar dvigatelni havo filtrining qolgan resursi 95 %ga teng bo'lsa, bu filtr resursining 95 %i tamomlanmaganligini anglatadi. Dvigatelning havo filtrining qolgan resursiga va tizim holatiga bog'liq holda turlicha xabarlar aks ettiriladi. REPLACE SOON (YAQIN VAQTDA ALMASHTIRING) xabari paydo bo'lishida dvigatelning havo filtrini birinchi imkoniyat tug'ilganida almashtirish kerak.

Dvigatelni havo filtri almashtirilishidan keyin uning resursi hisoblagichini bekor qilish zarur. Bekor qilish tartibini Dvigatelni havo filtri resursi hisoblagichi ⇨ 9-8 bo'limda ko'ring.

Tormoz kolodkalarining resursi: Oldindagi va orqadagi tormoz kolodkalarining qoldiq xizmat muddatlarining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari aks ettiriladi. Tormoz kolodkalarining yedirilish darajasiga va tizimning holatiga bog'liq holda muvofiq xabarnomalar chiqariladi.

Tormoz kolodkalarini almashtirishdan keyin ularning resurslari ko'rsatkichlarini bekor qilish zarur. Tormoz kolodkalarining xizmat muddati nazorati tizimi ⇨ 9-16ni ko'ring.

Yonilg'ini tejash rejimi: Ko'rsatilgan oraliqda yonilg'ini o'rtacha sarfini, yonilg'ini minimal sarfini va yonilg'ini tezkor sarfi diagrammasini aks ettiriladi. Tanlangan oraliq masofani o'zgartirish uchun, g'ildirakchaga bosing. Yonilg'ining minimal va o'rtacha sarfi ko'rsatkichlarini bekor qilish uchun, muvofiq ko'rsatkichlar aks ettirilishi vaqtida g'ildirakchani bosing va ushlab turing Ko'rsatkichlarni, shuningdek, menyuda bekor qilish (Reset) buyrug'ini tanlash bilan bekor qilish mumkin.

Soatlarda dvigatelning ishlash ko'lami hisoblagichi: Soatlarda dvigatelning umumiy ishlash ko'lami aks ettiriladi. Bu yerda bo'sh aylanishlarda dvigatelning ishlash davomiyligi ko'rsatkichlari chiqariladi.
AUQ moyining harorati: Selsiy (°C) shkalasi yoki Farengeyt (°F) shkalasi bo'yicha graduslarda avtomatik uzatmalar qutisi uchun suyuqlikning haroratini ko'rsatadi.
Tirkama tormozi: Tirkama tormozlarini ishlashini boshqarish o'rnatilgan tizimiga (ITBC) ega bo'lgan avtomobillarda tirkama tormozlari haqidagi ma'lumotlar haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekraniga chiqariladi.
TRAILER GAIN displeyida tirkama tormozlarini kuchaytirilishi parametri aks ettiriladi.
Ushbu parametr 0,0dan 10,0gacha diapazonda, ulangan tirkama bilan qanday bo'lsa, uzib qo'yilgan tirkama bilan ham xuddi shunday sozlanadi.
OUTPUT displeyida ulangan tirkamaning elektr mexanik tormozlarining chiquvchi quvvati parametri aks ettiriladi. Ushbu parametrning qiymatini chiqarish uchun shkalali indikator ko'zda tutilgan. Agar tirkama ulanmagan bo'lsa, OUTPUT displeyida nuqtali chiziq yorishib turishi mumkin.

Yo'lsizlik rejimi: muvofiq jamlanmada avtomobilning bo'ylama va ko'ndalang qiyaligi, yo'lga nisbatan g'ildiraklarning qiyalik burchagi va to'liq yuritma tizimining holati haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.
Oldinda ketayotgan avtomobilgacha oraliq masofa: Agar ko'zda tutilgan bo'lsa, ushbu darchada oldinda ketayotgan avtomobilgacha vaqtinchalik oraliq masofasi ko'rsatiladi.
Haydovchiga yordam: muvofiq jamlanmada faol qo'shimcha boshqarish bilan egallab turilgan chiziqdan chiqish haqidagi ogohlantirish tizimi (LKA) va frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) uchun ma'lumotlar ko'rsatiladi.
Axborot darchalarining parametrlari : haydovchining axborot markazida aks ettiriluvchi axborot darchalarini tanlash uchun ro'yxatni aylantiring.
Tanlovni tanlash yoki bekor qilish uchun, g'ildirakchani bosing.
Bo'sh darcha: Hech qanday ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma)

Haydovchining axborot markazi xabarlari axborot ilovasida uskunalar qalqonchasining markazida joylashgan displeyda aks ettiriladi. Uskunalar majmuasi (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-14 yoki Uskunalar majmuasi (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-11ni ko'ring. Ushbu displeyda avtomobilning turli xil tizimlarini holatlari aks ettiriladi.
Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, dizel dvigatelli Duramax modeliga bag'ishlangan ilovani ko'ring.



◁ **yoki** ▷ : Uskunalar qalqonchasining displeyining chap interfaol sohasidan o'ng sohaga yoki aksincha kirish uchun bosing. U yoki bu bandni tanlash uchun, g'ildirakchaga bosing.

△ **yoki** ▽: Ro'yxatni tepaga yoki pastga aylantirish uchun g'ildirakchadan foydalaning.

Menyuni ochish yoki menyuning pozitsiyasini tanlash uchun g'ildirakchani bosing. Ba'zi darchalarda klavishani ushlab turilishi parametr qiymatini bekor qilishga imkon beradi.

Axborot darchalarining parametrlari

Haydovchining axborot markazi disleyida alohida axborot darchasini aks ettirilishini "Parametrlar" menyusida yoqish mumkin.

1. "Parametrlar" ilovasining bandlari ro'yxati bo'yicha o'tish uchun ◁ va ▷ tugmalarini qo'llang.
2. △ va ▽ tugmalar bilan kerakli axborot darchasini tanlab, g'ildirakchaga bosing.
3. Erishimli axborot darchalari ro'yxatini aylantirish uchun △va▽ tugmalarini qo'llang.
4. Ajratilgan bandni tanlash yoki tanlovni bekor qilish uchun, g'ildirakchaga bosing. Axborot darchalarini, shuningdek, DICdagi Info Page Options (Axborot darchalarining parametrlari) darchasida yoqish yoki o'chirish mumkin.

Axborot darchalari

Quyida axborot darchalarining to'liq ro'yxati keltiriladi, ular haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida aks ettirilishi mumkin. Ulardan ba'zilari avtomobillarning alohida modifikatsiyalarida erishimli bo'lmasligi mumkin. Ba'zi sahifalar dastlabki bo'yicha aks ettirilmasligi mumkin, biroq siz ularni "Sozlamalar" bo'limida yoqishingiz mumkin.

"Axborot darchalarining parametrlari" paragrafini ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Tezlik : Avtomobilning harakatlanish tezligi bir soatda kilometrlarda (km/soat) yoki bir soatda milda (mil/soat) aks ettiriladi.

Safar qilish haqida ma'lumotlar: Bu yerda bosib o'tilgan masofa kilometrda (km) yoki milda aks ettiriladi.

Xuddi shu yerda yonilg'ining o'rtacha sarfi ko'rsatkichi chiqariladi. Yonilg'ini o'rtacha sarfining taxminiy ko'rsatkichi 100 kilometrga litrlarda (l/100 km), litrga kilometrda (km/l) yoki gallonga milda aks ettiriladi. Ushbu taxminiy ko'rsatkich qat'iy hozirgi paytga yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi, yo'l sharoitlari o'zgartirilishi bilan u o'zgaradi. Joriy safar qilishning davomiyligi taymerda aks ettiriladi.

Avtomobilni har bir yangi ishga tushirilishida safar qilish haqidagi barcha ma'lumotlar (Drive Summary) bekor qilinadi.

1 va 2 bosib o'tilgan masofa hisoblagichlari, yonilg'ining o'rtacha sarfi va o'rtacha tezlik: Joriy bosib o'tilgan masofa hisoblagichining ko'rsatkichlarini oxirgi bekor qilish paytidan kilometrlarda (km) yoki milda (mil) haydab o'tilgan masofa aks ettiriladi. Yonilg'ining o'rtacha sarflanishining taxminiy ko'rsatkichi 100 kilometrga litrlarda (l/100 km), litrga kilometrda (km/l) gallonga milda chiqariladi.

Ushbu ko'rsatkich oxirgi bekor qilish paytidan boshlangan ma'lumotlarga asosan hisoblanadi. Taxminiy ko'rsatkich qat'iy hozirgi paytga yonilg'ining o'rtacha sarfi aks ettiriladi, yo'l sharoitlari o'zgartirilishi bilan u o'zgaradi.

Avtomobilning harakatlanishining o'rtacha tezligi soatiga kilometrda (km/soat) yoki milda aks ettiradi. Ushbu o'rtacha kattalik oxirgi bekor qilish paytidan qayd etilgan tezlik haqidagi ma'lumotlarga asosan hisoblanadi.

Taymer ko'rsatkichlarini bekor qilish uchun, displey faol bo'lib turgan vaqtda, g'ildirakchani bosing.

Taymer: Taymerni ishga tushirish uchun, displey faol bo'lgan vaqtda g'ildirakchani bosing.

Displey taymerning oxirgi bekor qilinishi paytidan o'tgan vaqtni ko'rsatadi. Taymerni to'xtatish uchun, displey faol va taymer ishlab turgan vaqtda, g'ildirakchani qisqa vaqtga bosing. Taymerni bekor qilish uchun, displey faol bo'lib turgan vaqtda, g'ildirakchani bosing.

Shinalardagi bosim: Ushbu darchada barcha to'rtala g'ildiraklardagi taxminiy havo bosimini aks ettiradi. Shinalarda havo bosimi displeyda kilopaskallarda (kPa) yoki kvadrat dyuymga funtlarda (funt/kv.dyuym) aks ettiriladi. Agar biron bir g'ildirakning shinasidagi bosim ruxsat etilgandan pastroq bo'lsa, u sariq rangda aks ettirib turiladi. Shinalarda havo bosimi nazorati tizimi ⇨ 9-39 va Shinalarda havo bosimini nazorati tizimining faoliyat yuritishi ⇨9-40ni ko'ring.

Yonilg'ini tejash rejimi: Ko'rsatilgan oraliqda yonilg'ini o'rtacha sarfini, yonilg'ini minimal sarfini va yonilg'ini tezkor sarfi diagrammasini aks ettiriladi. Menyudan yangilash buyrug'ini tanlab, ko'rsatkichlarni yangilashingiz mumkin.

Haydovchiga yordam: Muvofiq jamlanmada adaptiv kruiz-nazorat tizimi (ACC) ma'lumotlari, faol qo'shimcha rulda boshqarish bilan egallab turilgan chiziqdan chiqib ketish (LKA) haqida ogohlantirishlar, frontal to'qnashuv (FCA) haqida ogohlantirishlar, hamda oldinda ketayotgan avtomobilgacha masofa (FDI) aks ettiriladi.

Moy resursi: Moy resursi qoldiqlarining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari chiqariladi. Agar displeyda OIL LIFE 99% xabari aks ettirilayotgan bo'lsa, motor moyinining resursi 99%ni tashkil etayotganini anglatadi.

Moyning xizmat muddati oxiriga yetayotgan vaqtda, displeyda "Change Engine Oil Soon" ("Yaqinda motor moyini almashtirish talab etiladi") xabari paydo bo'ladi. Iloji boricha tezroq moyni almashtiring. Motor moyi ⇨ 9-5ni ko'ring.

Motor moyini xizmat muddatini monitoring tizimidan tashqari, xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha ishlarni o'tkazilishi tavsiya etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3ni ko'ring.

Moyni har almashtirishdan keyin displeydagi qiymatni bekor qilinishini bajarish zarurdir. Bekor qilish avtomatik tarzda amalga oshmaydi. Moy haqiqatda almashtirilgan paytdan tashqari vaqtda displeyda moy resursi qiymatini bekor qilib yuborilmasligi ustidan kuzatib boring.Ma'lumotlarni aniq tiklanishini moyning keyingi almashtirilgunga qadar imkoni yo'q. Bekor qilish tartibini Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-7bo'limda ko'ring.

Tormoz kolodkalarining resursi: Oldindagi va orqadagi tormoz kolodkalarining qolgan xizmat muddatining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari aks ettiriladi. Tormoz kolodkalarining yedirilish darajasiga va tizimning holatiga bog'liq holda muvofiq xabarnomalar chiqariladi.

Tormoz kolodkalarini almashtirishdan keyin ularning resurslari ko'rsatkichlarini bekor qilish zarur. Tormoz kolodkalarining xizmat muddati nazorati tizimi ⇨ 9-16ni ko'ring.

Havo filtrining resursi: Dvigatelni havo filtrining qolgan xizmat muddatining hisoblanuvchi ko'rsatkichlari va tizimning holati aks ettiriladi. Agar dvigatelni havo filtrining qolgan resursi 95 %ga teng bo'lsa, bu filtr resursining 95 %i tamomlanmaganligini anglatadi.

Dvigatelning havo filtrining qolgan resursiga va tizim holatiga bog'liq holda turlicha xabarlar aks ettiriladi. REPLACE SOON (YAQIN KUNLARDA ALMASHTIRING) xabari paydo bo'lganida dvigatelning havo filtrini birinchi imkoniyat tug'ilganida almashtirish kerak.

Dvigatelni havo filtri almashtirilishidan keyin uning resursi hisoblagichini bekor qilish zarur. Bekor qilish tartibini Dvigatelni havo filtri resursi hisoblagichi ⇨ 9-8 bo'limda ko'ring.

Tirkama tormozi: tirkama tormozlari ishlashini boshqarish o'rnatilgan tizimli (ITBC) avtomobillarda tirkamaning tormozlari haqidagi ma'lumotlar haydovchining axborot markazi (DIC) displeyining ekraniga chiqariladi.

TRAILER GAIN displeyida tirkama tormozlarini kuchaytirilishi parametri aks ettiriladi.

Ushbu parametr 0,0dan 10,0gacha diapazonda, ulangan tirkama bilan qanday bo'lsa, uzib qo'yilgan tirkama bilan ham xuddi shunday sozlanadi.

OUTPUT displeyida ulangan tirkamaning elektr mexanik tormozlarining chiquvchi quvvati parametri aks ettiriladi. Ushbu parametrning qiymatini chiqarish uchun shkalali indikator ko'zda tutilgan. Agar tirkama ulanmagan bo'lsa, OUTPUT displeyida nuqtali chiziq yorishib turishi mumkin.

Yo'lsizlik rejimi: muvofiq jamlanmada avtomobilning bo'ylama va ko'ndalang qiyaligi, yo'lga nisbatan g'ildiraklarning qiyalik burchagi va to'liq yuritma tizimining holati haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.
Agar shinalarning yo'l qoplamasi bilan tishlashishi kuchsiz bo'lsa, Off-Road (yo'lsizlik rejimi) darchasida ta'sir etilgan g'ildirkalarni ko'rsatish bilan kuchsiz tishlanishning sariq indikatori yoqiladi.
Soatlarda dvigatelning ishlash ko'lami hisoblagichi: Soatlarda dvigatelning umumiy ishlash ko'lami aks ettiriladi. Bu yerda bo'sh aylanishlarda dvigatelning ishlash davomiyligi ko'rsatkichlari chiqariladi.
UO'Q moyining harorati: Selsiy (°C) shkalasi yoki Farengeyt (°F) shkalasi bo'yicha graduslarda avtomatik uzatmalar qutisi uchun suyuqlikning haroratini ko'rsatadi.
Axborot darchalarining parametrlari: haydovchining axborot markazida aks ettiriluvchi axborot darchalarini tanlash uchun ro'yxatni aylantiring.
Tanlovni tanlash yoki bekor qilish uchun, g'ildirakchani bosing.
Bo'sh darcha: Hech qanday ma'lumotlar aks ettirilmaydi.

AVTOMOBILNING AXBOROT XABARLARI

DICda aks ettiriluvchi xabarlar avtomobilning holatiga yoki vaziyatni to'g'irlash uchun zarur bo'lgan biron bir harakatlarga ko'rsatadi. Bir nechta xabarlar galma-galdan aks ettirilishi mumkin.
Agar xabar haydovchi tomonidan biron bir harakatlarni darhol amalga oshirishni talab etmayotgan bo'lsa, uni ✓ ga bosib, tasdiqlash va ekrandan olib tashlash mumkin. Darhol harakat qilishni talab etuvchi xabarlar, toki ushbu harakatlar bajarilmaguniga qadar, o'chirib yuborilmaydi.
Barcha xabarlarga jiddiy munosabatda bo'lish kerak. Yodda tuting, xabarlarning o'chirib yuborilishi muammoni bartaraf qilmaydi.
"SERVICE" (xizmat ko'rsatish talab etilmoqda) xabari paydo bo'lishida texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish kerak.
Xabarlardagi yo'l-yo'riqlarga amal qiling. Yoritib ko'rsatiluvchi xabarlar quyidagi sohalardan biriga tegishli bo'lishi mumkin:

- Avtomobilgi xizmat ko'rsatish zarurati haqidagi xabarlar
- Suyuqliklarning sathi
- Avtomobilni himoyalash
- Tormoz mexanizmlari
- Rul boshqaruvi
- Yurish ravonligini sozlash tizimi
- Haydovchiga yordam tizimlari
- Kruiz-nazorat
- Yoritilganlik va lampalarni almashtirish
- Oynani tozalash/yuvish tizimlari
- Eshiklar va oynalar
- Xavfsizlik kamarlari
- Xavfsizlik yostiqlari tizimlari
- Dvigatel va uzatmalar qutisi
- Shinalardagi bosim
- Akkumulator batareya
- To'rt burchakli pnevmatik osma

Dvigatel quvvatini sozlash tizimi xabarlari

REDUCED ACCELERATION DRIVE WITH CARE (EHTIYOTLIK BILAN, PASAYTIRILGAN TEZLASHISH)

Ushbu xabar rivojlantiriluvchi quvvatning pasayishi holatida aks ettiriladi. Dvigatel bilan rivojlantiriluvchi quvvatning pasayishi avtomobilning tezlik olish dinamikasini yomonlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Agar ushbu xabarning paydo bo'lishi dvigatel quvvatining haqiqiy pasayishi bilan kuzatib borilmayotgan bo'lsa, siz yo'nalish bo'yicha harakatlanishni davom ettirishingiz mumkin. Ma'lum sharoitlarda quvvatning pasayishi avtomobilni haydashda keyingi safar yuzaga kelishi mumkin. Agar ushbu xabar aks ettirilayotgan bo'lsa, siz harakatlanishni davom ettirishingiz mumkin, biroq avtomobilning maksimal tezligi va tezlik olish dinamikasi paslatilgan bo'lib qolishi mumkin. Agar ushbu xabar g'oyib bo'lmayotgan yoki vaqti-vaqti bilan paydo bo'layotgan bo'lsa, iloji boricha tezroq texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish zarur.

Ekspluatatsiyaning ba'zi sharoitlarida harakatlanishni boshlab imkoni bloklangan bo'ladi. O't oldirishni yoqing, ikki minut kuting va dvigatelni qayta ishga tushirishga urinib ko'ring.

Avtomobil tezligi haqida xabarlar

SPEED LIMITED TO XXX KM/H (MPH)
(TEZLIK XXX KM/SOATGACHA
(MIL/SOATGACHA) CHEKLANGAN)

Ushbu xabar avtomobilni harakatlanish tezligi aks ettirilayotgan qiymat bilan cheklanganligiga ko'rsatadi. Tezlik chegaralanishi avtomobil transsmissiyasini va uning boshqa tizimlarini, masalan moylash tizimi, sovitish tizimi, tormoz, osma, shinalar tizimini himoyalash uchun, hamda voyaga yetmagan haydovchi rejimida (barcha modifikatsiyalarda ham emas) chiqarilgan bo'lishi mumkin.
(Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, dizel dvigatelli Duramax modeliga bag'ishlangan ilovani ko'ring).

MASOFADAN BOSHQARISH UNIVERSAL PULTI

Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlash

Ushbu tugmalar, agar ular mavjud bo'lsa, shift konsolida joylashgan.
Ushbu tizim turlicha qurilmalarni - avtomatik garaj darvozalari, xavfsizlik tizimlari, uyni avtomatlashtirish qurilmalarini boshqarish uchun mo'ljallangan uchtagacha masofadan boshqarish pultlarini o'rnini bosishga qodir.
Bu yerda keltirilgan yo'l-qo'riqlar avtomatik garaj darvozalarini tavsiflaydi, biroq ular boshqa qurilmalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Universal masofadan boshqarish pultini to'siqlarni aniqlaganda avtomatik orqaga yurish funksiyasiga ega bo'lmagan garaj darvozalari bilan birgalikda qo'llamang. Ushbu toifaga 1982 y. 1 aprelgacha chiqarilgan garaj darvozalarini ochishning barcha tizimlari kiradi.
Asl boshqarish pultini boshqa avtomobillar bilan qo'llash, hamda kelajakda dasturlash uchun uni saqlab qo'ying. Avtomobilni boshqa egaga topshirishdan avval dasturlangan ma'lumotlarni o'chirib yuboring. "Universal masofadan boshqarish pultining tugmalarini dasturlash ma'lumotlarini o'chirib yuborish"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.
Garaj darvozalarini ochish tizimini dasturlash uchun avtomobilning old qismi garaj darvozalarini ochish tizimining signal qabulqilgichiga yo'nalib turadigan shunday holatda o'rnating. Garaj darvozalari bilan yaqin oraliqda odamlar va begona buyumlar bo'lishi kerak emas.
Radiosignallar tez va aniq uzatilishi uchun qo'l boshqaruv pultiga yangi batareyka o'rnatilganligini nazorat qiling.

Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlash

Universal masofadan boshqaruv pulti 433-434 MGs diapazonda ishlaydigan radioqurilmalar bilan mos keladi.

Dasturlash tamoyillari cheklangan vaqt davomida bajariladi, va agar ajratilgan vaqt o'tib bo'lgan bo'lsa, tamoyilni qayta boshlash talab etiladi. Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlashni boshlashdan avval, ushbu yo'riqnomani to'liq o'chib chiqing. Dasturlashni yordamchi bilan bajarish qulayroqdir.

1 . Qo'l masofadan boshqarish pultini old tarafini universal masofadan boshqaruv pultini tugmasidan 3-8 sm (1-3 dyuym) uzoqlikda tutib turing va indikatorni nazorat qiling. Qo'l masofadan boshqaruv pultini siz garaj darvozalarini ochish tizimi signal qabulqilgichi ishlab chiqaruvchisidan qo'lga kiritgansiz.

2.Siz dasturlamoqchi bo'lgan universal masofadan boshqaruv pulti tizimining uchta tugmalaridan o'shanisini bosing va qo'yib yuboring. Qo'l masofadan boshqaruv pulti tugmasini bosing va ushlab turing. Qo'l masofadan boshqarish pultini tugmasini, toki indikatorning miltillashi sekindan tezga yoki doimiy yonib turishga o'zgarmagunicha, qo'yib yubormang. Bu holat ro'y berganida, pultning tugmasini qo'yib yuboring.

Garaj darvozalarini ochishning ba'zi tizimlari uchun 2-qadamni ushbu bo'limda quyidagi "garaj darvozalarini boshqarishning ba'zi tizimlari uchun radio-boshqarish signallari" bandida tavsiflangan tamoyil bilan almashtirish talab etilishi mumkin.

3.Indikator va garaj darvozasining harakatlanishi ustidan kuzatib turib, 5 sekund davomida universal masofadan boshqaruv pultining hozir dasturlangan tugmasini bosing va ushlab turing.

- Agar indikator tugma bosilishi vaqtida uzluksiz yonishda davom etsa yoki garaj darvozalari harakatlanayotgan bo'lsa, u holda dasturlash yakunlangan bo'ladi. 4-6-qadamlarni bajarish kerak bo'lmaydi.
- Agar indikator yonmayotgan yoki garaj darvozalari harakatlanmayotgan bo'lsa, unda tugmaga ikkinchi marta bosib ko'ring. Dasturlangan tugmani qayta bosing va besh sekund davomida ushlab turing. Agar indikator tugma bosilgan vaqtda uzluksiz yonishda davom etayotgan yoki garaj darvozalari harakatlanayotgan bo'lsa, u holda dasturlash yakunlangan bo'ladi. 4-6-qadamlarni bajarish kerak bo'lmaydi.
- Agar garaj darvozalari ochilmayotgan bo'lsa, 4-6-bandlarga o'ting.



Learn yoki Smart tugmasi

4.1-3-qadamlarni bajarib, garajda garaj darvozalarini ochish tizimi signallarini qabulqilgichida Learn yoki Smart (O'qitish) tugmasini toping. Tugmaning nomlanishi va rangi tizim ishlab chiqaruvchisiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

5. Learn yoki Smart tugmasini bosing va qo'yib yuboring. 6-qadamni ushbu tugmani bosishdan keyin 30 sekund davomida bajarish zarur.

6. Avtomobil saloniga qayting, universal masofadan boshqaruv pultining dasturlangan tugmasiga bosing va uni ikki sekund davomida ushlab turing, bundan so'ng qo'yib yuboring. O'qitish jarayonini yakunlash uchun, "bosish/ushlab turish/qo'yib yuborish" ketma-ketligini uch martagacha takrorlang.

Bu gal garaj darvozalari universal masofadan boshqaruv pultiga javob berishi kerak.

Qolgan ikki tugmalarni dasturlashda xuddi shu tamoyilni qo'llang.

Dasturlashning barcha masalalari yoki yordam uchun www.homelink.com/gm saytiga murojaat qilishingiz mumkun.

Ba'zi garaj darvozalarini boshqarishning tizimlari uchun radioboshqariluvchi signallar

Ba'zi qonunchilik talablari va Garaj darvozalarini boshqarish tizimlarini ishlab chiqaruvchilari bir necha sekundlar bilan boshqaruv signalining uzatilish vaqtini chegaralaydi. Ushbu vaqt dasturlash jarayonida universal masofadan boshqaruv pulti signalni qayd etishi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin.

Agar dasturlash amalga oshmagan bo'lsa, "Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlash" tamoyilning 2-qadamini quyidagi tamoyil bilan almashtiring:

Universal masofadan boshqaruv pultining tugmasini bosing va ushlab turing; bunda har ikki sekundda qo'l masofadan boshqaruv pultining tugmasini bosing va qo'yib yuboring, toki signal universal masofadan boshqaruv pulti tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilinmagunicha. Universal masofadan boshqaruv pulti tizimi indikatori sekin miltillashni tez miltillashga yoki doimiy yorishib turishga almashtirishi kerak. Jarayonni yakunlash uchun "Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlash" tamoyilining 3-qadamiga o'ting.

Universal masofadan boshqaruv pultidan foydalanish

Universal masofadan boshqaruv pultini tugmasini bosib, kamida yarim sekundga bosilgan holda ushlab turing. Signalni uzatish vaqtida indikator yonadi.

Universal masofadan boshqaruv pultining tugmalarini dasturlash ma'lumotlarini o'chirib yuborish

Avtomobilni boshqa egaga topshirishdan avval barcha dasturlangan tugmalarning ma'lumotlarini o'chirib yuboring.

Ma'lumotlarni o'chirib yuborish uchun:

1. Ikki yon tomondagi tugmalarni, toki indikator miltillashni boshlamagunicha, bosing va ushlab turing. Bu taxminan 10 sekundni egallashi kerak.
2. Ikkala tugmalarni qo'yib yuboring.

Universal masofadan boshqaruv pultining bitta tugmasini dasturlash

Universal pultning biron bir tugmalaridan birini dasturlash uchun:

1. Tanlangan tugmani bosing va ushlab turing. Tugmani bosilgan holda ushlab turing.
2. 20 sekund o'tgandan keyin indikator miltillashni boshlaydi. Tugmani qo'yib yubormasdan, "Universal masofadan boshqaruv pultini dasturlash" tamoyilini 1-qadamiga o'ting.

IZOH

5 YORITISH TIZIMI

- TASHQI YORITISH 5-2
- SALONNI YORITISH 5-6
- YORITISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI 5-7

TASHQI YORITISH

Tashqi yoritish uskunalarini boshqarish organlari



Tashqi yoritishni o'chirgichi rul chambaragidan chap tomonda uskunalar panelida joylashgan.
U to'rtta holatga ega:
⏻ : Bosh faralar va kunduzgi yurish chiroqlarini avtomatik boshqarish o'chirgichi. Bosh faralarni va kunduzgi yoritish chiroqlarini yoqish uchun, o'chirgichni ⏻ holatga qaytaring.
AUTO: Bosh faralarni, to'xtash va orqa chiroqlarni, uskunalar panelini yoritilishini, tomdagi gabarit chiroqlarni (agar jamlanmada bor bo'lsa) va raqam belgisini yoritilishini avtomatik yoqish.
≡D : To'xtab turish chiroqlarini, jumladan, faralardan tashqari, barcha lampalarni yoqadi.
≡D : Bosh faralarni to'xtash chiroqlari va uskunalar panelini yoritilishi bilan birgalikda yoqish.
Agar o't oldirish yoqilganida faralar yoqilgan bo'lsa, ular avtomobil o'chirilishidan keyin 10 minut o'tib avtomatik o'chadi. Agar blok-faralar o't oldirish o'chiqligida yoqilgan bo'lsa, ular akkumulator batareyaning quvvatsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun 10 minutdan keyin avtomatik o'chadi. Bosh faralarni o'chirilgan holatga o'tkazing, so'ngra faralarni yana 10 minutga yoqish uchun qayta yoqilgan holatga keltiring.
Yoritish uskunalari 10 minutdan oshiq vaqtga yoqilgan holatda qolishi uchun, o't oldirishni yoki qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish rejimini yoqish zarur.

IntelliBeam® tizimi

Agar avtomobil ushbu tizim bilan jihozlangan bo'lsa, uning yordamida yo'ldagi holatga bog'liq holda uzoqni yoritishning bosh faralar yoqiladi-o'chiriladi.
Uzoqni yoritish bosh faralari tizim tomonidan qorong'u bo'lganida, yo'l esa bo'sh bo'lganida yoqiladi.

IntelliBeam tizimi ishlayotgan vaqtda, uskunalar panelidagi indikator yorishib turadi.

IntelliBeam tizimini faollashtirish va yoqish
IntelliBeam tizimini yoqish uchun, tashqarini yoritish o'chirgichi AUTO yoki ≡D holatga joylashtirilgan vaqtda uzoqni yoritish chirog'i o'zgartirgichini yaqinni yoritishga ikki sekund ichida ikki marta faollashtiring.

IntelliBeam tizimi bilan safar qilish

Uzoqni yoritish faqat 40 km/soatdan yuqori tezlikda yoqiladi.
Uzoqni yoritish faralari yoqilgan vaqtda, uskunalar panelida uzoqni yoritishning moviy indikatori yorishadi.
Tizim old oynaning o'rtasidagi hoshiyada joylashgan datchik tomonidan avtomatik nazorat qilinadi. Tizimning ishga layoqatligini ta'minlash uchun old oynaning ushbu qismida chiqindilar bo'lmasligini kuzatib boring.
Uzoqni yoritish bosh faralari avtomatik boshqarish rejimida, toki quyida sanab o'tilgan holatlardan biron biri sodir bo'lmagunicha, yoqilgan holda qoladi:

- Tizim qarama-qarshi tomondan yaqinlashib kelayotgan avtomobilning bosh faralarini yorug'ligini aniqlaydi.
- Tizim oldinda ketayotgan avtomobilning orqa chiroqlarini yorug'ligini aniqlaydi.
- Tashqari yorug'lik shunchalik yorug'lashib ketadiki, uzqoni yoritish chiroqlari kerak bo'lmay qoladi.

- Avtomobil tezligi 20 km/soatdan (soatiga 12 mil) pastlab ketadi.
- IntelliBeam tizimini uzoqni yoritishni yaqinni yoritishga o'zgartirgichi yoki uzoqni yoritish faralari bilan qisqa muddatli signallarni uzatish rejimiga o'tish bilan o'chirish mumkin. IntelliBeam tizimini qayta yoqish uchun, ikki sekund davomida uzoqni yoritishni yaqinni yoritish o'zgartirgichini yoqing va o'chiring. IntelliBeam tizimini qayta yoqilishi haqida uskunalar majmuasidagi indikator xabar beradi. Uzoqni/yaqinni yoritish o'zgartirgichi ⇨ 5-3 va Uzoqni yoritish faralari bilan qisqa muddatli signallarni uzatish ⇨ 5-3ni ko'ring

Uzoqni yoritishning avtomatik o'chirilishi, agar tizim quyidagi sabablardan biron biri bo'yicha boshqa avtomobilning yorug'ligini aniqlash uddasidan chiqmasa, ishlamasligi mumkin:

- Boshqa avtomobilda yoritish uskunalari mavjud emas yoki shikastlangan, ularning yorug'ligi to'siqlar sababli ko'rinmay turibdi yoki boshqa sabablar bo'yicha aniqlanmagan.
- Boshqa avtomobilning yoritish uskunalari loy, qor va (yoki) yo'l sachratmalari bilan qoplangan.
- Boshqa avtomobilning yoritish uskunalari quyuq chiqindi gazlar, tutun, tuman, qor, yo'l sachratmalari, qirov yoki havoda moddalarning har qanday yoyilishi sababli aniqlanmaydi.
- Avtomobilning old oynasi loy yoki darzlar bilan qoplangan, yoki yorug'lik datchigi biron bir begona buyum bilan to'silgan.
- Avtomobil shunday ortiqcha yuklanganki, uning oldi old yorug'lik datchigi bilan birgalikda tepaga ko'tarilgan, shuning uchun unga bosh faralarning yoki orqa chiroqlarning yorug'ligini aniqlash imkonsiz bo'lib qolmoqda.
- Avtomobil ilonizi yoki baland-past yo'l bo'yicha harakatlanmoqda.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlardan biron birida uzoqni yoritish faralarini avtomatik yoqilishini, ehtimol, o'chirib qo'yish kerak.

Tashqi yoritish uskunalari o'chirilmaganligi haqida eslatma

Bosh faralar yoki to'xtab turish chiroqlari qo'lda yoqilganida, avtomobil o'chirilganida va istalgan eshiklardan biri ochilishida ovozli signal uzatiladi. Ovozli signalni uzatilishini to'xtatish uchun, yoritish uskunalarini o'chirib qo'ying.

Uzoq/yaqin chiroqlar o'zgartirgichi

Uzoqni yoritish chirog'ini yoqish uchun, burilish ko'rsatkichi dastachasini o'zingizdan bosing va qo'yib yuboring.

Yaqinni yoritish chirog'ini qayta yoqish uchun, ushbu dastachaga qayta bosing yoki o'zingiz tomonga torting va qo'yib yuboring.

Uskunalar qalqonchasida ushbu indikator, uzoqni yoritish bosh faralari yoqilishida, yorishib turadi.

Faralarni uzoq chiroqlari bilan qisqa muddatli signallarni uzatish

Ushbu funksiya uzoqni yoritish faralari bilan quvib o'tishga istagingizni oldinda ketayotgan avtomobil haydovchisiga signal uzatishga imkon beradi. U hattoki qachon bosh faralar avtomatik rejimga o'tkazilganida ham ishlaydi.

Ushbu funksiyadan foydalanish uchun, burilish ko'rsatkichlari o'zgartirgichi dastachasini o'zingizga torting va darhol qo'yib yuboring.
Agar bosh faralar avtomatik rejimga o'tkazilgan yoki yaqinni yoritish chiroqlariga o'tkazilgan bo'lsa, u holda ular uzoqni yoritishga o'tadi. Ularning turiga bog'liq holda, bosh faralar yo yaqin vaqtda o'chadi, yoki toki siz dastachani ushlab turguningizcha, yoqilgan holatda qoladi. Bunda uskunalar qalqonchasida uzoqni yoritish indikatori yorishib turadi. Odatiy rejimga qaytish uchun, dastachani qo'yib yuboring.

Kunduzgi chiroqlar

Kunduzgi vaqtda kunduzgi yurish chiroqlari boshqa avtomobillarning haydovchilariga oldilarida sizni avtomobilingizni oson sezib qolishga imkon beradi.
Kunduzgi yurish chiroqlari quyidagi barcha sanab o'tilgan shartlarga rioya qilinishida yoqiladi:

- Avtomobil ishga tushirilgan.
- Tashqarini yoritish lampalarini boshqarish avtomatik (AUTO).
- Tashqi yoritish datchigi signali ko'chada kunduzgi vaqtligini ko'rsatadi.

Kunduzgi yurish chiroqlari yoqilgan vaqtda, orqa va boshqa chiroqlar yoqilmaydi. Kunduzgi yurish chiroqlarini o'chirish uchun, tashqarini yoritish o'chirgichini ≡D◐ yoki ≡D holatga o'tkazing.

Faralarni boshqarishning avtomatik tizimi

Agar tashqari yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO (avtomatik rejim) holatga o'rnatilgan va bort ortida yetarlicha qorong'u bo'lsa, yaqinni yoritish faralari avtomatik yoqiladi.

Uskunalar panelining tepa qismida yoritish datchigi o'rnatilgan. Datchikni hech narsa bilan to'sib qo'ymang, aks holda faralar, hattoki bu talab etilmagan hollarda ham yoqiladi.
Tizim, shuningdek, yopiq to'xtatib turish bo'ylab yoki tunnelda harakatlanishda faralarni yoqishi mumkin.
Qorong'u garajda dvigatelni ishga tushirishda yoritish uskunalarini avtomatik boshqarish tizimi darhol yoqiladi. Agar avtomobilning garajdan chiqib kelishida, tashqari yorug' bo'lib qoladigan bo'lsa, u holda katta bo'lmagan kechikish bilan bosh faralarni avtomatik boshqarish tizimi kunduzgi yurish chiroqlarini yoqadi. Bunday kechikishda uskunalar qalqonchasining yoritilishi odatdagidek nuchalik yorqin bo'lmaydi. Uskunalar panelining yorug'ligini sozlagichi maksimal yorug'likka o'rnatilganligiga ishonch hosil qiling. Uskunalar panelini yoritilishini boshqarish ⇨5-6ni ko'ring.
Yetarlicha yoritilganlik sharoitlarida faralar o'chadi yoki kunduzgi yurish chiroqlari rejimiga o'tadi.
Tashqi yoritish uskunalarini avtomatik boshqarish o'zgartirgichni ⏻ holatga o'tkazishda, hamda o't oldirish o'chirilganida, o'chadi.

Oyna tozalagichlar bilan yoritishni yoqish

Agar tashqi yoritish uskunalarini boshqarish o'zgartirgichi AUTO holatga o'rnatilishi shartida ishga tushirilgan dvigatel bilan kunduzgi yorug'likda old oyna tozalagichlari yoqilsa, u holda faralar, to'xtab turish chiroqlari va boshqa tashqarini yoritish yoqiladi. Yoritishning yoqilish vaqti oyna tozalagichlarning ishlash tezligiga bog'liqdir. Oyna tozalagichlar ishlamayotganida, yoritish o'chadi. Ushbu funksiyani o'chirish uchun tashqarini yoritish o'zgartirgichini ≡D◐ yoki ⏻ holatga burang.

Avariya yorug'lik signalizatsiyasi



⚠ :Ushbu klavishaga bosish chaqnash rejimida burilishni oldingi va orqa ko'rsatkichlarini yoqadi. Yorug'lik signalizatsiyasini o'chirish uchun, qayta bosing. Agar avariya yorug'lik signalizatsiyasi yoqilgan bo'lsa, burilish ko'rsatkichlari ishlamaydi.

Burilish va harakatlanish chizig'ini o'zgartirish signallari



Uskunalar qalqonchasida burilish yo'nalishiga yoki harakatlanish chizig'ini o'zgartirishga ko'rsatuvchi strelka miltillaydi.
Burilish ko'rsatkichlarini yoqish uchun, burilish ko'rsatkichlari o'zgartirgichi dastachasini to'liq pastga yoki tepaga suring.
Harakatlanish chizig'ini almashtirishga ko'rsatuvchi strelka miltillagunicha sekunddan tezroq vaqtda dastakni ko'taring yoki tushiring. Bunda burilish ko'rsatkichlari uch marta miltillaydi. Agar shataklash rejimi yoqilgan bo'lsa, ko'rsatkich olti marta miltillaydi. Agar burilish ko'rsatkichlari o'zgartirgichi dastachasini bir sekunddan ortig'iga ushlab turilsa, u holda ko'rsatkichlar, toki haydovchi dastachani qo'yib yubormagunicha, miltillaydi. Qo'yib yuborilgan dastacha dastlabki holatga qaytadi.

Agar indikator strelkalari tez miltillayotgan yoki burilish signali uzatilishidan keyin yorishmayotgan bo'lsa, ehtimol, ko'rsatkich lampasi quyib qolgan.
Barcha kuygan lampalarni almashtiring. Agar lampa kuymagan bo'lsa, saqlagichni tekshiring. Saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar ⇨ 9-26 ni ko'ring.

Burilish ko'rsatkichini ovozli signali

Agar avtomobil 1,2 km (0,75 mil)dan ortiq masofani bosib o'tishidan keyin burilish ko'rsatkichi yoqilgan holatda qolsa, u holda uning har bir miltillashida ovozli signal uzatiladi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida TURN SIGNAL ON (SIGNAL YOQILGAN) xabarnomasi yorishadi. Ovozli signalni uzatilishini to'xtatish va ekrandan xabarnomani olib tashlash uchun, dastacha bilan burilish ko'rsatkichini o'chiring.

SALONNI YORITISH

Orqa tumanga qarshi chiroqlar



Orqa tumanga qarshi chiroqlar tuman yoki mayda yomg'ir sharoitlarida avtomobil orqasidagi ko'rish maydonini yaxshilaydi.

: Orqa tumanga qarshi chiroqlarni yoqish yoki o'chirish uchun, uni bosing.

Orqa tumanga qarshi chiroqlar faqat o't oldirish va yoqilgan to'xtab turish chiroqlari yoki bosh faralar ishlayotganida ishlaydi.

Uskunalar panelini yoritilishini boshqarish



Ushbu funksiya boshqaruv organlarining yoritilish yorug'ligini sozlashga imkon beradi. Tashqi yoritish o'chirgichi ustidagi uskunalar paneli yoritilishini boshqarish.

: Yoritilganlik - va + tugmalari bilan sozlanadi. Ushbu funksiya tungi vaqtda, hamda bosh faralar yoki to'xtab turish chiroqlari yoqilishida ishlaydi.

Shift plafonlari

Tepa konsolda va shiftning qoplamasida yoritish plafonlari joylashtirilgan.

Shift plafonlarini sozlamalarini o'zgartirish uchun quyidagini bosing:

OFF : Biron bir eshikni ochishda, plafonlarini o'chirish uchun ushbu tugmani bosing. Shift plafonlari bloklangan vaqtda, indikatorga o'rnatilgan indikator yorishib turadi.

OFFga bosish bilan blokirovka o'chiriladi, bunda nurli indikator o'chadi.

Shift plafonlari istalgan eshiklar ochilganda, radiobrelokda tugmaga bosilganda, hamda o't oldirish o'chirishda yoqiladi.

Bir vaqtda barcha plafonlarni qo'lda yoqish yoki o'chirish uchun, tepa konsoldagi istalgan linzani bosing va ushlab turing.

O'qish uchun lampalar

O'qish uchun mo'ljallangan chiroqlar yuqori konsol va orqa o'rindiqlar ustida joylashgan. Ular, har qanday eshik ochilganda yonadi.

O'qish uchun mo'ljallangan old chiroqlar

O'qish uchun mo'ljallangan oldi chiroqlarni boshqarish tugmalari, yuqori konsolda joylashgan. O'qish uchun mo'ljallangan oldi chiroqlarni yoqish yoki o'chirish uchun, ularni bosing.

O'qish uchun mo'ljallangan orqa chiroqlar

O'qish uchun mo'ljallangan orqa chiroqlar, orqa o'rindiqlar ustida joylashgan.



Tiniq lyuksiz



Shaffof lyukli

Yakka yoritish lampasini yoqish yoki o'chirish uchun, uning linzasiga bosing.

YORITISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI

Avtomobilga o'tirishda yorug'likning yoqilishi

Salondagi lampalar, agar yoritish plafonlarining o'chirgichi DOOR holatda joylashtirilgan bo'lsa, radiobrelokda tugmasini bosishda yoki avtomobilning istalgan eshigi ochilgan vaqtda yoqiladi.

Radiobrelokda tugmasini bosish yoki avtomobilning istalgan eshiklarini ochish bilan tashqarini yoritishning alohida uskunalari ham yoqiladi. Sutkaning qorong'u vaqtida yoki yetarlicha yoritilmagan joylarda qisqa vaqtga yaqinni yoritish faralari yoqiladi.

Taxminan 30 sekund o'tgandan keyin hamma yoritishlar ravon o'chadi.

O'tirish yoritilishini qo'lda o'chirish uchun, barcha eshiklarni yoping, radiobrelokda tugmasini bosing yoki avtomobilni ishga tushiring.

Bu funksiyani o'zgartirish mumkin. Ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi Settings (Sozlamalar) belgisini tanlang > Vehicle (Avtomobil) > Vehicle Locator Lights (To'xtash chiroqlari).

Chiqishda yoritilganlik

Tashqarini yoritish va salonni yoritishning alohida uskunalari o't oldirish o'chirilganidan keyin haydovchining eshigi ochilgan vaqtda yoqiladi.

O't oldirish o'chirilishida salonni yoritish plafonlari yoqiladi.

Tashqi yoritish va salonni yoritish plafonlari bir necha vaqt davomida yoqilgan holatda qoladi, so'ngra esa avtomatik o'chadi.
Tashqi lampalar tashqarini yoritish uskunalarini boshqarish tutqichini darhol "off" (o'chirilgan) holatga o'tkazilishidan keyin o'chadi.
Bu funksiyani o'zgartirish mumkin. Ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi Settings (Sozlamalar) belgisini tanlang > Vehicle (Avtomobil) > Exit Lighting (Avtomobildan chiqishda yoritishni yoqish).

Akkumulator yuklamasini boshqarish

Avtomobil elektr oziqlanishni boshqarish tizimi (EPM) bilan jihozlangan, u akkumulatorning haroratini va quvvati darajasini baholaydi. So'ngra u eng yaxshi ish unumdorligiga erishish va akkumulatorning xizmat muddatini yaxshilash uchun kuchlanishni tartiblashtiradi.
Akkumulator quvvatsizlangan vaqtda, akkumulatorning quvvatini tez tiklash uchun kuchlanish ozgina oshadi. Akkumulator quvvatlangan vaqtda, akkumulator haddan tashqari quvvatlanishidan saqlanish maqsadida kuchlanish pasayadi. Voltmetr yoki haydovchini axborot markazi (DIC) displeyi ekranida kuchlanishni ko'rsatkichlari istalgan tomonlarga o'zgarishi mumkin. Bu me'yordagi holat. Muammo holatida ogohlantirish paydo bo'ladi.
Akkumulator juda katta elektr yuklanishi holatida bo'sh yurishda quvvatsizlanishi mumkin. Bu barcha avtomobillarga tegishlidir. Bu generator (o'zgaruvchan tokning sinxron generatori) barcha iste'molchilarga oziqlanishni uzatish uchun zarur bo'lgan butun elektr energiyani ishlab chiqish uchun bo'sh yurishda yetarli bo'lmagan tez aylanishi bilan bog'liqdir.
Yuqori elektr yuklamasi quyidagi bir nechta qurilmalarni bir vaqtda yoqishda yuzaga keladi: faralar, uzoqni yoritish, tumanga qarshi faralar, orqa oyna isitgichi, iqlim-nazorat ventilatorining yuqori tezligi, o'rindiqlar isitgichi, dvigatelni sovitish ventilatorlari, tirkamani oziqlantirish qurilmasi, hamda yordamchi ulagichlar orqali ulangan oziqlanish iste'molchilari.
EPM tizimi akkumulatorning haddan tashqari quvvatsizlanishini oldini oladi. Bu generatorning chiquvchi quvvatini va avtomobilning elektr oziqlanishidagi ehtiyojlarini tenglashtirish yordamida sodir bo'ladi. Zarurat tug'ilganida, u qo'shimcha oziqlanishni ishlab chiqarish uchun bo'sh aylanishda dvigatelning aylanish chastotasini oshirishi mumkin. U yordamchi qurilmalarni elektr oziqlanishdan vaqtinchalik o'chirishi mumkin.
Odatda, bu harakatlar bosqichma-bosqich va sezilmasdan amalga oshiriladi. Kam holatlarda tuzatish kirituvchi harakatlarning eng yuqori darajasida haydovchi ularni sezishi mumkin. Ushbu holatda haydovchining axborot markazi displeyida xabarnoma chiqarilishi mumkin, bunda tizimga elektr yuklamani maksimal darajada pasaytirish tavsiya etiladi.

Akkumulator batareyasini quvvatsizlanishidan himoya

Ushbu funksiya akkumulator batareyasining quvvatsizlanishini, agar salonni yoritish yoki yakka tartibdagi yoritish plafonlari tasodifan yoqilgan holatda qoldirilsa, oldini olishi mumkin. Agar salon yoritgichlaridan biron biri yoqilgan holatda qoldirilgan bo'lsa, ular, agar o't oldirish o'chirilgan bo'lsa, 10 minut o'tgandan keyin avtomatik o'chadi. Quyidagi holatlardan biri sodir bo'lmagunicha yoritgichlar yonmaydi:

- O't oldirishni yoqish.
- Eshiklarni yopilishi va ularning keyingi ochilishi.

Tashqi yoritish uskunalari ishlashida akkumulator quvvatini tejash tizimi

Agar to'xtab turish chiroqlari yoki faralar qo'lda yonib turishga qoldirilgan bo'lsa, tashqarini yoritish uskunalari o't oldirishni o'chirilgan holatga o'tkazishdan keyin taxminan 10 minut o'tgandan keyin o'chadi. Bu akkumulatorning to'liq quvvatsizlanishidan himoyani ta'minlaydi. 10-minutli taymerni qayta ishga tushirish uchun, tashqarini yoritish uskunalarini ⏻ holatga va so'ngra ≡D◐≡ yoki holatga burang.
Yoritish uskunalari 10 minutdan ortiq vaqtga yoqilgan holatda qolishi uchun. o't oldirish o'zgartirgichi "yoqilgan" holatga yoki ACC/ACCESORY dan o'rnatilgan bo'lishi kerak.

6 AXBOROT-KO'NGILOCHAR TIZIMI

- KIRISH 6-2
- RADIOPRIYOMNIK 6-8
- AUDIOPLEYERLAR 6-11
- TELEFON 6-21
- SOZLAMALAR 6-32
- SAVDO BELGILARI VA LITSENZION KELISHUVLAR 6-36
- IZOH 6-38

KIRISH

Asosiy funksiyalar bilan tanishish uchun quyidagi sahifalarda keltirilgan tavsiflarni o'qib chiqing.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Axborot-ko'ngilochar tizimning biron bir funksiyasiga yo'ldan uzoq vaqtga yoki juda tez-tez chalg'ib, siz avariya holatini yuzaga keltirishingiz mumkin. Bu sizga qanday bo'lsa, atrofdagilarga ham huddi shunday jarohatlar yetkazish, hattoki halokatli oqibatlarni keltirishi mumkin. Avtomobilni boshqarish vaqtida axborot-ko'ngilochar tizimga uzoq vaqtga chalg'imang. Displeylarning ekranlariga juda tez-tez chalg'imasdan, avtomobilni boshqaruviga e'tiboringizni jamlang. Iloji boricha tovoshli buyruqlardan foydalaning.

Axborot-ko'ngilochar tizim harakatlanish vaqtida ba'zi funksiyalarni o'chirish hisobiga chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish uchun o'rnatilgan imkoniyatlarga ega. Erishimli bo'lmagan funksiyalar kulrang bilan qorong'ulashtirilishi mumkin. Axborot-ko'ngilochar tizimning ko'pgina funksiyalariga kirish, shuningdek, uskunalar majmuasi orqali va rul chambaragidagi boshqaruv organlari yordamida erishimlidir.

Ekspluatatsiya qilishni boshlashdan avval:

- Axborot-ko'ngilochar tizimning, uning displeyi va markaziy konsoldagi va rul chambaragidagi boshqaruv organlarining ishlashi bilan tanishib chiqing.
- Tembrni o'rnatib va karnaylarni sozlab, oldindan sevimli stansiyalarni o'rnatib, audiotizimni sozlang.
- Telefon raqamlarini bir klavishaga bosish yoki bir ovozli buyruq bilan oson amalga oshirish mumkin bo'lishi uchun ularning zarurlarini oldindan dasturlab qo'ying.

Haydashda e'tiborni chalg'itish ⇨ 8-2ni ko'ring.

Faol shovqinni bostirish tizimi (ANC)

Agar jamlanmada mavjud bo'lsa, ANC avtomobil salonidagi dvigatel shovqini darajasini pasaytiradi. ANCning tegishli tarzda ishlashi uchun zavodda o'rnatilgan audiotizim, radiopriyomnik, karnaylar, kuchaytirgich (agar jamlanmaga kirsa), kiritish tizimi va chiqindi gazlarni chiqarish tizimi mavjudligi talab etiladi. Sizning dileringiz sotuvdan keyin muvofiq asbob-uskunalarni o'rnatish holatida tizimni faolsizlantirishi kerak.

Qisqacha ma'lumot
Axborot-ko'ngilochar tizim

Axborot-ko'ngilochar tizimi displey, markaziy konsoldagi va rul chambaragidagi boshqaruv organlari, hamda ovozli buyruqlar yordamida boshqariladi. (agar jamlanma bilan ko'zdatutilgan bo'lsa).



1. ⏻ (quvvat)
- Tizimni yoqish uchun tugmaga bosing.
- Tizim yoqilganda uning ovozini o'chirish/yoqish uchun bosing.
- Quvvatni o'chirish oynasini aks ettirish uchun yoki quvvatni o'chirish oynasini ko'rsatish parametrini aks ettirish uchun, bosing va ushlab turing
- Burash bilan tovush balandligi pasaytiriladi yoki ko'tariladi.

2. ⏮
- Radiopriyomnik: Bosish bilan oldingi stansiyaga yoki kanalga o'tish bajariladi. Ketma-ket oldingi stansiyalarga yoki kanallarga o'tish uchun bosing va ushlab turing. AM-FM radiosi (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-9 yoki AM-FM radiosi (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-8ni ko'ring.
- USB/Bluetooth. Joriy yoki oldingi kompozitsiyaning boshiga o'tish uchun bosing. Oldingi yozuvlarga ketma-ket o'tish uchun bosing va ushlab turing. Ijro etishni me'yordagi tezlikda davom ettirish uchun qo'yib yuboring. USB-port ⇨ 6-11 yoki Bluetooth orqali tovushni ijro etish (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik ⇨ 6-11 yoki Bluetooth orqali tovushni ijro etish (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-12ni ko'ring.

3. ⌂
- Bosh sahifaga o'tish uchun bosing. "Bosh sahifa" bandini quyida ushbu bo'limda ko'ring.
- Android Auto yoki Apple CarPlaydan chiqish uchun bosing. Android Auto yoki Apple CarPlayga qayta kirish uchun bosing va ushlab turing. Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-31 yoki Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-29ni ko'ring.

4.
- ⏭ Radiopriyomnik: Bosish bilan keyingi stansiyaga yoki kanalga o'tish bajariladi. Keyingi stansiyalarga yoki kanallarga ketma-ket o'tish uchun bosing va ushlab turing.
- USB/Bluetooth. Keyingi kompozitsiyaga o'tish uchun bosing. Keyingi yozuvga ketma-ket o'tish uchun bosing va ushlab turing. Me'yordagi tezlikda ijro etishni davom ettirish uchun qo'yib yuboring. USB-port ⇨ 6-11 yoki Bluetooth orqali tovushni ijro etish (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-11 yoki Bluetooth orqali tovushni ijro etish (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik ⇨ 6-12 ni ko'ring.

5. ◁ BACK
• Menyuda bo'lib turishda oldingi ekranga qaytish uchun bosing.
6. ✓ (kompakt-diskni chiqarib olish)
• Audioilovada bo'lib turishda tyuner diapazoniga o'tish uchun burang (AM/FM/SXM/DAB, agar erishimli bo'lsa). Tyunerdan farqlanadigan manbalar qo'llab turilmaydi. Telefonni ulash uchun ilovalarda ro'yxatni varaqlash uchun buring.

Bosh sahifa

Bosh sahifa - bu avtomobil ilovalarining belgilari joylashgan sahifadir. Avtomobil harakatlanayotgan vaqtda ba'zi ilovalar erishimli bo'lmasligi mumkin.
Belgilar sahifasiga o'tish uchun, displey bo'ylab barmoq bilan chapga yoki o'ngga o'tkazing.

Bosh sahifadagi belgilarni boshqarish

1. Tahrirlash rejimiga o'tish uchun, bosh sahifaga joylashtirilgan belgilardan istalganini bosing va ushlab turing.
2. Displeydan barmoqni uzmasdan, belgini kerakli joyga surib o'tkazing.
3. Belgini yangi joyda mahkamlash uchun, belgini qo'yib yuboring.

Piktogrammani boshqa sahifaga o'tkazish

1. Piktogrammani ekran chetiga kerakli sahifa tomonga surib o'tkazing.
2. O'z ixtiyoringiz bo'yicha tashqi ko'rinishni sozlash uchun, belgilarni surib o'tkazishda davom eting.

Piktogrammaning ilovalar bo'lmachasiga o'tkazish

Faqat yuqori darajadagi avtomagnitolalarga tegishli:
Ekranning chap tomonidagi ilovalar bo'lmachasiga piktogrammani o'tkazish uchun, uni bo'lmachaga surib o'tkazing.

Rul chambaragidagi boshqaruv organlar



Audiotizimning ba'zi funksiyalarini boshqarish, rul chambaragidan amalga oshirish mumkin, agar unda muvofiq boshqaruv organlari ko'zda tutilgan bo'lsa.
: kiruvchi qo'ng'iroqqa javob berish yoki ovoz bilan boshqarishni yoqish uchun bosing. Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va uni ishlatish - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-25 yoki Bluetooth kanali (Qisqacha ma'lumot) ⇨ 6-21 yoki Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va ishlatish - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-22 ni ko'ring.
: Kiruvchi qo'ng'iroqni qabul qilishdan voz kechish yoki joriy so'zlashuvni yakunlash uchun bosing. Siz telefon orqali so'zlashmayotgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizimni yoqish yoki uni o'chirish uchun bosing.



Tanlanganlarni o'zgartirish va ovozni sozlash klavishalari rul chambaragining orqa tomonida joylashgan.
1. Tanlanganlar: Radioni eshitish vaqtida ushbu klavishalarning bosilishi tanlangan stansiyalar ro'yxatidan keyingi yoki oldingi radiostansiyalarga o'tish imkonini beradi. Boshqa multimedia qurilmalarini eshitish vaqtida ushbu klavishalarning bosilishi keyingi yoki oldingi kompozitsiyalarga o'tish amalga oshiriladi.
2. Ovoz balandligi: ovoz balandligini pasaytirish yoki oshirish uchun bosing.

Tizimning qo'llanilishi

Audiotizim

Sado berishning faol manbai sahifasini ochish uchun, Audio belgisiga tegining. Manbalarning misollari: AM, FM, USB, AUX va Bluetooth.

Telefon

Telefonni boshqarish uchun asosiy sahifani ochish uchun, Telefon belgisiga tegining. Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va ishlatish - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-25 yoki Bluetooth kanali (Qisqacha ma'lumot) ⇨ 6-21 yoki Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va ishlatish - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-22ni ko'ring.

Sozlamalar

"Sozlama" menyusini ochish uchun "Sozlama" belgisiga tegining. Sozlamalar (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-32 yoki Sozlamalar (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-34ni ko'ring.

Apple CarPlay

Qo'llab turiluvchi qurilmani (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) ulashdan keyin Apple CarPlayni faollashtirish uchun, Apple CarPlay belgisiga tegining. Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-31 yoki Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-29ni ko'ring.

Android Auto

Qo'llab turiluvchi qurilmani (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) ulashdan keyin Android Autoni faollashtirish uchun, Android Auto belgisiga tegining. Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-31 yoki Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-29ni ko'ring.

Yorliqlar bo'linmasi

Yorliqlar ro'yxati yuqori darajadagi avtomagnitolalarning displey ekranida chap tomonida joylashgan. U yerda beshta ilovalargacha ko'rsatiladi.
Asosiy darajadagi avtomagnitolalarda yorliqlar ro'yxati, displey ekranining pastki qismida joylashgan. Unda to'rtta ilovalargacha ko'rsatiladi

Axborot-ko'nilochar tizimi displeyining elementlari

Axborot-ko'ngilochar tizimi displeyining funksiyalari, agar ular erishimli bo'lsa, displeyda aks ettiriladi. Erishimli bo'lmagan funksiyalar kulrang bilan qorong'ulashtirilishi mumkin. Teginishda funksiya ajralib turishi mumkin.

Axborot-ko'ngilochar tizimni boshqarish uchun ishoralar

Axborot-ko'ngilochar tizimni boshqarish uchun quyidagi ishoralarni qo'llang.

Teginish/bosish



Teginish/bosish belgi yoki opsiyani tanlash, ilovalarni ishga tushirish yoki karta joylashish joyini almashtirish uchun qo'llaniladi.

Teginish va ushlab turish



Teginish va ushlab turishni boshqa ishorani boshlashdan oldin yoki ilovalarni joyini almashtirish yoki ularni o'chirib yuborish uchun qo'llash mumkin.

Tortib o'tkazish



Tortib o'tkazish bosh sahifada ilovalarni joyini o'zgartirish yoki kartani ko'rish uchun qo'llaniladi. Obyektni tortib o'tkazish uchun, uni ushlab turish va, qo'yib yubormasdan, displey bo'ylab yangi joyga o'tkazish zarur. Siz obyektlarni tepaga, pastga, o'ngga, chapga o'tkazishingiz mumkin. Ushbu funksiya faqat avtomobil to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lsagina, ya'ni harakatlanmayotgan bo'lsa, erishimlidir.

Turtki



Turtki katta bo'lmagan masofaga ro'yxatdagi yoki kartadagi obyektlarni joyini o'zgartirish uchun qo'llaniladi. Turtkini bajarish uchun, ushlab turgan holda, tanlangan obyektni yangi joyga tepaga yoki pastga suring.

Keskin harakat yoki aylantirish



Keskin harakat yoki aylantirish ro'yxat bo'yicha o'tish, kartani ko'rish yoki sahifani o'zgartirish uchun qo'llaniladi.
Ushbu ishorani bajarish uchun, barmoqni displey ekraniga o'rnating va uni tez tepaga/pastga yoki chapga/o'nga siljiting.

Kengaytirish



Kengaytirish karta, muayyan tasvirlar yoki veb-sahifalarning masshtabini kichraytirish uchun qo'llaniladi. Ko'rsatkich va katta barmoqlarni birlashtiring, so'ngra esa ularni ikki tomonga ajrating.

Birlashtirish



Birlashtirish karta, muayyan tasvirlar yoki veb-sahifani masshtabini kattalashtirish uchun qo'llaniladi. Ko'rsatkich va katta barmoqlarni bir-biridan masofada o'rnating, so'ngra esa ularni birgalikda birlashtiring.

Axborot displeyining va audiotizimning yaltiroq yuzalarini tozalash

Yaltiroq yuzalarni va ekranlarni artish uchun mikrofibra matosidan foydalaning. Artib olishdan avval yumshoq cho'tka bilan yuzani tirnashi mumkin bo'lgan iflosliklarni yelpib yuboring. So'ngra yuzani avaylab mikrofibra mato bilan artib oling. Hech qanday holatda yuvish vositalari va eritgichlarni qo'llamang. Mikrofibra matosini, boshqa buyumlardan alohida, yumshoq sovun bilan suvda muntazam yuvib turing. Mato uchun oqartirgichlarni va yumshatgichlarni qo'llamang. Kelajakda qo'llashdan avval yaxshilab chayib oling va quriting.

Dasturiy ta'minotni yangilash

Dasturiy ta'minotni "havo orqali" yangilash

"Havo orqali" dasturiy ta'minotni yangilash (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) haqidagi batafsil ma'lumotlarni Sozlamalar (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-32 yoki Sozlamalar (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-34 bo'limning "Yangilanishlar" bandida ko'ring.

RADIOPRIYOMNIK

AM-FM radio (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik)

Radioni tinglash

Sadoning faol manbai sahifasini ochish uchun bosh sahifada "Audiotizim" belgisiga tegining. Displeyning chap qismida sanab o'tilgan yaqinda qo'llanilgan manbalardan birini tanlang, yoki erishimli manbalar ro'yxatini ochish uchun "Yana" bandiga tegining. Manbalarning misollari: AM, FM, Mening mediaqurilmalarim, USB, AUX (mavjudligida) va Bluetooth.

Axborot-ko'ngilochar tizim ovozining menyusi

Sadoning istalgan manbasini bosh sahifasida quyidagilarni chaqirish uchun "Tovush"ni bosing:

Ekvalayzer: Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida boshqaruv organlari yordamida past, o'rta va yuqori chastotalarni sozlash uchun tegining.

Balans: Axborot-ko'ngilochar tizim displeyida boshqaruv elementlari yordamida yoki chaparastani surib o'tkazish orqali sozlamalarni bajarish uchun tegining.

Stansiyani topish

Stansiyani izlash

AM yoki FM diapazonining ekranida turg'un signalli oldingi yoki keyingi stansiyani izlanishini bajarish uchun markaziy konsolda ⏮ yoki ⏭ ni bosing.

Stansiyalarni ko'rish

AM yoki FM ekranida joylashib, barcha erishimli stansiyalarni chiqarish uchun Ko'rishni bosing. Stansiyalar ro'yxati bo'ylab tepaga va pastga o'tishni ro'yxatni siljitish orqali bajariladi.

Tinglamoqchi bo'lgan stansiyaga tegining. Stansiyani tanlangan sifatida saqlash uchun, ☆ ga tegining.

Turish joyida signali mavjud bo'lgan stansiyalar ro'yxatini yangilash uchun, "Stansiyalar ro'yxatini yangilash" bandiga tegining.

Bevosita sozlash

Bevosita sozlash uchun AM yoki FM ekranida ekran klaviaturasini chaqirish uchun Izlash belgisiga tegining. ⏮ yoki ⏭ tugmalar yordamida barcha chastotalar ro'yxatini tepaga va pastga aylantiring. Ekran klaviaturasi yordamida chastotani kiriting. Yangi stansiyani kiritishda o'ng tomonda ushbu stansiya haqidagi ma'lumot paydo bo'ladi. Ushbu ma'lumot sozlash uchun har bir yangi erishimli chastota paydo bo'lishi bilan yangilanadi.

Chastotaning ruxsat etilmagan kattaligini kiritish urinishida klaviatura kulrang bilan qorong'ulashtiriladi; chastota kattaligidagi o'ntalik bo'lgich avtomatik kiritiladi.

Chastotani kiritishda bitta raqamni o'chirib yuborish uchun, (X)ni bosing, barcha raqamlarni o'chirib yuborish uchun, bosing va ushlab turing.

AM yoki FM radiostansiyasining ruxsat etilgan chastotasini kiritishda radiopriyomnik unga avtomatik sozlanadi, ammo bevosita sozlash darchasi yopilmaydi. Bevosita sozlash

rejimidan chiqish uchun, ekranning tepa qismida < yoki X ni bosing.

Tanlangan radiostansiyalarni saqlash

Tanlangan radiostansiyalar haqidagi ma'lumotlar displeyning tepa qismida joylashgan maxsus zonada aks ettiriladi.

AM yoki FM : ☆ Stansiyani tanlangan joriy stansiya joyiga saqlab qo'yish uchun, Saqlash yoki ekranning tepa qismida avval saqlangan stansiyani bosing va ushlab turing. Tanlangan stansiyani tanlash uchun saqlangan tanlanganga tegining.

Stansiyalarni, shuningdek, stansiyalar ro'yxatida belgisiga teginish bilan tanlangan sifatida saqlash mumkin. U ajratib ko'rsatilgan bo'ladi, bu endi stansiya tanlangan kabi saqlanganligiga ko'rsatadi.

Dastlabki bo'yicha aks ettiriluvchi tanlanganlarning soni avtomatik o'zgaradi, biroq qo'lda o'zgartirilishi ham mumkin, buning uchun "Sozlamalar" – "Tizim" qistirma – "Tanlangan" – "Tanlangan elementlarining soni" o'tishni bajarish zarur. Uni, shuningdek, "Sozlamalar" - "Ilovalar" qistirma - "Audio" - "Tanlangan elementlarining soni" o'tishni bajarib, o'zgartirish mumkin.

AM-FM radio (Kentgaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik)

Radioni tinglash

Axborot-ko'ngilochar tizimning boshlang'ich ekranida tovushning faol manbai uchun dolzarb ma'lumotlarga ega bo'lgan darchani ochish uchun Audiotizim nishonchasini bosing. Tovush manbaini almashtirish uchun, muvofiq tugmaga tegining (masalan, FM yoki AM).

Stansiyani topish

Stansiyani izlash

AM yoki FM ekranida bo'lib turib, turg'un signalga ega bo'lgan oldingi yoki keyingi stansiyani izlashni bajarish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida ⏪ yoki ⏩ ni bosing.

Izlash

Puxta sozlash oynasini ochish uchun, ma'lumot –ko'ngilochar tizim displey ekranidagi tugmasini bosing. Ekran klaviaturada chastotani kiriting. Saralanganlar ro'yxatidagi stansiyani saqlash uchun, ☆ tugmasini bosing.

Mavjud AM yoki FM chastotasi kiritilganda, radio qabul qilgich avtomatik ravishda stansiyaga sozlanadi va puxta sozlash oynasi yopilmaydi

Stansiya signalini qabul qilish uchun, "Ishga tushirish" tugmasini yoki ro'yxatdagi kerakli chastota nomini bosing. Puxta sozlash oynasi yopiladi va joriy ijro oynasiga o'zgaradi.

Tanlangan radiostansiyalarni saqlash

Tanlangan radiostansiyalar haqidagi ma'lumotlar displeyning pastki qismida joylashgan maxsus zonada aks ettiriladi.

AM yoki FM diapazaonda ishlayotgan saralangan stansiyalarini, saqlangan sozlamalar ro'yxatini bosib va ushlab turish orqali saqlash mumkin

Audio tizim sozlamalari

Ovoz sozlamalari hududga qarab farq qiladi.

Ovoz parametr sozlamalari mintaqaga ko'ra farq qiladi.

Joriy ijro oynasida tugmasini bosish orqali, quyidagi parametrlarni ekranga chiqarish mumkin.

Ovoz

- Ekvalayzer
- Balans
- Ovoz rejimi (tegishli to'plam mavjud bo'lsa)

Bose Audio Pilot texnologiyasi

Ushbu texnologiya, agar toplamda mavjud bo'lsa, salondagi shovqinga va avtomobilning xarakatlanish tezligiga ko'ra, balandlikni moslashtiradi

Saqlangan sozlamalarni boshqarish

Bunda, ko'chirilishi yoki o'chirilishi mumkin bo'lgan audio tizimning saqlangan sozlamalar ro'yxatini ko'rsatadi.

Radioda matn uzatish (RDS)

Ushbu xususiyat yoqilganda, radiostantsiya, ekranga xabarlar ko'rinishida chiqarilgan matnni xarflab talaffuz qiladi

Radioga uzatilayotgan matn toifasi

Ushbu xususiyat yoqilganda, ekranda hozirda uzatilayotgan matn toifasi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Radio ma'lumotlar tizimi (RDS)

RDS tizimi, uzatiladigan radiokanal orqali, RDS radiosistantsiyasida uzatilayotgan qo'shimcha ma'lumot qabul qilish imkonini beradi, shuning uchun, u faqat bunday ma'lumot uzatilayotganda ishlaydi.

Stantsiya bunday ma'lumotlarni uzatishi mumkin, buning natijasida radio qabul qilgichning ishlashida nosozliklar paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, RDS tizimining xususiyatlar to'plami, muayyan xudud yoki mamlakatga ko'ra farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, RDS tizimi orqali uzatilayotgan muayyan ma'lumotlar, avtomobil foydalanilayotgan hudud yoki mamlakatda mavjud bo'lmasligi mumkin.

RDS tizimining xususiyatlari, yuqorida aytilangan “Audio tizim sozlamalari” oynasida yoqiladi va o'chiriladi.

Sizning hududingizdagi ishlayotgan radiostantsiyalar, quyidagi keltirilgan RDS tizim xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

RDS tizimining xususiyatlari

- Radiostantsiya tomonidan uzatiladigan matnni ekranga harfma-harf chiqarish
- Radiostansiyalar tomonidan uzatiladigan xabarlarni ekranga chiqarish
- Radiostansiyaning eshittirislarning toifasi haqidagi ma'lumotlarni ekranga chiqarish (mavjud bo'lsa)

Radiosignalni qabul qilish

Radiotranslyatsiyaning elektr magnit yoki statik xalallari yuzaga kelganida elektr qurilmalarni uzib qo'ying.

FM

FM diapazonidagi signallarning yaxshi qabul qilinishi 16 km.dan 65 km.gacha masofada ta'minlanadi. Radiopriyomnikka xalallarni pasaytirish uchun maxsus elektron sxema o'rnatilganligiga qaramasdan, katta bo'lmagan xalallarning, ayniqsa ovozning so'nib qolishi va kuchayishini chaqiruvchi binolar yoki tepaliklar atrofidagi hududlarda baribir mavjud bo'lish ehtimoli bor.

AM

AM diapazonidagi ko'pchilik stansiyalarning qabul qilish masofasi FM diapazonidagi radiostansiyalarga qaraganda, ayniqsa, tunda, ancha yuqoridir. Radiostansiya chastotasining oraliq masofasini ortishida bir-birlariga xalallarni chaqirishi mumkin. Xalallar, shuningdek, momaqaldiroqda yoki elektr uzatish tarmoqlari ostidan harakatlanishda yuzaga kelishi mumkin. Ushbu holatda xalallarning mavjudligida radiostansiyadagi yuqori chastotalarni darajasini pasaytirishga urinib ko'ring.

Mobil qurilmadan foydalanish

Mobil qurilmani qo'llanilishi, xususan, kiruvchi va chiquvchi qo'ng'iroqlarni bajarish, akkumulator batareyasini quvvatlash va oddiygina mobil qurilmaning yoqilgan holatda bo'lishi, radiosignallarning qabul qilinishiga statik xalallarni chaqirishi mumkin. Ushbu holatda mobil qurilmani uzib qo'yish yoki o'chirib qo'yish zarur bo'ladi.

AUDIOPLEYERLAR

Ko'p polosali antenna

Jamlanmaga bog'liq holda tomdagi antenna radiopriyomnik, navigatsion tizim va OnStar tizimi bilan qo'llanilishi mumkin. Signalni maqbul qibul qilinishi uchun begona buyumlar bilan antennani to'sib qo'ymang. Agar avtomobil shift lyukiga ega va ushbu lyuk ochiladigan bo'lsa, qabul qilish yomonlashishi mumkin.

Ishonchsiz tashuvchi qurilmalaridan foydalanmang

USB va mobil qurilmalar kabi media qurilmalardan foydalanayotganda, ularning kelib chiqishiga e'tibor bering. Ishonchsiz qurilmalarda, tizimning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan fayllar bo'lishi mumkin. Bunday qurilmalardan foydalanmaslik kerak.

USB-port

Avtomobil bir nechta USB portlari bilan jixozlangan bo'lishi mumkin. Portlardan qurilmalarni quvvatlash maqsadida xam foydalanish mumkin. USB-portlariga ulangan qurilmalardan musiqa yoqish mumkin.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Avtomobil shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun, avtomobilning bort tarmog'idan ishlatilmayotgan qo'shimcha asbob-uskunalarni va ularning kabellarini uzib qo'yish lozim bo'ladi. Bort tarmog'iga ulangan va oxirgi qurilmadan uzib qo'yilgan holda qoldirilgan kabel ishdan chiqishi yoki qisqa tutashuv, agar uning bo'sh uchi suyuqlikka tushib qolsa yoki boshqa oziqlanish manbaiga, masalan, ulagichga tutashtirib qo'yilsa, sababi bo'lib qolishi mumkin.

USB interfeysi orqali ovozni ijro etilishi

USB interfeysi orqali ovozni ijro etish uchun:

1. Joriy ijro oynasidagi ovoz manba belgisiga tegib, USBni tanlang.
2. Agar ulangan qurilmalar bo'lmasa, qurilmani bog'lash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.
3. Yozuv formatlari haqidagi ma'lumotlar displey ekranida ko'rinadi.

Bluetooth orqali ovozni ijro qilish (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik)

Musiqaning ijro etilishi Bluetooth ulangan qurilmalari bilan amalga oshirilishi mumkin. Qurilmani ulash bo'yicha yo'riqnomalarni Bluetooth kanal (Telefonni ulash va ishlatish - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨6-25 yoki Bluetooth kanali (Qisqacha ma'lumotlar) ⇨ 6-21 yoki Bluetooth kanali (Telefonni ulash va ishlatish - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-22 bo'limlarda topishingiz mumkin.

Ovoz balandligi va kompozitsiyani tanlashni axborot-ko'ngilochar tizimning boshqaruv organlari yordamida qanday bo'lsa, mobil qurilmaning boshqaruv organlari yordamida ham huddi shunday boshqarish mumkin. Agar Bluetooth rejim tanlangan, ammo ovoz mavjud bo'lmasa, axborot-ko'ngilochar tizimda ovoz balandligi sozlamalarini tekshiring.

Musiqa ijro etilishini displeyning chap qismidagi yaqindagi manbalar ro'yxatida Bluetooth bandiga teginish bilan yoki Bluetooth-qurilmaga

keyingi bosish bilan "Yana" bandiga teginish orqali ishga tushirish mumkin.
Bluetooth orqali ijro etish uchun:
1. Qurilmaning oziqlanishini yoqing va qurilmani ulash uchun bog'lanishni bajaring.
2. Bog'lanishdan keyin bosh sahifada "Audiotizim" bandiga tegining, so'ngra displeyning chap qismida yaqindagi manbalarning ro'yxatida "Bluetooth" bandiga tegining.

Bluetooth ovozi menyusi

"Axborot-ko'ngilochar tizim ovozi menyusi"ni "AM-FM radiosi (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-9 yoki AM-FM radiosi (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-8" bo'limida ko'ring.

Bluetooth-qurilmalarni boshqarish

Bosh sahifada:
1. Audiotizimni bosing.
2. Qurilmalarni qo'shish yoki o'chirish uchun, “Qurilmalar” bandiga bosing.
Bluetooth bandiga teginish paytiga bog'langan qurilmaning audiopleerida ijro etishning ishga tushirilishi imkonsiz bo'lib qolishi mumkin. Avtomobil joyida turgan vaqtda mobil qurilma yordamida ijro etishni ishga tushiring.
Turli xil qurilmalarda ijro etishni ishga tushirish turli usullarda amalga oshiriladi. Sado berish manbai sifatida Bluetoothni tanlashda audiotizimning ekranida "To'xtatilgan" maqomi aks ettirilishi mumkin. Ijro etishni boshlash uchun, qurilmada ijro etish tugmasini bosing yoki displeyda ▷ belgisiga tegining.
Ko'rish funksiyasi Bluetooth qurilmasi tomonidan qo'llab turish mavjudligida erishimli bo'ladi. Ushbu multimedia-kontenti "Mening mediaqurilmalarim" manbasi rejimida erishimli bo'lmaydi.
Ba'zi smartfonlar audiotizim displeyida aks ettirish uchun metama"lumotlarning Bluetooth orqali uzatilish imkonini qo'llab turadi. Ushbu ma'lumotni olishda audiotizim ushbu ma'lumotlar erishimligini tekshiradi va ularni displeyda aks ettiradi. Bluetoothning qo'llab turuvchi funksiyalari haqidagi ancha batafsil ma'lumotni olish uchun dilerga murojaat qiling.

Bluetooth orqali ovozni ijro qilish (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik)

Musiqaning ijro etilishi Bluetooth ulangan qurilmalari bilan amalga oshirilishi mumkin.
Ovoz balandligi va kompozitsiyani tanlashni axborot-ko'ngilochar tizimning boshqaruv organlari yordamida qanday bo'lsa, mobil qurilmaning boshqaruv organlari yordamida ham huddi shunday boshqarish mumkin. Agar Bluetooth rejim tanlangan, ammo ovoz mavjud bo'lmasa, axborot-ko'ngilochar tizimda ovoz balandligi sozlamalarini tekshiring.
Bluetooth orqali ijro etish uchun:
1. Joriy ijro oynasidagi ovoz manba belgisiga tegib, kerakli Bluetooth-qurilmasini tanlang.
2. Agar ulangan qurilmalar bo'lmasa, qurilmani bog'lash uchun ekrandagi ko'rsatmalarga amal qiling.
3. Yozuv formatlari haqidagi ma'lumotlar displey ekranida ko'rinadi.

Bluetooth-qurilmalarni boshqarish

Bluetooth qurilmalarini qo'shish, o'chirish yoki boshqa ulangan qurilmani bog'lash mumkin.
Bir vaqtda bir nechta Bluetooth qurilmalari faol bo'lishi mumkin emas.
Ba'zi mobil qurilmalar radiopriyomnik displeyida aks ettirish uchun musiqiy kompoziyatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni Bluetooth orqali yuborishni qo'llab-quvvatlaydi.

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim (RSI)

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, tizim haydovchi va yo'lovchining o'rindig'i suyanchiqlarida ikki HDMI portiga, ikki juft Bluetooth-quloqchinlar va sensor videoekranlarga ega.

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim −20° C (−4 °F)dan past va 55° C (131 °F)dan yuqori haroratda tegishli tarzda faoliyat yuritmasligi mumkin.

Tizim ishlashini boshqarish

Qo'llash uchun:

1. Uni yoqish uchun, istalgan ekranlarning har qanday joyiga ikki marta tegining; boshlang'ich ekran ochiladi.
2. Ekranni o'chirish uchun, holat satrida ⏻ ni bosing.

Ushbu ekranlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda, hamda oldingi o'rindiqdagi boshqaruv organlari yordamida yoqish va o'chirish mumkin. Ekranni yoqishda multimedia kontentining ijro etilishi to'xtatilmaydi.

Ekranlarni oldingi o'rindiqdagi boshqaruv organlari yordamida bloklash mumkin.

Ijro etish manbalari

- HDMI 1
- HDMI 2
- Ilovalar (jamlanmaga bog'liq holda)

Holat satri:

- ⏻ : Ekranni o'chirish uchun tegining. Ekranni qayta yoqish uchun, uning istalgan joyiga ikki marta tegining.
- 🎧 : Bluetooth-quloqchinlarni sozlash menyusiga o'tish uchun tegining. "Sozlamalar"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.
- ⚙ : Sozlamalar menyusiga o'tish uchun bosing.

HDMI kirishi

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim markaziga HDMI portli qurilmani ular uchun HDMI kabel zarur bo'ladi. Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimning HDMI kirishlariga videoo'yinlarni, disklarning proigrivatellarini, smartfonlarni, planshetlarni, oqimli uzatish qurilmalarni va HDMI chiqishli audiovideoadepterlarni ulash mumkin.

Ilova ekrani



1. Masshtabni sozlash uchun bosing.
2. Sahifalar tarixi bo'yicha orqaga va oldinga o'tish uchun bosing.
3. Sahifani qayta yuklash uchun bosing.
4. Orqa o'rindiq uchun ikkinchi ekranda ekranni takrorlash uchun bosing.
5. Sizib chiquvchi darchani yopish uchun bosing yoki pastga yelpib yuboring. Sizib chiquvchi darcha, shuningdek, agar ekranning istalgan joyiga teginilsa yoki taxminan uch sekund kutib turilsa, g'oyib bo'ladi.
6. Sozlamalar menyusini ochish uchun tegining.
7. Bluetooth-quloqchinlarni bog'lash yoki ulash, quloqchinlardagi ovoz balandligini sozlash yoki avtomobil karnaylari orqali ovozni ijro etishga o'tish uchun tegining.
8. Boshlang'ich ekranni ochish uchun bosing.

Ilova ichida navigatsiya uchun, ma'lumotlarni yelpib yuboring yoki surib o'tkazing.

Reklamaga teginishda u boshqa qistirmada ochiladi. Boshqa qistirmani yopish uchun, birinchi qistirmaga tegining yoki ✕ ni bosing.

Orqa ekranlarning sozlamalari

Orqa ekranning bosh sahifada bo'lib turib, sozlamalar menyusiga o'tish uchun ⚙ ni bosing.

Menyuda quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Ekran yorqinligi

Ekran yorqinligini tanlang. Yorqinlikni surgich bilan sozlang. Ekranlarning har biri bog'liq bo'lmagan holda sozlanadi.

Foydalanuvchining Bluetooth-quloqchinlari

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim Bluetooth-quloqchinlarni qo'llab turadi. Orqa ekranlardan har biri bilan to'rtta juft Bluetooth-quloqchinlarni bog'lash mumkin. Ushbu ekranda tizim bilan bog'langan Bluetooth-quloqchinlarni ro'yxatini ko'rish, hamda ularning parametrlarini o'rnatish mumkin. Bu yerda yangi Bluetooth-quloqchinlarni ulash va ulanib bo'linganlarni sozlamalarini o'zgartirish mumkin.

Bluetooth-quloqchinlarni orqa ekranlardan biri bilan bog'lash uchun:

1. "Bluetooth-quloqchinlar"ni tanlang yoki muvofiq orqa ekranning bosh sahifasida 🎧 ni bosing.
2. "Quloqchinlarni ulash"ni tanlang.
3. Bluetooth-quloqchinlar bog'lanish rejimida ekanligiga ishonch hosil qiling. Tizim Bluetooth-quloqchinlarni aniqlagandan keyin, ular erishimli quloqchinlar ro'yxatida aks etadi.
4. Ro'yxatdan Bluetooth-quloqchinlarni tanlang. Orqa o'rindiqlar uchun ko'nilochar tizim bilan quloqchinlarni bog'lashdan avval, ularni telefondan uzib qo'yish talab etiladi.
5. Quloqchinlarni bog'lash bajarilgandan so'ng, ushbu quloqchinlar uchun sozlamalar tugmasini bosing; menyu ochiladi, unda quloqchinlarni qayta nomlash, ulash, bog'lanishini o'chirish yoki o'chirib yuborish mumkin.

Jamlanma Bluetooth-quloqchinlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Quloqchinlar shikastlanishida, nosozligida yoki tegishli tarzda qo'llanilmasligida alangalanishni jiddiy xavfini keltiruvchi o'rnatilgan litiy-ionli akkumulatorga ega.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Akkumulator batareyasining oqib ketishi va/yoki alangalanishidan saqlanish maqsadida:

- Akkumulator batareyasini o'tda yoqmang, deformatsiya qilmang va ochmang.
- Akkumulator batareyasini havoning juda past bosimlariga va 60 °C (140 °F)dan yuqori haroratlar ta'siriga duchor qilmang.
- Akkumulator batareyasini 45 °C (113 °F)dan yuqori haroratda quvvatlamang.
- Agar quloqchinlar nosoz yoki shikastlangan bo'lsa, akkumulator batareyasini quvvatlamang.

⚠ *DIQQAT!*

Quloqchinlarni issiq sharoitlarda yoki to'g'ri quyosh nurlari ostida saqlamang. Bu quloqchinlarni shikastlashi mumkin, va ta'mirlash avtomobilga kafolat bilan qoplanmaydi. Ekstremal sovuqda saqlash akkumulator batareyasini susaytirishi mumkin. Quloqchinlarni quruq salqin joyda saqlang.

Ushbu qurilmada saqlanuvchi akkumulator batareyalar maishiy chiqindilar bilan utilizatsiya qilinishi yaramaydi. Akkumulator batareyalarini ixtisoslashtirilgan korxonalarda utilizatsiya qilish zarur. Utilizatsiya haqidagi batafsil ma'lumotlarni olish uchun mahalliy vakolatlangan organlarga murojaat qiling.

1. CH-Kanalni tanlash
2. Oziqlanish
3. Ovoz balandligi
4. USB-Cni quvvatlash porti

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim jamlanmasiga ikki juft yangi simsiz Bluetooth-quloqchinlar kiradi.

Quloqchinlar turlicha multimedia-ma'lumotlarini tinglash uchun qo'llaniladi. Simsiz quloqchinlarning korpusida oziqlanish tugmasi, kanallar o'zgartirgichi va ovoz balandligini sozlagichi joylashtirilgan.

Jamlanmadagi simsiz Bluetooth-quloqchinlarni qo'llash uchun:

- Bir sekundga POWER (Oziqlanish) tugmasini bosib, quloqchinlarni yoqing. Oziqlanish indikatori yonadi.
- O'chiq quloqchinlarda bog'lanish rejimiga o'tish uchun, ikki sekund davomida oziqlanish tugmasini bosing va ushlab turing. Quloqchinlarning nomlanishi GM RSI BT HP kabi aks ettiriladi. Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimning ekranida bog'lash bo'yicha yo'riqnomani "Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim ekrani bilan bog'lash" paragrafida quyida ko'ring.
- Quloqchinlarni o'chirish uchun, ikki sekund davomida oziqlanish tugmasini bosing va ushlab turing.
- 1 yoki 2-ekran bilan bog'langan tovush manbalarini o'zgartirish uchun, CN-KANALNI TANLASH(1) tugmasini bosing. Bu xususiyat faqat ikkala RSI ekranlari bilan qurilmalarni bog'lashdan so'ng ishlaydi.

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim ekrani bilan bog'lash

Har bir ekran faqat ikki juft faol quloqchinlarni qo'llab turadi.

Bluetooth-quloqchinlarni orqa ekranlardan biri bilan bog'lash uchun:

1. Muvofiq orqa ekranning bosh sahifasida quloqchinlar belgisiga tegining.
2. "Yangi quloqchinlarni qo'shish"ni tanlang.
3. Bluetooth-quloqchinlar bog'lanish rejimida ekanligiga ishonch hosil qiling.
4. Tizim Bluetooth-quloqchinlarni aniqlagandan keyin, ular erishimli quloqchinlar ro'yxatida aks etadi.
5. Ro'yxatdan Bluetooth-quloqchinlarni tanlang. Bog'lanishdan keyin "Bog'lanish bajarildi" sizib chiquvchi darchada OKni bosing.
6. OKni bosing.

Quloqchinlarni ekranlar bilan bog'lashni bekor qilish uchun, tegishli orqa ekranning asosiy sahifadagi quloqchinlar belgisiga teging. So'ng, bog'lashni bekor qilmoqchi bo'lgan quloqchinlarning parametr tugmasini bosing.

“Quloqchinlarni olib tashlash” bandini tanlang. Ushbu harakat, har bir ekran uchun alohida amalga oshiriladi.

Ovozli javob berish

Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim ko'rish va eshitish nuqsonlari bo'lgan foydalanuvchilarning qulayligi uchun ovozli javob berish funksiyasi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

Ushbu funksiya faol bo'lgan vaqtda, u ekranning qaysi sohasiga teginayotganligi haqida foydalanuvchini xabardor qiladi, faol tugmalarga ko'rsatadi, hamda ekran, joriy maqom, ro'yxatlarning, meta-ma'lumotlarning va sizib chiquvchi darchalar haqida ma'lumotlarni xabar qiladi. Bu foydalanuvchiga, u bir marta tegingan va u ovoz bilan e'lon qilingan oxirgi amaldagi tugmaga tegishli bo'lgan ekranning istalgan joyiga ikki marta teginish bilan funksiyani faollashtirish imkonini beradi. Ovozli javob berishni yoqish va o'chirish uchun ⚙ ni bosing, o'zgartirgichga tegining va tasdiqlash uchun OKni bosing. Ovozli javob berish avtomobilning o't oldirishi o'chirilishida o'chadi.

Rear Media ilovasi sozlamalarini bekor qilish

Ilovalarning sozlamalarini bekor qilinishini bajarish va foydalanuvchining seansini yakunlash uchun, ushbu opsiyani tanlang.

Ochiq kodli DTga litsenziya

Litsenziya haqida ma'lumotlarni ko'rish uchun tanlang.

Orqa o'rindiqlardagi foydalanuvchilarning portlari

Agar avtomobil orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim bilan jihozlangan bo'lsa, markaziy konsolning orqa qismida foydalanuvchilarning qurilmalari uchun portlar joylashgan. Faqat quvvatlash funksiyasi bilan ikki HDMI porti va ikki USB-C porti ko'zda tutilgan.

HDMI



HDMI kirishlariga HDMI audiovideokabeli yordamida signalning tashqi manbasini, masalan, videokamerani, o'yin pristavkasini yoki Apple qurilmasini ulash mumkin. Apple qurilmasi uchun Apple firma kabeli talab etiladi.
Bosh sahifada tashqi qurilma ulangan HDMI portga tegining.
USB orqali quvvatlashni qo'llab turuvchi ba'zi HDMI-qurilmalarni oziqlanishni uzatish uchun USB-portlarga ulash mumkin.
Ushbu HDMI-portlar orqali uzatiluvchi kontent axborot-ko'ngilochar tizimning ekranida ERISHIMLI EMAS. Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimning HDMI kirishidan foydalanish uchun:
1. Tashqi qurilmani HDMI kabeli bilan ulang.
2. Yordamchi qurilmani va orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimning videoekranini yoqing.
3. Kerakli ekranda (Bosh)ni bosing va manba sifatida HDMIni tanlang.

HDMI

HDMIni ulash

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim tashqi qurilmalardan videoni ijro etish uchun ikki HDMI-portga ega.
Tashqi qurilmaning kontentini ko'ngilochar tizimning ekranida ko'rish uchun, uni ulang.
Bosh sahifada tashqi qurilma ulangan HDMI portga tegining.

HDMI orqali ijro etish ekrani



HDMI orqali ijro etishning ekranida video, hamda quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:
- (Bosh sahifa): Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimning bosh sahifasini menyusiga qaytish uchun ni bosing.
- (Quloqchinlar): Bluetooth-quloqchinlarning sozlamalari menyusiga o'tish uchun ni bosing. "Sozlamalar"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.
- Bo'lishish: Orqa o'rindiq uchun ikkinchi ekranda ekranni takrorlash uchun bosing. Ekranni ulangan qurilmaga takrorlash mumkin.

Bosh ekranda Rear Media ilovasi

Rear Media ilovasi foydalanuvchiga oldingi o'rindiqdan orqa o'rindiqlar uchun videoekranlarning manbalarini boshqarishga imkon beradi. Ilovaga kirish uchun bosh sahifada Rear Media belgisini bosing.
Rear Media ilovasi yordamida orqa ekranlarni yoqish yoki o'chirish mumkin. Ekran 1 yoki ekran 2ga teginib, ekranni tanlang. Ikkala ekranlar uchun ma'lumotlarni ko'rish uchun "Axborot"ni bosing, shu bilan birga, ajratib ko'rsatilgan ekran yonida "Oziqlanish" Ekran tugmasi ushbu ekranni yoqish va o'chirish imkonini beradi.

O'rta o'rindiqdagi foydalanuvchi, videoni boshqarish ilovasida chap yoki o'ng ekran uchun ovozni o'chirish belgisiga yoki ikkala ekranlarni ovozini o'chirish tugmasiga bosib, orqa o'rindiqlardagi foydalanuvchilar uchun ovozni o'chirib qo'yishi mumkin.
Shuningdek, videoni boshqarish ilovasida ekran tasvirida o'ngda pastda "Bo'lishish" tugmasini bosib, tanlangan ekranda joriy signal manbasidan tasvirni boshqa ekranga takrorlash mumkin.

Rear Media ilovasida manbani tanlash

Ilova ajratib ko'rsatilgan orqa ekran uchun signal manbaini tanlashga imkon beradi. Rear Media ilovasida Sources (Manba)ga bosib, RSI Sources darchasidagi ro'yxatdan signal manbaini tanlang.

Jamlama ekran



1. Orqa ekranlar uchun joriy manbalar.
2. Orqa o'rindiq uchun ikkinchi ekranda ekranni takrorlash uchun bosing.
3 . Orqa ekran uchun sensor kiritishni blokdan chiqarish uchun tegining.
4. Orqa ekran uchun ovozni o'chirish uchun tegining.
5. Orqa ekranni yoqish/o'chirish uchun tegining.

Kontentni ijro etishsiz ma'lumotlar ekrani

1. Manbaning nomlanishi.
2. Avtomobil dinamiklari orqali tovush ijro etilishini ishga tushirish uchun bosing.
3. Orqa ekranda ilovani yopish uchun bosing.

Rear Media sozlamalari

Rear Media sahifasida bo'lib turib, Sozlamalarni bosing; sozlamalar menyusi ochiladi.

Kontent ijrosiga ega bo'lgan ma'lumot ekrani



1. Ijro etiliuvchi kontentga nisbatan illustrasiya.
2. Avtomobil karnaylari orqali ovozni ijro etish uchun bosing.
3. Orqa ekrandagi ilovani yopish uchun bosing.
4. Kontent ijro etilishini to'xtatish/tiklash uchun tegining.
5. Ijro etilayotgan yozuvning nomi va qo'shimcha ma'lumot (mavjud bo'lsa).

Menyuda quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Ekranlarni yoqish holatini eslab qolish
Dvigatel ishga tushirilganida ekranlar avtomatik yoqilishi uchun ushbu opsiyani tanlang.

Orqa ekranlar uchun ovozli javob berish
Ma'lum ekran uchun ovozli javob berishni faollashtirish uchun tanlang.

Ruxsat etilgan ilovalar
Ekranda aks etib turadigan ilovalarni tanlang.

Qayd yozuvi
Avtomobilning mobil aloqasi tarif rejasi haqidagi ma'lumotni ko'rish uchun tanlang.

Rear Media sozlamalarini bekor qilish
Ilovalarning sozlamalarini bekor qilish uchun tanlang.

Rear Mediani qo'llash shartlari
Qo'llash shartlarini ko'rish uchun tanlang.

Maxfiylik haqida bayonot
Maxfiylik haqida Bayonotni ko'rsatish uchun tanlang.

Orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizimni nosozliklarini bartaraf qilish

Quvvat yo'q: Ehtimol, o't oldirish "yoqilgan" yoki ACC/ACCESSORY holatga joylashtirilmagan.

Quloqchinlar korpusidagi oziqlanish indikatori yonib turibdi, ammo ovoz uzatilmayapti: Quloqchinlar yetarlicha quvvatlanganligiga ishonch hosil qiling. Quvvatlash uchun quloqchinlarni USB-C portga ulang.

Quloqchinlar ekran bilan bog'langanligini tekshiring. Kanallarni tanlash tugmasini o'zgartirib, siz to'g'ri ekranni tinglayotganingizga ishonch hosil qiling.

Agar yuqorida keltirilgan harakatlar yordam bermagan bo'lsa, orqa o'rindiqlar uchun ko'ngilochar tizim bilan quloqchinlarning bog'lanishini bekor qiling, quloqchinlarni o'chiring, ularni qayta yoqing va bog'lanishni qayta o'rnatishga urinib ko'ring. Bluetooth-quloqchinlar uchun bog'lanish tartib-tamoyillarini ushbu bo'limda avvalroq ko'ring.

Videotasvirning buzilishi

Videotasvirning buzilishlari uyali telefonlar, skanerlar, SV-diapazondagi ratsiyalar, GPS tizimlar, avtomobil radiostansiyalari, mobil fakslar, portativ radsiyalardan xalallar bilan chaqirilgan bo'lishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan qurilmalarning avtomobil ichida yoki uning yaqinida qo'llanilishida videopleerni o'chirib qo'yish talab etilishi mumkin.

Nutqli buyruqlarni aniqlash

O'rnatilgan Google Assistent (muvofiq to'plamda) qo'llarsiz multimedia, xabarlar bilan almashish, navigatsiya va avtomobilning iqlim-nazorati funksiyalaridan foydalanish imkonini beradi. Uni rul chambaragida ni bosib, bosh sahifada Google Assistant belgisiga bosib yoki "Hey Google" yoki "OK Google" asosiy so'zlarni aytib ishga tushirish mumkin.

Biroq ushbu sohalardagi funksiyalarni barchasini ham ovozli buyruqlar yordamida boshqarish imkoni bo'lmaydi; bundan tashqari, Google Assistant ishlashi uchun ma'lumotlarni uzatish mobil tarmog'iga ulanish talab etiladi.

Nutqli buyruqlarni qo'llash

Ovozli buyruqlar yordamida boshqarish tizim initsilaizatsiyasidan keyin darhol erishimli bo'ladi. Initsializatsiya o't oldirish yoqilishi bilanoq boshlanadi. Initsializatsiya ba'zi ko'p bo'lmagan vaqtni egallashi mumkin.

1. Ovozli boshqaruvni ishga tushirish uchun, rul chambaragidagi boshqaruv pultida ni bosing, bosh sahifada Google Assistant belgisiga tegining yoki "Hey Google" yoki "OK Google" asosiy so'zlarni talaffuz qiling. Google Assistant ishlashini ta'minlash uchun, uni tizimda birlamchi sozlama bo'yicha (Default Assistant) yordamchi sifatida sozlash kerak, shuningdek, asosiy "uyg'otish so'zlari"ni o'rnatish.

2. Ushbu bo'limda quyida tavsiflangan buyruqlardan birini aniq talaffuz qiling.

Google Assistantni o'chirish

- Google Assistantga so'rovni bekor qilish uchun, rul chambaragidagi boshqaruv pultida ni bosing.

Buyruqlarni talaffuz qilish bo'yicha foydali maslahatlar

Ovozli boshqarish tizimi tabiiy tildagi gaplar ko'rinishida ifoda etilgan buyruqlarni, hamda ilovalarni va vazifalarni bevosita nomlovchi buyruqlarni aniqlaydi.

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun:

- Buyruqni tabiiy ovozda, juda ham tez va juda ham sekin bo'lmagan tarzda talaffuz qiling.
- Bevosita buyruqlarni ortiqcha so'zlarsiz qo'llang. Masalan, "<Ism> ishiga qo'ng'iroq qilish", "Ijro etish" ijrochining nomi yoki asarning nomlanishi talaffuz qilib yoki radiostansiyaning raqamini talaffuz qilib "...ga sozlash".

Bevosita buyruqlar tizim tomonidan yaxshiroq aniqlanadi. Bevosita buyruqning misoli: "<Raqam>ni terish".

Agar uyali telefon raqami nomi va joyi bilan saqlangan bo'lsa, bevosita buyruqda to'liq ma'lumotni ko'rsatish kerak. Masalan, "<Ism> ishiga qo'ng'iroq qilish".

Radiopriyomnikni ovozli boshqarish

Ovozni aniqlash buyruqlari belgisini bo'sgandan so'ng, bu xususiyat AM/FM radio qabul qilgich va multimedia ilovalarida (agar u ularda mavjud bo'lsa) faollashadi

"Ey-Em <AM diapazonidagi chastotasi>ga sozlanish" : Ovozli buyruqda ko'rsatilgan chastotaga (masalan, "to'qson besh") radiopriyomnikni sozlash.

"Ef-Em <FM diapazonidagi chastota>ga sozlash" : Ovozli buyruqda ko'rsatilgan chastotaga (masalan, "bir yuz biru bir") radiopriyomnikni sozlash.

“<ovoz manbada> <nomini> yoqish”: Musiqiy kompozitsiyani ijro etish yoki belgilangan ovoz manbaning kanaliga bo'glanish, masalan, Pandora yoki Spotify tizimiga. Ushbu buyruqni amalga oshirish uchun, tarmoqqa ulanish zarur bo'lishi mumkin.

TELEFON

Telefonni ovozli boshqarish

Telefonni boshqarish uchun ovozli buyruqlarni qo'llash uchun, telefon Bluetooth bo'yicha ulangan bo'lishi kerak.

"<Kontakt nomi>" : Saqlangan abonentga qo'ng'iroq qilish. Agar abonent uchun joylashish joyini ko'rsatish bilan saqlangan raqamlar mavjdud bo'lsa, buyruqda joylashish joyi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ushbu xususiyatni sozlash vaqtida, Personal Results bo'limidagi kontaktlarga kirishga ruxsat etish kerak.

"<telefon raqamini terish": etti yoki 10 xonali raqamga qo'ng'iroq qilish.

"<qabul qiluvchining nomiga> xabar yuborish": Saqlangan abonentga xabar yuborish

Navigatsiya uchun ovozli boshqaruv

Ovozli buyruqlar yordamida navigatsion tizimni - navigatsiyani boshlash, yo'nalishni bekor qilish, yo'nalish nuqtalarini va infratuzilma ob'ektlarini qo'shishni boshqarish mumkin.

"<Mo'ljallanish manzili>gacha yetib borish": Ko'rsatilgan manzilgacha navigatsiyani initsializatsiya qiladi.

"<joy nomini> topish": Qiziqtirgan joyni qidirish va unga yo'lni ko'rsatish buyrug'i.

"Yo'nalishga <punkt>ni qo'shish": Joriy yo'nalishga oraliq punktni qo'shadi.

"Uyga safar qilish": Google kartalarda ko'rsatilgan uy manzillarigacha navigatsiyani ishga tushiradi.

Avtomobilning o'rnatilgan buyruqlari

Ushbu buyruqlar, salondagi haroratni boshqarish, oynalarni muzdan tushirishni boshqarish va h.k. imkonini beradi

"Konditsionerni yoqish": Konditsionerni yoqadi.

"Haroratni <istalgan son> graduslarga o'rnatish": Avtomobil salonida ma'lum haroratni o'rnatish.

Telefon yordamida ovozli boshqaruv

Ovozli yordamchi xususiyatini Bluetooth moduliga ulangan, yoki Android Auto yoki CarPlay texnologiyasi yordamida mobil telefonda ishga tushirish uchun, ruldagi tugmasini bosib turing (masalan, Google Assistant, Siri va h.k.)

Bluetooth kanali (Qisqacha ma'lumot)

Bluetoothni qo'llab turilishi sharofati bilan tizim quyidagilarga imkon berib, mobil qurilmalarning ko'pchilik soni bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumki:

- Qo'llarning yordamisiz qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va qabul qilish.
- Qurilmaning manzillar kitobini yoki kontaktlar ro'yxatini avtomobilga uzatish.
- Oqimli rejimda audio (musiqa, podkastlar)ni uzatish.
- Matnli xabarlarni kelib tushganligi haqida xabardor qilish.

Chalg'ituvchi omillarni minimallashtirish uchun, haydashni boshlashdan avval to'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilda quyidagi harakatlarni bajaring:

- Mobil qurilmaning funksiyalari bilan tanishib chiqing. Telefon kitobini va kontaktlar ro'yxatini tartibga keltiring, takrorlanuvchi va kamdan-kam ishlatiluvchi yozuvlarni o'chirib yuboring.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning boshqaruv organlarini va qo'llanilishini yodga oling.
- Mobil qurilmaning avtomobil bilan bog'lanishini bajaring. Mobil qurilmalarning ba'zi modellari bilan tizim ishlamasligi mumkin. "Bog'lash"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.

Bluetooth tizimli avtomobillarda Bluetoothni qo'llab turishli mobil telefon va baland aloqa uchun profil mavjudligida baland aloqa rejimida

qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va ularni qabul qilish mumkin. Tizimni boshqarish axborot-ko'ngilochar tizim va ovozli buyruqlar orqali amalga oshiriladi. Tizimni avtomobil o't oldirishi yoqilgan vaqtda qo'llash mumkin. Bluetooth tizimining ta'sir radiusi - 9,1 m.gacha. Mobil qurilmalarning barchasi ham barcha funksiyalarni qo'llab turishi va Bluetooth tizimi bilan ishlashga qodir bo'lmasligi mumkin. Mos keluvchi mobil qurilmalar haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun dilerga murojaat qiling.

Boshqaruv organlari

Bluetooth orqali bog'lanishni boshqarilishini axborot-ko'ngilochar tizimi displeyidagi boshqaruv organlari va rul chambaragidagi boshqaruv organlari yordamida amalga oshiriladi.

Rul chambaragidagi boshqaruv organlar

: Bluetooth bo'yicha ulangan mobil qurilmada kiruvchi qo'ng'iroqlarga javob berish uchun bosing va qo'yib yuboring. Mobil qurilma yordamchisini chaqirish uchun bosing va ushlab turing.

: Ulanishni yakunlash, qo'ng'iroqni rad etish yoki tamoyilni bekor qilish uchun bosing. Siz telefon orqali so'zlashmayotgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizimni yoqish yoki uni o'chirish uchun bosing.

Axborot-ko'ngilochar tizimning boshqaruv organlari

Axborot-ko'ngilochar tizimning boshqaruv organlarini qo'llab, menyu bilan qanday ishlash kerakligi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni, Tizimni qo'llash ⇨ 6-5 bo'limda ko'ring.

Audiotizim

Mobil qurilmaning Bluetooth tizimini qo'llashda ovoz avtomobil audiotizimining oldingi karnaylari orqali ijro etiladi, audiotizimning ishlashi esa o'chiriladi. Mobil qurilmaga kelib tushgan chaqiruv vaqtida, ovoz balandligi rul chambaragidagi yoki markaziy konsoldagi boshqaruv organlari yordamida sozlanadi. Bunday ovoz balandligini o'rnatilgan darajasi keyingi so'zlashuvlar uchun xotirada saqlanadi. Ovoz balandligini ma'lum darajadan pastroqqa tushirish imkoni yo'q.

Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va qo'llash - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik)

Ulash

Avval Bluetooth-mos keluvchi mobil telefonning Bluetooth interfeysi bilan bog'lanishini bajarish, so'ngra esa uni avtomobilga ulash zarur.

Bluetooth funksiyalariga nisbatan - mobil telefon ishlab chiqaruvchisining qo'llanmasini ko'ring (mobil telefonni ulashdan oldin).

Bog'lash haqidagi ma'lumot

- Musiqiy fayllarni qo'llab turishli Bluetooth telefoni avtomobil bilan telefon kabi va musiqiy pleyer kabi bir vaqtda bog'langan bo'lishi mumkin.
- Tizim bilan 10tagacha qurilma bog'langan bo'lishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanib ketayotganida bog'lanish amalga oshmaydi.
- Bog'lanish tamoyilini faqat bir marta bajarish zarur. Uning takroriy bajarilishi faqat, agar bog'langan qurilma haqidagi ma'lumot tizim xotirasidan o'chirib yuborilgandagi holatda talab etilishi mumkin.
- Tizimning ta'sir zonasida bir nechta bog'langan uyali telefonlar mavjud bo'lgan vaqtda, tizim "Ulash uchun birinchi" maqomi berilgan ulardan biriga ulanadi. Agar "Ulash uchun birinchi" maqomi hech bir uyali telefonga berilmagan bo'lsa, oxirgi bo'lib qo'llanilgan xuddi o'sha qurilmaga ulanish o'rnatilgan bo'ladi. Boshqa bog'langan telefon bilan ulanishni o'rnatish uchun, "Boshqa telefon bilan bog'lanish"ni bosing, ushbu bo'limda quyida ko'ring.

Telefonni ulash

1. Bog'lanishni boshlashdan avval, uyali telefonda Bluetooth interfeysi yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
2. Bosh sahifada TELEFON belgisiga yoki ekran ostida ilovalar bo'lmachasida telefon belgisiga tegining.
3. Axborot-ko'ngilochar tizimi displeyining tepa qismida "Telefon" bandiga tegining. Telefonlar ekranining markazida Qo'shish opsiyasi joylashgan bo'lishi mumkin. Ushbu opsiyaga teginishda Telefonlar ro'yxati menyusi ochiladi.
4. Telefonni qo'shishni bosing.
5. Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida aks ettiriluvchi avtomobilning nomlanishini mobil telefonning Bluetooth sozlamalari ro'yxatidan tanlang.
6. Uyali telefon ekranidagi yo'riqnomalarga amal qilgan holda, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida aks ettiriluvchi oltita raqamli kodni tasdiqlang, va "Bog'lash" tugmasini bosing.
7. Uyali telefonda bog'lanishni o'rnatish tamoyilini ishga tushiring. Tartib-tamoyil haqidagi ma'lumotlarni mobil telefonni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llamada ko'ring. Bog'langan telefon ulanganlar ro'yxatida aks ettiriladi.
8. Agar avtomobil uyali telefonda aks ettirilmayotgan bo'lsa, bir nechta usullar bilan bog'lanish jarayonini qaytadan boshlash mumkin:
   - Telefonni o'chiring va uni qayta yoqing.
   - Axborot-ko'ngilochar tizim displeyida telefon menyusining boshiga qayting va bog'lanish jarayonini qaytadan ishga tushiring.
   - Telefonni bekor qilinishini, ammo faqat zaruriy chora sifatida, bajaring.
9. Agar telefonda ulashni tasdiqlash yoki telefonning manzillar kitobini yuklanishini ruxsat etish bilan so'rov berilgan bo'lsa, "Har doim qabul qilish" va "Ruxsat etish"ni tanlang. Agar manzillar kitobini yuklanishiga ruxsat berilmasa, u erishimli bo'lmaydi.
10. Boshqa telefonlarning bog'lanishini bajarish uchun, 1-8-kichik bandlarda tavsiflangan harakatlarni takrorlang.

Ulash uchun birinchi bog'langan telefonlar

Tizimning ta'sir zonasida bir nechta bog'langan uyali telefonlar mavjud bo'lgan vaqtda, tizim "First to Connect" ("Ulash uchun birinchi") maqomi berilgan ulardan biriga ulanadi. Ulash uchun birinchi sifatida bog'langan telefonni o'rnatish uchun, telefon yoqilganligiga ishonch hosil qiling, Sozlamalar, so'ngra Tizim, keyin Telefonlarni bosing. Telefonlar menyusida barcha bog'langan va barcha ulangan telefonlar va multimedia proigrivatellari ko'rsatilgan bo'ladi. Telefonlarni qo'shish va o'chirib yuborish, ulash va uzib qo'yish mumkin. Telefon uchun "Ulash uchun birinchi" maqomini o'rnatish uchun, telefondan o'ng tomonda ni bosing; telefon sozlamlari menyusi ochiladi. Qurilmaga "Ulash uchun birinchi" maqomini berish uchun, ushbu bandni tanlang.

Barcha bog'langan va ulangan telefonlar ro'yxatini tinglash

1. Bosh sahifada TELEFON belgisiga yoki ekran ostida ilovalar bo'lmachasida telefon belgisiga tegining.
2. Telefonlarni bosing.

Ulangan telefonni uzish

1. Bosh sahifada TELEFONni bosing.
2. Telefonlarni bosing.
3. Ulangan uyali telefon yoki mobil telefon qarshisida ularning axborot ekranini aks ettirish uchun qalam belgisiga tegining.
4. "O'chirish" buyrug'ini tanlang.

Bog'langan telefonni o'chirib yuborish

1. Bosh sahifada TELEFON belgisiga yoki ekran ostida ilovalar bo'lmachasida telefon belgisiga tegining.
2. Telefonlarni bosing.
3. Ulangan uyali telefon qarshisida uning axborot ekranini aks ettirish uchun qalam belgisiga tegining.
4. "Ulash kerak emas" buyrug'ini tanlang.

Boshqa telefon bilan bog'lash

Boshqa uyali telefon bilan aloqani o'rnatish uchun yangi uyali telefon avtomobilda joylashgan bo'lishi va Bluetooth interfeysi bo'yicha tizim bilan bog'langan bo'lishi kerak.

1. Bosh sahifada TELEFON belgisiga yoki ekran ostida ilovalar bo'lmachasida telefon belgisiga tegining.
2. Telefonlarni bosing.
3. Ulanmagan telefonlar ro'yxatida aloqa o'rnatish kerak bo'lgan yangi uyali telefonga tegining. "Ulash uchun birinchi" maqomini yoki ikkilamchi telefon maqomini telefon uchun o'rnatish haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni "Ulash uchun birinchi bog'langan telefonlar"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Trubka va baland aloqa rejimlari orasida o'tish

Telefon yoki baland aloqa rejimiga o'tish uchun:

- Telefon baland aloqa rejimida bo'lganida, telefon rejimiga o'tish uchun ekranda "Telefon" bandiga tegining. Telefon rejimida ovozni vaqtinchalik o'chirish belgisi erishimli bo'lmaydi va ishlamaydi.
- Faol chaqiruv telefon rejimiga joylashgan vaqtda, baland aloqa rejimiga o'tish uchun ekranda "Telefon" bandiga tegining.

Kontaktlar ro'yxatini va yaqindagi qo'ng'iroqlar ro'yxatini qo'llash bilan telefon qo'ng'iroqlari

Bluetooth tizimi telefon kitobi funksiyasini qo'llab turuvchi uyali telefonda saqlanuvchi shaxsiy kontakt ma'lumotlarni qo'llash bilan telefon chaqiruvlarini bajarishga imkon beradi. Uyali telefon sozlamalari va uning ishlashi bilan tanishing. Sizning mobil telefoningiz ushbu funksiyani qo'llab turishini tekshiring.

Kontaktlar menyusida mobil telefonning telefon kitobiga kirish huquqini olish mumkin.

"Yaqindagilar" menyusida ushbu uyali telefondan amalga oshirilgan yaqindagi qo'ng'iroqlar ro'yxatini topish mumkin.

Kontaktlar menyusi orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish uchun:

1. Bosh sahifada TELEFONni bosing.
2. Kontaktlarni bosing.
3. "Kontaktlar" ro'yxatidagi izlashni birinchi harf bo'yicha bajarish mumkin. Ismlar ro'yxatini aylantirish uchun axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida A-Zga tegining. Ulanishni o'rnatish zarur bo'lgan abonent nomini tanlang.
4. Kerakli raqamni tanlang.

Kontaktlar menyusi orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish uchun:

1. Bosh sahifada TELEFONni bosing.
2. Yaqindagi qo'ng'iroqlarni bosing.
3. Chaqirish zarur bo'lgan abonent nomiga yoki raqamiga tegining.

Klaviaturadan raqamni terish bilan qo'ng'iroq

Klaviaturadan raqamni terish bilan qo'ng'iroqni bajarish uchun:

1. Bosh sahifada TELEFONni bosing.
2. "Klaviatura" bandiga tegining va telefon raqamini kiriting.
3. Raqamni terishni boshlash uchun ni bosing.

Klaviatura yordamida kontaktlarni izlash

Klaviatura yordamida kontaktlarni izlashni bajarish uchun:

1. Bosh sahifada TELEFONni bosing.
2. "Klaviatura" bandiga tegining va izlash uchun klaviaturadagi raqamlar yordamida telefon raqamini qismini yoki kontaktning ismini kiriting. Natijalar ekranning o'ng qismida paydo bo'ladi. Qo'ng'iroqni amalga oshirish uchun ulardan biriga tegining.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish va rad etish

Agar kelgan qo'ng'iroq qabul qilinayotgan bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizim avtomobilda ijro etiluvchi ringtonni so'ndiradi.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Chaqiruvni qabul qilishning uchta usuli bor:
- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Javob berishni bosing.
- Selektor tugmasini qo'llab, uskunalar majmuasida Javob berishni bosing.

Qo'ng'iroqni rad etish

Chaqiruvni rad etishning uchta usuli bor:
- Rul chambaragida klavishasini bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Rad etishni bosing.
- Selektor tugmasini qo'llab, uskunalar majmuasida Bekor qilishni bosing.

Qo'ng'iroqni kutish

Chaqiruvni tutib turish funksiyasi Bluetooth moduli bilan jihozlangan uyali telefon va uyali aloqa operatori bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Tutib turilgan qo'ng'iroqni qabul qilishning uchta usuli bor:
- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Switch (Almashtirish)ni bosing.
- Selektor tugmasini qo'llab, uskunalar majmuasida Switch (Almashtirish)ni bosing.

Qo'ng'iroqni rad etish

Tutib turilgan qo'ng'iroqni bekor qilishning uchta usuli bor:
- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Rad etishni bosing.
- Selektor tugmasini qo'llab, uskunalar majmuasida Bekor qilishni bosing.

Abonentlar orasida o'tish (faqat tutib turiluvchi qo'ng'iroqlar

Chaqiruvlar orasida o'tish uchun chaqiruv menyusiga o'tish uchun bosh sahifada telefon belgisiga tegining. Qo'ng'iroq taqdim etilishida ushlab turish rejimida bo'lgan qo'ng'iroqqa o'tish uchun, unga tegining.

Uch tomonlama aloqa

Uch tomonlama bog'lanish funksiyasi Bluetooth moduli bilan jihozlangan telefon tomonidan va uyali aloqa operatori tomonidan qo'llab turilishi kerak.

Qo'ng'iroq vaqtida uch tomonlama aloqa rejimiga o'tish uchun:

1. Bog'lanishlar menyusida yani bitta bog'lanishni qo'shish uchun, Qo'shimcha qo'ng'iroqni tanlang.
2. Yaqindagilar, Kontaktlar yoki Klaviaturani tanlab, ikkinchi ulanishni o'rnating.
3. Ikkinchi qo'ng'iroq faol bo'lgan vaqtda, uch tomonlama aloqani o'rnatish uchun birlashtirish belgisiga bosing.

Qo'ng'iroqni yakunlash
- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Faqat ushbu chaqiruvni yakunlash uchun, chaqiruv yonida ni bosing.
- Selektor tugmasini qo'llab, uskunalar majmuasida Yakunlashni bosing.

DTMF tonal signallari

Qo'ng'iroq vaqtida avtomobilning audiotizimiga o'rnatilgan Bluetooth moduli raqamni uzatishi mumkin. Bu menyu orqali boshqariluvchi telefon tizimlari bilan o'zaro aloqalar uchun zarurdir. Klaviatura yordamida raqamni kiriting.

Bluetooth kanali (Telefonni bog'lash va qo'llash - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik)

Ulash

Bluetooth-mos keluvchi mobil qurilmani qo'llashdan oldin, avval uning Bluetooth tizim bilan bog'lanishini bajarish, so'ngra esa qurilmani avtomobilga ulash zarur bo'ladi. Mobil qurilmani bog'lashdan avval qurilma foydalanuvchisining qo'llanmasining Bluetooth texnologiyasi haqidagi bo'lim bilan tanishib chiqing.

Bog'lash haqidagi ma'lumot

- Axborot-ko'ngilochar tizimning bosh sahifasida telefon belgisini bosing.
- Agar bog'langan mobil qurilmalar yo'q bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida "Telefonni ulash" bandi aks ettiriladi. Tizim bilan mobil telefonni bog'lash uchun, ushbu bandga bosing. "Telefonni bog'lash" bandini ushbu bo'limda quyida ko'ring.
- Bluetooth texnologiyasini qo'llab turuvchi va musiqani ijro etishga qodir bo'lgan smartfon avtomobil bilan telefon kabi va musiqiy proigrivatel kabi bir vaqtda bog'langan bo'lishi mumkin.
- Tizim bilan 10tagacha qurilma bog'langan bo'lishi mumkin.
- Avtomobil harakatlanib ketayotganida bog'lanish amalga oshmaydi.
- Bog'lanish tamoyilini faqat bir marta bajarish zarur. Uning takroriy bajarilishi faqat, agar bog'langan qurilma haqidagi ma'lumot tizim xotirasidan o'chirib yuborilgandagi holatda talab etilishi mumkin.
- Tizimning ta'sir zonasida bir nechta bog'langan uyali telefonlar mavjud bo'lgan vaqtda, tizim "Ulash uchun birinchi" maqomi berilgan ulardan biriga ulanadi. Agar "Ulanish uchun birinchi" maqomi hech bir uyali telefonga berilmagan bo'lsa, oxirgi qo'llanilgan uyali telefonga ulanish bajariladi. Boshqa bog'langan uyali telefon bilan bog'lanishni o'rnatish uchun, "Boshqa telefon bilan ulanish"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.

Telefonni ulash

1. Bog'lanish jarayonini boshlashdan avval, uyali telefonda Bluetooth funksiyasi yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
2. Bosh sahifada "Telefon" belgisiga tegining.
3. Agar telefon ro'yxatdan o'tkazib bo'lingan bo'lsa, Settings (Parametrlar) > Connections (Ulanish) > Phones (Telefonlar) menyusida qurilmalar dispetcherini oching.
Qurilmalar dispetcherida Add Phone (Telefonni qo'shish)ni tanlang. Agar telefon avval qo'shib bo'lingan bo'lsa, Add Phone (Telefonni qo'shish) kartochkasi o'rniga oddiygina "+" tugmasi aks ettiriladi.
4. Phones (Telefonlar) ekraniga o'tish uchun Manage Phones (Telefonlarni boshqarish)ni tanlang.
5. "Telefonni qo'shish"ni tanlang.
Agar telefon avval qo'shilgan yoki uzilgan bo'lsa, Add Phone (Yangi telefon) kartochkasi o'rniga oddiygina "+" belgisi aks ettiriladi.
6. Muvaffaqiyatli ulash uchun telefon va axborot-ko'ngilochar tizimning ekranida kodni tasdiqlash kerak bo'ladi.
7. Uyali telefonda bog'lanishni o'rnatish tamoyilini ishga tushiring. Tartib-tamoyil haqidagi ma'lumotlarni mobil telefonni ekspluatatsiya qilish bo'yicha qo'llamada ko'ring. Bog'langan telefon ulangan kabi ro'yxatida aks ettiriladi.
8. Agar avval ulangan mobil qurilma Bluetooth tizimiga ulanmayotgan bo'lsa, avtomobilning axborot-ko'ngilochar tizimidan qurilma haqidagi ma'lumotlarni, avtomobil haqidagi ma'lumotlarni esa - mobil qurilmasidagi Bluetooth sozlamalaridan o'chirib yuborishga urinib ko'ring.
9. Agar uyali telefonda ulashni qabul qilish yoki telefonning manzillar kitobini yuklanishini ruxsat etish bilan so'rov berilgan bo'lsa, "Har doim qabul qilish" va "Ruxsat etish"ni tanlang.
Agar manzillar kitobini yuklanishiga ruxsat berilmasa, u erishimli bo'lmaydi.
10. Qo'shimcha mobil telefonlarni bog'lash uchun, Sozlamalar, Bog'lanishlar, so'ngra esa Telefonlarni bosing.
11. Boshqa telefonlarning bog'lanishini bajarish uchun, Settings (Parametrlar) > Connections (Ulash) > Phones (Telefonlar)ni tanlang.

Ulash uchun birinchi bog'langan telefonlar

Tizimning ta'sir zonasida bir nechta bog'langan uyali telefonlar mavjud bo'lgan vaqtda, tizim "Ulash uchun birinchi" maqomi berilgan ulardan biriga ulanadi. Bog'langan uyali telefonga "Ulanish uchun birinchi" maqomini berish uchun:

1. Uyali telefon yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
2. Bosh sahifada sozlamalar belgisiga tegining.
3. Bog'lanishni bosing.
4. Telefonni bosing.
5. Ulangan telefon uchun Opsiyalarni bosing.
6. Mobil telefonning sozlamalari menyusida Birinchi bo'lib ulashni bosing. Sozlamalar qurilma uchun amalga kiritilgan bo'ladi. Uyali telefonlar va mobil qurilmalarni qo'shish, o'chirib yuborish, ulash va uzib qo'yish mumkin. Uyali telefonni yoki mobil qurilmani qo'shishga yoki ularni boshqarishga so'rov kelib tushganda muvofiq kichik menyu ochiladi.

Qurilmalar ro'yxatiga o'tish

Qurilmalar ro'yxatiga ikki usulda o'tish mumkin:

Sozlamalar belgisiga bosish

1. Bosh sahifada Sozlamalar belgisiga yoki displeyning chap qismida yorliqlar bo'linmasida sozlamalar belgisiga tegining.
2. Ulanishlarni bosing.
3. Telefonlarni bosing.

Telefon belgisining qo'llanilishi

1. Bosh sahifada Telefon belgisiga yoki displeyning chap qismida yorliqlar bo'linmasida telefon belgisiga tegining.
2. Telefonlar ekranining o'ng tepasida ni bosing.
3. Ulangan telefonni bosing.

Ulangan telefonni uzish

Telefonni uzib qo'yish uchun:

1. Qurilmalar ro'yxatini oching. "Qurilmalar ro'yxatiga o'tish"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
2. Telefon yoki mobil qurilmaning sozlamalarini chiqarish uchun, telefon kartochkasida "Sozlamalar"ni bosing.
3. "O'chirish" buyrug'ini tanlang.

Bog'langan telefonni o'chirib yuborish

Bog'langan telefonni o'chirib yuborish uchun:

1. Qurilmalar ro'yxatini oching. "Qurilmalar ro'yxatiga o'tish"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
2. Telefon yoki mobil qurilmaning sozlamalarini chiqarish uchun, telefon kartochkasida "Sozlamalar"ni bosing.
3. "Forget Phone" ("Telefonni unutish")ga tegining.

Boshqa telefon bilan bog'lash

Boshqa uyali telefon bilan aloqani o'rnatish uchun yangi uyali telefon avtomobilda joylashgan bo'lishi va Bluetooth interfeysi bo'yicha tizim bilan bog'langan bo'lishi kerak.

Boshqa telefon bilan bog'lash tartibi:

1. Qurilmalar ro'yxatini oching. "Qurilmalar ro'yxatiga o'tish"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.
2. Erishimli telefonlar ro'yxatida bog'lanishni o'rnatishni istagan yangi mobil telefonga tegining. "Ulash uchun birinchi bog'langan telefonlar"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Trubka va baland aloqa rejimlari orasida o'tish

Telefon yoki baland aloqa rejimiga o'tish uchun:

- Qo'ng'iroq paytida baland aloqadan foydalangan holda, Audio Output (ovoz chiqarish) va Phone (telefon) tugmalarini ketma-ket bosishda, qo'ng'iroqni telefonga o'tkazish mumkin. Telefon rejimida ovozni vaqtinchalik o'chirish belgisi erishimli bo'lmaydi va ishlamaydi.
- Qo'ng'iroq paytida telefondan foydalangan holda, Audio Output (ovoz chiqarish) va Car Speakers (karnaylar) tugmalarini ketma-ket bosishda, qo'ng'iroqni baland aloqa rejimiga o'tkazish mumkin.
-

Kontaktlar qistirmasi yordamida qo'ng'iroq

Bluetooth tizimi telefon kitobi funksiyasini qo'llab turuvchi uyali telefonda saqlanuvchi shaxsiy kontakt ma'lumotlarni qo'llash bilan telefon chaqiruvlarini bajarishga imkon beradi. Uyali telefon sozlamalari va uning ishlashi bilan tanishing. Sizning mobil telefoningiz ushbu funksiyani qo'llab turishini tekshiring. Mobil telefonning sozlamalari va ishlashi, shu jumladan undan Bluetooth modul orqali kontakt ma'lumotlarni uzatish xususiyati bilan diqqat bilan tanishib chiqing.

Mobil telefon, Bluetooth moduli orqali kontakt ma'lumotlarini uzatilish xususiyati mavjudligini tekshiring.

Kontaktlar menyusida mobil telefonning telefon kitobiga kirish huquqini olish mumkin. Kontaktlar menyusi orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish uchun:

1. Bosh sahifada yoki displeyning chap qismida yorliqlar bo'linmasida Telefon belgisiga tegining.
2. Kontaktlarni bosing.
3. Kontaktlarni izlashning ikki usuli bor:

- Izlash satri - Telefonlar darchasining o'ng tepa darchasida izlash belgisiga bosing va klaviaturadan kontaktning nomini yoki raqamini kiriting. Kiritilgan so'rov bo'yicha izlash natijalari ko'rsatilgan bo'ladi. Chaqirish zarur bo'lgan abonent nomiga kiriting.
- Ko'rish - ro'yxatga tegining va uni aylantiring yoki Telefonlar darchasining chap tomonidagi aylantirish chizg'ichidan foydalaning. Chaqirish zarur bo'lgan abonent nomiga kiriting.

Yaqindagi qo'ng'iroqlar ro'yxatini qo'llash bilan telefon qo'ng'irog'i

"Yaqindagilar" menyusida ushbu uyali telefondan amalga oshirilgan yaqindagi qo'ng'iroqlar ro'yxatini topish mumkin.

Kontaktlar menyusi orqali telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish uchun:

1. Bosh sahifada yoki displeyning chap qismida yorliqlar bo'linmasida Telefon belgisiga tegining.
2. Yaqindagilarni bosing.
3. Chaqirish zarur bo'lgan abonent nomiga yoki raqamiga tegining.

Klaviaturadan raqamni terish bilan qo'ng'iroq

Klaviaturadan raqamni terish bilan qo'ng'iroqni bajarish uchun:

1. Bosh sahifada yoki displeyning chap qismida yorliqlar bo'linmasida Telefon belgisiga tegining.
2. "Klaviatura" bandiga tegining va telefon raqamini kiriting.
3. Raqamni terishni boshlash uchun, axborot-ko'ngilochar tizimnging displeyida telefon belgisiga tegining.

Klaviatura yordamida kontaktlarni izlash

Klaviatura yordamida kontaktlarni izlashni bajarish uchun:

1 . Bosh sahifada "Telefon" belgisiga tegining.
2. "Klaviatura" bandiga tegining va izlash uchun klaviaturadagi raqamlar yordamida telefon raqamining qismini yoki kontakt nomini kiriting.

Natijalar displeyning o'ng qismida paydo bo'ladi.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish va rad etish

Agar kelgan qo'ng'iroq qabul qilinayotgan bo'lsa, axborot-ko'ngilochar tizim avtomobilda ijro etiluvchi ringtonni so'ndiradi.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Qo'ng'iroqlarni qabul qilishning ikki usuli mavjuddir:

- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Javob berishni bosing.

Qo'ng'iroqni rad etish

Qo'ng'iroqlarni rad etishning ikki usuli mavjuddir:

- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida Rad etishni bosing.

Qo'ng'iroqni kutish

Chaqiruvni tutib turish funksiyasi Bluetooth moduli bilan jihozlangan uyali telefon va uyali aloqa operatori bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Qo'ng'iroqlarni qabul qilish

Javob berish uchun belgisiga bosing, so'ngra axborot-ko'ngilochar tizim displeyida "O'tish" bandiga tegining.

Qo'ng'iroqni rad etish

Chaqiruvni bekor qilish uchun c belgisini bosing, so'ngra axborot-ko'ngilochar tizimi displeyida "Bekor qilish" bandiga tegining.

Abonentlar orasida o'tish (faqat tutib turiluvchi qo'ng'iroqlar

Chaqiruvlar orasida o'tish uchun chaqiruv taqdim etilishiga o'tish uchun bosh sahifada "Telefon" bandiga tegining. Qo'ng'iroq taqdim etilishida ushlab turish rejimida bo'lgan qo'ng'iroqqa o'tish uchun, unga tegining.

Qo'ng'iroqni yakunlash

- Rul chambaragida klavishani bosing.
- Faqat ushbu qo'ng'iroqni yakunlash uchun, qo'ng'iroq qarshisida axborot-ko'ngilochar tizim displeyi uchun belgisiga tegining.

DTMF tonal signallari

Qo'ng'iroq vaqtida avtomobilning audiotizimiga o'rnatilgan Bluetooth moduli raqamni uzatishi mumkin. Bu menyu yordamida boshqariluvchi telefon tizimlar bilan o'zaro aloqa qilish uchun zarurdir. Klaviatura yordamida raqamni kiriting.

Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik)

Agar avtomobil jamlanmasi bilan Android Auto va/yoki Apple CarPlay qo'llab-quvvatlashi ko'zda tutilgan bo'lsa, mos keluvchi smartfon mavjudligida ushbu funksiyalardan foydalanish mumkin. Erishimli bo'lganida Android Auto va Apple CarPlay belgilari axborot-ko'ngilochar tizimi displeyining bosh sahifasida kulrangdan rangliga aylanishni boshlaydi. Android Auto va (yoki) Apple CarPlay qo'llash uchun:

Telefon simi bo'yicha ulangan ma'lumotlarni proeksiyalash

1. Google Play ilovalar do'konidan o'z smartfoningizga Android Auto ilovasini yuklab oling. Apple CarPlayni qo'llash uchun biron bir ilovalarni o'rnatish talab etilmaydi.
2. Android-telefon yoki iPhoneni ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llaniluvchi tizimning USB-ulagichiga ularning jamlanmasiga kiruvchi USB-kabelni kiritish yordamida ulang. Qurilmani yetkazib berish jamlanmasidan USB-kabelni qo'llash tavsiya etiladi, ulanishning zaruriy sifatini ta'minlash uchun u eskirishi holatida, uni yangisiga almashtirish kerak. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning kabellari ishlamasligi mumkin.
3. Smartfonni birinchi ulashda Apple CarPlay yoki Android Auto ni faollashtirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida va smartfonda kelishuv shartlarini qabul qiling.
4. Smartfondagi yo'riqnomalarga amal qiling.

Bosh sahifada Apple CarPlay va Android Auto belgilari smartfonga bog'liq holda yorishib turadi. Android Auto va (yoki) Apple CarPlay telefonni USB-ulagichga ulashda avtomatik ishga tushirilishi mumkin. Agar bu sodir bo'lmasa, ishga tushirishni bajarish uchun bosh sahifada Android Auto yoki Apple CarPlay belgisiga tegining.

Bosh sahifaga qaytish uchun markaziy konsolda tugmani bosing.

Ulangan telefondan ma'lumotlarni simsiz proeksiyalash (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Google Android Auto yoki Apple CarPlay qo'llab-quvvatlash sahifasiga tashrif buyurib, sizning telefon simsiz interfeys bo'yicha mos kelishiga ishonch hosil qiling.

1. Google Play ilovalar do'konidan o'z smartfoningizga Android Auto ilovasini yuklab oling. Apple CarPlayni qo'llash uchun biron bir ilovalarni o'rnatish talab etilmaydi.
2. Birinchi ulanishda simsiz ulanishni sozlashning ikki usuli erishimlidir.

- Android-telefon yoki iPhoneni ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llaniluvchi tizimning USB-ulagichiga ularning jamlanmasiga kiruvchi USB-kabelni kiritish yordamida ulang. Qurilmani yetkazib berish to'plamidan USB-kabelni qo'llash tavsiya etiladi, uni ulanishning zaruriy sifatini ta'minlash uchun, uning eskirishi holatida yangisiga almashtirish kerak. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning kabellari ishlamasligi mumkin.
- Bluetooth bo'yicha telefonni ulash. Bluetooth kanali (Telefonni ulash va qo'llash - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-25 yoki Bluetooth kanal (Qisqacha ma'lumot) ⇨ 6-21 yoki Bluetooth kanal (Telefonni ulash va qo'llash - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-22ni ko'ring.

3. Displeyga ma'lumotlarni sizning telefoningizdan uzatish mumkin bo'lishi uchun, unda WiFi interfeys yoqilganligiga ishonch hosil qiling.

4. Smartfonni birinchi ulashda Apple CarPlay yoki Android Auto ni faollashtirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida va smartfonda kelishuv shartlarini qabul qiling.

5. Smartfondagi yo'riqnomalarga amal qiling.

Bosh sahifada Apple CarPlay va Android Auto belgilari smartfonga bog'liq holda yorishib turadi. Telefonni simsiz ulanishini o'rnatishda Android Auto va (yoki) Apple CarPlay avtomatik ishga tushirilishi mumkin. Agar bu sodir bo'lmasa, ishga tushirishni bajarish uchun bosh sahifada Android Auto yoki Apple CarPlay belgisiga tegining.

Simsiz kanal bo'yicha CarPlay va/yoki Android Autoning funksiyalarining ishlashi Wi-Fi signalining tashqi manbalaridan xalallar sababli qisqa muddatli buzilishi mumkin.

Telefondan ma'lumotlarni simsiz proeksiyalanishini o'chirish uchun:

1. Bosh sahifada Sozlamalarni tanlang.
2. "Telefonlar"ni tanlang.
3. Siz o'chirib qo'ymoqchi bo'lgan xuddi o'sha telefon yanidagi qalam belgisiga bosing.
4. Apple CarPlay yoki Android Autoni o'chiring.

Bosh sahifaga qaytish uchun markaziy konsolda ⌂ tugmani bosing.

Funksiyalar tarkibida o'zgarishlar ehtimoli bor. Android Auto yoki Apple CarPlay funksiyalarni sozlash haqidagi batafsil ma'lumotlar uchun sizga xizmat ko'rsatuvchi avtosalonga murojaat qiling.

Android Auto standarti Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qo'llanilishi Google kelishuv shartlari va maxfiylik siyosati bilan tartiblashtiriladi. Apple CarPlay standarti Apple korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qo'llanilishi Apple kelishuv shartlari va maxfiylik siyosati bilan tartiblashtiriladi. Ma'lumotlarni uzatish uchun tarif rejasi bilan muvofiqlikda to'lov ushlab qolinadi. Android Auto qo'llab-quvvatlashi va sizning telefon modelingizning mos kelishligi masalasi bo'yicha https://support.google.com/androidauto saytiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Apple CarPlay qo'llab-quvvatlashi va sizning telefon modelingizni mos kelishligi masalasi bo'yicha com/ios/carplay/ saytiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Apple va Google kompaniyalari o'z servislarining qo'llanilish shartlarini o'zgartirishi yoki ularni to'xtatib qo'yishi mumkin. Android Auto, Android, Google, Google Play belgilanishlari va boshqa belgilar Google Inc. korporatsiyasining savdo belgilari hisoblanadi; Apple CarPlay belgilanishi Apple Inc korporatsiyasining savdo belgisi hisoblanadi. Android Auto yoki Apple CarPlay ilovalaridan chiqish uchun, markaziy konsolda ⌂ tugmasini bosing. Android Auto yoki Apple CarPlay ilovalariga qayta kirish uchun, markaziy konsolda ⌂ tugmasini bosing va ushlab turing.

Apple CarPlay va Android Autoni axborot-ko'ngilochar tizimda o'chirib qo'yish mumkin. Buning uchun "Uy", "Sozlamalar" belgilariga tegining, so'ngra displeyning tepa qismida "Ilovalar" qistirmasiga tegining. Apple CarPlay yoki Android Auto muvofiq o'zgartirgich bilan o'chiring.

Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik)

Agar avtomobil jamlanmasi bilan Android Auto va/yoki Apple CarPlay qo'llab-quvvatlashi ko'zda tutilgan bo'lsa, ushbu funksiyalardan mos keluvchi smartfonning mavjudligida foydalanish mumkin. Erishimli bo'lganida Android Auto va Apple CarPlay belgilari axborot-ko'ngilochar tizimning bosh sahifasida kulrangdan rangliga aylanadi.

Android Auto va (yoki) Apple CarPlay qo'llash uchun:

Telefon simi bo'yicha ulangan ma'lumotlarni proeksiyalash

1. Google Play ilovalar do'konidan o'z smartfoningizga Android Auto ilovasini yuklab oling. Apple CarPlayni qo'llash uchun biron bir ilovalarni o'rnatish talab etilmaydi.
2. Android-telefon yoki iPhoneni ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llaniluvchi tizimning USB-ulagichiga ularning jamlanmasiga kiruvchi USB-kabelni kiritish yordamida ulang. Qurilmani yetkazib berish jamlanmasidan USB-kabelni qo'llash tavsiya etiladi, ulanishning zaruriy sifatini ta'minlash uchun u eskirishi holatida, uni yangisiga almashtirish kerak. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning kabellari ishlamasligi mumkin.
3. Smartfonni birinchi ulashda Apple CarPlay yoki Android Auto ni faollashtirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida va smartfonda kelishuv shartlarini qabul qiling.
4. Smartfondagi yo'riqnomalarga amal qiling. Bosh sahifada Apple CarPlay va Android Auto belgilari smartfonga bog'liq holda yorishib turadi. Keyingi safar USBga ulanishda Android Auto va/yoki Apple CarPlay avtomatik ishga tushirilishi mumkin. Agar bu sodir bo'lmasa, ishga tushirishni bajarish uchun bosh sahifada Android Auto yoki Apple CarPlay belgisiga tegining.

Bosh sahifaga qaytish uchun markaziy konsolda ⌂ tugmani bosing.

Ulangan telefondan ma'lumotlarni simsiz proeksiyalash (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Google Android Auto yoki Apple CarPlay qo'llab-quvvatlash sahifasiga tashrif buyurib, sizning telefon simsiz interfeys bo'yicha mos kelishiga ishonch hosil qiling.

1. Agar smartfoningiz OC Android 9 yoki undan avvalgi versiyada boshqaruvida ishlayotgan bo'lsa, unga Google Play internet-portalidan Android Auto ilovani yuklab oling. Agar smartfon Apple CarPlay texnologiyasi, yoki OC Androidning keyingi versiyalar boshqaruvida ishlayotgan bo'lsa, xech qanday ilovani o'rnatishga hojat yo'q.
2. birinchi ulashda simsiz ulanishni sozlashning ikki usuli erishimli bo'ladi:
   - Android-telefon yoki iPhoneni ma'lumotlarni uzatish uchun qo'llaniluvchi tizimning USB-ulagichiga ularning jamlanmasiga kiruvchi USB-kabelni kiritish yordamida ulang. Qurilmani yetkazib berish to'plamidan USB-kabelni qo'llash tavsiya etiladi, uni ulanishning zaruriy sifatini ta'minlash uchun, uning eskirishi holatida yangisiga almashtirish kerak. Boshqa ishlab chiqaruvchilarning kabellari ishlamasligi mumkin.
   - Bluetooth bo'yicha telefonni ulash. Bluetooth kanali (Telefonni ulash va qo'llash - kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-25 yoki Bluetooth kanal (Qisqacha ma'lumot) ⇨ 6-21 yoki Bluetooth kanal (Telefonni ulash va qo'llash - bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-22ni ko'ring.
3. Telefondan displeyga ma'lumotlarni uzatish mumkin bo'lishi uchun o'z telefoningizda WiFi interfeysi yoqilganligiga ishonch hosil qiling.
4. Smartfonni birinchi ulashda Apple CarPlay yoki Android Auto ni faollashtirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida va smartfonda kelishuv shartlarini qabul qiling.
5. Smartfondagi yo'riqnomalarga amal qiling. Bosh sahifada Apple CarPlay va Android Auto belgilari smartfonga bog'liq holda yorishib

turadi. Telefonni simsiz ulanishini o'rnatishda Android Auto va (yoki) Apple CarPlay avtomatik ishga tushirilishi mumkin. Agar bu sodir bo'lmasa, ishga tushirishni bajarish uchun bosh sahifada Android Auto yoki Apple CarPlay belgisiga tegining.
Simsiz kanal bo'yicha CarPlay va/yoki Android Autoning funksiyalarining ishlashi Wi-Fi signalining tashqi manbalaridan xalallar sababli qisqa muddatli buzilishi mumkin.
Telefondan ma'lumotlarni simsiz proeksiyalanishini o'chirish uchun:
1. Bosh sahifada sozlamalar belgisini yoki ekranning chap qismidagi yorliqlar bo'lmachasida sozlamalar belgisini tanlang.
2. Ulanishni tanlang.
3. Telefonlarni bosing.
4. Telefon yoki mobil qurilmaning sozlamalarini chiqarish uchun, telefon kartochkasida "Sozlamalar"ni bosing.
5. Apple CarPlay yoki Android Autoni o'chiring.
Bosh sahifaga qaytish uchun markaziy konsolda ⌂ tugmani bosing.
Funksiyalar tarkibida o'zgarishlar ehtimoli bor. Android Auto yoki Apple CarPlay funksiyalarni sozlash haqidagi batafsil ma'lumotlar uchun sizga xizmat ko'rsatuvchi avtosalonga murojaat qiling.
Android Auto standarti Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qo'llanilishi Google kelishuv shartlari va maxfiylik siyosati bilan tartiblashtiriladi. Apple CarPlay standarti Apple korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Uning qo'llanilishi Apple kelishuv shartlari va maxfiylik siyosati bilan tartiblashtiriladi. Ma'lumotlarni uzatish uchun tarif rejasi bilan muvofiqlikda to'lov ushlab qolinadi. Android Auto qo'llab-quvvatlashi va sizning telefon modelingizning mos kelishligi masalasi bo'yicha https://support.google.com/androidauto saytiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Android CarPlay qo'llab-quvvatlashi va sizning telefon modelingizning mos kelishligi masalasi bo'yicha carplay/ saytiga murojaat qilish zarur bo'ladi. Apple va Google kompaniyalari o'z servislarini qo'llanilishini o'zgartirishi yoki ularni to'xtatib qo'yishi mumkin. Android Auto, Android, Google, Google Play belgilanishlari va boshqa belgilar Google Inc. korporatsiyasining tovar belgilari hisoblanadi; Apple CarPlay belgilanishi Apple Inc. korporatsiyasining tovar belgisi hisoblanadi.
Android Auto yoki Apple CarPlay ilovalaridan chiqish uchun, markaziy konsolda ⌂ tugmasini bosing. Android Auto yoki Apple CarPlay ilovalariga qayta kirish uchun, markaziy konsolda ⌂ tugmasini bosing va ushlab turing.

SOZLAMALAR

Sozlamalar (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik)

Sozlamalar menyusining tarkibini uchta toifalar bo'yicha taqsimlash mumkin. Zaruriy toifani "Tizim", "Ilovalar" yoki "Avtomobil" bandlariga teginib tanlang.
Menyuni ochish uchun:
1. Axborot-ko'ngilochar tizimning bosh sahifasida Sozlamalar belgisini bosing.
2. Erishimli bandlarni ro'yxatini aks ettirish uchun zaruriy toifaga tegining.
3. Teginish bilan zaruriy funksiyani tanlang.
4. Funksiyani yoqish yoki o'chirish uchun ◯ yoki | ga tegining.
5. "SOZLAMALAR" menyusining tepa darajasiga o'tish uchun ✕ belgisiga tegining.
Menyuda quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Tizim

Menyuda quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Vaqt/sana

Soatlar sozlanishiga ruxsat beradi.

Language (til)

Axborot-ko'ngilochar tizim ekranida qo'llaniluvchi tilni o'rnatadi.

Telefonlar

Uyali telefon yoki mobil qurilmaga ulanish uchun, uyali telefon yoki multimedia qurilmasini uzib qo'yish yoki o'chirib yuborish uchun tegining.

Wi-Fi tarmoqlari

Chor atrofda yoki avtomobil ichkarisida aniqlangan ulangan va erishimli Wi-Fi tarmoqlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Agar avtomobil uchun 4G LTE tarmog'i bo'yicha ma'lumotlarni uzatish paketi faollashtirilmagan bo'lsa, tarmoq xizmatlarini qo'llash uchun axborot-ko'ngilochar tizim mobil qurilmaga, uy kirish nuqtasiga yoki boshqa tashqi himoyalangan Wi-Fi tarmog'iga ulanishi mumkin.

Wi-fi ulanish nuqtasi

Turli xil Wi-Fi xususiyatlarini sozlashni ta'minlaydi.

Ekran

M'alumot-ko'ngilochar tizimining ekran sozlamasini boshqaradi.

Ovozlar

M'alumot-ko'ngilochar tizimining ovozlar sozlamasini ta'minlaydi.

Saralangan

M'alumot-ko'ngilochar tizimining saqlangan sozlamalarini boshqaradi.

Tizim ma'lumotlari

M'alumot-ko'ngilochar tizimining dasturiy ta'minoti haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi.

Zavod sozlamalarini tiklash

Avtomobildagi ma'lumot-ko'ngilochar tizimini qayta yangilashga imkon beradi.

Ilovalar

Menyuda quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Android Auto

Ushbu funksiya axborot-ko'ngilochar tizim displeyi orqali telefon bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradi. Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-31 yoki Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-29ni ko'ring. "O'chirilgan" yoki "Yoqilgan" bandni bosing.

Apple CarPlay

Ushbu funksiya axborot-ko'ngilochar tizim displeyi orqali telefon bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lishga imkon beradi. Apple CarPlay va Android Auto (Kengaytirilgan jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-31 yoki Apple CarPlay va Android Auto (Bazaviy jamlanmadagi radiopriyomnik) ⇨ 6-29ni ko'ring. "O'chirilgan" yoki "Yoqilgan" bandni bosing.

Audio tizimi

Turli xil audio tizim sozlamalarini boshqarish imkonini beradi.

Telefon

Turli xil telefon sozlamalarini boshqarish imkonini beradi.

Avtomobil

Menyuda quyidagi bandlar bo'lishi mumkin:

Orqa o'rindiqlar haqida eslatma

Avtomobilni boshqarish vaqtida yoki undan avval orqa eshik ochilganda, ovozli signal yoki xabar berishni ta'minlaydi.

Iqlim va havo sifati

Iqlim nazorati tizimining turli xil sozlamalarini boshqarish imkonini beradi.

Xavf haqida ogohlantirish tizimlari

Haydovchiga yordam tizimining turli xil sozlamalarni boshqaradi.

Shinamlik va qulaylik

Shinamlik va qulaylik tizimining turli xil sozlamalarni boshqaradi.

Yoritish moslamalari
Turli xil yoritish sozlamalarini boshqaradi.

Eshiklar qulflarining elektrqulflanishi
Eshiklar qulflarining turli xil sozlamalarini boshqaradi.

Masofadan qulflash/ochish/ishga tushirish
Qulflarni masofadan boshqarishning turli xil sozlamalarni boshqaradi.

Yo'lni yoritish
Yurish balandligini boshqarish.

Power Assist Steps (Yordamchi oyoq tayanchlari)
Avtomobilning oyoq tayanchlari holatini boshqarish.

O'rindiqlar holati
Turli xil o'rindiqlarning sozlamalarini boshqaradi.

Ko'targich
Ko'targich parametrlarini boshqarish.

Sozlamalar (kengaytirilgan to'plamdagi radio qabul qilgich)
Hisob qaydnomasi yaratilganda, ayrim sozlamalarning boshqarilishi, egasining Markaz saytlarida amalga oshirilishi mumkin.
Agar boshqa foydalanuvchilar avtomobilda hisob qaydnomalariga kirgan yoki yaratgan bo'lsa, bu sozlamalar o'zgartirilishi mumkin. Natijada, ma`lumot-ko'ngilochar tizimining xavfsizlik va ishlash parametrlarini o'zgartirish mumkin. Ayrim sozlamalarni yangi avtomobilga o'tkazish mumkin. Ko'rsatmalar uchun, dilerga murojaat qiling.
Oxirgi foydalanuvchiga xizmatlarni taqdim etish shartlari va Maxfiylik haqida arizada muhim ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. Ko'rish uchun axborot-ko'ngilochar tizimning displeyini bosh sahifasida "Sozlamalar" belgisiga tegining.
Personallashtirish menyusiga kirish uchun:
1. Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyini bosh sahifasida "Sozlamalar" belgisiga tegining.
2. Erishimli bandlarni ro'yxatini aks ettirish uchun zaruriy toifaga tegining.
3. Teginish bilan zaruriy funksiyani tanlang.
4. Axborot-ko'ngilochar tizim displeyida bandlarga teginish bilan funksiyani yoqing yoki o'chiring.
5. Qaytish uchun < ni bosing.
Sozlamalar menyusida quyidagi bandlar saqlanishi mumkin:

Ulanishlar

Telefonlar
Turli xil uyali telefonlar yoki mobil qurilmalarga ulanish, o'chirish yoki
uyali telefon yoki multimedia qurilmasini olib tashlashni ta`minlaydi.

Avtomobil-telefonning ma'lumotlariga umumiy kirish
GM ilovalariga ro'yxatdan telefonlarda avtomobilning ma'lumotlarini qo'llanilishiga imkon beradi.

Avtomobil
Menyuda quyidagi elementlar bo'lishi mumkin:

Orqa o'rindiqlar haqida eslatma
Avtomobilni boshqarish vaqtida yoki undan avval orqa eshik ochilganda, ovozli signal yoki xabar berishni ta'minlaydi

Iqlim va havo sifati
Iqlim nazorati tizimining turli xil sozlamalarini boshqarish imkonini beradi.

Xavf-xatar haqida ogohlantirish tizimi
Haydovchiga yordam tizimlarining har xil parametrlarini sozlash.

Shinamlik va qulaylik
Shinamlik va qulaylik tizimining turli xil sozlamalarni boshqaradi.

Yoritish moslamalari
Turli xil yoritish sozlamalarini boshqaradi.

Eshiklar qulflarining elektrqulflanishi
Eshiklar qulflarining turli xil sozlamalarini boshqaradi.

Masofadan qulflash/ochish/ishga tushirish
Qulflarni masofadan boshqarishning turli xil sozlamalarni boshqaradi.

Yo'lni yoritish
Yurish balandligini boshqarish.

Power Assist Steps (Yordamchi oyoq tayanchlari)
Avtomobilning oyoq tayanchlari holatini boshqarish.

O'rindiqlar holati
Turli xil o'rindiqlarning sozlamalarini boshqaradi.

Ko'targich
Ko'targich parametrlarini boshqarish.

Apps & Permissions (Ilovalar va ruxsatlar)
Ekranda o'rnatilgan ilovalar ro'yxatini va ularga berilgan ruxsatlarni ko'rsatadi.

Vaqt va sana
Soatni sozlashni yoqadi.

Ekran
Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining ekran sozlamalarini boshqaradi.

Ovozlar
Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining ovoz sozlamalarini ta`minlaydi.

Maxfiylik
Maxfiylik parametrlarini boshqaradi.

Xotira
Ekranda ma`lumot-ko'ngilochar tizimi saqlash moslamasining parametrlarini ko'rsatadi.

Security
Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining xavfsizlik parametrlarini boshqaradi.

Tizim
Menyuda quyidagi elementlar bo'lishi mumkin:

Til (Language)
Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining displeyida matn tili o'rnatiladi.

Ishni tez boshlash
Axborot-ko'ngilochar tizimning oxirgi seansini tez tiklash.
Avtomobil to'xtab turishga o'rnatilgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizimni qayta yuklash uchun rul chambaragidagi tovushni o'chirish/chaqiruvni yakunlash tugmasini bosing va uni 15 sekund ushlab turing.

Keyboard & speech (klaviatura va nutq)
Klaviatura va nutqni aniqlash parametrlarini o'zgartirish.

Sozlamalarni qayta yangilash
Sozlamalarni qayta yangilash parametrlarini o'zgartirish.

Tizim ma'lumotlari
Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining dasturlariy ta`minot ma'lumotlarini ko'rish uchun, bosing.

Legal Information (Huquqiy ma'lumot)
Yuridik va litsenziya ma'lumotlarini ko'rish uchun, bosing.

Local System Update (Mahalliy tizim yangilanishi)
Avtomobil tizimlarini yangilash parametrlarini sozlash.

SAVDO BELGILARI VA LITSENZION KELISHUVLAR

"Made for iPhone" belgilari elektron qurilma Apple texnik talablariga muvofiqlikka ishlab chiquvchi tomonidan muvofiq va sertifikatlashtirilgan iPhonega ulanish imkoniyatini ko'zda tutilishini anglatadi. Apple kompaniyasi ushbu qurilmaning ishlashiga va uning xavfsizlik standartlariga va me'yoriy talablarga muvofiqligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ushbu qurilmaning iPhone bilan ishlashi simsiz aloqaning faoliyat yuritishiga ta'sir qilishi mumkinligiga e'tiboringizni qarating. iPhone AQShda va boshqa mamlakatlarda ro'yxatdan o'tkazilgan Apple Inc.ning savdo belgisi hisoblanadi.

TouchSense texnologiya va TouchSense System 1000 seriyasi Immersion korporatsiyasining litsenziyasi bo'yicha qo'llaniladi. TouchSense System 1000 texnologiyasi patent-marking.html manzili bo'yicha ko'rsatilgan AQShning bir yoki bir nechta patentlari bilan himoyalangan; boshqa patentlarga arizalar kiritilgan.

Bose

Bose AudioPilot va Bose Centerpoint Surround AQshda va boshqa mamlakatlarda ro'yxatdan o'tkazilgan Bose Corporation savdo belgilari hisoblanadi.

Bluetooth kanali

Bluetooth so'zli belgisi va logotipi Bluetooth SIG, Inc.ning mulki hisoblanadi va General Motors kompaniyasi tomonidan faqat litsenziyaga muvofiq qo'llaniladi. Boshqa savdo belgilari va nomlanishlar ularning egalarining mulki hisoblanadi.

Java

Java Oracle kompaniyasining va/yoki u bilan affillangan kompaniyalarning ro'yxatdan o'tkazilgan savdo belgisi hisoblanadi.

MPEG4–AVC (H.264)

USHBU MAHSULOT QUYIDAGI MAQSADLARDA ISTE'MOLCHI TOMONIDAN SHAXSIY VA NOTIJORAT QO'LLASH UCHUN AVC PATENT LITSENZIYALAR PORTFELI SHARTLARIDA TAQDIM ETILADI: (i) AVC STANDARTI BILAN MUVOFIQLIKDA VIDEONI KODLASH VA/YOKI (ii) SHAXSIY VA NOTIJORAT FAOLIYAT DOIRASIDA ISTE'MOLCHI TOMONIDAN KODLANGAN YOKI AVC VIDEONI YETKAZIB BERISHGA LITSENZIYAGA EGA BO'LGAN VIDEOMATERIALLAR YETKAZIB BERUVCHISIDAN OLINGAN AVC VIDEONI DEKODLASH. HAR QANDAY BOSHQA TARZDA QO'LLASHGA HECH QANDAY LITSENZIYALAR TAQDIM ETILMAYDI VA KO'ZDA TUTILMAYDI. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARNI MPEG LA, LLC KOMPANIYASIDAN OLISH MUMKIN. '

VC-1

USHBU MAHSULOT QUYIDAGI MAQSADLARDA ISTE'MOLCHI TOMONIDAN SHAXSIY VA NOTIJORAT QO'LLANILISHI UCHUN VC-1 PATENT LITSENZIYALAR PORTFELI SHARTIDA TAQDIM ETILADI: (i) VC-1 ("VC-1 VIDEO") STANDARTI BILAN MUVOFIQLIKDA VIDEONI KODLASH VA/YOKI (ii) SHAXSIY VA NOTIJORAT FAOLIYAT DOIRASIDA ISTE'MOLCHI TOMONIDAN KODLANGAN YOKI VC-1 VIDEONI YETKAZIB BERISHGA LITSENZIYAGA EGA BO'LGAN VIDEOMATERIALLAR YETKAZIB BERUVCHISIDAN OLINGAN VC-1 VIDEONI DEKODLASH. HAR QANDAY BOSHQA TARZDA QO'LLASHGA HECH QANDAY

LITSENZIYALAR TAQDIM ETILMAYDI VA KO'ZDA TUTILMAYDI. QO'SHIMCHA MA'LUMOTLARNI MPEG LA, LLC KOMPANIYASIDAN OLISH MUMKIN.

MPEG4–video

MPEG-4 VIDEOKODLASH STANDARTI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN HAR QANDAY TARZDA USHBU MAHSULOTNI QO'LLASH TAQIQLANADI, Iste'molchi TOMONIDAN SHAXSIY VA NOTIJORAT MAQSADLAR UCHUN QO'LLASH BUNDAN MUSTASNO.

MP3

MPEG Layer-3 ovozni dekodlash texnologiyasi Fraunhofer IIS va Thomson litsenziyalari asosida qo'llaniladi.

WMV/WMA

Ushbu mahsulotda Microsoft Corporationga tegishli bo'lgan va Microsoft Licensing, GP, litsenziyasi asosida qo'llaniluvchi texnologiya qo'llaniladi. Bunday texnologiyaning ushbu mahsulotdan tashqari bog'liqlikda qo'llanilishi yoki tarqatilishi holatlarga bog'liq holda Microsoft Corporation va/yoki Microsoft Licensing, GP, litsenziyasi bilan taqiqlanadi.

IZOH

7 IQLIM-NAZORATNI BOSHQARISH ORGANLARI

- IQLIM-NAZORAT TIZIMLARI 7-2
- VENTILYATSION PANJARALAR 7-7
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH 7-8
- IZOH 7-10

IQLIM-NAZORAT TIZIMLARI

Avtomatik iqlim-nazoratning ikki zonali tizimi

Ushbu tizim yordamida avtomobilni isitish, sovutish va ventilyatsiya qilishni boshqarish amalga oshiriladi.



1. Haydovchi va yo'lovchining zonasida haroratni sozlash tutqichlari
2. MAX (muzdan tushirish)
3. Havoni taqsimlash rejimlarini boshqarish organlari
4. A/C (konditsioner)
5. SYNC (haroratning sinxronlashtirilgan sozlamasi)
6. Qayta aylanish
7. Salon orqasida iqlim-nazorat
8. Oziqlanish tugmasi
9. Ventilatorni boshqarish
10. Salon orqasida iqlim-nazorat tizimini oziqlantirish tugmasi
11. Orqa oynaning antitelchirlagichi yoki toshoynalarni isitish
12. AUTO (Avtomatik rejim)

Iqlim nazorati tizimi oldi displeyi



Rasmda yuqori darajali versiya ko'rsatilgan.

1. Haydovchi va yo'lovchining zonasida harorat sozlamalari
2. Ventilatorni boshqarish
3. Haydovchi va yo'lovchining zonasida haroratni sozlash tutqichlari
4. Resirkulyatsiya
5. A/C (konditsioner)
6. Sync (haroratni sinxronlashtirilgan sozlanishi)
7. Auto (Avtomatik rejim)
8. Havoni taqsimlash rejimlarini boshqarish organlari
9. On/Off (Oziqlanish)
10. Oldi Iqlim nazoratini tanlash

Ko'ngilochar tizimning asosiy oynasidagi CLIMATE ni bosish orqali, ventilyator, havo uzatish rejimi va konditsionerlash, haydovchining ish joyidagi va yo'lovchilarning o'rindiqlaridagi harorat, shunungdek, Sync parametrlarini sozlash mumkin. Bundan so'ng, tanlovni, oldi iqlim nazoratining birinchi ko'rininadigan sahifasida amalga oshirish mumkin.
Markaziy konsolda iqlim-nazoratini boshqarish organlari qo'llanilishida displeyda qisqa vaqtga ventilator aylanishining o'rnatilgan tezligi aks ettiriladi.

Avtomatik rejim

Ushbu rejimda tizim ventilator aylanishlarini avtomatik sozlaydi, havoni taqsimlash rejimini va konditsionerning ishlash rejimini tanlaydi, kerakli haroratgacha avtomobil salonidagi havoni isitish yoki sovitish uchun qayta aylanish rejimini yoqadi va o'chiradi.
AUTO indikatori yorishib turgan vaqtda barcha to'rtta funksiyalar avtomatik rejimda ishlaydi. Funksiyalardan har birini qo'lda sozlash mumkin, o'rnatilgan sozlama esa displey ekraniga chiqariladi. Qo'lda sozlanmagan o'sha funksiyalar avtomatik rejimda, hattoki agar AUTO indikatori yonib turmagan bo'lsa ham, ishlashda davom etadi.

Avtomatik rejimga o'tkazish tartibi:
1. AUTO klavishasini bosing.
2. Zaruriy haroratni tanlang. Toki tizim salonda zaruriy mikroiqlimni yaratmaguncha kuting.
Haroratni maksimal qulay darajagacha sozlang.
Issiq ob-havoda yonilg'ini tejash va salonni ancha tez sovutilishini ta'minlash uchun qayta aylanish rejimi avtomatik yoqilishi mumkin.
Qayta aylanish indikatori avtomatik boshqarishda yonmaydi. Indikator haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni "Qo'l rejimida boshqarish" bo'limida ko'ring.

Qo'l rejimida boshqarish

: Ventilator aylanish tezligini oshirish yoki kamaytirish uchun tutqichni soat strelkasi bo'yicha yoki soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang. Tutqichga bosish bilan ventilator o'chadi. O'chirilishdan keyin chiqarish tirqishlaridan harakatlanish tezligiga bog'liq holda ozgina havo chiqishi mumkin. Istalgan tugmalardan birini bosishda yoki istalgan tutqichni burashda iqlim-nazorat tizimi yoqiladi va o'rnatilgan rejimda ishlaydi.

Avtomatik rejimga qaytish uchun AUTOni bosing.

Haydovchi va yo'lovchi joylari - haroratni nazorat qilish: Haroratni haydovchi va yo'lovchi uchun alohida sozlash mumkin.
Haydovchi yoki yo'lovchi zonasida haroratni oshirish yoki pasaytirish uchun tutqichni soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang. Haroratning ko'tarilishi yoki pasayishi haydovchi yoki yo'lovchi tomondagi displey ekraniga chiqariladi.

SYNC : Haydovchi tomonidan o'rnatilgan harorat bilan yo'lovchi tomonidan o'rnatilgan haroratni sinxronlashtirish uchun bosing. Bunda SYNC indikator yonadi. Yo'lovchi tomonida haroratni sozlagandan keyin SYNC indikatori o'chadi.

Havoni taqsimlash rejimlarini boshqarish: Havo oqimining yo'nalishini o'zgartirish uchun , yoki ni bosing.
Ushbu uchta sozlagichlarni har qanday majmuada bosish mumkin. Bunda, tanlangan rejimni bosilgan klavishasini yoritgichi yonadi.
Rejimni o'zgartirganda avtomatik sozlash bekor qilinadi, va tizim qo'l rejimiga o'tadi. Avtomatik rejimga qaytish uchun AUTOni bosing.

Joriy rejimni o'zgartirish uchun quyidagi opsiyalardan birini yoki bir nechtasini tanlang:
: Havo old oynaga, konditsionerni yon tomon chiqarish tirqishlariga va yon tomon oynalarining chiqarish tirqishlariga uzatiladi.
: Havo konditsionerni chiqarish tirqishlariga uzatiladi.
: Havo pol usti chiqarish tirqishlariga va qisman old oynaga, konditsionerni yon tomon chiqarish tirqishlari va yon tomon oynalarining chiqarish tirqishlariga uzatiladi.
MAX: havo old oynaga uzatiladi, ventilator esa yuqori aylanishlarda ishlaydi, agar faqat ular o'rtachalardan yuqori bo'lib bo'lmagan bo'lsa. Ushbu rejimga o'tishda oldingi rejim o'chadi, old oyna esa telchillashdan yoki shudringdan tez tozalanadi. Sozlagichga qayta bosishda tizim oldingi rejimga, ventilator esa - oldingi aylanishlarga qaytadi.
Maqbul natijalarga erishish uchun, qirovni olib tashlash rejimini yoqishdan avval, old oynadan qor va muzlarni tozalash kerak.
: Qayta aylanishni yoqish uchun bosing. Bunda indikator yoqilishi kerak. Qayta aylanish davomida havo avtomobil salonini tez sovitadi.
Bundan tashqari, ushbu rejim avtomobilga tashqaridan havoning va hidlarning kirib borishiga to'sqinlik qiladi.
Sovuqda yoki yuqori namlik sharoitlarida qayta aylanish rejimini uzoq qo'llash tavsiya etilmaydi. Sovuqda yoki yuqori namlik sharoitida qayta aylanish deraza oynalarining telchillab qolishiga olib kelishi mumkin.
A/C: Ushbu klavishaga bosishni amalga oshirib konditsionirlash tizimini yoqiladi va o'chiriladi. Konditsionerning yoqilishiga muvofiq indikator ko'rsatadi. Agar ventilator o'chirilgan bo'lsa, demak, konditsioner ishlamayotgan bo'ladi.
A/C indikatori hattoki tashqi harorat noldan past bo'lganda ham yorishib turadi.

Orqa oynaning antitelchillagichi

ORQA: Orqa oynaning antitelchillagichini yoqish yoki o'chirish uchun bosing. Klavishada indikatorning yorishishi orqa oyna antitelchillagich yoqiqligiga ko'rsatadi.
Orqa oynaning antitelchillagichi faqat ishga tushirilgan dvigatelda ishlaydi. Agar avtomobil yordamchi asbob-uskunalarga xizmat ko'rsatish rejimiga o'tkazilishida, antitelchillagich o'chadi.
Tashqi toshoynalarni isitgichi ga bosishda yoqiladi va o'chiriladi. Isitgichli oynalar ⇨ 1-26 ni ko'ring.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Ichki tomondan orqa oynalarni tozalash uchun ustara yoki boshqa o'tkir buyumlarning qo'llanilishi oyna isitgichi to'rini shikastlashi mumkin.
> Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. Oynaning ichki yuzasini o'tkir buyumlar bilan tozalamang.

Avtomobilni masofadan ishga tushirishda iqlim-nazoratning ishlashi: Dvigatelni masofadan ishga tushirishda (muvofiq jamlanmadagi avtomobillarni) iqlim-nazorat tizimi avtomatik yoqilishi mumkin. O'rindiqlar isitilishi yoki ventilyatsiyasi, hamda rul chabaragini isitilishi bo'lgan avtomobillarda ushbu funksiyalarni masofadan ishga tushirishda yoqish mumkin. Avtomobilni masofadan ishga tushirish ⇨ 1-9, Isitiluvchi oldingi o'rindiqlar ⇨ 2-8 va Isitiluvchi rul chambaragi ⇨ 4-2ni ko'ring.

Datchiklar

Old oyna yonida uskunalar panelida yoritilganlik datchigi quyosh nurlanishini jadalligini nazorat qiladi.

Iqlim-nazorat tizimi salonda maksimal shinam mikroiqlimni qo'llab-quvvatlab, haroratni, ventilator aylanishi tezligini, qayta aylanish rejimini yoqish va o'chirish va havoni taqsimlash rejimlarini o'zgartirish uchun datchik signalini qo'llaydi.
Iqlim-nazoratini boshqarish tizimini noto'g'ri ishlashidan saqlanish maqsadida datchikni to'sib qo'ymang.

Ventilator o'chirilishini kechiktirilishi

Ba'zi jamlanmalarda muayyan sharoitlarga rioya qilishda ventilator ishlashda davom etishi yoki o't oldirish o'chirilishi va avtomobil eshiklarini qulflari bloklangandan keyin yana bir qancha muddat vaqti-vaqti bilan yoqilishi mumkin. Bu odatiy holat.

Iqlim-nazoratning orqa tizimi

Salon orqasidagi iqlim-nazorat tizimi markaziy konsolning buyumlar bo'linmasining orqa qismida joylashgan. Ushbu tizim salonning orqa qismida mikroiqlimni sozlashga imkon beradi.

1. Ventilatorni boshqarish
2. TEMP (haroratni nazorat qilish)
3. Orqa o'rindiqlarni isitilishi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
4. M O D E (havoni taqsimlash rejimlari o'zgartirgichi)
5. AUTO (Avtomatik rejim)

Agar salonning orqa qismida mikroiqlimni sozlashga imkon beruvchi iqlim-nazoratning ikki avtomatik tizimi funksiyasi bloklangan bo'lsa, uni oldingi o'rindiqdan sozlash imkoni qoladi.



Rasmda, orqa tarafdagi iqlim nazorati parametrlarini sozlash oynasi va yuqori darajali versiya ko'rsatilgan

1. Orqadagi haroratni sozlash
2. Ventilatorni boshqarish
3. Sync (haroratlarni sinxronlashtirish)
4. Orqa boshqaruv organlarini bloklash
5. Auto (Avtomatik rejim)
6. Havoni taqsimlash rejimlarini boshqarish
7. On/Off (Oziqlanish)
8. Orqada iqlim-nazoratni tanlash
9. Salonning orqa tomonida iqlim-nazoratini boshqarish organlari

Avtomatik rejim

AUTO: AUTOga bosish bilan orqa yo'lovchilarning o'rindiqlari yonida haroratni, havo uzatishni va ventilator aylanishlarini avtomatik sozlash yoqiladi. Avtomatik rejimda ishlashda displey ekranida AUTO harfi yonib turadi.

Orqada iqlim-nazoratning parametrlaridan istalganini sozlash to'liq avtomatik rejimni o'chiradi. To'liq avtomatik rejimga qaytish uchun AUTOni bosing.

Iqlim-nazorat funksiyalari faqat qolgan salonga bog'liq bo'lmagan holda orqada mikroiqlim qo'llab-quvvatlab turilgan vaqtda ekranga chiqariladi.

Qo'l rejimida boshqarish

: Ventilator aylanish tezligini oshirish yoki kamaytirish uchun tutqichni soat strelkasi bo'yicha yoki soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang. Ventiyaltorni/oziqlanishni o'chirish uchun, tiralgunicha soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang.

TEMP: Yo'lovchilar saloniga uzatiluvchi havo haroratini muvofiq tarzda oshirish yoki pasaytirish uchun, soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang. Oldinda mikroiqlimni qo'llab-quvvatlash pultida SYNC tugmasini bosish bilan salonning orqa tomonidagi harorat haydovchi tomonidan o'rnatilgan harorat bilan sinxronlashtiriladi.

MODE: Salonda havo oqimini yo'nalishini o'zgartirish uchun bosing. Toki displeyda kerakli rejim belgilanishi paydo bo'lmagunicha, ushbu tugmani bosing. Ko'p martalik bosishda havo uzatilishi siklik o'zgaradi.

yoki : Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, chap yoki o'ng yon tomon o'rindiqlarining yostiqlarini isitilishini yoqish uchun yoki ni bosing. Isitiladigan orqa o'rindiqlar ⇨ 2-14ni ko'ring.

VENTILYATSION PANJARALAR

Sozlanuvchi ventilyatsion tirqishlar uskunalar panelining o'rtasida va yon tomonida joylashgan.



Havo oqimini yo'nalishini o'zgartirish uchun, emaklagichni suring. Ventilyatsion tirqishlarni yopish uchun, emaklagichni o'zingizdan chetki holatga o'tkazing.

Orqadagi ventilyatsion tirqishlar

Avtomobil ikkinchi va uchinchi qatorlardagi o'rindiqlar tepasidagi shift qoplamasiga o'rnatilgan to'rtta dumaloq yoki to'g'ri burchakli ventilyatsion tirqishlar bilan jihozlangan.

Dumaloq chiqarish tirqishini ochish uchun, o'rta plastinaning orqa chetiga bosing. Tirqishning o'rta plastinasidan havoning yo'nalishini o'zgartirib aylantirish mumkin. Havo oqimini to'sib qo'yish uchun, o'rta plastinaning oldingi chetiga bosing.



To'g'ri burchakli ventilyatsion tirqishlardan havo oqimining yo'nalishi emaklagichni surish bilan o'zgartiriladi, silindrni chapga yoki o'nga aylantirish bilan esa havo oqimi to'siladi.

Qo'llash bo'yicha maslahatlar

- Old oyna asosidagi havo to'plagichlarni avtomobilga havo kiritilishini to'sib qo'yishi mumkin bo'lgan muzdan, qordan va barglardan tozalab turing.
- Ko'rish maydonini yaxshilash va avtomobilga namlikni tushib qolishini kamaytirish uchun kapotdan qorni tozalang.
- Sovuq paytda rulga o'tirib, joydan qo'zg'alishdan avval ventilator aylanishlarini maksimalgacha oshirish tugmasini bosing. Bu havoto'plagichlarni qordan va namlikdan tozalashga yordam beradi, hamda oynalarning ichkaridan telchillab qolishiga to'sqinlik qiladi.
- Oldingi o'rindiqlar ostidagi bo'shliqni salonda havoning ancha samarali tarqalishi uchun bo'sh holatda tuting.
- GM kompaniyasi tomonidan tasdiqlanmagan kapot akslagichlarining qo'llanilishi tizimning ishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Avtomobilning tashqarisidan biron bir asbob-uskunalarni o'rnatishdan avval o'zingizni texnik xizmat ko'rsatish stansiyangiz bilan maslahatlashing.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Salon filtri

Ushbu filtr tashqi havo salonga kiritilishidan avval, uni changdan, gul changidan va boshqa salmoqli zarralardan tozalashga imkon beradi.
Ushbu filtrning kartridjini TXK o'tkazilish vaqtida almashtirish zarur. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3ni ko'ring.
Qaysi turdagi filtrni qo'llash zarurligini bilib olish uchun Texnik xizmat ko'rsatish uchun ehtiyot qismlar ⇨ 10-14ni ko'ring.



1. Pastki qo'lqop qutisini eshikchasini to'liq oching.



2. Qo'lqop qutisini qaydlagichlardan bo'shatib olib, uning yon tomon devorlariga bosing, bundan so'ng qutini tushiring.



3. Qo'lqop qutisini to'liq chiqarib olish uchun, dempferni tashqariga tortish bilan bo'shatib oling.



4. Filtr qopqog'idan chapdagi dastachani (1) tortib, uni chapga (2) suring, bundan so'ng qopqopni yechib oling. Oldingi filtrni yeching.
5. Yangi havo filtrini o'rnating.
6. Filtr qopqog'ini joyiga o'rnating.
7. Qo'lqop qutisining qopqog'ini joyiga o'rnatish teskari tartibda amalga oshiriladi.
Qo'shimcha yordam uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Xizmat ko'rsatish

Barcha avtomobillarning kapoti ostida to'ldirilgan xladagent turi ko'rsatilgan yopishtirma yorliq mavjud. Konditsionerlash tizimiga xizmat ko'rsatish faqat ixtisoslashgan o'qitishdan o'tgan malakali xodimlar tomonidan bajarilishi kerak. Konditsionerlash tizimining bug'latgichini ta'mirlash yoki uni hisobdan chiqarilgan avtomobildan yechilgan boshqasiga almashtirish taqiqlanadi.

Ishlashni ishonchliligini va xavfsizligini ta'minlash uchun, almashtirish uchun faqat yangi bug'lantirgichni qo'llash kerak.

Tizimga xizmat ko'rsatish o'tkazilish vaqtiga undan xladagentni maxsus idishlarga to'kib olish, buning uchun maxsus asbob-uskunalarni qo'llash kerak. Xladagent atmosferaga bug'lanib ketishi mumkin bo'lgan idishga uning to'kilishi tabiatga zarar yetkazishi va odamlarga xavf-xatar keltirishi mumkin, chunki u nafas olish yo'llariga tushib qolishi, kuydirishi yoki sog'liqqa boshqa zararlarni keltirishi mumkin.

Konditsioner davriy xizmat ko'rsatishga muhtoj. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3ni ko'ring.

IZOH

8 AVTOMOBILNI HAYDASH VA BOSHQARISH

- HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR 8-2
- ISHGA TUSHIRISH VA EKSPLUATATSIYA 8-16
- CHIQINDI GAZLAR 8-22
- AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI 8-23
- AVTOMOBILNI BOSHQARISH TIZIMLARI 8-27
- TORMOZ TIZIMI 8-31
- HARAKATLANISHNI STABILLASHTIRISH TIZIMLARI 8-34
- KRUIZ-NAZORAT 8-44
- HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI 8-47
- YONILG'I 8-65
- TIRKAMANI SHATAKLASH 8-68
- AVTOMOBIL KONSTRUKSIYASINI O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHA ASBOB-USKUNALARNI O'RNATISH 8-89
- IZOH 8-90

HAYDOVCHIGA MASLAHATLAR

Yonilg'i sarfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar

Haydash uslubi yonilg'i sarfiga ahamiyatli ta'sirni ko'rsatadi. Quyida ba'zi tavsiyalar keltiriladi, ular sizga avtomobil tomonidan yonilg'i iste'mol qilinishini maksimal qisqartirishga yordam beradi:

- Dvigatelni ishga tushirishdan keyin iqlim-nazorat boshqaruv paneli yordamida zaruriy haroratni o'rnating yoki, agar iqlim-nazorat kerak bo'lmasa, uni o'chirib qo'ying.
- Joydan keskin qo'zg'alishdan saqlaning, avtomobil harakatlanishi tezligini ravon oshiring.
- Avtomobil harakatini ravon sekinlashtiring, keskin tormozlanishdan saqlaning.
- Dvigatelni uzoq vaqt davomida bo'sh aylanish bilan ishlashda qoldirmang.
- Agar yo'l xususiyati va ob-havo sharoitlari imkon bersa, kruiz-nazoratni qo'llang.
- Har doim belgilangan tezlik rejimiga rioya qiling yoki sekinroq harakatlaning, agar buni sharoitlar talab etayotgan bo'lsa.
- Shinalarda zaruriy havo bosimini qo'llab turing.
- Agar sizga bir nechta joylarga tashrif buyurish zarur bo'lsa, hammasini bir safar qilishga uyushtirishga harakat qiling.
- Eski shinalarni shinaning turo'lchami belgilanishi yonida shinaning biqinida ko'rsatiluvchi xuddi shunday TPC (shinalarni markirovkalash uchun GMning ichki standarti) kodiga ega bo'lgan yangi shinaga almashtiring.
- Rejali texnik xizmat ko'rsatishning tavsiya etilgan jadvaliga amal qiling.

Haydashda e'tiborni chalg'itish

Haydashda joriy vazifalardan e'tiborni chalg'itish turlicha shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Sog'lom fikr bilan rahbarlik qiling va biron bir boshqa harakatlar Sizni e'tiboringizni yo'ldan chalg'itishiga yo'l qo'ymang. Ko'pchilik mahalliy ma'muriyatlar haydovchining e'tiborini chalg'itishga tegishli bo'lgan maxsus ko'rsatmalarni chiqaradi. O'zingizni hududingizda amal qiluvchi qoidalarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqing.

E'tiborsiz haydashdan saqlanish maqsadida yo'lni kuzating, qo'llarni rul chambaragida tutib turing va haydashga e'tiboringizni jamlang.

- Yo'ldagi holatni aniqlab olish uchun telefondan foydalanmang. Zaruriy qo'ng'iroqlarni qilish yoki qabul qilish uchun, baland aloqadan foydalaning.
- Yo'lga e'tibor bilan qarang. Telefonda va boshqa elektron qurilmalardagi ma'lumotlarni o'qimang, yozuvlar qilmang va ko'zdan kechirmang.
- Oldingi yo'lovchining o'rindig'ini e'tiborni chalg'itishning potensial omili sifatida ko'ring.
- Haydashni boshlashdan avval tanlangan radiostansiyalarni dasturlash, iqlim-nazoratni sozlash, o'rindiqlarni sozlash kabi avtomobilning funksiyalarini e'tibor bilan o'rganib chiqing. Safar qilishdan oldin biron bir navigatsion qurilmada safar haqidagi barcha ma'lumotlarni kiriting.
- Tushib ketgan buyumlarni izlanishini avtomobil to'xtashidagi paytgacha qoldiring.
- Bolalarga e'tiborni qaratish uchun, avtomobilni to'xtating.
- Hayvonlarni mos keluvchi konteynerlarda tutib turing yoki cheklagichlardan foydalaning.
- Haydash vaqtida yo'lovchilar bilan qanday bo'lsa, mobil telefon bo'yicha ham xuddi shunday g'ayritabiiy so'zlashuvlardan saqlaning.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Agar ko'zlarni yo'ldan juda ko'pga yoki juda tez-tez olib qochilsa, bu to'qnashuvga, va oqibatda, jarohatlarga yoki hattoki o'limga olib kelishi mumkin. E'tiborni yo'lga jamlang.

Axborot-ko'ngilochar tizim va navigatsion tizimni (agar mavjud bo'lsa) qo'llash, jumladan, mobil telefonni bog'lash va qo'llash haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni axborot-ko'ngilochar tizimga bag'ishlangan bo'limda ko'ring.

Avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari

Avtomobilni e'tiborli haydash tartibi "tasodiflarga doimo tayyor turish"ni ko'zda tutadi. Bunday yondashuvning zaruriy sharti bo'lib xavfsizlik kamaridan foydalanish hisoblanadi. Xavfsizlik kamarlari ⇨ 2-19ni ko'ring.

- E'tiborli haydovchi boshqa yo'l harakati ishtirokchilari (yo'lovchi, velosipedchilar va haydovchilar va boshqa transport vositalarining haydovchilari) e'tiborsizlik namoyish qilishi va xatoliklarga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan taxminlardan kelib chiqishi kerak. Siz boshqalarning ehtimolli harakatlarini oldindan payqashingiz va ularga tayyor turishingiz kerak.
- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofaga rioya qiling.
- Avtomobilni boshqarish jarayonida chalg'imang.

Avtomobilni boshqarish

Tormozlanish, rul boshqaruvi va tezlashish harakatlanish vaqtida avtomobilni boshqarishning muhim omillari hisoblanadi.

Tormozlash

Tormozlash jarayoni o'z ichiga qaror qabul qilish vaqtini va harakat qilish vaqtini kiritadi. Latent faza - bu holatni anglash va tepkini bosish haqidagi qarorni ishlab chiqish uchun haydovchiga zarur bo'lgan vaqtdir. Motor fazasi - bu harakatlarni haqiqiy bajarish fazasidir.

Haydovchi reaksiyasining motor fazasining o'rtacha davomiyligi taxminan uch choraklik sekundni tashkil qiladi. Ushbu vaqt davomida 100 km/soat (60 mil/soat) tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobil 20 (66 fut) bosib o'tadi, u avariya holatida juda katta masofa bo'lib qolishi mumkin. Yodda tutish kerak bo'lgan tormozlanishga nisbatan foydali maslahatlar:

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofaga rioya qiling.
- Kerak bo'lmagan keskin tormozlanishdan saqlaning.
- Mashinalar oqimi bilan bir xildagi tezlikni qo'llab turing.

Agar harakatlanish vaqtida dvigatel to'satdan o'chib qolsa, tormoz tepkisini odatdagidek xuddi shunday bosish zarur. Tepkini ko'p marotaba bosish va qo'yib yuborish yaramaydi. Agar shunday qilinsa, tepkiga bosish qiyinroq bo'ladi. Agar dvigatel o'chib qolgan bo'lsa, u holda tormoz kuchaytirgichi ba'zi ish layoqatliligini saqlab qoladi, u, biroq, tormoz tepkisini bosishdan keyin yo'qotilgan bo'ladi. Vakuum kuchaytirgich ishlashdan to'xtaganidan keyin, avtomobilni tormozlanishi uchun ko'proq vaqt va kuch talab etiladi.

Rul boshqaruvi

⚠ *DIQQAT!*

Rul boshqaruvi tizimini shikastlanishidan saqlanish uchun, 3 km/soat (1 mil/soat)dan yuqori tezlikda to'xtab turish joyidagi bordyurlardan, baryerlardan yoki shunga o'xshash to'siqlardan oshib o'tish mumkin emas.

Yo'l chiziqlarini bo'lgichlari va sun'iy notekisliklar ("yotuvchi politsiyachi") kabi boshqa to'siqlardan oshib o'tishda ehtiyotkorlikni namoyish qiling. Avtomobil ekspluatatsiyasi qoidalarini buzilishi bilan chaqirilgan shikastlanishlar kafolatli ta'mirlash bilan qoplanmaydi.



Elektr kuchaytirgichli rul boshqaruvi tizimi

Ushbu avtomobil rul boshqaruvi elektr kuchaytirgichi bilan jihozlangan. Unda gidrokuchaytirgich suyuqligi qo'llanilmaydi.

Muntazam xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi tizim nosozligi natijasida ishlashdan to'xtasa, u holda avtomobilni boshqarish saqlanib qolinadi, ammo ko'proq kuch talab etiladi.

Agar rul boshqaruvi kuchaytirgichi harakatsiz avtomobilda uzoq vaqt davomida qo'llanilayotgan bo'lsa, kuchaytirish pasayishi mumkin.

Agar rul chambaragini tiralgunga qadar burab va ushbu holatda uzoq vaqt davomida ushlab turilsa, kuchlanish samarasi pasayishi mumkin.

Kuchaytirgichning me'yordagi ishlashi u soviganidan keyin tiklanadi. Nosozlik paydo bo'lishida dilerga murojaat qiling.

Burilishlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar

- Burilishlarni ruxsat etilgan tezliklarda bajaring.
- Burilishga kirishdan oldin tezlikni pasaytiring.
- Burilish jarayonida ruxsat etilgan doimiy tezlikni qo'llab turing.
- Avtomobilning burilishdan chiqishini kuting va faqat bundan so'ng to'g'ri yo'nalish bo'yicha harakatlanish uchun ravon tezlashishni boshlang.

Favqulodda holatda boshqarish

- Ba'zi holatlarda to'siqlarni aylanib o'tish ularning oldida tormozlanishga qaraganda ancha samaraliroq bo'lib qolishi mumkin.
- Agar rulni ikki tomondan ikkala qo'llar bilan ushlab turilsa, u holda bu sizga uni qo'llarni olmasdan 180 gradusga burilish imkonini beradi.
- Antibloklash tormoz tizimi (ABS) tormozlanishda boshqaruvchanlikni ta'minlaydi.

Yo'l chetidan yo'lning qatnov qismiga qaytish

Yo'l bo'ylab harakatlanish vaqtida avtomobilning o'ng g'ildiraklari yo'l qatnov qismidan yo'l chetiga chiqib ketishi mumkin. Quyidagi tavsiyalarga binoan harakat qiling:

1. Akselerator tepkisini yengil qo'yib yuboring va, agar yo'lda to'siqlar yo'q bo'lsa, rul yordamida avtomobilni shunday holatga o'tkazingki, bunda yo'l qoplamasining cheti g'ildiraklar orasida bo'lib qolsin.
2. O'ng oldingi g'ildirak yo'l qoplamasining cheti bilan teginib turishi uchun, rul chambaragini to'liq burilishdan taxminan sakkizdan biriga burang.
3. Rul chambaragini to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanish holatiga qaytaring.

Boshqaruvni yo'qotish

Yo'l bilan ilakishishning yo'qolishi

Yo'l bilan shinalarning ilakishishini yo'qolishini uchta turi mavjuddir, ularning har biri avtomobilni boshqarishning uchta tizimlaridan birini ishlashi bilan bog'liqdir:

- Tormozlanishda ilakishishning yo'qolishi - g'ildiraklar aylanmayapti.
- Manevrlashda yoki burilishni o'tishda ilakishishning yo'qolishi harakatlanishning juda yuqori tezligi yoki ortiqcha rul boshqaruvi bilan chaqiriladi, bu sirpanishga va g'ildiraklarning yon tomon reaksiyasining yo'qolishiga olib keladi.
- Tezlashishda ilakishishning yo'qolishi g'ildiraklarning shataksirashiga olib keluvchi ortiqcha drossellash natijasi hisoblanadi.

Ehtiyotkor haydovchilar yo'l qoplamasining holatiga muvofiq tarzda harakatlanish rejimini tanlab, yo'l bilan shinalarning ilakishishini yo'qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlardan saqlanadi. Shunga qaramasdan, ilakishishning yo'qolishini ehtimolini to'liq istisno qilish mumkin emas.

Agar avtomobil sirpanishni boshlayotgan bo'lsa, quyidagi tavsiyalarni bajaring:

- Akselerator tepkisiga bosimni bo'shashtiring va avtomobil harakatining talab etiluvchi yo'nalishini tiklang. Avtomobilning me'yordagi harakatlanishi tiklanishi mumkin. Avtomobil chetga tortib ketishi mumkinligiga tayyor turing.
- Tezlikni pasaytiring va ob-havo sharoitlariga muvofiq haydash tarzini o'zgartiring. Agar ilakishish suv, qor, muz, shag'al yoki yo'l ustida bo'lgan boshqa materiallar sababli yomonlashgan bo'lsa, u holda bu tormoz yo'lining uzayishiga olib kelishi va avtomobilni boshqaruviga ta'sir qilishi mumkin. Yo'lni juda sirpanchiq qilib qo'yishga qodir bo'lgan yo'ldagi namlik, yaxvonlik, bosilgan qor kabi xavf-xatar alomatlarini aniqlashga o'rganing. Biron bir shubhalar yuzaga kelgan holatda harakatlanish tezligini sekinlashtirish lozim bo'ladi.
- Keskin manevr qilishga, tezlashish va tormozlanishga, jumladan ancha past uzatmaga o'tish yo'li bilan avtomobil tezligini pasaytirishga ham tayanmaslikka harakat qiling. Har qanday keskin o'zgartirishlar shinalarning yo'l bilan aloqasini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin.

E'tibor bering! Antibloklash tormoz tizimi faqat g'ildiraklarning bloklanishi bilan chaqirilgan ilakishishning yo'qolishini oldini olishga qodir.

Yo'lsizlik bo'ylab haydash

To'rtta g'ildirakka yuritmaga ega bo'lgan avtomobillarni yo'lsizlik sharoitlarida ekspluatatsiya qilish mumkin. To'rtta g'ildirakka yuritmasiz, hamda All Terrain (AT) yoki On-Off Road (OOR) sinfi shinalari bilan jihozlanmagan avtomobillarni yo'lsizlik sharoitlarida va tekis va qattiq yo'l qoplamasi yo'q bo'lgan yo'llarda ham ekspluatatsiya qilish mumkin emas. Asl jamlanmadagi shinalar bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha kontakt ma'lumotlarni, kafolat bo'yicha qo'llanmada ko'ring.

Tezlikni sozlash - yo'lsizlik bo'ylab muvaffaqiyatli harakatlanishning eng samarali usullaridan biridir.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanish vaqtida mashinaning irg'ishida yoki uning holatini keskin o'zgarishida o'tirgan joydan oson uchib chiqish mumkin. Bu boshqaruvning yo'qotilishiga va avariyaga olib kelishi mumkin. Siz va sizning yo'lovchilaringiz muqarrar xavfsizlik kamarlari bilan taqib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Yo'lsizlik bo'ylab haydashdan oldin

- Barcha zaruriy profilaktika xizmat ko'rsatishlarni va ta'mirlashni bajaring.
- Avtomobilni yonilg'i bilan to'ldiring, suyuqlikdan qo'shib quying va barcha shinalarda, jumladan zaxira g'ildiragidagi, agar u ko'zda tutilgan bo'lsa, shishirilish bosimini tekshiring.
- Ushbu qo'llanmadagi to'rtta g'ildirakka yuritmali avtomobillar haqidagi ma'lumotlar bilan to'liq tanishib chiqing.
- Yo'lsizlik bo'ylab harakatlanishga nisbatan mahalliy qonunchilikni o'rganib chiqing.

Yo'lsizlik sharoitlarida harakatlanishda yuklanganlik

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Kesishuvchan hudud bo'ylab harakatlanishda yuk bo'linmasida mahkamlanmagan yuklar surilib ketishi mumkin. Siz va sizning yo'lovchilaringiz uchib borayotgan buyumlardan jarohat olishingiz mumkin. Yukni ishonchli mahkamlab qo'ying.
- Yuk bo'linmasiga yuklarni iloji boricha oldinga va iloji boricha pastroqqa qo'ying. Eng og'ir yuklarni orqa ko'prikdan oldinda polga qo'yish zarur.
- Tomdagi og'ir yuklar ag'darilishga moyillikni oshirib, avtomobilning og'irlik markazini oshiradi. Avtomobilning ag'darilib ketishi og'ir hattoki halokatli jarohatlarga olib keladi. Og'ir yuklarni tomda emas, balki yuk bo'linmasida tashing.

Avtomobilni yuklash haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Avtomobilni chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨8-12 va Shinalar ⇨ 8-80 paragraflarida ko'ring.

Atrof-muhitni muhofaza qilish

- Yo'lsizlik bo'ylab haydash maqsadi uchun ommaviy foydalanish uchun ajratilgan faqat mavjud trassalar, yo'llar va zonalardan foydalaning, va barcha nashr qilingan normativlarga rioya qiling.
- Butalarga, gullarga, daraxtlarga va o't-o'lanlarga ziyon yetkazmang, yovvoyi hayvonlarning tinchligini buzmang.
- Avtomobilni yonuvchi materiallar ustiga to'xtab turishga joylashtirmang. Yonuvchi qoplama ustiga to'xtab turishga joylashtirish ⇨ 8-22ni ko'ring.

Tepaliklarga ega bo'lgan hududlarda haydash

Tepaliklarga ega bo'lgan hududlarda haydash avtomobil imkoniyatlari chegarasini ongli hisoblash va anglashni talab etadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ko'pchilik nishabliklar har qanday avtomobil uchun juda ham qiyadir. Nishablik bo'ylab tepaga harakatlanishda dvigatel o'chib qolishi mumkin. Nishablik bo'ylab pastga harakatlanishda boshqaruv yo'qotilishi ehtimoli bor.
Nishablikda ko'ndalang harakatlanishda avtomobilning ag'darilib ketish ehtimoli bor. Bu jarohatlarga va halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Qiya nishabliklar bo'ylab safar qilmang.

Tepalikka ko'tarilishni boshlashdan avval uning tikligini, ilakishishligini va to'siqlarning mavjudligini baholang. Agar oldindagi relyef ko'rinmayotgan bo'lsa, avtomobildan chiqing va harakatlanishni davom ettirishdan oldin tepalikka yayov chiqing.
Tepaliklarga ega bo'lgan hudud bo'ylab harakatlanishda:

- Past uzatmani qo'llamang va rul chambaragini mahkam ushlab turing.
- Kichik tezlikda harakatlaning.
- Iloji boricha nishablik bo'ylab to'g'ri tepaga va to'g'ri pastga harakatlaning.
- Tepalikning uchiga yaqinlashayotganda sekinlashing.
- Hatto kunduzi avtomobil seziluvchanligini yaxshilash uchun yoqilgan faralar bilan harakatlaning.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Katta tezlikda tepalikning uchidan haydab o'tish avariyaga olib kelishi mumkin. Tepalik ortida boshqa tepalik, tramplin, jarlik va hattoki boshqa avtomobil aniqlanishi mumkin. Bu jiddiy jarohatlarga va halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tepalikning uchiga yaqinlashayotganda tezlikni pasaytiring va e'tiborli bo'ling.

• Agar uzatmalar qutisi yoki tarqatish qutisi neytralga (N) o'rnatilgan bo'lsa, hech qanday holatda oldinga yoki orqaga yurish bilan nishablik ostiga harakatlanmang. Tormozlar qizib ketishi, va siz boshqaruvni yo'qotishingiz mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobil ikki pog'onali avtomatik yoki elektron tarqatish qutisi bilan jihozlangan bo'lsa, hattoki agar uzatmalar qutisi to'xtab turish (P) holatga joylashtirilgan bo'lsa ham, yumalab ketishga olib kelishi mumkin. Bu neytraldagi (N) tarqatish qutisi uzatmalar qutisini bloklashi hisobiga sodir bo'ladi. Oqibatda sizning o'zingiz yoki atrofingizdagilar jarohatlar olish xavfi ostida bo'ladi. Avtomobildan chiqayotganda, to'xtab turish tormozini ishga tushiring, uzatmalar qutisini esa - to'xtab turish (P) holatga o'tkazing. Tarqatish qutisini istalgan holatga o'rnating, neytraldan (N) tashqari.

• Tepalikdan tushish vaqtida avtomobilni to'g'ri pastga yo'naltiring. Past uzatmani qo'llang, chunki bunda dvigatel tormozlashda ishtirok etadi va avtomobilni nazorat ostida ushlab turishga yordam beradi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Nishablik bo'ylab pastga harakatlanishda jadal tormozlanish tormozlarning haddan tashqari qizib ketishiga va ularning bo'shashib qolishiga olib kelishi mumkin. Oqibatda boshqaruvni yo'qotish va o'zingizga va atrofdagilarga og'ir yoki halokatli jarohatlarni keltirish mumkin. Nishablik bo'ylab pastga tushishda, ehtiyotkorlik bilan tormozlaning va avtomobilning tezligini nazorat ostida ushlab turish uchun past uzatmada harakatlaning.

• Avtomobil nishablikka ko'ndalang bo'lib qolganida burilishlardan saqlaning. Nishablikka ko'ndalang harakatlanishdapastda joylashgan g'ildiraklarga yuklama oshadi, bu mashinaning sirg'alib ketishiga yoki uning ag'darilib ketishiga olib kelishi mumkin.
• Sochiluvchan shag'alda, loyli yo'l qismlarida va hattoki nam o'tlarda g'ildiraklar pastga sirpanib ketishi mumkin. Yon tomonga sirpanib ketishda avtomobil biron bir narsaga urilishi va ag'darilib ketishi mumkin.
• Yashirin to'siqlar nishablikning qiyaligini kuchaytirishi mumkin. Agar nishablik bo'ylab yuqorida bo'lgan g'ildiraklar tosh ustiga yurib ketsa, orqa g'ildiraklar esa o'nqir-cho'nqirliklarga va chuqurliklarda bo'lib qolsa, avtomobilning qiyaligi yanada ko'proq ortadi.
• Agar nishablikka ko'ndalang harakatlanishda avtomobil sirpanib ketishni boshlasa, nishablik bo'ylab pastga buriling. Bu avtomobilni to'g'irlashga va yon tomonga sirpanib ketishni oldini olishga yordam beradi.

Agar avtomobil tepalikda o'chib qolgan bo'lsa:

1. Tormozlaning, to'xtang va to'xtab turish tormozini yoqing.
2. Uzatmalar o'zgartirgichini to'xtab turish (P) holatga o'rnating, bundan so'ng dvigatelni qayta ishga tushiring.
   • Agar dvigatel nishablik bo'ylab tepaga harakatlanishda o'chib qolgan bo'lsa, R (orqaga yurish)ga o'ting, to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va to'g'riga orqaga yurish bilan harakatlaning.
   • Hech qanday holatda burilib olishga urinmang. Agar nishablik dvigatel o'chib qolishi uchun yetarlicha tik bo'lsa, u mashinani ag'darib yuborish uchun yetarli bo'ladi.
   • Agar siz nishablikka chiqish imkoniga ega bo'lmagan bo'lsangiz, to'g'riga orqaga yurish bilan orqaga qayting.
   • Hech qanday holatda faqat tormozni qo'llab, neytral uzatmada orqaga yurish bilan pastga tushmang. Avtomobil tez tezlik olishi va siz boshqaruvni yo'qotishingiz mumkin.
   • Agar dvigatel nishablik ostiga harakatlanishda o'chib qolgan bo'lsa, ancha past uzatmaga o'ting, to'xtab turish tormozini tushiring va to'g'ri pastga harakatlaning.
3. Agar o'chib qolgan dvigatelni ishga tushirish uddasidan chiqolmayotgan bo'lsangiz, to'xtab turish tormozini torting, uzatmalar

o'zgartirgichini to'xtab turish (P) holatga o'rnating va gazni o'chiring.
3.1. Avtomobilni tark eting va yordam olib kelishga keting.
3.2. Avtomobilning ehtimolli yumalab ketish traektoriyasidan uzoqroqda joylashing.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Nishablikka ko'ndalang turgan avtomobildan nishablik bo'ylab pastki tomondan tushish xavflidir. Agar avtomobil ag'darilib ketsa, sizni ezib qo'yishi yoki halok qilishi mumkin.
> Faqat nishablik bo'ylab tepada joylashgan tomondan chiqing, va mashinaning ag'darilib ketish traektoriyasidan uzoqroqda joylashing.

Loy, qum, qor va muz ustidan harakatlanish

Loydan harakatlanishda past uzatmada - ayniqsa, loy chuqur bo'lganiga qaraganda pastroqda harakatlaning. Tiqilib qolmaslik uchun to'xtashlarga yo'l qo'ymang.
Qum ustida ilakishish xususiyati o'zgaradi. Sochiluvchan qumda, masalan dengiz bo'yida yoki qumtepaliklarda, shinalar qumda botib qolish moyilligiga ega. Bu rul boshqaruviga, tezlashishga va tormozlanishga salbiy ta'sir qiladi. Past tezlikda harakatlaning va keskin burilishlardan va tez manevrlardan saqlaning.
Zichlashgan qorda va muzda ilakishish pasayadi, va avtomobil boshqaruvni oson yo'qotadi. Zichlashgan qor va muz bo'ylab harakatlanishda tezlikni pasaytiring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Muzlagan ko'llar, hovuzlar va daryolar orqali haydash xavfli bo'lishi mumkin. Muzning holati qattiq o'zgarishi mumkin, va avtomobil muz ostida tushib ketishi, siz va sizning yo'lovchilaringiz esa - cho'kib ketishi mumkin. Faqat ishonchli yuzalardan haydang.

Suv bo'ylab harakatlanish

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Suv oqimlari orqali harakatlanish xavfli bo'lishi mumkin. Chuqur suv avtomobilni yuvib yuborishi mumkin, va siz va sizning yo'lovchilaringiz cho'kib ketishi mumkin. Hattoki chuqur bo'lmagan suv oqimlari g'ildiraklar ostidan tuproqni yuvib yuborishi mumkin. Bu ilakishishni yo'qolishiga olib keladi, va avtomobil ag'darilib ketishi mumkin. Suv oqim bo'ylab haydab o'tishga urinmang.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Turg'un suv bo'ylab haydab o'tishga urinmang, agar u gupchakka, ko'prikka yoki chiqindi chiqarish quvuriga yetib turgan bo'lsa. Chuqur suv avtomobilning ko'priklarini va boshqa qismlarini shikastlashi mumkin.

Agar turg'un suv juda chuqur bo'lmasa, u orqali sekin harakatlaning. Katta tezlikda suv dvigatelga tushib qolishi mumkin, va u o'chib qoladi. Dvigatel, shuningdek, agar chiqindi gazlar chiqarish quvuri suv ostida bo'lib qolsa, o'chib qolishi mumkin. Suv bo'ylab harakatlanishda o't oldirishni o'chirmang. Agar chiqindi chiqarish quvuri suv ostida bo'lib qolgan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish imkoni bo'lmaydi. Suv bo'ylab harakatlanishda tormozlar namlanadi, va to'xtash uchun ko'proq vaqt talab etilishi mumkin. Ushbu bo'limda quyida "Nam yo'llar bo'ylab harakatlanish" paragrafini ko'ring.

Yo'lsizlik sharoitlarida haydashdan so'ng

Avtomobil tubidan va shassisidan va kapot osti fazodan chiqindilarni va loylarni olib tashlang. Ular alangalanish xavfini tug'dirishi mumkin.

Loyda yoki qumda ekspluatatsiya qilishdan so'ng tormoz nakladkalarini tekshiring va tozalang. Yerning ushbu turlari sayqallanishni va notekis tormozlanishni chaqirishi mumkin. Kuzov karkasi, transmissiya, rul boshqaruvi, osma, g'ildiraklar, shinalar, chiqindi gazlar tizimi shikastlanmaganligini, hamda yonilg'i-quvurlarda va sovitish tizimlarida sizib chiqishlar yo'qligini tekshiring. Ancha tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3ni ko'ring.

Nam yo'l bo'ylab harakatlanish

Yomg'ir va nam yo'l qoplamasi avtomobil g'ildiraklarining yo'l bilan ilakishishini pasaytirish va, oqibatda, tormoz yo'lini va tezlik olish vaqtini oshirishi mumkin. Shunga o'xshash holatlarda harakatlanish tezligini pasaytirish, katta va chuqur ko'lmaklar yoki jilg'alar orqali haydab o'tishdan saqlanish kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tormoz disklarining namlanishi YTHga olib kelishi mumkin. Avariyaviy tormozlanish holatlarida ular yetarlicha samaradorlikni ta'minlamaydi, buning oqibatida avtomobil chetga olib qochishi mumkin. Bu avtomobil boshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Katta ko'lmak orqali haydab o'tishdan yoki avtoyuvish joyidan chiqishdan keyin disklarni quritib olish va tormoz mexanizmlarining me'yordagi ishlashini tiklash uchun, tormoz tepkisini bir necha marta ozgina bosish zarur bo'ladi.

Suv oqimlari avtomobil harakatlanishiga qarshi ahamiyatsiz kuchlarni yaratishga qodir. Suv oqimi bo'ylab haydab o'tishda avtomobil chetga tortib ketishi mumkin. Agar bu sodir bo'lgan bo'lsa, siz salonda joylashgan boshqa odamlar bilan birgalikda cho'kib ketishingiz mumkin. Avtomobil nazorati ogohlantirishlariga befarq bo'lmang va suv to'siqlaridan oshib o'tayotganda o'ta ehtiyotkorlikni namoyish qiling.

Akvauchish

Akvauchish o'zi bilan xavf-xatar keltiradi.

Yo'l yuzasi va shina orasidagi suv plyonkasi ilakishishning to'liq yo'qotilishiga olib keladi. Akvauchish samarasi avtomobil nam yo'l bo'ylab yetarlicha yuqori tezlikda harakatlanayotgan vaqtdagi holatda yuzaga keladi. Akvauchish sharoitlarida avtomobil g'ildiraklari yo'l bilan aloqani deyarli to'liq yo'qotadi.

Ushbu holatdan o'zini himoyalashga imkon beruvchi biron bir qat'iy qoidalarga rioya qilish mavjud emas. Eng yaxshi maslahat - agar siz nam yo'l bo'ylab haydab ketayotgan bo'lsangiz, harakatlanish tezligini sekinlashtirish.

Yomg'ir yog'ayotgan vaqtda avtomobilni boshqarish bo'yicha boshqa maslahatlar Tezlikni pasaytirishdan tashqari nam yo'lda siz quyidagi tavsiyalardan foydalanishingiz mumkin:

- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani oshiring.
- Quvib o'tishni amalga oshirayotganda o'ta ehtiyotkorlikka rioya qiling.
- Oyna tozalagichlarning sozligini kuzating.
- Yuvgich bachogida har doim yetarlicha suyuqlik bo'lishi ustidan nazorat qiling.
- Shinalar protektorining yedirilishi ruxsat etilgan chegaralardan chiqib ketmasligi ustidan kuzatib turing. Shinalar ⇨ 8-80ni ko'ring.
- Kruiz-nazoratni o'chiring.

Tog'li yo'llar bo'ylab harakatlanish

Tik qiyaliklarda yoki tog'li yo'llarda haydash tekis maydonlar bo'ylab haydashdan sezilarli farq qiladi. Quyidagi tavsiyalardan foydalaning:

- Avtomobilning sozligi va yaxshi texnik holati ustidan kuzatib boring.
- Barcha ishchi suyuqliklarning sathini, hamda tormoz tizimi, shinalar va sovutish tizimi holatini muntazam tekshirib turing.
- Tik yoki uzun tushishlarda ancha past uzatmaga o'ting.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Uzun tushishlarda avtomobil harakatlanishini sekinlashtirish uchun tormozlarning qo'llanilishi tormozlarning haddan tashqari qizib ketishiga, tormozlanish samaradorligini pasayishiga olib kelishi va, oqibatda, tormozlarning ishlamay qolish sababi bo'lib qolishi mumkin.

Tik tushishda tormoz bilan qo'shimcha tormozlanishga dvigatel bilan tormozlanish uchun uzatmalar qutisini pasaytirilgan uzatmaga o'tkazing.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yoqilgan neytral uzatma yoki o't oldirish o'chirilganlik bilan yumalash bilan harakatlanish xavf tug'diradi. Bu tormozlarning qizib ketishiga va rul boshqaruvchining kuchayishini yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Har doim dvigatelni va oldinga yurishning uzatmalaridan birini yoqilgan holatda tuting.

- Avtomobilni o'zining harakatlanish chizig'ida tutib turishga imkon beruvchi tezlikda harakatlaning. Rulning keng burilishlarini qilmang va o'rta bo'luvchi chiziqni bosib o'tmang.
- Relyef egikliklarida o'ta e'tiborli bo'ling; sizning yo'lingizda kutilmagan to'siqlar (masalan, o'chib qolgan avtomobil, avariya) paydo bo'lishi mumkin.
- Yo'l belgilarini (masalan, toshlarning qulashi, ilonizi yo'l, uzun tushish, quvib o'tish taqiqlangan, quvib o'tishni taqiqlash zonasining oxiri) kuzatib boring va zaruriy harakatlarni oldindan amalga oshiring.

Qishda haydash

Qor va muz ustidan harakatlanish

⚠ *DIQQAT!*

G'ildiraklar va tormoz mexanizmlarini shikastlamaslik uchun, harakatni boshlashdan oldin, disklar va g'ildirak arkalarini tiqilib qolgan qor va muzdan tozalang.

Shinalar va yo'l orasidagi qor yoki muz tortish quvvatini va yo'l qoplamasi bilan shinalarning ilakishishini pasaytiradi, shuning uchun avtomobilni ehtiyotkorlik bilan boshqaring. Nam muz taxminan 0 °C (32 °F) haroratda, qor bilan yomg'ir yog'ayotgan vaqtda hosil bo'lishi mumkin. Nam muzdan yoki qor bilan yomg'ir vaqtida safar qilishlardan saqlaning. Yo'llar tozalanguniga qadar kuting.

Sirpanchiq yo'ldan avtomobilni haydashda:

- Sekin tezlik oling. Juda tez tezlik olish g'ildiraklarning sirpanib aylanishiga olib keladi, bu shinalar ostidagi yuzani silliqlaydi.
- Tortish kuchi nazorat tizimni yoqing. Tortish kuchi nazorat tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring.
- Antibloklash tormoz tizimi (ABS) keskin tormozlanishda avtomobilning turg'unligini oshiradi, ammo quruq asfaltda tormozlanishga qaraganda tormozlanishni oldinroq boshlash kerak.

Antibloklash tormoz tizim (ABS)⇨8-31ni ko'ring.
- Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani oshiring va sirpanchiq maydonlarni kuzatib boring. Hattoki soyalangan maydonlarda toza yo'lda muz qatqalog'i mavjud bo'lishi mumkin. Burilishlarda va yo'lni kesib o'tish joylarida, shuningdek, muz mavjud bo'lishi mumkin, hattoki agar yondosh maydonlarda u mavjud bo'lmasa ham. Muz ustidan harakatlanishda, yo'nalishni keskin o'zgartirishdan va tormozlanishdan saqlaning.
- Kruiz-nazoratni o'chiring.

Sovuq ob-havo rejimi

Juda past haroratlarda haydovchining axborot markazining displeyida sovuq ob-havo haqida xabar paydo bo'lishi mumkin. Ancha tezroq isitish uchun dvigatel aylanishlari, uzatmalarni o'zgartirish va konditsionerning ventilatorini aylanish tezligi algoritmi o'zgarishi mumkin. Sovuq ob-havo rejimida ventilator aylanishining tezligiga qo'lda tuzatish kiritish mumkin.

Qor bo'roni

Avtomobilni xavfsiz joyda to'xtating va halokat signalini uzating. Agarda yordam juda ham yaqin joylashmagan bo'lsa, avtomobilni tark etmang.

Halokat signalini uzatish va avtomobil salonida joylashgan odamlarning xavfsizligini ta'minlash uchun:
- Avariya signalizatsiyasini yoqing.
- Orqani ko'rish tashqi toshoynasiga qizil mato bo'lagini bog'lab qo'ying.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Qor avtomobilning chiqarish quvurini tiqiltirib qo'yishi mumkin. Bunda, chiqindi gazlar salonga kirib borishni boshlaydi. Chiqindi gazlarda rangga va hidga ega bo'lmagan uglerod oksidi (CO) saqlovchi gaz saqlanadi. Ushbu gazni ichga nafas olish xushni yo'qotishga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin.

Agar avtomobil qorda tiqilib qolgan bo'lsa:
- Avtomobil tubini qordan tozalab oling, ayniqsa agar u chiqarish quvurini tiqiltirib qo'yayotgan bo'lsa.
- Salonga toza havo kirib turishini ta'minlash uchun, avtomobilning shamolli tomonidagi oynani taxminan 5 sm.ga (2 dyuym) oching.
- Uskunalar paneli yoki uning ostidagi ventilyatsiyaning soplolarini to'sqichlarini to'liq ochib qo'ying.
- Iqlim-nazorat tizimini havoni qayta aylantirish rejimiga o'tkazing va ventilatorning aylanishini maksimal tezlikka o'rnating. "Iqlim-nazorat tizimlari"ni ko'ring.

CO haqida ancha batafsil ma'lumotlarni Chiqindi gazlar ⇨ 8-22 bo'limda ko'ring.

Yonilg'ini tejash maqsadida avtomobilni qizdirib olish uchun, dvigatelni vaqtning qisqa oraliqlariga ishga tushiring, so'ngra esa dvigatelni o'chiring va qisman oynalarni yoping. Jismoniy mashqlar ham qizib olishga yordam beradi.

Agar siz yordamning tez yetib kelishini kutmayotgan bo'lsangiz, u holda yoqilgan dvigatelda, bo'sh yurish aylanishlaridan yuqoriroqqa dvigatelni tezlashtirish uchun, akselerator tepkisini asta bosing. Bu akkumulator quvvatini qo'llab turishga yordam beradi, u dvigatelning keyingi ishga tushirilishlari va bosh yoritish yordamida yordam haqida signalni uzatish uchun talab etiladi. Yonilg'ini tejash uchun bundan iloji boricha kamroq foydalaning.

Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa

Qumdan, loydan, muzdan yoki qordan chiqib olish uchun akselerator tepkisini sekin va ehtiyotkorlik bilan bosing.

"Tiqilib qolgan avtomobilni tebrantirish" paragrafini quyida ushbu bo'limda ko'ring.

Ko'pchilik holatlarda tiqilib qolgan avtomobilga tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) chiqib olishga yordam berishi mumkin. Tortish kuchi nazorat tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring. Agar TCS tizim yordam bermayotgan bo'lsa, "Tiqilib qolgan avtomobilni tebrantirish" paragrafini ushbu bo'limda quyida ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobil g'ildiragi juda katta tezlikda aylanayotgan bo'lsa, shinalar portlab ketishi va sizni yoki boshqa odamlarni jarohatlashi mumkin. Avtomobil qizib ketishi mumkin, bu o'z navbatida motor bo'linmasida yonib ketishga yoki buzilishga olib kelishi mumkin. G'ildiraklarning shataksirashiga yo'l qo'ymaslikka harakat qiling va tezlikni 56 km/soat (35 mil/soat)dan oshirmang.

Sirpanishga qarshi zanjirlarning qo'llanilishi haqida batafsil Sirpanishga qarshi zanjirlar ⇨ 9-48 bo'limda ko'ring.

Tiqilib qolgan avtomobilni tebrantirish

Oldingi g'ildiraklar atrofidagi maydonlarni tozalash uchun, rul chambaragini chapga va o'nga burang. Agar avtomobil to'rtta g'ildirakka yuritmaga ega bo'lsa, Four-Wheel Drive High (to'rtta g'ildirakka yuritmali uzatmalarning yuqori diapazoni) rejimiga o'ting. TCS tizimni o'chirib qo'ying. Orqaga yurish va oldinga yurish uzatmasi orasida, g'ildiraklar iloji boricha kamroq shataklashishiga urinib, o'ting. UO'Q detallarining yedirilishiga yo'l qo'ymaslik uchun, uzatmani o'zgartirishdan avval, g'ildiraklar to'xtagunicha kuting. Akselerator tepkisini katta bo'lmagan bosish bilan oldinga va orqaga yurish uzatmalarini galma-galdan yoqilishi bunday tebrantirishning bir necha urinishlari natija bermagan bo'lsa, sizga shatakchi talab etilishi mumkin. Avtomobilni shatakka olish ⇨ 9-71ni ko'ring. Evakuatsiya uchun zo'g'otadan foydalanish mumkin, agar u bor bo'lsa.

Evakuatsiya uchun zo'g'otalar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Evakuatsiya uchun zo'g'otalarga yon tomondan hech qanday holatda tortish kuchini keltirmang. Zo'g'otalar sinib ketishi va sizga va atrofdagilarga jarohatlar yetkazishi mumkin. Evakuatsiya uchun zo'g'otalarga tortish kuchining berilishini faqat oldindan keltirish mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Evakuatsiya uchun zo'g'otalardan avtomobilni shataklashga qat'iyan ruxsat etilmaydi. Bu avtomobilning shikastlanish oqibatlariga olib keladi, bunday holatdagi ta'mirlash esa kafolat bilan qoplanmaydi.

Agar oldinda evakuatsiya uchun zo'g'otalar bilan jihozlangan avtomobil yo'lsizlikda tiqilib qolgan bo'lsa, ulardan mashina mustaqil harakatlanishni davom ettirishi mumkin bo'lgan shunday joyga chiqarish uchun foydalaning.

Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar

O'z avtomobilingiz qanday maksimal yukni tashishi mumkinligini tushinish juda ham muhimdir. Ushbu kattalik avtomobilning yuk ko'tarishligi deb nomlanadi; u o'z ichiga avtomobilda joylashgan barcha odamlarning, yuklarning va zavodda o'rnatilmagan barcha qo'shimcha asbob-uskunalarni og'irligini oladi. Avtomobilning maksimal loyihaviy yuk ko'tarishligi shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli yoki sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning maksimal ruxsat etilgan og'irligidan (GVWR) va o'qqa maksimal ruxsat etilgan yuklamani (GAWR) oshirmang.
Ushbu kattaliklarning oshirilishi avtomobilning buzilishini va boshqaruvchanlik xarakteristikalarining o'zgartirilishini chaqirishi mumkin. Natijada boshqaruv yo'qotilishi va avariya sodir bo'lish ehtimoli bor. Ruxsat etilgan yuklamani oshirib yuborish, shuningdek, tormozlanishni yomonlashtirishi, shinalarning shikastlanishi va avtomobilning xizmat qilish muddatining qisqartirilishiga olib kelishi mumkin.

Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalcha



Jadvalcha misoli

Avtomobil kuzovining markaziy ustunida shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli javdvalcha mavjud. Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada o'tirish joylarining soni (1) va kilogrammlarda va funtlarda avtomobilning to'liq og'iriligi (2) ko'rsatiladi.
Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalcha, shuningdek, avtomobil ishlab chiqaruvchisi tomonidan o'rnatilgan shinalarning turo'lchamlari (3) va sovuq holatda shinalardagi havo bosimi haqidagi ma'lumotlarni saqlaydi. Shinalar va ulardagi havo bosimi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni Shinalar ⇨ 8-80 va Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-37 paragraflarda ko'ring.
Yuk ko'tarishligi haqidagi muhim ma'lumotlar, shuningdek, sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada keltirilgan. Ushbu jadvalchada transport vositasining chegaraviy ruxsat etilgan to'liq og'irligi (GVWR), hamda oldingi va orqa o'qqa ruxsat etilgan maksimal yuklama (GAWR) ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. "Sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalcha"ni ushbu bo'limda quyida ko'ring.

"Yuk ko'tarishlikni aniqlash tartibi"

1. Avtomobil pasportida "The combined weight of occupants and cargo should never exceed XXX kg or XXX lbs" (Odamlarning va yuklarning umumiy og'irligi XXX kg yoki XXX funtdan oshmasligi kerak") ma'lumotini toping.
2. Avtomobilda joylashuvchi haydovchining va yo'lovchilarning yig'indi og'irligini aniqlashtiring.
3. Ushbu haydovchi va yo'lovchilarning yig'indi og'irligini XXX kg yoki XXX funt kattaliklardan ayirib tashlang.
4. Olingan son - bu avtomobilda tashish mumkin bo'lgan yukning va bagajning maksimal og'irligidir. Masalan, agar XXX kattalik 1400 funtni tashkil qilayotgan bo'lsa, va avtomobilda har biri 150 funt og'irlikka ega bo'lgan beshta yo'lovchi joylashgan bo'lsa, u holda yuk va bagajning maksimal ruxsat etilgan og'irligi 650 funt (1400 - 750 (5 x 150) = 650 funt)ni tashkil qiladi.
5. Avtomobilga yuklanuvchi bagaj va yukning yig'indi og'irligini aniqlang. Ushbu og'irlik 4-qadamda hisoblangan kattaliklardan oshmasligi kerak.
6. Agar avtomobil tirkama bilan shataklansa, tirkamadan yuklama avtomobilga uzatib turiladi.

Ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanmada, bunda sizning avtomobilingiz uchun yuk va bagajning maksimal ruxsat etilgan og'irligi qanchalikka pasayishini aniqlashtirib oling.
Shuningdek, tirkamani shataklash, shataklashda xavfsizlik qoidalari va maslahatlar haqidagi muhim ma'lumotlarni Tirkamani shataklash ⇨ 8-68 bo'limda ko'ring.



1-misol

1. Avtomobilning yuk ko'tarishlishi taxminan 1 = 453 kg (1000 funt)
2. Haydovchi va yo'lovchilarning og'irligini ayiramiz: 68 kg (150 funt) x 2 = 136 kg (300 funt)
3. Yuk va bagajning ruxsat etilgan og'irligi = 317 kg (700 funt)



2-misol

1. Avtomobilning yuk ko'tarishligi taxminan 2 = 453 kg (1000 funt)
2. Haydovchi va yo'lovchilarning og'irligini ayiramiz:
68 kg (150 funt) x 5 = 136 kg (750 funt)
3. Yukning ruxsat etilgan = 113 kg (250 funt)



3-misol

1. Avtomobilning yuk ko'tarishligi taxminan 3 = 453 kg (1000 funt)
2. Haydovchi va yo'lovchilarning og'irligini ayiramiz:
91 kg (200 funtov) x 5 = 455 kg (1000 funt)
3. Yukning ruxsat etilgan og'irligi = 0 kg (0 funt)

Avtomobilning yuk ko'tarishligi va o'tirish joylari haqidagi muayyan ma'lumotlarni shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'ring. Haydovchi, yo'lovchilar va yukning yig'indi og'irligi avtomobilning yuk ko'tarishligidan oshmasligi kerak.

Sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalcha



Avtomobil kuzovini markaziy ustunida sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalcha mavjuddir. Jadvalchada asl jamlanmadagi shinalar turo'lchami va transport vositasining chegaraviy ruxsat etilgan to'liq og'irligida tavsiya etilgan havo bosimi ko'rsatilishi mumkin. Ushbu parametr avtomobilning chegaraviy ruxsat etilgan to'liq og'irligi (GVWR) deb nomlanadi. Avtomobilning to'liq og'irligi avtomobilning o'z og'irligi, barcha yo'lovchilar, yonilg'i va yukning og'irligidan qo'shib hisoblanadi.

Bundan tashqari, sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalchada oldingi va orqa o'qqa chegaraviy ruxsat etilgan yuklama (GAWR) ko'rsatilishi mumkin. Oldingi va orqa o'qqa haqiqiy yuklamani bilib olish uchun,

avtomobilni maxsus tarozilarda tortish zarur bo'ladi. Bunda sizga o'z dileringiz yordam berishi mumkin. Yuklarning markaziy chiziqdan ikkala tomon bo'ylab bir tekis joylashishini kuzating.
Sertifikatlashtirish/shinalar haqidagi ma'lumotli jadvalchasida, shuningdek, oldingi o'qqa zaxira yuklama ko'rsatilishi ham mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning maksimal ruxsat etilgan og'irligidan (GVWR) va o'qqa maksimal ruxsat etilgan yuklamani (GAWR) oshirmang.
Ushbu kattaliklarning oshirilishi avtomobilning buzilishini va boshqaruvchanlik xarakteristikalarining o'zgartirilishini chaqirishi mumkin. Natijada boshqaruv yo'qotilishi va avariya sodir bo'lish ehtimoli bor. Ruxsat etilgan yuklamani oshirib yuborish, shuningdek, tormozlanishni yomonlashtirishi, shinalarning shikastlanishi va avtomobilning xizmat qilish muddatining qisqartirilishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Ortiqcha yuklanganlik avtomobilning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi.
Ortiqcha yuklashga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu ma'lumotlar bo'yicha o'rnatilgan asbob-uskunalarni og'irligini hisobga olish bilan avtomobilning yuk ko'tarishligini aniqlash mumkin. Osmaning uzoq xizmat qilishini oshirish uchun uning og'irlashtirilgan elementlarini qo'llanilishi ruxsat etilgan yuklamaning parametrlarini o'zgartirilishiga olib kelishi shart emas. Avtomobilni to'g'ri yuklash bo'yicha maslahat uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil saloniga joylashtirilgan mahkamlanmagan buyumlar keskin tormozlanish vaqtida, burilishda yoki to'qnashuv vaqtida joyidan chiqib ketishi va haydovchini yoki yo'lovchilarni jarohatlashi mumkin.
- Buyumlarni yuk bo'linmasiga taxlash lozim. Yuklarni bir tekis taqsimlashga harakat qiling.
- Og'ir buyumlarni, masalan chemodanlarni, ularning bir qismi o'rindiqlarning tepa chetidan yuqoriroq joylashadigan tarzda avtomobil salonida joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.
- Avtomobil saloni mahkamlanmagan bolalarni tutib turuvchi qurilmani qoldirmang.
- Avtomobil salonida yuklarni tashishda ularni qanchalik iloj bo'lsa, shunchalik mahkamlang.
- O'rindiqlarni taxlangan holda zaruratsiz qoldirmang.

Yo'lsizlik sharoitlarida harakatlanishda yuklash haqidagi muhim ma'lumotlar ushbu qo'llanmada ham taqdim etilgan.
Yo'lsizlik bo'ylab safar qilish ⇨ 8-5 bo'limida "Yo'lsizlik sharoitlarida harakatlanishda yuklanish" paragrafini ko'ring.

ISHGA TUSHIRISH VA EKSPLUATATSIYA QILISH

Yangi avtomobilni chiniqtirish

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobilning birinchi 800 km (500 mil) davomida ekspluatatsiya qilinishida chiniqtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarga rioya qiling:

- Joydan qo'zg'alishda va keskin tormozlanishda akselerator tepkisini to'liq bosishdan saqlaning.
- Avtomobilni sekinlashtirish yoki tormozlash uchun tezlashishda yoki pasaytirilgan uzatmaga o'tishda dvigatelning quyida ko'rsatilgan aylanishlaridan oshib ketmang: Benzinli dvigatellar: 4000 ayl/min
- Birinchi 300 km (200 mil) davomida keskin tormozlanishdan saqlaning. Yangi tormoz nakladkalari bilan keskin tormozlanish ularning muddatidan ilgari yedirilishiga va muddatidan oldin almashtirilishiga olib kelishi mumkin. Tormoz nakladkalarini almashtirishda albatta yo'riqnomalarga rioya qiling.
- Tirkamani shataklamang. Tirkamani shataklash bo'yicha avtomobil imkoniyatlarini va qo'shimcha ma'lumotlarni Tirkamani shataklash ⇨ 8-68ga qarang. Chiniqtirishdan keyin dvigatel aylanishlarini va yuklamalarni asta-sekin oshirib borish mumkin.

Yangi avtomobillarning birinchi 6400 km (4000 mil) masofa bosib o'tishi davomida turlicha mexanik bo'g'imlarning va elektr tizimlarning chiqintirilishi deb nomlanuvchi sodir bo'ladi. Mexanik tizimlarning birinchi ishlab moslashishidan so'ng yonilg'i sarfi kamayadi, uzatmalarni o'zgartirish esa yanada yumshoq bo'ladi.

Chiniqtirish davrida elektron tizimlarning moslashishi va kalibrovkasi amalga oshadi. Ushbu davr mobaynida turli xil begona shovqinlar paydo bo'lishi mumkin, ular doimo sodir bo'lmasligi kerak.

Harakatlanish vaqtida akkumulator batareyasining quvvatlanishi sodir bo'ladi, buning natijasida avtomobilning barcha tizimlari, jumladan dvigatelni avtomatik to'xtatish va ishga tushirish tizimi, maqbul rejimda ishlashni boshlaydi va yonilg'i sarfini pasaytiradi. Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimi ⇨8-19ni ko'ring.

O't oldirish qulfida kalitning holati

Kalitlarni masofadan identifikatsiya qilish tizimi bilan jihozlangan avtomobillar tugmani bosish bilan ishga tushiriladi.

Ushbu tizim ishlashi uchun, masofadan boshqarish radiobrelogi avtomobil ichkarisida joylashgan bo'lishi kerak. Agar tugma yordamida ishga tushirish ishlamayotgan bo'lsa, ehtimol, avtomobil kuchli radiosignalni taratuvchi va masofadan boshqarishning elektron tizimi ishlashida elektr magnit xalallarni yuzaga keltiruvchi antenna yaqinida joylashgan. Qulflarni masofadan boshqarish tizimining ishi ⇨ 1-3ni ko'ring.

UO'Q selektori pishangisini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatidan o'tkazish uchun, o't oldirish qulfi On holatda yoki servis rejimda joylashgan bo'lishi, tormoz tepkisi esa bosilgan bo'lishi kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil harakatlanib ketayotganida dvigatelning o'chirilishi tormoz kuchaytirgichlari va rul boshqaruvi, hamda shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimining ishlamay qolishiga olib keladi. Harakatlanib ketayotganda dvigatelni o'chirib qo'yilishini faqat o'ta zaruriy holatda amalga oshirish kerak.

Dvigatelni to'xtashi/BLOKIROVKA/O'CHIRISH (indikator yonmaydi):

Avtomobil to'xtaganidan keyin dvigatelni o'chirish uchun bir marta ENGINE START/STOP tugmasini bosing.

Agar UO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatida joylashgan bo'lsa, u holda o't oldirish o'chadi, zaxira oziqlantirish moduli (RAP) esa ishlashda davom etadi. Zaxira oziqlantirish moduli ⇨ 8-20ni ko'ring.

Agar UO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatida joylashmagan bo'lsa, u holda o't oldirish ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) rejimiga qaytadi, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida esa TO'XTAB TURISHGA JOYLASHTIRISH UZATMASINI YOQING xabari paydo bo'ladi.

UO'Q selektori P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazilgan vaqtda, o't oldirish o'chadi.

Avtomobil rul ustunini elektr bloklagichi bilan butlangan bo'lishi mumkin. Bloklagich o't oldirish o'chirilganda oldingi eshiklardan biron biri ochilishi vaqtida ishlaydi. Bloklanishni yoqilishi va o'chirilishi tovushli signal bilan tasdiqlanadi. Rul ustuni qulfi, agar g'ildiraklar to'g'ri bo'lmagan holatga joylashtirilgan bo'lsa, blokdan chiqarilmaydi. Bunday holatda avtomobil ishga tushirilish imkoniga ega bo'lmaydi. Rul chambaragini bir vaqtda dvigatelni ishga tushirishga urinish bilan chapdan o'ngga aylantiring. Agar bu yordam bermayotgan bo'lsa, servis markaziga murojaat qiling.

Agar avariyaviy holatda avtomobilni o'chirish zarurati tug'ilsa:

1. Ahamiyatli va doimiy kuchni berib, tormoz tepkisini bosing. Tormoz tepkisini bir necha marta ketma-ket bosmang va qo'yib yubormang.

Bu vakuum kuchaytirgichi kamerasida siyraklashishning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin, buning oqibatida tormoz tepkisiga bosish uchun ancha kuchni sarf qilish talab etiladi.

2. N (Neytral) uzatmaga o'ting. Buni bevosita harakatlanish vaqtida qilish mumkin.

N (Neytral) uzatmasiga o'tib, kuch bilan tormoz tepkisini bosing va avtomobilni xavfsiz joyga yo'naltiring.

3. To'liq to'xtashni kuting.

Tormoz tepkisini bosilgan holda ushlab turib, to'xtab turish (P) holatga o'ting. O't oldirishni faqat to'xtab turish (P) holatida o'chirish mumkin.

4. Tormoz tepkisini qo'yib yubormang.

5. To'xtab turish tormozini yoqing.

Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi ⇨ 8-31ni ko'ring.

6. O't oldirishni o'chirish uchun, bir marta ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP)ni bosing.

7. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

Agar yo'l chetiga haydab o'tish imkoni bo'lmasa va yurib ketayotganda dvigatelni o'chirish talab etilsa, ENGINE START/STOP tugmasini bosing va ikki sekunddan ortiq vaqtga ushlab turing yoki unga besh sekunddan ortiq bo'lmagan vaqt oralig'i bilan ikki marta bosing.

ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) (sariq indikator yorishib turadi): Ushbu rejimda alohida yordamchi elektr asbob-uskunalardan o'chirilgan dvigatelda ham foydalanish mumkin.

O't oldirish o'chirilganida ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) rejimni yoqish uchun, tormoz tepkisiga bosmasdan, bir marta tugmani bosing.

Besh minut o'tgandan keyin o't oldirish ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) rejimidan akkumulator

batareyasi quvvatsizlanmasligi uchun O'CHIRILGAN rejimga o'tadi.

ON/RUN/START (YOQISH/ISHGA TUSHIRISH/START) (yashil indikator yorishib turadi): Ushbu rejim safar qilish va dvigatelni ishga tushirish uchun mo'ljallangan. O't oldirish o'chirilganida va tormoz tepkisi bosilganda tugmani bir marta bosish o't oldirishning yoqilishiga olib keladi. Dvigatel ishga tushirilishi bilanoq, tugmani qo'yib yuboring. Dvigatelning ishga tushirilishi dvigatel ishga tushirilguniga qadar davom etadi. Dvigatelni ishga tushirish ⇨ 8-18ni ko'ring.

Servis rejimi

Ushbu rejim xizmat ko'rsatish va diagnostika uchun, hamda nosozlik signalizatorining to'g'ri ishlashini tekshirish uchun mo'ljallangan, bu atmosferaga zararli moddalarning chiqarilish darajasini tekshirish maqsadida talab etilishi mumkin. Servis rejimni yoqish uchun o'chirilgan dvigatelda va tormoz tepkisi qo'yib yuborilganida besh sekunddan ortiq vaqtga tugmani bosish va ushlab turish kerak bo'ladi. Uskunalar va audiotizim o't oldirish o'chirilgandagi holatdagidek ishlashda davom etadi, ammo avtomobilni harakatga keltirish mumkin bo'lmaydi.

Servis rejimda dvigatel ishga tushirilmaydi. O't oldirishni o'chirish uchun, tugmani yana bir marta bosing.

Dvigatelni ishga tushirish

Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, dizel dvigatelli Duramax modeliga bag'ishlangan ilovani ko'ring.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Qo'shimcha elektr asbob-uskunalarning o'rnatilishi dvigatelning ishlashini buzishi mumkin. Oqibatida yuzaga kelgan shikastlanishlar kafolatli hisoblanmaydi. Qo'shimcha asbob-uskunalar ⇨ 8-89ni ko'ring.

To'xtab turish (P) yoki neytral (N) holatga o'ting. Harakatga kelib bo'lgan avtomobilda dvigatelni takroran ishga tushirish uchun, faqat N (neytral) holatga o'rnatish kerak.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Selektorni avtomobilning harakatlanishi vaqtida "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazishga urinmang. Bu uzatmalar qutisining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga faqat avtomobilning to'liq to'xtashidan keyin o'tkazish mumkin.

1. Masofadan boshqarish radiobrelogi avtomobil ichkarisida joylashgan bo'lishi kerak. Tormoz tepkisini bosilgan holda tutib turib, ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP) ga bosing.

Dvigatelning ishga tushirilishi boshlanishi bilanoq tugmani qo'yib yuboring.

Dvigatelning qizib borishi bo'yicha bo'sh yurish aylanishlari pasayib boradi. Ishga tushirishdan keyin darhol dvigatelni tezlashtirmang. Moy qizib olishi va barcha harakatlanuvchi detallarni moylab olishi uchun, dvigatelni va UO'Qqa ortiqcha yuklama bermang.

Agar yonilg'ini past sathi indikatori yorishib turgan, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida esa FUEL LEVEL LOW (YONILG'INI PAST SATHI) ogohlantirishi paydo bo'lsa, dvigatelni ishga tushirilishini davom ettirish uchun ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP)ga bosing.

⚠ *DIQQAT!*

Biron bir pauzasiz dvigatelni ishga tushirishning uzoq vaqt takrorlanuvchi urinishlari haddan tashqari qizib ketishga va starterning ishdan chiqishiga, hamda akkumulator batareyasining quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin. Starter sovishga ulgurishi uchun, dvigatelni qayta ishga tushirishga urinishdan oldin, kamida 15 sekund kuting.

2. Agar dvigatel 5-10 sekund o'tgandan keyin, ayniqsa, juda past havo haroratida (-18 °C yoki 0 °Fdan past) ishga tushmayotgan bo'lsa, bu o't oldirish svechalarining benzin bilan qoplanishiga olib kelishi mumkin. Akselerator tepkisini tiralgunicha bosib va uni ushbu holatda tutib turib, 15 sekunddan ko'p bo'lmagan vaqtga ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP)ga bosing. Starter sovishga ulgurishi uchun, dvigatelni qayta ishga tushirishga urinishdan oldin, kamida 15 sekund kuting. Dvigatel ishga tushganida, tugmani va akselerator tepkisini qo'yib yuboring. Agar dvigatel ishga tushirilishidan keyin darhol o'chib qolayotgan bo'lsa, xuddi o'sha harakatlarni bajaring. Bu dvigatel silindrlaridan ortiqcha benzinni olib tashlab, uni puflab tozalash imkonini beradi. Dvigatel ishga tushirilishi bilanoq uni tezlashtirmang. Moy qizib olishi va barcha harakatlanuvchi detallarni moylab olishi uchun, dvigatelni va UO'Qqa ortiqcha yuklama bermang.

Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimi

Agar avtomobil start-stop tizimi bilan jihozlangan va u ishlashga kiritilgan bo'lsa, bu tizim yonilg'ini tejash maqsadida dvigatelni o'chiradi. U ishga tushirishlarning kattalashtirilgan soniga mo'ljallangan komponentlar bilan jihozlangan.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish funksiyasi dvigatelning o'chirilishini chaqiradi, shu vaqtning o'zida avtomobil yoqilgan holatda qoladi. Selektorning P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazilguniga qadar avtomobildan chiqmang. Avtomobil qayta ishga tushirilishi va to'satdan harakatga kelishi mumkin. Avtomobildan chiqishdan oldin har doim uzatmalar selektorini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing, so'ngra esa o't oldirishni o'chiring.

Dvigatelni avtomatik to'xtatilishi/ishga tushirilishi

Tormoz bosilganida va avtomobil to'liq harakatsiz bo'lganida, dvigatelning o'chirilishi sodir bo'lishi mumkin. O'chirishda taxometr AUTO STOPni aks ettiradi. Taxometr ⇨4-17ni ko'ring. Tormoz tepkisini qo'yib yuborilganida va akselerator tepkisi bosilganida dvigatelning takroran yoqilishi ro'y beradi.

Avtomobilning ekspluatatsiya xarakteristikalarini ta'minlash uchun boshqa sharoitlar tormoz tepkisi qo'yib yuborilgunga qadar dvigatelning avtomatik qayta ishga tushirilishini chaqirishi mumkin. Quyidagi sabablar bo'yicha dvigatelning avtomatik to'xtatilishi amalga oshmasligi va/yoki dvigatelning avtomatik ishga tushirilishi amalga oshirilishi mumkin:

- Iqlim-nazorat sozlamalari avtomobil salonini sovitish yoki isitish uchun dvigatel ishlashini talab qiladi.
- Akkumulator batareyasini quvvatlash zarur.
- Avtomobilning akkumulator batareyasi yaqinda o'chirilgan.
- Oxirgi avtomatik to'xtatishdan keyingi vaqtdan avtomobilning minimal tezligiga erishilmagan.
- Akselerator tepkisi bosilgan.
- Dvigatel yoki uzatmalar qutisi talab etiluvchi ishchi haroratga erishmagan.
- Tashqi harorat talab etiluvchi ishchi oraliqda joylashmagan.
- Avtomobil yurish holatidan (D) istalgan boshqa holatga, to'xtab turish (P) holatidan tashqari, istalgan boshqa holatga o'tmoqda.
- Harakatlanishning muayyan rejimi tanlangan. Harakatlanish rejimi ⇨8-37 va To'liq yuritma ⇨9-19ni ko'ring.
- Avtomobil tik qiyalikda yoki nishablikda joylashmagan.

- Haydovchining eshigi ochilgan yoki haydovchining o'rindig'ida xavfsizlik kamari yechib yuborilgan.
- Kapot ochilgan.
- Avtomatik to'xtatish maksimal ruxsat etilgan vaqtga erishgan.

Dvigatelni avtomatik to'xtatish funksiyasini o'chirgichi



tepa holatda, boshqa o'zgartirgichlar shunga o'xshash

Dvigatelni avtomatik to'xtatish va ishga tushirish funksiyasi (A) tugmani bosish bilan o'chirilishi yoki qayta yoqilishi mumkin. Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish funksiyasi o't oldirish har gal yoqilishida yoqiladi.

Agar (A) indikator yonib turgan bo'lsa, demak tizim yoqilgan.

Zaxira quvvatlash moduli

O't oldirish o'chirilishida yoki toki haydovchining eshigi ochilmagunicha quyidagi tizimlar (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) 10 minutgacha ishlashni davom ettiradi.

Ushbu tizimlar, agar o't oldirish RUN yoki ACC/ACCESSORY holatiga joylashtirilgan bo'lsa, ishlashda davom etadi:

- Axborot-ko'ngilochar tizimi
- Elektr oyna ko'targichlar (zaxira elektr quvvatlash rejimida ular istalgan eshik ochilishida ishlashdan to'xtaydi)
- Tomdagi shaffof lyuk (zaxira elektr quvvatlash rejimida ular istalgan eshik ochilishida ishlashdan to'xtaydi)
- Elektr oziqlanishning qo'shimcha ulagichi
- Audiotizim
- OnStar tizimi

"To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yo'l qoplamasi bilan yaxshi tuta olmaydigan g'ildiraklar, qiyalikda to'xtatilgan avtomobilni, masalan, muzlash, qor, loy yoki mayda tosh tufayli o'z-o'zidan joyidan siljishi mumkin, bu bilan o'limga qadar jarohatlanish va (yoki) transport vositasining shikastlanishi mumkin. Agar avtomobil to'liq g'ildirakli harakatlanuvchi bo'lsa, g'ildiraklarning yo'l yuzasi bilan tortish kuchini oshirish uchun, uni AUTO yoki 4 (HI) rejimiga o'tkazing. Avtomobilni to'xtash tormoziga qo'yishni unutmang. ⇨ 8-31. Elektr to'tash tormozi va ⇨ 8-27 To'liq harakatlanish ga qarang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil to'xtab turishga joylashtirish (P) holatga o'tkazilmagan, uning to'xtab turish tormozi esa harakatga keltirilmagan avtomobildan chiqish xavfli. Avtomobil yumalab ketishi mumkin. Agar bunda siz dvigatelni o'chirib qo'ymagan bo'lsangiz, avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning beixtiyor harakatlanish imkonini oldini olish uchun,

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

hattoki agar u tekis maydonga joylashtirilgan bo'lsa ham, quyidagi ta'riflangan tavsiyalarga rioya qiling. Agar siz tirkamani shataklayotgan bo'lsangiz, Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha tavsiyalar ⇨ 8-69 paragrafni ko'ring.

1. Tormoz tepkisini bosing va to'xtab turish tormozini yoqing. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi ⇨ 8-31ni ko'ring.
2. Markaziy konsolda P (to'xtab turish holati) o'zgartirgichini bosing.
3. Dvigatelni o'chirish uchun, ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP)ni bosing.

Agar avtomobil qiyalikda to'xtab turish holatiga (P) o'tkazilgan bo'lsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi (EPB) avtomatik ishlashi mumkin. Bunday holatda haydovchi EPB o'chirgichini bosish bilan ERB tormozini qo'yib yuborish imkoniga ega bo'lmaydi.

Avtomobil to'xtab turish holatidan (P) istalgan boshqa holatga o'tkazilgan vaqtda tormoz avtomatik qo'yib yuboriladi.

Ishlab turgan dvigatel bilan avtomobilni qoldirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Dvigateli ishlab turgan avtomobilni tark etish xavfli. Dvigatel haddan tashqari qizib ketishi va yonib ketishi mumkin.

Agar AUO'Q selektori "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga oxirigacha o'rnatilmagan va to'xtab turish tormozi o'chirilmagan bo'lsa, avtomobilni tark etish xavflidir. Avtomobil yumalab ketishi mumkin.

Dvigateli ishlab turgan avtomobilni tark etmang. Agar bunda siz dvigatelni o'chirib qo'ymasangiz, avtomobil yurib ketishi mumkin. Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Mashinaning joydan beixtiyor, hattoki tekis maydonda, harakatga kelishidan saqlanish maqsadida, albatta to'xtab turish tormozini ishga tushiring va avtomobilni to'xtab turish holatiga (P) o'tkazing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish ⇨ 8-20ni ko'ring. Agar siz tirkamani shataklayotgan bo'lsangiz, Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha maslahatlar ⇨ 8-69ni ko'ring.

Agar mashinadan dvigatelni o'chirmasdan chiqish kerak bo'lsa, u holda avtomobil to'xtab turish tormozini ishga tushirish bilan to'xtab turish holatida (P) joylashgan bo'lishi kerak.

Avtomobil to'xtab turish holatiga (P) o'tkazilganligini tekshiring.

"To'xtab turishga joylashtirish" holatidan o'tish

Sizning avtomobil elektron boshqaruvli UO'Q bilan jihozlangan.

Selektorni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarish uchun:

1. Dvigatel ishlayotganligini tekshiring.
2. Tormoz tepkisini bosing.
3. Selektor yoki pishangi bilan kerakli uzatmaga o'ting. Neytralga (N) o'tish uchun, toki qizil nurli diod N o'chmagunicha, N (neytral) o'zgartirgichini bosing va ushlab turing.
4. Avtomobil P (to'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarilgan vaqtda, P indikatori oq rangda yonadi, uzatmalarni o'zgartirish indikatori esa qizil rangda bo'lib qoladi.

Agar avtomobilni to'xtab turish holatidan (P) chiqarish imkoniyati bo'lmayotgan bo'lsa, haydovchining axborot markazida (DIC) xabar paydo bo'lishi mumkin. Avtomobilni to'xtab turish holatidan (P) chiqarishdan oldin, o't oldirish yoqilganligini, dvigatel ishlayotganligini va tormoz tepkisi bosilganligini tekshiring. Agar barcha ushbu shartlar bajarilgan bo'lsa, ammo avtomobil to'xtab turish holatidan (P) chiqmayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Alangalanuvchi qoplamaga to'xtab turishga joylashtirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning chiqarish tizimini issiq detallari bilan alangalanuvchi materiallarning teginib turishi ularning alangalanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilni to'xtab turishga joylashtirib, uning tubi ostida qog'oz, quruq barglar yoki o'tlar va boshqa alangalanuvchi materiallar mavjud emasligini kuzating.

Yonilg'i uzatilishini dinamik boshqarish

Agar avtomobil yonilg'ini purkashning dinamik tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda yo'l sharoitlariga bog'liq holda dvigatel silindrlari turli sxemalar bo'yicha to'liq 8-silindrligacha ishlashi mumkin.

Yuqori quvvat talab etilmagan vaqtda, masalan, doimiy yuqori tezlik bilan harakatlanishda, tizim yonilg'ini tejash maqsadida ishlayotgan silindrlarning sonini kamaytirishi mumkin. Yuqori quvvat ehtiyoji yuzaga kelgan vaqtda, masalan, quvib o'tishda yoki tezyurar shosselarga haydab o'tishda, yonilg'i barcha 8 silindrlarga uzatiladi.

Uzoq muddat to'xtab turish

To'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilni yoqilgan holatda qoldirish tavsiya etilmaydi. Agar avtomobil yoqilgan holda qoldirilgan bo'lsa, u harakatlanmasligiga va ventilyatsiya yetarlicha hisoblanishiga ishonch hosil qiling.

"To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish ⇨ 8-20 va Chiqindi gazlar⇨ 8-22ni ko'ring.

Agar haydovchi avtomobilni masofadan boshqarish radiobrelogi bilan tark etayotgan bo'lsa, u holda o'chirilmagan dvigatel yana 15 minut davomida ishlashni davom ettiradi.

Agar haydovchi avtomobilni tark etayotgan, masofadan boshqaruv radiobrelogi esa mashinada qolayotgan bo'lsa, u holda o'chirilmagan dvigatel yana 30 minut ishlashda davom etadi.

Agar avtomobil yonilg'i yo'qligi sababali qiyalikda to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lsa, u avvalroq o'chishi mumkin.

Agar avtomobilning ishlab turishi vaqtida selektor P (To'xtab turishga joylashtirish) holatidan chiqarilgan bo'lsa, taymer bekor qilinadi.

CHIQINDI GAZLAR

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Chiqindi gazlarda rangga va hidga ega bo'lmagan uglerod oksidi (CO) saqlovchi gaz saqlanadi. Is gazini ichga nafas olish xushni yo'qotishga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin.

Chiqindi gazlar quyidagi holatlarda avtomobil saloniga kirib qolishi mumkin:

- Bo'sh aylanishda ishlab turgan dvigatelli avtomobil yomon ventilyatsiyali joyda joylashgan (parkinglar, garajlar, tonnellar, tub ostida havo aylanishini to'siq qo'yishi yoki chiqindi chiqaruvchi quvurlarni bloklab qo'yishi mumkin bo'lgan chuqur qor).
- Chiqindi chiqarish tizimidan noodatiy hid yoki tovush tarqalmoqda.
- Chiqindi chiqarish tizimida korroziya yoki shikastlanish sababli
- sizib chiqish yuzaga keldi.
- Avtomobilning chiqindi chiqarish tizimi o'zgartirilgan, shikastlangan yoki noto'g'ri ta'mirlangan.
- Avtomobil kuzovida to'liq germetizatsiya qilinmagan shikastlanishlardan yoki sotuvdan keyingi qo'shimcha ishlanmalardan tirqishlar yoki o'yiqlar mavjuddir.

AVTOMATIK UZATMALAR QUTISI

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Agar noodatiy gazlar aniqlansa yoki avtomobil ichiga chiqindi gazlar tushib qolayotganligi shubhasi mavjud bo'lsa:
> • Avtomobilni faqat to'liq tushirilgan oynalar bilan haydang.
> • Avtomobilni ta'mirlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
> Avtomobilni hech qachon yopiq muhitlarda, yaxshi ventilyatsiya bilan jihozlanmagan garajlarda yoki xonalarda ishlab turgan dvigatel bilan qoldirmang.

To'xtab turgan avtomobilda ishlayotgan dvigatel

To'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilni ishlab turgan dvigatel bilan qoldirish tavsiya etilmaydi.
Agar siz dvigatelni o'chirmasdan tark etish zarur bo'lib qolsa, uning mustaqil harakatlanish ehtimolini istisno qilish uchun barcha zaruriy choralarni ko'ring.
"To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish ⇨ 8-20 va Chiqindi gazlar⇨ 8-22ni ko'ring.
Agar siz avtomobilni qiyalikda to'xtab turishga joylashtirgan va tirkamani shataklayotgan bo'lsangiz, Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha maslahatlar ⇨ 8-69 bandni ko'ring.



Uzatmalar o'zgartirgichlari markaziy konsolda joylashgan. Tanlangan uzatma o'zgartirgichga o'rnatilgan qizil indikator bilan belgilanadi, qolgan indikatorlar esa oq rangda qoladi. Agar uzatmalarni o'zgartirish kechikish bilan, masalan, juda past haroratda, sodir bo'layotgan bo'lsa, u holda o'zgartirgichga o'rnatilgan indikator, uzatmalarni o'zgartirish yakunlanguniga qadar miltillashi mumkin.
Uzatmalarni o'zgartirish dvigatel o'chiqligida amal qilmaydi.
Agar o't oldirish ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) holatiga joylashtirilgan bo'lsa, uzatmani to'xtab turish (P) holatga o'tkazish ehtimoli bor.

Agar nisbatan yuqori tezlikda harakatlanishda ENGINE START/STOPga ikki marta bosilsa, u holda dvigatel o'chib qoladi, uzatmalar qutisi esa avtomatik neytralga (N) o'tadi. To'xtagandan keyin avtomobilni to'xtab turish (P) holatga o'tkazish mumkin.
P: Ushbu holatda yetakchi g'ildiraklar bloklanadi. Avtomobilning beixtiyor harakatlanishini boshlashidan saqlanish maqsadida dvigatelni P (to'xtab turish) holatidan ishga tushiring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Agar AUO'Q selektori "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga oxirigacha o'rnatilmagan va to'xtab turish tormozi o'chirilmagan bo'lsa, avtomobilni tark etish xavflidir. Avtomobil yumalab ketishi mumkin.Dvigateli ishlab turgan avtomobilni tark etmang. Agar bunda siz dvigatelni o'chirib qo'ymagan bo'lsangiz, avtomobil beixtiyor harakatlanishni boshlashi mumkin. Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning beixtiyor harakatlanishni boshlashi imkonini oldini olish uchun, hattoki agar u tekis maydonga joylashtirilgan bo'lsa ham, to'xtab turish tormozini yoqing va selektroni "P" (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tkazish ⇨ 8-20 va Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha maslahatlar ⇨8-69ni ko'ring.

Sizning avtomobil elektron boshqaruvli UO'Q bilan jihozlangan. R (orqa bilan yurish) va D (yurish holati) o'zgartirgichlarining konstruksiyasi, agar o't oldirish o'chirilgan, to'xtab turish tormozi esa harakatga keltirilmagan bo'lsa, avtomobilni to'xtab turish (P) holatga tasodifan o'tkazish imkonini bermaydi.

Avtomobil to'xtaganidan keyin dvigatelni o'chirish uchun ENGINE START/STOP (DVIGATELNI ISHGA TUSHIRISH/STOP) tugmasini bosing.

Uzatmalar qutisi avtomatik tarzda to'xtab turish holatiga (P) o'tkaziladi. Agar avtomobil juda ham tez harakatlanib ketayotgan bo'lsa, u P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tmaydi.

Avtomobilni to'xtating va so'ngra P (to'xtab turishga joylashtirish)ga o'ting. P (to'xtab turishga joylashtirish) ga o'tish va undan qaytishni "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish ⇨ 8-20 va "To'xtab turishga joylashtirish" holatidan chiqish ⇨8-21 paragraflarida ko'ring.

R: Ushbu uzatmani orqaga yurish bilan harakatlanish uchun qo'llang.

Agar haydovchi harakatlanish tezligi yuqori bo'lgan vaqtda R (orqa bilan yurish) holatidan D (yurish) holatga, yoki D (yurish) holatidan R (orqa bilan yurish) holatga o'tayotgan bo'lsa, u holda avtomobil avtomatik neytral (N) holatga o'tadi. Avtomobil tezligi kamaytiring va o'tish urinishini takrorlang.

R (orqa bilan yurish) rejimga o'tish uchun:

1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Markaziy konsoldagi R (orqa bilan yurish) o'zgartirgichini bosing.

R (orqa bilan yurish) rejimdan chiqish uchun:

1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Istalgan uzatmaga o'ting. Orqa bilan yurish uzatmasini qorda, muzda yoki qumda tiqilib qolgan avtomobilni, ammo uzatmalar qutisini shikastlamaslik uchun, past tezlikda tebrantirish uchun qo'llash mumkin. Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa ⇨ 8-11ni ko'ring.

N: Selektorning ushbu holatida dvigatel va g'ildirak bog'lanmagan bo'ladi. Harakatga kelib bo'lgan avtomobilda dvigatelni takroran ishga tushirish uchun, faqat N (neytral) holatga o'rnatish kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Dvigatel yuqori aylanishlarda ishlayotgan vaqtda oldinga yoki orqaga yurish uzatmasini yoqish xavfli. Agar siz tormoz tepkisini bosilgan holda tutib turmagan bo'lsangiz, avtomobil kutilmaganda yuqori tezlikda harakatlanishni boshlashi mumkin. Siz boshqaruvni yo'qotishingiz va odamlarni urib yuborishingiz yoki to'siqlarga urilishingiz mumkin. Agar dvigatel yuqori aylanishlarda ishlayotgan bo'lsa, oldinga yoki orqaga yurish uzatmasini yoqmang.

⚠ *DIQQAT!*

Dvigatel yuqori aylanishlarda ishlayotgan vaqtda, selektorning "P" (to'xtab turishga joylashtirish) yoki "N" (neytral uzatma) holatdan chiqarilishi uzatmalar qutisining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. O'tishni bajarib turib, dvigatel aylanishlari juda ham yuqori bo'lmasligini kuzatib turing.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobil neytralda (N) juda uzoq vaqt qolib ketmasligi kerak. U avtomatik tarzda to'xtab turish (P) holatiga o'tadi.

Neytralga (N) o'tish uchun, N (neytral) o'zgartirgichiga, toki qizil nurli N indikator o'chmagunicha, bosing.

N (neytral) holatdan o'tish uchun:

1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Istalgan uzatmaga o'ting.

Avtomobilni yuvish rejimi

Sizning avtomobil yuvish rejimiga ega, u uning avtomatik avtoyuvish joyida neytralda (N) qoldirish imkonini beradi.

Yuvish rejimida avtomobilni shataklashga yo'l qo'yilmaydi.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobil neytralda (N) juda uzoq vaqt qolib ketmasligi kerak. Avtomobil yuvish rejimidan avtomatik tarzda to'xtab turish holatiga (P) o'tadi.

Avtomobilni yuvish rejimi (dvigatel o'chirilgan - haydovchi avtomobilda)

Dvigatel o'chirilgan va avtomobilda odamlar joylashganda neytralga (N) o'tish uchun:

1. Avtoyuvish joyiga kirish joyida to'xtang.
2. Tormoz tepkisini bosing.
3. N (Neytral) holatga o'ting.
4. Dvigatelni o'chiring va tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
5. N indikatori yorishib turishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, dvigatelni ishga tushiring va 2-4-harakatlarni takrorlang.
6. Avtomobil yuvishga tayyor.

Avtomobilni yuvish rejimi (dvigatel o'chirilgan - haydovchi avtomobildan tashqarida)

O'chirilgan dvigatel va bo'sh salonda neytralga (N) o'tish uchun:

1. Avtoyuvish joyiga kirish joyida to'xtang.
2. Tormoz tepkisini bosing.
3. Eshikni yoping.
4. N (Neytral) holatga o'ting.
5. Dvigatelni o'chiring va tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
6. N indikatori yorishib turishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, dvigatelni ishga tushiring va 2-5-harakatlarni takrorlang.
7. Avtomobildan chiqing va eshikni yoping. Avtomobil yuvishga tayyor.
8. Keyingi o'tirishda avtomobil P (to'xtab turishga joylashtirish)ga avtomatik tarzda o'tishi mumkin.

Avtomobilni yuvish rejimi (dvigatel yoqilgan - haydovchi avtomobilda)

Dvigatel yoqilgan va avtomobilda odamlar joylashganida neytral (N)ga o'tish uchun:

1. Avtoyuvish joyiga kirish joyida to'xtang.
2. Tormoz tepkisini bosing.
3. N (Neytral) holatga o'ting.
4. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring. Avtomobil yuvishga tayyor.

Avtomobilni yuvish rejimi (dvigatel yoqilgan - haydovchi avtomobildan tashqarida)

Yoqilgan dvigatelda va bo'sh salonda neytralga (N) o'tish uchun:

1. Avtoyuvish joyiga kirish joyida to'xtang.
2. Tormoz tepkisini bosing.
3. Eshikni yoping.
4. N (neytral)ga o'ting va tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
5. Indikator Nni ko'rsatishda davom etishi kerak. Agar shunday bo'lmasa, 2-4-qadamlarni takrorlang.
6. Avtomobildan chiqing va eshikni yoping. Avtomobil yuvishga tayyor.
7. Keyingi o'tirishda avtomobil P (to'xtab turishga joylashtirish)ga avtomatik tarzda o'tishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomatik uzatmalar qutisining juda ham issiq suyuqligi holatida displeyda uzatmalar qutisining juda ham yuqori harorati haqidagi xabar aks ettirilishi mumkin. Ushbu sharoitlarda harakatlanish avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. To'xtang va avtomatik uzatmalar qutisidagi suyuqlik sovishi uchun dvigatelga bo'sh aylanishlarda ishlash imkonini bering. Avtomatik uzatmalar qutisidagi suyuqlik yetarlicha darajagacha soviganida ushbu xabar g'oyib bo'ldi.

D: Ushbu holat oldinga harakatlanish uchun qo'llaniladi. Agar safar qilish uchun yuqori quvvat talab etilsa, akselerator tepkisini bosing.
D (oldinga harakatlanish) rejimiga o'tish uchun
1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Markaziy konsolda D (yurish holati) o'zgartirgichini bosing.
D (oldinga harakatlanish) rejimidan chiqish uchun
1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. Istalgan uzatmaga o'ting. Sirpanchiq qoplama bo'ylab harakatlanish vaqtida ancha past uzatmaga o'tish yo'l bilan ilakishishning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. "Ilakishishni yo'qotilishi"ni Boshqaruvni yo'qotilishi ⇨ 8-5 bo'limda ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

G'ildiraklarning shataksirashi yoki faqat akselerator tepkisini o'zi yordamida bir joyda nishablikda avtomobilni tutib turilishi UO'Qning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa, shataksiramang. Qiyalikda to'xtab, yumalab ketishdan avtomobilni tutib turish uchun tormozni qo'llang.

Qo'l rejimi

Uzatmalar oralig'ini elektron tanlash rejimi (ERS)



Qo'l rejimida va ERS rejimda uzatmalar oralig'ini mustaqil tanlash mumkin. Ushbu rejimni maksimal uzatmani va avtomobil tezligini chegaralash uchun qiyalik bo'ylab pastga harakatlanishda yoki tirkamani shataklashda qo'llang.

Haydovchining axborot markazining (DIC) uzatish indikatorida L harfi yaqinida qo'l rejimida eng yuqori erishimli uzatmaga ko'rsatuvchi son va qo'l rejimi tanlangan harakatlanish sharoitlari aks ettirib turiladi.
Ushbu rejimni yoqish uchun:
1. Agar avtomobil yurish holatiga (D) joylashgan bo'lsa, L (pasaytirish) tugmasini bosing.
2. Uzatmalar oralig'ini oshirish yoki pasaytirish uchun plyus yoki minus belgili tugmani bosing.
L (pasaytirish)ga bosish bilan uzatmalar qutisi uzatmalarning oldindan o'rnatilgan pasaytirilgan oraliqqa o'tadi. Uzatmalarning ushbu oralig'ida eng yuqori erishimli uzatma L harfi yonida haydovchining axborot markazi (DIC) displeyining ekranida aks ettiriladi. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring. Ushbudan past barcha uzatmalar tanlash uchun erishimli.
Masalan, agar < L > harfi bilan yonma-yon <4 > (to'rtinchi uzatma) soni ko'rsatilgan bo'lsa, avtomobil avtomatik 1- va 4-uzatmalar orasida o'zgarib turadi. 5-uzatmaga o'tish uchun + tugmasini bosing yoki Dga o'ting.

AVTOMOBILNI BOSHQARISH TIZIMLARI

L (pasaytirish) rejimida ancha past uzatmalar oralig'iga o'tish, agar dvigatel aylanishlari juda yuqori bo'lsa, bloklanadi. Agar avtomobil tezligi ko'zda tutilgan vaqt mobaynida pasaymasa, pasaytirilgan uzatmalar oralig'iga o'tish bajarilmagan bo'ladi. Avtomobil tezligini pasaytiring, so'ngra esa pasaytirilgan uzatmalarning talab etiluvchi oralig'iga o'tish uchun < – > (minus) tugmasiga bosing.
ERS rejimida kruiz-nazorat tizimini qo'llash mumkin.

To'liq yuritma

Agar avtomobil to'rtta g'ildirakka yuritma bilan jihozlangan bo'lsa, u holda tortish kuchini kuchaytirish uchun oldingi ko'prikni harakatga keltiring.
Ekspluatatsiya qilishni boshlashdan avval, tarqatma qutining ishlashiga bag'ishlangan bo'limning mazmuni bilan tanishib chiqing.

⚠ *DIQQAT!*

4 ↑ yoki 4 ↓ rejimda (agar u bor bo'lsa) toza va quruq yo'l qoplamasi bo'ylab davomli harakatlanishga yo'l qo'yilmaydi.
Bu quyidagilarni keltirib chiqarishi mumkin:
- Ortiqcha qizib ketish.
- Moyning sizib chiqishi.
- Oldingi ko'prikning ichki va tashqi komponentlarining shikastlanishi.
- Kuchli qurilmaning muddatidan avval yedirilishi.
- Transmissiyada shovqinning kuchayishi.

4 ↑ yoki 4 ↓ rejimda toza va quruq yo'l qoplamasi bo'ylab harakatlanishda ehtimolli oqibatlar:
- Rul boshqaruvi tizimining seziluvchan vibratsiyasi.
- Shinalarning tezlashtirilgan yedirilishi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

To'rtta g'ildirakka yuritmali avtomobil uning tarqatma qutisi neytral (N)da joylashgan vaqtda ham, hattoki agar uzatmalarni o'zgartirish pishangisi to'xtab turish (P) holatiga o'tkazilgan bo'lsa ham, yumalab ketish qobiliyatini saqlab qoladi.
Siz yoki sizni atrofdagilar jiddiy jarohatlar olishingiz mumkin. Tarqatma quti istalgan 2 ↑ , 4 ↑ yoki 4 ↓ yurish rejimlaridan birida joylashganligini kuzating,
yoki to'xtab turish tormozini tarqatma qutini neytral (N) holatga o'tkazishdan avval harakatga keltiring. "To'xtab turishga joylashtirish" holatiga o'tish ⇨ 8-20ni ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Yuqori tezlikda 4 ↓ rejimda davomli harakatlanish kuchli agregatning shikastlanishiga yoki uning xizmat qilish muddatini qisqartirishga olib kelishi mumkin.

4 ↓ , 4 ↑ yoki neyratl (N) rejimga ishlab turgan dvigatel bilan o'tishda shesternyalarning shovqini va turtkilar nosozlik alomatlari hisoblanmaydi.
4 ↓ rejimga o'tishda tortish kuchi nazorat tizimi va elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) o'chadi.
Tortish kuchini nazorat qilish tizimi/Elektron

dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring.

Avtomatik tarqatish qutisi

Ikki pog'onali tarqatish qutisi



Agar avtomobil tarqatish qutisi bilan jihozlangan bo'lsa, u holda uning boshqaruv organlari to'rtta g'ildirakka yuritmani yoqish va o'chirish uchun xizmat qiladi.

Tarqatish qutisining u yoki boshqa ishlash rejimini yoqish uchun, muvofiq tugmaga bosing. O'tish amalga oshirilayotganda, uskunalar qalqonchasida belgi miltillab turadi. Ushbu belgi tanlangan rejimga bog'liq holda o'zgaradi.

O'tish yakunlangandan keyin belgi miltillashdan to'xtaydi. Bir vaqtning o'zida haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranidan muvofiq ogohlantirish g'oyib bo'ladi. Agar tarqatish qutisi o'rnatilgan rejimga o'tish imkoniga ega bo'lmasa, u holda u oldingi rejimda ishlashni davom ettiradi. Erishimli rejimlar:

N (neytral uzatma): Faqat avtomobilni shataklashda qo'llaniladi.

2 ↑ (ikki g'ildirakka yuritma bilan uzatmalarning yuqori oralig'i): Ko'chalar va shosselar bo'ylab harakatlanishdagi ko'pchilik holatlarda qo'llaniladi. Oldingi ko'prik jalb qilinmaydi. Ushbu rejim yonilg'ining maksimal tejalishini ta'minlaydi.

AUTO (to'rtta g'ildirakka avtomatik yuritma): O'zgarib turuvchi yo'l qoplamasi bo'ylab harakatlanishda qo'llaniladi. AUTO rejimida oldingi ko'prik jalb qilingan, yo'l sharoitlariga bog'liq holda esa orqa g'ildiraklar qanday bo'lsa, oldingi g'ildiraklar ham xuddi shunday avtomatik tarzda yuritmali bo'lib qoladi. Ushbu rejimda yonilg'i tejamkorligi ↑ 2 rejimga qaraganda ozgina pastroq.

4 ↑ (to'rtta g'ildirakka yuritma bilan uzatmalarning yuqori oralig'i): Ushbu rejim, agar qo'shimcha tortish kuchi talab etilsa, masalan, qor bilan qoplangan yoki yaxvonlik yo'llar, yo'lsizliklar yoki qorni tozalashda qo'llaniladi.

4 ↓ (to'rtta g'ildirakka yuritma bilan uzatmalarning pasaytirilgan oralig'i): Ushbu rejimda oldingi ko'prik jalb qilingan, aylanish momenti esa ortadi. 4 ↓ rejimi chuqur qum, loy yoki qor, hamda tik ko'tarilishlar yoki tushishlar bo'ylab harakatlanishda qo'llaniladi. 4 ↓ rejimida harakatlanish tezligi 72 km/soat (soatiga 45 mil)ga erishishi kerak bo'lmaydi.

4 ↓ rejimga o'tishda tortish kuchi nazorati va dinamik stabillashtirish tizimlari (StabiliTrak/ESC) o'chadi. Tortish kuchi nazorati tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring.

2 ↑, 4 ↑ va AUTO rejimlariga o'tish

Ushbu rejimlardan istalganiga odatiy yurish tezligida harakatlanishda o'tish mumkin.

4x4 rejimga o'tish buyrug'i haqiqatda faqat haydovchi o'zgartirgich tugmasini qo'yib yuborganida beriladi. 4x4 belgisi o'rnatilgan rejimga o'tish yakunlanguniga qadar miltillab turadi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida yangi rejimga o'tishga tarqatish qutisiga 4x4 buyruq berilganligi haqida xabarnoma yorishadi.

4x4 rejimlarni o'zgartirish yakunlangani bo'yicha muvofiq xabarnoma haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranidan g'oyib bo'ladi, 4x4 belgisi miltillashdan to'xtaydi, displeyda esa faol rejim belgilanishi paydo bo'ladi.

2 ↑ rejimga o'tgandan keyin to'xtab turish (P) holatida to'xtab turish tormozi harakatga

keltiriladi. Harakatlanishni tiklash uchun UO'Qni kerakli uzatmaga o'tkazing va to'xtab turish tormozini qo'lda qo'yib yuboring yoki akselerator tepkisini bosing. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi ⇨ 8-31ni ko'ring.

4 ↑ , AUTO va 4 ↓ rejimlari (agar ular bor bo'lsa) shinalarning yo'l qoplamasi bilan kuchsiz ilakishishi sharoitlarida, masalan, yaxvonlik, qor, loy yoki shag'al sababli, tik nishablikda joydan qo'zg'alishda qo'shimcha tortish kuchini ta'minlaydi.

4 ↓ rejimga o'tish

1. O't oldirish yoqilgan bo'lishi, avtomobil esa to'xtab turgan yoki neytralda (N)da kamida 5 km/soat (soatiga 3 mil) tezlik bilan harakatlanishi kerak. Hammasidan maqbuli, agar avtomobil 1,6 km/soatdan 3,2 km/soatgacha (soatiga 1 mildan 2 milgacha) tezlikda harakatlanib ketayotgan bo'lsa.
2. 4 ↓ ni bosing. 4x4 rejimga o'tish buyrug'i haqiqatda faqat haydovchi o'zgartirgich tugmasini qo'yib yuborganida beriladi.

4x4 belgisi o'rnatilgan rejimga o'tish yakunlanguniga qadar miltillab turadi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida yangi rejimga o'tishga tarqatish qutisiga 4x4 buyruq berilganligi haqida xabarnoma yorishadi.

4x4 rejimlarni o'zgartirish yakunlangani bo'yicha muvofiq xabarnoma haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranidan g'oyib bo'ladi, 4x4 belgisi miltillashdan to'xtaydi, displeyda esa faol rejim belgilanishi paydo bo'ladi.

Agar o'zgartirishga buyruq ko'rsatilgan tezlikdan yuqoriroq tezlikda avtomobilning harakatlanishi vaqtida berilgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq ogohlantirish yorishib turadi. Harakatlanish tezligini pasaytiring.

Agar o'zgartirishga buyruq, UO'Q neytral (N) holatda bo'lmagan vaqtda berilgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq ogohlantirish ham yorishib turadi. O'zgartirishga 20 sekund beriladi.

Bundan so'ng, uskunalar qalqonchasida tarqatish qutisi 4 ↓ rejimda ishlayotganligiga ko'rsatuvchi belgi paydo bo'ladi.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> UO'Qning yangi rejimning miltillab turgan indikatorida boshqa uzatmaga o'tkazilishi tarqatish qutisining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar 20 sekund o'tib borishi bo'yicha uzatmalar qutisi neytralga (N) o'tkazilmagan yoki avtomobilning tezligi 5 km/soatgacha (soatiga 3 mil) pasaytirilmagan bo'lsa, u holda tarqatish qutisi avvalgi rejimda ishlashni davom ettiradi. Muvofiq indikatsiya uskunalar qalqonchasida paydo bo'ladi.

Avtomobilni kamida 5 km/soat (soatiga 3 mil) tezlikgacha tormozlab va uzatmalar qutisini neytralga (N) o'rnatib, yana bir marta o'tishga urinib ko'ring.

4 ↓ rejimdan chiqish

1. Avtomobil to'xta turishi yoki o't oldirish yoqilgan holda kamida 5 km/soat (soatiga 3 mil) tezlikda harakatlanishi kerak. Hammasidan maqbuli, agar avtomobil 1,6 km/soatdan 3,2 km/soatgacha (soatiga 1 mildan 2 milgacha) tezlikda harakatlanib ketayotgan bo'lsa.
2. 4 ↑, AUTO yoki 2 ↓ ni bosing. 4x4 rejimga o'tish buyrug'i haqiqatda faqat haydovchi o'zgartirgich tugmasini qo'yib yuborganida beriladi. 4x4 belgisi o'rnatilgan rejimga o'tish yakunlanguniga qadar miltillab turadi. Buyruq holati haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida aks ettiriladi.

4x4 rejimlarni o'zgartirish yakunlangani bo'yicha muvofiq xabarnoma haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranidan g'oyib bo'ladi, 4x4 belgisi miltillashdan to'xtaydi, displeyda esa faol rejim belgilanishi paydo bo'ladi.

Agar o'zgartirishga buyruq ko'rsatilgan tezlikdan yuqoriroq tezlikda avtomobilning harakatlanishi vaqtida berilgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq ogohlantirish yorishib turadi. Harakatlanish tezligini pasaytiring.

Agar o'zgartirishga buyruq, UO'Q neytral (N) holatda bo'lmagan vaqtda berilgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq ogohlantirish ham yorishib turadi. Ushbu o'zgarishga 20 sekund ajratiladi. Bundan so'ng, uskunalar qalqonchasida tarqatish qutisi 4 ↓ rejimda ishlayotganligiga ko'rsatuvchi belgi paydo bo'ladi.

⚠ *DIQQAT!*
UO'Qning yangi rejimning miltillab turgan indikatorida boshqa uzatmaga o'tkazilishi tarqatish qutisining shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Agar 20 sekund o'tib borishi bo'yicha uzatmalar qutisi neytralga (N) o'tkazilmagan yoki avtomobilning tezligi 5 km/soatgacha (soatiga 3 mil) pasaytirilmagan bo'lsa, u holda tarqatish qutisi avvalgi rejimda ishlashni davom ettiradi. Muvofiq indikatsiya uskunalar qalqonchasida paydo bo'ladi.
Avtomobilni kamida 5 km/soat (soatiga 3 mil) tezlikgacha tormozlab va uzatmalar qutisini neytralga (N) o'rnatib, yana bir marta o'tishga urinib ko'ring.

Neytralga (N) o'tish
N (neytral) rejimga o'tish uchun:
1. Quvvat agregatini ishga tushiring.
2. Uzatmalar qutisida neytral uzatmani yoqing.
3. Tarqatish qutisini 2 ↑ rejimga o'tkazing..
4. To'xtab turish tormozini harakatga keltiring va (yoki) tormoz tepkisini bosing.
5. Uskunalar qalqonchasida miltillab turuvchi N (neytral) belgisi paydo bo'lmagunicha, 10 sekund davomida besh marta 2 ↑ ni bosing. O'zgartirish yakunlanganidan so'ng belgi miltillashdan to'xtaydi. Agar to'xtab turish tormozi harakatga keltirilmasa va (yoki) 20 sekund davomida tormoz tepkisi bosilmasa, u holda tarqatish qutisi avvalgi holatda qoladi.
6. Agar 20 sekund o'tib borishi bo'yicha uzatmalar qutisi neytralga (N) o'tkazilmagan yoki avtomobilning tezligi 5 km/soatgacha (soatiga 3 mil) pasaytirilmagan bo'lsa, u holda tarqatish qutisi avvalgi rejimda ishlashni davom ettiradi. Muvofiq indikatsiya uskunalar qalqonchasida paydo bo'ladi.

Neytraldan (N) olish
N (neytral) holatdan o'tish uchun:
1. Dvigatelni ishga tushirmasdan o't oldirishni yoqing. O't oldirish qulfida kalitning holati ⇨ 8-16ni ko'ring.
2. To'xtab turish tormozini yoqing. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi ⇨8-31ni ko'ring.
3. Uzatmalar qutisida neytral uzatmani yoqing.
4. Tarqatish qutisini 2 ↑ rejimga o'tkazing. Tarqatish qutisini faqat 2 ↑ rejimiga o'tkazish bilan neytraldan (N) yechish mumkin. 2 ↑ rejimga o'tish yakunlanishi bo'yicha uskunalar qalqonchasida belgi miltillashni to'xtatadi.
Agar tarqatish qutisi o'zgartirishni yakunlash imkoniga ega bo'lmasa, u holda avvalgi holatni ifoda etuvchi belgi qayta paydo bo'ladi.

TORMOZ TIZIMI

Tormoz elektr kuchaytirgichi

Tormoz elektr kuchaytirgichi bo'lgan avtomobillarda me'yordagi holatda tormoz tepkisiga bosishda tormoz tizimining gidravlik konturlari elektron boshqariladi. Tizim standart tekshiruvlarni bajaradi va avtomobil dvigateli o'chirilishidan keyin bir necha sekund o'tgandan keyin o'chadi. Shu vaqtda shovqin eshitilishi mumkin. Agar ushbu tekshiruvlar vaqtida yoki tormozlar elektr kuchaytirgichi o'chirilgan vaqtda tormoz tepkisi bosilsa, bosish kuchini va tormoz tepkisining yurishining sezilarli o'zgarishini his qilish mumkin. Bunday holat me'yordagi hisoblanadi.

Antibloklovchi tormoz tizimi (ABS)

Antibloklovchi tormoz tizimi (ABS) yo'l bilan g'ildiraklarning ilakishishini yo'qotilishini oldini olish va keskin tormozlanishda avtomobilning yo'nalish turg'unligini saqlab qolinishiga imkon beradi.

Agar ABS tizimida nosozlik aniqlansa, nazorat lampasi qilgan holda qoladi. Antibloklash tormoz tizimi (ABS) signalizatori ⇨ 4-27ni ko'ring.

ABS tizimi tormoz tepkisiga oyoqni qo'yish uchun zarur bo'lgan vaqtni hech qanday kamaytirmaydi. Uning mavjudligi, shuningdek, har doim ham tormoz yo'lini qisqartirishga imkon bermaydi. Oldinda ketayotgan avtomobilgacha yetarlicha oraliq masofa bo'lmagan vaqtda, agar ushbu avtomobil to'satdan tormozlansa, siz tormoz tepkisiga bosishga ulgurmay qolasiz.

Har doim siz avtomobilni, hattoki agar u ABS tizimi bilan jihozlangan bo'lsa ham, o'z vaqtida to'xtatishga imkon beruvchi oraliq masofani saqlab turing.

ABSning qo'llanilishi

Tormoz tepkisini bir necha marta bosmang va qo'yib yubormang. Oddiygina tormoz tepkisini bosing va uni qo'yib yubormang. ABS ishlashining tovushi va tepkining siltalanishi me'yordagi holat hisoblanadi.

Avariyaviy tormozlanish

ABS tizimi bir vaqtda tormozlanishni bajarish va rul chambaragi bilan ishlash imkonini beradi. Keskin holatlarda harakatlanish traektoriyasini o'zgartirishga urinish ko'pincha, hatto eng samarali tormozlanishning o'ziga qaraganda ancha ta'sirliroq bo'lib qoladi.

Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi



Elektr mexanik to'xtab turish tormozini (EPB), hattoki o't oldirish o'chiqligida ham harakatga keltirish mumkin. Elektr oziqlanish quvvati yetishmovchiligida EPB tormozini na harakatga keltirish, na qo'yib yuborish mumkin emas. Akkumulator batareyasini quvvatsizlantirmaslik uchun, elektr mexanik to'xtab turish tormozini zaruratsiz ko'p marta ketma-ket yoqmaslikka urinmang.

Tizim tarkibida ERB tormoz holatining qizil indikatori, hamda EPB tormoziga xizmat ko'rsatish zarurati haqida ogohlantiruvchi sariq indikator mavjud. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi signalizatori ⇨ 4-26 va Elektr yuritmali xizmat to'xtab turish tormozi indikatori ⇨ 4-27ni ko'ring.

Tizimda, shuningdek, haydovchining axborot markaziga (DIC) chiqariluvchi to'xtab turish tormozi holati bilan bog'liq xabarlar ham ko'zda tutilgan.
Avtomobildan chiqib ketishdan oldin, EPB tormozlari holati qizil indikatori yorishib turganligini va ushbu tormoz harakatga keltirilganligini tekshiring.
Agar haydovchi axborot markazi (DIC) displeyi ekranida UO'Q yaqin vaqtda boshqa uzatmaga mumkin emasligi haqida ogohlantirish yorishib turgan, bunda EPB tormoziga xizmat ko'rsatish o'tkazilishi zarurligi haqida ogohlantiruvchi indikator yorishib turgan, hamda EPB tormozi holati indikatori miltillab turgan bo'lsa, demak, tizimni qayta ishga tushirish zarur bo'ladi. Avtomobilni ishga tushirib, EPB tormozini harakatga keltiring va darhol uni qo'yib yuboring. Ogohlantirish va indikator o'chishi kerak. Elektr yuritmali to'xtab turish tormozi signalizatori ⇨ 4-26 va Elektr yuritmali xizmat to'xtab turish tormozi indikatori ⇨ 4-27ni ko'ring.

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqish

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini yoqish uchun:
1. Avtomobilni to'liq to'xtating.
2. EPB tormozi o'chirgichiga bosing. EPB tormozi holatining qizil indikatori avval miltillashni boshlaydi, EPB tormozini harakatga keltirishdan keyin esa u bir tekis yorishib turadi. Agar EPB tormozi holatining qizil indikatori doimo miltillab turgan bo'lsa, demak, tormoz oxirigacha harakatga keltirilmagan yoki nosoz. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq ogohlantirish yorishib turadi.
Elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'yib yuboring va uni qayta yoqishga urinib ko'ring. Agar indikator yonmayotgan yoki miltillashda davom etayotgan bo'lsa, TXKSga murojaat qiling. EPB tormozining miltillab turgan qizil indikatori bilan avtomobilni ekspluatatsiya qilish qat'iyan yo'l qo'yilmaydi. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling. Agar EPB tormozga xizmat ko'rsatish o'tkazilishi zarurati haqida ogohlantiruvchi sariq indikator yorishib turgan bo'lsa, EPB tormozi o'chirgichiga bosing. Toki EPB tormozi holatining qizil indikatori bir tekis yorishib turmagunicha, o'chirgichni bosilgan holatda ushlab turing. Agar EPB tormoziga xizmat ko'rsatish zarurati haqidagi ogohlantiruvchi sariq indikator yorishib turgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.
Harakatlanayotgan vaqtda elektr magnit to'xtab turish tormozi yoqilishida avtomobil, toki ushbu o'chirgich bosilgan holatda bo'lgan butun vaqt davomida tezlikni pasaytiradi. Agar o'chirgichni avtomobilning to'liq to'xtashigacha bosilgan holda ushlab turilsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoqilgan holda qoladi.
Avtomobil harakatlanmayotgan ba'zi holatlarda, elektr mexanik to'xtab turish tormozi avtomatik yoqilishi mumkin. Bu nosozlik alomati hisoblanmaydi, balki EPB tizimini ish layoqatini vaqti-vaqti bilan tekshirish zaruratiga yoki EPB tormozini qo'llovchi boshqa xavfsizlik tizimlari so'rovi bo'yicha sodir bo'layotganligiga ko'rsatadi.
Agar elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, avtomobilning beixtiyor yumalab ketishi ehtimolini oldini olish uchun uni orqa g'ildiraklarini bloklab qo'ying.

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirish

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini qo'yib yuborish uchun:
1. O't oldirishni yoqing va ACC/ACCESSORY (YORDAMCHI ASBOB-USKUNALAR) holatiga o'tkazing.
2. Tormoz tepkisini bosing va ushlab turing.
3. Elektr mexanik to'xtab turish tormozi o'chirgichini qisqa muddatli bosing.
Agar EPB tormozi holatining qizil indikatori o'chsa, demak, tormoz qo'yib yuborilgan.

Agar EPB tormozga xizmat ko'rsatish o'tkazilishi zarurati haqida ogohlantiruvchi sariq indikator yorishib turgan bo'lsa, tormozni qo'yib yuborish uchun, EPB tormozi o'chirgichini bosing va ushlab turing. Toki EPB tormozi holatining qizil indikatori o'chmagunicha, o'chirgichni bosilgan holda ushlab turing. Agar indikatorlardan biron biri tormozni qo'yib yuborish urinishidan keyin yonishda davom etsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling

⚠ *DIQQAT!*

Yoqilgan to'xtab turish tormozi bilan harakatlanish tormoz tizimini haddan tashqari qizib ketishiga va uning detallarining muddatidan oldin yedirilishiga yoki ularning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Joydan qo'zg'alishdan avval, to'xtab turish tormozi to'liq o'chirilganligiga va tormoz tizimi nosozligi signalizatori yonmayotganligiga ishonch hosil qiling

Agar siz tirkamani shataklayotgan va to'xtab turish uchun joyni nishablikda tanlagan bo'lsangiz, u holda Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha maslahatlar ⇨ 8-69 paragrafni ko'ring.

Elektr mexanik to'xtab turish tormozini avtomatik o'chirilishi

EPB tormozi avtomobilning harakatlanishi vaqtida, oldinga yoki orqaga yurish uzatmasi yoqilishida va joydan qo'zg'alishda avtomatik qo'yib yuboriladi.

Agar elektr mexanik to'xtab turish tormozi yoqilgan bo'lsa, joydan keskin qo'zg'alishdan saqlaning. Bu tormoz nakladkalarning xizmat qilish muddatini uzaytirishga yordam beradi.

Favqulodda tormozlanishni yengillashtirish tizimi

Favqulodda tormozlanish kuchaytirgichi avariyaviy holatda haydovchi tormoz tepkisini qanchalik keskin bosayotganligini aniqlashga qodir. Ushbu holatda u ABS tizimi ishlashi uchun tormoz mexanizmlarining yuritmalar konturida qo'shimcha kuchlarni yuzaga keltiradi, agar haydovchi tomonidan keltirilgan yoki buning uchun yetarlicha bo'lmay qolganida. Bunda katta bo'lmagan shovqin, tormoz tepkisini siltalanishi va (yoki) uning beixtiyor harakatlanishi yuzaga kelishi mumkin. Tormoz tepkisiga yo'l holati talab etilayotgandek bosishda davom eting. Favqulodda tormozlanish kuchaytirgichi tormoz tepkisi qo'yib yuborilganida o'chadi.

Ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA)

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

HSA funksiyasiga ishonib qolmang. HSA ehtiyotkorlikni namoyon qilish va avtomobilni xavfsiz boshqarish zaruratini bekor qilmaydi. Siz ushbu tizim tomonidan uzatilayotgan ogohlantirishlarni va xabarnomalarni eshitmasligingiz yoki ko'rmasligingiz mumkin. Haydashdagi e'tiborsizlik odamlarga jarohat yetkazilishi yoki ularning o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari ⇨ 8-3ni ko'ring.

Ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA) haydovchi joydan qo'zg'alayotganda tormoz tepkisidan akselerator tepkisiga oyog'ini olib o'tayotganida, avtomobilning nishablik bo'ylab pastga beixtiyor yumalab ketishini oldini oladi. G'ildiraklar faqat akselerator tepkisini bosishda tormozdan chiqadi. Agar akselerator tepkisi bir necha minut davomida bosilmasa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi avtomatik yoqiladi. G'ildiraklarning tormozdan chiqarilishi boshqa holatlarda ham sodir bo'lishi mumkin.

HARAKATLANISHNI STABILLASHTIRISH TIZIMLARI

Avtomobilni nishablikda ushlab turish uchun ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini (HSA) qo'llash yaramaydi.

Avtomobil kapoti bilan ko'tarilishning cho'qqisiga qarab turgan va oldinga yurish uzatmasi yoqilgan vaqtda yoki avtomobil kapoti bilan nishablikning etagiga qarab turganida va orqaga yurish uzatmasi yoqilishida, ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA) erishimli bo'ladi. Ko'tarilishda harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimini (HSA) qo'llash uchun avtomobil to'liq to'xtashi zarur bo'ladi.

Tortish kuchi nazorati tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi Tizimning ishlashi

Avtomobil shataksirashga qarshi tizimi (TCS) va StabiliTrak/elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) bilan jihozlangan. Ushbu tizimlar g'ildiraklarning sirpanib ketishini cheklashga ko'maklashadi va haydovchiga avtomobil boshqaruvchanligini, ayniqsa, sirpanchiq yo'lda, saqlab qolishga yordam beradi.

Shataklashishga qarshi tizim faqat, agar u biron bir yetakchi g'ildiraklardan biri shataklanayotganini yoki ilakishishni yo'qotishni boshlaganini aniqlagan holatda faollashadi. Bu sodir bo'lganida, TCS sirpanib ketayotgan g'ildiraklarga tormozlarni yoqadi va g'ildiraklarning shataklashishini cheklash uchun dvigatelni quvvatini pasaytiradi.

StabiliTrak/ESC avtomobil haydovchi tomonidan o'rnatilgan harakatlanish traektoriyasi va avtomobilning harakatlanishini haqiqiy yo'nalishi orasidagi farqni aniqlash vaqtida faollashadi. StabiliTrak/ESC o'rnatilgan traektoriyada avtomobilni tutib turishda haydovchiga yordam sifatida avtomobilning u yoki boshqa g'ildiraklarning tormozlariga tormoz bosimini tanlab aniqlaydi. Avtomobilni ishga tushirish bilan tirkamani stabillashtirish funksiyasi (TSC) avtomatik ishga tushiriladi. Tirkamani tebrantirishdan himoyalash tizimi (TSC) ⇨ 8-86ni ko'ring.

Agar kruiz-nazorat yoqilgan bo'lsa, shataklashishga qarshi tizimning yoki StabiliTrak/ESC aralashuvi paytida kruiz-nazorat avtomatik o'chadi. Kruiz-nazorat qayta yoqilgan bo'lishi mumkin, agar buni yo'l sharoitlari imkon berayotgan bo'lsa.

Avtomobilni ishga tushirish va harakatlanishni boshlashdan keyin ikkala tizim bir vaqtda yoqiladi. Tizimlarni ular ishlayotgan vaqtda yoki diagnostika tekshiruvini bajarishida eshitish yoki his qilish mumkin.

Bu me'yordagi holat va avtomobilning nosozliklari haqida dalolat bermaydi.

Harakatlanishni me'yordagi sharoitlarida ikkala tizimlarni yoqilgan holda qoldirish tavsiya etiladi, ammo agar avtomobil qumda, loyda, muzda yoki qorda tiqilib qolgan bo'lsa, shataklashishga qarshi tizimni o'chirib qo'yish talab etilishi mumkin. Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa ⇨ 8-11 va "Tizimlarni yoqish va o'chirish" paragrafini ushbu bo'limda quyida ko'ring.

Tarqatish qutisi (agar u mavjud bo'lsa) Four-Wheel Drive Low (to'rtta g'ildirakka yuritmali uzatmalarning pasaytirilgan oralig'i) rejimida ishlayotgan bo'lsa, TCS va StabiliTrak/ESC funksiyalari avtomatik o'chadi, OFF belgisi yorishadi, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida esa muvofiq xabarnoma paydo bo'ladi.

Ikkala tizimlar uchun indikator uskunalar majmuasida joylashgan. Ushbu indikator:
- Shataklashishga qarshi tizim g'ildiraklarning shataklashishini cheklaganda miltillaydi.
- StabiliTrak/ESC tizimi faollashganida miltillaydi.
- Agar tizimlardan biri ishlamayotgan bo'lsa, yoqiladi va yoqilgan holda qoladi.

Tortish kuchi nazorati tizimi (TCS)/StabiliTrak nazorat lampasi ⇨ 4-29ni ko'ring.

Agar tizimlardan biri o'chmayotgan yoki faollashmayotgan bo'lsa, haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq xabarnoma yorishadi va tizim faol emasligiga va avtomobil boshqaruvida haydovchiga yordam bermayotganligiga ko'rsatuvchi belgi paydo bo'ladi. StabiliTrak/ESC tizimining to'liq ish layoqati yordamisiz ag'darib ketish xavfi ortadi. Avtomobilni boshqarib turib buni inobatga oling.

Agar yoqilgan va yoqilgan holda qolayotgan bo'lsa:
1. Avtomobilni to'xating.
2. Dvigatelni o'chiring va 15 sekund kuting.
3. Dvigatelni ishga tushiring.

Avtomobilda safar qiling. Agar yonayotgan va o'chmayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Tizimlarni yoqish va o'chirish



TCS va StabiliTrak/ESC funksiyalarini tugmali o'chirgichi rul chambaragidan chap tomonda uskunalar panelida joylashgan.

⚠ *DIQQAT!*

Agar TCS tizimi o'chirilgan bo'lsa, u holda tormoz tepkisiga ko'p marta bosish yoki keskin tezlashishni qilish yaramaydi. Bu avtomobil transmissiyasini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Faqat TCSni o'chirish uchun ni bosing va qo'yib yuboring. Uskunalar majmuasida yoqilgan tortish kuchi nazorati tizimi indikatori paydo bo'ladi. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq xabarnoma paydo bo'ladi. TCSni qayta yoqish uchun, ni bosing va darhol qo'yib yuboring. Uskunalar majmuasida tortish kuchini nazorati tizimi o'chirilganlik indikatori o'chadi.

Agar tugmasiga bosish paytida TCS tizimi g'ildiraklarning shataklashishiga faol qarshilik ko'rsatayotgan bo'lsa, toki shataklash to'xtamagunicha, u o'chmaydi.

TCS va StabiliTrak/ESC ikkala tizimlarni o'chirish uchun, toki uskunalar qalqonchasida tortish kuchi nazorati va StabiliTrak tizimlarini o'chirish indikatorlari o'chmagunicha, ni bosing va ushlab turing. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida muvofiq xabarnoma paydo bo'ladi.

TCS i StabiliTrak/ESC tizimlarini qayta yoqish uchun, ni bosing va qo'yib yuboring.

Uskunalar panelida tortish kuchi nazorati

va StabiliTrak tizimlarini o'chirish indikatorlari o'chadi.

To'rt burchakli pnevmatik osmasiz avtomobillarda Stabili- Trak/ESC tizimi tezlikni 56 km/soat (soatiga 35 mil)ga oshirishda avtomatik o'chadi. Shataklashishga qarshi tizim o'chirilgan holatda qoladi.

To'rt burchakli pnevmatik osmali avtomobillarda Stabili- Trak/ESC tizimi tezlikni 32 km/soat (soatiga 20 mil)ga oshirishda avtomatik o'chadi.

Ushbu avtomobil tirkamani stabillashtirish (TSC) va ko'tarilishda joydan qo'zg'alishda yordam (HSA) funksiyalari bilan jihozlangan.

Tirkamaning tebranishidan himoyalash tizimi (TSC) ⇨ 8-86 va Ko'tarilishga harakatlanishni boshlashni yengillashtirish tizimi (HSA) ⇨ 8-33ni ko'ring.

Qo'shimcha yordamchi asbob-uskunalarning o'rnatilishi avtomobilning ishchi xarakteristikalariga ta'sir qilishi mumkin. Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari ⇨ 9-2ni ko'ring.

Nishablik ostiga harakatlanish nazorati indikatori (HDC)

Pastga tushishda yordam tizimi (HDC), agar u mavjud bo'lsa, qiya nishablik ostida oldinga yoki orqaga avtomobilning harakatlanish tezligini o'rnatadi va uni qo'llab turadi. HDC tizimi o'chirgichi rul chambaragidan chap tomonda uskunalar paneliga joylashtirilgan.



HDCni yoqish yoki o'chirish uchun, ni bosing. Avtomobil tezligi soatiga 60 km (soatiga 37 mil)dan kam bo'lishi kerak.

HDC tizimi yoqilgan vaqtda, uskunalar qalqonchasida muvofiq indikator yorishib turadi. Indikatorning miltillab turishi, HDC tizimi transport vositasining harakatlanish tezligini qo'llab turib, faol tormozlanayotganligiga ko'rsatadi. HDC tizimi qiyaligi 5%ga yetuvchi yoki undan oshuvchi nishabliklarda 1 km/soatdan 30 km/soatgacha (soatiga 1 mildan 19 milgacha) oraliqda tezlikni qo'llab turadi.

HDC tizimining uch minutdan ortiq yoki 25%dan qiyaroq nishabliklarda ishlab turishida, tormozlar haddan tashqari qizib ketishidan saqlanish maqsadida tarqatish qutisini 4 ↓ rejimga (to'rttala g'ildiraklarga yuritma bilan uzatmaning pasaytirilgan oralig'i) o'tkazish zarur bo'ladi.

HDC tizimi ishlayotgan vaqtda gidravlik tormoz yuritmasi tomonidan chiqariluvchi shovqin nosozlik alomati hisoblanmaydi.

HDC tizimi faollashtirilishi vaqtida, HDC boshlang'ich tezligi harakatlanishning joriy tezligiga teng qilib o'rnatiladi. Uni rul chambaragida +RES yoki SET- ni bosib, yoki akselerator yoki tormoz tepkisini bosib, oshirish yoki kamaytirish mumkin. Bunday tarzda sozlangan tezlik yangi o'rnatilgan tezlik bo'lib qoladi.

30 km/soatdan 60 km/soatgacha (19 mildan 37 milgacha) oraliqda HDC tizimi faol bo'lib qoladi, ammo transport vositasining harakatlanish tezligini o'rnatish yoki qo'llab turish imkoniga ega bo'lmaydi. HDC tizimi tezlikni 80 km/soatga (soatiga 50 mil) oshirishda yoki kamida 30 sekund davomida 60 km/soatdan (soatiga 37 mildan) yuqori tezlikda harakatlanishda avtomatik o'chadi.

HDC tizimini qayta yoqish uchun, ni yana bosish kerak. HDC tizimi davomli ishlashdan keyin o'chib qolishi mumkin. Bunday holatda HDC tizimiga sovish imkonini berish kerak. HDC tizim faol bo'lib qoluvchi muddat yo'l sharoitlariga, qiyalikka, o'rnatilgan tezlikka, avtomobilga yuklamaga va tashqaridagi haroratga bog'liq bo'ladi.

Agar tizim faol, avtomobilning harakatlanish tezligi esa 30 km/soat (soatiga 19 mil)dan yuqori, ammo 60 km/soat (soatiga 37 mil)ga yetmayotganda, haydovchining axborot tizimi (DIC) displeyi ekrani muvofiq xabarnomani yorishtiradi.

Harakatlanish rejimlari

Yurish rejimlarini tanlash tizimi (DMC) haydovchiga o'z ixtiyori bilan muvofiqlikda avtomobilning umumiy o'zini tutishini o'zgartirish, bir vaqtda bir nechta avtomobil kichik tizimlarini sozlamalarini darhol o'zgartirish imkonini beradi. Erishimli yurish rejimlarini va avtomobil kichik tizimlarini to'plami jamlanma, mintaqa va opsiyalar paketiga bog'liq bo'ladi.

Dastlabki bo'yicha avtomobil har gal odatiy rejimda ishga tushiriladi.

Tanlangan rejim indikatori uskunalar qalqonchasida doimiy yorishib turadi.

Jamlanmaga bog'liq holda quyidagi yurish rejimlari bo'ladi: Normal (odatiy), Sport (sport), Snow/Ice (qor bilan qoplangan/yaxvonlik), Off-Road (yo'lsizlik), Tow/Haul (shataklovchi /transportda tashiluvchi) va Terrain (yo'lsizlik).



Rejimlardan istalganiga o'tish uchun, rul chambaragidan chap tomonda joylashgan Mode (rejim) tutqichini buring.

Yo'lsizlik rejimiga o'tish uchun, Mode tutchiqi yonidagi muvofiq tugmaga bosing.

Odatiy rejim: Bu yurishning yuqori ravonligini ta'minlovchi rejimdir, shahar sharoitlarida va shosse bo'ylab odatiy harakatlanishda qo'llaniladi. Ushbu sozlama shinamlik va boshqaruvchanlik orasidagi maqbul balansga muvofiq keladi. Ushbu rejim standart hisoblanadi va dastlabki bo'yicha yoqiladi. Ushbu rejim uchun uskunalar majmuasida maxsus indikator yo'q.

Sport rejimi: Bu rejim yo'lning holatiga yoki shaxsiy afzalliklarga bog'liq holda boshqaruvchanlikni yaxshilaydi. Sport rejimida avtomobil uzatmalarning pasaytirilgan oralig'iga avtomatik o'tadi.

Bundan tashqari, ushbu rejimda avtomobil haydash stilini kuzatadi, jadal stilni aniqlaganda

esa, uzatmalarni samarali o'zgartirish funksiyasini avtomatik yoqadi. Ushbu funksiyalar uzatmalarning pasaytirilgan oralig'i chegarasida harakatlanishni qo'llab turadi, shu bilan dvigatel bilan tormozlanish samaradorligini va tezlashishga reaksiyani oshiradi. Agar haydashning jadal stili muayyan vaqt oralig'ida o'zini namoyon qilmasa, u holda avtomobil yaqin vaqtda odatiy yurish rejimiga qaytadi. Rul boshqaruvi parametrlariga aniqlikni oshiruvchi o'zgartirishlar kiritiladi.

Qor bilan qoplangan/yaxvonlik rejimi: Ushbu rejimda qor bilan qoplangan yoki yaxvonlikka uchragan yo'l qoplamasida avtomobilning tezlashish samaradorligini oshiradi. Qor bilan qoplangan/yaxvonlik rejimida akselerator tepkisini bosishga avtomobilning reaksiyasi sirpanchiq yo'l qoplamasi bilan shinalarning maqbul ilakishishini ta'minlash uchun shunday tarzda o'zgaradi.

Bu quruq asfaltda tezlik olish dinamikasining yomonlashtirilishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu rejim avtomobil qumda, loyda, qorda, shag'alda yoki muzda tiqilib qolgan vaqtda qo'llash uchun mo'ljallanmagan. Avtomobil tiqilib qolishidagi tavsiyalarni, Agar avtomobil tiqilib qolgan bo'lsa ⇨ 8-11 bo'limda ko'ring.

Yo'lsizlik rejimi: Ushbu rejim ko'ngilochish maqsadlarida yo'lsizlik bo'ylab haydash uchun mo'ljallangan. Off-Road rejimini o'tlardan, shag'aldan, tuproqdan, loydan, tuproq va qor bilan qoplangan yo'llar bo'ylab o'rtacha tezlikda ancha qulay harakatlanish uchun qo'llash tavsiya etiladi. Akselerator tepkisi sozlamalari yo'lsizlik bo'ylab harakatlanishni yaxshilash uchun o'zgaradi. Ushbu rejimda tepkilarning ishlash sxemasi, hamda yurish balandligi va tortish kuchi nazorati tizimlarining ishlash parametrlari o'zgaradi.

Yo'lsizlikda haydash haqida batafsil, Yo'lsizlik bo'ylab haydash ⇨ 8-5ni ko'ring.

Shataklash/transportda tashish rejim: Ushbu rejim og'ir yuklarni transportda tashishda avtomobilning texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini va boshqaruvchanligini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Shataklash/transportda tashish rejimida uzatmalarni o'zgartirish,rul boshqaruvchanligi,va elektron dinamik stabillashtirishtizimi (ESC) sxemasini sozlash sodir bo'ladi.

Agar avtomobil shataklash/transportda tashish rejimida o'chib qolayotgan vao'chib qolayotgan va qayta to'rt soatdan ortiq bo'lmagan vaqt o'tishi bilan qayta ishga tushayotgan bo'lsa, u holda bu rejim faol holatda qoladi.

Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, u holda shataklash/transportda tashish rejimiga o'tish bilan chiqindilarni drossellash hisobiga dvigatel bilan tormozlanish avtomatik faollashadi. U dvigatel va uzatmalar qutisi avtomobilning harakatlanishini sekinlashtirishi uchun shunday tarzda uzatmalarni o'zgartirib, avtomobilning doimiy tezligini qo'llab turishga imkon beradi. Tormozlar ishlagan vaqtda, tizim uzatmani pasaytiradi va tezlikni pasaytirish uchun dvigatelning turbohavo purkashini yoqadi. Uzatmalarni o'zgartirishning odatiy sxemasi, qachonki avtomobil shataklash /transportda tashish rejimda nishablik qiyaligida bo'lib qolganida yoki haydovchi akselerator tepkisini bosganida, tiklanadi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni Shataklash uchun asbob-uskunalar ⇨ 8-77 va Avtomobilni shataklash ⇨ 9-70 bo'limlarda ko'ring.

Yo'lsizlik rejimi (agar u bor bo'lsa) tarqatma qutining 4 ↑ rejimni tanlash tugmasi ostida ni bosish bilan yoqiladi.

Yo'lsizlik rejimi: Ushbu rejim yo'lsizlik, ikki harakatlanish chiziqli yomon yo'llar yoki nosoz yo'llar bo'ylab juda past tezlikda harakatlanishda qo'llaniladi. Ushbu rejimda tirkama platformada qayiqni suvdan chiqarish mumkin. Yo'lsizlik rejimida uzatmalar avtomatik o'zgaradi, ammo pastlatilgan uzatma dvigatel maksimal aylanuvchi moment bilan ishlashi uchun ko'proq ushlanib turilishi mumkin. Ushbu rejim tepkilarni ishlashini va kichik tezliklarda va yo'lsizlik sharoitlarida boshqaruvchanlikni yaxshilovchi uzatmalarning o'rgartirilishini noyob sxemasi bilan farq qiladi. Ushbu rejimda akselerator tepkisini ishlash va uzatmalarni o'zgartirish sxemalari, hamda yurish balandligi va cheklangan shataksirashli elektron differensialning (eLSD) xarakteristikalari o'zgaradi.

Avtomobil ko'tarilishda to'xtagan vaqtda, tutib turish funksiyasi avtomatik yoqiladi,u toki haydovchi akselerator tepkisini bosmagunicha,ishlab turadi.Yo'lsizlik rejimida stop/ishga tushirish funksiyasiva kruiz-nazorat tizimi o'chadi.

Drosselni ko'tarish bilan faol tormozlanish yoqiladi.Ushbu funksiyato'rtta g'ildirakka yuritmaliuzatmalarning pasaytirilgan oralig'i rejimida dvigatel bilan tormozlanishni imitatsiya qilib, avtomatik tormozlanishni ta'minlaydi. Tormozlanishyurish holatida (D) ham,toki avtomobilbo'sh aylanishlarga o'tmagunicha, sodir bo'ladi. L1 va L2 rejimlaridatormozlanish odatdatransport vositasining to'liq to'xtaguniga qadardavom etadi. Bundan tashqari, drosselni ko'tarish bilan faol tormozlanish tirkamaning tormoz tizimini qo'llash zaruratini pasaytiradi.

Avtomobil tormozlar qizib ketishida, elektron to'xtab turish tormozining ishdan chiqishida,nishablikda tormozlanish va tutib turilish qobiliyatining avtomobil bilan yo'qotilishida avtomatik yo'lsizlik rejimidan odatiy rejimga o'tadi.

Yo'lsizlikda haydash haqida batafsil, Yo'lsizlik bo'ylab haydash ⇨ 8-5 va Tog'li yo'llar bo'ylab harakatlanish ⇨ 8-10ni ko'ring.

Yo'lsizlik rejimining har xil turlari	Avtomobilning kutilayotgan harakati	Hududning a'lo darajadagi relyefi
Yurish (L3-Lx)	Drossel ishtirokisiz yengil tormozlanish va drosselning modullashtirilishini o'rtacha qobiliyati, aylanuvchi momentni oshirmasdan 4↓ rejimi ko'rsatkichlarining imitatsiyasi.	O't o'sib ketgan dalalar, ikki harakat chiziqli o'rta miyona sifatdagi yo'llar, nosoz yo'llar, tepaliklarning yirik tizmalari
L2	Drossel ishtirokisiz o'rtacha tormozlanish va drosselni modullashtirishning o'rtacha qobiliyati, ko'pchilik holatlarda harakatlanish to'liq to'xtash bilan yakunlanadi.	O'rtacha kesishuvchan toshli hudud, o'nqir-cho'nqir va chuqurlarning ko'pligi, qisqa va nisbatan keskin nishabliklar
L1	Drossel ishtirokisiz ahamiyatli tormozlanish va drosselning modullashtirishini yuqori qobiliyati, ko'pchilik holatlarda harakatlanish to'liq to'xtash bilan yakunlanadi.	Toshli tushishlar

Avtomobilni nishablikda tutib turish

- Avtomobil oldinga harakatlanayotgan vaqtda, nishablikda to'xtasa, yoki ko'tarilishda orqa bilan harakatlanayotganda, nishablikda transport vositasini tutib turish funksiyasi yoqiladi, u, toki haydovchi akselerator tepkisiga bosmagunicha ishlab turadi.
- Pastga tushishda oldinga yurishning istalgan uzatmasi yoqilgan vaqtda, agar akselerator tepkisini bosmasdan, tormoz tepkisi qo'yib yuborilsa, avtomobil asta-sekin pastga yumalaydi.
- Tekis maydonda avtomobil oldinga yumalab ketadi.
- Agar haydovchining xavfsizlik kamari demontaj qilingan bo'lsa, haydovchining eshigi esa nishablikda avtomobilni tutib turish funksiyasi faol bo'lganida ochilsa, elektr mexanik to'xtab turish tormozi (EPB) ishga tushiriladi.
- EPB tormozi nishablikda avtomobilni tutib turish funksiyasining davomli ishlashida ham ishlashi mumkin.

Yo'lsizlik rejimi faqat bir pog'onali tarqatish qutisi bo'lgan avtomobillarda mavjuddir.

Yo'lsizlik rejimini faqat quyidagi sharoitlarga rioya qilishda faollashtirish mumkin:

- Avtomobilning tezligi 80 km/soat (soatiga 50 mil)dan oshmagan.
- Tarqatish qutisi 4↑ rejimga o'tkazilgan.

Ushbu rejimning juda ham tez-tez qo'llanilishi tormozlanish sababli tormozlarning yedirilishiga olib kelishi mumkin.

Tormozlar haddan tashqari qizib ketishida avtomobil yo'lsizlik rejimidan avtomatik chiqadi. Uni tormozlar soviganidan keyin qayta yoqish mumkin.

Yo'lsizlik rejimiga o'tishda:

- Dvigatelni avtomatik to'xtatish/ishga tushirish o'chadi.
- Uskunalar qalqonchasida yo'lsizlik rejimi indikatori yoqiladi.

Osma qattiqligini sozlashning magnit tizimi

Ushbu avtomobil o'z-o'zini sozlovchi amortizatsiya tizimi bilan jihozlangan, u boshqachasiga yo'l sharoitlarining o'zgarishiga ta'sir qilishga qodir bo'lgan yarim adaptiv osma deb ataladi. Ushbu funksiya yo'lovchilarning o'rindiqlarini turlicha soni va turlicha yuklarga ega bo'lgan avtomobilning yurish sifatini va boshqaruvchanligini yaxshilaydi.

Orqa ko'prikni bloklash

Orqa differensialni bloklashga ega bo'lgan avtomobillar qor, loy, muz, qum va uvalanuvchi tuproq bilan shinalarning yaxshiroq ilakishishi bilan farq qiladi. Bunday ko'prik vaqtning ko'p qismida odatdagidek ishlaydi, ammo sust ilakishishda tortish kuchining asosiy qismi yaxshiroq ilakishish bilan orqa g'ildiraklarga uzatiladi.

To'rt nuqtali pnevmatik osma

To'rt nuqtali pnevmatik osma yurish sifatini qulayligi va yaxshilanishi uchun yurish balandligini sozlash imkonini berib, yuklamaning bir tekis taqsimlanishini doimo qo'llab turadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Jarohatlar, jumladan halokatli oqibatlar yetkazilishidan saqlanish maqsadida, transport vositasi ostidagi fazoni va g'ildirak shinalarning ichida begona buyumlarning mavjud bo'lmasligini tekshirmasdan uni ishga tushirish taqiqlanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Jarohatlar, jumladan, o'lim oqibati bilan yetkazilishidan saqlanish maqsadida, muayyan yo'l sharoitlarida ruxsat etiluvchi eng past yurish balandligini tanlang. Yurish balandligi qanchalik katta bo'lsa, transport vositasining og'irlik markazi shunchalik yuqori bo'ladi, natijada esa ekstremal manevrlashda ag'darilib ketish xavfi ham yuqori bo'ladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tepa yukxonaga yuklama qanchalik katta bo'lsa, transport vositasining og'irlik markazi shunchalik yuqori, natijada esa ag'darilib ketish xavfi ham yuqori bo'ladi. Tepa yukxonasi yuklangan avtomobilda nazoratning yo'qotilishidan saqlanish maqsadida, yuqori tezliklardan, keskin tezlik olishlardan, keskin burilishlardan, keskin tormozlanishdan va keskin manevrlardan saqlanib, odatiy yurish balandligini tanlang.

Yurish balandligini o'zgartirish

Ride Height (yurish balandligi) tugmasiga bosib, uskunalar paneli displeyining ekranida Ride Height menyusini oching.



Tutqichni chapga yoki o'ngga aylantirib, menyudan kerakli yurish balandligini tanlang. Tanlovni Ride Height tugmasini takroriy bosish bilan tasdiqlang yoki toki menyu taymaut bo'yicha yopilgunga qadar uch sekund kuting.
Tanlash mumkin bo'lmagan yurish balandligi parametrlari menyuda faol emas (kulrang bilan ajratib ko'rsatilgan).

Yurish balandligi haqida

Transport vositasini kundalik ekspluatatsiyasida odatiy yurish balandligi (Normal Height) standart qo'llaniladi.

Kirish-chiqish balandligi

Kirish-chiqish balandligi (Entry/Exit Height) 50 mm (2 dyuym) odatiydan kamroq. Transport vositasining bunday balandligi o'tirishni va tushishini, hamda istalgan eshik orqali, jumladan orqa ko'tarma eshik orqali yuklashni va yukdan tushirishni yengillashtiradi.
Ushbu balandlikni istalgan tezlikda harakatlanish vaqtida Ride Height menyusida tanlash mumkin. Yuqori tezlik bilan harakatlanish vaqtida kirish-chiqish balandligini tanlashda buyruq toki harakatlanish tezligi 12 km/soat (soatiga 7 mil)dan past bo'lgunga qadar pauzaga qo'yiladi.
Kirish-chiqish balandligi harakatlanish tezligi 8 km/soat (soatiga 5 mil)dan yuqori bo'lib qolgan vaqtda avtomatik odatiy yurish balandligiga o'zgaradi. Agar kirish-chiqish balandligida eshiklardan biron biri ochilmasa, u holda odatiy yurish balandligi 30 km/soat (soatiga 19 mil) tezlikka erishilgunga qadar kechikish bilan tiklanadi. Bu haydovchiga kirish-chiqish balandligida yo'lovchilarni olish yoki tushirish imkonini beradi. Haydovchi to'xtab turish rejimiga (P) o'tishda kirish-chiqish balandligigacha transport vositasini avtomatik pasayishini yoqishi mumkin. Kirish-chiqish balandligigacha avtomatik pasayishni axborot-ko'ngilochar tizim displeyining ekranida Settings/Vehicle/Ride Height (parametrlar/avtomobil/yurish balandligi) menyusida yoqish mumkin. Agar transport vositasining balandligi odatiydan yuqori bo'lsa, u holda kirish-chiqish balandligigacha avtomatik pasayish o'chadi. Transport vositasi Tow/Haul (shataklash/transportda tashish) yoki Off-Road (yo'lsizlik) yurish rejimlariga o'tkazilayotgan vaqtda, yoki unga tirkama ulangan paytda, kirish-chiqish balandligigacha avtomatik pasayish o'chiriladi.

Oshirilgan balandlik

Oshirilgan balandlik (Increased Height) 25 mm (1 dyuym)ga odatiydan balandroq. Yo'lsizlik sharoitlarida yoki maksimal balandlikka qaraganda yuqoriroq tezlikda harakatlanish uchun mo'ljallangan bunday balandlik faqat opsiyalarning muayyan to'plami mavjudligida erishimlidir. Oshirilgan balandlikni transport vositasining tezligi 80 km/soat (soatiga 50 mil)ga erishilmagan vaqtda Ride Height menyusida tanlash mumkin. Agar harakatlanish tezligi 80 km/soat (soatiga 50 mil)dan yuqori bo'lsa, u holda odatiy yurish balandligi avtomatik tiklanadi.
Yo'ldan tashqari (Off-Road) va yo'lsizlik (Terrain) yurish rejimlarida harakatlanish tezligi 80 km/soat (soatiga 50 mil)dan past bo'lib qolganida oshirilgan balandlik avtomatik o'rnatiladi. Agar harakatlanish tezligi 80 km/soat (soatiga 50 mil)dan oshib ketsa, u holda odatiy yurish balandligi tiklanadi. Odatiy yurish balandligi transport vositasining harakatlanish tezligi 16 km/soat (soatiga 10 mil)dan pastga tushib ketguniga qadar tutib turiladi, bundan so'ng oshirilgan balandlik avtomatik tiklanadi.

Tajovuzkor manevrlashda transport vositasini turg'unligini oshirish uchun oshirilgan balandlik odatiyga avtomatik o'zgaradi.

Maksimal balandlik

Maksimal balandlik (Maximum Height) 50 mm (2 dyuym) odatiydan ko'proq.

Yo'lsizlik sharoitlarida harakatlanish uchun mo'ljallangan bunday balandlik faqat opsiyalarning muayyan to'plami mavjudligida erishimlidir.

Transport vositasini maksimal balandlikgacha ko'tarish uchun, avval uzatmalar qutisini 4 ↓ rejimga o'tkazing.

Tarqatish qutisini 4 ↓ rejimga o'tkazgandan so'ng va 48 km/soat (soatiga 30 mil)dan past tezlikgacha tormozlanishdan keyin Ride Height menyusidan Maximum Height (maksimal balandlik) bandini tanlang. Agar harakatlanish tezligi 48 km/soatdan yuqori bo'lsa, u holda oshirilgan yurish balandligi avtomatik tiklanadi.

Tajovuzkor manevrlashda transport vositasini turg'unligini oshirish uchun maksimal balandlik odatiyga avtomatik o'zgaradi.

Aerodinamik balandlik

Aerodinamik balandlik (Aerodynamic Height) 20 mm (0,75 dyuym)ga odatiydan kamroq. Bunday yurish balandligi yuqori tezlikda harakatlanishda transport vositasining aerodinamik xarakteristikalarini yaxshilash uchun qo'llaniladi.

Transport vositasi muayyan vaqt mobaynida uning harakatlanish tezligi 105 km/soat (soatiga 65 mil)dan oshganda aerodinamik balandlikgacha pasayadi. Aerodinamik yurish balandligi harakatlaning tezligi 48 km/soat (soatiga 30 mil)dan past bo'lib qolganida avtomatik odatiyga o'zgaradi. Aerodinamik balandlik avtomobilga tirkama ulanishida yoki shataklash/transportda tashish yurish rejimi (Tow/Haul) yoqilgan vaqtda avtomatik o'chadi.

Osma ishlashi rejimi

Pnevmatik osmada ikki o'ziga xos ishlash rejimlari bor, ularni axborot-ko'ngilochar tizim displeyi ekranidagi Settings/Vehicle/Suspension (parametrlar/avtomobil/osma) menyusida tanlash mumkin. Ushbu rejimlardan biron biri faol bo'lgan vaqtda, uskunalar qalqonchaida quyida tasvirlangan belgi yorishib turadi.

To'rt nuqtali pnevmatik osma indikatori ⇨4-32ni ko'ring.

Servis rejimi

Servis rejimda (Service Mode) pnevmatik osmalarning barcha funksiyalari, jumladan transport vositasini ko'tarish va pasaytirish, hamda havo kompressorining ishlashi o'chiriladi. Ushbu rejim tekis yuzalar bo'ylab avtomobilni shataklashda yoki uning ostida istalgan ishlarni bajarishda qo'llaniladi.

Servis rejim avtomobilni domkratga o'rnatishda va domkrat bilan uning istalgan burchagi ko'tarilishida avtomatik yoqiladi. Servis rejimi yo'lsizlik sharoitlarida jadal harakatlanishda pnevmatik osmaning shikastlanishidan saqlanish maqsadida vaqtinchalik yoqilishi mumkin. Servis rejim transport vositasining harakatlanish tezligi 16 km/soat (soatiga 10 mil)dan oshganida avtomatik o'chadi.

G'ildiraklar o'rnatilishini sozlash rejimi

G'ildiraklar o'rnatilishini sozlash rejimida (Alignment Mode) transport vositasining balandligi g'ildiraklarning razvalsxojdeniyasini sozlanishini yuqori aniqligini ta'minlash uchun maqbullashtiradi.

G'ildiraklarning razvalsxojdeniyasini sozlash stansiyasiga yetkazilgan avtomobil majburiy tartibda ushbu rejimga o'tkaziladi.

G'ildiraklar o'rnatilganligini sozlash rejimiga avtomobilni o'tkazishdan avval, odatiy yurish balandligi o'rnatilganligini tekshiring, va UO'Qni neytralga o'rnating. G'ildiraklar o'rnatilishini sozlash rejimi transport vositasining harakatlanish tezligi 16 km/soat (soatiga 10 mil)dan oshganida avtomatik o'chadi.

Eshik yoki kapot ochiqligida pnevmatik osmaning ishlashi

Eshiklardan istalgani yoki kapot ochiqligida, pnevmatik osma transport vositasining balandligini har qanday o'zgartirilishini vaqtinchalik bloklaydi. Balandlikni o'zgartirish imkoni eshik yoki kapot yopilishidan keyin tiklanadi. Ochiq orqa ko'tarma eshik pnevmatik osmaning ishlashiga ta'sir qilmaydi.

Tizimning haddan tashqari qizib ketishi

Agar pnevmatik osma yuqori yuklamalarga uchratilayotgan bo'lsa, tizim toki kompressor sovimagunicha, transport vositasining balandligini har qanday o'zgartirilishini vaqtinchalik bloklab qo'yishi mumkin. Agar bunday holatda transport vositasining balandligini o'zgartirishga buyruq uzatilayotgan bo'lsa, u holda uskunalar qalqonchasida Leveling System Unavailable' ("Tekislash tizimi erishimli emas") xabarnomasi yoritib chiqariladi.

Faqat turg'unlikni qo'llab turish uchun pasaytiriluvchi osma

Elektron dinamik stabillashtirish tizimining ishdan chiqishida pnevmatik osma yuqori tezlikda harakatlanib ketayotgan avtomobilning turg'unligini ta'minlash uchun uni pasaytiradi. Bunda uskunalar qalqonchasida 'Vehicle Lowering for Stability' ("Faqat turg'unlikni pasaytirish") xabarnomasi yoritiladi.

Avtomobilning haddan tashqari yuklanishi

Avtomobilning haddan tashqari yuklanganligini aniqlab, pnevmatik osma uning odatiy yurish balandligidan yuqoriga ko'tarilishini bloklaydi.

Pnevmatik osmaga xizmat ko'rsatish

Agar uskunalar qalqonchasida 'Service Leveling System' ("Tekislash tizimi xizmat ko'rsatilishiga muhtoj") xabarnomasi paydo bo'layotgan bo'lsa, darhol avtorizatsiyalangan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar siz avtomobilni doimiy tezlikda ishonch bilan boshqarish imkoniga ega bo'lmasangiz, kruiz-nazoratning qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Ilonizi yo'lda va zich transport oqimida kruiz-nazoratni yoqish yaramaydi.
Kuriz-nazoratni sirpanchiq yo'lda qo'llash xavfli bo'lishi mumkin. Ushbu holatda yo'l bilan g'ildiraklarning ilakishishini keskin o'zgarishi g'ildiraklarning shataksirashiga va buoshqaruvning yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Kruiz-nazoratni sirpanchiq qoplamada qo'llamang.

Muvofiq jamlanmada kruiz - nazorat tizimi akselerator tepkisida oyoqni ushlab turmasdan, 40 km/soat (25 mil/soat) va undan yuqori doimiy tezlikni qo'llab turish imkonini beradi. Kruiz-nazorat soatiga 40 km.dan kam (soatiga 25 mil) tezlikda ishlamaydi.
Kruiz-nazorat quyidagi holatlarda o'chadi:

- Tortish kuchi nazorati tizimi (TCS) yoki StabiliTrak/elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi (ESC) g'ildiraklarning shataksirashini cheklashni boshlaydi. Tortish kuchini nazorat qilish tizimi/Elektron dinamik barqarorlashtirish tizimi ⇨ 8-34ga qarang.
- TCS yoki StabiliTrak/ESC tizimi o'chadi.

• To'qnashuv xavfi haqidagi ogohlantirish paydo bo'ladi. Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-55ga qarang.
• Haydovchi tormozlarni jalb qiladi.

Siz kruiz-nazoratni yo'ldagi holat uni xavfsiz qo'llashga imkon berishi bilanoq, uni qayta yoqishingiz mumkin.



: Tizim ushbu tugmani bosish bilan yoqiladi va o'chiriladi. Bunda uskunalar qalqonchasida muvofiq oq indikator yoqiladi yoki o'chadi.

+RES : Agar xotiraga u yoki bu tezlik o'rnatilgan bo'lsa, xotiradan ushbu tezlikni chaqirish uchun, tugmaning tepa qismini bosing va darhol qo'yib yuboring, tezlashish uchun esa tugmani bosing va ushlab turing. Agar kruiz-nazorat tizimi faollashib bo'lgan bo'lsa, avtomobil tezligini oshirish uchun ushbu tugmadan foydalaning.

SET− : Joriy tezlikni dasturlash va kruiz-nazoratni faollashtirish uchun tugmani bosing va darhol qo'yib yuboring. Agar kruiz-nazorat tizimi faollashib bo'lgan bo'lsa, avtomobil tezligini pasaytirish uchun ushbu tugmadan foydalaning.

: Tezlikning saqlangan qiymatlarini xotiradan o'chirib yubormasdan, kruiz-nazoratni o'chirish uchun, ushbu tugmani bosing.

Kruiz-nazorat sozlamalari

Agar tizim ishlatilmayotgan vaqtda indikator yonib turgan bo'lsa, SET− yoki +RESning tasodifan bosilishi tizimning kutilmagan yoqilishiga olib kelishi mumkin. Agar kruiz-nazorat ishlatilmayotgan bo'lsa, tugma bosilmagan holatda qolishi kerak.

1. Kruiz-nazorat tizimini yoqish uchun tugmani bosing.
2. Zaruriy tezlikni oling.
3. SET- tugmasini bosing va qo'yib yuboring;
4. Oyoqni akselerator tepkisidan oling.

Agar kruiz-nazorat faollashtirilgan bo'lsa, qurilmalar majmuasida kruiz-nazoratning yashil indikatori yonib turadi. Qurilmalar majmuasi (Kengaytirilgan to'plam) ⇨ 4-14 Qurilmalar majmuasi (Bazaviy to'plam) ⇨ 4-11ga qarang.

Tezlikning saqlangan qiymatini xotiradan chaqirish

Agar siz zaruriy tezlikni dasturlashga ulgurgan, bundan so'ng tormoz tepkisni yoki tugmasini bosgan bo'lsangiz, kruiz-nazorat o'chadi, biroq bunda tezlik qiymati xotiradan o'chirib yuborilgan bo'lmaydi.

Avtomobilning harakatlanish tezligi taxminan 40 km/soat (soatiga 25 mil)ga erishishi bilanoq, RES+ tugmasini bosing va darhol qo'yib yuboring. Avval o'rnatilgan harakatlanish tezligi tiklanadi.

Yoqilgan kruiz-nazoratda tezlikni oshirish

Quyidagi harakatlardan birini bajaring:

• Toki talab etiluvchi tezlikka erishilmagunicha +RESni bosing va ushlab turing, bundan so'ng qo'yib yuboring.
• Avtomobilning harakatlanish tezligini kichik qadamlar bilan oshirish uchun, +RES tugmasini bosing va qo'yib yuboring. Har bir bosishda tezlik taxminan 1 km/soatga (1 mil/soatga) ortadi.

Tezlik ingliz yoki metrik birliklarida aks ettirilishi mumkin. Uskunalar majmuasi (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-14 yoki Uskunalar majmuasi (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-11ni ko'ring. Tezlikni oshirish qadami o'lchashning tanlangan birligiga bog'liq bo'ladi.

Yoqilgan kruiz-nazoratda tezlikni kamaytirish

Agar kruiz-nazorat tizimi faollashtirib bo'lingan bo'lsa:

- G'ildirakchani SET- ga pastga bosing va talab etiluvchi ancha past tezlikka erishilgunga qadar ushlab turing, bundan so'ng qo'yib yuboring.
- Avtomobilning tezligini asta-sekin pasaytirish uchun, g'ildirakchani SET- ga pastga bosing va uni darhol qo'yib yuboring. Har bir bosishda avtomobilning tezligi 1 km/soat (1 mil/soat)ga pasayib boradi.

Yoqilgan kriuz-nazoratda quvib o'tish

Avtomobil harakat tezligini oshirish uchun akselerator tepkisini bosing. Haydovchi akselerator tepkisini qo'yib yuborgan vaqtda, avtomobilning harakatlanish tezligi kruiz-nazorat tizimida oldindan o'rnatilgan kattalikgacha pasayadi. Akselerator tepkisiga bosishda yoki uni kruiz-nazoratni o'chirish uchun qo'yib yuborishdan keyin darhol SET- tugmasini qisqa vaqtga bosilishi kruiz-nazoratida avtomobilning joriy tezligini o'rnatilishiga olib keladi.

Qiyaliklarda kruiz-nazoratni qo'llanilishi

Kruiz-nazorat tizimining ishlash samaradorligi harakatlanish tezligiga, avtomobilning yuklanganligiga va nishablikning tikligiga bog'liq bo'ladi. Tikka ko'tarilishda avtomobilning harakatlanish tezligini qo'llab turish uchun akselerator tepkisini bosishga to'g'ri kelishi bo'lib turadi.

Tushishda tormozlanib, kruiz-nazorat tizimi haydovchiga kerakli tezlikni qo'llab turishga yordam beradi.

Avtomobil faol kruiz-nazorat tizimi bilan ishga tushirilishi vaqtida, uning nishablikda tormozlanish funksiyasi yoqiladi. Uzatmalar oralig'ini tanlash rejimida ushbu funksiya jalb qilinmaydi. U haydovchiga dvigatel va uzatmalar qutisi bilan tormozlanish hisobiga nishablik ostiga harakatlanishda kerakli tezlikni ushlab turishga yordam beradi.

Pastga tushishda tezlikni sozlashning boshqa turlari haqida Nishablik ostiga harakatlanishni nazorat qilish tizimi (HDC) ⇨8-36 va Avtomatik uzatmalar qutisi ⇨8-23 bo'limlarida, shataklash/transportda tashish rejimiga (Tow/Haul) nisbatan qo'llanilishida esa - Harakatlanish rejimlari ⇨8-37 bo'limda so'zlab beriladi.

Kruiz-nazoratni o'chirish

- Kruiz-nazoratni quyidagi to'rtta usullardan biri bilan o'chirish mumkin:
- Tormoz tepkisini bosing.
- ⊗ ni bosing.
- ni bosing.
- Uzatmalar qutisida neytral uzatmani yoqing.

Xotiradan o'rnatilgan tezlik qiymatini o'chirib yuborish

Kruiz-nazorat tizimi xotirasiga o'rnatilgan tezlik qiymati tugmasini bosish bilan yoki o't oldirish o'chirilishida o'chirib yuboriladi.

HAYDOVCHIGA YORDAM TIZIMLARI

Sizning avtomobilingiz oldinga yurish, orqaga yurish bilan harakatlanish vaqtida yoki to'xtab turishga joylashtirishda birgalikda qo'llaniluvchi funksiyalar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, ular avariyani oldini olishga yoki avariyada jarohatlarni olinishini kamaytirishga yordam beradi. Ushbu tizimni qo'llashdan avval, butun bo'limning mazmuni bilan tanishib chiqing.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Haydovchiga yordam tizimiga to'liq ishonib qolish yaramaydi. Ushbu tizimlar e'tiborli bo'lish va avtomobilni xavfsiz boshqarish zaruratini o'rnini bosmaydi. Siz ushbu tizimlar tomonidan uzatiluvchi ogohlantirishlarni yoki xabarnomalarni eshitmasligingiz va sezmasligingiz mumkin. Haydashdagi e'tiborsizlik odamlarga jarohat yetkazilishi yoki ularning o'limi, hamda avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari ⇨ 8-3ni ko'ring.

Turlicha sharoitlarda ushbu tizimlar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lmaydi:

- Bolalarni, piyodalarni, velosipedchilarni yoki hayvonlarni aniqlash.
- Tizim nazorat qiluvchi zonalardan tashqarisida avtomobillarni va ob'ektlarni aniqlash.
- Harakatlanishning barcha tezliklarida ishlashi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Avariyani oldini olish uchun sizni ogohlantirish yoki yetarlicha vaqtni taqdim etish.
- Yomon ko'rish yoki yomon ob-havo sharoitlarida ishlash.
- Aniqlash datchigi tozalanmagan yoki muz, qor, loy yoki tuproq bilan yopilgan vaqtda ishlashi.
- Aniqlash datchigi, masalan, yopishtirma yorliq, magnit yoki metall plastinka bilan yopilgan vaqtda ishlashi.
- Aniqlash datchigiga yaqin zona shikastlangan yoki noto'g'ri ta'mirlangan vaqtda ishlashi.

Haydash jarayonida sizdan doimo to'liq e'tibor talab etiladi, siz avariyani oldini olish uchun harakat qilishga va tormoz tepkisiga bosishga va/yoki avtomobilning ruli bilan boshqarishga tayyor bo'lishingiz kerak.

Tovushli ogohlantirish

Haydovchiga yordam berishning ba'zi funksiyalari uni to'siqlar haqida tovushli signalni uzatish bilan ogohlantiradi. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va "Comfort and Convenience" ("Shinamlik va qulaylik")ni tanlang

Tozalikda saqlash

Avtomobilning opsiyalariga bog'liq holda avtomobilning ushbu zonalarini haydovchiga yordam berishning eng yaxshi ish qobiliyatini ta'minlash maqsadida toza holatda qo'llab turing. Ushbu tizimlarning erishimli bo'lmagan yoki bloklanishi holatida haydovchining axborot markazida (DIC) xabarlar aks ettirilishi mumkin.



- Oldingi va orqa bamperlar, hamda bamperlardan past zona
- Radiator panjarasi va faralar
- Radiator panjarasida yoki oldingi emblema yaqinidagi oldingi kamera ob'ektivi
- Oldingi va orqa yon tomon panellari
- Orqani ko'rish toshoynasi oldida old oynaning tashqarisi
- Orqani ko'rish tashqi toshoynalarni pastki qismida yon tomon kamerasining ob'ektivi
- Yon tomonda orqa burchak bamperlar
- Raqam belgisi ustida orqani ko'rish kamerasi

To'xtab turishga joylashtirish yoki orqaga yurib harakatlanishni yengillashtirish tizimi

Orqani ko'rish kamerasi (RVC), orqa bilan yurib (RPA) va oldinga yurib to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimlari (FPA), aylanma ko'rish maydoni va avtomobil orqasida ko'ndalang harakat haqida ogohlantirish (RCTA) tizimlari (agar ular jamlanmada bor bo'lsa) haydovchiga avtomobilni to'xtab turishga joylashtirishda va to'siqlar bilan to'qnashuvdan saqlanishga yordam beradi. To'xtab turishga joylashtirishda yoki orqa bilan harakatlanishda avtomobil atrofida to'siqlar mavjud emasligini albatta tekshiring.

Orqani ko'rish kamerasi

UO'Q selektori "R" (Orqa bilan yurish) holatiga o'tkazilgan vaqtda, orqani ko'rish kamerasi axborot-ko'ngilochar tizimning displeyiga avtomobil orqasidagi zonaning tasvirini chiqaradi.

UO'Qning "R" (Orqa bilan yurish) holatidan chiqarilishida oldingi ekran qisqa kechikishdan keyin displeyga chiqarilgan bo'ladi. Oldingi ekranga tezkor qaytish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimda "Uyga" yoki "Orqaga" tugmasini bosing, selektorni P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing yoki avtomobil tezligini D (Oldinga harakatlanish) rejimida taxminan 12 km/soat (8 mil/soat)gacha oshiring. Orqani ko'rish kamerasi orqa raqam belgisi ustiga o'rnatilgan.



1. Kameraning ko'rish maydoni



1. Kameraning ko'rish maydoni
2. Orqa bamper burchaklari

Kamera tomonidan uzatiluvchi tasvir obyektlargacha oraliq masofa haqidagi tasavvurni buzadi. Aks ettiriluvchi zona chegaralangan, va bamperning istalgan burchagiga yoki bamper ostiga yaqin joylashgan obyektlar aks ettirilmaydi.

Agar orqa bilan yurib to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi (RPA) yoki avtomobil orqasida ko'ndalang harakat haqida ogohlantirish tizimi (RCTA) to'siqlarni aniqlayotgan bo'lsa, displeyda ogohlantiruvchi uchburchak aks ettirilishi mumkin. To'siq qanchalik yaqin bo'lsa, uch burchak o'z rangini sariqdan qizilga o'zgartiradi va o'lchamlari kattalashadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Kamera (lar) bolalar, katta yoshdagi piyodalar, velosipedchilar, yo'nalishni kesib o'tib harakatlanayotgan transport vositalarini, hayvonlar va kameraning ko'rish maydonidan tashqarida, bamper ostida yoki avtomobil tagida joylashgan boshqa obyektlarni aks ettirmaydi. Aks ettiriluvchi oraliq masofalar to'siqlargacha haqiqiy oraliq masofani to'liq taqdim etilishini bermaydi. Avtomobilni faqat ushbu kamera (kameralar) yordamida haydash yoki to'xtab turishga joylashtirish taqiqlanadi. Harakatlanishni boshlashdan avval, atrofni e'tibor bilan ko'zdan kechirish kerak. E'tiborsizlik, odamlarning jarohatlanishi yoki o'limiga, shuningdek, avtoulovga shikastyetishiga olib kelishi mumkin.

Aylanma ko'rish maydoni tizimi

Muvofiq jamlanmada aylanma ko'rish maydoni tizimi axborot-ko'ngilochar tizim displeyi ekraniga oldinni ko'rish va orqani ko'rish kameralaridan tasvirlar bilan bir qatorda avtomobil atrofida yuzaga kelayotgan tasvirlarni chiqarishga imkon beradi. Oldinni ko'rish kamerasi radiator panjarasi orqasida yoki oldingi emblema yaqinida, yon tomonni ko'rish kameralari - orqani ko'rish tashqi toshoynalarning pastida, orqani ko'rish kamerasi esa - raqam belgisi ustida joylashgan. Aylanma ko'rish maydoni tizimini axborot-ko'ngilochar tizim displeyida "Kamera"ni tanlab yoki orqa uzatma yoqilishida yoqish mumkin.

Oldingi ekranga tezkor qaytish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimda istalgan tugmani bosing, UO'Qni P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing va avtomobil tezligini taxminan 12 km/soat (8 mil/soat)ga oshiring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Aylanma ko'rish maydoni tizimi kameralari ojiz zonalarga ega va avtomobil burchaklari yaqinidagi barcha obyektlarni ko'rsatmaydi. Tashqi toshoynalarni ularning me'yordagi holatiga nisbatan taxlashda aylanma ko'rish maydonining tasviri noto'g'ri aks ettirilishi mumkin. To'xtab turishga joylashtirish yoki orqa bilan yurib harakatlanish vaqtida avtomobil atrofidagi fazoni albatta tekshiring.



1. Aylanma ko'rish maydoni tizimi kameralarini ko'rish zonasi
2. "Ojiz" zona



1. Aylanma ko'rish maydoni tizimi kameralarini ko'rish zonasi
2. "Ojiz" zona

Kameralardan tasvirlar



Axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida muvofiq kameraning ko'rish zonasi tugmasiga tegining.

Standart oldingi/orqa ko'rish maydoni: - Avtomobil oldidagi yoki orqasidagi sohalarning tasviri chiqariladi. Displeyga kameradan tasvir uzatilgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida standart oldingi/orqa ko'rish belgisiga tegining. Ushbu tugmaga takroran teginishda ekrandagi tasvir oldingi kameradan orqaga va orqa kameradan oldingiga o'tadi.
Agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, oldinga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi avtomobilning oldingi qismidan kamida 30 sm (12 dyuym) masofada to'siqni aniqlagan vaqtda, displeyga, shuningdek, oldingi ko'rish maydoni kamerasidan tasvir chiqariladi.
Oldinda/orqada chorrahani ko'rish maydoni: avtomobilni oldida yoki orqasida ko'ndalang yo'nalishdagi transportning harakatlanish ko'rish maydoni chiqariladi, unda avtomobilning oldingi yoki orqa qismidan bevosita o'ngda yoki chapdagi obyektlar ko'rinadi. Displeyda kameradan tasvir chiqarilgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizim displeyiga oldinda/orqada chorrahaning ko'rish maydoni belgisiga tegining. Ushbu tugmaga takroran teginishda ekrandagi tasvir oldingi kameradan orqadagiga va orqadagi kameradan oldindagiga o'tadi.

Oldinda/orqada tepadan ko'rish maydoni: Avtomobilning oldidagi yoki orqasidagi zonaning tepadan ko'rinishi aks ettiriladi. Ushbu tugmaga takroriy teginish oldindagi va orqadagi ko'rinishlarni o'zgartiradi.

Oldinda/orqada yon tomondan ko'rish maydoni: Oldinda yoki orqada yon tomondan avtomobil ko'rinishi aks ettiriladi. Displeyga kameradan tasvir chiqarilgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida oldinda/orqada yon tomondan belgisiga tegining. Ushbu tugmaga takroran teginishda ekrandagi tasvir oldindagi tasvirdan orqadagi tasvirga va orqadagi tasvirdan oldindagi tasvirga o'zgaradi. "Yon tomondan ko'rish maydoni" rejimida to'xtab turishga joylashtirish va RCTA tizimlari ishlamaydi.

Yon tomon - oldinda/orqada ko'rish maydoni: Avtomobilning oldingi yoki orqa qismlarini yon tomonida joylashgan obyektlarning ko'rinishi aks ettiriladi.

Displeyga kameradan tasvir uzatilgan vaqtda, axborot-ko'ngilochar tizim displeyida yon tomon - oldinda/orqada ko'rish maydoni belgisiga tegining. Ushbu tugmaga takroran teginishda ekrandagi tasvir oldingi tasvirdan orqadagi tasvirga va orqadagi tasvirdan oldindagi tasvirga o'zgaradi. Yon tomon-oldinda/orqada ko'rish maydoni rejimida to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi va RCTA tizimining ilova darchalari chiqarilmaydi.

Tortish-ilakishish qurilmasini ko'rish maydoni: Ushbu ko'rinish, agar u jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, tirkamaga ulanishni bajarishda yordam beradi. Avtomobilning tortish-ilakishish qurilmasini shari tirkamani shatagi bilan ancha qulay moslashtirish uchun tortish-ilakishish qurilmasini kattalashtirilgan tasvirini aks ettiradi. Ekranga ushbu tasvir chiqarilgan vaqtda, P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tish elektr mexanik to'xtab turish tormozini avtomatik yoqadi.

Yo'naltiruvchi chiziqlar: Erishimli yo'naltiruvchi chiziqlar aks ettiriladi. Gorizontal belgilanishlar avtomobildan oraliq masofani ko'rsatadi.

Yuqoridan ko'rinish: Axborot-ko'ngilochar tizimining displeyida boshqa tasvirlar bilan bir qatorda avtomobil atrofidagi tasvirlar aks ettiriladi. Yuqoridan ko'rinishni yuqoridan ko'rinish tugmasini bosish orqali o'chirish va yoqish mumkin.

TIQni biriktirish uchun yo'naltiruvchi belgi

Agar ushbu funksiya jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, orqani ko'rish kamerasidan tasvir darchasida avtomobil TIQini tirkamaning shotisi bilan mo'ljalga olish imkonini beruvchi bittalik yo'naltiruvchi chiziq aks ettiriladi. Tirkamani biriktirish uchun mo'ljal olish tugmasini bosing, so'ngra rul chambaragini shunday burangki, ushbu chiziq tirkamaning shotisiga ko'rsatib tursin. Belgilanish chizig'i tirkamaning shotisiga mo'ljalga olingan holda qolishi uchun traektoriyaga tuzatish kiritib, orqaga yurishni boshlang. Agar tirkamani ulash belgilanishi yoqilgan bo'lsa, orqani ko'rish kamerasining odatiy yo'naltiruvchi chiziqlari aks ettirilmaydi. Tirkama bilan biriktirish uchun yo'naltiruvchi belgi faqat standart ko'rinishda aks ettirilishi mumkin.

12 km/soat (8 mil/soat)dan yuqori tezlik bilan oldinga harakatlanishda tirkamani tekshirish uchun, axborot-ko'ngilochar tizimi displeyida "KAMERA" tugmasini bosing. Orqani ko'rinish kamerasidan tasvir paydo bo'ladi.

Orqani ko'rish kamerasining darchasini yopish uchun, Xni bosing. Agar bunday qilinmasa, darcha sakkiz sekunddan keyin avtomat ravishda yopiladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

TQI yo'naltiruvchi belgisini faqat tirkama bilan biriktirish yoki 12 km/soat (8 mil/soat)dan yuqori tezlikda harakatlanishda tirkamani nazorat qilish uchun foydalaning. Uni har qanday boshqa maqsadlarda qo'llash yaramaydi, masalan, yo'nalish chizig'ini o'zgartirishdan oldin o'lik zonalarni ko'rikdan o'tkazish uchun.

Boshqa qatorga o'tishdan oldin, orqani ko'rish toshoynalariga qarang va orqaga o'girilib qarang. Ekspluatatsiya qoidalariga rioya etmaslik holatida siz yoki boshqa odamlar shikastlanishi mumkin.

Park Assist (to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi)

Park Assist (to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi) Transport vositasining jamlanmasiga orqaga yurish bilan (RPA) va oldinga harakatlanish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish (FPA) tizimlari kirishi mumkin. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi haydovchiga orqaga yurishida va to'xtab turishga joylashishda yordam beradi. To'xtab turishga joylashtirishda yordam tizimi tarkibiga bamperga o'rnatilgan har qanday to'siqlargacha avtomobilning oraliq masofasini o'lchovchi ultratovushli datchiklar kiradi. Tizim avtomobildan u yoki bu to'siqgacha oraliq masofani hisoblaydi, bunda u ushbu to'siq bilan akslangan ultratovushli to'lqinlarni datchikka qaytib kelish vaqtini hisoblaydi. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi faqat taxminan 11 km/soat (soatiga 7 mil)dan oshmaydigan tezlikda harakatlanishda ishlaydi. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimining tarkibiga nurli indikator kiradi. Bamperga joylashtirilgan datchiklar orqada avtomobildan 1,8 m (6 fut)gacha va yer yuzasidan 25 sm (10 dyuym) balandlikdagi va bamper darajasidan past oldinda 1,25 m (4 fut) masofadagi to'siqlarni aniqlashga qodir. Issiq va nam ob-havoda to'siqlarni aniqlash uzoqligi kamayishi mumkin. Bloklab qo'yilgan datchiklar to'siqlarni aniqlamaydi, ammo yolg'on aniqlashlarni chaqirishi mumkin. Datchiklarni toza holatda saqlang, ularnituproq, loy, qor, muz va moylamalarning tushib qolishidan asrang, ularni ayozda yuvgandan so'ng tozalab oling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimining qo'llanilishi sizni manevrlashda e'tiborli bo'lish zaruratidan ozod qilmaydi. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi bolalarni, katta piyodalarni, hayvonlarni va bamperdan past darajada joylashgan, hamda avtomobilga juda yaqin yoki undan juda uzoq joylashgan boshqa obyektlarni aniqlashga qodir emas. U soatiga 11 km (soatiga 7 mil)dan yuqori tezlikda ishlamaydi. Odamlarning jarohatlanishi yoki o'limidan saqlanish maqsadida oldinga yoki orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval avtomobil atrofidagi fazoni va orqani ko'rish toshoynalariga qarash, hattoki agar to'xtab turishga joylashtirish tizimi yoqilgan bo'lsa ham albatta tekshirish kerak.



Tizimning amal qilish tamoyili

Uskunalar qalqonchasi u yoki bu to'siqgacha masofani, ushbu to'siqni harakat yo'nalishini va uning joylashish joyini grafik aks ettirish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi displeyi bilan jihozlanishi mumkin. To'siq yaqinlashib kelishi chorasi bo'yicha diagrammada ko'proq chiziqlar yonishni boshlaydi, bundan tashqari, ular o'z rangini sariq rangdan qahrabo ranggacha, so'ngra esa qizilga o'zgartirishi mumkin.

Avtomobil yonida orqada to'siq aniqlanganda (<0,6 m (2 fut)) besh karralik tovushli signal uzatiladi, uning ketidan orqadan uzluksiz tovushli signal jaranglaydi, bunda o'rindiqqa o'rnatilgan xavf-xatar signalizatsiyasi (Safety Alert Seat) ikkala tomondan besh marta titraydi. Avtomobil yonida oldinda to'siq aniqlanganida (<0,3 m (1 fut)) oldindan uzluksiz tovushli signal uzatiladi, bunda o'rindiqqa o'rnatilgan xavf-xatar signalizatsiyasi (Safety Alert Seat) ikkala tomondan besh marta titraydi. Orqaga yurish

bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi signallari orqaga yurish bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi signallariga qaraganda ancha yuqori chastotaga egadir.

Funksiyalarni yoqish yoki o'chirish

To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi sozlanuvchi menyuda P tugma bilan yoqiladi va o'chiriladi.

Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash funksiyasi yordamida oldinga va orqaga yurish bilan harakatlanishda to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimlarini o'chirish (Off), yoqish (On) yoki ulama qurilmaga tuzatish bilan yoqish (On with Towbar) mumkin. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun Vehicle (Avtomobil) ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari) ni tanlang. Agar to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi saqlangan yakka tartibdagi sozlamalarda o'chirib qo'yilgan bo'lsa, u holda Park Assist tugmasi ham o'chiriladi. To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimini qayta yoqish uchun, yakka tartibdagi sozlamalarda saqlangan On (yoqish) buyrug'ini tanlang. On with Towbar (ulama qurilmaga tuzatish bilan yoqish) parametri tirkama uchun ulama qurilma bilan to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimining ish qobiliyatini ta'minlaydi. Tirkamani shataklash vaqtiga to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimini o'chirib qo'yish kerak.

Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun Vehicle (Avtomobil) ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari) ni tanlang. Ayrim modellarning ma'lumot-ko'ngilochar tizimining ekranida, yo'naltiruvchi chiziqlar ko'rinishini yoqadigan va o'chiradigan tugma mavjud.

Avtomobil orqasidagi piyodalar haqida ogohlantirish

Tegishli to'plam va ma'lum sharoitlarda, ushbu tizim, tizimning qamrovi doirasida, avtomobil orqasida piyodalar mavjudligi haqida ogohlantirishi mumkin. Ushbu funksiya faqat 12 km/soat (8 mil/soat)dan kam tezlikda orqa uzatmada (R) harakatlanishda ishlaydi va kunduzgi vaqtda 8 m (26 fut)gacha masofadagi piyodalarni aniqlaydi. Tungi vaqtda harakatlanishda tizimning imkoniyatlari juda ham cheklangan.

Avtomobil orqasida piyodalar mavjudligi haqida ogohlantirish tizimi indikatori

gar tizim bevosita avtomobil orqasida o'zining aniqlash zonasi chegarasida piyodani aniqlasa, axborot-ko'ngilochar tizimning displeyida bu yerda ko'rsatilgan sariq belgi miltillashni boshlaydi. Bir vaqtning o'zida orqada ikki tovushli signal uzatiladi, yoki, agar bu jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, haydovchining o'rindiq yostiqlarining ikkala tomonlari ikki marta titraydi. Agar tizim avtomobil yaqinida piyodani aniqlayotgan bo'lsa, bu yerda ko'rsatilgan axborot-ko'ngilochar tizim displeyidagi belgi qizil rangda miltillashni boshlaydi. Bir vaqtda orqada yettita tovushli signallar uzatiladi yoki, agar bu jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa, haydovchining o'rindig'ini yostiqlarini ikki tomoni yetti marta titraydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil orqasida piyodalarni aniqlash haqidagi ogohlantiruvchi tizim avtomatik tormozlanishni bajarmaydi. U, shuningdek, agar piyodalarni aniqlamayotgan bo'lsa, signal uzatadi, va quyidagi holatlarda piyodalarni aniqlash imkoniga ega emas:

- Piyoda avtomobilning shundoq orqasida bo'lmasa, tik turgan holda orqa ko'rinish kamerasining diqqat markaziga to'liq tushmasa.
- Piyoda boshqa piyodalar guruhida joylashgan bo'lsa.
- Piyoda bola hisoblansa.
- Ish yomon ko'rish sharoitlarida sodir bo'lmoqda, masalan, tunda, tumanda, yomg'irda yoki qorda.
- Orqa ko'rinish kamerasi loy, qor yoki muz bilan qoplangan bo'lsa.
- Orqani ko'rish kamerasi, orqa chiroqlar va orqaga yurish chiroqlari yuvilmagan yoki yomon texnik holatga uchragan.
- Avtomobil orqa uzatmaga (R) o'tkazilmagan.

Odamlar jarohatlanishi va o'limidan saqlanish maqsadida har doim, orqaga yurish bilan harakatlanishni boshlashdan avval, avtomobil atrofida piyodalarning mavjud emasligi tekshiring.

Harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga tayyor bo'ling. Avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari ⇨ 8-3ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Orqani ko'rish kamerasini, orqa chiroqlarni va orqaga yurish chiroqlarini toza va yaxshi texnik holatda saqlang.

Avtomobilning orqasida piyodalar mavjudligi haqida ogohlantiruvchi tizimni yoqish va o'chirish mumkin. Ma'lumot-ko'ngilochar tizimining ekranidagi mavjud sozlamalarni ko'rish uchun, "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun Settings (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari) > Rear Pedestrian Detection (Orqadagi piyodalarni aniqlash) ni bosing.

Tizim, ovozli signallarni yoki, agar to'plamda mavjud bo'lsa, o'rindiqning tebranishini uzatishi mumkin. Ma'lumot-ko'ngilochar tizimining ekranidagi mavjud sozlamalarni ko'rish uchun, "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud sozlamalar ro'yxatini ekranda ko'rsatish uchun Settings (Sozlamalar) > Vehicle (Avtomobil) > Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari) > Rear Pedestrian Detection (Orqadagi piyodalarni aniqlash) > Alert Type (Ogohlantirish turi) ni bosing.

Orqa bilan yurishda o'lik zonalarda nazorat tizimi (RCTA)

Orqa bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat tizimiga (RCTA) ega bo'lgan avtomobillarda axborot-ko'ngilochar tizim displeyida chap yoki o'ng tomondan yaqinlashib kelayotgan transport vositalari mavjudligi haqida haydovchini ogohlantirib, chap yoki o'ng tomonga yo'naltirilgan strelka bilan qizil uchburchak ko'rinishidagi piktogramma paydo bo'lishi mumkin. Tizim avtomobilning chap yoki o'ng tomonlarida 20 m (65 fut)gacha uzoqlikdagi obyektlarni aniqlaydi. Agar tizim to'siqlarni aniqlayotgan bo'lsa, chap va o'ng tomondan uchta tovushli signal uzatiladi yoki Safety Alert Seat o'rindig'ining chap yoki o'ng tomoni, avtomobil qaysi tomonda aniqlanganligiga bog'liq holda, uch marta titraydi.

Tirkamani shataklab ketayotgan avtomobilni boshqarish

Tirkamani shataklash vaqtida orqa bilan yurishda ehtiyotkorlikka rioya qiling. Orqa bilan harakatda o'lik zonalar nazorat tizimi (RCTA), agar tortish-ilakishish qurilmasi jalb qilingan bo'lsa, avtomatik o'chadi.

Funksiyalarni yoqish yoki o'chirish

Orqaga yurish bilan harakatlanishda o'lik zonalarda nazorat tizimini (RCTA) axborot-ko'ngilochar tizimi yordamida yoqish yoki o'chirish mumkin. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini

displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari)ni tanlang.

Avtomobilni boshqaruviga yordam tizimlari

Muvofiq jamlanmada ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish (FCA), piyoda oldida tormozlanish (FPB), faol rul boshqaruvi bilan egallab turgan chiziqdan chiqish haqida ogohlantirish (LKA), yon tomon ojiz zonalar nazorati (SBZA), harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish (LCA) va (yoki) avtomatik favqulodda tormozlanish (AEB) tizimlari oldinga harakatlanish vaqtida avariyani oldini olishga yoki avariyada shikastlanishlarni kamaytirishga yordam berishga qodir.

Frontal to'qnashuv haqidagi ogohlantirish tizimi (FCA)

Muvofiq jamlanmada FCA tizimi (ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi) frontal to'qnashuvlar oqibatida shikastlanishlarni oldini olishi yoki kamaytirishi mumkin. Oldinda ketayotgan avtomobilga juda tez yaqinlashish holatidaFCA tizimi old oynaga qizil rangdagi miltillovchi ogohlantiruvchi signalni chiqaradi va tez-tez tovushli signallarni uzatadi yoki haydovchining o'rindig'i yostig'idagi vibrosignalni yoqadi. FCA, shuningdek, agar siz boshqa avtomobil orqasidan juda yaqin masofada harakatlanayotganingizda, sariq rangdagi ogohlantiruvchi signalni yoqadi.

FCA taxminan 60 m (197 fut)gacha masofadagi avtomobilni aniqlaydi va 8 km/soat (5 mil/soat)dan yuqori tezlikda faoliyat yuritadi.

⚠ OGOHLANTIRISH!

FCA tizimi ogohlantiruvchi hisoblanadi va tormozlanishni yoqmaydi.
Juda sekin harakatlanayotgan yoki oldinda turgan avtomobilga juda tez yaqinlashishda, yoki juda yaqin masofada avtomobil ortidan harakatlanishda FCA tizimi avariyani bartaraf qilish uchun to'qnashuv haqida ogohlantirishni juda kech berishi mumkin. U, shuningdek, ogohlantirishni umuman bermasligi mumkin. FCA tizimi piyodalar, hayvonlar, yo'l belgilari, himoya to'siqlari, ko'priklar, qurilish quvurlari va boshqa obyektlarning mavjudligi haqida ogohlantirmaydi. Harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga tayyor bo'ling. Avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari ⇨ 8-3ni ko'ring.

FCA tizimini "Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash" menyusi yordamida o'chirib qo'yish mumkin. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari)ni tanlang.

Oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash

FCA tizimi faqat oldinda ketayotgan avtomobil aniqlanishi holatida ogohlantirishni beradi. Avtomobil aniqlanganida oldinda ketayotgan avtomobil indikatori yashil rangda yorishadi. Tizim burilishlarda, avtomagistrallardan tushishda, tepaliklarda, cheklangan ko'rish sharoitlarida, hamda agar avtomobil oldinda piyodalar yoki boshqa obyektlar bilan qisman to'sib qo'yilganda, avtomobilni aniqlamasligi mumkin. FCA tizimi oldinda ketayotgan avtomobilni, toki u sizning harakatlanish chizig'ingizda to'liq paydo bo'lmaganida, aniqlay olmaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

FCA tizimi faqat avtomobil aniqlanishi holatida avariyani oldini olishga yordam beruvchi ogohlantirishni beradi. FCA tizimi, agar FCA datchigi loy, qor yoki muz bilan bloklangan, yoki agar old oyna shikastlangan bo'lsa, oldinda ketayotgan avtomobilni aniqlash imkoniga ega bo'lmaydi. U, shuningdek, ilonizi yoki tepalik yo'llarda, yoki tuman, yomg'ir, qor kabi ko'rishni cheklovchi sharoitlarda, yoki faralar yoki old oyna ifloslangan yoki tegishli bo'lgan holatga ega bo'lmaganida avtomobilni aniqlash imkoniga ega bo'lmaydi. Old oynani, faralarni va FCA datchiklarini toza va soz holatda saqlang.

Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish



Proeksion displey bilan



Proeksion displeysiz

Agar sizning avtomobil aniqlangan avtomobilga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, old oynada FCA qizil displeyi miltillashni boshlaydi. Bundan tashqari, oldinda sakkiz yuqori tonallikdagi signallar tez uzatiladi. Ushbu ehtimolli to'qnashuv haqidagi ogohlantirish paydo bo'lishidan keyin tizim haydovchi tormoz tepkisiga tez bosishiga tayyorgarlik ko'rishi mumkin, va shuning uchun qisqa muddatli o'rtacha tormozlanishni boshlaydi.
Talab etilganidek, tormoz tepkisiga bosishda davom eting. Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirish paydo bo'lishida kruiz-nazorat o'chirib qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Xavfli kichik masofa haqida ogohlantirish

Agar oldinda aniqlangan avtomobil orqasida juda tez harakatlanish bo'lsa, oldinda ketayotgan avtomobil indikatori sariq rangda yorishib turadi.

Ogohlantirishni berish vaqtini tanlash

Ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirishni uzatish sozlagichi rul chambaragida joylashtirilgan. FCA tizimining Far(uzoq), Medium (o'rtacha) yoki Near (yaqin) kabi ishlash vaqtini o'rnatish uchun ni bosing. Tugmani birinchi bosishda haydovchining axborot markazida joriy qiymat chiqarilgan bo'ladi. Keyingi bosishlarda sozlama qiymatlari o'zgarib boradi. Tanlangan sozlama u haydovchi tomonidan o'zgartirilguniga qadar amal qiladi va ehtimolli to'qnashuv haqida ogohlantirishni va xavfli kichik masofa haqidagi ogohlantirishni uzatadi.
Ushbu ogohlantirishlarning uzatilish vaqti avtomobilning tezligiga bog'liq bo'ladi.
Avtomobil tezligi qanchalik katta bo'lsa, ogohlantirish shunchalik vaqtliroq uzatiladi.
Ogohlantirishni uzatish vaqtini tanlashda yo'l va ob-havo sharoitlarini inobatga oling. Ogohlantirishlarni uzatish vaqtini variantlarini oralig'i, ehtimol, hamma haydovchilar uchun va harakatlanish sharoitlari uchun ham mos kelmaydi.

Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofa indikatori

Oldinda ketayotgan avtomobil ortidan harakatlanish oralig'i haydovchining axborot markazida (DIC) sekundlarda harakatlanish vaqti kabi belgilanadi. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.

Harakatlanishning minimal vaqti 0,5 sekundni tashkil qiladi. Oldinda ketayotgan avtomobilning mavjud bo'lmasligida yoki oldinda ketayotgan avtomobilning datchikning ta'sir zonasiga tushib qolmasligida displeyga bir qator shtrixlar chiqariladi.

Ahamiyatli bo'lmagan ogohlantirishlar

FCA tizimi burilishni bajarayotgan, boshqa harakatlanish chizig'ida ketayotgan avtomobil, avtomobil hisoblanmagan yoki soyalar bo'lgan obyektlar tomonidan chaqirilgan xato ogohlantirishlarni berishi mumkin. Ushbu ogohlantirishlar tizimning me'yordagi ishi haqida dalolat beradi, avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

Tizimni tozalash

Agar FCA tizimi tegishli tarzda ishlayotgandek tuyulayotgan bo'lsa, ushbu taomillar ushbu muammoni bartaraf qilishi mumkin:

- Orqani ko'rish toshoynasi oldidagi old oynaning tashqi qismini tozalab oling.
- Avtomobilning butun old qismini tozalab oling.
- Faralarni tozalab oling.

Tozalash bo'yicha yo'riqnomani Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72 bo'limda "Avtomobilni yuvish" paragrafini ko'ring.

Tizimning ishlashi, shuningdek, qor, kuchli yomg'ir yoki yo'llardan sachratmalar sharoitlarida cheklangan bo'lishi mumkin.

Avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB)

Avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB) (muvofiq komplektatsiyada) frontal to'qnashuvdan saqlanish yoki uning salbiy oqibatlarini yumshatishda yordam berishi mumkin. AEB tizimi tarkibiga tormozlanishda yordamning zakovatli tizimi (IBA) kiradi.

To'qnashib ketishingiz mumkin bo'lgan siz bilan bir yo'nalishda harakatlanish chizig'ingizda oldinda harakatlanayotgan avtomobilni aniqlanishida, tizim tormozlanishni kuchaytirishi yoki avtomobilni avtomatik to'xtatishi mumkin. Bu avariyani oldini olishga yoki oldinga harakatlanishda uning og'irligini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Holatga bog'liq holda avtomobil o'rtacha yoki keskin tormozlanishi mumkin.

Har doim xavfsizlik kamarini qo'llang va barcha yo'lovchilar tegishli tarzda kamarni taqib olganliklarini kuzatib boring.

Avtomatik favqulodda tormozlanish faqat avtomobil aniqlanishi holatida amalga oshiriladi. Bunda, FCA tizimining oldinda harakatlanib ketayotgan avtomobil indikatori yorishadi. Frontal to'qnashuv haqida ogohlantirish tizimi (FCA) ⇨ 8-3ni ko'ring. Tizim 8 km/soat (5 mil/soat)dan 60 km/soat (37 mil/soat)gacha tezlikda oldinga harakatlanishda ishlaydi. U taxminan 60 m (197 fut) masofadagi avtomobilni aniqlashi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

AEB tizimi ehtimolli avariyada favqulodda tormozlanishga tayyorgarlikni ta'minlaydi, u avariyani oldini olish uchun mo'ljallanmagan. Avtomobilni tormozlash uchun AEB tizimiga ishonib qolish yaramaydi. AEB tizimi o'zining tezliklar ishchi oralig'i chegarasida tormozlanishni bajarmaydi va faqat avtomobillarni aniqlashga ta'sir ko'rsatadi.

AEB tizimi quyidagilarni aniqlashga qodir emas:

- Ilonizi yoki tepalik yo'llarda oldinda ketayotgan avtomobilni.
- Ba'zi avtomobillarni, xususan, tirkamali avtomobillarni, traktorni, ifloslangan avtomobilni va boshqalarni.
- Cheklangan ko'rish sharoitidagi, masalan, tuman, yomg'ir yoki qor vaqtida,

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

avtomobilni.
- Oldinda ketayotgan avtomobilni, agar u piyodalar yoki boshqa obyektlar bilan qisman to'sib qo'yilgan bo'lsa.

Haydash jarayonida sizdan doimo to'liq e'tibor talab etiladi, siz avariyani oldini olish uchun harakat qilishga va tormoz tepkisiga bosishga va/yoki avtomobilning ruli bilan boshqarishga tayyor bo'lishingiz kerak.

AEB tizimi ehtimolli avariyani oldini olishga urinib, avtomobil to'liq to'xtaguniga qadar uning tezligini pasaytirishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, AEB tizimi avtomobilni darhol to'xtatishi mumkin. Harakatni davom ettirish uchun, gaz tepkichini qattiq bosing.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

AEB bu kutilmagan va talab etilmagan holatlarda avtomobilni to'satdan avtomatik tormozlashi mumkin. Tizim oldinda burilishni bajaruvchi avtomobilga, himoya to'siqlariga, yo'l belgilariga va boshqa harakatsiz obyektlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. AEB tizimini bloklash uchun, akselerator tepkisiga keskin bosing, agar bu xavf-xatarni keltirmayotgan bo'lsa.

Favqulodda tormozlanishda yordamning zakovatli tizimi (IBA)

IBA oldinda ketayotgan avtomobilgacha yaqinlashish tezligi va oraliq masofaga bog'liq holda tormozlanishni kuchaytirib, tormoz tepkisini tez bosishda ishlashi mumkin.
Ushbu paytda tepkining ahamiyatsiz titrashlari yoki tushib ketishi me'yordagi holat hisoblanadi, zarurat tug'ilganida tormoz tepkisiga bosishni davom ettiring. IBA faqat tormoz tepkisi qo'yib yuborilishida avtomatik o'chadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

IBA tormozlanish talab etilmagan holatlarda avtomobilning tormozlanishini kuchaytirishi mumkin. Sizning avtomobil transport oqimiga to'siq bo'lib qolishi mumkin. Agar bu sodir bo'lsa, tormoz tepkisidan oyog'ingizni oling, so'ngra tepkiga talab etilgani kabi qayta bosing.

AEB va IBA "Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash" menyusi yordamida o'chirish mumkin. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari)ni tanlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamani shataklashda AEB yoki IBA tizimlarining qo'llanilishi avtomobilning boshqaruvini yo'qotilishiga, va, oqibatda, avariyaga olib kelishi mumkin. Tirkamani shataklashda tizimni
"Alert" ("Ogohlantirish") rejimiga o'tkazing yoki uni o'chirib qo'ying. Agar avtomobil Super Cruise avtonom haydash tizimi yoki moslashuvchan kruiz-nazorat bilan jihozlangan bo'lsa, tirkamani shataklashda AEB va IBA tizimlarini qo'llash mumkin.

Tizim erishimli bo'lmaslik haqida xabarlarni uzatishi mumkin:
- Avtomobilning old qismi yoki old oynaning ifloslanishida.
- Agar obyektlarning aniqlanishiga kuchli yomg'ir yoki qor xalal berayotgan bo'lsa.
- StabiliTrak tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi (ESC) bilan muammolar mavjud.

AEB tizimi xizmat ko'rsatishni talab etmaydi.

Piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB)

FPB tizimi, agar u mavjud bo'lsa, avtomobilning oldinga harakatlanishi vaqtida yaqin masofada mavjud bo'lgan piyodalar bilan frontal to'qnashuv natijasida shikastlanishlarni oldini olish yoki ularni kamaytirishga yordam beradi. FPB oldinda piyoda aniqlanganda sariq indikator aks ettiriladi. Agar avtomobil

aniqlangan piyodaga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, FPB tizimi old oynaga qizil rangdagi miltillovchi qizil signalni chiqaradi va tez-tez tovushli signallarni uzatadi. FPB tizimi tormozlanishni kuchaytirishi yoki avtomobilni avtomatik to'xtatishi mumkin. Ushbu tizimning tarkibiga favqulodda tormozlanishda yordam zakovatli tizimi (IBA) kiradi, bundan tashqari, avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB), shuningdek, piyodalarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB) ⇨ 8-57ni ko'ring.
FPB tizimi piyodalarni aniqlashi va 8 km/soat (5 mil/soat)dan 80 km/soat (50 mil/soat)gacha tezlikda oldinga harakatlanishda ular haqida ogohlantirishi mumkin. Kunduzgi vaqtda harakatlanishda tizim taxminan 40 m (131 fut) masofadagi piyodalarni aniqlaydi. Tungi vaqtda harakatlanishda tizimning ta'sir etishi chegaralangan.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

FPB tizimi faqat piyodani aniqlash holatida ogohlantirishni chiqaradi va avtomatik tormozlashni bajaradi. FPB tizimi quyidagi holatlarda piyodalarni, shu jumladan bolalarni aniqlamaydi:
- Piyoda bevosita avtomobil oldida turibdi, qisman to'silgan, notekis yoki odamlar guruhida turibdi.
- Yomon ko'rish maydonida, shu jumladan tungi vaqtda, tuman, yomg'ir yoki qor sharoitlarida.
- FPB tizimi datchigi loy, qor yoki muz bilan bloklangan.
- Faralar yoki old oyna ifloslangan yoki tegishli bo'lgan holatga ega emas.

Harakat qilishga va tormoz tepkisini bosishga tayyor turing. Ancha batafsil ma'lumotlarni avtomobilni xavfsiz ekspluatatsiya qilish asoslari ⇨ 8-3 bo'limda ko'ring.
Old oynani, faralarni va FPB datchigini toza va soz holatda saqlang.

Shaxsiy sozlamalarda FPBni O'CHIRILGAN, Xavf-xatar va Xavf-xatar va tormozlanish holatlariga o'rnatish mumkin. Ushbu xususiyatni sozlashning mavjud tanlo'vlarni ko'rish uchun, ma'lumot-ko'ngilochar tizimining bosh sahifasidagi "Sozlamalar" belgisini bosing. Mavjud xususiyatlar ro'yxatini displeyda ko'rsatish uchun "Vehicle" ("Avtomobil") ni tanlang va Collision/Detection Systems (To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari)ni tanlang.

Avtomobil oldida piyodani aniqlash

FPB tizimi faqat piyodani aniqlash holatida ogohlantirishni chiqaradi va avtomatik tormozlashni bajaradi.
Avtomobil oldida piyodani aniqlashda displeyga piyoda mavjudligi sariq indikatori chiqarilgan bo'ladi.

Avtomobil oldida piyodaning mavjudligi haqida ogohlantirish

Proeksion displey bilan



Proeksion displeysiz

Agar avtomobil piyodaga juda tez yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, old oynada FPB tizimning ogohlantirish qizil displeyi miltillashni boshlaydi.

Oldinda sakkizta yuqori tonallikdagi signallar tez uzatilgan bo'ladi. Piyoda mavjudligi haqida ogohlantirish paydo bo'lganidan keyin tormoz tizimi haydovchi tormoz tepkisiga keskin bosishiga tayyorlanishi mumkin, va shuning uchun qisqa muddatli o'rtacha tormozlanishni boshlaydi. Talab etilganidek, tormoz tepkisiga bosishda davom eting. Avtomobil oldida piyodaning mavjudligi haqida ogohlantirish paydo bo'lishida kruiz-nazorat o'chirib qo'yilgan bo'lishi mumkin

Avtomatik tormozlanish

Agar piyoda oldida tormozlanish tizimi (FPB) avtomobil oldida turgan piyodani bosib ketish xavfi mavjudligini aniqlasa, va bunda tormoz tepkisi bosilmagan bo'lsa, FPB o'rtacha yoki keskin tormozlanishni avtomatik yoqishi mumkin. Bu kichik tezlikda piyodalarning ba'zi bosib ketishlarini oldini olishga yoki tanaga jarohatlar yetkazilish og'irliklarini pasaytirishga yordam berishi mumkin. FPB 8 km/soat (5 mil/soat)dan 80 km/soat (50 mil/soat)gacha tezlikda aniqlangan piyoda oldida tormozlanishni avtomatik yoqishi mumkin. Muayyan sharoitlarda, masalan, yuqori tezliklarda, avtomatik tormozlanish jadalligi pasaytirilgan bo'lishi mumkin.

FPB tizimi piyodani bosib ketilishini oldini olishga urinishida avtomobil to'liq to'xtaguniga qadar uning tezligini pasaytirishi mumkin.

Agar shunday holat sodir bo'layotgan bo'lsa, avtomobil darhol to'xtaydi. Oldinga harakatni davom ettirish uchun, akselerator tepkisini kuch bilan bosing.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

FPB bu kutilmagan va talab etilmagan holatlarda ogohlantirish chiqarishi yoki avtomobilni avtomatik to'satdan tormozlashi mumkin. Tizim shakli va o'lchami bo'yicha piyodaga o'xshash ob'ektlarga, shu jumladan soyalarga ogohlantirish yoki tormozlanish bilan xato ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu tizimning me'yorda ishlashi haqida dalolat beradi, avtomobilga xizmat ko'rsatilishi talab etilmaydi. Avtomatik tormozlanishning ta'sirini bloklash uchun, agar bu xavf-xatar keltirmaydigan bo'lsa, akselerator tepkisiga jadal bosing.

Avtomatik tormozlanish tizimini "Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash" menyusi yordamida o'chirib qo'yish mumkin. Ma`lumot-ko'ngilochar tizimining displeyidagi mavjud parametrlarni ko'rish uchun, “Sozlamalar” > “Avtomobil” > “To'qnashuv haqida ogohlantirish tizimlari” > “Oldi piyodalarni aniqlash” ni bosing.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamani shataklashda piyoda oldida tormozlanish tizimining qo'llanilishi avtomobilning boshqaruvini yo'qotilishiga, va, oqibatda, avariyaga olib kelishi mumkin. Tirkamani shataklashda tizimni "Alert" ("Ogohlantirish") rejimiga o'tkazing yoki uni o'chirib qo'ying. Agar avtomobil Super Cruise avtonom haydash tizimi yoki moslashuvchan kruiz-nazorat bilan jihozlangan bo'lsa, tirkamani shataklashda FPB tizimini qo'llash mumkin.

Tizimni tozalash

Agar EPB tizimi tegishli tarzda ishlamayotgan bo'lsa, orqani ko'rish toshoynasi oldida tashqarida old oynani tozalab oling, bu muammoni bartaraf etishi mumkin.

Yon tomon o'lik zonalarda to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi (SBZA)

SBZA tizimi, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa, yo'l chizig'ini o'zgartirish jarayonida o'lik zonada mavjud bo'lgan boshqa avtomobillar bilan to'qnashuvdan saqlanishda haydovchiga yordam beradi. Agar oldinga harakatlanish vaqtida tizim sizning avtomobilingizdan chapda yoki o'ngda o'lik zonada boshqa transport vositasini aniqlasa, nomdosh tomondagi toshoynada indikator yonadi. Agar burilish ko'rsatkichi yoqilgan bo'lsa, va xuddi o'sha tomonda avtomobil aniqlangan bo'lsa, yo'l

chizig'ini o'zgartirish xavf-xatari haqida qo'shimcha ogohlantirish sifatida indikator miltillashni boshlaydi.
Tizim harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimining (LCA) bir qismi hisoblanganligi sababli, ushbu funksiyani qo'llashdan avval, LCA tizimi haqidagi butun bo'limni mazmuni bilan e'tibor berib tanishib chiqing.

Harakatlanish chizig'idan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LCA)

Muvofiq jamlanmada LCA tizimi yon tomon o'lik (ko'rinmaydigan) zonalarda harakatlanayotgan avtomobillar, yoki ushbu zonalarga orqadan juda tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar bilan to'qnashuvni oldini olib, bir yo'nalish chizig'idan boshqasiga o'tishda haydovchiga yordam beradi.
Avtomobilni aniqlash holatida, muvofiq yon tomon orqani ko'rish toshoynasida LCA tizimining ogohlantiruvchi indikatori yonadi. Agar bunda burilish ko'rsatkichi yoqilgan bo'lsa, indikator miltillashni boshlaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

LCA tizimi tizimni aniqlash zonalari tashqarisidagi avtomobillar, hamda piyodalar, velosipedchilar yoki hayvonlar haqida haydovchini ogohlantirmaydi. Tizim yo'l chizig'ini o'zgartirishda to'siqlar haqida haydovchini ogohlantirish mumkin bo'lmagan ba'zi holatlar mavjuddir. Yo'l chizig'ini o'zgartirishda e'tiborsizlik odamlarning jarohat olishi yoki ularning o'limi, hatto avtomobilning shikastlanishi sababi bo'lib qolishi mumkin. Boshqa qatorga yo'l chizig'ini o'zgartirishdan oldin, barcha toshoynalarga qarang, orqaga o'girilib qarang va burilish ko'rsatkichini yoqing.

LCA tizimining aniqlash zonalari



1. SBZA tizimining aniqlash zonasi
2. LCA tizimining aniqlash zonasi

LCA tizimi datchigi taxminan bitta chiziq, yoki avtomobilni ikkala tomonidan 3,5 m (11 fut) kenglikdagi zonani qamrab oladi. Datchiklar yerdan taxminan 0,5 m (1,5 fut)dan 2 m (6 fut)gacha balandlikdagi ob'ektlarni aniqlaydi. Yon tomon o'lik zonalarni nazorat tizimining (SBZA) ogohlantirish zonasi taxminan kuzovning o'rtasidan boshlanadi va 5 m (16 fut) masofada avtomobil orqasida tugaydi.
Haydovchilar avtomobil ortida 70 m (230 fut) masofadan boshlab, tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar haqida ogohlantirishni oladi.

Tizimning ishlash prinsipi

O'lik zonada qo'shni chiziq bo'ylab harakatlanayotgan yoki unga orqadan tez yaqinlashib kelayotgan avtomobilni aniqlanishida, yon tomon orqani ko'rish toshoynalarida LCA tizimi indikatorlari yonadi.
LCA tizimining yonib turgan indikatori harakatlanish chizig'ini almashtirish xavfiga ko'rsatadi. Boshqa harakatlanish chizig'iga haydab o'tishdan oldin, LCA indikatori yonmayotganligini tekshiring, barcha toshoynalarga qarang, orqaga o'girilib qarang va burilish ko'rsatkichini yoqing.

Orqani ko'rish chap toshoyna indikatori

Orqani ko'rish o'ng toshoyna indikatori

Dvigatelni ishga tushirishda LCA tizimi indikatorlari tizim sozligiga ko'rsatib, ikkala tashqi toshoynalarda qisqa vaqtga yonadi. Agar oldinga harakatlanish vaqtida tizim o'liq zonada qo'shni chiziqda harakatlanayotgan yoki unga tez yaqinlashib kelayotgan avtomobilni aniqlaganda, muvofiq yon tomon toshoynasida indikator yonadi. Bosh transport vositasi aniqlangan xuddi o'sha tomonda burilish ko'rsatigichining yoqilishi holatida, indikator yo'l chizig'ini o'zgartirish xavfi haqida ogohlantirib, miltillashni boshlaydi.

LCA tizimini "Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash" menyusi yordamida o'chirib qo'yish mumkin. Agar LCA tizimi o'chirib qo'yilsa, yon tomon o'lik zonalardagi to'siqlar haqida ogohlantirish tizimi ham o'chadi. "To'qnashuvni oldini olish/atrofdagi fazo nazorati tizimlari" paragrafini Yakka tartibdagi sozlamalarni saqlash ⇨ 4-40 bo'limida ko'ring. Agar LCA tizimi haydovchi tomonidan o'chirib qo'yilgan bo'lsa, uning orqani ko'rish toshoynasidagi indikatorlar ham yonmaydi.

Agar tizim tegishli tarzda ishlamayotgan bo'lsa

LCA tizimi maksimal samaradorlik bilan ishlashi uchun, uning kalibrovkasini bajarish zarur, buning uchun avtomobilda bir qancha masofani haydab o'tish kerak. Agar avtomobilda transport oqimiga va yo'l chetida turlicha obyektlarga (masalan, suyanchiqlar, to'siqlar) ega bo'lgan to'g'ri avtomagistral bo'ylab safar qilinsa, kalibrovka tezroq bajarilgan bo'ladi. Yuqori tezlikda boshqa avtomobilni quvib o'tishda, to'xtab turgan avtomobil yonidan haydab o'tishda va tirkamani shataklashda LCA tizimi indikatorlari yonmasligi mumkin. Avtomobilning ikkala tomonidagi LCA tizimining aniqlash zonasi uzunligi tirkamani shataklashda oshmaydi. Tirkamani shataklayotganda yo'l chizig'ini o'zgartirayotgan vaqtda ehtiyotkorlikni namoyish qiling. LCA tizimi avtomobilga mahkamlangan obyektlarga, masalan, tirkamaga yoki velosipedga, hamda avtomobilning me'yordagi yon tomon o'lchamlaridan tashqariga chiqib turgan buyumlarga ta'sir ko'rsatib, ishlashi mumkin. Mahkamlangan buyumlar, shuningdek, avtomobillarni aniqlashga xalal berishi mumkin. Tizimning bunday o'zini tutishi me'yordagi holat hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi.

LCA qo'shni harakatlanish chizig'ida ojiz zonada avtomobil mavjudligi haqida haydovchini har doim ham, ayniqsa, yomg'ir sharoitlarida va tik burilishlarda ogohlantirmasligi mumkin.

Bu uni ta'mirlash zarurati haqida dalolat bermaydi. Tizim yo'l to'siqlariga, belgilariga, daraxtlarga, boshqa ekilgan ko'chatlar va harakatsiz obyektlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tizimning bunday o'zini tutishi me'yordagi holat hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatish o'tkazilishini talab qilmaydi. LCA tizimi faoliyat yuritmasligi mumkin, agar orqa bamperning chap yoki o'ng tomonidagi LCA datchiklari tuproq, loy, qor, muz yoki moylama bilan chaplangan bo'lsa, hamda kuchli yomg'ir vaqtida.

Tozalash bo'yicha yo'riqnomani Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72 bo'limning "Avtomobilni yuvish" paragrafida ko'ring. Agar ikkala datchiklarni tozalashdan keyin uskunalar majmuasining displeyida avvalgidek tizim erishimli emasligi haqida xabar aks ettirilayotgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga yordam uchun murojaat qilish kerak. Agar LCA tizimi indikatorlari yon tomon ojiz zonada harakatlanayotgan avtomobillar yoki unga tez yaqinlashib kelayotgan avtomobillar mavjudligida yonmayotgan, va tizim datchiklari toza bo'lsa, ehtimol, tizim nosoz va xizmat ko'rsatilishini talab qiladi. Texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Yo'l belgilanishlariga nisbatan avtomobil holati nazorati tizimi (LKA)

Muvofiq jamlanmada LKA tizimi egallab turilgan chiziqdan tasodifan chiqish bilan bog'liq bo'lgan avariyani oldini olishda yordam berish mumkin. Tizim yo'l chizma belgilarini aniqlash uchun kamerani qo'llaydi. Tizim Faol qo'shimcha boshqaruv bilan egallab turgan chiziqdan chiqish haqida ogohlantirish tizimi (LKA) 50 km/soatdan 180 km/soatgacha (31 mil/soatdan 112 mil/soatgacha) bo'lgan tezliklarda ishlaydi. Yo'l chizma belgisiga avtomobil yaqinlashishi holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, ravon rul chambaragiga ta'sir qiladi.

U, shuningdek, agar avtomobil yo'l chizma chizig'ini bosib o'tsa, egallab turgan chiziqdan chiqib ketish haqida (LDW) haydovchini ogohlantirishi mumkin. Ushbu tizim avtmobilni chiziqning o'rtasi bo'ylab tutib turish uchun mo'ljallanmagan. Tizim, agar avtomobil surilib ketayotgan xuddi o'sha yo'nalishda burilish ko'rsatkichlari yoqilgan bo'lsa, yoki, agar tizim tezlashishni, tormozlanishni yoki faol manevrlashni aniqlasa, qo'shimcha rul boshqaruvini qilmaydi va chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirmaydi. LKA tizimining qo'shimcha rul boshqaruvi, agar haydovchi rul chambaragiga ko'proq kuch bilan ta'sir qilsa, to'xtaydi. Agar tizim yo'l chizig'ini bosib o'tish atayin amalga oshirilayotganligi qarorini qabul qilsa, u ogohlantirishni uzatmaydi. Agar yo'l chizig'ini atayin kesib o'tish amalga oshirilayotgan bo'lsa, egallab turgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi indikatori yonmaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

LKA tizimi avtomobilning rulini doimo boshqarmaydi. Tizim avtomobilni harakatlanish chizig'ida ushlab qolmasligi yoki harakatlanish chizig'idan tashqariga chiqish haqida ogohlantirish (LDW) bermasligi mumkin, hattoki agar bo'lish chizig'i aniqlangan bo'lsa ham. LKA va LDW tizimlari quyidagilarni har doim ham bermaydi:

- Avariyadan yoki harakatlanish chizig'i tashqarisiga chiqib ketishdan saqlanish maqsadida ogohlantirish va rul boshqaruviga yordamni taqdim qilish.
- Yomon ob-havo yoki yetarlicha bo'lmagan ko'rish sharoitlarida bo'lish chizig'ini aniqlash. Bu old oyna yoki faralar loy, qor yoki muz bilan bloklangan, tegishli bo'lmagan holatga ega, hamda quyosh nurlari to'g'ri kameraga tushib turgan vaqtdagi holatlarda sodir bo'lishi mumkin.
- Yo'l chetlarini aniqlashtirish.
- Ilonizi va tepalik yo'llarda yo'l chizma belgisini aniqlash.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar LKA tizimi bo'lish chiziqlarini faqat yo'lning bir tomonida aniqlayotgan bo'lsa, u boshqaruvda yordam beradi yoki faqat bo'lish chizig'i aniqlangan yo'lning o'sha tomonidagi yo'l chizma belgisiga yaqinlashishda harakatlanish chizig'i tashqarisiga chiqish haqida ogohlantirish uzatadi. Hattoki LKA va LDW tizimlari mavjudligida siz avtomobilni rul bilan boshqarishingiz kerak.

Doimo e'tibor bilan yo'lni kuzating va harakatlanish chizig'ida avtomobilni tegishli holatda tutib turing. Ushbu qoidaga rioya etmaslik avtomobilning shikastlanishiga, jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Har doim old oynani, faralarni va videokameralardan datchiklarni toza va soz holatda saqlang. LKA tizimini nomaqbul ob-havo sharoitlarida yoki noaniq yo'l chizig'i bo'lgan yo'llarda, masalan, yo'l ishlari o'tkaziluvchi joylarda, qo'llash yaramaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Sirpanchiq yo'lda LKA tizimining qo'llanilishi avtomobil boshqaruvining yo'qotilishiga, va, oqibatda, avariyaga olib kelishi mumkin. Tizimni o'chirib qo'ying.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

LKA tizimi shataklanuvchi tirkama egallab turgan chiziqdan chiqishi haqida ogohlantirmaydi. Tirkamaning qo'shni chiziqqa chiqish ketishi jiddiy jarohatlarga yoki mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Tirkama, uni shataklab ketayotgan avtomobilning harakatlanish chizig'ida qolishi ustidan kuzatib boring.

Tizimning ishlash prinsipi

LKA tizimi yo'l chiziqlarini aniqlash uchun orqani ko'rish toshoynasi oldida old oyna ostida o'rnatilgan kamerani qo'llaydi. Yo'nalishdan tasodifan chiqish holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, rul boshqaruvi ishiga qisqa muddatli aralashishi mumkin. Bundan so'ng, tizim haydovchini e'tiborini avtomobil yo'l chizig'ini kesib o'tganligiga jalb qilib, tovushli signal uzatishi yoki haydovchi o'rindig'ini titrashini yoqishi mumkin.

Tizim, agar yo'l chizig'ini bosib o'tilishi atayin amalga oshirilayotgan bo'lsa, egallab turgan yo'l chizig'idan chiqish haqidagi ogohlantirishni bermaydi.

LKA tizimini yoqish yoki o'chirish uchun markaziy konsolda klavishasini bosing. Faol qo'shimcha rul boshqarish bilan egallab turgan chiziqdan chiqish haqida ogohlantirish tizimi (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) yoqiqligida. tugmadagi indikatori yonadi, o'chirilganda esa - o'chadi. Ba'zi avtomobillarda LKA tizimni o'chirish uchun tugmani bosish va uni uch sekunddan ortig'iga ushlab turish zarur bo'ladi.

LKA tizimi -30° F (-34° C)dan past ekstremal haroratlarda erishimli bo'lmasligi mumkin.

LKA tizimi "Yer", "Qor/muz" va "Yo'lsizlik" rejimlarida erishimli emas.

indikator (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) oq rangda yonib turgan vaqtda, bu tizim avtomobilni boshqarilishiga faol aralashuvga tayyor emasligiga ko'rsatadi. Indikator , agar faol qo'shimcha rul boshqaruvi bilan egallab turgan chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LKA)ishga tayyor bo'lsa, yashil rangda yonib turadi. Yo'l chizma belgisiga avtomobil yaqinlashishi holatida tizim avtomobilni avvalgi yo'nalishga qaytarib, ravon rul chambaragiga ta'sir qiladi. Tizim ishlab turishi vaqtida indikator sariq rangda yonib turadi. U, shuningdek, agar avtomobil yo'l chizma chizig'ini bosib o'tsa, egallab turgan chiziqdan chiqib ketish haqida (LDW) haydovchini sariq indikatorning miltillashi bilan ogohlantirishi mumkin. Bundan tashqari, zummerning uchtalik signali jaranglashi mumkin yoki haydovchining o'rindig'i avtomobil tortib ketilayotgan xuddi o'sha tomonda titraydi (uchta impuls).

Rul boshqaruvini qabul qilish

LKA tizimi avtomobilni rulini doimo boshqarmaydi. Agar LKA tizimi rul bilan faol boshqaruvni aniqlamasa, u ogohlantirish berishi va tovushli signal uzatishi mumkin. Qo'shimcha rul boshqaruvini to'xtatish uchun, rul chambaragiga kuch bilan bosim o'tkazing.

LKA tizimi boshqaruvni o'z qo'lingizga olish zarurati haqida bir nechta ogohlantirishlardan so'ng bir qancha vaqtga o'chib qolishi mumkin.

Agar tizim tegishli tarzda ishlamayotgan bo'lsa

Tizimning faoliyat yuritishiga quyidagilar salbiy ta'sir qilishi mumkin:

- Yaqin masofada oldinda ketayotgan avtomobillar.
- Yoritilganlikni to'satdan o'zgarishi, masalan tunnellarda harakatlanishda.
- Ko'ndalang nishablikka ega bo'lgan yo'llar.
- Yetarlicha yo'l chiziq belgilariga ega bo'lmagan yo'llar, masalan, ikki harakatlanish chizig'iga ega bo'lgan yo'llar.

Agar aniq ko'rinuvchan bo'lish chiziqlarida LKA tizimi noto'g'ri faoliyat yuritayotgan bo'lsa, old oynaning tozalanishi muammoni bartaraf qilishi mumkin.

Agar kameraning ko'rish maydoni yopiq bo'lsa, "Kamera bloklangan" xabari paydo bo'lishi mumkin. Haydovchiga yordamning ba'zi tizimlari avariyaviy rejimga o'tishi yoki to'liq o'chib qolishi mumkin. Agar LKA yoki LDW tizimlari vaqtinchalik erishimli bo'lmasa,

displeyda muvofiq ogohlantirish aks ettirilishi mumkin.
U, masalan, agar kameraning ko'rish maydoni yopiq bo'lsa, paydo bo'lishi mumkin. LKA tizimiga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Orqani ko'rish toshoynasi o'rnatilish joyida old oynani tozalab oling.
LKA tizimi gudron bilan ishlov berilgan maydonlarga, soyalarga, yo'ldagi darz ketishlarga, vaqtinchalik yoki qurilish belgilariga va yo'l qoplamasining boshqa nuqsonlariga ta'sirqilish oqibatida LDW ishlashiga aralashishi va/yoki ogohlantirishini berishi mumkin. Tizimning bunday o'zini tutishi me'yordagi holat hisoblanadi va avtomobilga xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Bunday sharoitlarning uzoq vaqt mavjud bo'lishida LKA tizimini o'chirib qo'ying.

YONILG'I

Top Tier yonilg'isi

GM dvigatelni tozalikda qo'llab turish, motor cho'kmalarini pasaytirish va avtomobilning maqbul ishchi xarakteristikalarini saqlab qolish uchun TOP TIER yuviluvchan benzinni qo'llashni tavsiya qiladi. TOP TIER logotipini izlang yoki www.toptiergas.com saytida TOP TIER yuviluvchi benzin sotuvchilarini va muvofiq mamlakatlarni ro'yxati bilan tanishib chiqing.

TOP TIER
Detergent Gasoline

CATÉGORIE SUPERIÉURE
Essences Détergentes

Yonilg'ini tavsiya etilgan turlari

Agar avtombil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, dizel dvigatelli Duramax modeliga bag'ishlangan ilovaning "Dizel dvigatellar uchun yonilg'i" paragrafini ko'ring.

Avtomobilni oktan soni kamida 95 dan kam bo'lmagan yuqori sifatli etillanmagan yoqilg'I bilan to'ldiring. Avtomobil shikastlanishi yoki yoqilg'ining ortiqcha sarfini oldini olish uchun oktan soni quyida ko'rsatilgandan past bo'lgan yoqilg'idan foydalanmang.

Foydalanishga taqiqlangan yonilg'i

⚠ *DIQQAT!*

Quyidagi xarakteristikalarning biriga ega bo'lgan yonilg'ini qo'llamang; ushbu talabga rioya etmaslik avtomobilning shikastlanishiga va kafolatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin:

- Metanol, dimetoksimetan, ferrotsen va anilinning biron bir miqdorini saqlovchi yonilg'i. Bunday yonilg'i yonilg'i tizimining metall detallarini korroziyasini chaqirishi, hamda plastmassa va rezina detallarni shikastlashi mumkin.
- Metallarni, masalan, metilsiklopentadienil trikarbonilmarganes (MMT) saqlovchi yonilg'i, ular chiqindi gazlar toksikligini pasaytirish tizimini va o't oldirish svechalarini shikastlashi mumkin.
- Tavsiya etilganganga qaraganda oktan soni past bo'lgan yonilg'i. Bunday yonilg'ining qo'llanilishi yonlig'i sarfini tejamkorligini va samaradorligini pasaytirishi va katalitik neytralizatorning xizmat qilish muddatini qisqartirishi mumkin.

Yonilg'i qo'shimchalari

Sizning avtomobilingiz uchun TOP TIER yuviluvchan benzinni qo'llash qat'iyan tavsiya etiladi. Agar sizning mamlakatingizda TOP TIER yuviluvchi benzin erishimli bo'lmasa, benzin bakiga har bir moy almashtirishda yoki 15 000 km.dan keyin (9000 mil), qaysi biri oldin boshlanishiga bog'liq holda, ACDelco Fuel System Treatment Plus-Gasoline yuviluvchi qo'shimchani qo'shing. TOP TIER yuviluvchi benzin va ACDelco Fuel System Treatment Plus-Gasoline yuviluvchi qo'shimcha sizga dvigatelni yonilg'idagi cho'kmalardan himoyalanish va uning maqbul ishlashini ta'minlashga imkon beradi. Agar siz ACDelco Fuel System Treatment Plus-Gasoline qo'shichasini topish imkoniga ega bo'lmasangiz, sizning mamlakatda qaysi qo'shimchalar erishimligi haqida o'z dileringiz bilan maslahatlashishing.

Bakga yonilg'ini to'ldirish

Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, dizel dvigatelli Duramax modeliga bag'ishlangan ilovani ko'ring. Yonilg'i sathi ko'rsatkichi shkalasida benzoklonka belgi yonidagi strelka yonilg'i bakining yonilg'i quyish bo'yinchasi qaysi tomonda joylashganiligiga ko'rsatadi. Yonilg'i sathi ko'rsatkichi ⇨ 4-18ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yonilg'i bug'lari portlash xavfiga ega va jiddiy jarohatlar yoki o'lim sababi bo'lib qolishi mumkin.

Odamlarni jarohatlashdan saqlanish uchun, quyida keltirilgan tavsiyalarga rioya qiling:

- Yonilg'i tarqatish kolonkasi yaqinida o'zini tutish qoidalari bilan e'tiborli tanishib chiqing.
- Yonilg'i to'ldirish vaqtiga dvigatelni o'chirib qo'ying.
- Yonilg'i yaqinida uchqunlash, ochiq alanga yoki tutayotgan materiallar mavjud bo'lmasligi ustidan kuzating.
- Yonilg'i tarqatish kolonkaning yaqinidan ketmang.
- Yonilg'ini to'ldirish vaqtida elektron qurilmalarni qo'llashdan saqlaning.
- Yonilg'i to'ldirish ketayotganida avtomobil saloniga qaytmang.
- Yonilg'i tarqatish kolonkasiga bolalarni yaqinlashishga ruxsat bermang, hech qanday holatlarda bolalarga yonilg'i to'ldirishni o'tkazishiga imkon bermang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Yonilg'i quyish to'pponchasini qo'lga olishdan avval, statik zaryadni olish uchun metall buyumga tegining.
- Agar to'pponchani juda tez o'rnatilsa, yonilg'i tashqariga qalqib ketishi mumkin. Yonilg'ining qalqib ketish ehtimoli bak to'laligida va issiq ob-havoda ortadi. Yonilg'i to'ldirish to'pponchasini asta-sekin o'rnating, va yonilg'i uzatilishini yoqishdan oldin, vishillash to'xtashini kuting.



Yonilg'i bakining lyuchogini ochish uchun, lyuchokning orqa markaziy chetini bosing va qo'yib yuboring.

Ba'zi modifikatsiyalarda yonilg'i quyish bo'yinchasi qopqoqqa ega emas. Yonilg'i to'ldirish to'pponchasini tiralgunicha shoshilmasdan o'rnating va uni qistirib qo'ying.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Standart yonilg'i to'ldirish to'pponchasining uch chertkidan ortiqqa yonilg'i bakining haddan tashqari to'ldirib yuborilishi quyidagilarni chaqirishi mumkin:

- Avtomobil ishlashida muammolar, jumladan dvigatelning o'chirilishi va yonilg'i tizimining shikastlanishi.
- Yonilg'ining to'kib yuborilishi.
- Yonilg'ining ehtimolli alangalanishi

Ehtiyot bo'ling va yonilg'ini to'kib yubormaslikka harakat qiling. Yonilg'i to'ldirish to'pponchasini chiqarib olishdan oldin, yonilg'i uzatilishi yakunlanganidan so'ng besh sekund kuting. Lak-bo'yoq qoplamalaridan yonilg'i dog'larini darhol artib oling. Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar yonilg'i to'ldirish jarayonida alangalanish sodir bo'lsa, bo'yinchadan yonilg'i to'ldirish to'pponchasini sug'urib olmang. Yonilg'i tarqatish kolonkasini o'chirib va AYoQSh xodimini xabardor qilib, yonilg'i uzatilishini to'xtating. Alangalanish zonasini zudlik bilan tark eting.

Yonilg'ili kanistradan bakni to'ldirish

Agar avtomobilda yonilg'i tugab qolgan bo'lsa, va uni kanistradan to'ldirish zarur bo'lsa:



1. Yonilg'i quyish bo'yinchasi qopqog'isiz yonilg'i quyish tizimi uchun o'tkazgich voronkani toping.
2. yonilg'i quyish bo'yinchasi qopqog'isiz tizimga voronkani o'rnating va qayd qilib qo'ying.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Voronka-o'tkazgichni qo'llamasdan yonilg'ini quyishga urinish yonilg'ining to'kilib ketishiga va yonilg'i quyish bo'yinchasi qopqog'isiz yonilg'i tizimining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu yong'inga olib kelishi mumkin, buning oqibatida siz va uchinchi shaxslar tomonidan jiddiy kuyishlar, hamda avtomobilga shikast yetkazilish ehtimoli bor.

3. Voronka-o'tkazgichni chiqaring va tozalab oling va uni saqlash uchun avvalgi joyiga joylashtiring.

Kanistraga yonilg'ini to'ldirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar kanistra avtomobilda joylashgan bo'lsa, uni yonilg'i bilan to'ldirish yaramaydi. Kanistradan statik elektr razryadi yonilg'i bug'larining alangalanishiga olib kelishi mumkin. Siz boshqa odamlar bilan birga jarohat olishingiz mumkin.
Bu, shuningdek, avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Odamlarga jarohat yetkazilishidan saqlanish uchun:

- Yonilg'ini faqat buning uchun maxsus mo'ljallangan kanistralarga to'ldiring.
- Agar kanistra avtomobilda: yengil avtomobilning yukxonasida, pikapning kuzovida yoki istalgan boshqa yuzada joylashgan bo'lsa, uni yonlig'i bilan to'ldirmang. Kanistra yerda turishi kerak.
- To'pponchani yoqishdan avval, uni bo'yinchaning ichki devoriga tirab, uni kanistraning bo'yinchasiga o'rnating. Yonilg'i uzatilishi yakunlanguniga qadar to'pponchani chiqarib olmang.
- Yonilg'i yaqinida uchqunlash, ochiq alanga yoki tutayotgan materiallar mavjud bo'lmasligi ustidan kuzating.
- Yonilg'i bilan to'ldirishda elektron qurilmalarni qo'llamang.

TIRKAMANI SHATAKLASH

Shataklash bo'yicha umumiy ma'lumot

Faqat sizning modelingiz uchun maxsus mo'ljallangan tortish-ilakishish qurilmasini qo'llashga ruxsat etiladi. Avtomobilni tirkamani shataklashga tayyorlash uchun, o'z dileringizga yoki tirkama sotuvchisiga yordam uchun murojaat qiling. Tirkamani shataklashni boshlashdan avval, butun bo'limning mazmunini e'tibor bilan o'rganib chiqing.
Nosoz avtomobilni shataklash bo'yicha Avtomobilni shatakka olish ⇨ 9-71ni ko'ring.

Yurish sifatlari va shataklash bo'yicha maslahatlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar shataklash uchun buning uchun maxsus mo'ljallangan qurilma qo'llanilmayotgan yoki shataklash qoidalarga rioya etmasdan amalga oshirilayotgan bo'lsa, siz boshqaruvni yo'qotib qo'yishingiz mumkin. Masalan, agar tirkama katta og'irlikka ega bo'lsa yoki tirkamaning tormozi ushbu yuklamaga mo'ljallanmagan bo'lsa, avtomobil bu kutilganidek to'xtamasligi mumkin.
Siz va boshqa shaxslar jiddiy jarohatlar olishingiz mumkin. Shuningdek, avtomobilning shikastlanish ehtimoli ham bor; ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. Tirkamani shataklashga faqat, agar ushbu bo'limda taqdim etilgan barcha tavsiyalarga rioya etilgan bo'lsa, ruxsat etiladi. Tirkamani shataklash bo'yicha maslahat olish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Tirkamani shataklab ketayotgan avtomobilni boshqarish

Shataklash avtomobilni oddiy haydashdan farq qiladi. Shataklash o'zi bilan avtomobil boshqaruvchanligini, uni tezlik olish va tormozlanish dinamikasini, xizmat qilish muddatini va yonilg'i sarfini o'zgarishiga olib keladi. Muvaffaqiyatli, xavfsiz shataklash muvofiq asbob-uskunalarni mavjudligini va uning to'g'ri ishlatilishini talab qiladi.

Quyidagi ma'lumotlar shataklashda ko'pgina vaqt bilan tekshirilgan muhim tavsiyalarni va xavfsizlik qoidalarini saqlaydi. Ulardan ko'pchiligi sizning xavfsizligingiz va sizning yo'lovchilaringiz xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Shataklashni boshlashdan avval, ushbu bo'limning mazmunini e'tibor bilan o'rganib chiqing.
Tirkamani shataklash qoidalari:

- Tirkamani shataklashda qo'llaniluvchi barcha milliy va mahalliy qonunchilik talablari bilan tanishib chiqing va ularga rioya qiling. Ushbu talablar mamlakatdan mamlakatga o'zgarib boradi.
- Milliy qonunchilik kattalashtirilgan orqani ko'rish yon tomon toshoynalarini qo'llanilishini talab qilishi mumkin. Hattoki agar bu talab etilmayotgan bo'lsa, shataklashda ko'rish maydonining cheklanishi yoki yomonlashishi holatida sizga kattalashtirilgan orqani ko'rish yon tomon toshoynalarini o'rnatish kerak bo'ladi.
- Dvigatelning, differensialning va boshqa bo'g'imlar va agregatlarning ishdan chiqishini oldini olish uchun, yangi avtomobilning birinchi 800 km (500 mil) yo'l bosib o'tishi vaqtida tirkamani shataklash taqiqlanadi.
- Og'ir transport vositalarini shataklashdan avval moyning birinchi almashtirilishini bajarish tavsiya etiladi.
- Tirkama bilan birinchi 800 km (500 mil) yo'l bosish vaqtida 80 km/soat (50 mil/soat) dan ortiq tezlikda harakatlanish va drossel to'sgichi to'liq ochilishi bilan joydan qo'zg'alish taqiqlanadi.
- Shataklashni D (Drive) holatida bajarish mumkin. Shataklash/transportda tashish rejimi og'ir avtotirkama bilan harakatlanish uchun tavsiya etilgan. Harakatlanish rejimlari ⇨8-37ni ko'ring.Uzatmalar qutisini ancha past uzatmaga juda tez-tez o'zgartirish holatida, ancha past uzatmani qo'l rejimida tanlash mumkin. Qo'l rejimi ⇨ 8-26ni ko'ring. Jamlanmada mavjud bo'lgan holatda, tirkamani shataklashda haydovchiga yordamning quyidagi funksiyalarini o'chirib qo'yish zarur:

Tirkamani shataklashdan avval haydovchiga yordamning quyidagi tizimlarini (muvofiq to'plamda) yoqib qo'yish zarur (tirkama aniqlanishida ular avtomatik o'chishi mumkin):

- To'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi
- Orqaga yurish bilan harakatlanishda avtomatik tormozlash (RAB)
- Orqaga yurish bilan harakatlanishda o'lik zonalarni nazorat qilish tizimi (RCTA)
- Orqaga ko'ndalang harakatlanishda tormozlanish
- Harakatlanish bo'lagidan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi (LCA)

• Super Cruise tizimi (agar u tirkama bilan haydashni qo'llab-quvvatlamasa). Agar avtomobil Super Cruise avtonom haydash tizimi bilan jihozlanmagan bo'lsa, avtomatik favqulodda tormozlanish tizimi (AEB) va piyodalarni himoyalashning frontal tizimi (FPB) uchun Alert (Xabardor qilish) sozlamasi tanlangan bo'lishi zarur. Tirkamani shataklashda avtomatik to'xtab turishga joylashtirish tizimini (APA) qo'llamang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamani shataklash vaqtida chiqindi gazlar avtomobilni chiqarish tizimidan chiqishda to'planishi va yuk bo'linmasining ochiq eshigi, yukxona qopqog'i yoki orqa oyna orqali salon ichkarisiga kirishi mumkin.
Tirkamani shataklash qoidalari:
• Yuk bo'linmasi eshigi, yukxonaning qopqog'i va orqa oynani yopish kerak.
• Uskunalar paneli yoki uning ostidagi ventilyatsiyaning soplolarini to'sqichlarini to'liq ochib qo'ying.
• Iqlim-nazorat tizimini atmosferadan havoni yig'ish rejimiga o'tkazish lozim. Ko'rsatkichda "Iqlim-nazorat tizimlari"ni ko'ring.
• Uglerod oksidi haqida qo'shimcha ma'lumotlar Chiqindi gazlar ⇨ 8-22 bo'limida saqlanadi.

Tirkamani shataklash tajribani talab qiladi. Avtomobil va tirkama bog'lamasi katta uzunlikka ega va avtomobilni o'zi alohida tezkor reaksiyaga ega bo'lgandek, xuddi shunday reaksiyaga ega emas. Umumiy foydalanish yo'llariga haydab chiqishdan oldin, tekis qoplamali yo'lda haydab, avtopoyezdni boshqarilishini va tormozlanishini his eting.

Tirkama, shina va tormozning konstruksiyasi tashishga rejalashtirilayotgan yukka mo'ljallangan bo'lishi kerak. Tirkamaning nomuvofiq asbob-uskunalari avtopoyezdni ekspluatatsiya qilishda kutilmagan va xavfsiz bo'lmagan manyovrlarga olib kelishi mumkin.
Harakatlanishni boshlashdan avval tortish-ilakishish qurilmasining va osma detallarni, saqlovchi zanjirlar, elektr ulagichlar, chiroqlar, shinalarni ko'zdan kechiring, orqani ko'rish toshoynalarini holatini sozlang. Shataklash uchun asbob-uskunalar ⇨ 8-77ni ko'ring.
Agar tirkama elektr mexanik tormozlar bilan jihozlangan bo'lsa, avtopoyezdning harakatlanishini boshlang, so'ngra tirkamaning tormozlarini ish qobiliyatini tekshirish uchun, tirkama tormozlari nazoratchisini qo'lda yoqing.
Safar qilish vaqtida vaqti-vaqti bilan yuk va tirkama ishonchli mahkamlanganligini, tirkama chiroqlari va tormozlari ishlayotganligini tekshirib turing.

Yoqilgan dinamik stabillashtirish tizimi bilan shataklash

Shataklash jarayonida dinamik stabillashtirish tizimi qanday ishlayotganligi eshitilib turishi mumkin. Tizim odatda burilishlarni o'tish vaqtida sodir bo'ladigan tirkamaning ta'siri ostida avtomobilning tebranishiga sezuvchanlikni namoyish qiladi. Og'ir tirkamalarni shataklashda bunday holat me'yordagi hisoblanadi.

Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofa

Oldinda ketayotgan transport vositasigacha oraliq masofani tirkamasiz harakatlanish bilan qiyoslash bo'yicha kamida ikki martaga oshiring. Bu keskin tormozlanish yoki yo'nalishni o'zgartirishga murojaat qilish zaruratidan saqlanish imkonini beradi.

Quvib o'tish

Tirkamani shataklab ketayotgan avtomobilga quvib o'tishni amalga oshirish uchun kattaroq masofa talab etiladi. Avtomobil va tirkama birikmasi tirkamasiz avtomobilga qaraganda xuddi shunday tez tezlashmaydi va kattaroq uzunlikka ega. O'z harakat chizig'iga qaytish mumkin bo'lishidan oldin ancha uzoqroq oldinga haydab o'tish zarur bo'ladi.

Tekis yo'llarni tanlang. Tepalik joylardan harakatlanishdan imkon boricha saqlaning.

Orqaga yurish bilan harakatlanish

Rul chambaragini bir qo'l bilan pastdan ushlab turing. Tirkamani chapga burish uchun, rulni ushlab turgan qo'lni chapga siljiting. Tirkamani o'ngga burish uchun, rulni ushlab turgan qo'lni o'ngga siljiting. Orqaga yurish bilan harakatlanishni past tezlikda amalga oshirish kerak. Agar imkon bo'lsa, biron bir shaxsdan jarayonni kuzatib borishni va sizga buyruqlar uzatishini iltimos qiling.

Burilishlarni o'tish

⚠ *DIQQAT!*

Tirkamani shataklashda avtomobilning shikastlanishidan saqlanish maqsadida ancha sekin va katta radiusda buriling. Juda keskin burilishlar avtomobilga tirkama bilan teginishga olib kelishi mumkin.

Shataklashda treyler tuproq yo'l chetlariga, bordyurlarga chiqib ketmasligi va yo'l belgilari yoki boshqa obyektlarga teginmasligi uchun odatdagiga qaraganda ancha keng burilishlarni qiling. Har doim oldindan burilish ko'rsatkichlarini yoqing.

Keskin burilishlardan va tormozlanishlardan saqlaning.

Qiyalik bo'ylab harakatlanish

Uzun yoki tik qiyalik bo'ylab tushishni boshlashdan avval, tezlikni sekinlashtiring va ancha past uzatmaga o'ting. Agar uzatmalar qutisi pastlatilgan uzatmaga o'zgarmayotgan bo'lsa, tormozlarning haddan tashqari qizib ketish ehtimoli bor, bu tormozlanish samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Agar UO'Q D (Oldinga yurish uzatmasi) rejimida ishlayotgan bo'lsa, avtomobilni shataklash uchun qo'llash mumkin. Agar yuqori yuklanganlikda va/yoki tog'li yo'lda uzatmalarni o'zgartirish juda ham tez-tez amalga oshirilayotgan bo'lsa, ancha past uzatmaga o'ting.

Dengiz sathidan katta balandlikda shataklashda dvigatelning sovituvchi suyuqligi pastroq balandlikka qaraganda ancha past haroratda qaynaydi.

Agar katta tezlikda tik qiyalik bo'ylab tepaga shataklashdan keyin darhol dvigatel o'chirilsa, u holda dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi alomatlari yuzaga kelishi ehtimoli bor. Bunday holatdan saqlanish uchun, agar imkoni bo'lsa, avtomobilni tekis maydonda va UO'Q selektorini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatga o'rnatib, uni to'xtatib, dvigatelga bir necha minut ishlab turishga imkon bering, va faqat bundan so'ng dvigatelni o'chiring. Agar haddan tashqari qizib ketish haqida ogohlantirish paydo bo'layotgan bo'lsa, Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi ⇨ 9-13ni ko'ring.

Nishablikda to'xtab turish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Jiddiy jarohatlar olishdan yoki halokatli oqibatlardan saqlanish maqsadida tirkamali avtomobilni iloji boricha tekis yuzaga to'xtab turishga joylashtiring.

Tirkamali avtomobilni qiyalikda to'xtab turishga joylashtirish holatida:
1. tormoz tepkisini bosing, ammo hozircha UO'Qni P (to'xtab turishga joylashtirish) rejimiga o'tkazmay turing. Agar avtomobil nishablikda to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lsa, boshqariluvchi g'ildiraklarni bordyurga qaratib, agar avtomobil ko'tarilishda to'xtab turishga joylashtirilgan bo'lsa, boshqariluvchi g'ildiraklarni bordyurdan burib qo'ying.
2. Biron kimdan tirkamaning g'ildiraklari ostiga tormoz boshmoqlarini o'rnatishni so'rang.
3. Tormoz boshmoqlari o'rnatib bo'lingandan keyin, boshmoqlarga tirkamaning yuklamasini o'zlashtirish imkonini berish uchun, tormoz tepkisini asta-sekin qo'yib yuboring.
4. Tormoz tepkisini qayta bosing. So'ngra to'xtab turish tormozini yoqing va UO'Qni P (to'xtab turishga joylashtirish) rejimiga o'tkazing.
5. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

Qiyalikda to'xtab turishga joylashtirishdan so'ng qo'zg'alish

1. Tormoz tepkisini bosing va ushlab turing.
• Dvigatelni ishga tushiring.
• Uzatmalardan birini yoqing.
• To'xtab turish tormozini o'chiring.
2. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
3. Tormoz boshmoqlarini bo'shatish uchun, ozgina oldinga siljing.
4. To'xtang va biron kimni tormoz boshmoqlarini olib qo'yishni va ularni taxlashni so'rang.

Qayiqni suvga tushirish va uni suvdan chiqarish

Orqaga yurish bilan tirkamani suvga tushirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Qayiqlarni suvga tushirish uchun apparelning engashgan qismiga orqaga yurish bilan harakatlanishdan avval barcha yo'lovchilarni avtomobildan tushiring. Apparelga haydab chiqishdan avval haydovchi va oldingi haydovchi tomonidagi derazalarni oynalarini tushiring. Bu, agar avtomobil suvga sirpanib ketsa, kam ehtimolli holatda avariyaviy chiqishni ta'minlaydi.
- Agar qayiq suvga tushayotgan yuza sirpanchiq bo'lsa, tushirish paytida haydovchi tormoz tepkisini bosilgan holda ushlab turib, avtomobil ichida qolishi kerak. Qayiqlarni tushirish uchun apparel yuzasi suv ko'tarilishidan keyin suv tushish vaqtida ayniqsa sirpanchiq bo'ladi. Agar qayiqlarni suvga tushirish uchun apparel qoplamasi bilan shinalarning ilakishishini avtomobil ta'minlashga qodir ekanligi bilan ishonchga ega bo'lmasangiz, apparel ustiga haydab o'tmang.
- Agar kimdir tirkama yo'lida joylashgan bo'lsa, avtomobilni harakatga keltirish taqiqlanadi. Qayiqni suvga tushirishda yordam berayotganlar, suv ostida bo'lgan tirkamaning ba'zi qismlarini sezmay qolishi mumkin.

Orqaga yurish bilan suvga tirkamani tushirishdan oldin, tirkamaning elektr zanjirlarini shikastlanishidan saqlanish maqsadida uning elektr simlarini uzib qo'ying.
Elektr simlarini faqat tirkamaning suvdan chiqarilishidan keyin qayta ulash mumkin. Agar tirkama suvda ishlaydigan elektr mexanik tormozlar bilan jihozlangan bo'lsa, tirkama qayiqlarni suvga tushirish uchun apparelda joylashgunga qadar uning tormozlari ishlab turishi uchun tirkamaning elektr ulagichini uzib qo'yish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.
Tirkamani suvga tushirish tartibi:
1. To'rtta g'ildirakka yuritmali uzatmalarning yuqori oralig'iga avtomobilni o'tkazing, agar u jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa.
2. Shoshmasdan, qayiq suzib turgan holatda bo'lishi uchun, ammo undan uzoqroq emas, apparel bo'ylab orqaga yurish bilan qayiqni suvga tushiring.
3. UO'Qni to'xtab turish (P) holatga o'tkazmay turib, tormoz tepkisini bosing va ushlab turing.
4. Kimnidir avtomobilning oldingi g'ildiraklari ostiga tormoz boshmoqlarini o'rnatishni iltimos qiling.
5. Boshmoqlar tirkamaning yuklamasini o'ziga olishi uchun, asta-sekin tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
6. Tormoz tepkisini qayta bosing. So'ngra to'xtab turish tormozini yoqing va UO'Qni P (to'xtab turishga joylashtirish) rejimiga o'tkazing.
7. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

Tirkamani suvdan tortib chiqarish

1. Tormoz tepkisini bosing va ushlab turing.
2. Dvigatelni ishga tushirib, istalgan uzatmani yoqing.
3. To'xtab turish tormozini o'chiring.
4. Tormoz tepkisini qo'yib yuboring.
5. Tormoz boshmoqlarini bo'shatish uchun, ozgina oldinga siljing.
6. To'xtang va biron kimni tormoz boshmoqlarini olib qo'yishni va ularni taxlashni so'rang.
7. Shoshilmasdan, tirkamani suvdan chiqarib oling.
8. Qayiqlarni suvga tushirish uchun apparelning egilgan qismi bilan tirkamali avtomobilni chiqargandan keyin to'rtta g'ildirakka yuritmali uzatmalarning yuqori oralig'ini o'chirib qo'yish mumkin. Ushbu yo'l sharoitlariga mos keluvchi yurish rejimiga o'ting.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Agar g'ildiraklar harakatga kelayotgan, avtomobil esa suvga sirpanib ketishni boshlayotgan bo'lsa, akselerator tepkisini qo'yib yuboring va mashinani tormozga qo'ying. Avtomobilni apparel bo'ylab tepaga shataklash uchun yordamga murojaat qiling.

Tirkamani shataklashda avtomobilga xizmat ko'rsatish

Tirkamalarni shataklash uchun qo'llash holatida avtomobil ancha tez-tez xizmat ko'rsatilishiga muhtoj bo'ladi. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨10-3ni ko'ring. Har bir safardan avval va uning vaqtida motor moyini, yetakchi ko'priklarni moylanishini, kamarlarni, sovitish tizimini va tormoz tizimini tekshirish ayniqsa muhimdir. Tortish-ilakishish qurilmasining barcha gaykalarini va boltlarini ishonchli qotirilganligini vaqti-vaqti bilan tekshiring.

Tirkamani shataklash jarayonida dvigatelni sovitish

Ekspluatatsiyaning og'ir sharoitlarida dvigatelni sovitish tizimining haddan tashqari qizib ketish ehtimoli bor. Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi ⇨ 9-13ni ko'ring.

Tirkamani shataklash

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Tirkamani noto'g'ri shataklash avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi va kafolat bilan qoplanmaydigan qimmatbaho ta'mirlashning sababi bo'lib qolishi mumkin. To'g'ri shataklashni ta'minlash uchun ushbu bo'limdagi ko'rsatmalarga amal qiling va avtomobil yordamida tirkamani shataklashga nisbatan muhim ma'lumotlarni olish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Shataklash avtomobilni oddiy haydashdan farq qiladi. Shataklash o'zi bilan avtomobil boshqaruvchanligini, uni tezlik olish va tormozlanish dinamikasini, xizmat qilish muddatini va yonilg'i sarfini o'zgarishiga olib keladi. Muvaffaqiyatli, xavfsiz shataklash muvofiq asbob-uskunalarni mavjudligini va uning to'g'ri ishlatilishini talab qiladi. Quyidagi ma'lumotlar shataklashda ko'pgina vaqt bilan tekshirilgan muhim tavsiyalarni va xavfsizlik qoidalarini saqlaydi. Ulardan ko'pchiligi sizning xavfsizligingiz va sizning yo'lovchilaringiz xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Shataklashni boshlashdan avval, ushbu bo'limning mazmunini e'tibor bilan o'rganib chiqing.

Tirkama og'irligi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

O'z avtomobilingiz uchun tirkamani shataklashning maksimal ruxsat etilgan og'irligini hech qanday holatda oshirmang.

Tirkamani xavfsiz tortish, og'irlik, tezlik, dengiz sathidan balandligi, yo'l qiyaligi, tashqi harorat, tirkama oldi qismining katta o'lchamlari va avtomobilning tirkama tortish uchun qanchalik tez-tez ishlatilish nazoratini talab qiladi.

Tirkama og'irligiga nisbatan talablar

Tirkamani shataklashda avtomobilning, avtomobilning yukini, tirkamani va tirkamaning ichidagisini, jumladan quyidagilarni yig'indi og'irligi ushbu avtomobil uchun o'rnatilgan maksimal og'irlikka hech qanday chegaralardan oshmasligi kerak:

- GCWR: Avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligi
- GVWR: Avtomobilning ruxsat etilgan to'liq og'irligi
- Tirkamaning maksimal yuklanishi
- GAWR-RR: Orqa ko'prikka chegaraviy ruxsat etiluvchi yuklama
- Tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal yuklama

Shataklash uchun asbob-uskunalar ⇨ 8-77 bo'limning "Og'irlik yuklamasini taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasini sozlash" paragrafida, tirkamadan maksimal ruxsat etilgan og'irlik yuklamasiga rioya qilish uchun og'irlik taqsimlovchi shtangalar talab etilishini aniqlashtiring.

Tirkamaning ushbu og'irligida tirkamada tormoz tizimi mavjudligi talab etilishini aniqlab olish uchun Shataklash uchun asbob-uskunalar ⇨ 8-77 bo'limda "Tirkamaning tormoz tizimi" paragrafiga murojaat qiling. Og'irlik hech qanday chegaralardan oshib ketmaganligiga ishonch hosil qilishning yagona usuli - safar qilish uchun to'liq to'ldirilgan va jihozlangan ko'rinishda shataklanuvchi transport vositasi bilan birgalikda avtomobilni tortish hisoblanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar tirkama juda katta og'irlikka ega yoki tirkamaning tormozlari ushbu yuklamaga mo'ljallanmagan bo'lsa, siz va boshqa shaxslar jiddiy jarohatlar olishingiz yoki nobud bo'lishingiz mumkin. Avtomobilning shikastlanish ehtimoli bor; ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi.

Tirkamani shataklashga faqat, agar ushbu bo'limda taqdim etilgan barcha tavsiyalarga rioya etilgan bo'lsa, ruxsat etiladi. Tirkamani shataklash bo'yicha maslahat va ma'lumotlarni olish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligi (GCWR)

Avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligi (GCWR) - bu to'liq yuklangan avtomobil va tirkamaning, jumladan yonilg'i, yo'lovchilar, yuk, asbob-uskunalar va aksessuarlarning maksimal ruxsat etilgan umumiy og'irligidir. Sizning avtomobilingiz uchun o'rnatilgan GCWR kattalikni oshirib yubormang. Avtomobilning va tirkamaning umumiy og'irligi sizning avtomobilingiz uchun avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligidan oshib ketmaganligini tekshirish uchun quyidagi harakatlarni bajaring:

1. "Bazaviy modelning shaxsiy og'irligi"dan boshlang.
2. Tashish uchun tayyor yukli tirkamani og'irligini qo'shing.
3. Barcha yo'lovchilarning vaznini qo'shing.
4. Avtomobilning butun yukning og'irligini qo'shing.
5. Ulanuvchi brus, farkop, og'irlik taqsimlovchi shtangalar, stabillashtiruvchi shtangalar kabi shunday ilakishish asbob-uskunalarning og'irligini qo'shing.
6. Aksessuarlarni va avtomobilga o'rnatilgan sotuvdan keyingi asbob-uskunalarning og'irligini qo'shing.

Umumiy og'irlik GCWR kattaligidan oshmasligi kerak.

Avtopoyezdning to'liq og'irligini umumerishimli avtotarozilarda tirkamali avtomobilni tortish bilan tekshirish mumkin.

Avtomobil va tirkama reysga to'liq yuklangan bo'lishi kerak, jumladan yuk va yo'lovchilar ham.



Avtomobilning ruxsat etilgan maksimal og'irligi (GVWR)

Avtomobilning maksimal og'irlik ko'tarishi bo'yicha ma'lumotlarni Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12ni ko'ring. Tirkama ulangan avtomobilning ruxsat etilgan maksimal og'irligi (GVWR)ni hisoblashda tirkamaning shotisini og'irligini avtomobil tashib ketayotgan og'irlikda inobatga olish zarur.

Tirkamaning maksimal og'irligi

Tirkamaning maksimal og'irligi shataklanuvchi avtomobilda haydovchi, oldingi o'rindiqdagi yo'lovchi va shataklash uchun barcha zaruriy asbob-uskunalarning mavjudligidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Ushbu qiymat mazkur avtomobil shataklashi mumkin bo'lgan tirkamaning eng katta og'irligiga muvofiq keladi; tirkamaning og'irligini avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligi (GCWR), avtomobilning ruxsat etilgan maksimal og'irligi (GVWR), tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal vertikal yuklama va avtomobilning orqa ko'prigiga chegaraviy ruxsat etilgan yuklama (GAWR-RR)larga rioya etish uchun kamaytirish talab etilishi mumkin.

Tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal yuklama

Tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal yuklama - bu tirkamani shataklashda standart tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal ruxsat etilgan yuklama. TIQga maksimal ruxsat etilgan yuklamaning oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, tirkamaning umumiy og'irligini pasaytirish talab etilishi mumkin, bunda tirkamaning muvozanati buzilmasligi kerak.



Odatiy tortish-ilakishish qurilmasi uchun tirkamadan TIQga vertikal yuklama 567 kg (1250 funt) og'irlikdan oshmasligi kerak. TIQga vertikal yuklama avtomobilning to'liq og'irligida (GVW) hisobga olinadi. GVW o'z ichiga avtomobilning jihozlanish og'irligini, yo'lovchilarning vaznini, yukning, asbob-uskunalarning og'irligini va tirkamadan TIQga vertikal yuklamani oladi. Avtomobilning qo'shimcha jihozlanishi, yo'lovchilar, yuk va asbob-uskunalar avtomobil bardosh berishi mumkin bo'lgan tirkamadan TIQga maksimal ruxsat etilgan yuklamani kamaytiradi, va shu bilan tirkamaning maksimal ruxsat etilgan og'irligini kamaytiradi.

Tirkamada yuklamani taqsimlanishi

Tirkamaning turg'unligini ta'minlash uchun tirkamada yuklamalarning to'g'ri taqsimlanishini ta'minlash zarur. Yuklamaning noto'g'ri taqsimlanishi tirkamaning tebrantirilishiga olib kelishi mumkin.



1 2

Tirkama shotisining (1) og'irligi yuklangan tirkamaning (2) umumiy og'irligidan 10-15%ni tashkil qilishi kerak. Qayiq tirkamalari kabi tirkamalarning ba'zi o'ziga xos turlari ushbu oraliqning tashqarisiga chiqadi. Har bir tirkama uchun alohida shotining tavsiya etilgan og'irligi uchun tirkama foydalanuvchisining qo'llanmasiga har doim murojaat qiling. Avtomobilga, tortish-ilakishish qurilmasiga va tirkamaga maksimal yuklamani hech qanday holatda oshirmang.

Tirkamadan yuklamaning foizli taqsimlanishi quyidagi tarzda hisoblanadi: og'irlikka bo'lingan (2) 100ga ko'paytirilgan og'irlik (1).

Tirkamani yuklagandan keyin tirkamani va tirkama shotisini alohida tarozida torting va tarozilarning qiymati va ularning taqsimlanishi sizning avtomobilingizni texnik talablariga javob berishini aniqlash uchun tirkamaning tarozi balansini hisoblang. Agar tirkamaning og'irligi juda katta bo'lsa, ehtimol, yukning bir qismini avtomobilga olib o'tish imkoni mavjuddir. Agar tirkama shotisi juda katta yoki kichik og'irlikka ega bo'lsa, ehtimol, tirkamadagi yukning joylashishini o'zgartirish imkoniyati mavjuddir.

Avtomobil uchun tirkamaning shotisini maksimal ruxsat etilgan og'irligidan oshirishga yo'l qo'yilmaydi. TQI shari iloji boricha avtomobilga joylashishi uchun, TQIning ancha qisqa uzaytirgichidan foydalaning. Bu tortish-ilakishish qurilmasiga va orqa ko'prikka tirkamaning vertikal yuklamasini og'irligi ta'siri samaradorligini pasaytiradi.

Agar tortish-ilakishish qurilmasining javob beruvchi qismida yukxona o'rnatilayotgan bo'lsa, yuk iloji boricha avtomobilga yaqin joylashadigan yukxonani tanlang. Umumiy og'irlik, jumladan yukxona, avtomobil uchun shotining maksimal ruxsat etilgan og'irligining yarmidan katta bo'lmagan og'irlikni yoki nima kamroq ekanligiga bog'liq holda 227 kg (500 funt)ni tashkil qilishiga ishonch hosil qiling.

Orqa ko'prikka chegaraviy ruxsat etilgan yuklama (GAWR-RR)

GAWR-RR parametrlari avtomobilning orqa ko'prigi ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan yig'indi yuklamani tasniflaydi. Tirkama shotisini og'irligini hisobga olish bilan avtomobil-shatakchi va tirkamaning to'liq yuklanishida GAWR-RR parametrini oshirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar og'irlik yuklamani taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasi qo'llanilayotgan bo'lsa, og'irlik taqsimlash prujinalangan shtangalarni montajidan so'ng GAWR-RR parametri oshirib yuborilmaganligi ustidan kuzating.



Tirkamani shataklash bo'yicha maslahat yoki yordam uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Shataklash uchun asbob-uskunalar

Tortish-ilakishish qurilmasi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Og'ir jarohatlar va mol-mulkga shikast yetkazilishidan saqlanish maqsadida avtomobilning tortish-ilakishish qurilmasi qabulqilgichida shotini/ulash qurilmasini mahkamlab, tortish-ilakishish qurilmasining ishlab chiqaruvchining ko'rsatmalariga so'zsiz rioya qiling.
Shtiftning yoki qulflash mexanizmining aylanishi ekspluatatsiya davomida uning tushib qolishi yoki bo'shab qolishiga olib kelmasligi uchun shoti/ulash qurilmasining to'xtatuvchi shtifti yoki boshqa moslama bilan mahkamlanishini kuzating.
Qabulqilgichga shotining/ulovchi qurilmaning noto'g'ri mahkamlanishi shataklash vaqtida tortish-ilakishish qurilmasining va qabulqilgichning uzilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Oddiy tortish-ilakishish qurilmasi

Ramaga yoki avtomobil-shatakchining ko'ndalang to'siniga boltlar bilan mahkamlanuvchi oddiy tortish-ilakishish qurilmalar, odatda, sinflarga bo'linadi: 2, 3,4 va 5.

Har doim o'z avtomobilingiz uchun muvofiq ulovchi asbob-uskunalardan foydalaning. Yon tomondan esuvchi shamol, avtomobil yonidan harakatlanib o'tayotgan uzun yuk mashinalari va notekis qoplamali yo'llar tirkamaga va tortish-ilakishish qurilmasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'z avtomobilingiz uchun to'g'ri tanlangan ulovchi asbob-uskunalar tirkama bilan avtomobilning boshqaruvchanligini saqlashga ko'maklashadi. Ko'pchilik avtotirkamalar shataklash uchun avtomobilning TIQi shari bilan yoki ulovchi ilgakka ilib qo'yiluvchi zo'g'ota bilan ulanuvchi ulash qurilmali yuklangan ulamaga ega. Boshqa avtotirkamalar og'irlikni taqsimlash bilan ulamani talab etishi mumkin, u prujinali balkalar yordamida avtomobil va tirkamaning ko'prigi o'rtasida tirkama shotisiga yuklamani taqsimlaydi. Har xil turdagi tortish-ilakishish qurilmalarga yuklamalarning chegaralarini Tirkamani shataklash ⇨ 8-68 bo'limda "Tortish-ilakishish qurilmasiga maksimal yuklama" paragrafida ko'ring.
Hech qanday holatda ijaraga beriluvchi bamper turidagi tortish-ilakishish qurilmalarini yoki boshqa tortish-ilakishish qurilmalarini ulamang. Faqat bamperga ulanmaydigan ramaga o'rnatiluvchi tortish-ilakishish qurilmalarini qo'llang.

Tortish-ilakishish qurilmasining g'ilofi



Tortish-ilakishish qurilmasining qopqog'ini yechib olish uchun (uning mavjudligida):
1. Pastki quloqlardan ikkita vintni bo'shatib oling (2).
2. Taxminan 45 gradus burchak ostida qopqoqning pastki chetidan torting.
3. Tepa mahkamlagichlardan (1) ajratib olish uchun, g'ilofni tepaga torting.
Tortish-ilakishish qurilmasining g'ilofini joyiga o'rnatish:
1. Qopqoqni avtomobilga nisbatan 45 gradus burchak ostida ushlab turib, qopqoqning tepa bo'rtiqlarini bamperning o'yiqlariga o'rnating.
2. Pastki quloqlar bamperdagi pastki o'yiqlarga kirishi uchun, qopqoq pastiga oldinga bosing.

3. Qopqoqning tepa burchaklariga (1) oldinga bosib, tortish-ilakishish qurilmasining qopqog'ini shiqillatib yoping.
4. Ikki vintni pastki quloqlarga burab qotiring (2).
Har bir tirkamada tebranishni stabillashtirishning mexanik tizimi qo'llanilishi ehtimolini ko'rib chiqing. Tirkamalar bilan shug'ullanuvchi professionallardan tebranishni stabillashtirish tizimlari bo'yicha maslahat oling yoki tirkama ishlab chiqaruvchisining tavsiyalari va yo'riqnomalariga murojaat qiling.

Og'irlik yuklamasini taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasini sozlash

Ba'zi tirkamalarni og'irlik yuklamasini taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasini qo'llash bilan tashish qulay.
Og'irlik yuklamasini taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasi kerakligini aniqlash uchun, quyida keltirilgan tavsiyalardan foydalaning.

Tirkama og'irligi	Og'irlik yuklamasini taqsimlash bilan tortish-ilakishish qurilmasini qo'llanilishi	Yuklamaning taqsimlanishi
2720 kg (6000 funt)gacha	Kerak emas	50%
2720 kg (6000 funt)dan yuqori	Kerak	50%



1. Avtomobilning old qismi.
2. H1/H2: kuzovdan yo'l qoplamasigacha oraliq masofa

Shatakka olish

1. Yuk tashuvchi avtomobilni tirkama ulanishiga tayyor holatga o'rnating (tirkama hozircha ulanmagan).
2. Yo'l qoplamasi ustida oldingi qanotda g'ildirak tirqishini tepa balandligini o'lchang (H1).
3. Og'irlik taqsimlash shtangasini hozircha o'rnatmasdan, tirkamaga avtomobilni ulang.
4. Yo'l qoplamasi ustida oldingi qanotda g'ildirak tirqishini tepa balandligini o'lchang (H2).
5. Og'irlik taqsimlash shtangasini o'rnatib, oldingi qanotning balandligi taxminan H2- [(H2-H1)/2] (yurish balandligini ikki kattaligini yarim qiymati) tashkil etishi uchun shunday tarzda ishlab chiqaruvchining tavsiyasiga binoan ularning taranglashishini sozlang.
6. Ishlab chiqaruvchining tavsiyalarga rioya etilganlik predmetiga tirkama va og'irlik taqsimlovchi shtangani ko'rikdan o'tkazing.

O'lchash	Balandlik mm.da (masalan, 1500)
H1	1000
H2	1050
H2-H1	50
(H2-H1)/2	25
H2- [(H2-H1)/2]	1025

To'rt burchakli pnevmatik osmali shataklash

1. Pnevmatik osmani "odatiy yo'l oralig'i" kattaligigacha sozlang.
2. Yuk tashuvchi avtomobilni tirkama ulanishiga tayyor holatga o'rnating (tirkama hozircha ulanmagan).
3. Pnevmatik osmani axborot-ko'ngilochar tizimning markaziy displeyi ekranida Settings/Vehicle/Suspension (parametrlar/avtomobil/osma) menyusida servis rejimga (Service Mode) o'tkazing.
4. Yo'l qoplamasi ustida oldingi qanotda g'ildirak tirqishini tepa balandligini o'lchang (H1).
5. Og'irlik taqsimlash shtangasini hozircha o'rnatmasdan, tirkamaga avtomobilni ulang.
6. Yo'l qoplamasi ustida oldingi qanotda g'ildirak tirqishini tepa balandligini o'lchang (H2).
7. Og'irlik tarqatish shtangasini o'rnatib, oldingi qanot balandligi taxminan H2- [(H2- H1)/3] (yurish balandligini ikkilamchi kattaligi {H2} va yurish balandligini ikki kattaligini 1/3 qiymati farqi) tashkil etishi uchun shunday tarzda ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga binoan ularning taranglashishini sozlang.
8. Pnevmatik osmaning servis rejimini o'chirib qo'ying.
9. 8-harakat bajarilganidan keyin pnevmatik osma avtomatik yurish balandligini sozlaydi.
10. Ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga rioya etilganlik predmetiga tirkama va og'irlik tarqatish shtangasini ko'rikdan o'tkazing.

O'lchash	Balandlik mm.da (masalan, 1500)
H1	1000
H2	1060
H2-H1	60
(H2-H1)/3	20
H2- [(H2-H1)/3]	1040

Tirkamani to'g'rilash



⚠ *OGOHLANTIRISH!*

TIQ (tortish-ilakishish qurilmasi) yakka shotisini qo'llab, tirkamani oldini va orqasini muqarrar to'g'irlang. Gorizontal bo'yicha to'g'irlanmagan tirkamani shataklashda tirkama o'qlariga, prujinalariga va shinalariga noto'g'ri yuklama hosil bo'lishi mumkin. Bu tirkama tebranishini, uning shikastlanishini yoki shinalar yorilishini keltirib chiqarishi va avariyalarga va jiddiy jarohatlarga, shu jumladan o'lim oqibatlariga olib kelishi mumkin.
To'g'irlanmagan tirkamani shataklamang.

Tirkamani to'g'irlash uchun, TQU yakka shotisini to'g'ri ko'tarilishini (1) yoki tushirilishini (2) tanlang.

Shinalar

- Avtomobilda to'liq o'lchamda bo'lmagan ehtiyot g'ildiragining qo'llanilishida tirkamani shataklashga yo'l qo'yilmaydi.
- Tirkamani transportda tashishda shinalar muvofiq yuklamaga bardosh berish uchun, tegishli bosimgacha shishirilgan bo'lishi kerak. Shinalarda tegishli bosim bo'yicha yo'riqnomani Shinalar ⇨ 8-80da ko'ring.

Himoyalash zanjirlari

Har doim avtomobil va tirkama orasiga zanjirlarni ulang; zanjirlarni tortish-ilakishish qurilma platformasidagi tirqishlarga mahkamlang. Himoyalash zanjirlari bo'yicha yo'riqnomalar tortish-ilakishish qurilmasi yoki tirkama ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etilgan bo'lishi mumkin.
Zanjirlarning tortish-ilakishish qurilmasidan uzishda yerga tushib ketishini oldini olish uchun, ularni shoti ostidan kesishtirib o'tkazing. Avtopoyezdning burilish ehtimolini ta'minlash uchun, shunday osilib turishni qoldiring. Zanjirlarning yergacha osilib turishiga yo'l qo'ymang.

Tirkamaning tormoz tizimi

Yukni hisobga olgan holda 900 kg (2000 funt)dan yuqori og'irlikka ega bo'lgan tirkamalar majburiy tartibda barcha o'qlarga tormozlar bilan tormoz tizimi bilan jihozlanadi.
Milliy yoki mahalliy qonunchilik talablari agar mamlakatdan mamlakatga o'zgarishi mumkin bo'lgan muayyan minimal qiymatlardan tirkama

to'liq yuklanganligidan yuqori kelsa, o'zining shaxsiy tormoz tizimining mavjudligini buyruq bilan o'rnatishi mumkin.
Tirkamaga yo'riqnoma bilan tanishib chiqing va tirkamaning tormoz tizimini to'g'ri o'rnatilishini, sozlanishini va xizmat ko'rsatilishini ta'minlash uchun unga rioya qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamaning gidravlik tormozlash tizimi yaxlitligini buzish taqiqlanadi. Tirkamaning gidravlik tormozlash tizimini to'g'ridan-to'g'ri avtomobilning gidravlik tormoz tizimiga ulash taqiqlanadi.
Aks holda, avtomobilning antibloklash tormoz tizimi qanday bo'lsa, tirkamaning tormozlarining ham xuddi shunday ishdan chiqish ehtimoli bor, bu avariya sababchisi bo'lib qolishi mumkin.

Tirkama simlarining bovlig'i

Bamperda tirkamaga ulanish uchun yetti kontaktli shtepsel ulagich o'rnatilgan. Ulagich texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida xarid qilish mumkin bo'lgan, yuqori yuklamalarga mo'ljallangan tirkamaning universal yetti kontaktli uyachasiga o'rnatiladi.
To'g'ri ulanishni ta'minlash uchun faqat SAE J2863 talablariga muvofiq keluvchi yassi kontaktli dumaloq yetti kontaktli ulagichni qo'llang.
Yettita simli bovliq tirkamani ulash uchun quyidagi zanjirlarga ega:

- Sarg'ish/kulrang: stop-signal/chapdan burilish ko'rsatkichi
- Yashil/binafsha rang: stop-signal/o'ngga burilish ko'rsatkichi
- Kulrang/jigarrang: orqa chiroqlar
- Oq rang: Massa
- Oq/yashil rang: orqaga yurish chiroqlari
- Qizil/yashil rang: akkumulator batareyasini quvvatlash
- Moviy rang: tirkama tormozi

Tashqi akkumulator batareyasini (avtomobilni emas) quvvatlash uchun avtomobilni shataklash/transportda tashish rejimiga (Tow/Haul) rejimiga o'tkazing Agar tirkama shataklash/transportda tashish rejimi uchun juda ham yengil bo'lsa, akkumulator batareyasini almashtirish uchun bosh faralarni yoqing.

Elektr mexanik tormozni boshqarish uchun simlarni tayyorgarligi

Ushbu tayyorgarlik tirkamaning elektr simlarining asosiy qismi sifatida avtomobilning jamlanmasiga kiradi. Simlar elektr mexanik tormozning ishini boshqarish bloki uchun mo'ljallangan. Elektr simlarning bovlig'i texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida yoki vakolatlangan servis--markazida yotqiziladi.
Xarid qilingan nazoratchiga qo'llanmada tirkama tormozlari nazoratchisini simlarini rangli kodlanishini ko'ring. Tirkama tormozlarining nazoratchisining sim uchlarini ranglari avtomobil bovlig'ining simlari rangidan farq qilishi mumkin.

Tirkamaning chiroqlari

Safarni boshlashdan oldin va davomli safar vaqtida vaqti-vaqti bilan tirkamaning barcha chiroqlarini ish qobiliyatini har doim tekshiring.

Tirkama ulanishi haqida ogohlantirish va nurli indikatsiya

Tirkama avtomobilga tegishli tarzda ulanganida va ishchi holatda joylashganida, nurli indikatsiya mavjud bo'lmaydi, haydovchining axborot markazining (DIC) displeyi ekranida hech qanday ogohlantirishlar yoritilmaydi. Ammo agar tirkamani ulash yoki uning nurli uskunalarida muammolar yuzaga kelsa, haydovchining axborot markazining (DIC) displeyi ekranida quyidagiga o'xshagan bir yoki

bir nechta xabarnomalar paydo bo'lishi mumkin:

- Tirkama uzilganidan keyin TIRKAMA UZILDI ULANISHNI TEKSHIRING xabari paydo bo'ladi. Xabar, agar tirkamaning uzilishi avtomobil o'chirib qo'yilgan vaqtda sodir bo'lgan bo'lsa, avtomobil ishga tushirilishidan keyin darhol yoki uning keyingi ishga tushirilishida paydo bo'ladi. Tirkamaning tegishli tarzda ulanganligini tekshiring.
- CHECK TRAILER XXX LAMP (TIRKAMA CHIROG'INI TEKSHIRING), yoritish moslamasi yoki tirkamaning elektr simlari nosozliklari aniqlanganda paydo bo'ladi. Tirkamaning elektr simlari va yoritish moslamalarining holatini tekshiring.

Tirkamani shataklashda burilish ko'rsatkichlarini qo'llanilishi

To'g'ri ulanishda tirkamadagi burilish ko'rsatkichlari burilishni, yo'nalishni o'zgartirish yoki avtomobilning to'xtatilishini signallashtirish uchun yonishi kerak. Tirkamani shataklashda uskunalar majmuasidagi strelkalar hatto, agar tirkama noto'g'ri ulanishida yoki burilish ko'rsatkichlari lampalari kuyib qolgandagi holatda ham yonadi.

Shataklash/transportda tashish rejimi

Shataklash/transportda tashish rejimiga o'tish bo'yicha yo'riqnomalarni Harakatlanish rejimi ⇨ 8-37da ko'ring. Shataklash/transportda tashish rejimi og'ir tirkama bilan harakatlanishda va yirik gabaritdagi yoki og'ir yuklarni tashishda foydalidir. Shataklash/transportda tashish rejimi avtomobilning va tirkamaning umumiy og'irligi avtomobil uchun avtopoyezdning ruxsat etilgan to'liq og'irligini 75%ni yoki undan ortig'ini tashkil qilgan vaqtda eng samarali hisoblanadi. "Tirkamaning maksimal og'irligi" paragrafini Tirkamani shataklash ⇨ 8-68 bo'limda ko'ring.

Shataklash/transportda tashish rejimi og'ir tirkamalarni shataklashda va yirik o'lchamdagi yoki og'ir yuklarni tashishda eng samarali hisoblanadi:

- baland-past relyef bo'yicha
- tez-tez to'xtash bilan zich oqimda
- jonli harakatli avtoto'xtash joylarida

Sust yuklangan avtomobilda yoki tirkamasiz avtomobilda shataklash/yuk tashish rejimining qo'llanilishi zarur yetkazmaydi; biroq u tavsiya etilmaydi va harakatlanishda va yonilg'ining yuqori sarflanishida dvigatelning va uzatmalar qutisining noqulay o'zini tutishiga olib kelishi mumkin.

Tirkama tormozlarini ishlashini boshqarishning o'rnatilgan tizimi

Avtomobilning jamlanmasiga elektr mexanik tormozlar bilan qanday bo'lsa, tirkamalarning ko'pchilik gidravlik tormoz tizimlari bilan ham xuddi mos keluvchi tirkama tormozlarini ishlashini boshqarishning o'rnatilgan tizimi (ITBC) ham kirishi mumkin.

Bu yerda keltirilgan ko'rsatmalar ikkala turdagi elektr mexanik tormozlarga taalluqli.

Bunday belgi ITBC tizimli avtomobillarda tirkama tormozlarini ishlashini boshqarish pultida mavjuddir. Tirkama tormozlarining chiquvchi quvvati avtomobilning tormoz kuchlanishiga proporsionaldir.

Tirkama tormozlarining chiquvchi quvvati muayyan holatlarga bog'liq holda keng oraliqda sozlanadi. ITBC tizimi avtomobilning tormoz

tizimiga, antibloklash tizimiga va elektron dinamik stabillashtirish tizimiga (ESC) o'rnatiladi. Avtomobilning antibloklash tizimining yoki StabiliTrak/ESC tizimining ishlashida tirkama tormozlarining quvvati tirkamaning g'ildiraklarini bloklanishi xavfini minimumga keltirish uchun avtomatik sozlanadi. Bundan tirkama ham StabiliTrak/ESC tizimi bilan jihozlanishi xulosasi kelib chiqmaydi.

Avtomobil tormozlari ishlashida, antibloklash tizimida yoki StabiliTrak/ESC tizimida nosozliklar ITBC tizimi ishlashida shunga o'xshash nosozliklarga olib kelishi yoki hattoki uni to'liq ishdan chiqarishi mumkin. ITBC tizimi soz holatda ishlashi uchun, sanab o'tilgan tizimlarning to'liq ishlash qobiliyati ustidan kuzatib boring.

ITBC tizimi avtomobilning elektr tizimi tomonidan harakatga keltiriladi. O't oldirish o'chirilishi bilan ITBC tizimi ham o'chadi. ITBC tizimi faqat o't oldirish kaliti ON/RUN (YOQILGAN/YURISH) holatiga o'rnatilgan holatdagina to'liq ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamaning pnevmatik tormoz tizimi bilan ulanishi tirkamani tormozlanish qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotishi, tormozlanish masofasining ortishiga yoki tirkamaning turg'unsizligiga olib kelishi mumkin, bu og'ir jarohatlar keltirilishi hatto halok qilish yoki mol-mulkga zarar yetkazish oqibatiga ham olib kelishi mumkin.

ITBC tizimidan faqat tirkamaning elektr mexanik yoki elektr gidravlik tormoz tizimi bilan qo'llash mumkin.

Tirkama tormozlarini ishlashini boshqarish pulti



1. Tirkama tormozlarini qo'lda harakatga keltirish pishangisi
2. Tirkamani belgilovchi belgi
3. Tirkama tormozlarini kuchaytirilishini sozlash tugmasi ITBC tizimini boshqarish pulti rul chambaragidan chap tomonda uskunalar paneliga joylashtirilgan. Boshqarish pulti tirkamani tormozlarini kuchaytirishini sozlash, ya'ni tormozlarga uzatiluvchi energiya miqdorini, hamda ushbu tormozlarni qo'lda harakatga keltirish imkoni beradi. Tirkamaning tormozlariga uzatiluvchi energiyaning miqdori ITBC tizimini boshqarish pulti yordamida sozlanadi va haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida tirkama

tormozlari parametrlari bilan darchada aks ettiriladi.

Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida tirkama tormozlari parametrlari bilan darcha

ITBC tizimi darchasiga quyidagi parametrlar chiqariladi:

- Tirkama tormozlari kuchaytirilishini o'rnatilgan qiymatlari
- Tirkama tormozlariga uzatiluvchi energiya
- Tirkama ulanishi
- Tizimning ishchi holati

Ko'rsatkichlarning ekranga chiqarilishi:

- Haydovchining axborot markazi (DIC) menyusida kerakli darchani toping
- Trailer Gain (tirkama tormozlarini kuchaytirilishi) parametriga tegishli (+) yoki (-) tugmasini bosing
- TRAILER GAIN (TIRKAMA TORMOZLARINI KUCHAYTIRISH) tirkama tormozlarini qo'lda harakatga keltirish pishangisini faollashtiring:

Tirkama tormozlarini kuchaytirishning joriy o'rnatilgan qiymatini faollashtirish uchun, Trailer Gain (tirkama tormozlarini kuchaytirish)ning istalgan tugmasini bosing. Tirkama tormozlarini kuchaytirish qiymati ushbu tugmalardan biron birini har bir bosish bilan o'zgaradi. (+) va (-) tugmalari bilan tirkama tormozlarini kuchaytirilishini sozlang. Davomli sozlash uchun istalgan tugmani bosing va ushlab turing.

Tirkama tormozlariga energiya uzatilishini o'chirish uchun, tirkama tormozlarini kuchaytirilishi qiymatini 0.0ga o'rnating. Ushbu parametr 0.0dan 10.0gacha oraliqda, ulangan tirkama bilan qanday bo'lsa, uzib qo'yilgan tirkama bilan ham xuddi shunday sozlanadi.

TRAILER OUTPUT (TIRKAMA TORMOZLARIGA UZATILUVCHI ENERGIYA): Ushbu parametr avtomobilga elektr mexanik tormozlarga ega bo'lgan tirkama ulangan vaqtda aks ettiriladi. Tirkama tormozlariga uzatiluvchi energiya miqdori, avtomobilning joriy tormoz kuchaytirilishiga bog'liq va tirkama tormozlarining o'rnatilgan kuchaytirish qiymatlari bilan mutanosib bo'ladi. Kuchaytirishning har bir o'rnatilgan qiymatida energiya miqdori 0dan 100%gacha oraliqda aks ettiriladi.

Tirkama tormozlariga uzatiluvchi energiya miqdori quyidagi holatlarda "- - - - -" kabi tirkama tormozlari parametrlari bilan darchada aks ettiriladi:

- Tirkama ulanmagan.
- Elektr mexanik tormozlarsiz tirkama ulangan, bunda haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekraniga hech qanday xabarnoma chiqarilmaydi.
- Elektr mexanik tormozlarga ega bo'lgan tirkama uzilib qoldi, bunda haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekraniga CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMANING SIMLARINI TEKSHIRING) xabari chiqariladi.
- Elektr simlarining butunligi buzilgan, bunda haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekraniga CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMANING SIMLARINI TEKSHIRING) xabari chiqariladi.
- ITBC tizimi nosozlik sababli ishini to'xtatdi, bunda haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekraniga SERVICE TRAILER BRAKE SYSTEM (TIRKAMA TORMOZLARIGA XIZMAT KO'RSATISH BAJARILSIN) xabarnomasi chiqariladi.

Tirkama tormozlarini qo'lda harakatga keltirish pishangisi

Avtomobil tormozlariga bog'liq bo'lmagan holda tirkamaning elektr mexanik tormozlarini harakatga keltirish uchun, ushbu pishangini o'ngga siljiting. Xuddi shu pishangi tirkama tormozlariga uzatiluvchi energiya miqdorini, ularni kerakli kuchaytirilishigacha sozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, pishangi bilan tirkamani qo'shimcha tormozlanishiga buyruqni istalgan vaqt uzatish mumkin. Tirkama va avtomobilning tormoz chiroqlari avtomobilning tormoz tizimining har bir ishlashida va tirkamaning tegishli tarzda ulangan tormozlarini qo'lda harakatga keltirishda yoqiladi.

Tirkama tormozlarini kuchaytirilishini sozlash

Tirkama tormozlarining kuchaytirilishi tirkama bilan harakatlanishning muayyan sharoitlariga bog'liq holda o'rnatiladi va avtomobilni va (yoki) tirkamani yuklashda, hamda yo'l sharoitlarining o'zgarishida majburiy sozlanishi kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkama tormozlarining haddan tashqari yoki yetarlicha bo'lmagan kuchaytirilishida tirkamali avtomobil tegishli tarzda mumkin bo'lmagan holat yuzaga kelishi mumkin, bu avariya oqibatiga olib keladi. Tirkamaning tormozlanishining tegishli xarakteristikalarini ta'minlash uchun uning tormozlarini kuchaytirilishini sozlash bo'yicha ko'rsatmalarga so'zsiz rioya qiling.

Tirkama bilan harakatlanish sharoitlariga bog'liq holda tirkama tormozlarini kuchaytirilishini sozlash tartibi:

1. Tirkamali avtomobilni tirkama bilan harakatlanishning haqiqiy sharoitlari uchun o'ziga xos bo'lgan, ammo transportdan bo'sh bo'lgan tekis qoplamali yo'lga olib chiqing. Taxminan 32 km/soatdan 40 km/soatgacha (soatiga 20-25 mil) oraliqdagi tezlikda xarakatlanib, tirkama tormozlarini qo'lda harakatga keltirish pishangisini to'liq faollashtiring.

Izoh

32-40 km/soat (soatiga 20-25 mil) tezlikda tirkama tormozlarini kuchaytirilishini sozlash noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin.

2. Tirkama tormozlarini kuchaytirilishini muvofiq tugmalar bilan sozlang yoki tirkama g'ildiraklarining chiyillashi yoki shinalardan tutun bo'yicha aniqlash mumkin bo'lgan tirkama g'ildiraklarini bloklash nuqtasidan ozgina pastroqda ushbu parametrning qiymatlarini oddiygina o'rnating.

Izoh

Og'ir yuklangan tirkamaning g'ildiraklarini bloklanishi sodir bo'lmasligi mumkin. Bunday holatda, tirkama bilan harakatlanishning ushbu sharoitlarida yo'l qo'yiluvchi tirkama tormozlarini maksimal kuchaytirilishini o'rnating.

3. Tirkama tormozlarini kuchaytirilishini avtomobilni va (yoki) tirkamani yuklashda, hamda yo'l sharoitlari o'zgarishida yoki harakatlanishda tirkama g'ildiraklarining bloklanishi holatida har gal sozlash kerak.

ITBC tizim bilan bog'liq haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranidagi boshqa xabarnomalar

TRAILER BRAKES CONNECTED (TIRKAMANING TORMOZLARI ULANGAN): Ushbu xabarnoma elektr mexanik tormozlari bo'lgan tirkamaning avtomobilga birinchi ulanishida ekranda ko'p bo'lmagan vaqtga paydo bo'ladi. Xabarnoma taxminan 10 sekund o'tgandan keyin ekrandan g'oyib bo'ladi. Xabarnoma bilan tanishishni u avtomatik g'oyib bo'lishidan avval tasdiqlash mumkin.

CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMANING SIMLARINI TEKSHIRING): Ushbu xabarnoma quyidagi holatlarda ekranda paydo bo'ladi:

- Avval ITBC tizimi elektr mexanik tormozlarga ega bo'lgan ulangan tirkamani aniqlaydi, so'ngra esa tirkama elektr simlari bovlig'i avtomobildan uziladi. Agar uzish avtomobil to'xtab turishga joylashtirilgan vaqtda sodir bo'layotgan bo'lsa, u holda xabarnoma taxminan 30 sekund o'tgandan keyin ekrandan avtomatik g'oyib bo'ladi. Xabarnoma u bilan tanishishni tasdiqlashdan keyin yoki tirkamaning elektr simlari bovlig'i qayta ulanganda ekrandan g'oyib bo'ladi. Agar uzish avtomobil harakatlanishi vaqtida sodir bo'layotgan bo'lsa, u holda xabarnoma o't oldirish o'chirilgunga qadar ekranda qoladi. Xabarnoma u bilan tanishishni tasdiqlashdan keyin yoki tirkamaning elektr simlari bovlig'i qayta ulanganda ekrandan g'oyib bo'ladi.
- Tirkama tormozlariga simlarning butunligi buzilgan. Ushbu xabarnoma tirkama elektr simlari butunligi tiklangunga qadar ekranda qoladi. Xabarnoma u bilan tanishish tasdiqlangandan keyin ekrandan g'oyib bo'ladi.

Avtomobilda yoki tirkamada elektr simlari bovlig'ini butunligi buzilish joyini izlash tartibi:

1. Tirkama elektr simi bovlig'ini avtomobildan uzing.

2. O't oldirishni o'chiring.
3. 10 sekund o'tgandan keyin o't oldirish kalitini RUN (YURISH) holatiga qaytaring.
4. Agar CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMA SIMLARINI TEKSHIRING) xabarnomasi ekranda qayta paydo bo'lsa, demak, simlarning butunligi avtomobilda buzilgan.
Agar CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMA SIMLARINI TEKSHIRING) xabarnomasi faqat avtomobilga tirkama elektr simlarining bovlig'i qayta ulangandan keyin ekranda qayta paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, simlarning butunligi tirkamada buzilgan.
SERVICE TRAILER BRAKE SYSTEM (TIRKAMA TORMOZLARIGA XIZMAT KO'RSATISH O'TKAZILSIN): Ushbu xabarnoma ITBC tizimi bilan muammolar yuzaga kelganda ekranga chiqariladi.
Agar xabarnoma o't oldirishning ishlashini bir nechta sikllari davomida g'oyib bo'lmayotgan bo'lsa, demak, ITBC tizimi nosoz. Avtomobilni texnik xizmat ko'rsatishga yetkazing.
Agar CHECK TRAILER WIRING (TIRKAMA SIMLARINI TEKSHIRING) yoki SERVICE TRAILER BRAKE SYSTEM (TIRKAMA TORMOZLARIGA XIZMAT KO'RSATISH O'TKAZILSIN) xabarlari harakatlanish vaqtida paydo bo'layotgan bo'lsa, ehtimol, ITBC tizimi uzilish bermoqda yoki butkul ishdan chiqqan. Yo'l sharoitlari imkon bergan zahotiyoq, yo'l chetiga ehtiyotkorlik bilan haydab o'ting va o't oldirishni o'chiring. Tirkamaga elektr simlarining ulanishini tekshirib, o't oldirishni yoqing. Agar yuqorida keltirilgan xabarnomalardan biron biri ekranda qayta paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, avtomobilga yoki tirkamaga texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilishi zarur bo'ladi.
Tirkama diagnostikasi va ta'mirlanishini GM texnik xizmat ko'rsatish stansiyasida amalga oshirish mumkin. Biroq avtomobil kafolati tirkamaning diagnostikasini va ta'mirlanishini qoplamaydi. Tirkamani ta'mirlash masalasi bo'yicha va unga kafolat haqida ma'lumotlarni olish uchun tirkamalar bilan shug'ullanuvchi texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Tirkamaning nosoz tormozlash tizimi bilan harakatlanish avtomobilning tormoz tizimiga yuklamani oshirishi yoki tirkamaning noturg'unligini keltirib chiqarishi mumkin. Ehtiyot bo'ling. Asta-sekin harakatlaning va tormoz yo'lini uzayishini hisobga oling.

Tirkamani tebrantirishdan himoyalash tizimi (TSC)

StabiliTrak tizimi/yo'nalish turg'unligini qo'llab turish tizimi (ESC) bo'lgan avtomobillar tirkamani stabillashtirish (TSC) funksiyasiga ega. Harakatlanish vaqtida tirkama avtomobilning harakatlanish traektoriyasidan chapga va o'ngga beixtiyor chetlashishi mumkin. Tirkamani stabillashtirish tizimi tirkamani tebrantirilishini kuchaytirilishini aniqlagan vaqtda, haddan tashqari tebrantirishdan saqlanish maqsadida avtomobil tormozlari u yoki boshqa g'ildiraklarga tanlab harakatga keltiriladi. Agar avtomobil tirkamaning tormoz mexanizmlarini boshqarishning integratsiya tizimi (ITBC) bilan jihozlanganida va tirkama elektr mexanik tormoz tizimi bilan jihozlanganida, StabiliTrak tizimi, shuningdek, tirkamaning tormoz mexanizmlarini harakatga keltirishi mumkin.

TSC tizimi ishlashida uskunalar majmuasida tortish kuchi nazorati (TCS)/StabiliTrak tizimining ogohlantiruvchi indikatori miltillab turadi. Tezlikni tashlab yuboring,bunda akseleratorning tepkisiga bosimni ravon susaytiring.Agar tirkamaning tebrantirilishini so'ndirish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, StabiliTrak tizimiavtomobil sekinlashishiga yordam berish uchun,dvigatel bilan rivojlantiriluvchi aylanuvchi momentni pasaytirishi mumkin.StabiliTrak tizimi o'chirilganidatirkamani stabillashtirish tizimi ishlamaydi. Tortish kuchi nazorati tizimi/Elektron dinamik stabillashtirish tizimi ⇨ 8-34ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tirkamaning tebrantirilishi jiddiy jarohatlar yetkazishi yoki o'lim oqibatlariga ega bo'lgan YTHga olib kelishi mumkin, hattoki agar avtomobil tirkamani stabillashtirish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa ham.
Agar tirkama tebranishni boshlayotgan bo'lsa, akselerator tepkisiga bosimni asta susaytirib, tezlikni pasaytiring.
Bundan so'ng, tirkama tebrantirilishi sababini bartaraf qilish uchun, yo'l chetiga haydab o'tish va tirkamani va avtomobilni tekshirish zarur. Bu, masalan, tirkamaning noto'g'ri yuklanishi yoki uning ortiqcha yuklanishi, mahkamlanmagan yuk, TQlga tirkamaning noto'g'ri mahkamlanishi, avtomobil yoki tirkamaning shinalarida havo bosimi buzilgan yoki shinalar noto'g'ri tanlan bo'lishi mumkin. Tirkamalarning parametrlari va ulash qurilmalarini o'rnatish bo'yicha tavsiyalarni Shataklash uchun asbob-uskunalar ⇨ 8-77da ko'ring.

Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bozorida tirkamani stabillashtirishning elektron qurilmalari

Alohida tirkamalarning jamlanmasiga tirkamaning tebrantirilishini susaytiruvchi yoki bartaraf qiluvchi elektron qurilmalar kirishi mumkin. Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bozorida shunga o'xshash qurilmalar taqdim etilgan, ular avtomobilni tirkama bilan ulash elektr simlariga ulanadi. Bunday qurilmalar o'rnatilgan stabillashtirish tizimini yoqib (agar u bor bo'lsa), tirkamaning tormoz tizimi va boshqa avtomobil tizimlarining ishlashiga xalallarni yuzaga keltirishi mumkin. Haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida tirkama ulanishi yoki uning tormozlari bilan bog'liq xabarnomalar paydo bo'lishi mumkin. Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish bozorida taqdim etilgan qurilmalarning o'rnatilishi tirkama tormozlarining ishlashiga va uning texnik-ekspluatatsiya ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilishi noma'lum.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish bozorida xarid qilingan tirkamani stabillashtirishning elektron qurilmalarini qo'llanilishi, tirkama tormozlarining texnik-ekspluatatsiya xarakteristikalarini pasayishiga, ularning ishdan chiqishiga va ular sababli avariya sodir bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa nosozliklarga olib kelishi mumkin. Siz va boshqa shaxslar jiddiy jarohatlar olishlari yoki halok bo'lishlari mumkin.

Bunday qurilmalarning biron biridan foydalanishni boshlashdan avval:

- Qurilma yoki tirkama ishlab chiqaruvchisidan ushbu markadagi, modeldagi va chiqarilish yilidagi avtomobil, hamda avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari bilan mos kelishlikning har tomonlama sinovlaridan o'tganligini bilib oling.
- Yo'lga jo'nashdan avval, tirkamaning tormozlarini ish qobiliyatini tekshiring, agar u bor bo'lsa. Tirkamali avtomobilni qoplamasi tekis bo'lgan transportdan bo'sh yo'lga haydab o'ting. Taxminan 32-40 km/soatgacha (soatiga 20-25 mil) oraliqdagi tezlikda harakatlanib, tirkama tormozlarini qo'lda harakatga keltirish pishangisini to'liq faollashtiring. Tirkama tormoz chiroqlarini va qolgan chiroqlarni ish qobiliyatini tekshiring.
- Agar tirkama tormozlari xatolik bilan

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

ishlayotgan yoki haydovchining axborot markazi (DIC) displeyi ekranida tirkama ulanishi yoki tormozlari bilan muammolar haqida xabarnomalar paydo bo'layotgan bo'lsa, yo'l sharoiti imkon berishi zahotiyoq yo'l chetiga ehtiyotkorlik bilan haydab o'ting.

Tirkama shinalari

Tirkamalar uchun maxsus shinalar (ST) avtomobillar uchun shinalardan farq qiladi. Tirkamalar uchun shinalar tebranishni oldini olish maqsadida va katta yuklamalarga bardosh berish uchun qattiq biqinlarga ega. Ushbu xususiyatlar faqat vizual ko'rik asosida tirkama shinalaridagi past bosimni aniqlashni murakkablashtirishi mumkin. Sovuq shinalarda har bir safar qilishdan avval tirkamadagi barcha shinalarni bosimini har doim tekshiring. Shinalardagi past bosim tirkama shinalarninig yirtilib ketishining asosiy sababi hisoblanadi. Tirkama shinalari vaqt o'tishi bilan yediriladi. Tirkama shinalarining biqinida shina ishlab chiqarilgan hafta va yil ko'rsatilgan. Tirkamalar uchun shinalarni ishlab chiqaruvchilarning ko'pchiligi har olti yildan keyin shinalarni almashtirilishini amalga oshirishni tavsiya etadi. Haddan ortiq yuklama tirkama shinalarining yirtilib ketishining boshqa asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Tirkamaning shinalariga hisoblangan og'irlikdan katta og'irlikka ega bo'lgan yuklarni tirkamada hech qanday holatda tashimang.

Yuklama indeksi tirkama uchun shinaning biqinida ko'rsatilgan.

Safar qilishdan oldin tirkamaning shinalari uchun maksimal tezlik indeksi haqida doimo yodda tuting. U avtomobil shinalarining tezlik indeksidan ahamiyatli past bo'lishi mumkin. Tezlik indeksi tirkama uchun shina biqinida ko'rsatilgan bo'lishi mumkin. Agar tezlik indeksi ko'rsatilmagan bo'lsa, tirkama uchun shinalar tezligi indeksi dastlabki bo'yicha 105 km/soat (65 mil/soat)ga teng qabul qilinadi.

AVTOMOBIL KONSTRUKSIYASINI O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHA ASBOB-USKUNALARNI O'RNATISH

Qo'shimcha elektr asbob-uskunalar

⚠ OGOHLANTIRISH!

Diagnostika ulagichi (DLC) avtomobilga xizmat ko'rsatish uchun, hamda chiqindi gazlar toksikligi/ta'mirlash sifatini nazorat qilinishini tekshirish uchun qo'llaniladi. Nosozlik signalizatori ("Check Engine" nazorat lampasi (dvigatelni tekshiring)) ⇨ 4-24ni ko'ring.
Diagnostika ulanishiga ulangan qurilma, masalan, haydovchining harakatlari yoki kafolatdan keyingi avtomobillarning ishlashi ustidan kuzatish qurilmalari, avtomobilning tizimlarini ishlashi buzishi mumkin. Bu avtomobilning ishlashiga salbiy ta'sir qilishi va avariya sababi bo'lib qolishi mumkin. Bunday qurilmalar, shuningdek, avtomobilning tizimlarida saqlanuvchi ma'lumotlarga kirishni olishi mumkin.

⚠ DIQQAT!

Muayyan elektr asbob-uskunalar avtomobil tizimlarini shikastlanishiga yoki ularning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatning ta'siri ostida bo'lmaydi. Qo'shimcha elektr asbob-uskunalarni o'rnatishdan avval, diler bilan maslahatlashish kerak.

⚠ OGOHLANTIRISH!

Muayyan avtomobil radio-asbob-uskunalar, masalan, kuchaytirgichlar yoki ikki tomonlama radioaloqa antennalari, alohida avtomobil tizimlarini ishlashiga xalallarni yaratishi mumkin.
Bunday asbob-uskunalarni tegishli lokal yerga ulanishini albatta tekshiring. Asbob-uskunaga barcha ilova qilinuvchi yo'riqnomalarga rioya qiling. Avtomobil radio asbob-uskunalarini o'rnatish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalarni olish uchun GM texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatilishi akkumulator batareyasining (12 V) quvvatsizlanishiga olib kelishi mumkin, hattoki avtomobil ekspluatatsiya qilinmagan vaqtda ham.
Sizning avtomobilda ishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi o'rnatilgan. Biron bir qo'shimcha elektr asbob-uskunalarni o'rnatishdan avval, Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga xizmat ko'rsatish ⇨ 2-35 va Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilda qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatish ⇨ 2-35 bo'limlarni mazmuni bilan tanishing.

IZOH

9 AVTOMOBILNI PARVARISHLASH

- UMUMIY MA'LUMOTLAR 9-2
- AVTOMOBILNI TEKSHIRISH 9-2
- FARALAR YORUG'LIGI YO'NALISHINI SOZLASH..... 9-23
- CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH..... 9-23
- ELEKTR TIZIMI 9-25
- G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR 9-36
- QO'SHIMCHA AKBDAN ISHGA TUSHIRISH..... 9-67
- AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH..... 9-71
- AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISHLASH.....9-72
- IZOH 9-82

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ehtiyot qismlar olish yoki texnik xizmat ko'rsatishni bajarish zarurati tug'ilganida mahalliy dilerga murojaat qiling.
Siz firma ehtiyot qismlarini olasiz, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni esa o'qitilgan va barcha zaruriy anjomlar bilan ta'minlangan texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar bajaradi.

Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari

Avtomobilga qo'shimcha nodiler asbob-uskunalarini o'rnatish yoki unga modifikatsiyalarni kiritish avtomobilning tortish-dinamik xarakteristikalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, xususan, shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlarining holatini, tormozlanish tizimini yomonlashtirishi, turg'unlik, harakatchanlik va boshqaruvchanlikka, chiqindi gazlarni nazorat qilish tizimiga, aerodinamikaga, uzoq xizmat qilishga va tormozlarni antibloklash tizimi, tortish kuchini sozlash tizimi va dinamik stabillashtirish tizimiga ta'sir etishi mumkin. shunday qo'shimcha asbob-uskunalarning yoki modifikatsiyalarning o'rnatilishi hattoki avtomobilga kafolat bilan qoplanmaydigan nosozliklarga yoki shikastlanishlarga olib kelishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi-zavodning tavsiyalarini buzish bilan yo'l bilan oraliq masofani o'zgartirilishi natijasida osmaning elementlarini shikastlanishi ckafolatli holat hisoblanmaydi.

Modifikatsiyalarni kiritilishi oqibatida, hamda GM kompaniyasi tomonidan sertifikatlanmagan detallarning o'rnatilishi yoki qo'llanilishi, jumladan boshqaruv modullari yoki dasturiy ta'minotning modifikatsiyasi sababi bo'yicha avtomobilning detallarini shikastlanishi, avtomobilga kafolatning amal qilishini tugatilishiga olib kelishi yoki o'zgartirish kiritilgan detallarga nisbatan kafolatlangan majburiyatlarga salbiy ta'sir qilishi mumkin.
GM kompaniyasining firma qo'shimcha asbob-uskunalari avtomobilning boshqa tizimlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan. O'z avtomobilingiz uchun firma qo'shimcha asbob-uskunalarni xarid qilish masalasi bo'yicha GM dileriga murojaat qilish kerak, uning mutaxassislari tanlangan asbob-uskunalarning o'rnatilishini malakali amalga oshirishi mumkin.
Shuningdek, Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga qo'shimcha asbob-uskunalarni o'rnatish ⇨ 2-35 bo'limni ko'ring.

AVTOMOBILNI TEKSHIRISH

Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarish

⚠ OGOHLANTIRISH!

Agar siz zaruriy bilimlarga, ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha hujjatlarga, instrumentlarga va ehtiyot qismlarga ega bo'lmasangiz, avtomobilda biron bir ishlarni mustaqil bajarish xavflidir. Xizmat ko'rsatish bo'yicha biron bir taomillarni o'tkazishdan avval ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanma va ta'mirlash va xizmat ko'rsatish bo'yicha yo'riqnomani tekshirib aniqlashtirib olishingiz shart.

Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarishda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha muvofiq qo'llanmadan foydalaning. U yerda, ekspluatatsiya bo'yicha qo'llanmaga qaraganda, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni qanday bajarish haqidagi ancha ko'proq ma'lumotlar saqlanadi.
Ushbu avtomobil shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi bilan jihozlangan. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarishdan avval Xavfsizlik yostiqlari bilan jihozlangan avtomobilga xizmat ko'rsatish ⇨ 2-35 bo'limga murojaat qiling.

Barcha detallarni olish, avtomobilning bosib o'tgan masofasini va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarilish sanalarini yozib boriluvchi jurnalni yuriting.

⚠ *DIQQAT!*

Hatto ahamiyatsiz ifloslanish avtomobilning tizimlariga zarar yetkazishi mumkin. Ishchi suyuqliklarga, bachoklarning qopqoplariga yoki moy o'lchovchi shchuplarga iflosliklarning tushib qolishiga yo'l qo'ymang.

Kapot

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobil avtomatik dvigatelni to'xtatish va ishga tushirish tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, kapot qopqog'ini ochishdan avval, o't oldirishni o'chirish lozim bo'ladi. Agar o't oldirishni yoqilgan holda qoldirilsa, kapot qopqog'ini ochishda dvigatel ishga tushadi. Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ishlab turgan dvigatel holatida kapot ostidagi fazoda qizib ketishi mumkin bo'lgan komponentlar o'rnatilgan. Terining himoyalanmagan maydonlarini kuydirmaslik uchun, issiq detallar sovigunicha ularga teginish yaramaydi. Terining issiq yuzalar bilan bevosita aloqa qilishidan saqlanish uchun qo'lqoplarni yoki sochiqni qo'llash shart.

Kapotning qopqog'ini ochishdan avval, uni qordan tozalash zarur. Kapotni ochish uchun:
1. belgili kapot qopqog'ining qulfini blokdan chiqarish pishangichidan torting. U uskunalar panelining chap qismida pastda joylashgan.



2. Kapotga yaqinlashing va markazda qopqoq ostida oldinda joylashgan qulf pishangchasini toping.
Kapot qopqog'ini ochish uchun, uni o'ng tomonga siljiting.
3. Kapotni ozgina ko'taring, bundan so'ng kapot avtomatik ko'tariladi va gaz tayanchlari tizimi ta'siri ostida to'liq ochiq holatda tutib turiladi.

Kapotni yopish uchun:

1. Kapotni yopishdan avval, quyish bo'yinchalarining barcha qopqoqlari o'rnatilganligiga va zich qotirilganligiga, barcha instumentlar esa olib qo'yilganligiga ishonch hosil qilish kerak.
2. Kapotni, toki gaz tayanchlari tizimi uni tutib turishdan to'xtagunicha, pastga torting.
3. Kapot o'zining shaxsiy og'irligi ostida tushishi uchun, uni qo'yib yuboring. Qulf kapot qopqog'ini ishonchli qayd qilganiga ishonch hosil qiling. Zarurat tug'ilganida, qo'shimcha kuchni berib, taomilni takrorlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar kapot qopqog'i to'liq yopilmagan bo'lsa, harakatlanishni boshlash taqiqlanadi. Qopqoq ko'rish maydonini to'qib qo'yib, ochilib ketishi, bu avariyaga olib kelishi mumkin.
Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Harakatlanishni boshlashdan avval, kapot qopqog'i ishonchli yopilganligiga ishonch hosil qilish zarur.

Agar harakatlanib ketayotgan avtomobil holatida kapot to'liq yopilmagan bo'lsa, haydovchining axborot markazi displeyida muvofiq xabar chiqarilgan bo'ladi. Avtomobilni to'xtating va uni o'chiring, kapot uchun to'siqlarni mavjudligini tekshiring va kapotni qayta yoping. Haydovchining axborot markazi displeyida xabar paydo bo'lmaganligini tekshiring.

Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi



1. Chiqarilgan manfiy (-) klemma. Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 9-67ni ko'ring.
2. Musbat (+) klemma. Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 9-67ni ko'ring.
3. Akkumulator batareyasi ⇨ 9-18.
4. Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki ⇨ 9-27.
5. Motor moyi sathining moy o'lchash shchupi. Motor moyi ⇨ 9-5 bo'limda "Motor moyini tekshirish" bo'limini ko'ring.
6. dvigatelni sovitish ventilatorlari (ko'rish maydonidan tashqarida). Sovutish tizimi ⇨ 9-10ni ko'ring.
7. Dvigatelni moy quyish bo'yinchasi qopqog'i. Motor moyi ⇨ 9-5 bo'limda "Motor moyini qanday qo'shimcha quyish kerak" bandini ko'ring.
8. Sovituvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi va saqlagich klapanli qopqoq. Sovutish tizimi ⇨ 9-10ni ko'ring.
9. Dvigatelning havo filtri ⇨ 9-9.
10. Tormoz suyuqligi bachogi. Tormoz suyuqligi ⇨ 9-17ni ko'ring.
11. Old oyna yuvgichi suyuqligi uchun bachok. Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-15 bo'limda "Yuvgich suyuqligini to'ldirish" bandini ko'ring.

Motor moyi

Dizel dvigatelli avtomobillar bo'yicha Duramax dizel dvigatel haqidagi ilovada "Motor moyi" bo'limini ko'ring.

Dvigatelning tegishli ishchi xarakteristikalarini va uning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlash uchun motor moyiga alohida e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. O'z investitsiyalaringizni muhofaza qilish uchun, ushbu quyidagi keltirilgan oddiy, ammo muhim bo'lgan talablarga rioya qiling:

- Zarur qayishqoqlikdagi, tasniflanishga muvofiqlikka sertifikatlangan moylarni qo'llang. Ushbu bo'limda "Tegishli motor moyini tanlash" paragrafni ko'ring.
- Motor moyining sathini muntazam tekshiring va uni tegishli sathini qo'llab turing. Ushbu bo'limda "Motor moyini tekshirish" va "Motor moyini qachon qo'shimcha quyish kerak" paragraflarini ko'ring.
- Motor moyini o'z vaqtida almashtiring. Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-7ni ko'ring.
- Ishlatilgan motor moyini har doim tegishli tarzda utilizatsiya qilish kerak. Ushbu bo'limda "Ishlatilgan motor moyi bilan qanday munosabatda bo'lish kerak" paragrafini ko'ring.

Motor moyini tekshirish

Motor moyining sathini muntazam, har bir 650 km (400 mil), hamda uzoq masofalarga safar qilishdan oldin tekshirish zarur. Dvigatel karterida moyning sathini o'lchash uchun shchupning tutqichi halqa ko'rinishida ishlangan. Uning joylashish joyi Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4 bo'limda ko'rsatilgan.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Shchupning tutqichi qizib ketgan bo'lishi mumkin, unga teginib, kuyish mumkin. Shchupning tutqichidan faqat uning ustiga lattani tashlab qo'yib yoki qo'lqoplarni kiyib ushlash kerak.

Agar haydovchining axborot markazi (DIC) displeyida moyning past sathi haqida xabar aks ettirilayotgan bo'lsa, uning sathini qo'lda tekshirish zarur.

Quyida keltirilgan tavsiyalarga rioya qiling:

- Natija aniq bo'lishi uchun, nishablikka ega bo'lmagan tekis maydonga avtomobilni joylashtiring. Moyning sathini dvigatel o'chirilishidan keyin kamida ikki soat o'tgandan keyin tekshirish kerak. Agar avtomobilni qiyalikdagi yuzada to'xtatilsa yoki dvigatelni to'xtatishdan keyin zarur vaqt kutib turmasdan tekshirishni ushbu holatda o'tkazilsa, natija noto'g'ri bo'ladi. Sovuq dvigatelda, uni ishga tushirishdan oldin, sathni tekshirish ancha aniq natijalarni beradi. Moy o'lchaydigan shchupni chiqarib oling va moyning sathini tekshiring.
- Agar siz ikki soat kutish imkoniga ega bo'lmasangiz, agar dvigatel qizdirilgan bo'lsa, kamida 15 minut, agar dvigatel qizdirilmagan bo'lsa, 30 minut kuting. Shchupni sug'urib oling, uni toza latta bilan artib oling va joyiga o'rnating. Sathning nayzali ko'rsatkichini, uni uchini pastga qaratib ushlab turgan holda, qayta chiqarib oling va motor moyining sathini tekshiring.

Motor moyini qachon qo'shimcha quyish kerak

Agar dvigatelni o'chirgandan keyin kamida 15 minut kutish bilan o'lchash natijalari bo'yicha moyning sathi shchup uchidagi kertikli maydondan past bo'lsa, tavsiya etilgan moyning bir litrini (bir kvartani) qo'shimcha quying. Quyida ushbu bo'limda "Tegishli motor moyni tanlash" bandini ko'ring, u yerda motor moyining qaysi turini qo'llash kerakligi haqida tushuntirish berilgan. Dvigatel karterida motor

moyining tegishli hajmi To'ldirish idishlari ⇨ 11-3 bo'limda ko'rsatilgan.

⚠ *DIQQAT!*

Juda ko'p moyni qo'shish lozim bo'lmaydi. Sathning nayzali ko'rsatkichi bo'yicha ruxsat etilgan ishchi diapazondan ko'proq yoki kamroq motor moyni qo'shib quyish dvigatel uchun zararlidir. Agar motor moyining sathi ishchi diapazondan yuqoriga ko'tarilgan bo'lsa (ya'ni, dvigatelda, motor moyi sathining tegishli ishchi diapazoniga ko'rsatuvchi kesishuvchan shtrixovka zonasidan yuqori bo'lib qolganida, motor moyining ortiqcha miqdori mavjud), dvigatel ishdan chiqishi mumkin. Moyning ortiqchasini to'king yoki avtomobilda harakatlanishni cheklang va ortiqcha moyni olib tashlash uchun texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qiling.

Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4 bo'limni ko'ring,
u yerda dvigatelning moy quyish bo'yinchasi qopqog'ining joylashish joyi ko'rsatilgan. Motor moyining sathi tegishli ishchi diapazonda bo'lishi uchun uning yetarlicha miqdorini qo'shimcha quying. Tekshirish yakunlanganidan keyin sathning nayzali ko'rsatkichini quvurchaga tiralgunicha qayta o'rnating.

O'rnatilgan tarzdagi motor moyini tanlash

O'rnatilgan tarzdagi motor moyini tanlanishi kerakli texnik xarakteristikalar va moyning qayishqoqligi bilan belgilanadi. Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13ni ko'ring.

Texnik xarakteristikalar

Dexos 1 tasniflanishi talablariga muvofiq keluvchi to'liq sintetik motor moyini qo'llang. GM kompaniyasining dexos1™ tasniflanishiga muvofiq keluvchi motor moyli idish dexos1 logotipiga ega bo'lishi kerak.

dexos™1
GM APPROVED - GEN 3

⚠ *DIQQAT!*

Ushbu qoidalarga amal qilmaslik dvigatelning shikastlanishiga va kafolatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Qayishqoqlik navi

SAE 0W-20 motor moyini qo'llang.
Qayishqoqlik bo'yicha moyni tanlashda, u tasniflanishlarga muvofiq kelishini tekshirish tavsiya etiladi.
"Tasniflanish" bandini yuqorida ushbu bo'limda ko'ring.

Motor moyiga qo'shimchalar/Moylash tizimini yuvish

Motor moyiga biron bir narsalarni qo'shish taqiqlanadi. Dvigatelning tegishli ishchi xarakteristikalarini ta'minlash va uni himoyalash uchun dexos1 tasniflanishiga muvofiq keluvchi tavsiya etiluvchi motor moyini qo'llash yetarli bo'ladi.
Moylash tizimini yuvish tavsiya etilmaydi, bu taomil avtomobilga kafolat ta'sir qilmaydigan dvigatelning ishdan chiqishga olib kelishi mumkin.

Ishlangan motor moy bilan nima qilish kerak

Ishlangan motor moy teriga salbiy ta'sir qiluvchi ba'zi komponentlarni saqlaydi, ular hatto saratonni chaqirishi mumkin. Motor moyining odam terisi bilan uzoq muddatli aloqasiga yo'l qo'ymang. Terini va tirnoqlarni sovun bilan suvda yoki qo'llarni yuvish uchun yaxshi vosita bilan yuving. Ishlangan motor moyi bilan ifloslangan kiyimlarni yoki lattalarni yuving yoki tegishli tarzda utilizatsiya qiling. Neft mahsulotlarini qo'llash va ularni utilizatsiya

qilishga nisbatan ishlab chiqaruvchini ogohlantirishlarini ko'ring.
Ishlangan moy atrof-muhit uchun havf tug'dirishi mumkin. Agar siz motor moyini mustaqil almashtirayotgan bo'lsangiz, moyni tashlab yuborishdan avval, uning hammasini ishlangan filtrdan to'kib oling.
Motor moyini maishiy chiqindilar uchun konteynerlarga yoki yerga, kanalizatsion kollektorlarga, hamda ariqlarga yoki ko'llarga to'kib yuborish taqiqlanadi. Motor moyini ishlangan moyni to'plash joyida qayta ishlashga topshirish lozim.

Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi

Motor moyini qachon almashtirish kerak

Ushbu avtomobilning elektron tizimi moyni va filtrni almashtirish zarurati haqida o'z vaqtida ogohlantiradi. Bu dvigatelning aylanish chastotasi, dvigatel harorati va avtomobilning bosib o'tgan masofasi kabi shunday omillar bilan birgalikda bog'liq bo'ladi. Haydash sharoitlariga bog'liq holda motor moyini almashtirish zarurati bosib o'tilgan masofaning turlicha qiymatlarida yuzaga kelishi mumkin. Tizimning me'yorda ishlashi uchun moyni har bir almashtirilishidan keyin uni bekor qilinishini bajarish zarur.
Ba'zi avtomobillarda, agar tizim motor moyining xizmat muddati pasayganligini aniqlasa, moyni almashtirish zaruratiga ko'rsatuvchi CHANGE ENGINE OIL SOON (DVIGATELNING MOYINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA) xabari paydo bo'ladi.
Iloji boricha tezroq almashtirish zarur, moyni almashtirishgacha ruxsat etilgan safar — 1 000 km (600 mil)dan ortiq emas.
Ma'lum sharoitlarda (haydashning maqbul sharoitlarida) tizim 1 yilgacha moyni almashtirish zarurati haqida signal uzatib turishi mumkin. Motor moyi va filtrni bir yilda kamida bir marta almashtirish zarur, bir vaqtning o'zida tizimni bekor qilinishini talab etiladi. CHANGE ENGINE OIL SOON (DVIGATELNING MOYINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA) xabari ko'zda tutilmagan avtomobillarda, moyning almashtirilishi REMAINING OIL LIFE (MOTOR MOYINING QOLGAN RESURSI) qiymati 0%ga yaqinlashayotgan talab etiladi. Sizning dileringizda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitilgan mutaxassislar bor, ular ushbu ishni bajarishadi va tizimning bekor qilinishini amalga oshiradi.
Bundan tashqari, moyni sizib chiqishlar mavjudligiga muntazam tekshirish va zaruriy sathni qo'llab turish muhimdir.
Agar tizimda tasodifan bekor qilish amalga oshirilgan bo'lsa, moyning oxirgi almashtirilish paytidan 5000 km (3000 mil) safar qilishdan keyin, uni almashtirish kerak. Moyning har bir almashtirilishidan keyin tizimni bekor qilinishini bajarilishini unutmang.

Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimini bekor qilish

Tizim moyning keyingi almashtirilishi vaqtini to'g'ri hisoblashi uchun, uni moyning har bir almashtirilishida bekor qilish zarur.
Moyning har bir almashtirilishidan keyin motor moyining xizmat qilish muddatini 100%ga bekor qilish zarur.
U avtomatik bekor qilinmaydi. Motor moyining xizmat qilish muddatini nazorat qilish tizimi ko'rsatkichlarini bekor qilish tartibi:
1. Haydovchining axborot markazi displeyiga moyning xizmat qilish muddati foyizini chiqaring. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.
2. Agar avtomobilda haydovchining axborot markazini boshqarish organlari mavjud bo'lmasa, rul chambaragidagi g'ildirakchali sozlagichni yoki joriy safar qilish hisoblagichini bekor qilish poyachasini bosing va uni bir necha sekund davomida ushlab turing. Tasdiqlovchi xabar aks ettirilgan vaqtda, "YES (HA)"ni tanlang. Moyning xizmat qilish muddati 100%ga teng qilib o'rnatiladi.
Moyning xizmat qilish muddati hisoblagichini bekor qilishning boshqa usuli:
1. Haydovchining axborot markazi displeyiga moyning xizmat qilish muddati foyizini chiqaring. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy

jamlanma) ⇨ 4-35ni ko'ring.
2. Besh sekund davomida akselerator tepkisini tiralgunicha uch marta asta-sekin bosing.
3. Agar ekrandagi son 100%ga o'zgarsa, tizimni bekor qilish bajarilgan bo'ladi.
Agar avtomobilda "CHANGE ENGINE OIL SOON (DVIGATELNING MOTOR MOYINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA)" xabari ko'zda tutilgan va u avtomobil ishga tushirilishida qayta chiqarilsa va/yoki moyning xizmat qilish muddatining foizi 0%ga yaqinlashayotgan bo'lsa, demak, motor moyining xizmat qilish muddati bekor qilinmagan bo'ladi. Ushbu taomilni takrorlang.

Avtomatik uzatmalar qutisi uchun suyuqlik

KAUO'Q uchun suyuqlikni qachon tekshirish va almashtirish kerak

Odatda, uzatmalar qutisidagi suyuqlik sathini tekshirish shart emas. Suyuqlikning yo'qolishini yagona sababi uzatmalar qutisidan sizib chiqish yoki qutining haddan tashqari qizib ketishi hisoblanadi. Ushbu avtomobil uzatmalar qutisi uchun suyuqlik sathi nayzali ko'rsatkichi bilan jihozlanmagan. Bunday avtomobillar uchun uzatmalar qutisida suyuqlikning sathini tekshirish va uni almashtirishning maxsus taomili mavjuddir. Ushbu taomil sermashaqqat bo'lganligi sababli, uni TXKSda bajarish lozim bo'ladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun mahalliy dilerga murojaat qiling.

⚠ *DIQQAT!*

Mos kelmaydigan transmission suyuqlikning qo'llanilishida avtomobil shikastlanishi mumkin, va bunday shikastlanish avtomobilga kafolat ta'siri ostida bo'lmaydi. Har doim Tavsiya etilgan suyuqliklar va moylash materiallari ⇨10-13dagi ro'yxatga kiruvchi transmission suyuqliklarni qo'llang.

Suyuqlik va filtrning almashtirilishi "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3" bo'limda keltirilgan texnik xizmat ko'rsatish jadvali bo'yicha bajarish lozim.
“Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13" bo'limda ko'rsatilgan transmission suyuklikni qo'llash shart.

Dvigatelning havo filtri resursi hisoblagichi

Ushbu funksiya (muvofiq jamlanmada) dvigatelning havo filtrini qoldiq resursi va almashtirishning maqbul muddati haqida xabardor qiladi.
Dvigatelning havo filtrini almashtirishning maqbul muddati haydashning va atrof-muhitning sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Dvigatelning havo filtrini qachon almashtirish kerak

Haydovchining axborot markaziga (DIC) moyning keyingi almashtirilishidan keyin dvigatelning havo filtrini almashtirish zarurati haqida xabar chiqarilayotganida, ushbu almashtirish muddatiga amal qiling.
DICga yaqin vaqtda dvigatelning havo filtrini almashtirish zarurati haqida xabar chiqarilayotgan vaqtda, birinchi imkoniyat paydo bo'lishida filtrni almashtiring.
Dvigatelni havo filtri almashtirilishidan keyin uning resursi hisoblagichini bekor qilish kerak.
Agar DICda dvigatelning havo filtri tizimini tekshirish zarurati haqida xabar chiqarilayotgan bo'lsa, o'z dileringizga murojaat qiling.

Dvigatelning havo filtrini xizmat qilish muddatini nazorat tizimini bekor qilinishini qachon bajarish kerak

Bekor qilish uchun:
1. Avtomobil UO'Q selektorini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.
2. DIC displeyiga Air Filter Life (Havo filtrining xizmat qilish muddati) parametrini chiqaring. Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-36 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-34ni ko'ring.
3. Reset/Disable (Bekor qilish/O'chirish) ekraniga o'tish uchun, rul chambaragidagi g'ildirakchaga bosing. Reset (Bekor qilish)ni tanlang va bir necha sekundga g'ildirakchaga

bosing.
4. Bekor qilishni tasdiqlash uchun, g'ildirakchaga bosing.

Dvigatelning havo filtri

Dvigatelning havo filtri haydovchi tomonida motor bo'linmasida joylashgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4ni ko'ring.

Dvigatelning havo filtrini qachon tekshirish kerak

Agar avtomobil dvigatelning havo filtri xizmat qilish muddatini nazorat tizimi bilan jihozlanmagan bo'lsa, filtrni tekshirish va almashtirish davriyligi haqidagi ma'lumotlarni olish uchun dilerga murojaat qiling.

Dvigatelning havo filtrini tekshirish/almashtirish tartibi

Havo filtrining korpusi ochilgan dvigatelni ishga tushirish va ekspluatatsiya qilish lozim bo'lmaydi. Havo filtrini yechib olishdan avval, uning korpusi atrofidagi fazoni ifloslardan va changdan tozalang. Havo filtrini va uning elementlarini suv bilan yoki siqilgan havo bilan tozalash taqiqlanadi.

Havo filtrini tekshirish yoki almashtirish uchun:



1. Uchta vintni burab bo'shating, qopqoqni engashtiring va uni korpusdan ajratib oling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar biron bir detalni almashtirish zarur bo'lsa, almashtirish uchun xuddi o'sha artikul raqamidagi yoki o'xshashidagi ehtiyot qismni qo'llash kerak. Boshqa o'rnatish o'lchamlariga ega bo'lgan yoki almashtiriluvchi detaldan shakli yoki funksionalligi bilan farq qiluvchi detalning qo'llanilishi odamlarga jarohat yetkazish yoki avtomobilni shikastlash sababi bo'lib qolishi mumkin.

2. Dvigatelning havo filtrini tekshiring va zarurat tug'ilganida uni almashtiring.
3. Joyi bo'yicha qopqoqni o'rnating, uni korpus ustiga suring va uchta vintlar bilan qotiring.
4. Dvigatelning havo filtrini almashtirishdan keyin filtrning xizmat qilish muddati hisoblagichini bekor qiling (agar mavjud bo'lsa). Dvigatelning havo filtri resursi hisoblagichi ⇨ 9-8ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Havo filtrisiz dvigatelning ishlashi atrofda bo'lgan odamlarni kuyishiga olib kelishi mumkin. Dvigatelda ishlarni bajarishda ehtiyotkorlikka rioya qiling. Havo filtri yechib qo'yilgan dvigatelni ishga tushirmang yoki ekspluatatsiya qilmang, chunki dvigatelda qayta chaqnashlarda alanganing paydo bo'lish ehtimoli bor.

⚠ *DIQQAT!*

Havo filtri yechilgan holatda iflosliklar osongina dvigatelga tushadi va uni ishdan chiqarishi mumkin. Havo filtrisiz avtomobilni ekspluatatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sovutish tizimi

Sovitish tizimi dvigatelning tegishli ishchi haroratini ko'llab turilishini ta'minlaydi.



1. Dvigatelni sovitishning elektr ventilatorlari
2. Sovituvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi va saqlagich klapanli qopqoq

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Kapot ostidagi elektr ventilator hatto ishlamayotgan dvigatelda ham yoqilishi va sizga jarohat yetkazishi mumkin. Qo'llarni, kiyim-kechaklarni va instrumentlarni kapot ostida joylashgan elektr ventilatordan uzoqroqda ushlab turish lozim.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Isitgich yoki radiatorning shlanglariga, yoki dvigatelning boshqa detallariga teginmang. Ular juda ham issiq bo'lishi va kuyish sababi bo'lib qolishi mumkin. Sizib chiqish holatida dvigatelni ekspluatatsiya qilmang; butun sovituvchi suyuqlik sizib ketishi mumkin. Bu dvigatelning yonib ketishiga va kuyish jarohati yetkazishiga olib kelishi mumkin.
Avtomobil harakatlanishni boshlashidan avval barcha sizib chiqishlarni bartaraf qiling.

Dvigatelni sovituvchi suyuqligi

Sizning avtomobilingizni dvigatelini sovituvchi tizimiga DEX-COOL sovituvchi suyuqlik quyilgan. U 5 yil ekspluatatsiyadan keyin yoki 240 000 km (150 000 mil)dan so'ng almashtirilishi kerak, qaysi biri avval boshlanishiga bog'liq holda.
Quyida sovutish tizimi tuzilmasi va sovituvchi suyuqlikni sathi pasayishi holatida uni tekshirish va qo'shimcha quyish usuli tushuntiriladi.

Agar dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi sodir bo'layotgan bo'lsa, Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi ⇨9-13 bo'limga murojaat qiling.

Qanday suyuqlikni qo'llash kerak

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Toza suv yoki spirt kabi boshqa suyuqliklar, tegishli tarzdagi sovituvchi suyuqlikning qaynashi bilan taqqoslash bo'yicha vaqtliroq qaynashi mumkin. Agar sovutish tizimiga toza suv yoki muvofiq kelmaydigan sovituvchi aralashma quyilsa, dvigatel haddan tashqari qizib ketishi mumkin, ammo, bunda, haddan tashqari qizib ketish haqida ogohlantirish aks ettirilmaydi. Bu dvigatelni alangalanishiga va haydovchining yoki uning yonida bo'lgan odamlarning kuyishiga olib kelishi mumkin.

Toza ichimlik suvi va DEX-COOL sovituvchi suyuqliginining 50/50 aralashmasini qo'llang. Bunday aralashma:

- −37 °C (−34 °F) havo haroratida muzlamaydi
- 129 °C (265 °F)gacha qizishida qaynamaydi
- Zang va korroziyadan himoya qiladi
- Alyumin detallarni shikastlamaydi
- Dvigatelning tegishli haroratini qo'llab turishga yordam beradi

⚠ *DIQQAT!*

Biron bir boshqa suyuqliklarni qo'llamang, GM GMW3420 standartining talablariga muvofiq keluvchi DEX-COOL sovituvchi suyuqligini toza ichimlik suvi bilan aralashma bundan mustasno. Barcha qolgan suyuqliklar avtomobilga amal qiluvchi kafolat ostida bo'lmaydigan dvigatelning va avtomobilning sovitish tizimini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Ishlatilgan sovituvchi suyuqlikni maishiy chiqindilar uchun konteynerlarga va yerga, kanalizatsiya kollektorlariga, daryolarga va suv havzalariga to'kish taqiqlanadi.
Sovituvchi suyuqlikni almashtirilishini avtorizatsiyalangan servis markazlarida bajarish kerak, ularning mutaxassislari ishlatilgan sovituvchi suyuqlikni utilizatsiyasiga nisbatan qonunchilik talablarini biladi. Bu atrof-muhitni va sizning sog'lig'ingizni muhofaza qilishga yordam beradi.

Sovituvchi suyuqlikni tekshirish

Sovituvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi haydovchi tomonida avtomobilning motor bo'linmasida joylashgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4ni ko'ring.
Sovituvchi suyuqlikning sathini tekshirish vaqtida avtomobil gorizontal yuzaga joylashtirilgan bo'lishi kerak.



Kengaytiruvchi bachokda sovituvchi suyuqlik mavjudligini vizual tekshiring.
Agar kengaytiruvchi bachokdagi sovituvchi suyuqlik qaynayotgan bo'lsa, u sovigunicha kutib turing. Sovituvchi suyuqlikning sathi to'liq sovuq hajmning belgisidan past bo'lmasligi kerak. Agar bu shunday bo'lmasa, ehtimol, sovitish tizimida sizib chiqish mavjud bo'lishi mumkin.
Agar sovituvchi suyuqlik ko'rinib turgan bo'lsa, ammo uning sathi to'liq sovuq hajmning belgisidan pastda joylashgan bo'lsa, quyidagi "Sovituvchi suyuqlik uchun kengaytiruvchi bachokka sovituvchi suyuqlikni qanday qo'shimcha quyish kerak" bo'limni ko'ring.

Sovituvchi suyuqlik uchun kengaytiruvchi bachokka sovituvchi suyuqlikni qanday qo'shimcha quyish kerak

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Dvigatelning issiq detallariga sovituvchi suyuqlikning to'kilishi kuyishlarning sababi bo'lib qolishi mumkin. Sovituvchi suyuqlikning tarkibiga etilenglikol kiradi, u dvigatel detallari yetarlicha yuqori haroratga ega bo'lgan holatda qaynaydi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Toza suv yoki spirt kabi boshqa suyuqliklar, tegishli tarzdagi sovituvchi suyuqlikning qaynashi bilan taqqoslash bo'yicha vaqtliroq qaynashi mumkin. Agar sovutish tizimiga toza suv yoki muvofiq kelmaydigan sovituvchi aralashma quyilsa, dvigatel haddan tashqari qizib ketishi mumkin, ammo, bunda, haddan tashqari qizib ketish haqida ogohlantirish aks ettirilmaydi. Bu dvigatelni alangalanishiga va haydovchining yoki uning yonida bo'lgan odamlarning kuyishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Issiq sovitish tizimidagi bug' va qaynayotgan suyuqlik bosim ostida bo'ladi. Hattoki saqlagich klapaniga ega bo'lgan qopqoqning ozgina buralishi ularning katta tezlikda chiqishiga olib kelishi, bu esa kuyishlar sababiga olib kelishi mumkin. Issiq sovituvchi tizimdagi qopqoqni, jumladan saqlagich klapanli qopqoqni burash taqiqlanadi. Sovitish tizimi va saqlagich klapanli qopqoq sovigunicha kuting.

⚠ *DIQQAT!*

Sovituvchi suyuqlikni to'ldirishning maxsus taomiliga rioya qilmaslik dvigatelning haddan tashqari qizib ketishiga olib kelishi va tizimning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin. Agar sovituvchi suyuqlik kengaytiruvchi bachokda ko'rinmayotgan bo'lsa, o'z dileringiz bilan bog'laning.

Agar kengaytiruvchi bachokda sovituvchi suyuqlik ko'rinmayotgan bo'lsa, uni qo'shimcha quying.

1. Sovitish tizimi, kengaytiruvchi bachokning saqlagich klapanli qopqog'i va radiatorning tepa shlangi sovishidan keyin kengaytiruvchi bachokning saqlagich klapanli qopqog'ini yechib oling.
Saqlagich klapanli qopqoqni soat strelkasiga qarama-qarshi taxminan yarim aylanaga asta-sekin burang. Agar chiqayotgan bug'ning vishillashi eshitilsa, ovoz chiqishi to'xtagunicha kuting. Vishillash tizimda hali bosim mavjudligini anglatadi.
2. Saqlagich klapanli qopqoqni asta-sekin burashda davom eting va uni yechib oling.



3. Kengaytiruvchi bachokka to'liq sovuq hajm belgisigacha to'g'ri tarkibdagi sovituvchi suyuqlikni quying.
4. Sovituvchi suyuqlikning kengaytiruvchi bachogi qopqog'i yechib qo'yilganida dvigatelni ishga tushiring va ko'rsatkich bo'yicha sovituvchi suyuqlikning harorati taxminan 90 °C (195 °F)ga erishilmagunicha ishlab turish imkonini bering.
Ushbu paytda kengaytiruvchi bachokdagi sovituvchi suyuqligini sathi pasayishi mumkin. Agar sovituvchi suyuqlikning sathi pasaygan bo'lsa, to'liq sovuq hajm belgisigacha zaruriy proporsiya eritilgan sovituvchi suyuqlikni kengaytiruvchi bachokka qo'shimcha qayta quying.
5. Saqlagich klapanli qopqoqni o'rnating va zichlab qotiring.

6. Dvigatelni o'chirish va sovituvchi suyuqlikning sovishidan keyin sovituvchi suyuqlikning sathini tekshiring.
Zarurat bo'yicha sovituvchi suyuqlikni to'ldirish taomilini 1-6-qadamlarini takrorlang.

⚠ *DIQQAT!*

Agar saqlagich klapanli qopqoq zichlab o'rnatilmagan bo'lsa, sovituvchi suyuqlikning sizib chiqish va dvigatelning shikastlanish ehtimoli bor.
Qopqoq tegishli tarzda va zichlab yopilganligiga ishonch hosil qiling.

Dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi

⚠ *DIQQAT!*

Sovituvchi suyuqliksiz dvigatelning ishga tushirilishi avtomobilning jiddiy shikastlanishiga yoki uning alangalanishiga olib kelishi mumkin.
Avtomobilning shunga o'xshash shikastlanishlariga kafolat shartlari amal qilmaydi.

Avtomobilda dvigatelning haddan tashqari qizib ketganligi haqida ogohlantiruvchi bir nechta indikatorlar mavjud.
Avtomobilning uskunalar panelida dvigatelning sovituvchi suyuqligining harorati ko'rsatkichi va muvofiq ogohlantiruvchi nurli indikator mavjuddir. Dvigatelning sovituvchi suyuqligi harorati indikatori ⇨4-19 va dvigatelning sovituvchi suyuqligi harorati signalizatori ⇨ 4-31 bo'limlarni ko'ring.
Shuningdek, haydovchining axborot markazida ENGINE OVERHEATED STOP ENGINE (Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni o'chiring), ENGINE OVERHEATED IDLE ENGINE (Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni bo'sh yurishga o'tkazing) va ENGINE POWER ISREDUCED (Dvigatelning quvvati cheklangan) xabarlari ko'zda tutilgan.
Agar ushbu ogohlantirish paydo bo'lganida haydovchi kapotni ko'tarmaslikka qaror qabul qilgan bo'lsa, texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga zudlik bilan murojaat qilish zarur bo'ladi.
Agar ushbu ogohlantirish paydo bo'lishida haydovchi kapotni ko'tarishga qaror qabul qilgan bo'lsa, avtomobil gorizontal yuzaga to'xtab turishga joylashtirilganiga ishonch hosil qilish zarur bo'ladi.
Dvigatelni sovitish ventilatorlari aylanayotganligini tekshiring. Agar dvigatel haddan tashqari qizib ketayotgan bo'lsa, ventilatorlar aylanishi kerak. Agar ular aylanmayotgan bo'lsa, dvigatelning kelajakdagi ekspluatatsiyasini to'xtatish zarur. Avtomobilni ta'mirlashga topshiring.

⚠ *DIQQAT!*

Dvigatelni sovitish tizimida sizib chiqish mavjud bo'lgan holatda dvigatelni ekspluatatsiya qilmang. Bu sovituvchi suyuqlikning yo'qotilishiga olib kelishi va tizimning yoki avtomobilning ishdan chiqish sababi bo'lib qolishi mumkin. Yuzaga kelgan sizib chiqishlarni zudlik bilan bartaraf qiling.

Agar motor bo'linmasidan bug' chiqayotgan bo'lsa

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Issiq sovitish tizimidagi bug' va qaynayotgan suyuqlik bosim ostida bo'ladi. Hattoki saqlagich klapaniga ega bo'lgan qopqoqning ozgina buralishi ularning katta tezlikda chiqishiga olib kelishi, bu esa kuyishlar sababiga olib kelishi mumkin. Issiq sovituvchi tizimdagi qopqoqni, jumladan saqlagich klapanli qopqoqni burash taqiqlanadi. Sovitish tizimi va saqlagich klapanli qopqoq sovigunicha kuting.

Agar motor bo'linmasidan bug' chiqmayotgan bo'lsa

Sovituvchi suyuqlikning past sathi bilan ENGINE OVERHEATED STOP ENGINE (Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni o'chiring) yoki ENGINE OVERHEATED IDLE ENGINE (Dvigatel

haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni bo'sh yurishga o'tkazing) xabarining paydo bo'lishi jiddiy nosozlikning belgisi bo'lishi mumkin. Agar dvigatelning haddan tashqari qizib ketishi haqida xabar paydo bo'lganida, ammo bug' ko'rinmayotgan yoki eshitilmayotgan bo'lsa, ehtimol, nosozlik juda ham jiddiy emas. Ba'zida dvigatel quyidagi holatlarda ahamiyatsiz haddan tashqari qizib ketishi mumkin:

- Issiq kunda toqqa uzoq chiqish vaqtida.
- Yuqori tezlikda safar qilishdan keyin to'xtash vaqtida.
- Avtomobil tirbandliklarida bo'sh yurishda dvigatelning uzoq vaqt davomida ishlashi vaqtida.
- Tirkamani shataklash vaqtida, "Tirkamani shataklash ⇨ 8-69" bo'limni ko'ring.

Agar ENGINE OVERHEATED STOP ENGINE (Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni o'chiring) yoki ENGINE OVERHEATED IDLE ENGINE (Dvigatel haddan tashqari qizib ketgan, dvigatelni bo'sh yurishga o'tkazing) xabari paydo bo'layotgan, ammo bunda bug' ko'rinmayotgan bo'lsa, bir-ikki minutga quyidagilarni qilishga urinib ko'ring:

1. Havo konditsionerini o'chiring.
2. Isitgichni maksimal haroratga, ventilatorni esa aylanishning maksimal chastotasiga o'tkazing. Zarurat tug'ilganida oynalarni oching.
3. Bu xavfsiz bo'lganida, yo'l chetiga o'ting, uzatmalar qutisini P (to'xtab turishga joylashtirish) yoki N (neytral) holatga o'rnating va dvigatelga bo'sh aylanishlarda ishlashiga imkon bering.

Agar sovituvchi suyuqlik haroratini ko'rsatkichining strelkasi haddan tashqari qizib ketish zonasida boshqa joylashmagan yoki haddan tashqari qizib ketish haqidagi ogohlantirish boshqa aks ettirilmayotgan bo'lsa, avtomobilda harakatlanishni davom ettirish mumkin. Taxminan 10 minut davomida avtomobilda asta-sekin harakatlanishni davom ettiring. Oldinga ketayotgan avtomobilgacha xavfsiz masofaga amal qiling. Agar ogohlantirish qayta paydo bo'lmayotgan bo'lsa, harakatlanishni odatiy rejimda davom ettiring, so'ngra suyuqlik sathini va sovitish tizimi ish layoqatligini tekshirish lozim bo'ladi. Agar ogohlantirish takroran chiqarilayotgan bo'lsa, yo'l chetiga haydab o'ting, to'xtang va avtomobilni darhol to'xtab turishga joylashtiring. Agar bug' hali ko'rinmayotgan, avtomobil esa dvigateldan yuritma bilan sovituvchi ventilator bilan jihozlangan bo'lsa, akseleratorga bosish bilan odatiy bo'sh yurishdan taxminan ikki marta yuqori keladigan chastotagacha dvigatelning aylanishlarini yetkazing, va to'xtab turishga joylashtirilgan avtomobilga kamida besh minut ushbu rejimda ishlab turishga imkon bering. Agar ogohlantirish saqlanib qolayotgan bo'lsa, dvigatelni o'chirish, hamma avtomobildan chiqishi va u sovishini kutish zarur.

Agar bug' ko'rinmayotgan bo'lsa. to'xtab turishga joylashtirishdan keyin besh minut dvigatelga bo'sh aylanishlarda ishlash imkonini bering. Agar ogohlantirish avvalgidek displeyda paydo bo'layotgan bo'lsa, dvigatelni o'chiring va u sovishini kuting.

Dvigatel ventilatori

Agar avtomobilda sovitishning elektr ventilatorlari mavjud bo'lsa, deyarli har doim kundalik safar qilishda ularning past tezlikda aylanishi eshitilishi mumkin.

Agar sovitish talab etilmasa, ventilatorlar yoqilmasligi mumkin. Avtomobilning katta yuklanishida, tirkamani shataklashda, atrof-muhitning yuqori haroratida, hamda konditsionerlash tizimining ishlashi vaqtida, ventilatorlarning aylanish tezligi ortish ehtimoli bor, buning natijasida ular tomonidan tarqatiluvchi shovqin ancha aniqroq eshitilishi mumkin. Bu nosozlik alomati hisoblanmaydi va sovitish tizimi me'yorda ishlayotgani haqida dalolat beradi. Qo'shimcha sovitish ehtiyoji g'oyib bo'lgan vaqtda, ventilatorlarning aylanish tezligi pasayadi.

Dvigatelni sovitishning elektr ventilatorlari dvigatel o'chirilganidan keyin aylanishda davom etishi mumkin. Bu me'yordagi holat hisoblanadi va xizmat ko'rsatish o'tkazilishi zarurati haqida dalolat bermaydi.

Yuvgich suyuqligi

Agar avtomobil yuvgichi suyuqligi sathi indikatori bilan jihozlangan bo'lsa, u holda yuvgich bachogida suyuqlikning past sathida haydovchining axborot markazida (DIC) muvofiq xabar aks ettiriladi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan to'plam) ⇨ 4-37 Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy to'plam) ⇨ 4-35da qarang.

Qanday suyuqlikni qo'llash lozim

⚠ *DIQQAT!*

- Suv yuqmaydigan qo'shimcha qo'shilgan yuvgich suyuqligini qo'llash taqiqlanadi. Bu cho'tkalarning titrashiga yoki oynaning notekis tozalanishiga olib kelishi mumkin.
- Old oyna yuvgichida dvigatelning sovituvchi suyuqligini (antifrizni) qo'llash taqiqlanadi. Bu suyuqlik old oyna yuvgichi tizimini va avtomobilning lak-bo'yoq qoplamasini shikastlashi mumkin.
- Yuvgich uchun qo'llash uchun tayyor suyuqlikga suv qo'shish yaramaydi. Suv eritmaning muzlab qolishiga va yuvgich suyuqligi uchun bachokning va yuvgich tizimining boshqa detallarini ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin.
- Yuvgich uchun konsentratsiyalangan suyuqlikni qo'llashda suyuqlikni eritish uchun suvning miqdorini ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasida ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Kuchli sovuq ob-havoda yuvgich suyuqligi uchun bachokni faqat to'rtdan uch qismigacha to'ldiring. Bu muzlab qolishda suyuqlikka kengayish imkonini beradi, aks holda chetigacha to'ldirilgan bachokka muzlab qolgan suyuqlik tomonidan shikast yetkazilishi mumkin.

Yuvgich suyuqligini qo'shishdan avval ishlab chiqaruvchining yo'riqnomasi bilan tanishib chiqing. Harorat noldan pastga tushib ketishi mumkin bo'lgan hududlarda avtomobil ekspluatatsiya qilinishida muzlab qolishga qarshi yetarlicha himoyaga ega bo'lgan suyuqlikni qo'llang.

Yuvgichga suyuqlikni qo'shish

Yuvgich ramzi tushirilgan qopqoqni oching. Toki bachok to'lmagunicha, yuvgich uchun suyuqlikni qo'shimcha quying. Bachokning joylashish joyini Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4 bo'limida ko'ring.

Tormoz tizimi

Disk tormozlarining tormoz nakladkasi o'rnatilgan yedirilish indikatorlariga ega, ular tormoz nakladkalarining yedirilish holatida g'ichirlovchi tovushni chiqaradi, u yedirilgan tormoz nakladkalari o'rniga yangisini o'rnatish zarurati haqida ogohlantiradi. Tovush paydo bo'lishi va g'oyib bo'lishi yoki avtomobil harakatlanishi vaqtida eshitilishi mumkin, haydovchi tormoz tepkisiga kuch bilan bosgan vaqtdagi holatlar bundan mustasno.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tormoz kolodkalarining yedirilishi haqida ogohlantiruvchi tovush tormozlar yaqin vaqtda soz ishlashdan to'xtashini anglatadi. Bu avariyaga olib kelishi mumkin.

Agar tormoz kolodkalarining yedirilishi haqida ogohlantiruvchi tovush uzatilayotgan bo'lsa, avtomobilga texnik xizmat ko'rsatishni bajarish zarur bo'ladi.

⚠ *DIQQAT!*

Yedirilgan tormoz kolodkalariga ega bo'lgan avtomobilni ekspluatatsiya qilinishining davom ettirilishi tormoz tizimining qimmatbaho ta'mirlanish sababi bo'lib qolishi mumkin.

Avtomobilning muayyan ekspluatatsiya sharoitlarida yoki iqlim sharoitlarida tormozlar bir nechta birinchi qo'llashda g'ichirlashi mumkin, bundan so'ng g'ichirlash g'oyib bo'ladi. Bu tormoz mexanizmlarining nosozligini anglatmaydi.
G'ildirak gaykalarining tegishli tarzda tortib qotirilishi tormoz mexanizmlarining titrashini oldini olish uchun zarurdir. G'ildiraklarning o'rnini almashtirishda tormoz kolodkalarini yedirilganligini tekshiring va tortib qotirishning muvofiq momenti bilan tegishli tartibda g'ildirak gaykalarini bir tekis tortib qotiring. Yonilg'i quyish idishlari ⇨ 11-3ni ko'ring. Tormoz kolodkalarini o'qda jamlanmada almashtirish kerak.

Tormoz tepkisining yurishi

Agar tormoz tepkisi me'yordagi balandlikka qaytmayotgan yoki agar tepkining yurishi tez oshayotgan bo'lsa, dilerga murojaat qiling. Bu tormoz tizimiga texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilish zaruratiga ko'rsatishi mumkin.

Tormoz tizimining detallarini almashtirish

Tormoz tizimining eski detallarini faqat firma ehtiyot qismlariga almashtirish kerak. Aks holda, tormoz tizimining soz ishlashi kafolatlanmasligi mumkin. Tegishli bo'lmagan ehtiyot qismlarini qo'llash yoki ularni noto'g'ri o'rnatish holatida tormozlanish xarakteristikalari ko'p jihatdan o'zgarishi mumkin.

Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatini nazorat tizimi

Tormoz kolodkalarini qachon almashtirish kerak

Ushbu avtomobil oldingi va orqa tormoz kolodkalarining qoldiq xizmat qilish muddatlarini baholash tizimi bilan jihozlangan.
Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddati har bir o'q uchun foiz qiymatlari bilan haydovchining axborot markazi displeyida aks ettiriladi. Tormoz kolodkalarini har gal almashtirishda tizim ko'rsatkichlarini bekor qilinishini bajarish zarur.
Tizim tormoz kolodkalarini almashtirish zarur deb aniqlaganida, displeyga muvofiq xabar, ehtimol, qolgan safar qilish masofasini ko'rsatish bilan chiqarilishi mumkin.
Tormoz kolodkalarini avtomobilning har bir o'qida to'liq jamlanmada almashtirish kerak.

Tormoz kolodkalarini xizmat qilish muddatini nazorat tizimi ko'rsatkichlarini bekor qilinishini qachon bajarish kerak

Tizim ahamiyatli yedirilgan tormoz kolodkalarini almashtirilishini avtomatik aniqlaydi. Yangi yedirilish datchiklari bilan yangi kolodkalarni o'rnatishdan keyin o't oldirish yoqilishida, displeyga muvofiq xabar chiqarilgan bo'ladi. Tizimning ko'rsatkichlarini bekor qilish uchun, ekrandagi yo'l-yo'riqlarga amal qiling.
Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatini nazorat tizimini ko'rsatkichlarini, shuningdek, qo'lda bekor qilish mumkin:
1. Haydovchining axborot markazi displeyiga tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddati chiqariladi. "Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35" bo'limlarini ko'ring.
2. Brake Pad Life (Tormoz kolodkalarini xizmat qilish muddati) menyusini tanlang.
3. Muvofiq tarzda oldingi yoki orqa kolodkalarni tanlang.
4. Tasdiqlovchi xabarga javoban YES (Ha)ni tanlang. Yuqorida tavsiflangan harakatlarni boshqa o'qqa nisbatan takrorlang, agar unda, shuningdek, tormoz kolodkalari almashtirilgan bo'lsa.

Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatini nazorat tizimini qanday o'chirish mumkin

Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatini nazorat tizimini o'chirib qo'yish mumkin.
Bunday zarurat ehtiyot qismlari sifatida xarid qilingan yedirilish datchiklarisiz tormoz kolodkalarining o'rnatilishi holatida yuzaga kelishi mumkin. Tizim o'chirilgan vaqtda, oldingi va orqa tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatining foizli qiymatlari aks ettirilmaydi. Biroq, tormoz kolodkalarini almashtirish vaqti kelganligini, avvalgidek o'rnatilgan yedirilish indikatorlari tomonidan kolodkalarning yedirilishida uzatiluvchi yuqori tondagi ogohlantiruvchi tovush bo'yicha

aniqlash mumkin. Tormoz tizimi ⇨ 9-15ni ko'ring. Tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddatini nazorat tizimini o'chirish tartibi:
1. Haydovchining axborot markazi displeyiga tormoz kolodkalarining xizmat qilish muddati chiqariladi. "Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35" bo'limlarini ko'ring.
2. Brake Pad Life (Tormoz kolodkalarini xizmat qilish muddati) menyusini tanlang.
3. DISABLE (O'chirilsin) buyrug'ini tanlang. Tormoz kolodkalarini xizmat qilish muddatini nazorat tizimini qayta yoqish uchun, yuqorida tavsiflangan harakatlarni bajaring, ammo 2-qadamda ENABLE (Yoqilsin) buyrug'ini tanlang.

Tormoz suyuqligi

Bosh tormoz silindirining bachogiga bachok qopqog'ida ko'rsatilgani kabi GM tomonidan sertifikatlashtirilgan DOT 4 tormoz suyuqligi quyilgan. Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4 bo'limni ko'ring, u yerda bachokning joylashish joyi ko'rsatilgan.

Tormoz suyuqligini tekshirish

Avtomobilni gorizontal yuzaga joylashtiring va uzatmalar qutisining selektor pishangisini P (to'xtab turish) holatiga o'tkazing. Bachokdagi tormoz suyuqligining sathi bachok devorida tepa va past belgilar orasida joylashgan bo'lishi kerak.
Bachokdagi suyuqlik sathi faqat quyidagi ikki sabab bo'yicha pasayishi mumkin:
- Tormoz kolodkalarining tabiiy yedirilishi oqibatida. Yangi tormoz kolodkalarini o'rnatishda suyuqlik qayta ko'tariladi.
- Tormoz tizimining gidroyuritmasida sizib chiqish sababli. Tormoz tizimining gidroyuritmasini ta'mirlanishini bajaring. Sizib chiqish mavjudligida tormoz tizimi soz holda faoliyat yuritmasligi mumkin.

Tormoz suyuqligiga ega bo'lgan bachokdan qopqoqni yechib olishdan avval, har doim qopqoq o'zini va uning atrofidagi zonani tozalab olish kerak.
Tormoz suyuqligini qo'shimcha quyish yaramaydi. Suyuqlikni qo'shimcha quyilishi sizib chiqishni bartaraf qilmaydi. Agar suyuqlik yediriligan tormoz kolodkalarida qo'shimcha quyilsa, yangi tormoz kolodkalarini o'rnatishda tizimda juda ko'p suyuqlik mavjud bo'lib qolishi mumkin. Zarurat bo'yicha suyuklikni qo'shimcha quyilishi yoki to'kib yuborilishi faqat tormoz tizimining gidroyuritmasi bilan ishlarni o'tkazilishidan keyin qilish kerak.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> Suyuqlikning juda ko'p qo'shimcha quyilishi holatida u dvigatel ustiga to'kilishi va, agar dvigatel yetarlicha issiq bo'lsa, yonib ketishi mumkin. Bu dvigatelni shikastlanishiga va haydovchining yoki uning yonida bo'lgan odamlarning kuyishiga olib kelishi mumkin.
> Tormoz suyuqligini qo'shimcha quyilishini faqat gidraklik tormoz tizimi bilan ishlar yakunlanganidan keyin qilish mumkin.

Agar tormoz suyuqligining sathi minimal darajagacha pasayib ketayotgan bo'lsa, tormoz tizimining signal lampasi yonadi. Tormoz tizimining nazorat lampasi ⇨ 4-26ni ko'ring.
Vaqt o'tishi bilan tormoz suyuqligi suv bilan to'yinadi, buning natijasida uning samaradorligi pasayadi. Tormoz yo'lini ortib ketishidan

saqlanish uchun, ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan davriylik bilan tormoz suyuqligini almashtirish lozim. Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨10-3ni ko'ring.

Qanday suyuqlikni qo'shish kerak

Faqat muhrlangan idishdan GM tomonidan sertifikatlashtirilgan DOT 4 suyuqligini qo'llang. Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Tormoz suyuqligining noto'g'ri tanlanishi yoki unda ifloslanishlarning mavjudligi tormoz tizimining shikastlanishiga olib kelishga qodir. Bu uning ishdan chiqish va YTH natijasida odamlarning jarohat olishi sababi bo'lib qolishi mumkin. Faqat GM tomonidan sertifikatlangan tavsiya etilgan tormoz suyuqligini qo'llang.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobilning laklangan/bo'yalgan yuzalariga to'kilgan tormoz suyuqligi, ularni shikastlashi mumkin.
Lak-bo'yoq qoplamalaridan syuuqlikning izlarini zudlik bilan artib yuborish kerak.

Akkumulator batareyasi

Firma akkumulator batareyasi xizmat ko'rsatilishini talab ham etmaydi. Qopqoqni ochish va qo'shimcha suv quyish lozim emas.
Agar yangi akkumulator batareyasini o'rnatish talab etilayotgan bo'lsa, dastlab ishlatilgan batareyaning yopishtirma yorlig'ida almashtirish uchun batareyaning raqamini toping. Akkumulator batareyasining joylashish joyini Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4 bo'limida ko'ring.
Avtomobil 12 volt kuchlanishga ega bo'lgan AGM turidagi akkumulator batareyasi bilan jihozlangan. Standart 12-voltli akkumulator batareyasining o'rnatilishi 12-voltli akkumulator batareyasining xizmat qilish muddatini qisqarishiga olib keladi.
12-voltli akkumulator batareyalari uchun quvvatlash qurilmasining AGM texnologiyasiga ega bo'lgan 12-voltli akkumulator batareyasi bilan qo'llashda ba'zi quvvatlash qurilmalarida AGM akkumulator batareyasi uchun maxsus sozlama mavjuddir. Agar mavjud bo'lsa, quvvatlash kuchlanishini 14,8 voltgacha cheklash uchun quvvatlash qurilmasida AGM sozlamasini qo'llang. Quvvatlash qurilmasining ishlab chiqaruvchisining yo'riqnomalariga rioya qiling.

Start-stop tizimi

Ushbu avtomobil yonilg'i sarfini pasaytirish uchun dvigatelni o'chiruvchi avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimiga ega. Avtomatik to'xtatish/ishga tushirish tizimi ⇨ 8-19ni ko'ring

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil akkumulator batareyasining yaqinida gugurtlardan yoki ochiq alangadan foydalanish taqiqlanadi. Agar yorug'lik kerak bo'lsa, fonarchadan foydalaning.
Avtomobil akkumulator batareyasi yaqinida chekish taqiqlanadi.
Avtomobil akkumulator batareyasi yaqinida ishlarni bajarishda himoya qo'zoynaklarini taqib olish kerak bo'ladi.
Bolalarni avtomobil akkumulator batareyasiga yaqinlashtirmang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Akkumulator batareyasida kislota mavjuddir, u kuyishlar keltirishi mumkin, bundan tashqari, batareyalar portlash xavfi bo'lgan gazlarni ajratib chiqaradi. Ular bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lishda jiddiy jarohatlar olish mumkin.
Akkumulator batareyasi yaqinida ishlarni bajarishda yo'riqnomalarga aniq rioya qilish lozim bo'ladi.
Akkumulator batareyasining klemma uchlari, klemmalar va muvofiq anjomlar qo'rg'oshinni yoki qo'rg'oshin birikmalarini saqlashi mumkin, ular saratonni chaqirishi va odamning reproduktiv faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin. Ishlarni bajarib bo'lgandan so'ng qo'llarni yuvib oling.

Avtomobilni saqlash

Kamdan-kam qo'llash: Batareya quvvatsizlanmasligi uchun, akkumulator batareyasidan qora manfiy (-) simni yechib qo'ying. Uzoq muddatli saqlash: Akkumulator batareyasidan qora manfiy (-) simni yechib qo'ying yoki kichik tokka ega bo'lgan akkumulator batareyasini uzluksiz quvvatlash uchun qurilmadan foydalaning.

To'liq yuritma

Tarqatish qutisi

Moylash moyini qachon tekshirish kerak

Moylash moyini qachon tekshirilishini aniqlash uchun, "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨10-3" bo'limni ko'ring.

Moylash moyini qanday tekshiriladi



1. Quyish tirqishining qopqog'i
2. To'kish tirqishining qopqog'i

Aniq ko'rsatkichlarni ta'minlash uchun, avtomobil gorizontal yuzaga joylashtirilishi zarur bo'ladi.

Agar moy sathi tarqatish qutisida mavjud bo'lgan quyish tirqishining (1) pastki chetidan past bo'lsa, u holda ozgina moylash moyidan qo'shimcha quyish zarur.
Moylash moyini sathini quyish tirqishining (1) pastki chetigacha ko'tarish uchun, uni yetarlicha miqdorda qo'shimcha quying.
Qopqoqni juda qattiq qotirishga urinmang.

Moylash moyini qachon almashtirish kerak

Moylash moyini qanchalik tez-tez almashtirish kerakligini aniqlashtirish uchun, "Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨ 10-3" bo'limni ko'ring.

Qanday suyuqlikni qo'llash kerak

Moylash moyining kerakli turini aniqlashtirish uchun, Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13bo'limni ko'ring.

Oynani almashtirish

Moylash moyini qachon tekshirish kerak

Oldingi differensialdagi moyni faqat sizib chiqish yoki noodatiy shovqin holatida tekshirish zarur. Suyuqlikning kamayib borishi nosozlik mavjudligiga ko'rsatadi. Tarqatuvchi qutini tekshirish va ta'mirlash zarur.
Taomillar majmuasini bajarish talab etilishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.
Tarqatuvchi qutining salniklariga va (yoki) oldingi va orqa ko'priklarning reduktorlariga bosim ostidagi suv oqimini yo'naltirmang.

Bosim ostidagi suv salniklar orqali ichkariga kirib borishi va moy bilan aralashishi mumkin. Moyda suvning mavjudligi tarqatuvchi qutining va (yoki) yetakchi ko'priklarning resursini pasaytirilishiga olib keladi. Suv bilan ifloslangan moyni almashtirish kerak.

Orqa ko'prik

Moylash moyini qachon tekshirish kerak

Orqa differensialdagi moy tekshirilishi faqat sizib chiqish yoki noodatiy shovqin paydo bo'lishida amalga oshiriladi.

Suyuqlikning kamayib borishi nosozlik mavjudligiga ko'rsatadi. Tarqatuvchi qutini tekshirish va ta'mirlash zarur. Taomillar majmuasini bajarish talab etilishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

Tarqatuvchi qutining salniklariga va (yoki) oldingi va orqa ko'priklarning reduktorlariga bosim ostidagi suv oqimini yo'naltirmang. Bosim ostidagi suv salniklar orqali ichkariga kirib borishi va moy bilan aralashishi mumkin. Moyda suvning mavjudligi tarqatuvchi qutining va (yoki) yetakchi ko'priklarning resursini pasaytirilishiga olib keladi. Suv bilan ifloslangan moyni almashtirish kerak.

To'xtab turish tormozini va P to'xtab turishga joylashtirish mexanizmini tekshirish

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ushbu tekshiruvni bajarishda avtomobil harakat qilishni boshlashi mumkin. Bu haydovchini va uning yaqinida joylashgan odamlarning jarohat olishiga yoki mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobil oldida, agar avtomobil harakatlanishni boshlaydigan holatga yetarlicha joy mavjudligiga ishonch hosil qiling. Agar avtomobil harakatlanishni boshlasa, tormoz tepkisiga darhol bosishga tayyor turing.

Avtomobilni nishablik bo'yicha pastga yo'naltirib, yetarlicha qiya qiyalikda to'xtab turishga o'ting. Tormoz tepkisida oyog'ingizni ushlab turib, to'xtab turish tormozini tortib qo'ying.

- To'xtab turish tormozining avtomobilni harakatsiz ushlab turish qobiliyatini tekshirish uchun: Ishlab turgan dvigatelda va uzatmalar qutisining N (neytral) holatga o'rnatilganida tormoz tepkisidan oyog'ingizni asta-sekin qo'yib yuboring. Ushbu harakatlarni toki avtomobil faqat to'xtab turish tormozi bilan tutib turilgunicha bajaring.
- P to'xtab turishga joylashtirish mexanizmini avtomobilni harakatsiz ushlab turish qobiliyatini tekshirish uchun: Ishlab turgan dvigatelda P (to'xtab turishga joylashtirish) uzatmasini yoqing. Bundan so'ng, to'xtab turish tormozini bo'shating, so'ngra esa tormoz tepkisini qo'yib yuboring.

Mahalliy dilerga murojaat qiling va texnik xizmat ko'rsatish talab etilayotganligini bilib oling.

Oyna tozalagichning cho'tkalarini almashtirish

Old oyna oyna tozalagichining cho'tkalarini eskirganlik yoki yoriqlar mavjudligiga tekshirish kerak.

Mos keluvchi tur va o'lchamlarni "Texnik xizmat ko'rsatish uchun ehtiyot qismlar ⇨ 10-14" bo'limda ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Old oynaga oyna tozalagichning cho'tkalari o'rnatilmasdan oyna tozalagichning pishangisining teginishi holatida unga shikastlanish yetkazilishi mumkin.

Ushbu oqibatda har qanday yuzaga kelgan shikastlanishlar kafolatli hisoblanmaydi. Old oynaga cho'tkasiz oyna tozalagich pishangisini tushirish taqiqlanadi.

Oldingi oyna tozalagichlarning cho'tkalarini almashtirish

To'plamda oyna tozalagich cho'tkasini almashtirish uchun:

1. Old oynaga qarama-qarshi yo'nalish bo'ylab yig'ilgan holatda old oyna tozalagichining cho'tkasini torting.



2. Oyna tozalagichning pishangisini ulagichi markazida joylashgan tugmaga bosing va pishangi ulagichidan oyna tozalagich cho'tkasini sug'urib oling.
3. Oyna tozalagichning cho'tkasini yechib oling.
4. Oyna tozalagich cho'tkasini joyiga o'rnatish uchun, 1-3-harakatlarni teskari tartibda bajaring.

Orqa oyna tozalagich cho'tkalarini almashtirish

Orqa oyna tozalagichning cho'tkasini almashtirish uchun:

1. Orqa oyna tozalagichining ishsiz holatda bo'lib turganida, tozalagich va uning cho'tkasiga yetib borish uchun, ko'tarma oynani oching.

Orqa oyna tozalagichining cho'tkasi vertikal holatda bloklanmaydi, shuning uchun, uni avtomobildan chetlashtirishda ehtiyot bo'ling.



2. Ilgakni bo'shatib olish uchun ulash pishangisiga (2) bosing va to'plamdagi cho'tkadan (3) oyna tozalagichning pishangisini itarib chiqarib yuboring.
3. Oyna tozalagichning pishangisi ilgagiga yangi cho'tkani ishonchli o'rnating, bunda uni pishangini uzish chertkisigacha joyiga itarib kiritish kerak.
4. Tozalagich cho'tkali pishangini qayta oyna yuzasiga tushiring.

Oynani almashtirish

Agar old yoki oldingi yon tomon oynasini almashtirish zarur bo'lsa, almashtiriluvchi oynaning aniq parametrlari haqidagi ma'lumot uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Old oynani almashtirish

Haydovchiga yordam tizimlari

Old oynani almashtirish talab etilayotgan, avtomobil esa haydovchiga yordam tizimlari uchun sensor oldingi kamera bilan jihozlangan bo'lsa, GM kompaniyasining almashtiriluvchi old oynasini qo'llash tavsiya etiladi. Almashtiriluvchi old oyna to'g'ri tekislanishi uchun GM kompaniyasining texnik talablari bilan muvofiqlikda o'rnatilishi kerak. Aks holda, ushbu tizimlar tegishli tarzda ishlamasligi mumkin, displeyga xabar chiqarishi yoki umuman ishlamasligi mumkin. Old oynani to'g'ri almashtirish uchun o'z dileringizga murojaat qiling.

Gaz tayanchlari

Avtomobil kapot/yukxona/orqa ko'tariluvchi eshikni ko'tarish va to'liq ochiq holatda ushlab turilishini yengillashtiruvchi gazli prujinalar bilan jihozlangan bo'lishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Kapot, yukxona va/yoki orqa ko'tarma eshikning ochiq holatda tutib turuvchi gaz tayanchlarining ishdan chiqishi holatida, siz yoki uchinchi shaxslar jiddiy jarohatlar olishingiz mumkin. Xizmat ko'rsatish uchun avtomobilni o'z dileringizga zudlik bilan yetkazing. Yedirilish. yoriqlar yoki boshqa shikastlanishlarning belgilari mavjudligiga gaz tayanchlarning vizual nazoratini davriy bajaring. Kapot/yukxona/orqa ko'tarma eshik yetarlicha kuch bilan ochiq holatda tutib turilganligiga ishonch hosil qiling. Agar tayanchlar kapot/yukxona/orqa ko'tarma eshikni tutib turmayotgan bo'lsa, ulardan foydalanmang. Avtomobilni ta'mirlashga topshiring.

⚠ *DIQQAT!*

Gaz tayanchlariga tasmalarni qo'llamang va ularning ustiga biron bir buyumlarni osmang. Shuningdek, gaz tayanchlariga bosmang va ularni tortmang. Bu avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Texnik xizmat ko'rsatish jadvali ⇨10-3ni ko'ring.



Kapot



Orqa ko'tarma eshik



Yukxona

FARALAR YORUG'LIGINI YO'NALISHINI SOZLASH

Oldingi faraning qiyalik burchagini sozlash
Faralar yorug'ligini yo'nalishini sozlash ishlab chiqaruvchi tomonidan bajarilgan, keyingi sozlash talab etilmaydi.
Agar avtomobil YTH oqibatida shikastlangan bo'lsa, faralar yorug'ligining sozlamasi buzilgan bo'lishi mumkin. Agar faralarning yorug'lik dastasiga tuzatish kiritish bajarilishi talab etilsa, TXKSga murojaat qilish lozim.

CHO'G'LANMA LAMPALARNI ALMASHTIRISH

Cho'g'lanma lampalarni almashtirish

Cho'g'lanma lampani almashtirish
Lampalarni almashtirish uchun yoki ushbu bo'limda keltirilmagan lampalarni almashtirish taomili bo'yicha mos keluvchi turini aniqlash uchun, o'z dileringiz bilan bog'laning.

⚠ *DIQQAT!*
Cho'g'lanma lampalarni ikkilamchi bozorda taklif etilayotgan nurdiodli lampalarga almashtirmang. Bu avtomobilning elektr asbob-uskunalarini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Nurdiodli yoritish
Avtomobilda bir nechta fonarlar ishlatiladi, ularda odatiy lampalar o'rniga nurdiodlar qo'llaniladi. Nurdiodli yoritish uskunalarni almashtirish uchun TXKSga murojaat qilish kerak.

Orqa gabarit chiroqlar, burilish ko'rsatkichlari, stop-signal chiroqlari, orqaga yorish chiroqlari

Bazaviy darajadagi orqa chiroq



1. Stop-signal
2. Burilish ko'rsatkichi
3. Orqaga yurib harakatlanish chirog'i

Lampani almashtirishda zichlagichlarni almashtirish tavsiya etiladi. O'z dileringizga murojaat qiling. Ushbu chiroqning cho'g'lanma lampalaridan birini almashtirish uchun:
1. Yuk bo'linmasining orqa eshigini oching.

2. Lo'kidonlarni bo'shatish uchun qoplamaning o'rta qismini avtomobilning markaziga tortib, yechib oling.

3. Lo'kidonlarni bo'shatish orqa chiroqning pastda joylashgan qopqoqni tepa va pastki qismidan pastga tortib, uni yechib oling.

4. Orqa chiroqning ikki vintini yechib oling

5. Orqa chiroqni avtomobildan chiqarib olish uchun, uni to'plamdan orqaga siljiting.
6. Lampani patronini soat strelkasiga qarama-qarshi tomonga burang.
7. Patrondan lampani qiyshaytirmasdan chiqarib oling.
8. Lampani almashtiring va 1-6-qadamlarda tavsiflangan teskari ketma-ketlikda montajni bajaring.

ELEKTR TIZIMI

Elektr tizimning ortiqcha yuklanganligi

Avtomobilda yuklamalardan elektr tizimini himoyalash uchun saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar o'rnatilgan.

Agar yuklama tok juda baland bo'lsa, avtomatik o'chirgich, yuklama tokning me'yordagi qiymatgacha tiklanishi yoki nosozlikni bartaraf qilish paytigacha elektr zanjirni himoyalab, uziladi va ulanadi. Bu elektr tizimida nosozlik oqibatida elektr zanjirining yuklamasi va yong'inning ehtimolini ahamiyatli pasaytiradi.

Saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar avtomobildagi qurilmalarga elektr energiyasining uzatilishini ta'minlovchi simlarni himoya qiladi.

Agar yo'lda nosozlik yuzaga kelayotgan va saqlagichni almashtirish talab etilayotgan bo'lsa, quvvatsizlangan bo'lishi mumkin bo'lgan o'sha zanjirdan saqlagichlar blokidan xuddi o'sha nominal tokga ega bo'lgan saqlagichni olish lozim. Buning uchun avtomobilning funksiyasini tanlang, uni hozirgi paytga qo'llash shart emas, va keyinchalik saqlagichni darhol o'z o'rniga qaytaring.

Saqlagichning holatini tekshirish uchun, uning ichidagi eruvchan ulagichni ko'ring. Agar ushbu tasmali sim uzilgan yoki erigan bo'lsa, saqlagichni almashtiring.

Kuygan saqlagichni xuddi o'sha o'lchamdagi va nominaldagi yangi saqlagichga almashtirish zarur.



Kuygan saqlagichni almashtirish

1. Dvigatelni o'chiring.
2. Uskunalar panelida old qopqoqda saqlagichlar yechgichini toping.

Uskunalar panelida saqlagichlar bloki ⇨ 9-30ni ko'ring.



3. Uni saqlagichni tepadan yoki yon tomondan tutib olish uchun yuqorida illustrasiyada ko'rsatilgani kabi qo'llang.
4. Agar saqlagichni darhol almashtirish zarur bo'lsa, uskunalar panelining old qopqog'ida, shuningdek, ehtiyot saqlagichlar mavjud.
Bundan tashqari, xuddi shunday tok kuchiga ega bo'lgan almashtiriluvchi saqlagichni saqlagichlar blokidan olib turish mumkin. Avtomobilning ekspluatatsiya xavfsizligiga ta'sir qilmaydigan xuddi o'sha zanjirdagi saqlagichni oling. 2-3-bandlarda tavsiflangan harakatlarni takrorlang.
5. Almashtirish uchun tanlangan saqlagichni kuygan saqlagichning iniga o'rnating.
Birinchi imkoniyat paydo bo'lganida kuygan saqlagichni almashtirish uchun dilerga murojaat qiling.

Faralarning elektr simlari

Elektr ortiqcha yuklama lampalarning yoqilishiga va o'chirilishiga, ba'zi holatlarda esa to'liq o'chishiga olib kelishi mumkin. Agar lampalar yonayotgan va o'chayotgan yoki umuman yonmayotgan bo'lsa, faralarning elektr simlarini zudlik bilan tekshiring.

Old oyna oyna tozalagichlari

Agar oyna tozalagichning elektr dvigateli qor yoki muzning katta miqdori sababli qizib ketayotgan bo'lsa, old oyna oyna tozalagichlari to'xtaydi va faqat elektr dvigatel soviganidan keyin qayta ishlashni boshlaydi.
Garchi elektr zanjir ortiqcha yuklamalardan himoyalangan bo'lsada, qor yoki muzning katta miqdorining mavjudligi sababli oyna tozalagichning pishangi mexanizmining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Old oyna onya tozalagichlaridan foydalanishdan oldin old oynadan imkon boricha qor va muzni olib tashlash lozim bo'ladi.
Agar ortiqcha yuklama qor yoki muzdan emas, balki elektr nosozlik bilan chaqirilgan bo'lsa, ushbu nosozlikni bartaraf qilish kerak.

Saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar

Avtomobildagi elektr simlar zanjirlari saqlagichlar va avtomatik o'chirgichlar birikmasi yordamida qisqa tutashuvlardan himoyalangan. Bu elektr tizimining nosozligi sababli shikastlanishlarning yuzaga kelish ehtimolini ahamiyatli pasaytiradi.

⚠ *XAVF-XATAR!*

Saqlagichlar va o'chirgichlar ularning nominal toki bilan markirovka qilingan.
Saqlagichlarni va o'chirgichlarni almashtirayotganda ko'rsatilgan nominal tokni oshirmang. Katta nominal tokga ega bo'lgan saqlagichlarning yoki o'chirgichlarning qo'llanilishi avtomobilning yonib ketishiga olib kelishi mumkin. Siz yoki boshqa shaxslar jiddiy jarohatlar olishlari yoki halok bo'lishlari mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Gmning asl saqlagichlarining texnik xarakteristikalariga muvofiq kelmaydigan saqlagichlarning o'rnatilishi yoki qo'llanilishi xavflidir. Saqlagichlar ishlamasligi mumkin, bu yong'inga olib keladi. Bu odamlarning jarohat olishi yoki ularni o'limiga olib kelishi, hamda avtomobil ham shuningdek shikastlanishi mumkin.

Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari ⇨ 9-2 va Umumiy ma'lumotlar ⇨ 9-2 bo'limlarni ko'ring.
Saqlagichlarni tekshirish va almashtirish tartibini Elektr tizimning ortiqcha yuklanishi ⇨ 9-25da ko'ring.

Motor bo'linmasidagi saqlagichlar bloki
Motor bo'linmasining saqlagichlar bloki haydovchi tomonida avtomobilning motor bo'linmasida joylashgan.

Saqlagichlar blokiga kirish uchun, qopqoqni ko'taring.

⚠ *DIQQAT!*
Avtomobilning elektr detallariga to'kilgan suyuqlik uni ishdan chiqarishi mumkin. Har qanday elektr detallarining qopqoqlarini har doim yopish kerak.



Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
1	–
2	–
3	–
4	–
6	ELM 7 – tashqarini yoritish bloki 7
7	ELM 4 – tashqarini yoritish bloki 4
8	–
9	ELM 5 – tashqarini yoritish bloki 5
10	ELM 6 – tashqarini yoritish bloki 6
11	Zaxira
12	–
13	Oldingi yuvgich
14	Orqa yuvgich
15	REC 2 – orqa markaziy elektr blok 2

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
16	Avtonom sirena
17	Zaxira
19	Invertor
20	IECR 2
21	–
22	IECR 2
24	EBCM – tormoz tizimini elektron boshqarish bloki
25	REC 1 – orqa markaziy elektr blok 1
26	Kamera yuvgichi
27	Ovozli signal
28	RT farasi – o'ng
29	LT farasi – chap
30	ELM 3 – tashqarini yoritish bloki 3
31	ELM 1 – tashqarini yoritish bloki 1

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
32	–
33	R/C emas
34	–
37	Kuzov: bort diagnostikasi (OBD)
38	Kuzov: boshqalar
39	Noshtat asbob-uskunalar uchun o'chirish paneli
40	Uskunalar paneli (IP): boshqalar
41	Tirkamaning to'xtab turish
42	O'ng orqa chiroqlar
44	Tortish-ilakishish qurilmasi
45	O'qning qo'shimcha dv-li
46	Dvigatelni boshqarish bloki (ECM): o't oldirish
47	OBD: dvigatel
48	–
49	TCM – telematikani boshqarish

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
50	Konditsioner muftasi
51	TCCM — tarqatuvchi qutining boshqaruv bloki
52	Oldingi oyna tozalagich
53	–
54	Chap orqa chiroqlar
55	Tirkamaning orqaga yurish chirog'i
56	SADS – osmning yarim faol dempfirlanish tizimi
57	Zaxira
58	Starter dvigateli
60	AFM 1 – yonilg'ini faol boshqarish 1
61	Lampalarni avtomatik boshqarish (ALC): asosiy

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
62	ICCM/CVS/DEF – integratsiyalangan shassini boshqarish bloki/bak ventilyatsiyasi klapani/dizel chiqindi gazlarini tozalash uchun suyuqlik
63	Tirkama tormozi
65	AUX UEC – qo'shimcha asbob-uskunalarning kapotosti elektr
66	Chap sovitish ventilatori dvigateli
67	AFM 2 – yonilg'ini faol boshqarish 2
68	Lampalarni avtomatik boshqarish (ALC): dvigatel
69	Starter shesternyasi
71	Sovitish ventilatorining dvigateli pastki

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
72	Sovitish ventilatorining o'ng dvigateli/pastki
73	Tirkamaning stop-signalining chap chirog'i va burilish ko'rsatkichi
74	TIM 2 – tirkama bilan o'zaro aloqa bloki 2
75	DEFC – dizel chiqindi gazlarini tozalash uchun suyuqlik nazoratchisi
76	ELEC RNG BDS
78	ECM – dvigatelni elektron boshqarish bloki
79	–
80	Kabinani sovitish nasosi 17 Vt
81	Tirkamaning stop-signalining o'ng chirog'i va burilish ko'rsatkichi

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
82	TIM 1 – tirkama bilan o'zaro aloqa bloki 1
83	FTZM – yonilg'i bakining zona
84	Tirkamaning akkumulator oziqlanishi
85	Dvigate
86	ECM – dvigatelni elektron boshqarish bloki
87	B forsunkasi juft
88	Datchik 02 B
89	Datchik 02 A
90	A forsunka toq
91	Dvigatelni boshqarish bloki (ECM): drosselni boshqarish
92	Sovitish ventilatori muftasi, AERO pardachasi

Rele	Mo'ljallanishi
5	–
18	Invertor
23	–
35	To'xtab turish chirog'i
36	O't oldirish yoqilgan, ishga tushirish
43	O'qning qo'shimcha dvigateli
59	Konditsioner muftasi
64	Starter dvigateli
70	Starter shesternyasi
77	Kuchli transmissiya

Uskunalar panelida saqlagichlar bloki



Uskunalar panelidagi o'ng saqlagichlar blokiga kirish uchun qopqoq yo'lovchi tomonida uskunalar panelining oldiga joylashtirilgan.
Saqlagichlar blokiga kirish uchun, qopqoqni ko'taring. Uskunalar panelining o'ng old qopqog'ida saqlagichlar yechgichi mavjud.





Saqlagichlar blokining orqa devoriga rele o'rnatilgan. Kirish uchun yaproqchalarga bosing va saqlagichlar blokini yechib oling.
Avtomobil barcha ko'rsatilgan saqlagichlar, relelar va funksiyalar bilan jihozlanmagan bo'lishi mumkin.

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F1	O'ng eshik
F2	Chap eshik
F3	Universal garaj eshiklarini ochish tizimi (UGDO)/OnStar baland oqozli aloqa (OHC)/kamera
F4	BCM 2 – kuzovning asbob-uskunalarini boshqarish bloki 2
F5	Displeylar
F6	Oldingi ventilator
F8	Chap eshik paneli
F10	Nishablik/ustunni bloklash
F11	Diagnostika ulagichi (DLC)/USB
F12	Markaziy shlyuzli blok (CGM)/Onstar

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F14	O'ng eshik paneli
F17	Rul chambaragidagi boshqaruv organlar
F18	AVM 1 – faol vibratsiya bloki 1
F19	–
F20	–
F21	–
F22	Isitiluvchi rul chambaragi
F23	–
F24	–
F25	Izlash tizimlari uchun maqbullashtirish (SEO)/shtatdan tashqari asbob-uskunalar uchun o'chirgichlar paneli
F26	USB/izlash tizimlari uchun maqbullashtirish (SEO), qo'shimcha asbob-uskunalar uchun o'chirilmaydigan oziqlanish (RAP)

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F27	Elektr ulagich (APO)/qo'shimcha asbob-uskunalar uchun o'chirilmaydigan oziqlanish
F28	Zaxira
F30	SDM/AOS – aniqlash va diagnostika bloki/ odam mavjudligini avtomatik aniqlash
F31	BCM 3 – kuzovning asbob-uskunalarini boshqarish bloki 3
F32	Markaziy konsol bloki (CSM)/USB
F33	BCM 4 – kuzovning asbob-uskunalarini boshqarish bloki 4
F34	"To'xtab turishga joylashtirish" holatidan
F40	–
F41	–

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F42	Elektr to'xtab turish tormozining o'chirgichi
F43	RSE – yo'l asbob-uskunalari
F44	AVM 2 – faol vibratsiya bloki 2
F45	Radiopriyomnik bloki
F46	BCM 1A – kuzovning asbob-uskunalarini boshqarish bloki 1A
F47	–
F48	TCM – telematikani boshqarish bloki
F49	BCM 1 – kuzovning asbob-uskunalarini
F50	DMS – haydovchi monitoringi tizimi
F51	–
F52	–
F53	–
F54	Tomning ventilyatsiya lyuki

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F55	APO 3 – yordamchi elektr ulagich 3
F56	DC/DC CNV BATT 1 – o'zgaruvchan tok o'zgartirgichi batareyasi 1
F57	DC/DC CNV BATT 2 – o'zgaruvchan tok o'zgartirgichi batareyasi 2
F58	Zaxira
F59	–

Avtomatik O'chirgichlar	Mo'ljallanishi
CBO1	APO 1 – yordamchi elektr ulagichi 1
CBO2	APO 2 – yordamchi elektr ulagichi 2

Rele	Mo'ljallanishi
K1	–
K2	RAP/ACCY 1 – qo'shimcha asbob-uskunalarning o'chirilmaydigan oziqlanishi/ qo'shimcha asbob-uskunalar 1
K4	RAP/ACCY 2 – qo'shimcha asbob-uskunalarning o'chirilmaydigan oziqlanishi/ qo'shimcha asbob-uskunalar 2
K5	–

Orqa yukxonadagi saqlagichlar bloki



Yuk bo'linmasidagi saqlagichlar bloki bo'linmaning chap qismida yechiladigan panel ostida joylashgan.
O'yiqcha orqali orqadan panelga barmoq bilan ilib, uni sug'urib oling



Avtomobil barcha ko'rsatilgan saqlagichlar, relelar va funksiyalar bilan jihozlanmagan bo'lishi mumkin.

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F01	RFA – masofaviy funksiya
F02	WCM – simsiz quvvatlash bloki
F03	O'rindiqlarni isitish bloki, 1-qator (batareya 1)
F04	O'rindiq xotirasi bloki (MSM), haydovchining
F05	–
F06	–
F07	Amp Aux 2 – yordamchi kuchaytirgich 2
F08	–
F09	SEO UPFTR 2 – shtatdan tashqari asbob-uskunalar uchun o'chirgichlar paneli/ izlash
F10	Yo'lovchi xavfsizlik kamari dvigateli
F11	Elektr yuritmli taxlanuvchan o'rindiq, 2-qator

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F12	GBS
F13	–
F14	–
F15	O'rindiqlarni isitish bloki, 1-qator (batareya 2)
F16	RH CINCH Latch – o'ng keltirgich qaydlagichi
F17	Yo'lovchi o'rindig'i xotirasi bloki
F18	Orqa oyna tozalagichi
F19	Haydovchining xavfsizlik kamari dvigateli
F20	Orqa tumanga qarshi chiroq
F21	–
F22	OBKB tizimining orqa displeyini boshqarish
F23	EOCM – tashqi ob'ektlarni hisoblash
F24	Amp Aux 3 – yordamchi kuchaytirgich 3

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F25	OBS DET
F26	RDCM – orqa yuritmani boshqarish bloki
F27	Amp Aux 1 – yordamchi kuchaytirgich 1
F28	VPM – videoga ishlov berish bloki
F29	–
F30	–
F31	Amp – kuchaytirgich
F32	–
F33	ICCM – shassini boshqarishning integratsiyalangan bloki
F34	O'rindiqlarni isitish bloki, 2-qator
F35	HFCR
F36	ELM – tashqarini yoritish bloki
F37	–
F38	Elektr yuritmali suriluvchan konsol

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F39	–
F40	–
F41	–
F42	–
F43	UPA – universal to'xtab turishga joylashtirishni yengillashtirish tizimi
F44	–
F45	AFL AHL – adaptiv oldingi yoritish/ faralar qiyaligini avtomatik tuzatish
F46	OBKB tizimi orqa ventilatorning dvigateli
F47	LH CINCH Latch – chap keltirgichning qaydlagichi
F48	Elektr yuritmali o'rindiqlarni orqaga tashlash bloki
F49	Ko'tarma oyna
F50	Haydovchi o'rindig'ini sozlash elektr yuritmasi

Eruvchan saqlagichlar	Mo'ljallanishi
F51	Elektr yuritmali orqa ko'tarma eshik bloki
F52	Yo'lovchi o'rindig'ini sozlash elektr yuritmasi

Rele	Mo'ljallanishi
K53	–
K54	–
K55	L/GLASS

G'ILDIRAKLAR VA SHINALAR

Shinalar

GMning har bir yangi avtomobili shinalarning yetakchi ishlab chiqaruvchisidan yuqori sifatli shinalar bilan jihozlangan.
Shinalarga kafolat va ularga xizmat ko'rsatish joylari haqidagi ma'lumotlarni kafolat bukletida ko'ring. Qo'shimcha ma'lumotlar shinalar ishlab chiqaruvchisi tomonidan taqdim etiladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Yomon xizmat ko'rsatiluvchi va noto'g'ri ekspluatatsiya qilinuvchi shinalar xavflidir.
- Shinalarga ortiqcha yuklama berish haddan tashqari deformatsiya oqibatida ularning qizib ketishiga olib kelishi mumkin. Shinalarning yorilib ketishi va jiddiy avariya ehtimoli bor. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12ni ko'ring.
- Havo bosimi yetarlicha bo'lmagan shinalar ortiqcha yuklangan shinalar kabi, xuddi shunday xavflidir. Ushbu sabab bo'yicha yuzaga keladigan avariya jiddiy jarohatlarga olib kelishi mumkin. Barcha shinalarni vaqti-vaqti bilan tekshirib turing va ularda tavsiya etilgan havo bosimini qo'llab turing. Havo bosimini sovuq shinalarda tekshirish lozim.
- Ortiqcha havo bosimiga ega bo'lgan shinalar keskin zarbalar, masalan, yo'ldagi chuqurliklarga urilishida, kesilishlarga, teshilishlarga yoki yorilib ketishlarga moyil bo'ladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

- Shinalarda tavsiya etilgan havo bosimini qo'llab turish lozim.
- Yedirilgan yoki eski shinalar avariyaga olib kelishi mumkin. Shinalar protektori yedirilishi holatida ularni almashtirish kerak.
- Yo'ldagi chuqurliklarga, bordyur toshiga va boshqalarga urilganida shikastlangan har qanday shinalarni almashtiring.
- Shinalarning noto'g'ri ta'mirlanishi avariyaga olib kelishi mumkin. Shinalarning ta'mirlanishi, almashtirilishi va montajini faqat dilerda yoki avtorizatsiyalangan shina servis markazida bajarish lozim.
- Qor, loy, muz va shunga o'xshash sirpanchiq qoplamalarda 56 km/soat (35 mil/soat)dan yuqori tezlikda shinalarning haddan tashqari shataklashishiga yo'l qo'ymang. Haddan tashqari shataklashish shinalarning yirtilib ketishiga olib kelishi mumkin.

Yuqori tezlikda harakatlanish uchun shinalardagi havo bosimini sozlanishini Yuqori tezlikda harakatlanish uchun shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-38 bo'limda ko'ring.

Barcha mavsumiy shinalar

Sizning avtomobilingizga barcha mavsumiy shinalar o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Shinalarning konstruksiyasi turlicha ob-havo sharoitlarida yo'l qoplamalarining ko'pchilik turlarida avtomobilning yaxshi tortish-tezlik xarakteristikalarini ta'minlaydi.
Ishlab chiqaruvchi-zavod tomonidan o'rnatiluvchi va GM tasniflanishi bilan muvofiqlikda ishlab chiqilgan shinalarning yon tomonida TPC markirovka kodi tushiriladi.
Agar qor yoki muz bilan qoplangan yo'llar bo'ylab tez-tez safar qilish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, avtomobilga qishki shinalarni o'rnatish tavsiya etiladi. Barcha mavsumiy shinalar ko'pchilik holatlarda qishda yetarlicha ilakishishni ta'minlaydi, biroq muz yoki qor bilan qoplangan qoplamalarda ular qishki shinalarni qo'llashdagi kabi xuddi o'sha tezlanish dinamikasini va yo'l bilan ilakishishni olishga imkon bermaydi. Qishki shinalar ⇨ 9-36ni ko'ring.

Qishki shinalar

Qishki shinalar avtomobilning standart butlanmasiga kirmaydi. Qishki shinalar qor yoki muz bilan qoplangan qoplamalarda yaxshiroq ilakishish uchun mo'ljallangan. Agar muz yoki qor bilan qoplangan yo'llar bo'ylab tez-tez safar qilish ko'zda tutilayotgan bo'lsa, avtomobilga qishki shinalarni o'rnatish tavsiya etiladi. Qishki shinalar mavjudligi va ularni to'g'ri tanlanishi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun dilerga murojaat qiling. Shuningdek, Yangi shinalarni xarid qilish ⇨9-45 bo'limni ham ko'ring.
Qishki shinalarni o'rnatishda quruq yo'l bilan ilakishish pasayishi, yo'l shovqinining ortishi va protektorning xizmat qilish muddati qisqarishi

mumkin. Avtomobilga qishki shinalarni o'rnatgandan keyin avtomobilning boshqaruvi va tormozlanish xarakteristikalarining o'zgarishiga e'tiborli bo'ling.
Qishki shinalarni qo'llash holatida:
- Avtomobilning barcha to'rtta g'ildiraklari uchun bir xil markadagi va protektorlar turi bir xil bo'lgan shinalarni qo'llang.
- Faqat dastlab o'rnatilgan shinalardagi kabi xuddi o'sha o'lchamdagi, xuddi o'sha yuklama intervali va xuddi o'sha tezlik toifasidagi shinalarni qo'llang.

Dastlab o'rnatilgan shinalardagi kabi xuddi o'sha tezlik toifasiga taalluqli H, V, W, Y va ZR qishki shinalar bozorda mavjud bo'lmasligi mumkin. Agar tezlik toifasi pasaytirilgan qishki shinalar tanlangan bo'lsa, ushbu shinalar uchun maksimal tezlikni oshirish taqiqlanadi.

Past profilli shinalar

Ba'zi modifikatsiyalarga o'rnatiluvchi 275/50R22 shinalar past profilli shinalar toifasiga kiradi.

⚠ *DIQQAT!*

Past profilli shinalar odatiy shinalarga qaraganda yuqori darajada sifatsiz yo'l qoplamasi bo'ylab harakatlanishda yoki bordyur ustiga haydab o'tishda katta darajada shikastlanishlarga moyilroq bo'ladi. Yo'l chuqurlariga, uchli chetlari bo'lgan to'siqlarga yoki bordyurlarga haydab o'tishda shinalar va g'ildirak disklari shikastlanishi mumkin.
Bunday shikastlanishlarga kafolat amal qilmaydi. Shinalarda tegishli havo bosimini qo'llab turing va iloji boricha bordyur toshiga, yo'l chuqurliklariga va yo'l qoplamasining boshqa nuqsonlariga urilishdan saqlaning.

Shinalarda havo bosimi

Shinalarning samarali ishlashi uchun ularda tegishli havo bosimini qo'llab turish talab etiladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yetarlicha bo'lmagan va ortiqcha havo bosimi shinalar uchun bir xilda nomaqbuldir. Yetarlicha shishirilmagan shinalar yoki havo bosimi yetarlicha bo'lmagan shinalar quyidagilarga olib keladi:
- Shinalarga ortiqcha yuklama va ularning qizib ketishi ularning yirtilib ketishiga olib kelishi mumkin.
- Shinalarning muddatidan oldin va nomuntazam yedirilishi.
- Avtomobilning yomon boshqaruvchanligi.
- Ichki yonish dvigateli bo'lgan avtomobillarda yoqilg'i sarfining oshishi.
- Elektromobillar uchun yurish zahirasini qisqartirish.

Ortiqcha shishirib yuborilgan shinalar yoki ortiqcha havo bosimiga ega bo'lgan shinalar quyidagilarga olib keladi:
- Shinalarning yuqori yedirilishi.
- Shinalarning yomon boshqaruvchanligi.
- Yo'ldagi notekisliklar kuzovga uzatiladi.
- Yo'l qoplamasining nuqsonidan shinalarning shikastlanish ehtimoli bor.

Shinalar turi va ularning yuklamasi haqidagi ma'lumot tushirilgan avtomobil yopishtirma yorlig'ida dastlab o'rnatilgan shinalar va sovuq shinalarda tegishli havo bosimi ma'lumotlari ko'rsatilgan.
Tavsiya etilgan havo bosimi - bu avtomobilning maksimal yuk ko'tarishini ta'minlovchi minimal havo bosimidir.
Avtomobil bilan tashiluvchi yukning maksimal ehtimolli og'irligi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni va shinalar turi va ularga yuklama haqidagi ma'lumot bo'lgan yopishtirma yorliqning misolini Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12 bo'limda ko'ring. Avtomobilni yuklash usuli uning boshqaruvchanligiga va harakatlanish vaqtida qulaylikka ta'sir qiladi.
Yuklarni tashishda ushbu avtomobil uchun konstruktiv ruxsat etilgan yuk og'irligini oshirish taqiqlanadi.

Tekshirishlarni qachon bajarish kerak

Shinalardagi bosimni bir oyda kamida bir marta tekshiring.
Ehtiyot g'ildirakni, agar u mavjud bo'lsa, tekshirishni unutmang. Qo'shimcha ma'lumotlar To'liq o'lchamdagi ehtiyot g'ildirak ⇨ 9-66 bo'limda taqdim etilgan.

Tekshirishlarni qanday bajarish lozim

Shinalarda havo bosimini tekshirish uchun yuqori sifatli cho'ntak manometridan foydalaning.
Shinadagi tegishli havo bosimini uning tashqi ko'rinishi bo'yicha aniqlash imkoni yo'q. Havo bosimini sovuq shinalarda tekshiring, ya'ni, avtomobil kamida uch soat harakatsiz turishi yokida 1,6 km (1 mil)dan ortiq bo'lmagan masofani bosib o'tishi kerak.
Shinaning nippel qalpoqchasini bo'shating. Shinadagi havo bosimini o'lchash uchun, shina manometrini nippelga zichlab bosing. Agar sovuq shinalardagi havo bosimi shinalarning turi va ularning yuklamasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan yopishtirma yorliqda tavsiya etilgan, ko'rsatilgan bosimga muvofiq kelsa, hech qanday qo'shimcha sozlamalar talab etilmaydi. Agar shinadagi havo bosimi pasaygan bo'lsa, tavsiya etilgan qiymatgacha erishilgunga qadar shinadagi havo bosimini oshirish zarur. Agar shinadagi havo bosimi ko'tarilgan bo'lsa, havoni chiqarib yuborish uchun shina nippelining o'rtasidagi metall o'zakka bosish kerak.
Shinalardagi havo bosimini shina manometri bilan qayta tekshiring.
Nippellarni namlik va iflosliklar tushib qolishidan himoyalash uchun, ularga qalpoqchalarni burab qo'ying. Faqat ushbu avtomobil uchun mo'ljallangan GMning firma qalpoqchalaridan foydalaning. Aks holda, havo bosimi datchiklari shikastlanishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi.

Yuqori tezlikda harakatlanish uchun shinalardagi havo bosimi

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

160 km/soat (100 ml/soat)gacha va undan yuqori yuqori tezliklarda safar qilish shinalarga qo'shimcha mexanik yuklamani yuzaga keltiradi. Yuqori tezlikda doimo safar qilish shinada ortiqcha issiqlikning to'planishiga olib keladi va shinaning keskin buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu avariyaga olib kelishi mumkin, buning oqibatida haydovchi yoki boshqa odamlar halok bo'lishi mumkin. Yuqori tezlikda harakatlanish uchun mo'ljallangan ba'zi shinalar uchun, yuqori tezlik bilan safar qilish uchun shinalardagi havo bosimini sozlash talab etiladi. Agar chegaraviy tezliklar va yo'l sharoitlari avtomobilga yuqori tezlikda harakatlanishga imkon berayotgan bo'lsa, shinalar yuqori tezliklarda harakatlanish uchun mo'ljallanganligiga, a'lo holatda bo'lganligiga, sovuq shinalarni shishirish bosimi esa avtomobilning yuklamasiga muvofiq kelishiga ishonch hosil qiling.

"Yuqori tezlikda ekspluatatsiya qilinuvchi shinalarning shishirilish bosimi" jadvalida ko'rsatilgan o'lchamdagi avtomobil shinalari uchun, agar avtomobil 160 km/soat (100 mil/soat) tezlikda harakatlanayotgan bo'lsa, shishirilish bosimini sozlash talab etiladi.

Sovuq shinaning shishirilishi bosimini o'z avtomobilingizni shinalarini o'lchamligi uchun jadvalda ko'rsatilgan muvofiq qiymatga o'rnating.

Harakatlanishning yuqori tezliklarida ekspluatatsiya qilinuvchi shinalarni shishirilishi bosimi	
Shinalarning o'lchamligi	Sovuq shinaning shishirilganlik bosimi, kPa (funt/kv. dyuym)
265/65R18 114T	240 kPa (35 funt\kv.dyuym)
275/60R20 115T	240 kPa (35 funt\kv.dyuym)
275/50R22 111H	270 kPa (39 funt/kv. dyuym)

Yuqori tezlikda harakatlanish davrini yakunlagandan so'ng, sovuq shinalar uchun havo bosimini tavsiya etilgan kattaliklargacha yetkazing. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨8-12 va Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-37 bo'limlarni ko'ring.

Shinalarda havo bosimini nazorat tizimi

⚠ *DIQQAT!*

Vakolatlangan servis tashkilotining personalidan tashqari, biron bir shaxs tomonidan shinalarda havo bosimini nazorat tizimiga (TPMS) kiritilgan o'zgartirishlar, tizimni ekspluatatsiya qilinishiga ruxsatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.

Shinalarda havo bosimini nazorat tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimining darajasini tekshirish uchun radiotexnologiyalarni va datchiklarni qo'llaydi. TPMS tizimi datchiklari avtomobilingizni shinalarida havo bosimini nazorat qiladi va avtomobilda joylashtirilgan qabulqilgichga shinalardagi havo bosimi qiymatlarini uzatadi.

Har bir shinani, jumladan ehtiyot g'ildiragini (agar u mavjud bo'lsa), sovuq sharoitlarda bir oyda bir marta tekshirish lozim, shinalar avtomobil ishlab chiqaruvchisi tomonidan tavsiya etilgan havo bosimigacha shishirilgan bo'lishi kerak, u avtomobil jadvalchasida yoki shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan (agar avtomobilingizda avtomobil jadvalchasida yoki shinalarda talab etiluvchi havo bosimi ko'rsatilgan yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan o'lchamlardan farqlanuvchi shinalar o'rnatilgan bo'lsa, bunday shinalar uchun tegishli bosimni aniqlash zarur bo'ladi).
Sizning avtomobil xavfsizlikni ta'minlashning qo'shimcha funksiyasi bilan jihozlangan, u shinalarda havo bosimini nazorat tizimi (TPMS) yordamida amalga oshirilgan. Ushbu tizim, agar avtomobilingizni bir yoki bir nechta shinalari juda past havo bosimiga ega bo'lsa, shinalarda havo bosimini pasayishi nazorat lampasini yoqadi.

Binobarin, shinalarda havo bosimini pasayishi nazorat lampasi yoqilishida avtomobilda harakatlanishni to'xtatish, to'xtash va darhol shinalarni tekshirish va ularni tegishli havo bosimigacha shishirish lozim bo'ladi. Juda past havo bosimiga ega bo'lgan shinali avtomobilda harakatlanish shinalarning ortiqcha qizib ketishiga olib keladi, buning oqibatida shinalarning shikastlanish ehtimoli bor. Shinada havo bosimining pasayishi, shuningdek, yonilg'i sarfini oshiradi, shinaning protektorini xizmat qilish muddatini qisqartirishi, avtomobil boshqaruvi va tormozlanish samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, shinalarda havo bosimini nazorat tizimi (TPMS) shinalarga tegishli texnik xizmat ko'rsatishning o'rnini bosmaydi; shinalarda tegishli havo bosimini qo'llab turish uchun mas'uliyat, hattoki, agar TPMS tizimidan shinalarda havo bosimining pasayishi nazorat lampasi yoqilishi uchun havo bosimi yetarlicha bo'lmagan holda pasaygan bo'lsa ham, haydovchiga yuklanadi. Avtomobilingiz, shuningdek, TPMS tizimining nosozligi indikatori bilan jihozlangan, u ushbu tizimning noto'g'ri ishlashiga ko'rsatadi. TPMS tizimi nosozlik indikatori shinalarda havo bosimi pasayishining nazorat lampasi bilan biriktirilgan. Agar tizim nosozlikni aniqlayotgan bo'lsa, ushbu nazorat lampa taxminan bir minut davomida miltillashni boshlaydi, so'ngra esa doimiy yonib turishda davom etadi. Signallarning shunday ketma-ketligi avtomobil dvigateli ishga tushirilishining keyingi sikllarida ham takrorlanib turadi - toki nosozlik bartaraf etilmagunicha. Agar nosozlik indikatori yonayotgan bo'lsa, tizim shinalarda havo bosimi pastligini aniqlay olmasligi yoki o'rnatilgan tarzda muvofiq signalni bermasligi mumkin. TPMS tizimida nosozliklar turli sabablar bo'yicha, jumladan, avtomobilga almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalarning yoki g'ildiraklarning o'rnatilishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin, ular TPMS tizimiga to'g'ri faoliyat yuritishiga yo'l qo'ymaydi. Almashtiriluvchi yoki o'rindosh shinalarning yoki g'ildiraklarning o'rnatilishi TPMS tizimiga to'g'ri faoliyat yuritishiga imkon berayotganligiga ishonch hosil qilish uchun o'z avtomobilingizda bir yoki bir nechta shinalarni yoki g'ildiraklarni almashtirishdan keyin TPMS tizimi nosozligini nazorat lampasini doimo tekshiring. Qo'shimcha ma'lumotlar Shinalarda havo bosimini nazorat tizimining faoliyat yuritishi ⇨ 9-40 bo'limda ko'rish mumkin.

Shinalarda havo bosimini nazorat tizimining faoliyat yuritishi

Ushbu avtomobilda shinalarda havo bosimi nazorati tizimi (TPMS) o'rnatilgan bo'lishi mumkin. TPMS tizimi shinalarda havo bosimining pasayishi haqida haydovchini ogohlantirish uchun mo'ljallangan. TPMS datchiklari shina bilan jamlanmada har bir g'ildirakda o'rnatilgan, shina bilan jamlanmada ehtiyot g'ildirakdan tashqari.

TPMS tizimi datchiklari shinalarda havo bosimini nazorat qiladi va avtomobilda joylashtirilgan qabulqilgichga shinalardagi havo bosimi qiymatlarini uzatadi.

Shinalarda havo bosimining pasayishi aniqlanganda TPMS tizimi uskunalar majmuasida shinalarda havo bosimining pasayganligi signal lampasini yoqadi. Agar nazorat lampasi yonsa, zudlik bilan to'xtash va shinalar tur o'lchamlari va ruxsat etilgan yuklama haqidagi ma'lumotli jadvalchada ko'rsatilgan tavsiya etilgangacha shinalardagi havo bosimini oshirish zarur. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12ni ko'ring. Aniq shinada havo bosimini tekshirish zarurati haqidagi xabar haydovchining axborot markazida (DIC) aks ettiriladi. Shinalarda havo bosimining pasayganligi signal lampasining yoqilishi va DICning ogohlantiruvchi xabarining aks ettirilishi o't oldirishning har bir siklida, toki shinalardagi havo bosimi talab etilayotgan qiymatgacha erishmagunicha, sodir bo'ladi.

DIC axborot markazining displeyida shinalardagi havo bosimining darajasini ko'rish mumkin. Axborot markazi DIC va displeylarning ishlashi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki

Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨4-35 bo'limlarda ko'ring.
Shinalarda havo bosimini signal lampasi avtomobil dvigatelini dastlabki ishga tushirishda sovuq ob-havoda yorishishi mumkin, ammo so'ngra u avtomobil harakatlanishni boshlashi bilan o'chadi. Bu shinalarda havo bosimining pasayganligini erta indikatsiyasi va uning talab etiluvchi darajagacha oshirilishi zarurligi bo'lib xizmat qilishi mumkin.
Avtomobilga mahkamlangan shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan jadvalchada dastlab o'rnatilgan shinalarning o'lchami va sovuq shinalarda talab etilayotgan havo bosimi ko'rsatilgan. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨8-12 bo'limda shinalar, yuklamalar va yuklarning joylashtirilishi haqidagi ma'lumotli jadvalchaning misoli keltirilgan. Shuningdek, Shinalardagi havo bosimi ⇨ 9-37 bo'limda ko'ring.
Shinalarda havo bosimini nazorat tizimi (TPMS) shinalarda havo bosimi pastligi haqida haydovchini ogohlantirishi mumkin, ammo u shinalarga odatiy texnik xizmat ko'rsatishni o'rnini bosmaydi. Shinalarni ko'rikdan o'tkazish ⇨ 9-43, Shinalarni o'rnini almashtirish ⇨ 9-43 va Shinalar ⇨ 8-80 bo'limlarini ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Shinalar uchun germetiklarning materiallari bir xil emas. Qo'llash uchun ruxsat etilmagan shinalar uchun germetik TPMS tizimi datchiklarini ishdan chiqarishi mumkin. Mos kelmaydigan shinalar uchun germetikning qo'llanilishi bilan chaqirilgan TPMS datchigining shikastlanishiga kafolat shartlarni amal qilmaydi. Har doim faqat GM kompaniyasi tomonidan ruxsat etilgan shinalar uchun germetikni qo'llang, u dilerda mavjud va avtomobil butlamasiga kiradi.

Zavod jamlanmalarida shinalarni ta'mirlash uchun GM kompaniyasi tomonidan qo'llashga ruxsat etilgan shinalar uchun suyuq germetik qo'llaniladi. Qo'llash uchun ruxsat etilmagan shinalar uchun germetikning qo'llanilishi TPMS tizimi datchiklarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shinalarni ta'mirlash uchun jamlanmaga kiruvchi materiallar haqidagi ma'lumotlar, va muvofiq yo'riqnomalar Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma ⇨ 9-50 bo'limda taqdim etilgan.

TPMS tizimining nosozligi signal lampasi va xabarlari

Agar TPMS datchiklaridan biri yoki bir nechtasi mavjud bo'lmasa yoki ishga layoqatsiz bo'lsa, TPMS tizimi to'g'ri ishlamaydi. Agar tizim nosozlikni aniqlayotgan bo'lsa, shinalarda havo bosimining pasayganligi signal lampasi taxminan bir minut davomida miltillashni boshlaydi, so'ngra esa o't oldirishning qolgan qismi davomida doimo yonib turishda davom etadi. Bundan tashqari, haydovchining axborot markaziga (DIC) ogohlantiruvchi xabar chiqariladi. Nosozlik signal lampasining yoqilishi va DICning ogohlantiruvchi xabarining aks ettirilishi nosozlik bartaraf qilingunga qadar o't oldirishning har bir siklida sodir bo'ladi. Nosozlik lampasining yoqilishiga va ogohlantiruvchi xabarning paydo bo'lishiga olib keluvchi sharoitlarning bir nechtasini sanab o'tamiz:

- Avtomobilning shtat g'ildiraklaridan biri ehtiyot g'ildirakka almashtirilgan. Ehtiyot g'ildirak TPMS datchigi bilan jihozlanmagan. Shtatdagi g'ildirak joyiga o'rnatilganida va tizim datchiklarini o'rnatish taomili to'g'ri bajarilishi bilanoq, nosozlik signalizatori o'chishi, haydovchining axborot markazi ekranidagi xabar esa g'oyib bo'lishi kerak. Quyida xuddi shu bo'limda "TPMS datchiklarini bog'lash taomili" bandini ko'ring.
- Shinalarni o'rnini almashtirishdan keyin TPMS datchigining muvofiq kelishini tekshirish jarayoni bajarilmagan yoki muvaffaqiyatli

yakunlanmagan. Datchiklar muvofiqligini tekshirish jarayoni muvaffaqiyatli yakunlanishi keyin nosozlik signal lampasi o'chadi, DICda ogohlantiruvchi xabar esa g'oyib bo'ladi. Quyida xuddi shu bo'limda "TPMS datchiklarini bog'lash taomili" bandini ko'ring.

- TPMS datchiklaridan biri yoki bir nechta mavjud emas yoki shikastlangan. TPMS datchiklarini o'rnatish va datchiklarning muvofiqligini tekshirish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishidan keyin nosozlik signal lampasi o'chadi, DICdagi ogohlantiruvchi xabar esa g'oyib bo'ladi. Texnik xizmat ko'rsatishni bajarish uchun dilerga murojaat qiling.
- Almashtiriluvchi shinalar yoki g'ildiraklar dastlab o'rnatilgan shinalarga yoki g'ildiraklarga muvofiq kelmaydi. Tavsiya etilganlardan farqli shinalar va g'ildiraklar TPMS tizimining to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Yangi shinalarni xarid qilish ⇨ 9-45ni ko'ring.
- Elektron qurilmalarning ishlashi yoki TPMS tizimi tarqatuvchi radiochastotalarga o'xshash radiochastotalarni tarqatuvchi asbob-uskunalar yaqinida mavjud bo'lishlik, TPMS datchiklarining ishida buzilishlarga olib kelishi mumkin.
- Agar TPMS tizimi noto'g'ri ishlayotgan bo'lsa, u shinada havo bosimini pasaygan holatini aniqlashi va/yoki u haqida signal berishi mumkin bo'lmay qoladi. Agar TPMS tizimi nosozligining signal lampasi doimo yonib turgan va DIC displeyidan ogohlantiruvchi xabar g'oyib bo'lmayotgan bo'lsa, u holda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish uchun dilerga murojaat qiling.

Shinani qo'shimcha shishirish zarurati haqida ogohlantirish (agar jamlanmada mavjud bo'lsa)

Ushbu funksiya avtomobil tashqarisida vizual tovushli ogohlantirishlarni uzatadi, ular sovuq shinaning tavsiya etilgan bosimigacha shishirilmagan shinani qachon qo'shimcha shishirish kerakligi aniqlashda yordam beradi.

Shinada past bosim signal lampasi yorishgan vaqtda:

1. Avtomobilni tekis maydonga xavfsiz joyga to'xtab turishga joylashtiring.
2. To'xtab turish tormozini qattiq tortib qo'ying.
3. Avtomobil UO'Q selektorini P (To'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'tkazing.
4. Oxirigacha shishirilmagan shinani qo'shimcha shishiring.

Burilish ko'rsatkichi miltillashni boshlaydi.

Tavsiya etilgan bosimga erishilishi bo'yicha bitta tovushli signal jaranglaydi, burilish ko'rsatkichi esa miltillashni to'xtatadi va qisqa vaqtga doimiy chiroq bilan yonadi.

Ushbu qadamlarni shinada past bosim signal lampasi yongan barcha yetarlicha shishirilmagan shinalar uchun takrorlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Shinada ortiqcha havo bosimini yaratilishi uning yorilishiga olib kelishi mumkin, buning oqibatida haydovchi yoki boshqa odamlar jarohat olishlari mumkin. Shina biqinida ko'rsatilgan maksimal bosimni oshirmang.

Agar shina 35 kPa (5 funt/kv. dyuym) ortig'iga ortiqcha shishirilgan bo'lsa, tovushli signal bir necha marta jaranglaydi, burilish ko'rsatkichi esa qo'shimcha shishirilish yakunlangandan keyin bir necha sekund miltillashda davom etadi. Burilish ko'rsatkichi miltillayotgan paytda bosimni tashlab yuborish va unga tuzatish kiritish uchun, nippel markaziga qisqa vaqtga bosing. Tavsiya etilgan qiymatlarga erishish bo'yicha bitta tovushli signal jaranglaydi.

Agar burilish ko'rsatkichi shinani qo'shimcha shishirishni boshlashdan avval 15 sekund davomida miltillamayotgan bo'lsa, shinani qo'shimcha shishirish zarurati to'g'risidagi ogohlantirish faollashtirilmagan yoki ishlamayotgan bo'ladi.

Agar avariya nurli signalizatsiya yoqilgan bo'lsa, shinani qo'shimcha shishirish zarurati haqidagi ogohlantirish funksiyasining vizual qayta aloqasi tegishli tarzda ishlamaydi.

TPMS funksiyasi quyidagi sharoitlar mavjudligida shinani qo'shimcha shishirish zarurati haqidagi ogohlantirishni tegishli ravishda faollashtirmaydi:

- Tashqi qurilma yoki uzatgichdan xalallar mavjud.
- Shishirish uchun qurilma tomonidan hosil qilinuvchi havo bosimi shinalarni shishirish uchun yetarlicha hisoblanmaydi.
- TPMS funksiyasining nosozligi.
- Tovushli signal yoki burilish ko'rsatkichining nosozligi.
- TPMS datchigining identifikatsiya kodi tizimda ro'yxatdan o'tkazilmagan.
- TPMS datchigining batareyasi quvvati past darajada.

Agar shinani qo'shimcha shishirish zarurati haqidagi ogohlantirish TPMS xalali sababi bo'yicha ishlamayotgan bo'lsa, avtomobilni oldinga yoki orqaga taxminan 1 m.ga (3 futga) joyini o'zgartirish va urinishni takrorlang. Agar shinani qo'shimcha shishirish zarurati haqidagi ogohlantirish funksiyasi ishlamayotgan bo'lsa, manometrdan foydalaning.

TPMS datchiklarni qiyoslash taomili-avtomatik o'qitish funksiyasi

Har bir TPMS datchigi noyob identifikatsiya kodi mavjud. G'ildiraklarning o'rnini almashtirish yoki bitta yoki bir nechta datchiklarni almashtirishdan keyin muvofiq g'ildirakka identifikatsiya kodini bog'lash taomilini bajarish zarur bo'ladi.

G'ildirakni o'rnatishdan keyin avtomobil tizim qayta hisoblashni bajarishidan avval 20 minut davomida harakatsiz holatda joylashgan bo'lishi kerak. Qayta o'qitishning keyingi jarayoni 20 km/soat (soatiga 12 mil)dan yuqori bo'lmagan tezlikda harakatlanishda 10 minutgacha vaqtni egallaydi. Haydovchining axborot markazi displeyida defis (-) yoki bosim qiymati aks ettirib turiladi. "Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35" bo'limlarini ko'ring. Agar qayta o'qitish jarayoni davomida uzilish sodir bo'lsa, haydovchining axborot markazi displeyiga ogohlantiruvchi xabar chiqarilgan bo'ladi.

Shinalar ko'rigi

Kamida bir oyda bir marta shinalarning, jumladan, ehtiyot g'ildirakning, agar avtomobil u bilan jihozlangan bo'lsa, yedirilishi yoki shikastlanishi alomatlariga tekshirish tavsiya etiladi. Shinani quyidagi holatlarda almashtirish kerak:

- Shinaning aylanasi bo'yicha uch yoki undan ortiq joylarida yedirilish alomatlari mavjud.
- Agar rezina materiali orasidan kord yoki mato ko'rinib turgan bo'lsa.
- Agar shina protektorida yoki biqinida kord yoki mato ko'rinib turgan yetarlicha chuqurlikda darzlar, kesilishlar yoki deformatsiyalar mavjud bo'lsa.
- Shinada bo'rtiqlar, qabariqlar yoki yorilishlar mavjud.
- Shina teshilish, kesilish yoki ushbu nuqsonning o'lchami yoki joylashish joyi oqibatida ta'mirlash imkoni bo'lmagan boshqa shikastlanishga ega.

Shinalarning o'rnini almashtirish

Shinalarning qayta o'rnatish oralig'i, texnik xizmat ko'rsatish jadvalida ko'rsatilgan. ⇨ 10-3 texnik xizmat ko'rsatish jadvaliga qarang.

G'ildiraklarning joylarini almashtirish shinalarning bir tekis yedirilishini ta'minlash maqsadida bajariladi. Eng muhim joyni almashtirish - birinchisi.

Notekis yedirilishning hosil bo'lishida iloji boricha tezroq g'ildiraklarni joyini almashtirish, havo bosimini, hamda shinalarda yoki disklarda shikastlanish izlarining mavjudligi tekshirish kerak.

Agar shinalarni joyini almashtirishdan keyin ular avvalgidek notekis yedirilayotgan bo'lsa, g'ildiraklarning o'rnatilish burchaklarini tekshiring. Eski shinalarni yangisiga qachon almashtirish kerak ⇨ 9-44 va G'ildirak disklarini almashtirish ⇨ 9-47 bo'limlarni ko'ring.



G'ildiraklarning joyini almashtirilishini ko'rsatilgan tartibda bajaring.

G'ildiraklarning joyini almashtirilishiga ehtiyot shinani kiritmang.

G'ildiraklarni joyini almashtirib bo'lgandan so'ng shinalar va yuklamalar haqida ma'lumotlar jadvalchasida ko'rsatilgan tavsiya etiluvchi qiymatlargacha oldingi va orqa shinalarning havo bosimini yetkazing. Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-37 va Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12 bo'limlarni ko'ring.

Shinalarda havo bosimini nazorat tizimini dastlabki holatga qaytaring. Shinalarda havo bosimi nazorati tizimi faoliyat yuritishi ⇨ 9-40ni ko'ring. Barcha g'ildirak gaykalari to'g'ri tortib qotirilganligiga ishonch hosil qiling. Yonilg'i to'ldirish idishlari ⇨ 11-3 bo'limda "G'ildiraklarning gaykalarini qotirish momenti" bandini ko'ring.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> G'ildirakdagi yoki uning mahkamlanish detallaridagi zang yoki loy vaqt o'tishi bilan g'ildirak gaykalarining mahkamlanishini bo'shashtirilishini chaqirishi mumkin. G'ildirak yo'qotilishi mumkin, bu esa avariya sababi bo'lib qoladi. G'ildirakni almashtirishda har qanday zanglarni yoki loylarni g'ildirakning avtomobilga mahkamlanish joylaridan olib tashlang. Favqulodda holatlarda lattani yoki qog'oz sochiqni qo'llash mumkin; biroq, so'ngra hamma zanglarni va loylarni olib tashlash uchun qirg'ich yoki simli cho'tkani qo'llash zarur.

G'ildiraklarni almashtirish yoki o'rnini o'zgartirishdan keyin korroziya rivojlanishini oldini olish uchun, g'ildirak gupchagining ichki diametriga g'ildirak podshipniklari uchun moyning katta bo'lmagan qatlamini surish zarur bo'ladi.

> ⚠ *OGOHLANTIRISH!*
>
> G'ildirakning montaj yuzasiga, g'ildirak o'tirishining konik uyasiga, g'ildirak gaykalari va boltlariga moylamani surtish taqiqlanadi. Ushbu zonalarga surtilgan moy mahkamlanishni bo'shashtirilishi va avtomobildan g'ildirakning ajralishiga olib kelishi mumkin, bu esa avariyaga olib keladi.

Eski shinalarni yangi shinalarga qachon almashtirish kerak

Shinalarning yedirilish tezligiga texnik xizmat ko'rsatishning muntazamligi, harorat, avtomobil harakatlanishining tezligi, avtomobilning yuklanishi va yo'l sharoitlari kabi shunday omillar ta'sir ko'rsatadi.



Eski shinalarni yangisiga almashtirish zarurati faqat shinalarning yedirilish alomatlari bo'yicha aniqlanadi. Yedirilish alomatlari protektorning qoldiq chuqurligi 1,6 mm (1/16 dyuym) yoki undan past chuqurlikdagi shinalarda paydo bo'ladi. Ancha batafsil ma'lumotlar Shinalar ko'rigi ⇨ 9-43 va Shinalarni joyini almashtirish⇨ 9-43 bo'limlarda taqdim etilgan.

Shinalarning rezina materiali vaqt o'tishi bilan eskiradi. Bu avtomobilingiz butlangan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtiyot g'ildirak shinasi uchun ham adolatli bo'ladi, hattoki agar ushbu g'ildirakdan hech qachon foydalanilmagan bo'lsa ham. Rezinaning eskirish tezligiga ko'pchilik omillar, jumladan harorat, yuklanganlik va shinalarda tavsiya etilgan havo bosimini qo'llab turish ta'sir qiladi. GM kompaniyasi shinalarni, jumladan ehtiyot g'ildirakdagi shinani (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) protektorning yedirilish darajasiga bog'liq bo'lmagan holda olti yilda kamida bir marta almashtirishni tavsiya qiladi. Shinaning ishlab chiqarilish sanasini AQSh transport vazirligi (DOT) standarti bo'yicha shinaning identifikatsiya kodining (TIN) oxirgi to'rtta raqami bo'yicha aniqlash mumkin. Identifikatsiya kodi shinaning biqinlaridan biriga tushirilgan.

Shinaning identifikatsiya kodining (TIN) oxirgi to'rtta raqami uning ishlab chiqarilish sanasiga ko'rsatadi. Birinchi ikkita raqam haftani, oxirgi ikki raqam esa - yilni belgilaydi. Masalan, ishlab chiqarish 2020 yilning uchinchi haftasi DOT 0320 standarti bo'yicha 4-raqamli belgilanishga ega bo'ladi. 01 hafta etib har bir yilning birinchi to'liq haftasi (yakshanbadan shanbagacha) hisoblanadi.

Avtomobilni saqlash

Shinalar hattoki avtomobil to'xtab turish joyiga o'rnatilgan vaqtda oddiy saqlashda ham eskiradi. Shinalarning eskirishini sekinlashtirish uchun avtomobilni to'g'ri quyosh nurlaridan uzoqroqda sovuq, quruq, toza joyga kamida bir oyga to'xtab turishga va saqlashga joylashtiring. Ushbu joyda rezinani ishdan chiqarishi mumkin bo'lgan moylamalar, benzin yoki boshqa moddalar bo'lmasligi kerak.

Agar avtomobil uzoq muddat davomida to'xtab turish joyida turgan bo'lsa, shinalarda ezilgan maydonlar hosil bo'lishi mumkin, ular keyinchalik harakatlanish vaqtida vibratsiyani hosil qilishi mumkin. Agar avtomobil kamida bir oy turishi kerak bo'lsa, shinalarni yechib qo'yish yoki avtomobilning og'irligining shinalarga ta'sirini pasaytirish uchun uni ko'tarib qo'yish kerak.

Yangi shinalarni xarid qilish

GM kompaniyasi ushbu model uchun ma'lum shinalarni ishlab chiqqan va tanlagan. Yig'ish zavodida avtomobilingizga o'rnatilgan shinalar General Motors Tire Performance Criteria Specification (TPC) firma tasniflanishi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. GM kompaniyasi tomonidan o'rnatilgan shinalar o'rniga shinalarni xarid qilishda xuddi o'sha TPC markirovka kodli shinalarni tanlash tavsiya etiladi.

GM kompaniyasining TPC Spec tasniflanishning maxsus tizimi bo'yicha o'ndan ortiq muhim texnik parametrlar baholanadi, ular avtomobilingizni umumiy tortish-ilakishashish xarakteristikalariga, jumladan tormoz tizimining, harakatlanish va boshqaruvning ishchi xarakteristikalariga, tortish kuchining va shinalarda havo bosimini nazorat ishchi xarakteristikalariga ta'sir qiladi. GM kompaniyasining TPC Spec tasniflanishi raqami shinaning o'lchami yonida shinaning biqinida tushirilgan. Agar shinalar protektorning barcha mavsumiy rasmiga ega bo'lsa, u holda TPC sinfi raqamidan keyin bu barcha mavsumiy shinalarga ko'rsatuvchi MS belgilanishi turadi.

GM barcha to'rttala shinalarni bitta jamlanmada almashtirishni tavsiya qiladi. Barcha shinalarda protektorning bir xil chuqurligi avtomobilning ishchi xarakteristikalarini qo'llab turishga yordam beradi.

Agar barcha shinalarni bir vaqtda almashtirilmasa, u holda bu avtomobilning tormoz xarakteristikalariga va uning boshqaruvchanligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. G'ildiraklarning o'z vaqtida va to'g'ri o'rni almashtirilishi va ularga xizmat ko'rsatishda barcha to'rttala shinalarning yedirilishi bir tekis o'tadi. Shunga qaramay, agar faqat bitta ko'prikning shinalarini almashtirish zarur bo'lsa, yangi shinalarni orqa g'ildiraklarga o'rnatish lozim bo'ladi. Shinalarni o'rnini almashtirish ⇨ 9-43ni ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Shinalarga tegishli bo'lmagan tarzda texnik xizmat ko'rsatish ularning yirtilib ketishiga olib kelishi mumkin. Shinani montaj yoki demontaj qilishga urinish jarohatlarga yoki o'limga olib kelishi mumkin. Shinalar montaji yoki demontaji faqat dilerda yoki avtorizatsiyalangan shina servis markazida bajarilishi kerak.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Boshqa o'lchamdagi (avtomobilga dastlab o'rnatilganlardan farqlanuvchi), boshqa savdo markadagi, turdagi yoki protektorning boshqacha rasmli shinalarning o'rnatilishi avtomobil boshqaruvining yo'qotilishiga, oqibatda esa avariyaga yoki boshqa avtomobilning shikastlantirilishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning barcha g'ildiraklari uchun tegishli o'lchamdagi, bir xil markadagi va turdagi shinalarni qo'llang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilda diagonal shinalarning qo'llanilishi avtomobil bilan katta masofalar bosib o'tilgandan keyin g'ildirak gardishining flaneslarida yoriqlarning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.
Shina va/yoki g'ildirak to'satdan ishdan chiqishi mumkin, bu avariyaga olib keladi. Ushbu avtomobilning g'ildiraklariga faqat radial shinalarni o'rnatish kerak.

Dastlab o'rnatilgan H, V, W, Y va ZR sinfdagi shinalaridagi kabi xuddi o'sha tezlik toifasidagi qishki shinalar bozorda mavjud bo'lmasligi mumkin.
Qishki shinalarni qo'llashda shinalarning tezlik indeksi bilan chegaralangan maksimal tezlikdan oshish yaramaydi.
Agar almashtirishda TPC sinfi ko'rsatilmagan shinalarni o'rnatish kerak bo'lsa, unda ular xuddi o'sha o'lcham va konstruksiyaga (radial) ega ekanligiga va asl shinalar kabi yuklamalarning va tezliklarning xuddi o'sha diapazoniga mo'ljallanganligiga ishonch hosil qilish zarur.
Shinalar va yuklamalar haqidagi ma'lumotlar jadvalida dastlab avtomobilga o'rnatilgan shinalar ko'rsatilgan. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12ni ko'ring.

Boshqa o'lchamdagi shinalar va g'ildirak disklari

Agar avtomobilga dastlab o'rnatilgan avtomobil g'ildirak disklari va shinalari o'lchamlaridan farq qiluvchi o'lchamdagi g'ildirak disklari yoki shinalar o'rnatilgan bo'lsa, u holda bundan avtomobilning tortish-dinamika xarakteristikalari, jumladan tormozlanish, harakatlanish va boshqaruvchanlik, turg'unlik va qarshilik va ag'darilib ketish xarakteristikalari shikastlanishi mumkin. Agar avtomobilda ag'darilib ketishdan himoyalovchi tormozlarni antibloklash, shishiriluvchi xavfsizlik yostiqlari tizimi, tortish kuchini sozlash, elektron dinamik stabillashtirish tizimi yoki doimiy to'liq yuritma tizimi kabi shunday elektron tizimlar mavjud bo'lsa, u holda, shuningdek, ushbu tizimlarning ishchi xarakteristikalari ham shikastlanishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobilda ushbu model uchun tavsiya etilmagan o'lchamdagi shinalar o'rnatilgan bo'lsa, tortish-tezlik xarakteristikalar va avtomobil ekspluatatsiyasi xavfsizligining yomonlashish ehtimoli bor.
Bu YTH va odamlarning jiddiy jarohatlanishi xavfini oshiradi. Faqat ushbu model uchun ishlab chiqilgan GMning firma disklari va shinalarini qo'llang. G'ildiraklarning o'rnatilishi va shinalarning montajini faqat GMning malakali avtomexanikiga ishonib topshirish kerak.

Yangi shinalarni xarid qilish ⇨ 9-45 va Avtomobilning qo'shimcha asbob-uskunalari va modifikatsiyalari ⇨ 9-2 bo'limlarni ko'ring.

G'ildiraklar balansirovkasi va sxod-razvalini sozlash

G'ildiraklarning o'rnatilish burchagini sozlash va shinalarning balansirovkasi shinalarning maksimal xizmat qilish muddatini va umumiy tortish-ilakishish xarakteristikalarini ta'minlash uchun ishlab chiqarish-zavodida bajariladi.
G'ildiraklarning o'rnatilish burchagini davriy qayta sozlanishi va shinalar balansirovkasi talab etilmaydi. G'ildiraklar o'rnatilish burchagini sozlanganligini tekshirilishini shinalarning noodatiy yedirilishida yoki avtomobilning biron bir tomonga sezilarli tortib ketilishida bajarish tavsiya etiladi.
Yo'l qoplamasining profiliga va boshqa xususiyatlarning, masalan, izning, mavjudligiga bog'liq holda o'ngga yoki chapga katta bo'lmagan tortib ketilishi me'yordagi holat hisoblanadi.
Agar avtomobilda silliq yo'l bo'ylab harakatlanishda vibratsiya hosil bo'layotgan bo'lsa, shinalarni va g'ildiraklarni takroran balansirovka qilish zarurati ehtimoli bor. Tegishli diagnostikani bajarish uchun dilerga murojaat qiling.

G'ildirak disklarini almashtirish

Har qanday bukilgan, yoriqlarga ega bo'lgan yoki korroziya bilan yedirib yuborilgan g'ildirak disklarini almashtirish kerak. Agar g'ildirak gaykalari bo'shab qolayotgan bo'lsa, g'ildirak disklarini, g'ildirak boltlarini va g'ildirak gaykalarini almashtirish zarur.
Agar g'ildirakdan havo chiqib ketayotgan bo'lsa, uni almashtirish kerak. Ba'zi alyumin g'ildirak disklarini ta'mirlash mumkin. Ushbu holatlardan biron biri mavjudligida dilerga murojaat qilish lozim.
Sizning dileringiz sizga g'ildirak diskining qaysi turi kerakligini biladi.
Har bir yangi g'ildirak diski xuddi o'sha yuk ko'tarilishgikka, diametrga. kenglikka, chiqib turishga ega bo'lishi va u almashtirilayotgan g'ildirak diski kabi xuddi shunday tarzda o'rnatilishi kerak.
G'ildirak disklari, g'ildirak boltlari, g'ildirak gaykalari yoki shinalarda havo bosimi nazorati tizimi (TPMS) datchiklarini GMning yangi firma detallariga almashtiring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Mos kelmaydigan almashtiriluvchi g'ildirak disklari, g'ildirak boltlari yoki g'ildirak gaykalarining qo'llanilishi xavfli bo'lishi mumkin. Bu avtomobil tormozlanishi va boshqaruvchanligiga saldbiy ta'sir qilishi mumkin. Shinalardan havo sizib chiqishi mumkin, bu avtomobil boshqaruvchanligining yo'qolishiga va avariyalarga olib keladi. Har doim tegishli bo'lgan almashtiriluvchi g'ildirak disklari, g'ildirak boltlari va g'ildirak gaykalarini qo'llash zarur.

⚠ *DIQQAT!*

Mos kelmaydigan g'ildirak diski g'ildirak podshipnigining xizmat qilish muddatini kamaytirishi, tormoz mexanizmlarini sovitilishini yomonlashtirishi, spidometr va/yoki odometrning kalibrovkasini buzishi, faralar yorug'ligining yo'nalishini, avtomobilning yo'l tirqishini va shinalar yoki sirpanishga qarshi zanjirlar va kuzov yoki shassi orasidagi tor tirqish masofasini o'zgartirishi mumkin.

Avval ishlatilgan almashtiriluvchi g'ildirak disklari

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

G'ildirak diskini avval ishlatilgan boshqa g'ildirak diskiga almashtirish xavfli. U qanday ekspluatatsiya qilinganligi va uning bosib o'tgan masofasi qanchalik kattaligi haqida ma'lumotlar yo'q. U to'satdan ishdan chiqishi, bu avariyaga olib kelishi mumkin. G'ildirak disklarini almashtirishda GMning yangi firma g'ildirak disklarini qo'llang.

Sirpanishga qarshi zanjirlar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar avtomobilda 275/60R20 yoki 275/50R22 o'lchamdagi shinalar o'rnatilgan bo'lsa, sirpanishga qarshi zanjirlarni qo'llamang.
Buning uchun klirens yetarlicha katta emas. Tegishli klirensga ega bo'lmagan avtomobilda sirpanishga qarshi zanjirlarning qo'llanilishi tormozlarning, osmaning yoki avtomobilning boshqa detallarining ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Zanjirlar tomonidan keltirilgan shikastlanishlar avtomobil bilan boshqaruvning yo'qotilishiga va avariyaga olib kelishi mumkin.
Boshqa turdagi sirpanishga qarshi qurilmani faqat, agar ishlab chiqaruvchi uni ushbu o'lchamdagi shinalarga ega bo'lgan avtomobillarda va yo'l sharoitlarini hisobga olgan holda qo'llashga tavsiya etayotgan bo'lsa, qo'llang. Ishlab chiqaruvchining yo'l-yo'riqlarini bajaring. Avtomobilni shikastlamaslik uchun past tezlikda harakatlaning. Agar sirpanishga qarshi qurilma avtomobilga teginib turgan bo'lsa, ularni tekshiring yoei yechib qo'ying. G'ildiraklarning shataksirashiga yo'l qo'ymang.
Sirpanishga qarshi qurilmani orqa g'ildiraklarga o'rnatish zarur.

⚠ *DIQQAT!*

Agar avtomobil har qanday boshqa o'lchamlikdagi shinalar bilan jihozlangan bo'lsa, 275/60R20 va 275/50R22dan tashqari, sirpanishga qarshi zanjirlarni faqat bu qonun tomonidan ruxsat etilgan va haqiqatda zarur bo'lgan holatlardagina qo'llang. To'g'ri o'lchamdagi zanjirlarni tanlang.
Ularni orqa g'ildiraklarga o'rnatish zarur. Zanjirlarni oldingi g'ildiraklarga o'rnatish yaramaydi. Zanjirlarni iloji boricha kuchliroq taranglashtiring va ishonchli taqib qo'ying. Sekin harakatlaning va sirpanishga qarshi zanjirlar ishlab chiqaruvchisining yo'l-yo'riqlarini bajaring. Agar zanjirlar kuzovga teginayotgan bo'lsa, to'xtang va ularni taranlashtiring. Agar tovush to'xtamayotgan bo'lsa, ushbu tovush to'liq g'oyib bo'lgunga qadar harakatlanishni sekinlashtiring. Katta tezlikda harakatlanish va sirpanishga qarshi zanjirlar o'rnatilgan g'ildiraklarning shataksirashi avtomobilning shikatslanishiga olib kelishi mumkin.

Agar g'ildirakning havosi chiqib ketgan bo'lsa

Harakatlanish vaqtida shinaning yorilishi - g'ayriodatiy holat hisoblanadi, ayniqsa, agar shinalarga tegishli tarzda xizmat ko'rsatilayotgan bo'lsa. Shinalardan havoning kuchsiz sizib chiqishi juda ko'p hollarda uchrab turadi. Shinalar ⇨ 8-80 bo'limga qarang.

Oldingi shina yorilishi holatida bunday havosi chiqqan shina avtomobilni tormozlaydi, bu avtomobilning ushbu g'ildirak tomonga tortib ketilishiga olib keladi. Oyog'ingizni akselerator tepkisidan oling va rul chambaragini mahkam ushlab oling. Avtomobil o'zining chizig'ida harakatlanishni davom ettirishi uchun rulni shunday buring, so'ngra to'liq to'xtagunga qadar, iloji boricha yo'ldan chetroqda ravon tormozlaning.

Orqa shinaning yorilishi, ayniqsa burilishda, tortib ketish kabi namoyon bo'ladi va tortib ketishdagi kabi rul bilan avtomobilning harakatlanishiga xuddi shunday tuzatish kiritish talab etilishi mumkin. Akseleratorning tepkisiga bosishni to'xtating va avtomobil to'g'riga harakat qilishni davom ettirishi uchun rulni shunday burang. Harakatlanish kuchli qaltirash va shovqin bilan kuzatib borilishi mumkin.

To'liq to'xtagunga qadar, iloji boricha yo'ldan chetroqda ravon tormozlaning.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Havosi chiqib ketgan g'ildirakda safar qilish shinaning bartaraf etib bo'lmaydigan shikastlanishlanishiga olib keladi. Avtomobil bir qancha vaqt safar qilgan havosi chiqib ketgan yoki kuchli yetarlicha shishirilmagan shinaning takroriy shishirilishi uning yorilib ketishiga va jiddiy avariyaga olib kelishi mumkin. Avtomobil bir qancha vaqt safar qilgan havosi chiqib ketgan yoki kuchli yetarlicha shishirilmagan shinani qayta shishirishga hech qachon urinmang. Havosi chiqib ketgan shinani iloji boricha dilerda yoki avtorizatsiyalangan shina servis markazida iloji boricha tezroq ta'mirlating yoki almashtiring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Texnik xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlashni bajarish uchun avtomobilni ko'tarish va uning ostiga kirish, agar muvofiq himoyalovchi asbob-uskunalar qo'llanilmayotgan va haydovchi o'qitilishdan o'tmagan bo'lsa, xavf-xatarni keltiradi.

Agar avtomobil domkrat bilan butlangan bo'lsa, u holda u faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun mo'ljallangan. Uning boshqa maqsadlar uchun qo'llashda avtomobilning domkratdan tushib ketishi holatida jiddiy jarohatlarni olish va hattoki halok bo'lish ham mumkin. Agar avtomobil domkrat bilan butlangan bo'lsa, u holda uni faqat havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun qo'llang.

Havosi chiqib ketgan g'ildirakda g'ildirak va shinaning shikastlanishini og'irlashtirmang, iloji boricha yo'ldan chetroqda tekis joyga asta-sekin haydab o'ting. Avariya nurli signalizatsiyani yoqing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi ⇨ 5-5ni ko'ring.

Agar avtomobil maksimal yuk ko'tarish xususiyatigacha yoki unga yaqin yuklangan bo'lsa, domkratni avtomobil ostiga o'rnatish, atrof-muhitning xolati (yo'l chetining egilishi, yo'ldagi qoldiqlar va boshqalar) tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Yukni olib tashlash xisobiga og'irlikning ma'lum miqdorda kamayishi, domkratni avtomobil ostidagi to'g'ri joyga o'rnatishni osonlashtirishi mumkin.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

G'ildirakni almashtirish xavfli bo'lishi mumkin. Avtomobil jarohatlar yoki hattoki o'lim oqibatlarini keltirib domkratdan sirpanib ketishi, yumalab ketishi yoki tushib ketishi mumkin.
G'ildirakni almashtirish uchun tekis joyni toping. Avtomobilning beixtiyor harakatlanishini oldini olish uchun:
1. To'xtab turish tormozini qattiq tortib qo'ying.
2. P (To'xtab turish) rejimini yoqing.
3. To'liq yuritmali avtomobil holatida, N (neytral) holat mavjud bo'lgan tarqatish qutisining selektorida, selektor N (neytral) holatda emas, balki yetakchi uzatmaga joylashtirilgan bo'lishi kerak.
4. Dvigatelni o'chiring va toki avtomobil domkratga ko'tarilganda uning takroriy ishga tushirilishini bajarmang.
5. Bunda yo'lovchilarga avtomobilda qolish taqiqlanadi.
6. Siz almashtirishni rejalashtirayotgan g'ildirakdan diagonal bo'yicha joylashgan g'ildirakning ikki tomonlariga yumalab ketishga qarshi tayanchlarni (mavjud bo'lganida) o'rnating.

Avtomobil domkrat va ehtiyot g'ildirak bilan yoki shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma bilan butlangan bo'lishi mumkin. Havosi chiqib ketgan g'ildirakni xavfsiz almashtirish uchun:



1. Avtomobil yumalab ketmasligi uchun, rasmda ko'rsatilgani kabi yumalab ketishga qarshi tirgaklarni (1) (mavjud bo'lsa) o'rnatilsin.
2. Havosi chiqib ketgan g'ildirakni (2) almashtirish uchun domkrat qurilmasini qo'llang. G'ildirakni almashtirish ⇨ 9-56 bo'limiga qarang.
Shinalarni ta'mirlash uchun germetik va kompressorning qo'llanilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Shinalarni shishirish uchun kompressor va shinalarni ta'mirlash uchun germetik bilan to'plam ⇨ 9-50 bo'limga qarang.

Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yomon ventilyatsiyali yopiq xonada bo'sh aylanishda avtomobil dvigatelining ishlashi xavflidir.
Dvigateldan chiqqan chiqindi gazlar avtomobil ichiga tushib qolishi mumkin. Dvigatelni chiqindi gazlari uglerod oksidi (CO) - hidsiz ko'rinmas gazni saqlaydi. U hush ketishiga va hattoki o'limga olib kelishi mumkin. Toza havoning oqib kelishi bilan ventilyatsiyaga ega bo'lmagan yopiq xonada dvigatelni ishga tushirish taqiqlanadi. Ancha batafsil ma'lumotlarni Chiqindi gazlar ⇨ 8-22 bo'limda ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Shinada ortiqcha havo bosimini yaratilishi uning yorilishiga olib kelishi mumkin, buning oqibatida haydovchi yoki boshqa odamlar jarohat olishlari mumkin. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmaga ilova qilinuvchi yo'riqnomani o'qib chiqing va unga rioya qiling, va shinadagi havo bosimini tavsiya etilgan darajagacha yetkazing. Tavsiya etilgan bosimni oshirmang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobilning salonida shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma yoki boshqa asbob-uskunalarni saqlash odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning keskin to'xtashi yoki avariyasida mahkamlanmagan asbob-uskunalar biron bir kimsaga zarba yetkazishi mumkin. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmani uning uchun mo'ljallangan joyda saqlang.

Agar ushbu avtomobil shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma bilan jihozlangan bo'lsa, unda ehtiyot g'ildirak va g'ildirakni almashtirish uchun asbob-uskunalar, ba'zi avtomobillarda esa g'ildirakni saqlash uchun joy mavjud bo'lmasligi mumkin. Shinalarni shishirish uchun kompressorni va shinalarni ta'mirlash uchun germetikni 6 mm.gacha (0,25 dyuym) diametrdagi shinalarni protektori zonasidagi teshilishlarni yamash uchun qo'llash mumkin. Ularni, shuningdek, havo bosimi yetarli bo'lmagan shinalarni qo'shimcha shishirish uchun qo'llash mumkin.

Agar shina g'ildirakdan ajralib qolgan, shikastlangan biqinlarga yoki yirik teshilishga ega bo'lsa, uning shikastlanishlarini shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma yordamida bartaraf qilish uchun juda ham katta. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmaga ilova qilinuvchi barcha yo'riqnomalarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.

Jamlanmaga quyidagilar kiradi:



1. Germetikli ballonning kiritish klapani
2. Germetik va havo uchun shlang
3. Germetikli ballon asosi
4. Shinalarni ta'mirlash uchun germetikli ballon
5. Yoqish/o'chirish tugmasi
6. Kompressor tepasidagi o'yiq
7. Havoni chiqarib yuborish tugmasi
8. Manometr



9. Oziqlanish shnuri
10. Havo shlangi

Shinalarni ta'mirlash uchun germetik

Germetikli ballondagi (4) yopishtirma yorliqdagi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha barcha yo'riqnomalarni o'qib chiqing va ularga rioya qiling.

Shinalarni ta'mirlash uchun germetikli ballonda ko'rsatilgan yaroqlilik muddati sanasini tekshiring. Shinalarni ta'mirlash uchun germetikli ballonni (4) uning yaroqlilik muddati yakunlanguniga qadar almashtirish zarur. Shinalarni ta'mirlash uchun germetikli almashtiriluvchi ballonlarni o'zingizni mahalliy dileringizda xarid qilishingiz mumkin.

Ballonchada faqat bir shinani ta'mirlash uchun germetik yetarlidir. Shinalar uchun germetikli

ishlatilgan ballonni yangisiga almashtirish zarur.

Shinada teshilishini vaqtinchalik ta'mirlash uchun kompressorli va germetikli jamlanmaning qo'llanilishi va havo bilan shishirish

Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmani qo'llashda besh minut davomida iliq joyda past haroratlarda jamlanmani isitib oling. Bu shinani tezroq shishirishga imkon beradi.

Havosi chiqib ketgan g'ildirakda g'ildirak va shinaning shikastlanishini og'irlashtirmang, balki tekis joyga sekin haydab o'ting. Avariya nurli signalizatsiyani yoqing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi ⇨ 5-5ni ko'ring. Xavfsizlikka nisbatan boshqa muhim ogohlantirishlarni Agar g'ildirakdan havo chiqib ketgan bo'lsa ⇨ 9-49 bo'limda ko'ring.

Shina orqali o'tib borgan ob'ektlarni chiqarib olmang.

1. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli ballonli jamlanmani (4) saqlanish joyidan chiqarib oling. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmani saqlash ⇨ 9-56ni ko'ring.
2. Kompressor tubidan havo shlangini (10) va oziqlanish shnurining sanchqisini (9) chiqarib oling.
3. Kompressorni havo chiqib ketgan shina yoniga yerga qo'ying.



4. Havo shlangini (10) germetikli ballonning kirituvchi klapaniga (1) ulang va soat strelkasi bo'yicha zichlab qotiring.



5. Ballonni vertikal holatda qayd qilib qo'yish uchun, germetikli ballon asosini (3) kompressor o'yig'iga (6) o'rnating.

Shlangni nippelga ulash mumkin bo'lishi uchun shina nippeli yerga yaqin joylashganligiga ishonch hosil qiling.

6. Havosi chiqib ketgan shinaning nippelini qalpoqchasini soat strelkasiga teskari aylantirib, bo'shating.



7. Havo va germetik uchun shlangni (2) shina ventiliga kiydiring va uni soat strelkasi bo'ylab zichlab qotiring.

8. Kompressorning oziqlanish shnuri sanchqisini (9) avtomobil salonida joylashgan qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish ulagichiga o'rnating. Barcha boshqa qo'shimcha asbob-uskunalarni qolgan ulagichlardan uzib qo'ying. Shtepsel ulagichlar ⇨ 4-6ni ko'ring.

Agar avtomobil qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish uchun ulagich bilan jihozlangan bo'lsa, chektirgichdan foydalanish kerak bo'lmaydi.
Agar avtomobil faqat chektirgich bilan jihozlangan bo'lsa, asbob-uskunalarni chektirgich orqali ulash mumkin.
Oziqlantirish shnurini eshik yoki tushiriluvchi oyna bilan qisib qolmang.
9. Quvvat agregatini ishga tushiring. Kompressorni qo'llash vaqtida dvigatel ishlab turishi kerak.
10. Kompressorni yoqish va germetikning uzatilishini boshlash uchun, yoqish/o'chirish tugmasini (5) bosing.
Kompressor shinaning ichiga havo bilan birgalikda germetikni bosim ostida uzatadi.
Ballondan germetik shinaga uzatilayotganda, manometr (8) yuqori bosimni ko'rsatib turadi. Shinaga germetikni to'liq to'ldirilganidan keyin, bosim keskin pasayadi, so'ngra esa faqat havoni qo'shimcha yuborish chorasi bo'yicha yana o'sishni boshlaydi.
11. Manometrning (8) ko'rsatkichlariga asoslangan holda tavsiya etilgan bosimgacha shinani shishiring. Shinada tavsiya etilgan havo bosimi shinalar turi va ruxsat etilgan yuklama haqidagi ma'lumotli yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan. Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-37ni ko'ring.
Kompressor ishlashi vaqtida manometr (8) haqiqatdagi bosimga qaraganda ancha yuqori bosimni ko'rsatishi mumkin.
Shinada haqiqiy havo bosimini bilish uchun, kompressorni o'chiring. Siz kompressorni, toki zaruriy bosimga erishilmagunicha, o'chirishingiz va qayta yoqishingiz mumkin.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Agar tavsiya etilgan bosimga taxminan 25 minut davomida erishish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, avtomobil shaxsiy yurishi bilan harakatlanishni davom ettirmasligi kerak. Shina kuchli shikastlangan, shuning uchun shinalarni ta'mirlash va shishirish uchun kompressorli va germetikli jamlanmani qo'llash lozim bo'lmaydi. Oziqlanish sanchqisigi ozqilanishning qo'shimcha ulagichidan uzib qo'ying va shinaning nippelidan bosim shlangini burab bo'shating.

12. Kompressorni o'chirish uchun, yoqish/o'chirish tugmasini (5) bosing.
Shina germetizatsiyadan chiqarilmaydi va toki avtomobil harakatlanishni boshlamagunicha va germetik shina ichida taqsimlanmagunicha havoni chiqarishda davom etadi. Shuning uchun, 13-21-qadamlarni darhol 12-qadamdan keyin bajarish zarur.
Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma bilan muloqot qilayotganda ehtiyot bo'ling, chunki ishlatishdan keyin jamlanma detallari issiq bo'lishi mumkin.
13. Avtomobil salonida joylashgan qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish ulagichidan kompressor oziqlanish shnurini sanchqisini (9) sug'urib oling.
14. Ventildan havo bilan germetikni uzatish uchun shlangni (2) soat strelkasiga teskari aylantirib, uni yechib oling.
15. Shina nippeli qalpoqchasini joyiga o'rnating.
16. Kompressorning (6) tepasidagi o'yiqdan germetikli ballonni (4) chiqarib oling.
17. Soat strelkasiga teskari germetikli ballonning kirituvchi klapanidan (1) havo shlangini (10) bo'shatib oling.
18. Germetik sizib chiqishini oldini olish uchun, germetik va havo uchun shlangni (2) soat strelkasi bo'ylab germetikli ballonning kirituvchi klapaniga burab o'rnating.
19. Havo shlangini (10) va oziqlantirish shnurini (9) o'z joylariga qo'ying.

20. Agar havosi chiqib ketgan g'ildirakni tavsiya etilgan havo bosimigacha qo'shimcha shishirish uddasidan chiqilgan bo'lsa, germetik ostidan ishlatilgan ballondan (E) avtomobil harakatlanishining maksimal tezligi ko'rsatilgan

yopishtirma yorliqni yechib oling va uni ko'rinadigan joyga joylashtiring.
Ushbu yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan tezlikni oshirish, toki shikastlangan shina ta'mirlanmagunicha yoki almashtirilmagunicha, taqiqlanadi.
21. Barcha qo'llanilgan asbob-uskunalarni o'z joyiga joylashtiring.
22. Darhol bundan so'ng germetikni shina ichiga bir tekis taqsimlash uchun, avtomobilda 8 km (5 mil) haydab o'tish zarur bo'ladi.
23. Xavfsiz joyda to'xtang va shinadagi havo bosimini tekshiring.
1-10-kichik bandlarni "Shinani (teshilishlarga ega bo'lmagan) havo bilan shishirish uchun kompressorli va germetikli jamlanmaning qo'llanilishi" bo'limida ko'ring.
Agar shinadagi havo bosimi tavsiya etilgandan 68 kPa (10 funt/kv.dyuym)ga past bo'lib qolgan bo'lsa, avtomobilni to'xtating. Shina juda kuchli shikastlangan, shuning uchun shinalar uchun germetik shinani ta'mirlash imkoniga ega bo'lmaydi.
Agar shinadagi havo bosimi tavsiya etilgandan 68 kPa (10 funt/kv.dyuym)ga tushib ketgan bo'lsa, shinani tavsiya etilgan havo bosimigacha qo'shimcha shishiring.
24. G'ildirakdan, shinadan va avtomobildan germetik izlarini artib oling.
25. Ishlatilgan germetikdan ballonni (4) texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga utilizatsiyaga topshiring yoki mahalliy me'yorlarga va yo'riqnomalarga muvofiq uni utilizatsiya qiling.
26. Ballonni yangisiga almashtiring (dilerdan xarid qilinadi).
27. Teshilish germetik yordamida bartaraf qilinganidan so'ng, avtomobilni faqat cheklangan vaqtda ishlatish mumkin. Ta'mirlangan shinada safar qilish 161 km (100 mil)ga yetmagunicha, shinani ta'mirlash yoki almashtirish uchun avtorizatsiyalangan texnik xizmat ko'rsatish stansiyasiga murojaat qilish lozim.

Shinani (teshilishga ega bo'lmagan) havo bilan shishirish uchun kompressorli va germetikli jamlanmani qo'llash
Jamlanmaga quyidagilar kiradi:



1. Germetikli ballonning kiritish klapani
2. Germetik va havo uchun shlang
3. Germetikli ballon asosi
4. Shinalarni ta'mirlash uchun germetikli ballon
5. Yoqish/o'chirish tugmasi
6. Kompressor tepasidagi o'yiq
7. Havoni chiqarib yuborish tugmasi
8. Manometr



9. Oziqlanish shnuri
10. Havo shlangi

Havosi chiqib ketgan g'ildirakda g'ildirak va shinaning shikastlanishini og'irlashtirmang, balki tekis joyga sekin haydab o'ting. Avariya nurli signalizatsiyani yoqing. Avariya yorug'lik signalizatsiyasi ⇨ 5-5ni ko'ring.

Xavfsizlikka nisbatan boshqa muhim ogohlantirishlarni Agar g'ildirakdan havo chiqib ketgan bo'lsa ⇨ 9-49 bo'limda ko'ring.

1. Kompresoorni saqlanish joyidan sug'urib oling. Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmani saqlash ⇨ 9-56ni ko'ring.
2. Kompressor tubidan havo shlangini (10) va oziqlanish shnurining sanchqisini (9) chiqarib oling.
3. Kompressorni havo chiqib ketgan shina yoniga yerga qo'ying.

Shlangni nippelga ulash mumkin bo'lishi uchun shina nippeli yerga yaqin joylashganligiga ishonch hosil qiling.

4. Havosi chiqib ketgan shinaning nippelini qalpoqchasini soat strelkasiga teskari aylantirib, bo'shating.
5. Havo shlangini (10) shinaning ventiliga ulang va uni soat strelkasi bo'ylab zich burab qotiring.
6. Kompressorning oziqlanish shnuri sanchqisini (9) avtomobil salonida joylashgan qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish ulagichiga o'rnating. Barcha boshqa qo'shimcha asbob-uskunalarni qolgan ulagichlardan uzib qo'ying. Shtepsel ulagichlar ⇨ 4-6ni ko'ring.

Agar avtomobil qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish uchun ulagich bilan jihozlangan bo'lsa, chektirgichdan foydalanish kerak bo'lmaydi.

Agar avtomobil faqat chektirgich bilan jihozlangan bo'lsa, asbob-uskunalarni chektirgich orqali ulash mumkin.

Oziqlantirish shnurini eshik yoki tushiriluvchi oyna bilan qisib qolmang.

7. Quvvat agregatini ishga tushiring. Kompressorni qo'llash vaqtida dvigatel ishlab turishi kerak.
8. Kompressorni yoqish va germetikning uzatilishini boshlash uchun, yoqish/o'chirish tugmasini (5) bosing.

Kompressor shinaga germetiksiz havoni shishirishni boshlaydi.

9. Manometrning (8) ko'rsatkichlariga asoslangan holda tavsiya etilgan bosimgacha shinani shishiring. Shinada tavsiya etilgan havo bosimi shinalar turi va ruxsat etilgan yuklama haqidagi ma'lumotli yopishtirma yorliqda ko'rsatilgan. Shinalarda havo bosimi ⇨9-37ni ko'ring.

Kompressor ishlashi vaqtida manometr (8) haqiqatdagi bosimga qaraganda ancha yuqori bosimni ko'rsatishi mumkin.

Shinada haqiqiy havo bosimini bilish uchun, kompressorni o'chiring. Siz kompressorni, toki zaruriy bosimga erishilmagunicha, o'chirishingiz va qayta yoqishingiz mumkin.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Agar tavsiya etilgan bosimga taxminan 25 minut davomida erishish imkoni bo'lmayotgan bo'lsa, avtomobil shaxsiy yurishi bilan harakatlanishni davom ettirmasligi kerak. Shina kuchli shikastlangan, shuning uchun shinalarni ta'mirlash va shishirish uchun kompressorli va germetikli jamlanmani qo'llash lozim bo'lmaydi. Oziqlanish sanchqisini oziqlanishning qo'shimcha ulagichidan uzib qo'ying va shinaning nippelidan bosim shlangini burab bo'shating.

10. Kompressorni o'chirish uchun, yoqish/o'chirish tugmasini (5) bosing.

Kompressor bilan muloqot qilayotganda ehtiyot bo'ling, chunki uni qo'llashdan keyin u qizigan bo'lishi mumkin.

11. Avtomobil salonida joylashgan qo'shimcha asbob-uskunalarni oziqlantirish ulagichidan kompressor oziqlanish shnurini sanchqisini (9) sug'urib oling.
12. Havo shlangini (10) soat strelkasiga teskari burab, uni ventildan bo'shatib oling.
13. Shina nippeli qalpoqchasini joyiga o'rnating.
14. Havo shlangini (10) va oziqlantirish shnurini (9) o'z joylariga qo'ying.
15. Barcha qo'llanilgan asbob-uskunalarni o'z joyiga joylashtiring.

Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli

jamlanmada jamlanmaning korpusi tubidagi bo'lmachada yordamchi o'tkazgichlar mavjuddir, ularni shishiriladigan matraslarni, koptoklarni va boshqalarni shishirish uchun qo'llash mumkin.

Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanmani saqlash

Shinalarni ta'mirlash uchun germetik va kompressor jamlanmasi (uning mavjud bo'lishida) yuk bo'linmasida saqlash sohasida joylashgan va kamarlar bilan mahkamlangan.

1. Yuk bo'linmasining orqa eshigini oching.
2. Yuk polini ko'taring. Yukxonada buyumlarni saqlash uchun bo'linma ⇨ 3-3ni ko'ring.
3. Shinalar va kompressor uchun germetik jamlanmasini oling.
4. Jamlanmaning qo'llanilish tartibini "Shinalarni shishirish uchun kompressorli va shinalarni ta'mirlash uchun germetikli jamlanma ⇨ 9-50" bo'limda ko'ring.

Yakunlagandan so'ng, shinalarni ta'mirlash uchun germetik va kompressor jamlanmasini almashtiring.

G'ildirakni almashtirish

Havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirilishini bajarishdan avval, "Orqa ko'tarma eshik ⇨1-13" bo'limning "Qo'llar yordamisiz boshqarish" bandi bilan tanishib chiqing.

Ehtiyot g'ildirakni va instrumentlarni chiqarib olish

Havosi chiqib ketgan g'ildirakni almashtirish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar avtomobilning orqa qismida saqlanadi. Ko'tarish instrumentlari yuk poli ostida joylashgan va yopishtirgichdagi kamarlar bilan mahkamlanadi. Domkrat haydovchi tomonida naqshdor panelidagi eshikcha ortida joylashgan.



1. Panelning eshikchasini ochish uchun, eshikchadan torting.

Naqshdor panelning eshikchasiga yetib borish uchun, ehtimol, haydovchi tomonidagi uchinchi qator o'rindiqlarini taxlashga to'g'ri keladi.



2. Kronshteyndan domkratni va yumalab ketishga qarshi tayanchlarni bo'shatib olish uchun, soat strelkasiga teskari domkratning dumaloq tutqichini burang. Yumalab ketishga qarshi tayanchlarni (mavjud bo'lganida) domkratdan chiqarib oling va siz almashtirishni rejalashtirayotgan g'ildirakdan diagonal bo'ylab joylashgan g'ildirakning ikkala tomoniga ularni o'rnating.

Yumalab ketishga qarshi tayanchlarni joylashtirish haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni "Agar g'ildirak havoni chiqarib

yuborgan bo'lsa ⇨ 9-49" bo'limda ko'ring. Domkrat va yumalab ketishga qarshi tayanchlarni almashtirilishi kerak bo'lgan g'ildirak yoniga joylashtiring.



3. Yuk polini ko'taring. Ko'tarish instrumentlarini chiqarib oling va ularni almashtirilishi kerak bo'lgan g'ildirak yoniga joylashtiring.

Quyidagi instrumentlarni qo'llang:



1. Domkrat
2. Yumalab ketishga qarshi tayanchlar
3. Domkrat tutqichi
4. Domkrat tutqichi uchun uzaytirgichlar
5. G'ildirak gayka kaliti

Ehtiyot g'ildirakka yetib borish uchun, quyidagi illustrasiyalarni va yo'riqnomalarni ko'ring:



1. Ko'targich yig'ilgan holda
2. Ko'targich vali
3. Yechiluvchan qopqoq/ko'targich valining tirqishi
4. Domkrat tutqichi uzaytirgichi
5. G'ildirak gayka kaliti
6. Ehtiyot g'ildirak qulfi
7. Ko'targich tomonidagi uzaytirgich uchi
8. Ko'targich valiga kirish uchun tirqish
9. Ehtiyot g'ildirak (nippel tepaga qaratilgan)
10, G'ildirak diskini qaydlagichi
11. Ko'targich trosi

1. Ehtiyot g'ildirakning qulfiga (6) kirish huquqini olish uchun, bamperda ko'targichning valini yechiluvchan qopqog'ini (3)ni oching.
2. Ehtiyot g'ildirakning qulfini (6) yechib olish uchun, mexanik kalitni tiqing, uni soat strelkasi bo'ylab burang, so'ngra chiqarib oling.



3. Illustrasiyada ko'rsatilgani kabi domkrat tutqichi uzaytirgichlari (4) va g'ildirak gayka kalitini yig'ing.



4. Yig'ilgan holatda ko'targich bilan ilakishishni sezmaguningizcha orqa bamperda ko'targich valiga (8) kirish uchun tirqish orqali ko'targich (7) tomonidan uchlik (ochiq uch) uchini o'rnating. Faqat domkrat tutqichi uchligining katta bo'lmagan qismi ko'rinib turadi. G'ildirak gayka kalitni (5) yassi uchini qo'llamang.
Ko'targich tomonidagi uzaytirgichning uchi (7) ko'targichning valiga ulanganligini kuzating.
Uzaytirgichning qovurg'alangan kvadrat uchi ehtiyot g'ildirakni tushirish uchun xizmat qiladi.
5. G'ildirak kalitini (5) zaxira g'ildirakni (9) yerga tushirish uchun soat strelkasiga qarshi burang. Kalitni (5) aylantirishni davom ettiring, toki g'ildirakni (9) avtomobil ostidan sug'urib olish uchun uni shunchalik pastga tushiring.
6. Ehtiyot g'ildirakni avtomobil ostidan chiqarib oling.

7. G'ildirak diskining qaydlagichiga kirish imkonini olish uchun, trosni yengil bo'shashtirib, g'ildirakni avtomobil tomonga engashtiring.



Qaydlagichni engashtiring va uni, trosni va prujinani diskning markazi orqali olib o'ting.
8. Ehtiyot g'ildirakni haqosi chiqib ketgan g'ildirak yoniga qo'ying.

Havosi chiqib ketgan g'ildirakni olib tashlash va ehtiyot g'ildirakni o'rnatish

1 . Keyingi harakatlarni bajarishdan avval xavfsizlik tekshiruvini bajaring. Qo'shimcha ma'lumotlar Agar g'ildirak havo chiqarib yuborgan bo'lsa ⇨ 9-49da taqdim etilgan.



2. Agar avtomobil diskning mahkamlanishlarini yopuvchi markaziy qalpoqcha bilan jihozlangan bo'lsa, g'ildirak gayka kalitining bolg'asimon uchini diskdagi tirqishga o'rnating va ehtiyotkorlik bilan qalpoqni chiqarib oling.
Agar diskda bolt mahkamlanishli gupchak qalpog'i mavjuddir, g'ildirak gayka kalitini soat strelkasiga teskari aylantirib, gaykalarning plastik qalpoqlarini bo'shatib oling. Diskdan chiqarib olgandan so'ng gaykalarning plastik qalpoqchalari gupchakning qalpog'ida qoladi.
Agar g'ildirak gupchakning silliq qopqog'iga ega bo'lsa, g'ildirak gayka kalitning yassi uchini diskdagi chuqurchaga o'rnating va ehtiyotkorlik bilan ilib oling.



3. G'ildirak kaliti yordamida g'ildirakning barcha gayka mahkamlanishlarini bo'shashtirib chiqing. G'ildirak kalitini soat strelkasiga teskari aylantirib, g'ildirak mahkamlanishining gaykalarini bo'shashtiring. Gaykalarni to'liq burab kiritmang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*
Avtomobilning shikastlanishidan va jarohat olishlardan saqlanish maqsadida, domkratni qo'llashdan va avtomobil ostiga buyumlarni joylashtirishdan avval, elektr yuritmali zinapoyani o'chirib qo'ying. Elektr yuritmali suriluvchan zinapoya ⇨ 1-21ni ko'ring.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobilni ko'tarish faqat illustrasiyada ko'rsatilgan domkrat o'rnatilish joylarida kuchni berib yo'l qo'yiladi. Avtomobilning orqa qismiga kuchni berish bilan avtomobilni ko'tarish ramaning va boshqa bo'g'imlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday shikastlanishlar avtomobilga kafolat ta'siriga tushmasligi mumkin.



Avtomobil ostida domkratni o'rnatish joylari

4. Yaqin havosi chiqib ketgan g'ildirak yoniga domkratni o'rnatish joyida illustrasiyada ko'rsatilgani kabi domkart boshchasini joylashtiring. Domkratni biron bir boshqa joylarga o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.



Domkratni o'rnatish taqiqlangan ba'zi joylar

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Domkrat yordamida osib qo'yilgan avtomobil ostida ishlash xavflidir. Agar avtomobil domkratdan sirpanib ketsa, siz jiddiy jarohatlar olishingiz yoki hatto halok bo'lishingiz mumkin.
Domkrat bilan ko'tarilgan va faqat domkratga tiralib turgan avtomobil ostiga kirish taqiqlanadi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Noto'g'ri o'rnatilgan domkrat bilan avtomobilni ko'tarish avtomobilga shikast yetkazishi va hattoki uning ag'anab ketishiga olib kelishi mumkin. Jarohatlar olish va avtomobilni shikastlashdan saqlanish maqsadida, avtomobilni ko'tarishdan avval kuzovdagi tegishli joyga domkratning ko'tarma boshchasini o'rnating.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Domkratda haddan tashqari surilib chiqishdan saqlanish maqsadida uning yurishini cheklovchi funksiya amalga oshirilgan. Chegara balandlikka erishilgan vaqtda, ko'tarishga urinishni davom ettirishda o'sib boruvchi qarshilik his etiladi. Chegaradan yuqoriga ko'tarish domkratning tayanch barmog'ining shikasitlanishiga va haddan tashqari surib chiqarilgan holatda domkratning bloklanishiga yoki to'liq tushirish imkonsizligiga olib kelishi mumkin. Chegara balandligiga erishilgandan keyin domkratning ko'tarilishini majburan davom ettirishga urinmang.

5. Domkartdagi g'ildirak gayka kalitini soat strelkasi bo'ylab aylantirib, avtomobilni ko'taring. Avtomobilni g'ildirak yerdan uziladigan va ehtiyot g'ildirakni g'ildirak kamgagiga kiritish mumkin bo'lishi uchun shunday ko'taring.



6. Barcha g'ildirak gaykalarini bo'shating.
7. Teshilgan shinali g'ildirakni yechib oling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

G'ildirakdagi yoki uning mahkamlanish detallaridagi zang yoki loy vaqt o'tishi bilan g'ildirak gaykalarining mahkamlanishini bo'shashtirilishini chaqirishi mumkin. G'ildirak yo'qotilishi mumkin, bu esa avariya sababi bo'lib qoladi. G'ildirakni almashtirishda har qanday zanglarni yoki loylarni g'ildirakning avtomobilga mahkamlanish joylaridan olib tashlang. Favqulodda holatlarda lattani yoki qog'oz sochiqni qo'llash mumkin; biroq, so'ngra hamma zanglarni va loylarni olib tashlash uchun qirg'ich yoki simli cho'tkani qo'llash zarur.



8. G'ildirak boltlaridan, montaj yuzalaridan va ehtiyot g'ildiragidan har qanday zanglarni yoki iflosliklarni olib tashlang.
9. Ehtiyot g'ildirakni gupchakka o'rnating.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Boltlarni yoki gaykalarni moy yoki moylama bilan moylash taqiqlanadi, chunki gaykalar bo'shab qolishi mumkin. Bunda g'ildirak uzilib ketishi mumkin, bu avariyaga olib keladi.

10. G'ildirak gaykalarini bo'rab qo'ying. Barcha gaykalarni qo'l bilan tortib qo'ying. So'ngra g'ildirak gayka kaliti yordamida gaykalarni toki disk gupchakga siqilib turmagunicha tortib qotiring.
11. Avtomobilni tushirish uchun, g'ildirak kalitini soat strelkasiga teskari aylantiring. Domkratni to'liq tushiring.



12. G'ildirak gayka kalitini soat strelkasi bo'yicha aylantirib, illustrasiyada ko'rsatilgani kabi, kesishuvchan ketma-ketlikda gaykalarni mahkam tortib qotiring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar g'ildirak shpilkalari shikastlangan bo'lsa, ular sinib ketishi mumkin. Agar barcha shpilkalar sinib ketsa, g'ildirak uzilib ketishi va avariyani keltirib chiqarishi mumkin. Agar shpilkaning bittasi g'ildirak bo'shab qolganligi sababli shikastlangan bo'lsa, ehtimol, barcha shpilkalar shikastlangan bo'lishi mumkin. Ishonchlilik uchun g'ildirakdagi barcha shpilkalarni almashtiring. Agar g'ildirakdagi shpilkalar uchun tirqishlar kattalashib ketgan bo'lsa, g'ildirak harakatlanish vaqtida buzilishi mumkin. Agar shpilkalar uchun tirqishlar kattalashib ketgan yoki deformatsiyaga uchragan bo'lsa, g'ildirakni almashtiring. Gupchakni va gupchak bo'yicha markazlashtirilgan g'ildiraklarni shikastlanishlar mavjudligiga ko'rikdan o'tkazing. G'ildirak bo'shab qolishi sababli markazlashtiruvchi vkladishlarning shikastlanishi sodir bo'lishi mumkin. G'ildiraklarni to'g'ri markazlashtirish uchun butun gupchakni almashtirish talab etiladi. Agar shpilkalar, gupchaklar, g'ildirak gaykalari yoki g'ildiraklar almashtirilishi talab etilayotgan bo'lsa, GMning asl detallarini qo'llang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Noto'g'ri qotirilgan g'ildirak gaykalari g'ildirak mahkamlanishlarini bo'shab qolishiga yoki uning uzilishiga olib kelishi mumkin. G'ildirakni almashtirishdan keyin g'ildirak gaykalarini tasniflanishga muvofiq tegishli qotirish momenti bilan g'ildirak gayka kaliti bilan qotirish zarur. Avtomobil sotilganidan keyin unga o'rnatiluvchi g'ildirak gayka-sekretkalarning qo'llanilishida, ishlab chiqaruvchi tomonidan ko'rsatilgan ushbu gaykalarning qotirish momenti tasniflanishiga rioya qiling. Firma g'ildirak gaykalarini qotirish momenti tasniflanishi Yonilg'i quyish idishlari ⇨ 11-3da taqdim etilgan.

⚠ *DIQQAT!*

Noto'g'ri qotirilgan g'ildirak gaykalari tormoz mexanizmlarining titrashiga va tormoz disklarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Tormoz tizimining qimmatbaho ta'mirlanishini bajarishdan saqlanish maqsadida mahkamlagichlarning qotirilish tasniflanishlari bilan muvofiqlikda tegishli tartibda g'ildirak gaykalarini bir tekis tortib qotiring.
G'ildirak gaykalarining qotirilish momenti tasniflanishi Yonilg'i quyish idishlari ⇨11-3 bo'limda taqdim etilgan.

Soz g'ildirakning diskini joyiga o'rnatib, shuningdek, avtomobilning jamlanmasiga bog'liq holda markaziy qalpoqni yoki bolt mahkamlagichli gupchak qalpog'ini o'rnating.

- Markaziy qalpoqni o'rnatishda qalpoqdagi tilchani diskdagi o'yiq bilan moslang. Qalpoqni faqat bitta holatda o'rnatish mumkin. Qalpoqni diskga o'rnating va qalpoq o'z o'rniga chertki bilan joylashishi uchun unga shunday bosing.
- Bolt mahkamlagichli qalpoq gupchagi holatida plastik qalpoqchalarni g'ildirak gaykalariga qiydiring va ularni avvat qo'l bilan soat strelkasi bo'ylab qotiring. So'ngra tiralgunga qadar g'ildirak gayka kalit yordamida qotirishni bajaring.

Havosi chiqib ketgan yoki ehtiyot g'ildirakni va instrumentlarni saqlash

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Avtomobil salonida domkrat, g'ildirak yoki boshqa asbob-uskunalarning saqlanishi odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilning keskin to'xtashida yoki avariyasida mahkamlanmagan asbob-uskunalar biron bir kimsalarga zarba yetkazishi mumkin. Ushbu barcha asbob-uskunalarni tegishli joylarda saqlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

G'ildiraklarni saqlash qoidalariga rioya etmaslik trosning uzilishi yoki g'ildirakning mahkamlagichlarining bo'shashib ketishi oqibatida jarohat olishga yoki mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Harakatlanishni boshlashdan avval g'ildirak ishonchli qotirilganligiga ishonch hosil qiling.

⚠ *DIQQAT!*

Ehtiyot g'ildirakni, havosi chiqib ketgan g'ildirakni kabi, nippelni tepaga qaratib saqlash kerak.
Nippelni pastga qaratib g'ildirakni saqlash g'ildirakning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

G'ildirak ko'targichi taranglashtirilgan trosda ko'tarish va tushirishga mo'ljallangan. Agar ko'targichni unga mahkamlanmagan g'ildiraksiz ko'tarish yoki tushirish zarur bo'lib qolsa, buni mexanizmning buzilishidan saqlanish maqsadida faqat qo'lda va sekin qilish kerak. Kuchli instrumentlarni qo'llash taqiqlangan.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Yomon qotirilgan ehtiyot g'ildirak uzilib ketishi va YTH sababchisi bo'lib qolishi mumkin. Jarohat olish yoki mol-mulkning shikastlanish ehtimolini istisno qilish uchun, ehtiyot g'ildirakni faqat avtomobil tekis yuzada turgan vaqtdagina mahkamlash zarur.

Agar avtomobil 275/60R20 yoki 275/50R22 o'lchamlikdagi g'ildiraklar bilan butlangan bo'lsa, havosi chiqib ketgan g'ildirakni qo'lqop qutisida joylashgan havosi chiqib ketgan g'ildirakning mahkamlash kamari yordami avtomobil ichkarisiga joylashtirish zarur. Ushbu bo'limda quyida "Avtomobil ichkarisida havosi chiqib ketgan g'ildirakni joylashishi" bandini ko'ring.
Agar avtomobil 265/65R18 yoki 275/50R20 o'lchamdagi g'ildiraklar bilan butlangan bo'lsa, havosi chiqib ketgan g'ildirakni avtomobilning orqa tomonidagi zaxira g'ildirak uchun bo'lmaga joylashtirish zarur bo'ladi. Quyidagi rasmlarga va yo'riqnomalarga qarang:



1. Ko'targich yig'ilgan holda
2. Ko'targich vali
3. Yechiluvchan qopqoq/ko'targich valining tirqishi
4. Domkrat tutqichi uzaytirgichi
5. G'ildirak gayka kaliti
6. Ehtiyot g'ildirak qulfi
7. Ko'targich tomonidagi uzaytirgich uchi
8. Ko'targich valiga kirish uchun tirqish
9. Ehtiyot g'ildirak (nippel tepaga qaratilgan)
10, G'ildirak diskini qaydlagichi
11. Ko'targich trosi

1. G'ildirakni (9) orqa qismga nippelni tepaga qaratib avtomobil orqasiga yerga qo'ying.
2. G'ildirakni avtomobilga qaratib engashtiring. G'ildirak diskining qaydlagichini yo'naltiruvchi shtiftdan ajratib oling. Shtiftni disk markazi orqali o'tkazing. Qaydlagichni diskning markaziy tirqishi orqali pastga engashtiring. Mahkamlagich plastina pastdan diskga ishonchli tiralib turganligiga ishonch hosil qiling.



3. Domkrat tutqichi uzaytirgichlari (4) va g'ildirak gayka kalitini (5) yig'ing.

⚠ *DIQQAT!*
Lebedka bilan pnevmatik gaykaburagichlarni yoki boshqa shunga o'xshash instrumentlarni qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki bu tizimga shikast yetkazishi mumkin. Faqat lebedka bilan jamlanmada keluvchi instrumentlarni qo'llang.



4. Uzaytirgichning (7) bo'sh uchini orqa bamperdagi tirqishga (8) (ko'targich valiga kirish uchun tirqish) o'rnating.
5. G'ildirakni ko'taring. Mahkamlovchi plastina diskdagi tirqishga ishonchli qayd etilganligiga ishonch hosil qiling.
6. G'ildirakni ko'taring va g'ildirak kalitini soat strelkasi bo'ylab, toki ikkita chertki eshitmaguncha yoki ikki marta o'tkazib yuborishni his qilmagunicha, g'ildirak kalitini burab, uni avtomobil tubiga torting. Trosni haddan tashqari taranglashtirish imkoni yo'q.



7. G'ildirak ishonchli qotirilganligiga ishonch hosil qiling. G'ildirakdan torting, uni tebrantiring va burib ko'rishga urinib ko'ring. Agar g'ildirak bo'ysunayotgan bo'lsa, kalit bilan trosni taranglashtiring. Keyingi safar ko'zda tutilgan reglamentga binoan shinada havo bosimini tekshirayotganda yoki xizmat ko'rsatish vaqtida boshqa komponentlarga kirish imkonini olish uchun ehtiyot g'ildirakni yechib olish talab etilganida, g'ildirak mahkamlanishining ishonchliligini tekshiring.

To'g'ri joylashish

Noto'g'ri joylashish

8. Ehtiyot g'ildirakning qulfini joyiga o'rnating.
9. Ko'targich valiga kirish qopqog'ini joyiga o'rnating.

Instrumentlarni saqlash

Instrumentlarni saqlashga joylashtirish uchun:
1. Instrumentlarni (g'ildirak gayka kaliti, domkrat tutqichi va uning uzaytirgichlari) instrumentlar uchun xaltaga qaytaring.
Yopishtirgichdagi kamarlar yordamida instrumentlar uchun xaltani yukxonadagi yuk poli ostiga mahkamlang.
2. Domkratni va yumalab ketishga qarshi tayanchlarni g'ildirak arkasi ustida haydovchi tomonida naqshdor panelga joylashtiring.
3. Domkratning dumaloq tutqichini, toki domkrat mahkamlash kronshteynida ishonchli mahkamlanmagunicha, aylantiring. Mahkamlash kronshteynining shtifti domkrat asosidagi tirqishlardan biriga kirib turishini ta'minlang.
4. Naqshdor panelni eshikchasini yoping.

Havosi chiqib ketgan g'ildirakni avtomobil ichiga joylashtirilishi

Agar avtomobil 275/60R20 yoki 275/50R22 o'lchamlikdagi g'ildiraklar bilan butlangan bo'lsa, havosi chiqib ketgan g'ildirakni qo'lqop qutisida joylashgan havosi chiqib ketgan g'ildirakning mahkamlash kamari yordami avtomobil yukxonasiga joylashtirish zarur.
1. Instrumentlarni saqlashga joylashtiring.

"Instrumentlarni saqlash" bandini yuqorida ushbu bo'limda ko'ring.
2. Havosi chiqib ketgan g'ildirakni joylashtirish uchun yetarlicha bo'lgan bo'sh fazoning mavjudligini ta'minlash uchun, uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash zarur. Agar uchinchi qator o'rindiqlarini taxlash imkoni bo'lmasa, havosi chiqib ketgan g'ildirakni avtomobilga joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holatda, g'ildirakni kechroq olib ketish uchun, g'ildirakni xavfsiz joyda qoldirish kerak.
3. Avtomobilning orqa qismida yetarlicha bo'sh fazoni mavjudligini ta'minlab, havosi chiqib ketgan g'ildirakni ko'taring va uni nippelini tepaga qaratib yuk poliga qo'ying.



4. Havosi chiqib ketgan g'ildirakni mahkamlash kamarini qo'lqop qutisidan chiqarib oling va mahkamlash kamarini halqasini zo'g'otaga o'rnating. Kamarning ilgagini halqa orqali o'tkazing va kamar zo'g'otada ishonchli mahkamlangan bo'lishi uchun uni shunday torting.



5. mahkamlash kamarining ilgakli uchini illustrasiyada ko'rsatilgani kabi disk orqali o'tkazing.
6. Ilgakni avtomobilning orqa qismidagi boshqa yuk siqgichga mahkamlang.
7. Mahkamlash kamarini taranglashtirib torting.

To'liq o'lchamdagi ehtiyot g'ildirak

Agar avtomobil to'liq o'lchamdagi ehtiyot g'ildirak bilan jamlangan bo'lsa, undagi bosim sotishdan oldingi tayyorgarlik davomida me'yorga keltirilgan, biroq vaqt o'tishi bilan bosim pasayishi mumkin. Ehtiyot g'ildirakdagi havo bosimini muntazam tekshirib turing. Shinalarda nominal havo bosimi va avtomobilga yuklamalar haqidagi ma'lumotlarni "Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-37" va "Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨8-12" bo'limlarni ko'ring. Ehtiyot g'ildirakni yechib olish, o'rnatish va saqlash bo'yicha ko'rsatmalar "G'ildirakni almashtirish ⇨ 9-56" bo'limda ko'ring.
Zaxira g'ildirakni avtomobilga o'rnatgandan so'ng, darhol to'xtang va zaxira g'ildirakdagi havo bosimini tekshiring.
Zaxira g'ildirak, tavsiya etilgan ishirish bosimida, 112 km/s (soatiga 70 milya)gacha tezlikda optimal ishlaydi va safaringizni yakunlash imkonini beradi. Shikastlangan yoki tushirilgan yo'l g'ildiragini ta`mirlang va imkon qadar uni joyiga o'rnating, shunda, zarur bo'lganda zaxira g'ildirakni qayta ishlatish mumkin. Turli o'lchamdagi shina va disklarni aralashtirmang: ularni butun g'ildirak qilib bo'lmaydi. Ta`mirlangan zaxira shinani, zaxira g'ildirakning diskida saqlang.

⚠ *DIQQAT!*

Agar ehtiyot g'ildirak to'liq yuritmali avtomobilga o'rnatilgan bo'lsa, yoqilgan to'liq yuritma bilan, toki havosi chiqib ketgan g'ildirak ta'mirlanmagunicha yoki almashtirilmagunicha, harakatlanish yaramaydi. Kafolat amal qilmaydigan avtomobilning nosozliklari ehtimoli bor. Avtomobilga boshqa o'lchamdagi ehtiyot g'ildiragi o'rnatilganida, hech qanday holatda to'liq yuritmani yoqish yaramaydi.

Ehtiyot g'ildirakning o'lchamliligi avtomobilga dastlab o'rnatilgan yo'l g'ildiraklarining o'lchamliligidan farq qilishi mumkin. Bunday ehtiyot g'ildirak ushbu avtomobilda qo'llashga mo'ljallangan, shuning uchun, uni o'rnatib, harakatlanishni ishonch bilan davom ettirish mumkin. Agar ehtiyot g'ildirak to'liq yuritmali avtomobilga o'rnatilgan bo'lsa, faqat monoyuritma rejimida harakatlanish lozim bo'ladi.

Agar mashinangizda asl yo'l g'ildiraklarining o'lchami va turiga mos kelmaydigan zaxira shina bo'lsa, zaxira shinani g'ildirak aylanishiga kiritmang.To'liq o'lchamdagi vaqtinchalik zaxira shinalar kiritilgan bo'lsa, bu zaxira g'ildirakning yon devorida ko'rsatilgan. Bunday zaxira g'ildirak o'rnatilganda, shinalar nominal bosimida tirkama tortilganda tezlik 112 km/soat (70 milya) yoki 88 km/soat (55 milya) dan oshmasligi kerak.Iloji bo'lsa, yo'l g'ildiragini ta'mirlang va almashtiring va zaxira g'ildirakni kelajakda foydalanish uchun saqlang.

Agar avtomobilda o'lchami va turi bo'yicha asl yo'l g'ildiraklariga muvofiq kelmaydigan ehtiyot g'ildirak mavjud bo'lsa, ehtiyot g'ildirakni g'ildiraklarning o'rnini almashtirishga kiritmang.

Avtomobilning akkumulator batareyasi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni Akkumulator batareya ⇨9-18 bo'limda ko'ring. Agar sizning avtomobilingizni akkumulator batareyasi (yoki batareyalari) quvvatsizlangan bo'lsa, dvigatelni ishga tushirish uchun, ehtimol, ikki avtomobilning akkumulator batareyalarini yuqori voltli ulash simlarini parallel ulab, boshqa avtomobilni qo'llashga to'g'ri kelishi mumkin. Avtomobilni xavfsiz ishga tushirish uchun quyida ko'rsatilgan ehtiyotkorlik choralariga rioya qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Akkumulator batareyalari xavf-xatarlidir. Xavf quyidagi sabablar bo'yicha yuzaga keladi:

- Akkumulator batareyalari kislotani saqlaydi, u kuyishlarni yetkazishi mumkin.
- Akkumulator batareyalari gaz ajratib chiqaradi, u portlab ketishi yoki alangalanishi mumkin.
- Akkumulator batareyalari ahamiyatli elektr energiyasini saqlaydi, u kuyishlar yetkazishi mumkin.

Agar ne ushbu ehtiyotkorlik choralari bajarilmasa, siz bir yoki barcha ko'rsatilgan sabablar bo'yicha jarohat olishingiz mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Ko'rsatilgan ehtiyotkorlik choralariga rioya etmaslik avtomobilning qimmatbaho shikastlanishiga, avtomobil kafolati amal qilmaydigan ta'mirlashga olib kelishi mumkin. Itarish yoki shataklash bilan avtomobilni ishga tushirish urinishi natijasiz yakun topadi, biroq bunda avtomobilni shikastlash mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Agar ulovchi simlarni noto'g'ri tartibda ulanayotgan yoki uzilayotgan bo'lsa, elektr zanjirda qisqa tutashuv va avtomobilning shikastlanish ehtimoli bor. Bunday ta'mirlashlarga kafolat shartlari amal qilmaydi. Har doim ulovchi simlarni tegishli tartibda ulang va uzing, simlar bir-biriga va metall yuzalarga teginib turmaganligiga ishonch hosil qiling.



Ulanish nuqtalari va ketma-ketligi

1. Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyaning musbat (+) holati
2. Quvvatlangan akkumulyatorli batareyaning musbat (+) holati
3. Quvvatlangan akkumulyatorli batareyaning manfiy (-) holati
4. Quvvatsizlangan akkumulyatorli batareyaning manfiy (-) holatiga ulanish joyi Ishga tushirish amalga oshiralayotgan avtomobilda, akkumulyatorli batareyaning musbat (+) va manfiy (-) holatiga ulanish kerak.

Akkumulyatorli batareyaning musbat (+) va manfiy (-) holatiga ulanish joylari, yo'lovchi tomonida joylashgan.

Quvvatsizlashgan batareyada qo'shimcha AKBdan ishga tushirish uchun musbat klemma qopqoq bilan berkitilgan. Klemmani ochish uchun, qopqoqni suring.

1. Boshqa avtomobilni tekshiring. Unda kuzovga minus ulanishli 12-voltli akkumulator batareyasi o'rnatilgan bo'lishi kerak.

⚠ *DIQQAT!*

Agar boshqa avtomobilga kuzovga minusni ulashli 12-voltli akkumulator batareya o'rnatilmagan bo'lsa, ikkala avtomobillar shikastlanishi mumkin. Avtomobilingizni dvigatelini ishga tushirish uchun boshqa, ammo faqat kuzovga minusni ulashli 12-voltli akkumulator batareyasi o'rnatilgan avtomobildan foydalaning.

2. Dizel dvigatelli va ikki akkumulator batareyasiga ega bo'lgan avtomobil holatida, boshlashdan avval, boshqa avtomobildagi bitta batareyaning quvvati dizel dvigatelni ishga tushirish uchun, ayniqsa sovuq ob-havoda. yetarlicha bo'lmay qolishligiga e'tiboringizni qarating. Agar avtomobilda bir nechta akkumulator batareyalar mavjud bo'lsa, starterga yaqinroq joylashganni qo'llanilishi elektr qarshilikning pasayishini ta'minlaydi. U

yo'lovchi tomonidagi motor bo'linmasining orqa qismida joylashgan.
3. Ikkala avtomobilni ulovchi simlarning uzunligi ikki akkumulator batareyalarni parallel ulush uchun yetarlicha bo'ladigan qilib yonma-yon joylashtiring, ammo avtomobillarning kuzovlari teginib turmaganligiga ishonch hosil qiling. Teginib turish bulin massa bo'yicha nomaqbul ulanish yuzaga keltirilishi mumkin.
Siz o'z avtomobilingizni dvigatelini ishga tushirish imkoniga ega bo'lmaysiz, massa bilan noto'g'ri ulanish esa avtomobillarning elektr tizimini ishdan chiqarishi mumkin.
Avtomobillarning beixtiyor harakatlanib ketishidan saqlanish maqsadida ulardan birining dvigatelini ishga tushirish taomilida ishtirok etuvchi ikkala avtomobillarda to'xtab turish tormozlarini kuchli tortib qo'ying.
To'xtab turish tormozini tortib qo'yishdan avval, avtomat uzatmalar qutisining selektor pishangisini P (to'xtab turishga joylashtirish) holatiga o'rnating yoki mexanik uzatmalar qutisining o'zgartirgichi pishangisini neytral holatga joylashtiring. Agar avtomobil to'liq yuritma tizimi bilan jihozlangan bo'lsa, tarqatish qutisining selektorini N (neytral) holatga emas, balki yetakchi uzatmaga o'rnatish shart.

⚠ *DIQQAT!*

Agar tashqi akkumulatordan dvigatelni ishga tushirish vaqtida oziqlanish ulagichida biron bir qo'shimcha asbob-uskuna ishlab tursa yoki yoqilgan holatda qolsa, bu uning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bunday ta'mirlashlarga kafolat shartlari amal qilmaydi. Qo'shimcha AKBdan ishga tushirishda ikkala avtomobillardagi barcha qo'shimcha asbob-uskunalarni iloji boricha o'chirib qo'yish yoki uzib qo'yish kerak bo'ladi.

4. Ikkala avtomobillarda o't oldirishni o'chirib qo'ying. Ishlatilmayotgan qo'shimcha asbob-uskunalarni elektr ulagichidan uzib qo'ying. Radiopriyomnikni va barcha kerak bo'lmagan chiroqlarni o'chirib qo'ying. Bu uchqunlarning hosil bo'lishidan saqlanishda va ikkala akkumulator batareyalarni himoyalashda yordam beradi. Bundan tashqari, bu radiopriyomnikni himoyalaydi!
5. Boshqa avtomobilning kapotini oching va musbat (+) va manfiy (-) klemmalarning joylashishini aniqlang.
Musbat (+) klemma batareyaning musbat qutbli chiqishda qizil plastik qopqoq ostiga joylashtirilgan. Musbat (+) klemmaga kirish imkonini olish uchun, qizil plastik qopqoqni oching.
Chiqarilgan musbat (+) va manfiy (-) klemmalarning joylashishi haqidagi ancha batafsil ma'lumotlarni "Motor bo'linmasining umumiy ko'rinishi ⇨ 9-4" bo'limda ko'ring.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Elektr ventilator hattoki ishlamayotgan dvigatelda ham yoqilishi va sizga jarohatlar yetkazishi mumkin. Qo'llarni, kiyimlarni va instrumentlarni kapot ostida joylashgan elektr ventilatordan uzoqroqda saqlash kerak bo'ladi.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Akkumulator batareyasi yaqinida gugurtlarning qo'llanilishi elektrolit bug'larining portlab ketishiga olib kelishi mumkin. Bu haqda unutib, ko'pchilik odamlar jarohat olgan, ba'zilari esa ko'rish qobiliyatini yo'qotgan. Agar ko'proq yorug'lik kerak bo'lsa fonarchadan foydalaning.
Akkumulator batareyasining elektrolitida kislota saqlanadi, u kuyishlar keltirishi mumkin. Elektrolitni ustingizga to'kib yubormang. Agar elektrolit tasodifan ko'zlarga yoki teriga tushib qolsa, ularni suv bilan yuving va darhol shifokorga murojaat qiling.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Ventilatorlar va dvigatelni boshqa harakatlanuvchi detallari jiddiy jarohatlar keltirishi mumkin. Agar avtomobil dvigateli ishlab turgan bo'lsa, qo'llarni harakatlanuvchi detallardan uzoqroqda tutib turing.

6. Ulovchi simlardagi izolyatsiya butunligigiga, bo'shab ketmaganligiga va shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, elektr toki bilan jarohat olish ehtimoli bor. Avtomobillar ham shikastlangan bo'lishi mumkin.

Simlarni ulashdan avval quyidagilarni bilish zarur bo'ladi. Musbat (+) klemmani boshqa musbat (+) klemma bilan yoki chiqarilgan musbat (+) klemma bilan, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa, ulash kerak bo'ladi. Manfiy (-) klemmani dvigatelni massiv bo'yalmagan metall detalli yoki chiqarilgan manfiy (-) klemma bilan, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa, ulash kerak.

Musbat (+) klemmani manfiy (-) klemma bilan ulash taqiqlanadi, aks holda siz qisqa tutashuvni hosil qilasiz, u akkumulator batareyasini, hamda, ehtimol, avtomobilning boshqa bo'g'imlarini ishdan chiqarishi mumkin. Manfiy (-) simni quvvatsizlangan akkumulator batareyaning manfiy (-) klemmasi bilan ulash taqiqlanadi, chunki bu uchqunlarning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

7. Qizil musbat (+) simni bir uchini quvvatsizlangan akkumulator batareyaga ega bo'lgan avtomobildagi chiqarilgan musbat (+) klemmaga ulang.

8. Simning ikkinchi uchi metall yuzalarga teginib turmasligiga harakat qiling. Uni soz akkumulator batareyaning musbat (+) klemmasiga ulang. Chiqarilgan musbat (+) klemmani qo'llang, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa.

9. Qora manfiy (-) simning bir uchini quvvatsizlashgan akkumulator batareyasining manfiy qutbli uchiga (-) ulang. Chiqarilgan manfiy (-) klemmani qo'llang, agar u avtomobilda mavjud bo'lsa. Simning boshqa uchi quyidagi harakatlarni bajarilguniga qadar hech narsaga teginmasligiga harakat qiling.

10. Manfiy (-) simning bir uchini quvvatsizlangan akkumulator batareyasining manfiy (-) qutbli uchiga ulang.

11. Soz akkumulator batareyasiga ega bo'lgan avtomobil dvigatelini ishga tushirish va unga bir oz ishlab turish imkonini bering.

12. Quvvatsizlangan akkumulator batareyasiga ega bo'lgan avtomobil dvigatelini ishga tushirishga urinib ko'ring. Agar bir nechta urinishlar muvaffaqiyatsiz yakun topsa, ehtimol, texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi.

Ulovchi simlarni uzish

Simlarni uzilishi teskari tartibda amalga oshirilishi kerak.

Quvvatsizlashgan AKBga ega bo'lgan avtomobil dvigateli ishga tushirilgan va simlar uzib qo'yilganidan keyin, dvigatelga bir necha minut bo'sh yurishda ishlab turishiga imkon bering.

AVTOMOBILNI SHATAKKA OLISH

Nosoz avtomobilni tashish

⚠ *DIQQAT!*

Nosoz avtomobilning transportda tashish qoidalarini buzilishi avtomobilning turlicha tizimlarini shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilni maxsus kamarlar bilan g'ildiragidan evakuatorning platformasi ustiga mahkamlash kerak. Quyida ko'rsatilmagan rama, tub yoki osma elementlariga kamarlar yoki ilgaklar bilan avtomobilni mahkamlash taqiqlanadi. Agar yetakchi g'ildiraklar yerga joylashgan bo'lsa, avtomobilni tashish taqiqlanadi. Ushbu holatdagi shikastlanishlar kafolatli hisoblanmaydi.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobil elektr to'xtab turish tormozi va/yoki elektron uzatmalarni o'zgartirish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi mumkin. 12-voltli akkumulator batareyasining kuchlanishi mavjud bo'lmagan holatda elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirish va neytral uzatmani yoqish imkoni bo'lmaydi. Avtomobilni yuklash jarayonida shikastlanishlardan saqlanish maqsadida bloklangan g'ildiraklar ostiga maxsus yumalatuvchi aravachalarni o'rnatish lozim bo'ladi. Avtomobilni yumalatish oqibatida keltirilgan shikastlanishlarni ta'mirlanishi kafolatli hisoblanmaydi.

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobil shataklash zo'g'otasi bilan butlangan bo'lishi mumkin. Shataklash zo'g'otasini qo'llash qoidalarini buzilishi avtomobilning shikastlanish sababi bo'lib qolishi mumkin, va ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi. Agar avtomobilda shataklash zo'g'otasini o'rnatish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, uni avtomobilni evakuatorga yuklash yoki piyodaning harakatlanish tezligida qisqa masofaga shataklash uchun qo'llang. Shataklash zo'g'otasi yo'lsizlikda qo'llash uchun mo'ljallanmagan. Shataklash zo'g'otasidan foydalanishda neytral uzatmani yoqish va elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirib qo'yish zarur bo'ladi.

Agar sizga ishdan chiqqan avtomobilni transportda tashish zarur bo'lsa, ixtisoslashtirilgan transport kompaniyasiga yordam uchun murojaat qiling. GM nosoz avtomobilni transportda tashish uchun evakuatordan foydalanishni tavsiya qiladi. Zarurat tug'ilganida yo'lakay kirish burchagini kamaytirish uchun apparellarni qo'llang.
Shataklash zo'g'otasi (agar jamlanma bilan ko'zda tutilgan bo'lsa) ehtiyot g'ildirak yoki domkrat yonida saqlanadi.

Qorda, loyda, qumda yoki zovurda tiqilib qolgan avtomobilni tortib chiqarish uchun shataklash zo'g'otasini qo'llash taqiqlanadi. Shataklash zo'g'otasida o'ng yoki chap rezba qo'llanilishi mumkin. Shataklash zo'g'otasini o'rnatishda yoki yechib olishda ehtiyotkorlikka amal qiling.
Avtomobilni evakuatorga yuklashda neytral uzatmani yoqish va elektr mexanik to'xtab turish tormozini o'chirib qo'yish zarur bo'ladi.

- Agar avtomobilda avtoyuvish rejimi amalga oshirilgan va oziqlanish 12-voltli batareyadan qo'llanilayotgan bo'lsa, "Avtomatik uzatmalar qutisi ⇨ 8-23" bo'limda "Avtoyuvish rejimi" bandini ko'ring va avtomobil transmissiyasini N (neytral) holatga o'tkazing.
- Agar 12-voltli batareya quvvatsizlashsa va/yoki dvigatel ishga tushmasa, avtomobil harakatlanish imkoniga ega bo'lmaydi. Avtomobil dvigatelini qo'shimcha AKBdan ishga tushirishga urinib ko'ring. "Qo'shimcha AKBdan ishga tushirish ⇨ 9-67" bo'limni ko'ring, agarda qo'shimcha AKBdan ishga tushirishni bajarish qo'ldan kelsa, "Avtoyuvish rejimi" taomilini takrorlang.
- Agar qo'shimcha AKBdan ishga tushirishni bajarish uddasidan chiqilmayotgan bo'lsa, avtomobil harakatlanish imkoniga ega bo'lmaydi. Agar avtomobil g'ildiraklari aylanmayotgan bo'lsa, shikastlanishlardan saqlanish maqsadida g'ildiraklar ostiga maxsus yumalatiluvchi aravachalar qo'llaniladi.

AVTOMOBILNING TASHQI KO'RINISHINI PARVARISHLASH

Mahkamlashning oldingi nuqtalari



Avtomobil, yo'lning tekis yuzasidan yengil avtomobillarni tashish uchun yassi platformaga avtomobilni tortib chiqarish uchun xizmat kiluvchi, mahkamlashning maxsus nuqtalari bilan jihozlangan. Avtomobilni qordan, loydan va qumdan tortib chiqarish uchun ushbu mahkamlash nuqtalaridan foydalanmang.

Qulflar

Qulflar zavodda moylangan. Muzdan tushirish uchun vositalardan faqat o'ta yuqori zarurat bo'lgandagina foydalaning; bunday vositalardan foydalanishdan keyin qulfni konsistent moylama bilan moylang. Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13ni ko'ring.

Avtomobilni yuvish

Avtomobilning lak-bo'yoq qoplamasini yaxshi holatda saqlab qolish uchun, uni yopiq xonada yoki soyada muntazam yuvib turing.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Neft mahsulotlari asosidagi tozalash vositalarini, hamda o'yuvchi yoki abraziv vositalarni qo'llamang, chunki bu lak-bo'yoq qoplamasini, metall va plastmassa detallarini shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Avtomobilga shikast yetkazilish holatida ularga kafolat shartlari amal qilmaydi. Avtomobilni tozalash uchun tavsiya etilgan vositalarni o'z dileringizda olishingiz mumkin. Mahsulotdan tegishli tarzda qo'llanilishiga nisbatan ishlab chiqaruvchining barcha ko'rsatmalariga, ehtiyotkorlikning zaruriy choralariga va avtomobilni parvarishlash uchun har qanday vositalarni to'g'ri utilizatsiya qilish qoidalariga rioya qiling.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Avtomobil kuzovi yuzasidan yuvish forsunkalari 30 sm (12 dyuym) yaqinlikda joylashgan avtomobil yuvish joylaridan foydalanmang.
> 8 274 kPa (1 200 funt/kv.dyuym)dan ortiq bosim ostida ishlaydigan asbob-uskunalarning qo'llanilishi lak-bo'yoq qoplamasining shikastlanishiga yoki yorilib ketishiga yoki yopishtirma yorliqlarning ko'chib ketishiga olib kelishi mumkin.

Avtomatik yuvish qo'llanilish holatida avtomobilni yuvish bo'yicha yo'riqnomalarga rioya qiling. Old oyna tozalagichini va, agar jamlanmada mavjud bo'lsa, orqa oyna tozalagichini yechib qo'yish zarur. Shikastlanishi mumkin bo'lgan yoki avtomobilni yuvish uchun qurilmalarga xalallarni yuzaga keltiruvchi barcha aksessuarlarni yechib qo'ying. Yuvishdan oldin va barcha yuvish vositalarini to'liq yuvib tashlash uchun undan keyin avtomobilni yaxshilab chayib oling. Agar yuvish vositalarini quriyotgan yuzada qoldirilsa, ular dog'lar hosil qilishi mumkin.
Yuzada tirnalishlar va suvdan dog'lar hosil bo'lishidan saqlanish maqsadida pardozlash qoplamalarini yumshoq toza zamsha yoki ip-gazlama sochiq bilan quritib artib oling.

Kapot ostidagi komponentlarni tozalash

⚠ *DIQQAT!*

belgisi mavjud bo'lgan motor bo'linmasidagi komponetlarni tozalash uchun yuqori bosimdagi yuvish asbob-uskunalarini qo'llash yaramaydi.
Bu kafolat taalluqli bo'lmagan shikastlanishga olib kelishi mumkin.

Eritgichlar va tajovuzkor tozalovchi vositalar kapot ostidagi komponentlarni shikastlashi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalarni qo'llashdan saqlanish lozim.
Faqat sovuq suvni qo'llash tavsiya etiladi.
Bosim ostidagi yuvishni ehtiyotkorlik bilan qo'llash mumkin. Quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

- Suv bosimi 14 000 kPa (2000 funt/kv. yuym)dan yuqori bo'lmasligi kerak.
- Suv harorati 80 °C (180 °F)dan past bo'lishi kerak.
- Purkash burchagi 40 gradus va undan kengroq bo'lgan purkash forsunkasini qo'llash kerak.
- Forsunkani yuzadan 30 sm (1 fut)dan kam bo'lgan masofada tutib turish kerak.

Lak-bo'yoq qoplamasini parvarishlash

Biron bir qo'shimcha himoya qoplamalarini surtish yoki kuzovga mum bilan ishlov berilishini bajarish tavsiya etilmaydi. Lak-bo'yoq qoplamasining shikastlanishi aniqlangan holatda shikastlanishni baholanishini o'tkazish va uni bartaraf qilish uchun dilerga murojaat qilish zarur.
Kalsiy xloridi va boshqa tuzlar, muzni eritish uchun vositalar, yo'l moyi va bitum, daraxtlarning shirasi, sanoat tutun quvurlaridan kimyoviy moddalar va boshqalar, agar ular bo'yalgan yuzalarda uzoq turib qolsa, avtomobil kuzovining lak-bo'yoq qoplamasini shikastlashi mumkin.
Avtomobilni iloji boricha tezroq yuvib olish kerak. Zarurat tug'ilganida noabraziv yuvish vositalarini qo'llang, ularning qadog'ida ular bo'yalgan yuzalar uchun xavfsizligi va begona moddalarni olib tashlashi ko'rsatilgan.
Ba'zi holatlarda, lak-bo'yoq qoplamasidan qatlamlarni olib tashlash uchun mumni qo'lda surtish yoki sayqallashni o'tkazish mumkin. Tavsiya etilgan tozalash vositalari haqida qo'shimcha ma'lumotlarni olish uchun dilerga murojaat qilish kerak.
Plastmassadan, sun'iy teridan yoki rezinadan himoyalanmagan yuzalarda, yopishtirma yorliqlarda, yog'ochni imitatsiya qiluvchi pardozlash elementlarida, hamda bo'yalgan yuzalarda mumni yoki polirolni qo'llamanag, chunki bu ularning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Bazaviy bo'yoq/shaffof lakga avtomatik ishlov berish yoki tajavuzkor sayqallash lak-bo'yoq qoplamasini shikastlanishiga olib kelishi mumkin.
Faqat avtomobil qoplamasining bazaviy bo'yog'i/shaffof laki uchun mo'ljallangan noabraziv mumni va polirolni qo'llang.

Pardozlash bo'yalgan qoplama yangidek ko'rinish berishi uchun, avtomobilni garajda yoki, imkoniyat bo'yicha, g'ilof ostida saqlang.

Tashqi yaltiroq metall moldinglarni himoyalash

⚠ *DIQQAT!*

Tashqi yaltiroq moldinglarni o'z vaqtida tozalamaslik va himoyalamaslik oq izlarning yoki nuqtali korroziyaning hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.
Bunday shikastlanishlarga kafolat shartlari amal qilmaydi.

Avtomobilda yaltiroq metall qoplamalar aluminiy, xrom yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan. Shikastlanishlarni oldini olish uchun tozalash bo'yicha quyidagi yo'l-yo'riqlarga qat'iy rioya qilish zarur:

- Yuvuvchi vositani surtishdan oldin molding ushlab ko'rishga sovuqligiga ishonch hosil qiling.
- Aluminiy, xrom yoki zanglamaydigan po'latdan moldingalrni tozalash uchun faqat tavsiya etilgan tozalash vositalaridan foydalaning. Ba'zi yuvish vositalari kuchli kislotalarni yoki ishqorlarni saqlaydi va ular moldinglarning shikastlanishlarini yuzaga keltirishi mumkin.
- Konsentratsiyalangan yuvish vositalarini ishlab chiqaruvchining yo'l-yo'riqlarga qat'iy rioya qilgan holda aralashtirish kerak.
- Avtomobilni parvarishlash uchun mo'ljallanmagan yuvish vositalaridan foydalanmang.
- Yuvishdan so'ng moldingning finish qoplamasini himoyalash va uning xizmat qilish muddatini uzaytirish uchun avtomobilga noabraziv mumni surting.

Tashqi yoritish texnikasini, ornamentlarni, yopishtirma yorliqlarni va moldinglarni tozalash

Tashqi yoritish uskunalari, tarqatuvchilarni, ornament elementlarini, yopishtirma yorliqlarni va moldinglarni tozalash uchun faqat iliq yoki sovuq suvni, yumshoq lattani va maxsus avtomobil shampunini qo'llang.

Ushbu bo'limda "Avtomobilni yuvish" paragrafida yuqorida keltirilgan yo'l-yo'riqlarga rioya qiling.

Chiroqlarning plafonlari plastikdan bajarilgan va ulardan ba'zilari ultrabinafsha nurlardan himoyalovchi qoplamaga ega. Ularni quruq holatda tozalamang va artmang.

Chiroqlarning plafonlari bilan birgalikda quyidagilarni qo'llamang:

- Abraziv yoki ishqorlarni saqlovchi vositalar.
- Yuvgich suyuqligi yoki bu ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilganga qaraganda ancha yuqori konsentratsiyaga ega bo'lgan yuvish vositalari.
- Eritgichlar, spirtlar, yonilg'i yoki boshqa qattiq yuvish vositalari.
- Muz uchun qirg'ichlar yoki boshqa qattiq buyumlar.
- Bozorda taklif etilayotgan qoplamalar yoki qalpoqlarni faralar yoqilishi vaqtida, haddan tashqari qizib ketishi sababi bo'yicha.

⚠ *DIQQAT!*

Chiroqlarni tozalash bo'yicha talablarga rioya etmaslik chiroq plafonining shikastlanishiga olib kelishi mumkin, unga avtomobilga kafolat shartlari amal qilmaydi.

⚠ *DIQQAT!*

Polosalarning xira qora qoplamasida mumning qo'llanilishi yuzaga yaltiroqlik berishi va bir tusda bo'lmagan qoplamaga olib kelishi mumkin. Xira polosalarni faqat sovunli eritmani qo'llash bilan tozalash zarur.

Havoto'plagichlar

Avtomobilni yuvish vaqtida havo to'lagichlardan, kapot va old oyna orasidan iflosliklarni tozalang.

Radiator jalyuzilari

Avtomobil radiator jalyuzilari bilan jihozlangan bo'lishi mumkin, ular yonilg'i sarfi samaradorligini oshiradi. Radiator jalyuzilarini chiqindilardan, qordan va muzdan tozalab turing. Agar dvigatelni tekshirish signal lampasi yongan bo'lsa, radiator jalyuzisida chiqindilar, qor yoki muzning mavjud emasligini tekshiring.

Old va orqa oyna oyna tozalagichlarining cho'tkalari

Old oynaning tashqarisini oynalar uchun tozalash vositasi bilan tozalab oling.

Oyna tozalagichlarning rezina cho'tkalarini tolalalr qoldirmaydigan lattada yoki old oyna yuvgichi uchun suyuqlikda yoki yumshoq yuvish vositasida namlantirilgan qog'oz sochiqda tozalang.

Oyna tozalagich cho'tkalarini tozalagandan keyin old oynani yaxshilab yuvib oling. Hasharotlardan izlar, yo'l qurumi, o'simliklarning shirasi va avtomobil yuvishidan/mum bilan ishlov berishdan keyin kimyoviy moddalarning qatlamlari oyna tozalagichning cho'tkalarining chiyillashiga olib kelishi mumkin.

Agar oyna tozalagichlarning cho'tkalari yedirilgan yoki shikastlangan bo'lsa, ularni almashtiring. Shikastlanishlar avtomobilning yuqori changlanganlik, qum, tuzlarning ta'siri ostida, yuqori haroratlar, quyosh nurlari, qor va muz bilan qoplanish sharoitlarida ekspluatatsiyasi oqibatida yuzaga kelishi mumkin.

Rezina zichlashtirgichlari

Agar eshik tirqishlaridagi rezina zichlagichlarini zichlagichlar uchun moylama surtib chiqilsa, ular uzoq vaqt xizmat qiladi, ancha ishonchli germetizatsiyani ta'minlaydi, yopishib qolmaydi va chiyillamaydi. Rezina zichlagichlarini bir yilda kamida bir marta moylab turing. Issiq, quruq iqlim sharoitlarida ancha tez-tez moylash talab etilishi mumkin. Lak-bo'yoq qoplamasi yuzasidan zichlagichlarning qora izlarini ushbu joyni toza lattada artib olib, olib tashlash mumkin. Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13ni ko'ring.

Shinalar

Shinalarni tozalash uchun shinalar uchun tozalash vositasi bilan qattiq cho'tkani qo'llang.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Neft asosidagi shinalarga ishlov berish mahsulotlarini qo'llanilishi pardozlash lak-bo'yoq qoplamasini va/yoki shinalarni shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Shinalarga ishlov berish uchun vositalar surtilgandan keyin avtomobil kuzovining bo'yalgan yuzalaridan u yerga tushib qolgan aerozol vositaning sachratmalarini/ tomchilarini har doim artib tashlang.

G'ildiraklarning disklari va qalpoqlari

G'ildiraklarni tozalash uchun yumshoq toza matoni va kuchsiz sovun eritmasini qo'llang. Toza suvda yaxshilab chayib olishdan keyin disklarni yumshoq toza sochiqda artib oling. Bundan so'ng mumni surtish mumkin.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Xromlangan g'ildirak disklari va xromlangan qalpoqlar, agar avtomobilda magniy xloridi, xlorid yoki kalsiy xloridi sepilgan yo'llar bo'ylab safar qilgandan so'ng yuvilmasa, ular shikastlanishi mumkin. Ushbu reagentlar changangan va muz bilan qoplangan yo'llarda ishlatiladi. Har doim ifloslanishlar ta'siridan keyin xromlangan qoplamalarni sovunli suvda yuvib oling.

⚠ *DIQQAT!*

G'ildirak disklari va qalpoqlarining shikastlanishidan saqlanish maqsadida konsentratsiyalangan sovun eritmalarini, kimyoviy moddalarni, sayqallash uchun abraziv vositalarni, tozalash vositalarini yoki cho'tkalarni qo'llamang. Faqat GM tomonidan tavsiya etilgan tozalash vositalarini qo'llang. Avtomatik avtoyuvish joylarida avtomobilni yuvishdan saqlaning, ularda kremniy karbididan shina/disklar uchun tozalash cho'tkalari qo'llaniladi. Bu disklarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu holatdagi ta'mirlash kafolatli hisoblanmaydi.

Tormoz tizimi

Tormoz tizmining gidroyuritmasi shlanglarini va quvurlarini ko'zdan kechiring. Ular ishonchli mahkamlangan bo'lishi, bukilib qolishlarga, sizib chiqishlarga, yoriqlarga, yedirilishlarga va boshqa nuqsonlarga ega bo'lmasligi kerak. Yedirilish alomatlarining mavjduligiga tormoz kolodkalarini tekshiring, disklarning yuzasini holatini ko'zdan kechiring. Yedirilish yoki yoriliqlar belgilarning mavjudligiga baraban tormoz mexanizmlarining kolodkalarini tekshiring. Tormoz tizimining qolgan elementlarini ko'rikdan o'tkazing.

Rul boshqaruvi, osma va shassi detallari

Bir yilda kamida bir marta shikastlanishlar, bo'shab qolgan mahkamlanishlar, detallarning mavjud emasligi yoki yuqori yedirilish belgilarning mavjudligiga rul boshqaruvini, osmani va yurish qismini ko'rikdan o'tkazing.

Rul boshqaruvining kuchaytirgich magistrallarini va shlanglarini ishonchli mahkamlanganligi va ulanishi, bukilib qolishlarning mavjudligi, germetizatsiyaning buzilishi, yoriqlar, yedirilishlar va boshqa nuqsonlarga ko'rikdan o'tkazing.

Sharnirlarning himoya rezina g'iloflarini teng burchak tezliklariga ko'rikdan o'tkazing va yarim o'qlarning salniklarini germetizatsiyasining buzilishi alomatlarining mavjudligiga tekshiring.

Boshqaruv pishangilarining sharli tayanchlari xizmat ko'rsatilmaydigan hisoblanadi.

Kuzov detallarini moylash

Qulflarning barcha silindlarini, kapot oshiq-moshiqlarini, ko'tarma eshikning oshiq-moshiqlarini, yonilg'i quyish bo'yinchasining po'lat qopqog'ining va elektr yuritmali zinapoyaning oshiq-moshiqlarini moylang, plastmassadan ishlab chiqarilgan detallardan tashqari. Agar eshik tirqishlarini rezina zichlagichlarini silikon vazelin bilan, uni toza lattada surtib, moylansa, zichlagichlar uzoqroq xizmat qiladi, ancha ishonchli germetizatsiyani ta'minlaydi, yopishib qolmaydi va chiyillamaydi.

Kuzov tubiga texnik xizmat ko'rsatish

⚠ *DIQQAT!*

Avtomobil ramasini bosim ostida yuvishdan saqlaning. Yuqori bosim ostidagi yuvish vositalarining qo'llanilishi korroziyadan himoyalashni olib tashlanishiga va avtomobilning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Bir yilda kamida bir marta (bahorda va kuzda) korroziya ifloslanishlaridan kuzovning tubini tozalab oling. Buning uchun uni tozalovchi vositalar qo'shmasdan oddiy suvda yuvib oling. Iflosliklar yig'iladigan joylarni sinchkovlik bilan yuving. Elektr yuritmali zinapoyaning mavjudligida uni surib chiqaring, so'ngra esa yuqori bosim ostida barcha ulanishlarni va tirqishlarni yuvib oling.

Tarqatuvchi qutining salniklariga va (yoki) oldingi va orqa ko'priklarning reduktorlariga bosim ostidagi suv oqimini yo'naltirmang. Bosim ostidagi suv salniklar orqali ichkariga kirib borishi va moy bilan aralashishi mumkin. Moyda suvning mavjudligi tarqatuvchi qutining va (yoki) ko'priklarning resursini pasaytirilishiga olib keladi. Suv bilan ifloslangan moyni almashtirish lozim.

Listli metallning shikastlanishi

Agar avtomobil shikastlangan va listli metallning ta'mirlanishini yoki almashtirilishini talab etayotgan bo'lsa, kuzovni ta'mirlash ustaxonasida ta'mirlangan yoki almashtirilgan detallarga korroziyadan himoyalashni tiklash uchun antikorroziya materiallari surtilayotganligiga ishonch hosil qiling. Firma almashtiriluvchi detallar avtomobilga kafolatni saqlash uchun korroziyadan himoyalangan bo'ladi.

Lak-bo'yoq qoplamasining shikastlanishi

Korroziya rivojlanishidan saqlanish maqsadida mayda chertkilarni va tirnalishlarni dilerda xarid qilish mumkin bo'lgan maxsus niqoblovchi vositalar bilan tezkor bartaraf qilish kerak bo'ladi. Lak-bo'yoq qoplamasini shikastlanishining katta zonalarini dilerning kuzov ustaxonasida va bo'yash sexida ta'mirlatish mumkin.

Kimyoviy moddalardan lak-bo'yoq qoplamasidagi dog'lar

Havoda mavjud bo'lgan tajavuzkor moddalar kuzov panellariga o'tirishi va lak-bo'yoq qoplamasining yuzasida dumaloq rangsizlangan va notekis taqsimlangan to'q dog'larning paydo bo'lishiga olib kelib, ular bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi mumkin. "Lak-bo'yoq qoplamalarini parvarishlash"ni ushbu bo'limda yuqorida ko'ring.

Avtomobil salonini parvarishlash

Iflosliklar va changning mayda zarralarining abraziv ta'siridan tirnalishlarning hosil bo'lishidan saqlanish uchun, avtomobil salonini muntazam tozalab turish zarur. Tozalash vositalarini qo'llashdan avval qadoqning yopishtirma yorlig'ida keltirilgan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha barcha yo'l-yo'riqlarni o'qib chiqing, va ularga rioya qiling. Zaruriy ventilyatsiyani ta'minlash uchun salonni tozalash vaqtiga eshiklarni va oynalarni ochib qo'ying. Ro'znomlarning bo'yog'i va to'q kiyimlar salon qoplamasining elementlarini kir qilishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Salon qoplamasi elementlariga tushib qolgan qo'llar uchun kremlar, quyoshdan himoyalash kremlari va hasharotlarga qarshi vositalar (repellentlar)ni olib tashlash kerak, aks holda ular qoplamani shikastlashi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Salon qoplamasi materiallarini shikastlanishidan saqlanish maqsadida tozalanuvchi materialning turiga muvofiq tozalash vositalarini tanlash lozim bo'ladi. Tozalash vositasini siz tozalash uchun qo'llaydigan matoga bevosita purkang. Tozalash vositasini o'zgartirgichlarning tutqichlariga va klavishalariga purkamang.

Suyuq sovun tozalovchi vositalarini qo'llashda ularni ishlab chiqaruvchining yo'l-yo'riqlariga binoan aralashtirish lozim.

⚠ *DIQQAT!*

Shikastlanishlardan saqlanish maqsadida:
- Salonning har qanday yuzalaridan ifloslikларni olib tashlash uchun ustara yoki har qanday boshqa o'tkir buyumlarni qo'llash taqiqlanadi.
- Mo'yi qattiq bo'lgan cho'tkalarni qo'llamang.
- Tozalanuvchi yuzalarni juda jadal ishqalamang va haddan tashqari kuch ishlatmang.
- Elektr asbob-uskunalarning ochiq elementlarini namlamang.
- Yog'sizlantiruvchi ingredientlarni saqlovchi kir yuvish kukunlarini yoki idish-tovoqlarni yuvish uchun vositalarni qo'llash yaramaydi. Kuchli ta'sir qiluvchi yoki natriy sovuni eritmalarini ko'llash to'g'ri kelmaydi.
- Tozalash vaqtida salon qoplamasini suyuqlik bilan kuchli namlantirish yaramaydi.
- Eritgichlarni yoki eritgichlarni saqlovchi tozalash vositalarini qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.
- Xushbo'ylashtirilgan nam sochiqlarni yoki oqartiruvchi vosita bilan shimdirilgan qog'oz sochiqlarni qo'llamang. Agar qog'oz sochiqlar qo'llanilganida ular tozalanuvchi materiallning rangiga bo'yalayotgan yoki o'zining tashqi ko'rinishini qandaydir o'zgartirayotgan bo'lsa, ularni qo'llamang.
- Qo'llar uchun xushbo'ylashtirilgan yoki gelsimon dezinfeksiya qiluvchi vositalarni qo'llamang. Salon qoplamasi detallariga dezinfeksiyalovchi vositaning tushib qolishida uni darhol kuchsiz sovun eritmasida namlantirilgan yumshoq matoning bo'lagi bilan tozalab oling.

⚠ *DIQQAT!*

Tirnalishlar hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun, avtomobil oynasini abraziv tozalovchi vositalar bilan yuvish yaramaydi. Abraziv va tajavuzkor tozalash vositalari orqa oynadagi isitish elementlarini shikastlashi mumkin.

Ekspluatatsiyaning birinchi uch-olti oy davomida telchillab qolishga moyillikni kamaytirish uchun old oynani suvda yuving.

Oynalar

Tozalash uchun suvda namlantirilgan mikrofibradan sochiqni qo'llash zarur. Yuzada qolgan tomchilarni toza quruq mato bilan tozalab oling. Zarurat tug'ilganida oddiy suv bilan yuvishdan keyin yaxshiroq tozalash uchun oynalarni tozalash uchun maxsus vositalarni qo'llash mumkin.

Karnay qoplamasi

Karnayni shikastlamaslik uchun, karnayning qoplamasi atrofidagi yuzani changyutgichda ehtiyotkorlik bilan tozalab oling. Dog'larni olib tashlash uchun kuchsiz sovun eritmasini qo'llang.

Naqshdor moldinglar

Ifloslangan naqshdor moldinglarni tozalab olish lozim.
- Agar ifloslanish kuchli bo'lmasa, ushbu joyni suvda namlantirilgan gubkada yoki yumshoq tolasiz matonining bo'lagi bilan artib oling.
- Agar ifloslanish kuchli bo'lsa, tozalash uchun iliq suvdagi sovun eritmasini qo'llang.

Vinilli/rezinali gilamchalar

Agar avtomobil polning vinilli yoki rezinali gilamchalari bilan butlangan bo'lsa, suvda namlantirilgan yumshoq matoni va (yoki)

changni va iflosliklarni olib tashlash uchun cho'tkani qo'llang. Ancha sinchkov tozalash uchun kuchsiz sovun eritmasidan foydalaning.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Silikon, mumni saqlovchi tozalovchi vositalarni, hamda vinilli/rezinali pol gilamchalarini yaltirashini oshiruvchi tozalash vositalarning qo'llanilishi taqiqlanadi. Bunday vositalar vinilli/rezinali gilamchalarning tashqi ko'rinishini va fakturasini qaytarib bo'lmas o'zgartirishi va ularni sirpanchiq qilishi mumkin. Avtomobilni boshqarish jarayonida oyoq sirpanib ketishi, siz nazoratni yo'qotishingiz, buning oqibatida avariya sodir bo'lishi mumkin. Bu odamlarning jarohat olishiga olib kelishi mumkin.

Mato, gilamchalar, zamsh

Avvaliga yumshoq cho'tkali uchni qo'llab, salonni changyutgichda tozalab oling.

Aylanuvchan cho'tkali uchlikni faqat pol gilamchalarini tozalash uchun qo'llash kerak. Tozalashdan avval qo'lda iloji boricha ko'proq iflosliklarni olib tashlashga harakat qiling:

- To'kib yuborilgan suyuqlikni qog'oz sochiqda ehtiyotkorlik bilan shimdirib olib, olib tashlash zarur. Ifloslik olib tashlanmagunicha, shimdirishda davom eting
- Qattiq iflosliklarni changyutgichni qo'llashdan avval, qo'lda, bu qanchalik imkonli bo'lsa, olib tashlash zarur.

Tozalashni amalga oshirish uchun:

1. Tolasiz, bo'yoq chiqarmaydigan matoni oddiy suvda namlab oling. Qoplama matosining yoki gilamchalarning tolalar bilan tiqilib qolishidan saqlanish maqsadida mikrotoladan mato bo'lagini qo'llash tavsiya etiladi.
2. Lattani yaxshilab siqib oling.
3. Tozalashni ifloslanishning tashqi chetidan boshlang va uning o'rtasiga qarab ehtiyotkorlik bilan artib boring. Vaqti-vaqti bilan lattani taxlang va iflosliklarni ishqalab kiritilishidan saqlanish uchun, uning toza tomonini tozalanuvchi yuzaga ag'daring.
4. Ifloslangan yuzani ehtiyotkorlik bilan artib olishda davom eting, toki latta ifloslanishdan to'xtagunicha.
5. Agar iflosni to'liq olib tashlash imkoni bo'lmagan bo'lsa, kuchsiz sovunli eritmani qo'llang, uni so'ngra faqat oddiy suv bilan yuvib tashlash zarur.

Agar iflosni to'liq olib tashlash uddasidan chiqilmagan bo'lsa, maxsus tozalash vositalariga yoki dog'tozalagichlardan foydalanish talab etilishi mumkin. Savdoda mavjud bo'lgan qoplamalar uchun tozalash vositalari yoki dog'tozalagichlarni qo'llashdan oldin matonining katta bo'lmagan yashirin maydonida uning rang turg'unligini tekshirib oling.

Izlar hosil bo'lish holatida qoplamaning yoki gilamchalarning hamma yuzasini tozalab olish kerak bo'ladi.

Tozalash yakunlanishi bo'yicha namlikning ortiqchalarini olib tashlash uchun qog'oz sochiqlardan foydalanish mumkin.

Axborot-ko'ngilochar tizimning sayqallangan detallarini va displeylarini tozalash

Sayqallangan yuzalarni va displeylarni parvarishlash uchun mikrofibradan soqichlarni qo'llang. Avvaliga mo'yi yumshoq bo'lgan cho'tka bilan yuzani tirnashi mumkin bo'lgan ifloslarni olib tashlang. So'ngra mikrofibradan sochiq bilan yuzani artib oling.

Ushbu maqsadda oynalarni tozalash uchun vositalardan yoki eritgichlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Vaqti-vaqti bilan mikrofibradan sochiqni kuchsiz sovun eritmasida boshqa buyumlardan alohida yuvib turing.

Oqartirgichlarni va konditsionerlarni qo'llash taqiqlanadi. Soqichni qo'llashdan avval uni yaxshilab chayib olish va quritish zarur.

⚠ *DIQQAT!*

So'rg'ich yordamida hech qanday buyumlarni displeyga mahkamlamang. Bu kafolat shartlari amal qilmaydigan shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

Uskunalar paneli, teri, vinilli, boshqa plastik yuzalar, xira bo'yalgan yuzalar va tabiiy yog'och bilan ochiq-g'ovak qoplamali yuzalar

Uskunalar panelidagi tutqichlarni va o'yiqlarni tozalash uchun yumshoq mo'yga ega bo'lgan cho'tkani qo'llang. Changni va yengil ifloslanishlarni olib tashlash uchun mikrotoladan yumshoq matonining bo'lagini qo'llang. Agar ancha sinchkov tozalash zarur bo'lsa, mikrofibradan yumshoq matoning bo'lagini kuchsiz sovun eritmasida namlab oling.

⚠ *DIQQAT!*

Juda kuchli namlantirish terini, ayniqsa, perforirlangan terini, hamda qoplamaning boshqa materiallarini shikastlashi mumkin. Tozalashni yakunlagandan so'ng bunday materiallarning yuzalarini suvning ortiqchalarini olib tashlash uchun artib oling va, toki ular mustaqil qurimagunicha kuting. Isitishni, bug'ni yoki dog'tozalgichlarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Teri o'rindiqlarni parvarishlash uchun spirtsaqlovchi vositalarni yoki eritgichlarni qo'llamang. Silikon yoki mumni saqlovchi tozalovchi vositalarni qo'llash yaramaydi. Ko'rsatib o'tilgan moddalarni saqlovchi tozalovchi vositalar terining va qoplamaning boshqa yumshoq materiallarini tashqi ko'rinishini va fakturasini qaytarib bo'lmaydigan holatda o'zgartirishi mumkin.

Jilokorlikni oshiruvchi tozalovchi vositalarni, ayniqsa, uskunalar panelini tozalash uchun qo'llash yaramaydi. Panel qoplamasining aks ettiruvchi qobiliyatining oshishi muayyan holatlarda old oyna orqali ko'rish maydonini yomonlashtirishi mumkin.

⚠ *DIQQAT!*

Havo xushbo'ylashtirgichlarini qo'llanilishi plastmassa va bo'yalgan yuzalarni shikastlashi mumkin. Havo xushbo'ylashtirgichining plastmassa yoki bo'yalgan yuzaga tushib qolishida uni kuchsiz sovun eritmasida namlantirilgan yumshoq tolasiz matonining bo'lagi bilan darhol tozalab olish kerak. Havo xushbo'ylashtirgichi tomonidan chiqarilgan shikastlanishlarga kafolat shartlari amal qilmaydi.

Yuk tomi va to'ri

Muvofiq jamlanma holatida kuchsiz tozalovchi vositani qo'shish bilan iliq suvda yuvib oling. Xlor saqlovchi oqartirgichlarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. Sovuq suvda chayib oling va quriting.

Xavfsizlik kamalarini parvarishlash

Xavfsizlik kamarlarini toza va quruq holatda saqlang.

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Xavfsizlik kamarining tasmasini oqartirmang va bo'yamang. Bu to'qilgan qattiq matoni ahamiyatli bo'shashtirishi mumkin. Avariya holatida kamarlar tegishli himoyani ta'minlamasligi mumkin. Xavfsizlik kamarlarini tozalash va yuvib olish uchun faqat yumshoq sovunni va iliq suvni qo'llang. To'qilgan qattiq matoga qurish imkonini bering.

Pol gilamchalari

⚠ *OGOHLANTIRISH!*

Agar pol gilam noto'g'ri o'lchamda yoki noto'g'ri solingan bo'lsa, u tepkiga bosishga xalal berishi mumkin. Tepkilarga yetib borishni chegaralovchi xalallar, kutilmagan tezlik olishga va/yoki tormoz oralig'ining uzayishiga olib kelishi mumkin, bu avariyaga va jarohatlarni keltiradi. Pol gilamchasi tepkilarga bosishga xalal bermayotganligiga ishonch hosil qiling.

Pol gilamchalarini qo'llash bo'yicha quyidagi tavsiyalarga amal qiling:

- Firma pol gilamchalari sizning avtomobilingizni konstruksiyalari xususiyatlarini hisobga olingan holda loyihalashtirilgan. Agar pol gilamchalarini

almashtirish zarur bo'lsa, GM tomonidan sertifikatlangan gilamchalarni xarid qilish tavsiya etiladi.

- GM kompaniyasi tomonidan tasdiqlanmagan pol gilamchalari o'lchami bo'yicha mos kelmasligi yoki akselerator yoki tormoz tepkilariga bosilishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Pol gilamchalari tepkilarning harakatiga xalal bermayotganligiga albatta ishonch hosil qiling.
- Agar gilamchani mahkamlash imkoniyati ko'zda tutilmagan bo'lsa, haydovchining oyoqlari ostiga polga gilamchani solish kerak bo'lmaydi.
- Pol gilamchalarini tegishli tomoni bilan tepaga qaratib joylashtiring. Gilamlarni ag'darmang.
- Haydovchi tomonida pol gilamchasi ustiga hech narsa qo'ymang.
- Haydovchi tomonida faqat bitta pol gilamchasi joylashishi kerak.
- Pol gilamchalarini birini ustiga ikkinchisini qo'ymang.

Pol gilamchalarini yechib olish va ularni almashtirish

Pol gilamchasini qaydlagichdan uzib olish va uni yechib olish uchun, haydovchi tomonidagi pol gilamchasining orqa qismidan tepaga torting.



Gilamchani joyiga o'rnating. Buning uchun qaydlagichlar uchun mo'ljallangan pol gilamchasidagi tirqishlarni va gilamcha qaydlagichlarini moslashtiring, so'ngra esa ularni mahkamlab qo'ying. Pol gilamchasi tegishli tarzda joyida mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. Gilamcha tepkilarni bosilishiga to'sqinlik qilmayotganligiga ishonch hosil qiling.

Rezina pol usti gilamchalarini (barcha mavsumiy gilamchalar va pol usti qoplamalarini) tozalash

Tozalash haqidagi ma'lumotlarni "Vinilli/rezinali gilamchalar", Avtomobil salonini parvarishlash ⇨ 9-77 bo'limda ko'ring.

IZOH

10 TA'MIRLASH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

- UMUMIY MA'LUMOTLAR 10-2
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH JADVALI 10-3
- TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI 10-7
- QO'SHIMCHA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA PARVARISHLASH 10-11
- TAVSIYA ETILUVCHI SUYUQLIKLAR, MOYLASH MATERIALLARI VA EHTIYOT QISMLAR 10-13

UMUMIY MA'LUMOTLAR

Avtomobil - bu muhim xariddir. Ushbu bo'lim avtomobilni parvarishlash uchun talablarni saqlaydi. Taklif etilgan texnik xizmat ko'rsatish rejasi sizga istisno qilmaslik yoki avtomobilni noto'g'ri parvarishlash bilan bog'liq bo'lgan avtomobilning ta'mirlanishiga yirik harajatlardan saqlanishga yordam beradi. U, shu bilan birga, avtomobilning olib qochilish holatida uning baholash narxini saqlab qolishga yordam beradi. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha talab etiluvchi tartib-tamoyillarni bajarish uchun mas'uliyat avtomobil egasining zimmasiga yuklanadi.

Sizning dilernigizni shtatida malakali texniklar mavjud, ular asl o'zaro almashtiriluvchi qismlarni qo'llash orqali texnik xizmat ko'rsatishning talab etiluvchi ishlarini o'tkazishlari mumkin. Ular tezkor va aniq diagnostikani ta'minlovchi zamonaviy instrumentlarni va asbob-uskunalarni qo'llaydi. Ko'pchilik dilerlar kechki va dam olish kunlari bepul avtotransportni va Internet orqali zaruriy servis ishlarni jadvallarini tuzish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi.

Sizning dileringiz xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlarga raqobatli narxlarni qo'yish qanchalik muhimligini anglab yetadi. Malakali texniklar yordamida diler, masalan, moy almashtirish va g'ildiraklarning joyini o'zgartirish, hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha tartib-tamoyillarni, masalan, shinalar, tormozlar, akkumulator va oyna tozalagichlarning cho'tkalariga joriy texnik xizmat ko'rsatishni o'tkazadi.

EHTIYOT BO'LING

Noto'g'ri xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan shikastlanishlar qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi va avtomobilga kafolat bilan qoplanmasligi mumkin. Avtomobilni tegishli ishchi holatda saqlash uchun texnik xizmat ko'rsatishning davriyligiga, tekshiruvlarni va ko'riklarni o'tkazilishiga, tavsiya etilgan suyuqliklarni va moylovchi vositalarni qo'llashga amal qilish muhimdir.

Avtomobilni yuvish uchun GM tomonidan tavsiya etilmagan kimyoviy moddalarni qo'llanilishiga yo'l qo'ymang. GM kompaniyasi tomonidan tavsiya etilmagan yuvish suyuqliklarini, eritgichlarni, tozalagichlarni yoki moylash materiallarini qo'llanilishi avtomobilni shikastlanishiga va avtomobilga kafolat bilan qoplanmaydigan qimmatbaho ta'mirlashga olib kelishi mumkin.

G'ildiraklarni joyini o'zgartirish va majburiy servis ishlarni o'tkazish uchun avtomobil egasi javobgardir. Biz har bir 7500 km.dan keyin ushbu texnik xizmat ko'rsatish turlarini bajarish uchun o'z dileringizga murojaat qilishingizni tavsiya qilamiz. To'g'ri texnik xizmat ko'rsatish avtomobilni tegishli ishchi holatda saqlashga, yonilg'ini tejashga va chiqindi gazlarning darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Avtomobillarga xizmat ko'rsatishning ehtiyoji ularni ekspluatatsiya rejimiga bog'liq holda farqlanishi mumkin. Ba'zi avtomobillar uchun tekshiruvlarni va servis ishlarni ancha tez-tez bajarish talab etiladi. Majburiy texnik xizmat ko'rsatishning qo'shimcha tartib-tamoyillari - Standart texnik xizmat ko'rsatish quyidagi ishlarni bajaruvchi avtomobillar uchun mo'ljallangan:

- Shinalar va ruxsat etilgan yuklama haqidagi ma'lumotli yorliqlarda ko'rsatilgan ruxsat etilgan normalar chegarasida yo'lovchilarni va yuklarni tashish. Avtomobilga chegaraviy ruxsat etilgan yuklamalar ⇨ 8-12 ni ko'ring.
- O'rnatilgan tezlik rejimini hisobga olgan holda yaxshilangan qoplamali yo'llar bo'yicha harakatlanish.
- Tavsiya etilgan turdagi yonilg'i bilan to'ldirish. Yonilg'ini tavsiya etilgan turlari ⇨ 8-65 ni ko'ring.

Ma'lumotlar bilan "Majburiy texnik xizmat ko'rsatishning qo'shimcha tartib-tamoyillari - Standart texnik xizmat ko'rsatish" bo'limda tanishib chiqing.

Majburiy texnik xizmat ko'rsatishning qo'shimcha tartib-tamoyillari - Standart texnik xizmat ko'rsatish quyidagi ishlarni bajaruvchi avtomobillar uchun mo'ljallangan:

- Issiq ob-havoda ustunlikda jadal shahar oqimida ekspluatatsiya qilish.

- Tog'li yoki baland tog'li hududlarda ustunlikda ekspluatatsiya qilish.
- Yuqori tezlikda harakatlanish uchun qo'llaniladi yoki musobaqalarda ishtirok etadi.
- Taksi, politsiya avtomobillari sifatida yoki yetkazib berish xizmatida qo'llaniladi.

Ma'lumotlar bilan "Majburiy texnik xizmat ko'rsatishning qo'shimcha tartib-tamoyillari - Standart texnik xizmat ko'rsatish" bo'limda tanishib chiqing.

> ⚠ *DIQQAT!*
>
> Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni o'tkazilishi xavf-xatar bilan bog'liq bo'lishi va jiddiy jarohatlar yetkazilish sababi bo'lib qolishi mumkin. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlar faqat mos keluvchi instrumentni va asbob-uskunalarni talab etiluvchi ma'lumotlarni mavjudligida o'tkazilsin. Aks holda, sizning dileringizda ushbu ishlar malakali texnik bajarayotganligiga ishonch hosil qiling. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni mustaqil bajarish ⇨ 9-2ni ko'ring.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH JADVALI

Texnik xizmat ko'rsatish jadvali

Avtomobil egasi tomonidan bajariluvchi tekshiruvlar va tartib-tamoyillar

Ikki yilda bir marta

- Tormoz suyuqligini almashtirish.

Besh yilda bir marta

- Konditsioner quritgichining almashtirilishi besh yilda bir marta amalga oshiriladi. Konditsionerga xizmat ko'rsatishni besh yilda bir marta o'tkazish zarur. Xizmat ko'rsatishga tizim ishlashini davomiyligini va samaradorligini ta'minlovchi quritgichni almashtirish kiradi. Bunday xizmat ko'rsatish majmuaviy bo'lishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

Avtomobilni ko'p nuqtali ko'rikdan o'tkazish (MPVI)

Avtomobilni ko'p nuqtali ko'rikdan o'tkazish (MPVI) tayyorgarlikdan o'tgan avtomexanik tomonidan bajariladi, u texnik xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan transport vositasini holatini baholaydi. Bunday ko'rikdan o'tkazishning natijalari bo'yicha zudlik bilan qanday bo'lsa, keyinchalik ham xuddi shunday u yoki boshqa uzellarga xizmat ko'rsatishni o'tkazish zarurati belgilab beriladi.

Mexaniklar avtomobil holatini tekshirish bo'yicha quyida sanab o'tilgan operatsiyalarni bajarishadi.

MPVI muvofiq texnologik kartasini bir ekzemplyarini o'z mamlakatingizdagi GM sertifikatlashtirilgan servis-markazi saytidan so'rab olish mumkin. Tekshirish, ko'rikdan o'tkazish va xizmat ko'rsatish bo'yicha operatsiyalarning to'liq ro'yxati har qanday servis-markazida mavjuddir. Alohida operatsiyalar sizning avtomobilingizga va (yoki) mintaqangizga tegishli bo'lmasligi mumkin.

Diagnostika

- Xizmat ko'rsatish o'tkazilishi/ekspluatatsiyadan chiqarilish jurnalini tekshirish

Motor moyini va moy filtrini almashtirish

- Motor moyi
- Moyning xizmat qilish muddatini nazorat qilish - Moyning xizmat qilish muddatini ko'rsatkichlarini bekor qilish

Tashqi yoritish

- Vizual ko'rikdan o'tkazish

Old oyna va oynatozalagich

- Vizual ko'rikdan o'tkazish

12 voltga akkumulator batareyasi

- Akkumulator batareyasini vizual ko'rikdan o'tkazish
- Akkumulator batareyasini sinovdan o'tkazish natijalari
- Batareya simlari va ulanishlari

Tizimlarni ishchi suyuqliklarning sizib chiqish predmetiga ko'rikdan o'tkazish

- Motor moyi
- Uzatmalar qutisi
- Yetakchi ko'prik

- Tarqatish qutisi
- Dvigatelni sovutish tizimi
- Kuchaytirgichli rul boshqaruvi (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
- Yonilg'i uzatish tizimi
- Old oyna yuvgichi suyuqligi

Shinalarni ko'rikdan o'tkazish

- Shinalardagi bosim, protektor chuqurligi, yedirilish darajasi
- Shinalarni o'rnini almashtirish, agar bajarilgan bo'lsa
- Yaqinlashish-uzoqlashishni (sxojdenie-razval) tekshirish (ixtiyoriy)
- Shinalarda havo bosimi ko'rsatkichlarini bekor qilish
- Agar avtomobil shinalarni ta'mirlash to'plami bilan jihozlangan bo'lsa, germetikli ballonning yaroqlilik muddatini tekshiring
- Zaxira shinaning holatini tekshirish (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)

Tormoz tizimi

- Tormoz tizimini tekshirish

Vizual va funksional tekshiruvlar

- Xavfsizlik kamarlari elementlari
- Gazlarni chiqarish tizimi
- Akselerator tepkisi
- Salondagi havo filtri (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
- Dvigatelning havo filtri
- Shlanglar
- Kamarlar
- Amortizatorlar va to'sinlar
- Rul boshqaruvi elementlari
- Yarim o'q g'ilofi yoki kardan sharnirli kardan vali
- Karter ko'targichi to'sini (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
- Pol gilamchalari mahkamlagichlari, tepkilarning yurishi to'sqinliklarining mavjud emasligi
- Tovushli signal
- O't oldirish qulfi (agar to'plam bilan ko'zda tutilgan bo'lsa)
- Starter o'chirgichi
- Yonilg'i bug'larini tutib qolish tizimi

Surkov moylari

- Shassi elementlari

Maxsus avtomobillar

- Faqat tijorat maqsadlarida jadal qo'llaniluvchi avtomobillar: Surkov moyini moyni har bir almashtirilishida shassi komponentlariga surting.
- Kuzovning pastki qismini yuvib turing. "Kuzovning pastki qismiga texnik xizmat ko'rsatish"ni Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash 419 bo'limda qarang.

Motor moyini almashtirish

Ekranda CHANGE ENGINE OIL SOON (DVIGATELDA MOTOR MOYINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA) xabari paydo bo'lishida yaqindagi 1 000 km masofani bosib o'tishda motor moyini va filtrni almashtirish kerak. Agar avtomobil maqbul sharoitlarda ekspluatatsiya qilinayotgan bo'lsa, motor moyi resursi indikatori bil yilgacha motor moyini almashtirish zarurati haqida signalni uzatmasligi mumkin. Motor moyi va filtrni bir yilda kamida bir marta almashtirish zarur, va bundan so'ng motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimini qayta o'rnatish (bekor qilish) zarur bo'ladi. Ushbu tartib-tamoyillarni dilerning korxonasida malakali xodim bajarishi mumkin. Agar motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi tasodifan bekor qilinishi sodir etilgan bo'lsa, avtomobilga xizmat ko'rsatishni oxirgi xizmat ko'rsatishdan keyin 5 000 km.dan ortiq bo'lmagan masofani bosib o'tilgandan so'ng bajarish kerak. Moyni almashtirishdan keyin moy resursi hisoblagichini ko'rsatkichlarini bekor qilish kerak. Motor moyini xizmat muddatini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-7ni ko'ring.

Dvigatelning havo filtrini almashtirish

Agar "REPLACE AT NEXT OIL CHANGE (KEYINGI MOY ALMASHTIRISHDA ALMASHTIRING)" xabari paydo bo'layotgan bo'lsa, dvigatelning havo filtrini motor moyini keyingi almashtirilishida almashtirish kerak.

Agar "REPLACE ENGINE AIR FILTER SOON (DVIGATELNING HAVO FILTRINI ALMASHTIRISH MUDDATI YAQINLASHMOQDA)" xabari paydo bo'layotgan bo'lsa, dvigatelning havo filtrini iloji boricha tezroq almashtirish kerak. Dvigatelning

havo filtrini almashtirishdan keyin uning resursi hisoblagichini bekor qilish zarur. Dvigatelning havo filtri resursi hisoblagichi ⇨ 9-8ni ko'ring.

Bo'sh aylanishlarda uzoq vaqt ishlash

Agar avtomobil dvigatelning bo'sh aylanishlarda uzoq muddat ishlashini ko'zlaydigan rejimida ekspluatatsiya qilinayotgan bo'lsa, bo'sh aylanishlarda ishlashning bir soati 53 km yo'l bosishga tenglashtiriladi. Motosoatlar hisoblagichi haqidagi ma'lumotlarni Haydovchining axborot markazi (DIC) (Kengaytirilgan jamlanma) ⇨ 4-37 yoki Haydovchining axborot markazi (DIC) (Bazaviy jamlanma) ⇨ 4-35da ko'ring.

Konditsioner quritgichi (har besh yildan keyin almashtirish)

Konditsionerga xizmat ko'rsatishni besh yilda bir marta o'tkazish zarur. Xizmat ko'rsatishga tizimning ishlashini davomiyligini va samaradorligini ta'minlovchi quritgichni almashtirish kiradi. Bunday xizmat ko'rsatish majmuaviy bo'lishi mumkin. O'z dileringizga murojaat qiling.

G'ildiraklarning o'rnini almashtirish va har 7 500 km.dan keyin majburiy texnik xizmat ko'rsatish

Agar ushbu avtomobil uchun tavsiya etilgan bo'lsa, g'ildiraklarning o'rnini almashtirishni bajaring, va quyidagi tartib-tamoyillarni amalga oshiring. Shinalarni o'rnini almashtirish ⇨ 9-43ni ko'ring.

• Dvigateldagi moy sathini va moy resursi uchun foizli nisbatni tekshiring. Zarurat tug'ilganida motor moyini va dvigatelning moy filtrini almashtiring va motor moyi resursini nazorat qilish tizimi ko'rsatkichlarini bekor qiling. Motor moyi ⇨ 9-5 va Motor moyini resursini nazorat qilish tizimi ⇨ 9-7ni ko'ring.
• Havo filtrining resursini foizlarda tekshiring. Zarurat tug'ilganida havo filtrini almashtiring va uning resursi hisoblagichini bekor qiling. Dvigatelning havo filtri resursi hisoblagichi ⇨ 9-8ni ko'ring.
• Dvigatelni sovituvchi suyuqligini sathini tekshiring. Sovitish tizimi ⇨ 9-10ni ko'ring.
• Old oyna yuvgichidagi suyuqlik sathini tekshiring. Yuvgich suyuqligi ⇨ 9-15ni ko'ring.
• Shinalarning, jumladan, ehtiyot g'ildirakning shishirilish bosimini tekshiring. Shinalarda havo bosimi ⇨ 9-37ni ko'ring.
• Shinalarning yedirilish darajasini tekshiring. Shinalar ko'rigi ⇨ 9-43ni ko'ring.
• Suyuqlik sizib chiqishini mavjud emasligini vizual tekshiring.
• Tormoz tizimini tekshiring. Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72ni ko'ring.
• Bir yilda kamida bir marta rul boshqaruvi komponentlarini, osma va shassini shikastlanishlar, jumladan rezina g'iloflardagi yoriqlar va yirtilishlar, bo'shashgan va mavjud bo'lmagan detallar, yedirilish izlari mavjud emasligiga vizual tekshiring. Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72ni ko'ring. Osma va rul boshqaruvining detallarini moyning kamida har bir ikkinchi almashtirilishida moylang (agar konsistent moy uchun fitinglar ko'zda tutilgan bo'lsa).
• Kuchaytirgichli rul yuritmasini ishonchli mahkamlanishi, ulanish sifati va qisuvchi elementlarini, sizib chiqishlar, darzlar, yedirilish izlari va shunga o'xshashlarning mavjud emasligini ko'rikdan o'tkazing.
• Yarim o'qlar va yetakchi vallarda yuqori yedirilish, moylash materiallarining sizib chiqishi va/yoki shikastlanishlarning, jumladan, quvurlardagi ezilishlar yoki yoriqlar, burchak tezliklarga teng sharnirlar yoki kardan valning o'rnashish zichligi, g'iloflardagi yoriqlar yoki g'iloflarning yo'qligi, g'iloflarning bo'shashgan yoki mavjud bo'lmagan xomutlar, markaziy podshipnikda yuqori tirqish yoki salniklarda mavjud bo'lmagan yoki bo'shashgan siqgichlar yoki sizib chiqishlarning mavjud emasligini vizual tekshiring.
• Passiv xavfsizlik tizimi komponentlarini tekshiring. Xavfsizlik tizimini tekshirish ⇨ 2-24ni ko'ring.
• Yonilg'i tizimida shikastlanishlar va sizib chiqishlarning mavjud emasligini, jumladan yonilg'i bug'larini ushlab qolish tizimini (EVAP) vizual tekshiring. Barcha yonilg'i quvurlarini, bug' quvurlarini va shlanglarning to'g'ri mahkamlanishi, ulanishi, yotqizilishi, hamda ularning soz holatini vizual tekshiring.
• Chiqarish tizimida va unga yaqin joylashgan issiqlik ekranlarining detallarini bo'shashishi

va shikastlanishi mavjud emasligini vizual tekshiring.

- Kuzov elementlari moylansin. Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72ni ko'ring.
- To'xtab turish tormozi va avtomatik uzatmalar qutisining to'xtab turishga joylashtirish mexanizmini tekshiring.To'xtab turish tormozi va P to'xtab turishga joylashtirish mexanizmini tekshirish ⇨ 9-20ni ko'ring.
- Akselerator tepkisida shikastlanishlar, haddan tashqari kuchlar va tiqilib qolishlar mavjud emasligini tekshiring. Agar zurur bo'lsa, almashtiring.
- Gaz tirgagida yedirilishlar, yoriqlar va boshqa shikastlanishlar mavjud emasligini vizual tekshiring. Tirgakni ochiq holatda tutib turish ehtimolini tekshiring. Agar tirgak qopqoqni ochiq holatda yomon tutib turgan bo'lsa, gaz tirgagiga servis xizmat ko'rsatishni bajaring. Gaz tirgaklari ⇨ 9-21ni ko'ring.
- Rama va tomdagi lyukning zichlagini (agar mavjud bo'lsa) holatini ko'rikdan o'tkazing. Tomning ventilyatsion lyuki ⇨ 1-29ni ko'ring.
- Ehtiyot g'ildirakni mahkamlagichi ishlashini tekshiring va zarurat tug'ilganda uni moylang. G'ildirakni almashtirish ⇨ 9-56ni ko'ring.
- Ehtiyot g'ildirakni ko'rikdan o'tkazing va u avtomobil ostiga ishonchli mahkamlanganligiga ishonch hosil qiling. G'ildirakni harakatlantirib va burab ko'rishga urinib ko'ring. Agar ehtiyot g'ildirak harakatlanayotgan bo'lsa, zarurat chorasi bo'yicha uni mahkamlagichini tortib qotiring. G'ildirakni almashtirish ⇨ 9-56ni ko'ring.

Ancha tez-tez xizmat ko'rsatishni talab etuvchi ekspluatatsiyaning og'ir sharoitlari*

- Jamoat transporti, harbiy maqsadlarga yoki tijoratda qo'llaniluvchi avtomobillar, jumladan:
  - Tez yordam, politsiya va avariya-qutqaruv xizmatlari avtomobillari.
  - Fuqarolik mo'ljallanishidagi avtomobillar, masalan, kichik tonnali yuk avtomobillari, vnedorojniklar va harbiy maqsadlar uchun qo'llaniluvchi yengil avtomobillar.
  - Texnik yordam ko'rsatish avtomobillari, masalan, bir avtomobil shatakchilari va evakuatorlari yoki tirkamalarni yoki boshqa yuklarni shataklash uchun doimo qo'llaniluvchi har qanday boshqa avtomobillar.
  - Tijorat maqsadlarida jadal qo'llaniluvchi avtomobillar, masalan, kuryerlik xizmati avtomobillari, xususiy qo'riqlash xizmatlari avtomobillari yoki tunu-kun ishlaydigan har qanday boshqa avtomobillar.
  - Havoda qum va changni yuqorida darajada saqlovchi zonalarda, masalan, neft quvurlari va shunga o'xshash joylarda doimo ekspluatatsiya qilinuvchi har qanday boshqa avtomobillar.
- 6 km.gacha masofalarga qisqa safar qilish uchun muntazam qo'llaniluvchi avtomobillar. Moyni va filtrni almashtirish zaruratini motor moyining xizmat muddati indikatori ko'rsatadi. Ekspluatatsiyaning og'ir sharoitlarida
- indikator 7500 km masofa bosilishidan ertaroq yoqilishi mumkin. Indikator moydagi changga ta'sir ko'rsatmaydi, shuning uchun agar avtomobil yuqori changlanganlikda ekspluatatsiya qilinayotgan bo'lsa, moy va filtrning almashtirilishi har bir 7500 km.dan ertaroq almashtirilishi talab etilishi mumkin.

  * Izoh: Yuqorida sanab o'tilgan ekstremal sharoitlarda ekspluatatsiya qilishda o't oldirish svechalarining ancha tez-tez almashtirilishi talab etilishi mumkin. Sizning avtorizatsiyalangan GM dileringiz aniq sizning avtomobilingiz uchun texnik xizmat ko'rsatishning ancha mos keluvchi oraliqlarini aniqlashda yordam beradi.

Majburiy texnik xizmat ko'rsatishning qo'shimcha tartib-tamoyillari - Kengaytirilgan texnik xizmat ko'rsatish

Har bir 70 000 km

- AUO'Qning moyini va filtrini almashtiring.

Har bir 70 000 km

- Doimiy to'liq yuritmali avtomobillarda: tarqatish qutisining moyini almashtiring. Yuqori bosim ostidagi suv oqimini tarqatish qutisiga va/yoki oldingi/orqa ko'prikning tashqi salniklariga yo'naltirmang. Yuqori bosim ostidagi suv zichlagichlar orqali kirib borishi va moyni ifloslantirishi mumkin. Ifloslangan moy tarqatish qutisining va/yoki yetakchi ko'priklarning xizmat muddatini qisqartiradi va almashtirilishi kerak.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	**O'tilgan yo'l, km (x 1000)**	**7,5**	**15**	**22,5**	**30**	**37,5**	**45**	**52,5**	**60**	**67,5**	**75**	**82,5**	**90**	**97,5**	**105**
	Xizmat qilish muddati, oylar	**6**	**12**	**18**	**24**	**30**	**36**	**42**	**48**	**54**	**60**	**66**	**72**	**78**	**84**
O't oldirish svechalari (4)			I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I
Dvigatel va uzatmalar qutisi: ishchi suyuqliklarnining sizib chiqishi mavjudligini va sathini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Osma agregatlar yuritma tasmasi: tekshirishva agar kerak bo'lsa tarangligini sozlash.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Osma agregatlar yuritma tasmasi: almashtirish.		Har 240 000 km													
Shlangni tekshiring va agar kerak bo'lsa, uni almashtiring.			I		I		I		I		I		I		I
Ichki yonuv dvigateli havo filtri: filtr elementini almashtiring. (5)		I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R	I	R
Yoqilg'i filtri (tashqi) benzinli dvigatel: almashtirish. (agar mavjud bo`lsa) (1) (2)		R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Dvigatel podveskasi: shikastlanish va siqilishni tekshiring.				I			I			I			I		
Ishlangan gazlarni chiqarish podveskasi: shikastlanish va siqilishni tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yoqilg'i shlangi: tekshirish.		I			I			I			I			I	

Belgilanishlar:

I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;

Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;

R - almashtirish;

(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi 14-betidagi yoki Foydalanish qo'llanmasida Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;

(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;

(4) Tavsiya etilmagan sifatga mos kelmaydigan yonilg'idan foydalanganda, har bir texnik xizmat ko'rsatishda tekshirish, va odatdagi TXK ga nisbatan ikki baravar tezroq almashtirish talab etilishi mumkin. Ushbu ishlar TXK o'tkazilganda qo'shimcha ish deb hisoblanadi. Yonilg'iga qo'yiladigan talablar Foydalanish Qo'llanmasida bayon etilgan;

(5) Agar avtomobil tuproq yo'llarida foydalanilsa, uni har bir 7 500 km yoki 6 oy foydalanishdan keyin tekshirish kerak. Zarur bo'lganda ta'mirlash, tozalash yoki almashtirishni o'tkazing.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	**O'tilgan yo'l, km (x 1000)**	**7,5**	**15**	**22,5**	**30**	**37,5**	**45**	**52,5**	**60**	**67,5**	**75**	**82,5**	**90**	**97,5**	**105**
	Xizmat qilish muddati, oylar	**6**	**12**	**18**	**24**	**30**	**36**	**42**	**48**	**54**	**60**	**66**	**72**	**78**	**84**
Motor moyini almashtirish (1) (2) (9)		R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R	R
Motor moyi filtrini almashtirish (1)		Har motor moyi almashganda. Og'ir (ekstremal) sharoitlarda foydalanganda har 5 000 km.													
Ko'mir adsorberni tozalash shlangi: to'lib qolishini tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Ko'mir adsorberi: almashtirish.		Og'ir sharoitlarda doimiy foydalanishda (notekis, changli yo'llar). Har 10 000 km.													
Sovutish tizimidagi suyuqlik sathini va sizishlarning mavjudligini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Sovutish suyuqligini alamshtiring va sizishini tekshiring. (2) (3)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Shlanglar, shtutser, radiator va sovutish suvi nasosi: sathini va oqishini tekshiring.		I		I		I		I		I		I		I	
Konditsioner tizimining ishlashini tekshirish. (*)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Salonning havo filtri (konditsioner): almashtirish (7)		I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I
Konditsioner havo yo'li matoli himoyasi: to'libb qolishni tekshiring.			I		I		I		I		I		I		I
Tarqatuvchi qutini germetiklikka tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Agar to'liq yuritma (4x4) doimiy ishlatilsa, uzatmalar qutisi moyini almashtiring. (2)		**Har 3 yil yoki 70 000 km yo'l o'tganda**													

Belgilanishlar:
I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;
Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;
R - almashtirish;
(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi 14-betidagi yoki Foydalanish qo'llanmasida Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;
(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;
(3) 150 000 km yoki 5 yil dan keyin almashtirish;
(7) Tuproq yo'llarida foydalaniladigan avtomobillar uchun tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi;
(9) Agar dvigatel moyining qoldiq umrining ko'rsatkichi mavjud bo'lsa, uning haqiqiy ko'rsatkichlarga foydalanish sharoitlariga qarab rioya qilish kerak. Dvigatel moyini o'zgartirish intervallari qisqartirilishi mumkin;
(*) Qabul qilgich-quritgich har besh yilda almashtiriladi.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	**O'tilgan yo'l, km (x 1000)**	**7,5**	**15**	**22,5**	**30**	**37,5**	**45**	**52,5**	**60**	**67,5**	**75**	**82,5**	**90**	**97,5**	**105**
	Xizmat qilish muddati, oylar	**6**	**12**	**18**	**24**	**30**	**36**	**42**	**48**	**54**	**60**	**66**	**72**	**78**	**84**
Uzatmalar qutisi (barcha modifikatsiyalar): moy sathini tekshiring va agar kerak bo'lsa, to'ldiring. (2)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Avtomatik uzatmalar qutisining transmission moyi (2)		Quyidagi izohga (8) qarang.													
Old va orqa most: moy darajasini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Old va orqa most: moyni almashtirish. (1) (2)		Har 120 000 km.													
Tormoz kolodkalari va disklari: shikastlanishini tekshirish. (5)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Nakladka: shikastlanishini tekshirish. (5)		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz yo'llari (quvurlar va shlanglar): germetikligini tekshiring		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Tormoz suyuqligi: sathini tekshirib ko'ring, agar u minimal darajadan past bo'lsa - sizishni bartaraf qiling va tormoz suyuqligini almashtiring. (1) (2) (4)		I	I	I	R	I	I	I	R	I	I	I	R	I	I
To'xtab turish tormoz tizimi: tekshirish va sozlash. Sharnir va troslarni moylash.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Sharli oporalar va podveska dastagi: zazorlar va zararni baholash.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I

Belgilanishlar:
I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;
Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;
R - almashtirish;
(1) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa tez-tez texnik xizmat ko'rsatish ko'proq talab etiladi: Servis kitobchasi 14-betidagi yoki Foydalanish qo'llanmasida Og'ir foydalanish sharoitlari bo'limiga qarang;
(2) Foydalanish qo'llanmasining «FOYDALANISH MATERIALLARI» bo'limiga qarang;
(4) Agar avtomobil og'ir sharoitlarda foydalanilsa, har bir 15 000 km dan keyin yoki bir yildan s'ong foydalanish materiallarini almashtirish kerak bo'ladi:
- tepalikli yoki tog'li joylarda yurish yoki
- tirkama bilan tez-tez yurish;
(5) Og'ir sharoitlarda foydalanilganda, tez-tez texnik xizmat ko'rsatish talab etiladi: qisqa masofalarga yurish, uzoq vaqt davomida dvigatelni salt ishlash rejimida yurgizish, tez-tez yo'lda tirbandlikda tiqilib qolish sharoitida past tezlikda yurish, tuproqli yo'llarda yurish.
(8) Avtomatik uzatmalar qutisida moyni almashtirish quyidagi sharoitlarda foydalanishda:
- me'yordagi sharoitlarda har bir 140 000 km dan keyin;
- og'ir sharoitlarda har bir 70 000 km dan keyin talab etiladi;

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH REGLAMENTI (davomi)

Avtomobilga davriy texnik xizmat ko'rsatish va tegishli hujjatlarni yuritish uchun javobgarlik egasiga yuklanadi. Siz avtomobilga ishlab chiqaruvchining reglamentiga muvofiq texnik xizmat ko'rsatish o'z vaqtida o'tkazilganligining hujjatli tasdig'iga ega bo'lishingiz kerak.

Xizmat ko'rsatish davriyligi avtomobilning o'tilgan yo'li yoki xizmat qilish muddati bilan, qaysi biri tezroq kelishiga qarab, belgilanadi	**O'tilgan yo'l, km (x 1000)**	**7,5**	**15**	**22,5**	**30**	**37,5**	**45**	**52,5**	**60**	**67,5**	**75**	**82,5**	**90**	**97,5**	**105**
	Xizmat qilish muddati, oylar	**6**	**12**	**18**	**24**	**30**	**36**	**42**	**48**	**54**	**60**	**66**	**72**	**78**	**84**
Old va orqa amortizatorlar: uning qismlari va moy sizishiga tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Shinalar: havo bosimi, eskirish va zararni tekshirish, zarurat tug'ilganda o'rinlarini almashtirish. G'ildirak boltining mahkamlash momentini tekshirish. (6) Agar me'yordan chetlashish kuzatilsa, g'ildirakning o'rnatma burchagini tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Kuzov va osti: bo'yoq qoplamalarining butunligini va korroziya belgilarini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
O'rindiq kamarlar: kamarlar, qulflar va mahkamlagichlar, ularning bo'g'inlarning ishlashi va mahkamlash momentini tekshirish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Old eshik oynasi zichlagichi: GM markali silikon moyni aerozol purkagichidan oyna siljiydigan manjet zichlagichining ichki va pastki qismlariga surting. Silikon moyni shisha zichlagichning vertikal old va orqa tomoniga surtish kerak.		I		I		I		I		I		I		I	
Elektr qurilma: nosozlik kodlarini diagnostika vositasi bilan tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Yorug'lik qurilmalari va ovozli signal: tekshiring.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Old oyna tozalash va yuvish vositalari: cho'tkalarni holatini tekshirish va kerak bo'lsa yuvish.		I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
Faralar blokini sozlash: yorug'lik nurlarining yo'nalishini tekshirish.			I				I				I				I
Yoqilg'i baki sapuni: zarurat tug'ilganda tekshirish.				I			I			I			I		

Belgilanishlar:
I - nazorat qilish va zarur bo'lganda sozlash, tozalash, tortib mustahkamlash, moylash, foydalanish suyuqliklarini to'ldirib quyish va ishdan chiqqan detallarni almashtirish;
Almashtirish va ta'mirlash qo'shimcha xizmatlar hisoblanadi va ushbu ishlarning haqi avtomobilning egasi tomonidan to'lanadi;
R - almashtirish;
(6) Shinalarning holatini dvigatelni ishga tushirishdan avval, shinalardagi havo bosimini esa - yonilg'i bakiga har bir yonilg'i quyishda yoki, hech bo'lmasa, oyda bir marta (manometrdan foydalanib) tekshirish kerak.

QO'SHIMCHA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA PARVARISHLASH

Avtomobil - bu xarid bo'lib, unga to'g'ri xizmat ko'rsatish kelajakdagi qimmatbaho ta'mirlashlardan saqlanishga yordam beradi. Avtomobilning ekspluatatsion xarakteristikalarini qo'llab turish uchun qo'shimcha tartib-tamoyillarini o'tkazish talab etilishi mumkin.

Biz ushbu ishlarni o'tkazilishini o'z dileringizga ishonib topshiringizni tavsiya qilamiz - dilerlik kompaniyasining malakali texniklari hammadan ko'ra sizning avtomobilingizni ko'proq tushunadi. Sizning dileringiz, shuningdek, avtomobilingizga qachon parvarishlash talab etilishini tavsiya qilish uchun ko'p nuqtali ko'rikdan o'tkazish asosida sinchkov baholashni o'tkazishi mumkin. Quyida taqdim etilgan pozitsiyalar ro'yxatining vazifasi, texnik xizmat ko'rsatishning qanday turlari va sharoitlar servis ishlarni o'tkazish zaruratiga ko'rsatishi mumkinligini tushuntirishdan iboratdir.

Akkumulator batareyasi

12 V akkumulator dvigatelni ishga tushirish va qo'shimcha elektr asbob-uskunalarning ishlashi uchun oziqlanishni ta'minlaydi.

- Ishlashda va dvigatelni ishga tushirishda nosozliklarga yo'l qo'ymaslik uchun, akkumulatorning to'liq ishchi quvvatini qo'llab turing.
- Dilerlik kompaniyasining malakali texniklari akkumulator holatini tekshirish uchun diagnostika asbob-uskunalarini qo'llaydi va ulanishlarda va simlarda korroziya izlari mavjud emasligini kuzatib boradi.

Kamarlar

- Kamarlarni ular tomonidan meyo'rda bo'lmagan shovqinlar mavjudligida (g'ichirlash, hushtak) yoki agar ularning ustida darzlar, qatlamlashish alomatlari va boshqa shikastlanishlar ko'rinib turganida almashtirish zarur.
- Kamarlarni holatini tekshirish, ularning tarangligini sozlash va zarurat tug'ilganida ularni almashtirishni avtorizatsiyalangan servis markazida amalga oshirish kerak.

Tormoz tizimi

Tormozlar avtomobilni to'xtatadi. va xavfsiz haydashning asosiy omili hisoblanadi.

- Tormozlarning yedirilish alomatlariga tormozlarning g'ichirlashi, g'ijirlashi yoki chiyillashi kabi shovqinlar, hamda tormozlanishning qiyinlashishi kiradi.
- Dilerning malakali texniklari ixtiyorida tormozlarning holatini tekshirish va sizning avtomobilingiz uchun maxsus yaratilgan tavsiya etiluvchi sifatdagi detallar uchun instrumentlar va asbob-uskunalar mavjuddir

Suyuqliklar

Suyuqliklarning zaruriy sathini qo'llab turish va tavsiya etilgan suyuqliklarning qo'llanilishi avtomobil tizimlarini va komponentlarini himoyasini ta'minlaydi. GM kompaniyasi tomonidan tavsiya etiluvchi suyuqliklar haqidagi ma'lumotlarni Tavsiya etilgan suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13 bo'limda ko'ring.

- Motor moyi va old oyna yuvgichining suyuqligi sathini yonilg'ini har bir quyilishida tekshirish kerak.
- Uskunalar majmuasida indikator lampalari sath pasayganiga va suyuqlikni qo'shimcha quyish kerakligiga ko'rsatgan holda yonishi mumkin.

Shlanglar

Shlanglar orqali suyuqliklar o'tkaziladi. Shlanglarni muntazam tekshirish va darzlar va sizib chiqishlar mavjud emasligini kuzatish zarur. Ko'p nuqtali ko'rik yordamida sizning dileringiz shlanglarning holatini tekshirishi va ularni qachon almashtirish kerakligini tavsiya etishi mumkin.

Lampalar

Faralar, orqa chiroqlar va stop-signallar, siz va sizni yo'lda ko'rish mumkinligi uchun har doim soz holatda bo'lishi muhimdir.

- Faraga xizmat ko'rsatishning zarurati belgilari bo'lib, yorug'lik yorqinligi, fazoni yoritish layoqatsizligi, darzlarni yoki shikastlanishlarni

mavjudligi hisoblanadi. Stop-signallarni ular tormozlanish vaqtida yoqilayotganligiga ishonchga ega bo'lish uchun ularni muntazam tekshirish kerak.
- Ko'p nuqtali ko'rik yordamida sizning dileringiz lampalarning holatini tekshirishi va har qanday nosozliklarni aniqlashi mumkin.

Amortizatorlar va ustunlar

Amortizatorlar va ustunlar avtomobilning ravon yurishini ta'minlashda ishtirok etadi.
- Yedirilish alomatlariga rul chambaragining titrashi, tormozlanish vaqtida turtishlar/chayqalishlar, tormozlanish oralig'ining ortishi yoki shinalar protektorining notekis yedirilishi tegishli bo'lishi mumkin.
- Ko'p nuqtali ko'rik jarayonida dilerning malakali texniklari amortizatorlarda va ustunlarda zichlanishlar o'tkazib yuboruvchi sizib chiqish izlari shikastlanishlarni mavjud emasligini vizual tekshirishi va agar servis ishlar talab etilayotgan bo'lsa, tavsiya berishlari mumkin.

Shinalar

Shinalardagi to'g'ri bosim, g'ildiraklarni o'rnini almashtirilishini va ularning balansirovkasini bajarish ustidan kuzatish zarur. Shinalarni to'g'ri parvarishlash pul mablag'larni va yonilg'ini tejashga imkon beradi va shinalarning ishdan chiqishi xavfini, tejamkorligini pasaytirishi mumkin va shinalarning shikastlanish xavfini kamaytiradi.
- Shinalarni almashtirish zarurati alomatlari bo'lib yedirilishining uch yoki undan ortiq ko'rinuvchan indikatorlarining, kord yoki matolarning paydo bo'lishi, ular rezina, protektordagi yoriqlar yoki kesilishlar orqali yoki biqinlarda ko'rinib turadi, hamda shishishlar yoki shinalarning darz ketishi hisoblanadi.
- Dilerning malakali texniklari shinalarni tekshirishlari va tegishli sifatdagi shinalarni tavsiya etishlari mumkin. Sizning dileringiz, shuningdek, har qanday tezlikda avtomobilning ravon yurishini ta'minlovchi g'ildiraklarning/shinalarning balansirovkasini ham bajarishi mumkin. Sizning dileringiz o'z ixtiyorida mashhur markadagi shinalarga ega va ularga xizmat ko'rsatadi.

Avtomobilni parvarishlash

O'z dileringiz tomonidan taklif etiluvchi avtomobilni parvarishlash bo'yicha mahsulotlar yordamida sizning avtomobil har doim yangidek ko'rinishga ega bo'ladi. Avtomobil interyeri va kuzovini tozalash va himoyalash usullari haqidagi ma'lumotlarni Avtomobil salonini parvarishlash ⇨ 9-77 va Avtomobilning tashqi ko'rinishini parvarishlash ⇨ 9-72 bo'limlarda ko'ring.

G'ildiraklarni o'rnatilish burchaklari

G'ildiraklarning o'rnatilish burchaklari hal qiluvchi omil hisoblanadi, unga shinalarning maqbul yedirilishi va ularning ishchi xarakteristikalari bog'liq bo'ladi.
- G'ildiraklarni o'rnatilish burchaklarini sozlash zaruratiga ko'rsatuvchi alomatlar bo'lib avtomobilni yon tomonga tortib ketilishi, avtomobilning noturg'un o'zini tutishi yoki shinalarning notekis yedirilishi hisoblanadi.
- Sizning dileringizni ixtiyorida g'ildiraklarni to'g'ri sozlash uchun zaruriy asbob-uskunalar mavjuddir.

Old oyna

Toza va shaffof old oyna xavfsizlikni, tegishli tashqi ko'rinishni va eng yaxshi ko'rish maydonini ta'minlaydi.
- Shikastlanish alomatlari bo'lib tirnalishlar, darzlar va singan joylar hisoblanadi.
- Dilerning malakali texniklari old oynaning holatini tekshirishi, almashtirishni tavsiya qilishi va bu zarurat bo'lsa ularning almashtirilishini bajarishi mumkin.

Oyna tozalagichlarning cho'tkalari

Oyna tozalagichning cho'tkalarini yaxshi ko'rish maydonini ta'minlash uchun ularni tozalash va yaxshi holatda saqlash zarurdir.
- Yedirilish alomatlari bo'lib old oynada tozalanmagan chiziqlarning va o'tkazmalarining paydo bo'lishi, eskirgan yoki darzlanib ketgan rezina hisoblanadi.
- Dilerning malakali texniklari cho'tkalarning holatini tekshirishi va zarurat tug'ilganida ularni almashtirishi mumkin.

TAVSIYA ETILUVCHI SUYUQLIKLAR, MOYLASH MATERIALLARI VA EHTIYOT QISMLAR

Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari

Texnik xizmat ko'rsatish haqidagi bo'limning ushbu qismi benzinli dvigatellarga taalluqlidir.
Quyida ko'rsatilgan ishchi suyuqliklar va moylarni nomlanishi, artikuli yoki texnik xarakteristikalari bo'yicha, jumladan bu yerda sanab o'tilmagan ishchi suyuqliklar va moylarni o'z dileringizdan xarid qilishingiz mumkin.

Qo'llanilishi	Ishchi suyuqlik / moylash materiali
Avtomatik uzatmalar qutisi	DEXRON ULV avtomatik uzatmalar qutisi uchun suyuqligi.
Shassi uchun moy	LB yoki GC-LB tofasidagi NLGI № 2 talabiga muvofiq keluvchi moy.
Dvigatelni sovituvchi suyuqligi	Toza ichimlik suvi va DEX-COOL yangi sovituvchi suyuqlikning 50/50 aralashmasi qo'llansin. Sovutish tizimi ⇨ 9-10ni ko'ring.
Motor moyi	Dexos1 spesifikatsiyasiga muvofiqlikka sertifikatlangan SAE zaruriy qayishqoqlikdagi motor moyi. ACDelco dexos1 to'liq sintetik moy tavsiya etiladi. Motor moyi ⇨9-5ni ko'ring.
Oldingi/orqa ko'prik	O'z dileringizga murojaat qiling.
Gidravlik tormoz tizimi	DOT 4 - Gidravlik tormoz suyuqligi.
Qulflarning silindrlari, kapot oshiq-moshiqlari, salon eshiklari oshiq-moshiqlarini o'qlari, elektr yuritmali zinapoya, orqa ko'tarma eshik oshiq-moshiqlari, yonilg'i quyish bo'yinchasining eshigi oshiq-moshiqlari.	Superlube ko'p maqsadli moy. O'z dileringizga murojaat qiling.
Tormoz tizimining gidroyuritmasi	O'z dileringizga murojaat qiling.

Qo'llanilishi	Suyuqlik/moylash materiali
Kuzov zichlagichlari	Zichlagichlar, moylash materiallari. O'z dileringizga murojaat qiling.
Oynalarni yuvish uchun suyuqlik	Muzlash harorati bo'yicha mahalliy talablarga javob beruvchi avtomobil oyna yuvuvchi suyuqligi.

Texnik xizmat ko'rsatish uchun ehtiyot qismlar

Quyida ko'rsatilgan almashtiriluvchi qismlarni, nomlanishlarni, raqamni yoki xarakteristikalarni dilerdan olish mumkin.

Komponent	GM katalogidagi raqami	ACDelco katalogidagi raqami
Dvigatelning havo filtri		
Yuqori hajmdagi havo filtri bilan	84121219	A3244C
Iyuqori hajmdagi havo filtrisiz	84121217	A3246C
Motor moyi filtri	12707246	Pf63
Salon havosi filtri	13540923	CF206C
Svechalar	12622441	41-114

Detal	GM katalogidagi raqami	ACDelco katalogidagi raqami
Oyna tozalagichlarning cho'tkalari		
Haydovchi tomoni - 55 sm	84278338	-
Oldingi yo'lovchi tomoni - 55 sm	84278338	-
Orqa oynaning tozalagichi cho'tkasi - 30 sm	84215609	-

11 TEXNIK MA'LUMOTLAR

- AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSIYA MA'LUMOTLARI 11-2
- AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI 11-3

AVTOMOBILNING IDENTIFIKATSIYA MA'LUMOTLARI

Avtomobilning identifikatsiya raqami (VIN)

Avtomobilning rasmiy identifikatori hisoblanuvchi VIN-kod haydovchi tomonida kuzovning oldingi ustuni yonida old oyna ostida uskunalar panelida ko'rsatilgan. Uni old oyna orqali tashqaridan ko'rish mumkin. Avtomobilning identifikatsiya raqami (VIN-kod), shuningdek, sertifikatsiya ma'lumotlari bilan jadvalchada, transport vositasining pasportida va transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan.

Dvigatelning identifikatsiya ma'lumotlari

VINdagi sakkizinchi raqam - bu dvigatel kodi. Ushbu kod yordamida avtomobil dvigateli, texnik xarakteristikalari va ehtiyot qismlari identifikatsiya qilinadi.

Dvigatel kodlarining tavsifini Yonilg'i quyish hajmlari bo'limdagi "Dvigatel xarakteristikalari" da ko'ring. ⇨ 11-3.

Ehtiyot qismlarning markirovkasi

Kuzovning markaziy ustuniga joylashtirilgan sertifikatsiya to'g'risidagi ma'lumotli yopishtirma yorliqqa yirik shtrix-kod tushirilgan bo'lishi mumkin, uni skanirlab, quyidagi ma'lumotlarni olish mumkin:

- Avtomobilning identifikatsiya raqami (VIN)
- Modelning belgilanishi
- Lak-bo'yoq qoplamasi haqidagi ma'lumotlar
- Zavod opsiyalari

Agar yopishtirma yorliqda shtrix-kod mavjud bo'lmasa, xuddi shu ma'lumotni qo'lqop qutisining ichidagi yopishtirma yorliqda topish mumkin.

AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI

Yonilg'i quyish hajmlari

Quyidagi taxminiy hajmlar metrik va britancha o'lchov birliklarida keltirilgan. Tavsiya etiluvchi suyuqliklar va moylash materiallari ⇨ 10-13ni ko'ring. Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, Duramax dizel dvigatel bo'yicha qo'shimcha qo'llanmani ko'ring.

Mo'ljallanishi	Hajmlari	
	Metrik birliklar	Britaniya birliklari
Konditsioner uchun xladagent	Konditsioner uchun zarur bo'lgan xladagent turi va miqdori kapot ostidagi muvofiq jadvalchada ko'rsatilgan. Ancha batafsil ma'lumotlarni olish uchun dilerga murojaat qiling.	
Sovutish tizimi - dvigatel*	14,8 l	15,6 kvart
Motor moyi filtr bilan	7,6 l	8,0 kvart
Yonilg'i baki	90,8 l	24,0 gall
Tarqatish qutisi uchun moy	1,5 l	1,6 kvart
G'ildirak gaykasini qotirish momenti	190 N*m	140 funt-futov
Yonilg'i quyish hajmlarining taxminiy ma'lumotlari keltirilgan. Qo'shishda ushbu qo'llanmaga binoan sathga rioya qilish zarur. To'ldirishdan keyin sathni tekshirish kerak.		
*Dvigatelni sovitish tizimining yonilg'i quyish idishibutun tizim va uning komponentlari hajmini hisobga olish bilan ko'rsatilgan.		

Dvigatel tasniflari

Dvigatel	VIN kodi	O't oldirish svechalari elektrodlari tirqishi
5,3 l V8 (L84)	D	0,95–1,10 mm (0,037–0,043 dyum)
O't oldirish svechalarining tirqishi ishlab chiqaruvchi tomonidan o'rnatiladi. O't oldirish svechalari tirqishini sozlanishini bajarish tavsiya etilmaydi, chunki bu ularning shikastlanishini olib kelishi mumkin.		

Dvigatelning yuritma kamarini joylashishi

Agar avtomobil dizel dvigatel bilan jihozlangan bo'lsa, Duramax dizel dvigatel bo'yicha qo'shimcha qo'llanmani ko'ring.



Dvigatel hajmi 5,3 l

12 MIJOZ HAQIDA MA'LUMOT

- MIJOZ HAQIDA MA'LUMOT 12-2
- AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI YOZUVI VA MAXFIYLIK 12-2
- IZOH 12-4

MIJOZ HAQIDA MA'LUMOT

Muvofiqlik deklaratsiyasi

Barcha radar asbob-uskunalar

Bluetooth-quloqchinlar

Д-ИВРД-7429

AVTOMOBIL MA'LUMOTLARI YOZUVLARI VA MAXFIYLIK

Ushbu avtomobilda elektron bloklar o'rnatilgan, ular uning ishini alohida parametrlarini va harakatlanish va ekspluatatsiya rejimlari haqidagi ma'lumotlarni yozib boradi. Masalan, elektron bloklarning birlari parametrlarni kuzatib boradi va dvigatel va uzatmalar qutisi ishini boshqaradi, boshqa bloklar xavfsizlik yostiqlarining ishlash sharoitlarini nazorat qiladi va to'qnashuv holatida ularning ochilishiga buyruqlarni beradi. Avtomobilni boshqaruvini yengillashtiruvchi va alohida modifikatsiyalarga o'rnatiluvchi antibloklash tormoz tizimi ishini ham nazoratchi boshqaradi. Ushbu elektron bloklarning xotirasida avtoservis mutaxassislariga avtomobilga xizmat ko'rsatishni o'tkazishga yordam beruvchi yoki GM kompaniyasiga xavfsizlikni oshirish yoki funksionalni kengaytirish uchun avtomobil konstruksiyasini takomillashtirish ustida ishlashga yordam beruvchi ma'lumotlarni yozib borilishi mumkin. Ba'zi boshqaruv bloklari, shuningdek, avtomobilni ekspluatatsiya qilish rejimlari haqidagi ma'lumotlarni, masalan, yonilg'i sarflanishi yoki harakatlanishni o'rtacha tezligi haqidagi ma'lumotlarni yozib borishi mumkin. Ularda shaxsiy sozlamalar ham saqlanishi mumkin, masalan, sozlangan radiostansiyalarning chastotalari, o'rindiqlar holati va harorat (iqlim-nazorat tomonidan ta'minlab beriluvchi).

Kiberxavfsizlik

GM kompaniyasi avtomobilni qo'llash xarakteri, jumladan ekspluatatsiya rejimlari va xavfsizlik tizimlarining ishlashi haqidagi ma'lumotlarni to'plashi mumkin. Ushbu ma'lumotlar yangi mahsulotlarni va xizmatlarni ishlab chiqishga, ularning ishlashini baholash va takomillashtirish, hamda diagnostikani o'tkazishga imkon beradi. Avtomobilni elektron tizimlarini va mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini ruxsat etilmagan kirishdan yoki manipulyatsiyalardan himoyalash GM kompaniyasi uchun yuqori muhimlikka egadir. GM ruxsat etilmagan elektron kirishdan avtomobilni va uning servislarining ekotizimini himoyalashga, tarmoqlarda ziyon keltiruvchi faolliklarni aniqlashga va kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi shubhali holatlarga o'z vaqtida, muvofiqlashtirilgan va samarali harakat qilishga qaratilgan muvofiq xavfsizlik standartlariga, amaliyotlarga, tavsiyalarga va reglamentlarga amal qiladi. Axborot xavfsizligini buzilishi sizning shaxsiy xavfsizligingizga va sizni shaxsiy ma'lumotlaringizga zarar yetkazish tahdidi ostiga qo'yishi mumkin. Xavfsizlik xavf-xatarlarini pasaytirish uchun avtomobilning elektron tizimlarini avtorizatsiyalanmagan qurilmalarga yoki noma'lum, ishonch qozonmagan tarmoqlarga (Bluetooth, Wi-Fi va boshqa o'xshash texnologiyalar yordamida) ulanish kerak bo'lmaydi. Agar sizda o'z ma'lumotlaringizga yoki avtomobil ekspluatatsiyasiga nisbatan xavfsizlik tahdidi

ostiga qo'yuvchi biron bir buzilishlar sodir bo'lganligi haqida gumonlar yuzaga kelgan bo'lsa, avtomobildan foydalanishni to'xtating va o'z dileringizga murojaat qiling.

Hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatchilari

Ushbu avtomobil hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatchisi (EDR) bilan jihozlangan. Bunday qurilmaning asosiy vazifasi - avariya holatlarida, masalan. xavfsizlik yostiqlarini ishlashida yoki to'siq bilan to'qnashuvda, yuzaga kelgan holatlarda avtomobil tizimini ishini tahlil qilishga yordam beradigan ma'lumotlarni yozib boradi. Ro'yxatchi odatda 30 sekunddan oshmaydigan qisqa vaqt oralig'i davomida avtomobil harakatlanishi tezligi va xavfsizlik tizimlari ishi haqida ma'lumotlarni yozib boradi. Ushbu avtomobilda o'rnatilgan hodisalar haqida ma'lumotlar ro'yxatchisi quyidagi ma'lumotlarni yozish uchun mo'ljallangan:

- Sizning avtomobilingizni turli tizimlarining ishlashi haqidagi ma'lumotlar;
- Haydovchi va yo'lovchining xavfsizlik kamarlari taqilganligi;
- Akselerator va/yoki tormoz tepkilari qanchalik bosilganligini (agar bo'lgan bo'lsa); va
- Avtomobil qanday tezlikda harakatlanganligi.

Ushbu ma'lumotlar yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishi va avtomobilda bo'lgan yo'lovchilarning jarohatlanish holatlarini ancha samaraliroq tahlil qilishga imkon beradi.

Izoh

Ro'yxatchi faqat favqulodda holatlarda ma'lumotlarni yozib boradi. Shtatdagi holatlarda ma'lumotlar yozuvi amalga oshirilmaydi. Shaxsiy ma'lumotlar (masalan, avtomobil egasining familiyasi, ismi, jinsi, yoshi va avariya joyi) qayd etilmaydi. Shunga qaramasdan, ba'zi tashkilotlar, masalan, huquq-tartibot organlari, YTH bayonnomasida ko'rsatiluvchi avtomobil egasining shaxsiy ma'lumotlari bilan birgalikda ro'yxatchining ma'lumotlarini qo'llashi mumkin.

Ro'yxatchi tomonidan yozib boriluvchi ma'lumotlarni o'qish uchun maxsus asbob-uskunalar talab etiladi, bunda, shuningdek, avtomobilga yoki bort ro'yxatchisiga bevosita kirish zarur bo'ladi. Avtoishlab chiqaruvchisidan tashqari bort ro'yxatchisidan ma'lumotlar boshqa tashkilotlar, masalan, maxsus asbob-uskunalarga ega bo'lgan va avtomobilga va ro'yxatchiga kirish huquqiga ega bo'lgan huquq-tartibot organlari, o'qishlari mumkin.

GM kompaniyasi faqat avtoegasi yoki ijarachining, agar avtomobil ijaraga berilgan bo'lsa, roziligi bilan ma'lumotlarni o'qiydi va huquq-tartibot organlari yoki shunga o'xshash davlat xizmatlarining rasmiy so'rovlariga javoban, hamda dastlabki tergov jarayonida sud tergovida GM manfaatlarini himoyalash maqsadida va qonun bilan ruxsat etilgan chegaralarda o'qilgan ma'lumotlarni taqdim etadi. GM tomonidan to'planuvchi yoki olinuvchi ma'lumotlar, shuningdek, GM tomonidan qo'llanilishi yoki tadqiqot maqsadlarida uchinchi tomonlarga, agar bunday ma'lumotlardagi ehtiyoj tasdiqlangan va bunda ma'lumotlar xarakteri ularni muayyan avtomobil bilan yoki uning egasi bilan bog'lashga imkon bermaganida, taqdim etilishi mumkin.

IZOH